

330  
1147

33/02)

*O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining  
16-yil'igiga bag'ishlanadi.*

O'ZBEKISTON ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH  
AGENTLIGI

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI  
UNIVERSITETI

IQTISODIYOT VA BOSHQARISH  
FAKULTETI

A.M.Umarjonov

IQTISODIYOT NAZARIYASI

Ma'ruzalar matni

2574  
2062440 | O'QUV ZAVI  
TATU  
KUTUBXONASI

Toshkent 2007

Muallif: A.M. Umarjonov. "Iqtisodiyot nazariyasi".  
TATU. 398 b. Toshkent 2007

"Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan tayyorlangan ushbu ma'ruza matnini yozishda kadrlar tayyorlash milliy dasturi va oliy o'quv yurtlarida bakalavrlar tayyorlash davlat andozasining ikkinchi bosqichi talablari hisobga olingan. Har bir mavzu mazmunini yoritishda Respublika Prezidenti I.A.Karimov asarlaridan, Respublika qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlardan foydalanilgan.

Ma'ruza matni bir – biri bilan mantiqan bog'langan to'rt qismdan iborat bo'lib, ularda iqtisodiyotning umumiy asoslari, bozor iqtisodiyoti, makroiqtisodiyot va jahon xo'jaligiga oid mavzular o'rin olgan. Ayniqsa, hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyotining qonun – qoidalariga, moliya, kredit, bank va pul tizimining roliga katta e'tibor berilgan.

Ma'ruza matnida o'qitishning yangi texnologik xususiyatlari hisobga olinib, har bir mavzudan keyin asosiy tayanch tushunchalar va atamalar, takrorlash va munozara uchun savollar berilgan. hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan. Ma'ruza matni barcha yo'nalishdagi bakalavrlar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

O'z. Res. Oliy va O'rt

Maxsus ta'lim vazirligi

Boshqarma boshlig'i.

i.f.d. prof.

E.G'.Nabiyev

TATU "Iqtisodiyot nazariyasi"

Kafedra professori

i.f.d. prof.

M.T.Abdurasulov

TDIU "Iqtisodiyot nazariyasi"

Kafedra professori

i.f.d. prof.

M.Rasulov

## MUNDARIJA

|   |    |
|---|----|
| KIRISH  | 8  |
| I. BO'LIM. Iqtisodiy taraqqiyotning umumiy asoslari.  | 11 |
| 1 – Mavzu. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va bilish uslubi.   | 11 |
| 1-§. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi.  | 11 |
| 2-§. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi.  | 18 |
| 3-§. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari.  | 21 |
| 4-§. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning usullari.  | 24 |
| Adabiyotlar:  | 27 |
| 2-Mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni mazmuni, omillari va natijalari.   | 29 |
| 1-§. Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi.  | 29 |
| 2-§. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni.   | 32 |
| 3-§. Ishlab chiqarishning umumiy va oxirgi natijalari.  | 36 |
| 4-§. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi.   | 43 |
| 5-§. Ishlab chiqarishning samaradorligi va uning ko'rsatkichlari.   | 46 |
| Adabiyotlar:  | 50 |
| 3-Mavzu. Ijtimoiy iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari.   | 53 |
| 1-§. Ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari va iqtisodiy tizimlar, ularni bilishga bo'lgan turlicha yondashuvlar.    | 53 |
| 2-§. Mulchilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni.   | 60 |
| 3-§. Mulk ob'ektlari va sub'ektlari.  | 61 |
| 4-§. Mulchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni.   | 62 |
| 5-§. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish yo'llari va usullari.           | 66 |
| Adabiyotlar:  | 73 |
| 4-Mavzu. Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilinishining asosidir. | 75 |
| 1-§. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tish va uning rivojlanishi.                       | 75 |
| 2-§. Tovar va uning xususiyatlari.  | 77 |
| 3-§. Qiymat qonuni va uning vazifalari.   | 80 |
| 4-§. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari.  | 84 |
| Adabiyotlar:  | 89 |
| II-Bo'lim. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi.   | 91 |
| 5-mavzu. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari.  | 91 |
| 1-§. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari.  | 91 |
| 2-§. Bozor iqtisodiyotida resurslardan samarali foydalanish   |    |

|   |     |
|---|-----|
| muammolari.   | 93  |
| 3-§. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari.   | 97  |
| 4-§. Bozor tushunchasi va uning vazifalari.   | 99  |
| 5-§. Bozor turlari va tuzilishi.  | 103 |
| 6-§. Bozor infratuzilmasi vauningunsurlari.   | 106 |
| Adabiyotlar:  | 109 |
| <br>  |     |
| 6-Mavzu: Bozor ikgisodiyotiga o'tish davri. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari va xususiyatlari. | 111 |
| 1 -§. Utish davri tamoyillari va xususiyatlari.   | 111 |
| 2-§. Respublikada bozor islohatlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari.                                | 115 |
| 3-§. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish vazifalari.                      | 123 |
| Adabiyotlar:  | 127 |
| <br>  |     |
| 7-Mavzu. Talab va taklif nazariyasi. bozor muvozanati.  | 129 |
| 1-§. Talab tushunchasi miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar.   | 129 |
| 2-§. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni.   | 133 |
| 3-§. Talab va taklif o'rtasidagi nisbat, bozor muvozanati.  | 135 |
| 4-§. Talab va taklifning egiluvchanligi.  | 138 |
| Adabiyotlar:  | 140 |
| <br>  |     |
| 8-Mavzu. Raqobat va narxning tashkil topishi.   | 142 |
| 1-§. Raqobatning iqtisodiy mazmuni va mohiyati.   | 142 |
| 2-§. Raqobat kurashining shakl va usullari.   | 143 |
| 3-§. Monopoliya mohiyati va turlari.  | 144 |
| 4-§. Narx vositasidagi va narxsiz raqobat.  | 147 |
| 5-§. Narx, narxning tashkil topishi va vazifalari.  | 149 |
| 6-§. Narx turlari va ularning mazmuni.  | 152 |
| 7-§. O'zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi Davlatning monopoliyaga qarshi tadbirlari.              | 154 |
| Adabiyotlar:  | 158 |
| <br>  |     |
| 9-mavzu. Tadbirkorlik faoliyati va uning shakllari.   | 161 |
| 1-§. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari.  | 161 |
| 2-§. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari.  | 163 |
| 3-§. Tadbirkorlik kapitalining harakati va boskichlari.   | 167 |
| 4-§. Tadbirkorlik kapitalining aylanish Asosiy va aylanma kapital.  | 170 |
| 5-§. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va undan foydalanish samadorligi.                                     | 172 |
| Adabiyotlar:  | 179 |



|  |     |
|--|-----|
| 10-Mavzu. Ish haqi va mehnat munosabatlari.  | 181 |
| 1-§. Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Ish haqi nazariyasi.  | 181 |
| 2-§. Ish haqqini tashkil etish shakllari va tizimlari.   | 186 |
| 3-§. Mehnat munosabatlari va ularning evolyusiyasi.  | 188 |
| Adabiyotlar:   | 191 |
| 11-Mavzu. Agrar munosabatlar va agrobiznes.  | 193 |
| 1-§. Agrar munosabatlar va ularning xususiyatlari.   | 193 |
| 2-§. Renta munosabatlari. Yer rentasi shakllari.   | 196 |
| 3-§. Yer resurslari bozori. Yerning narxi.   | 204 |
| 4-§. Agrosanoat integratsiyasi.  | 206 |
| 5-§ Agrobiznes va uning turlari.   | 209 |
| Adabiyotlar:   | 213 |
| 12-Mavzu. Milliy mahsulot va uning harakat shakllari.  | 215 |
| 1-§. Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.   | 215 |
| 2-§. Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va harakat shakllari.   | 219 |
| 3-§. Milliy hisoblar tizimi va uning asosiy ko'rsatkichlari nisbati. Yalpi milliy mahsulotni hisoblash usullari.           | 222 |
| Adabiyotlar:   | 233 |
| 13-Mavzu. Iqtisodiy o'sish va milliy boylik.   | 235 |
| 1-§. Iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyot.  | 235 |
| 2-§. Iqtisodiy o'sish omillari.  | 238 |
| 3-§. Iqtisodiy o'sishning zamonaviy turi va uning xususiyatlari.   | 238 |
| 4-§. Milliy boylik va uning tarkibiy tuzilishi.  | 242 |
| Adabiyotlar:   | 245 |
| 14-Mavzu. Milliy iqtisodiyotning nisbatlari va muvozanati.   | 248 |
| 1-§. Iqtisodiy muvozanat tushunchasi va unga epishipt mexanizmlari.  | 248 |
| 2-§. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari.  | 255 |
| 3-§. Tarmoqlar ichidagi mutanosibliklar.   | 256 |
| 4-§. O'zbekistonda ishlab chiqarishni tarkibiy qayta qurish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash muammolari. | 257 |
| Adabiyotlar:   | 260 |
| 15-Mavzu. Moliya tizimi va moliyaviy siyosat.  | 262 |
| 1-§. Moliya va hozirgi zamon jamiyatining moliya tizimi.   | 262 |
| 2-§. Moliyaning mohiyati va vazifalari.  | 264 |
| 3-§. Davlat byudjetining milliy daromadni taksimlash va kayta taksimlashdagi roli.   | 267 |

|  |     |
|--|-----|
| 4-§. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari.   | 268 |
| 5-§. Soliq tizimi va uning vazifalari.   | 271 |
| 6-§. O'zbekistonda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish masalalari.                                     | 281 |
| Adabiyotlar:   | 284 |
| <br>   |     |
| 16-Mavzu. Pul kredit-bank tizimi va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli.                                      | 286 |
| 1-§. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari.   | 286 |
| 2-§. Inflyasiya, uning mohiyati, aniqlanishi va turlari.   | 289 |
| 3-§. Kredit mohiyati, manbalari va vazifalari.   | 291 |
| 4-§. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar, ularning vazifalari   | 299 |
| 5-§. O'zbekistonda milliy valyutani barqarorlashtirish vazifalari.   | 303 |
| 6-§. O'zbekistonda milliy valyutani mustaxkamlash vazifalari.  | 308 |
| Adabiyotlar:   | 311 |
| <br>   |     |
| 17-Mavzu. Bozor Iqtisodiyotini tartibga solish. Davlatning iqtisodiy roli.                                     | 314 |
| 1-§. Davlatning bozor iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli va vazifalari haqidagi nazariyalar va karashlar. | 314 |
| 2-§. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsad va vazifalari.                                  | 316 |
| 3-§. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari.  | 324 |
| Adabiyotlar:   | 328 |
| <br>   |     |
| 18-Mavzu. Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siesati.  | 330 |
| 1-§. Aholi daromadlari vauning tarkibi.  | 330 |
| 2-§. Daromadlar tengsizligi, uning va darajasini aniklash.   | 332 |
| 3-§. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi omillar.                      | 334 |
| 4-§. Davlatning ijtimoiy siyosati.   | 338 |
| 5-§. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari   | 340 |
| Adabiyotlar:   | 346 |
| <br>   |     |
| 19-Mavzu. Jahon xo'jaligi vauning rivojlanish qonuniyatlari.   | 349 |
| 1-§. Hozirgi davrda jaxon iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari.   | 349 |
| 2-§. Xalqaro iqtisodiy integrasiya va uning shakllari.   | 353 |
| 3-§. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi.  | 355 |
| 4-§. Xalqaro iqtisodiy integrasiyaning mohiyati, shakllari va ob'ektiv asoslari.                               | 357 |
| 5-§. Qiyyosiy ustunlik nazariyasi.   | 358 |
| 6-§. Jahon xo'jaligi aloqalari xalqaro tartibga solish.  | 360 |
| 7-§. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi va tashqi   |     |

|   |     |
|---|-----|
| iqqisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari.   | 363 |
| Adabiyotlar:  | 367 |
| 20-mavzu: Jahon bozori. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari.                                      | 369 |
| 1-§. Jahon bozori va xalqaro savdo.   | 369 |
| 2-§. Erkin savdo va savdo to'siqlari.   | 373 |
| 3-§. Xalqaro savdo siyosati.  | 378 |
| 4-§. Xalqaro valyuta munosabatlari va valyuta tizimlari.  | 380 |
| 5-§. Xozirgi zamon valyuta muammolari va asosiy davlatlararo valyuta moliyaviy muassasalar faoliyati. | 388 |
| Adabiyotlar:  | 392 |
| Adabiyotlar   | 394 |

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan o'zining mustaqil taraqqiyot yo'liga asoslangan holda bozor iqtisodiyotiga to'la ishonch bilan o'tib bormoqda. Prezidentimiz I. A. Karimov aytganlaridek «Siyosiy mustaqillik rivojlangan, o'zaro mutanosib, to'laqonli iqtisodiyot bilan mustahkamlanmas ekan, u bor-yo'g'i quruq, balandparvoz gaplar, soxta obro' orttirish vositasiga aylanib qolaveradi». Mustaqillikning o'tgan 14-yillik davri davomida milliy xo'jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, inqiroz holatidan chiqarildi va uning ko'pgina sohalarida barqaror o'sishga erishildi. Bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirildi, hozirgi kunda esa iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni har taraflama erkinlash-tirish amalga oshirilmoqda. Eng muhimi shu davr ichida milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi shakllanib, kishilarimiz ongiga singib bormokda.

Mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek – «Istiqloq» mafkurasi ko'p millatli O'zbekiston xalqining ezgu g'oya ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu inulishlari, xayotiy ideallarini o'zida aks ettiradi».

Bu quyilgan dastlabki qadamlarimiz natijasida shakllanib kelayotgan milliy iqtisodimiz yangi asrda biz yashamoqchi bo'lgan umumiy uyimiz, ya'ni yangilanayotgan vatanimizning hayotiy asosini, uning kelgusidagi taraqqiyot manbaini tashkil etadi.

Bunday yangilanish jarayonida biz uchun ilgari uncha tanish bo'lmagan qonun-qoidalar, tushunchalar, xo'jalik yuritish mexanizmlari, usullari, tamoyillari kirib kelmokda. Mulkdorlar, tadbirkorlar, tijoratchilar, aksionerlar, bankirlar, birja egalari va xodimlari, menejerlar, brokerlar va boshqa bozor iqtisodiyoti amaliyotchilaridan iborat yangi ijtimoiy guruh va qatlamlar shakllanmokda.

Lekin Prezidentimiz I. A. Karimovning asarlaridan, nutqlari va turli yig'ilishlarda qilgan ma'ruzalaridan bizga shu narsa ma'lum bo'lib turibdiki, erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda bugungi kunda o'z echimini topmagan muammolar, hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalar ham mavjud Ko'pgina korxonalarining zarar ko'rib ishlayotganligi, ularning moliyaviy ahvoli qiyinlashib, bankrotga uchrayotganligi, mayda va o'rta tadbirkorlarning, mulkdorlar sinfining sekin shakllanayotganligi, qishloqda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish qiyinchiliklari, tovar, xizmat hamda kapital eksportining sekin o'sayotganligi va boshqalar shular jumlasidandir.

Agar oldimizda «Milliy boylarning ko'payishini, Respublikaning mustaqilligini, odamlarning munosib turmush va ish sharoitlarini ta'minlaydigan qudratli, barqaror va jo'shqin rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etish» kabi buyuk vazifa turganligini, bunday iqtisodiyot I. Karimov aytganlaridek strategik maqsadimiz bo'lgan huqu-qiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning asosi ekanligini e'tiborga olsak iqtisodiy muammolarimiz naqadar

ko'pligi va murakkabligi yanada ayon bo'ladi.

Ana shu va boshqa muhim iqtisodiy masalalarni tezroq hal qilish, ularning echimini izlab topish, milliy istiqbol mafkurasining mazmuni-ni va xususiyatlarini tushunish ko'p jihatdan kishilarning iqtisodiyot sirlarini, ayniqsa, bozor va bozor iqtisodiyoti munosabatlarining mazmuni-ni, ularning talabari va xususiyatlarini, qonun-qoidalarini, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsadi va mohiyatini chuqurroq, bilishlariga bog'liqdir. Iqtisodiyot nazariyasi fani iqtisodiyot tushunchalarini, uning qonun-qoidalarini, tejimli xo'jalik yuritish sirlarini, turli kishilar va xo'jaliklarning bir-birlari bilan manfaatli iqtisodiy aloqada bo'lib, unumli mehnat qilish yo'llarining shakllarini o'rgatadi. Iqtisodiyot nazariyasi fani mamlakatimizda yashayotgan hamma kishilarning daromadlari, ularning turmush darajasi faqat milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga bog'liqligini, shu yurtda mehnat qilayotgan kishilarning ijodiy mehnati bilan vujudga kelgan milliy mahsulotning ko'payishi, uning to'g'ri taqsimlanishi va foydalanilishi, milliy pul qarorligi bilan bog'liqligini ham o'rgatadi hamda milliy istiqbol mafkurasining odamlar ongida shakllanishida, ularning intellektual kamolotga erishuvi-da muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi kunda, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini va umuman hozirgi zamon xo'jaligini faqat Farbda mavjud bo'lgan, lekin bizning iqtisodiy hayotimizdan ancha uzoq iqtisodiy nazariyalar bilan izohlab bo'lmaydi. SHuningdek, bizning iqtisodiy tafakkur tariximizda uzoq vaqt hukmron bo'lgan, iqtisodiy hodisalarni asosan sinfiy nuqtai nazardan va sinfiy kurash jihatlaridan olib qaragan, iqtisodiy taraqqiyotning umuminsoniy tomonlarini keyingi o'ringa surgan aqida va qoidalariga asoslanib ham bozor xo'jaligi va hozirgi zamon iqtisodidagi bir qator hodisalarni izohlab bo'lmaydi.

SHuni hisobga olib, mazkur iqtisodiyot nazariyasi kursiga bizga azaldan meros bo'lib kelgan nazariy qarashlarni, Farbda va SHarqda mavjud bo'lgan hozirgi zamon nazariyalarining biz uchun zarur deb hisoblanganlarini, jahonga mashhur alloma, davlat arbobi bo'lgan o'tmishdagi vatandosh-larimiz fikrlarini, islom dunyosidagi ba'zi asarlarda bayon etilgan iqtisodiy qoidalarni tanqidiy o'rganib, sintez qilish va ularning maqbul mag'izlarini olib kiritishga harakat qilindi. Bunda, birinchi navbatda, umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olindi va unga birmuncha ustuvorlik berildi.

Biz bozor iqtisodiyotiga kirib kelayotganligimizni, bu sharoitda yashashimiz, faoliyat ko'rsatishimiz, iqtisodiy munosabatda bo'lishimizni hisobga olib, bozor iqtisodiyoti muammolarini, uning sabab-oqibatlarini, qonun-qoidalarini, tushunchalarini, ularning bizning sharoitimizda qay darajada, qanday shaklda amal qilayotganligini batafsilroq yoritishga harakat qildik. Ushbu ma'ruza matnida iqtisodiy jarayonlarning faqatgina yuzaki, ko'rinib turgan tomonlarigagina emas, balki ularning ichki mohiyati, ziddiyatlari va bog'lanishlariga, iqtisodiy taraqqiyotning muammolari, ayniqsa, Prezidentimiz kitoblarida, ma'ruza va nutqlarida, qabul qilingan qonun va qarorlarda bayon etilgan tamoyillar, xususiyatlar ham qamrab olindi hamda nazariyani amaliyotga yaqinlashtirish maqsadida bozor iqtisodiyotining ko'pgina umumiy qonun-qoidalari bevosita O'zbekiston hayoti

misolida yoritildi.

Asosiy iqtisodiy tushunchalarni soddaroq qilib, oddiy tilda, misollar, jadvallar, grafiklar asosida tushuntirishga harakat qilindi.

Ushbu ma'ruza matni yangi andoza talablari bo'yicha tuzildi va Respublika muvofiqlashtirish komissiyasi tavsiya etgan dastur asosida yozildi. Unda dasturdagi barcha mavzular qamrab olingan. Lekin, hajmi cheklangan bo'lganligi uchun ko'pgina materiallar iloji boricha qisqartirib berildi.

Ma'ruza matnida o'qitishning yangi texnologik xususiyatlar har bir mavzudan keyin asosiy tayanch tushunchalar va atamalar, takrorlash va muno-zara uchun savollar berildi, mavzuning oxirida esa asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

## I BO'LIM

Iqtisodiy taraqqiyotning umumiy asoslari.

1-Mavzu.

4 soat.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va bilish uslubi.

Kirish.

Reja:

1. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi.
2. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi.
3. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari
4. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar
5. Iqtisodiy jarayonning ilmiy bilish uslublari

### Kirish

Bu mavzuda insoniyat jamiyati taraqqiyotining asosi bo'lgan iqtisodiyot tushunchasini, uning oldida turgan vazifalarni, uzoq davr davomida iqtisodiy bilimlarning shakllanishi va iqtisodiyot nazariyasi fanining vujudga kelishini qisqacha tavsiflash bilan boshlanadi. Iqtisodiyot nazariyasi fanidagi asosiy oqimlar va nazariyalarning umumiy bayoni qisqacha beriladi. Bu erda iqtisodiyot va uning bosh masalasi, iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti, vazifalari va boshqa iqtisodiy fanlar ichida tutgan o'rini ko'rsatib berish bilan birga iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar hamda ularning amal qilish mexanizmini yoritib berishga alohida o'rin beriladi.

Bu bob iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilish usullarining mazmunini ochib berish bilan yakunlanadi.

### 1-§. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi

Iqtisodiyot nazariyasi fanini, uning qonun-qoidalarini bilish uchun, eng avvalo, iqtisodiyotning o'zi nima, uning vazifasi nimalardan iborat, degan savolga javob berish lozimdir. Insoniyat hayoti va uning taraqqiyoti juda murakkab, ko'p qirrali va g'oyat chigal muammolarga bo'ydir. Bu muammolar kishilarning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, fan, madaniyat, siyosat, mafkura, axloq, davlatni boshqarish sohalaridagi va nihoyat, oiladagi va boshqa faoliyat turlarining borgan sari ko'payib, rivojlanib hamda ularning o'zgarib borishi natijasida vujudga keladi. Uzoq davrlar davomida insoniyat fikrini band qilib kelgan ayrim masalalar bugungi kunda oddiy haqiqat va oson bilish mumkin bo'lgan narsaga o'xshab ko'rinadi.

Masalan, bugun hammaga ma'lumki, kishilar yashashlari, siyosat, san'at, adabiyot, fan, ma'rifat, madaniyat, ta'lim bilan shug'ullanishlari uchun hayotiy ne'matlarni iste'mol qilishlari, kiyinishlari kerak. Buning uchun esa oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va turli xizmatlardan iborat hayotiy vositalar zarur. Har bir

kishi, o'zining kundalik hayotida bir qancha muam-molarga, ya'ni hayotiy ehtiyojlari—kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-ro'zg'or buyumlari, bilim olish kabi ehtiyojlar uchun zarur bo'lgan pul daromadla-rini qaerdan, nima hisobiga topish kerak degan muammolarga duch keladi.

SHu muammolarni echish va o'z talablarini qondirish maqsadida kishilar turli yo'nalishlarda, sohalarda faoliyat ko'rsatadilar. Demak, insonning turli faoliyatlari ichida eng asosiysi, insoniyatning yashashi va uning kamol topishini ta'minlaydigani moddiy va ma'naviy ne'natlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lgan iqtisodiy faoliyatdir.

**CHeklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilar-ning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ish-lab chiqarish va iste'molchilarga etkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlarni yaxlit qilib, bir so'z bilan, iqtisodiy faoliyat deb ataladi.**

Qadimda iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli uy xo'jaligi tarzida bo'lgan. Lekin, hozirgi davrda iqtisodiyot faqat uy yoki individual xo'jalikdan iborat emas, balki yirik xususiy xo'jalik, jamoa, hissadorlik, jamiyatlari davlat xo'jaliklaridan, moliya va bank tizimlaridan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporasiyalar, konsermlar, qo'shma korxonalar, davlatlar o'rtasidagi turli iqtisodiy aloqalardan iborat bo'lib, juda murakkab soha hisoblanadi. Buning ustiga barcha resurs-larimiz-pul mablag'lari, tabiiy boyliklar, malakali ishchi kuchlari- hamma-si cheksiz emas. Mana shu cheklangan resurslardan oqilona foydalanib, aholining to'xtovsiz o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish, unga eng kam resurs sarflab, ko'p samaraga erishish, resurslar va mahsulotlarni to'g'ri taqsimlash yo'llarini topish iqtisodiyotning asosiy mazmunidir.

Tarixiy taraqqiyot darajasiga qarab, turli davrlarda va turli mamlakatlarda iqtisodiyot turlicha bo'lishi mumkin. Hozirgacha iqtisodiyot-ning bir necha turi ma'lum:

1. An'anaviy iqtisodiyot;
2. Ma'muriy bu yruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot;
3. Bozor iqtisodiyoti.

Qamrov darajasiga qarab ham iqtisodiyot turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, jahon iqtisodiyoti, mamlakat iqtisodiyoti, milliy iqtisodiyot, tarmoq iqtisodiyoti, funksional iqtisodiyot, mintaqa iqtisodiyoti; korxonalar yoki firma iqtisodiyoti, oila iqtisodiyoti.

**Ba'zan ularni yaxlitlashurib, makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot deb ataladi.** Iqtisodiyotning bu turlari, darajalari, shakllari qanday bo'lishidan qat'iy nazar ularning hammasi bir maqsadga bo'ysungan: u ham bo'lsa insoniyatning yashashi, ko'payishi va kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berish, turli xil hayotiy vositalarni yaratib, ularning ehtiyojlarini qondirib borishdan iboratdir. SHunday ekan, **iqtisodiyot inson hayotining asosini, uning poydevorini tashkil etib, uning o'zi ham insonsiz, uning faoliyatsiz mavjud bo'lmaydi va mazmunga ham ega emas.** Insonning iqtisodiyotdagi juda katta va keng rolini qisqacha qilib quyidagicha ko'rsatish mumkin:



1. Inson tabiatning bir bo'lagi, uning ajralmas qismi sifatida harakat qiladi, tabiat ashyolarining shaklini o'zgartirib, iste'molga yaroqli holga keltiradi, boshqacha qilib aytganda, inson iqtisodiyotning harakatga keltiruvchi kuchi, hamma tovar va xizmatlarining iste'molchisi, ularning ishlab chiqaruvchisi va yaratuvchisidir.

2. Inson hamma tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchidan iste'mol-chilarga etkazib beruvchi, bozor iqtisodiyoti sharoitida esa sotuvchisi rolini bajaradi. Bunda u ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi aloqaning bajaruvchisi sifatida namoyon bo'ladi.

3. Inson tovar va xizmatlarning sotib oluvchisi va binobarin, ularning iste'molchisi hamdir.

4. Inson iqtisodiyotning hamma darajalarida uning tashkilotchisi, boshqaruvchisi bo'lib, uning turli omillari, bo'laklari, sohalari o'rtasidagi uyg'unlikni, aloqalarni bir-biriga moslikni ta'minlovchi sifatida harakat qiladi. Insonning iqtisodiyotdagi roli uning hayotining turli davrlarida va bosqichlarida turlicha namoyon bo'ladi. U yoshligida va qariganida ko'proq iste'molchi bo'lib, ya'ni boshqalar yaratgan tovarlar va xizmatlardan foydalanuvchi sifatida ko'zga tashlansa, ishlab turgan davrida ishlab chiqaruvchi, tashkilotchi, boshqaruvchi sifatida ish ko'radi, o'zi uchun, bolalarga va qariyalarga hayotiy ne'matlarni yaratadi va etkazib beradi. Sodda qilib aytganda, inson mehnat qobiliyatiga ega bo'lib, ishlab turgan vaqtida yoshlikda olgan qarzini uzadi, o'zini-o'zi ta'minlaydi, qarigan chog'i uchun zamin tayyorlaydi va yosh avlodga qarz beradi. Insoniyatning iqtisodiyotdagi roli uning tabiatdagi eng oliy tirik mavjudot ekanligi bilan, ya'ni, ongli ravishda ma'lum maqsadga qarata ijodiy mehnat qila olish qobiliyati bilan belgilanadi. Insonning boshqa tirik mavjudotlardan farqi ham uning ongli va ijodiy mehnat qila olishida, o'z faoliyati uchun zaruriy mehnat qurollarini yaratish qobiliyatiga egaligidadir.

Inson tomonidan yaratilgan tovarlar va xizmatlarning, resurslarning harakati bo'yicha iqtisodiyot turli fazalardan-ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarining birligidan iboratdir. Bularning ichida eng asosiysi va boshlang'ichi ishlab chiqarish jarayonidir. Chunki hamma tovar va xizmatlar xuddi shu bosqichda yaratiladi. Agar ishlab chiqarilmasa, taqsimlanadigan, ayirboshlanadigan va nihoyat, iste'mol qilinadigan narsalar bo'lmaydi (ishlab chiqarish nima va qanday sodir bo'lishi haqida keyingi mavzuda so'z boradi).

**Ikkinchi muhim faza esa taqsimot jarayonidir.** Bu bosqichda, eng avvalo, ishlab chiqarish vositalari kapital va ishchi kuchi, tovar va xizmatlarning alohida turlari, ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, sohalar, hududlar va nihoyat, korxonalar o'rtasida taqsimlanadi. Undan tashqari, ishlab chiqarish natijasi bo'lgan tovar va xizmatlar, ularning pul holiday ko'rinishi bo'lgan daromadlar ham taqsimlanadi. Bunda ishlab chiqarish qanchalik rivojlangan bo'lsa taqsimlanadigan tovar va xizmatlar hajmi, binobarin daromadlar hajmi ham shuncha katta bo'ladi hamda daromadlar kishilarning qilgan mehnatining miqdori va sifatiga yoki qo'shgan kapitalining (pul, ishlab chiqarish vositalarining) miqdoriga qarab ular o'rtasida taqsimlanadi. Taqsimot qancha adolatli va to'g'ri bo'lsa, ishlab chiqarishning yuksalishiga shuncha ijobiy ta'sir ko'rsatadi, uni rag'batlantiradi yoki aksincha.


**Ayirboshlash jarayoni-iqtisodiyotning muhim fazasidir.** Mehnat taqsimoti oqibatida ayrim guruh kishilar tovar va xizmatlarning ba'zi turlarini ishlab chiqarishga, etkazib berishga ixtisoslashadilar, ayrim guruhlari esa boshqa turdagi tovarlarni ishlab chiqarish, etkazib berish bo'yicha ixtisoslashadilar. Har bir tovar turini ishlab chiqaruvchi o'z tovarini sotib, o'ziga kerakli bo'lgan boshqa tovar yoki xizmatlarni sotib oladi. Natijada turli xil yo'nalishdagi ishlab chiqaruvchilar yoki xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida iqtisodiy aloqa – ayirboshlash, pul orqali oldi-sotdi sodir bo'ladi.

**Iqtisodiyotning oxirgi fazasi iste'mol jarayonidir.** Bu jarayonda tovarlar va xizmatlar turli kishilar, guruhlar tomonidan iste'mol qilinib, ularning ehtiyojlarini qondiradilar. Iste'mol ikki xil bo'ladi: ishlab chiqarish iste'moli va shaxsiy iste'mol. Ishlab chiqarish iste'molida ishlab chiqarish vositalari (kapital) va ishchi kuchidan foydalanilib, unumli iste'mol qilinadi. SHaxsiy iste'mol jarayonida esa iste'mol buyumlari pirovard foydalanilib, ular yo'qotiladi va o'miga yana yangisini ishlab chiqarish zaruriyati paydo bo'ladi.

SHunday qilib, tovar va xizmatlar, resurslar harakati doimo to'xtovsiz takrorlanib turadigan jarayondir. Bu jarayonni ushbu chizmada tushunish osonroq bo'ladi.

Iqtisodiyotning doimiy va bosh muammosi ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligidir.

Bu muammoni to'g'ri tushunish uchun, eng avvalo, ehtiyoj nimaligini, uning turlarini bilish zarurdir



### ***1-chizma. Tovarlar, xizmatlar va resurslarning takror ishlab chiqarish jarayonlaridagi harakati***

YUqorida aytib o'tganimizdek, inson yashamog'i uchun, eng avvalo, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, uy-ro'zg'or buyumlari, transport hamda isitish va yoritish vositalari zarurdir. Bundan tashqari, inson kamol topmog'i uchun o'qib, bilim olishi, kasb o'rganishi, malaka egallashi va davolanishi, dam olishi, tomoshalar ko'rishi, turli xizmatlardan foydalanishi va boshqa juda ko'p hayotiy narsalarga ehtiyojmanddir. Insonning yashashi va kamol topishi, umuman insoniyatning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyati iqtisodiyot nazariyasi fanida ehtiyoj deb ataladi.

Barcha hayotiy ehtiyojlar (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy, siyosiy ehtiyojlar) ichida ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar alohida o'rin tutadi. Bu ehtiyojlar kishilarning yashashi, mehnat qilishi va hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlardan

hamda xizmatlardan iborat bo'ladi. SHu jihatdan olganda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni o'z ichiga oladi. Moddiy ehtiyojlar, bu avvalo, kishilarning o'zlariga foydali bo'lgan ne'matlarni xarid qilish va foydalanishga bo'lgan xohishlaridir. Bular iste'mol uchun zarur bo'lgan ko'plab hayotiy predmetlarni (oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy) va zeb-ziynat buyumlarini (taqinchoq, atir-upa, engil avtomobil va h. k.) o'z ichiga oladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, bir necha yil oldin zeb-ziynat buyumi dabdaba bo'lib hisoblangan narsa endi eng oddiy hayotiy zarur predmetga aylanishi mumkin. Xizmatlar ham moddiy ne'matlar kabi ma'lum ehtiyojlarni qondiradi. Masalan, shaxsiy avtomashinani remont qildirish, soch oldirish, huquqshunos maslahatidan foydalanish kabi xizmatlar moddiy tovarlar bilan bir qatorda kishilarning ehtiyojlarini qondiradi.

Jamiyatning moddiy ehtiyojlari korxonalar va davlat muassasalari ehtiyojlarini ham o'z ichiga oladi. Korxonalariga ishlab chiqarish maqsadlarini amalga oshirish, ya'ni tovarlar ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi kerak. Davlat jamoa va xususiy korxonalar mamlakat aholisining umumiy ehtiyojlarini aks ettirib, avtomobil va temir yo'llari, maktablar, kasalxonalar qurilishiga harakat qiladi.

Ma'naviy ehtiyojlar moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan kishilarning bilim va dam olish, madaniy saviyasini oshirish, malaka-mahoratga ega bo'lish, har xil tomoshalar ko'rish kabi ko'plab ehtiyojlarni o'z ichiga oladi. Ehtiyojlar yakka tarzda va birgalikda qondirilishi mumkin. Bu esa ehtiyojning xarakteriga va uni qondiruvchi ob'ektlar xususiyatiga bog'liq. SHunday buyum va xizmat turlari borki, ulardan faqat birgalikda foydalanish mumkin. Masalan, ta'lim olish binolari, kasalxonalardan, dam olish joylaridan bahramand bo'lish, sport o'yinlari va ko'ngil ochar tomoshalarni birgalikda ko'rish kabilar shular jumlasidandir.

Jamiyat ehtiyojlariga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular quyidagilar:

a) Jamiyatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi. Iqtisodiyoti rivojlanishdan orqada qolgan mamlakatlarda ehtiyojlar doirasi tor va past bo'ladi. Aksincha, iqtisodiyoti gurrurab rivojlangan mamlakatlarda ehtiyojlar doirasi keng va xilma-xil bo'ladi.

b) Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum. Agar jamiyatdagi tuzum bozor iqtisodiyoti yoki kapitalistik prinsiplar asosida qurilgan bo'lsa, undagi ijtimoiy guruhlar boylar va kambag'allar, mulkdor va mulksizlarga bo'linib, ularga mansub kishilar ehtiyojlari o'rtasida katta farq mavjud bo'ladi. YUqori daromad oluvchilar juda sifatli noyob mahsulotlar va xizmatlarga ehtiyoj bildirsa, kambag'allarning ehtiyojlari o'z hayotini saqlash uchun juda zarur mahsulotlar va xizmatlar bilanina cheklanadi.

v) Tabiiy — geografik sharoitlar. Ular ham ehtiyojlarning miqdori va turiga ta'sir qiluvchi omillardir. Nisbatan sovuq iqlim sharoitida, issiq iqlim sharoitiga qaraganda hayot kechirish uchun oqsil va yog'ga boy oziq-ovqat, issiq kiyim — kechak, uy va transport vositalariga ko'proq ehtiyoj bo'ladi.

g) Tarixiy-milliy an'analar va urf-odatlar ham ehtiyojlarga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, tarixan shakllangan milliy va diniy marosimlar, urf-odatlar, Navro'z bayrami, ro'za va hayitlar o'ziga xos ehtiyojlarni yuzaga keltiradi.

d) Aholi sonining o'sishi, uning tarkibidagi o'zgarishlar ham ehtiyojlarga ta'sir etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

e) Nihoyat, xalqaro, davlatlar, millatlar va mintaqalar o'rtasidagi aloqalar, ayniqsa, ular o'rtasidagi mahsulot va axborot ayirboshlash yangi ehtiyojlarning keng tarqalishiga olib keladi.

Alohida kishilarning ehtiyojlari ularning yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, kasbi, mehnatning xarakteri kabi omillarga bog'liq. Masalan, keksa kishilar yoshlardan farq qilib, engil hazm bo'ladigan ovqatga, dori-darmonga, shovqin-suronsiz yashash muhitiga ko'proq ehtiyoj sezadilar. Ko'p bolali oilalarda bolalar kiyimi, o'yinchoqlarga ehtiyoj bo'lsa, farzandsiz oilalarda bunday ehtiyojlar bo'lmaydi. Alohida kishilar ehtiyojlariga kuchli ta'sir qiluvchi omillar shundan iboratki, murakkab, og'ir va engil mehnat turlari bilan shug'ullanuvchi kishilar ehtiyojlari bir-biridan tubdan farq qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy, shu jumladan, moddiy ehtiyojlarni to'liq qondirish mumkin emas. Jamiyatda har bir ma'lum davrda ko'plab qondirilmagan ehtiyojlar bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan yangi buyumlarning paydo bo'lishi, keng reklamaning ta'siri va savdoning rag'batlantirishi natijasida ehtiyojlar o'zgaradi va ko'payib boradi. SHunday ekan, jamiyatning, ya'ni uni tashkil qiluvchi shaxslar, muassasa va korxonalarining ehtiyojlari cheksizligi, ularning to'xtovsiz yangilanib va o'sib borishi tabiiydir. Bu ehtiyojlarning to'xtovsiz o'sib borishi iqtisodiy qonunda o'z ifodasini topadi. Bunday qonun nafaqat ehtiyojlarning miqdoran o'sib borishini, balki ularning tarkibi bilan yangilanib turishini, eskilarining o'miga yangilarining kelishini bildiradi. Ehtiyojlarning o'sib borish qonuni ishlab chiqarish bilan ehtiyojlar o'rtasidagi uzviy to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni aks ettiradi. Ishlab chiqarish ehtiyojlarni qondirishga qaratiladi va uning rivojlanishi yangi ehtiyojlarni yuzaga keltiradi. Ishlab chiqarish baynalminal tus olishi bilan ishlab chiqarish va ehtiyoj o'rtasidagi bog'liqlik xalqaro miqyosda aks etadi. Ma'lum bir mamlakatda paydo bo'lgan ehtiyoj boshqalariga tarqalib, xalqaro xarakterga ega bo'ladi. Masalan, kompyuter bir mamlakatda paydo bo'lib, tez orada unga ehtiyoj dunyo miqyosida tarqaldi. Xalqaro aloqalar rivojlanib borgan sari ehtiyojlarning milliy xususiyatlari bilan bir qatorda uning millatlararo, baynalminal belgilari rivoj topib boradi.

Ehtiyojlarning o'zi ham bir-birini taqozo qiladi. Bir ehtiyoj o'z orqasidan boshqa bir ehtiyojni keltirib chiqaradi. Masalan, kompyuter texnikasiga ehtiyojning paydo bo'lishi, o'z navbatida uni ishlatishni o'rganish, unga xizmat ko'rsatish, dastur tuzish kabi ehtiyojlarni keltirib chiqaradi.

Ehtiyojlarning o'sib borishi bir tekis, uzluksiz bo'lmaydi. Uning o'sishiga qarshi ta'sir qiluvchi omillar ham mavjud bo'ladi. Ishlab chiqarish holati, jamiyatdagi hukmron munosabatlar, favqulodda yuz beradigan holatlar (urushlar, iqtisodiy tizim almashishi) va tabiiy ofatlar: zilzila, suv toshqini, yong'in kabilar ehtiyojlarning o'sib borishiga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi omillardir. SHunday qilib, ehtiyojlarning o'sib borishi qonuni mavjud ehtiyojlarning miqdoran o'sib borishida, mutlaqo yangi ehtiyojlarning paydo bo'lishida, muayyan ehtiyojlar doirasida turli ehtiyojlar nisbatining o'zgarishida va bir ehtiyojning boshqasi bilan almashinishida namoyon

bo'ladi. Ehtiyojlarning o'sib borishi, uni qondirish vositalari darajasi bilan chegaralanadi. Chunki ehtiyojlar cheksiz o'zgargani holda uni ta'minlash uchun kerak bo'ladigan iqtisodiy resurslar cheklangan bo'ladi. Iqtisodiy resurslar deganda jamiyat, mamlakat, ayrim korxonalar va firma, oila ixtiyorida to'plangan va ayni vaqtda mavjud bo'lgan va tovar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ularni iste'molchiga etkazib berishda va iste'mol jarayonlarida foydalanish mumkin bo'lgan imkoniyatlar, qo'r-putlar va manbalar tushuniladi. Tabiiy resurslar (er, suv, o'rmon, er osti boyliklari), ishchi kuchi resurslari, moddiy resurslar (binolar, stanoklar, mashinalar, asbob-uskunalar, inshtroo'tlar, qurilmalar, sotishga tayyor tovarlar, ularning qo'r-putlari, pul mablag'lari va boshqalari) ana shular jumlasidandir. Iqtisodiy resurslarning ishlab chiqarish omillaridan farqi shundaki, bunda ularga ishlab chiqarishda qatnashadigan ishchi kuchi, tabiiy resurslar va ishlab chiqarish vositalaridan tashqari hamma moddiy resurslar, tovar va pul resurslari kiradi. Iqtisodiy resurslar cheklanganligi tufayli hamma odamlar xohlagan iste'mol buyumlarini, transport vositalarini va boshqa narsalarni darhol sotib olo olmaydi va xohlaganicha iste'mol qila olmaydi. Har bir kishi, hatto eng ko'zga ko'ringan davlat arbobi, sahna yoki sport yulduzi ham bu muammoga duch keladi. Resurslar cheklanganligi faqatgina iste'molni emas, shu bilan birga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni ham cheklab qo'yadi. Buning natijasida har bir korxonalar, mamlakat o'z imkoniyatlarini hisobga olib, tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning hamma turini birdaniga emas, uning shu davr uchun eng kerakli bo'lgan sohalarni tanlab kengaytirish va rivojlantirishga e'tibor beradi, resurslarni birinchi navbatda ularga jalb qiladi. Masalan, O'zbekiston endi mustaqillikka erishgan dastlabki paytda respublikamizning energiya mustaqilligini ta'minlash uchun neft qazib olish va gaz kondensati ishlab chiqarishga nisbatan qo'proq mablag' ajratishga majbur bo'ldi.


Ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida Davlat mavjud pul va valyuta zahiralarni chetdan iste'mol buyumlarini sotib olib kelishga emas, ularni cheklab, investisiya tovarlarini, ya'ni yangi texnika va texnologiyalarni sotib olib kelishga qaratadi. Bunday ayrim sohalarga e'tibor va mablag' sarflash kuchaytirilgan sharoitda boshqa sohalarga ajratiladigan mablag'larni ob'ektiv ravishda nisbatan kamaytirishga to'g'ri keladi.

SHunday qilib, resurslarning cheklanganligi ehtiyojni qondirishning muhim yo'li bo'lgan ishlab chiqarish imkoniyatlarini ham cheklab qo'yadi. Bu imkoniyatlar darajasi doimo bir xil bo'lib tummaydi, balki yangi texnikalar va texnologiyalarning yaratilishi va ishga solinishi ishlab chiqarish imkoniyatlarini, uning chegaralarini kengaytirish imkonini beradi. YAngi texnikalar va texnologiyalar, bir tomondan, mehnat unumdorligini, ekinlar hosildorligini oshirish, energiya, yonilg'i, mehnat va boshqa moddiy resurslarni tejash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, yangi material, xom ashyo, energiya va boshqa resurslar manbalarini topib, hayotga jalb etish imkonini beradi: jumladan, eming chuqur qatlamlaridagi boyliklarni topish va ishga tushirish, jahon okeanining uzoq va chuqur joylaridagi resurslardan foydalanish, quyosn energiyasidan foydalanish va h. k. Iqtisodiy resurslar, ishlab chiqarish va

10'000 ZALI

TATU  
KUTUBXONASI

ehtiyajlarni qondirish darajasi o'rtasidagi doimiy va mustahkam aloqadorlikni quyidagicha ifodalash mumkin:



**2-chizma.** Iqtisodiy resurslar va ehtiyajlarning qondirilishi darajasi o'rtasidagi bog'liqlik

Cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, ishlab chiqarish imkoniyatlarini va binobarin ehtiyajlarni qondirishning darajasini oshirish zarurligi iqtisodiyot oldiga quyidagi muammolarni qo'yadi.

1. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning optimal variantlarini (eng zarur va tejamli turlarini) tanlab olish va resurslarni ko'proq ishlab chiqarishga jalb qilish;
2. Mavjud resurslarning har bir birligidan tejab-tergab, samarali foydalanish;
3. Fan- texnika yutuqlarini va yangi texnologiyalarni joriy qilib, yangi energiya, material, xom-ashyo turlari, ularning manbalarini topib, foydalanishga jalb qilish, resurslar unumdorligining oshishiga erishish;

Bu muammolarni hal qilish zaruriyati kishilardan chuqur iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishni taqozo qiladi.

## 2.§ Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi

Iqtisodiy hayot sirlarini bilish va shu yo'ldagi faoliyatning asosiy yo'nalishlarini aniqlashga intilish juda qadim zamonlardan mavjud bo'lib, bu intilish iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, uni kishilarga kerak bo'lgan tomonga yunaldirishga ijobiy ta'sir etish zaruriyatidan kelib chiqqan.

Iqtisodiyotga oid bilimlar antik dunyoning ko'zga ko'ringan olimlari Ksenofont, Platon, Aristotel asarlarida, shuningdek Qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo olimlarining asarlarida qarab chiqilgan edi.

Biz uzoqqa bormasdan ming yillar osha bizga etib kelgan Qur'oni Karimni, hadislarni, Qobusnomani, bobolarimiz Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek asarlarini o'qir ekanmiz ularda insonning yashashi uchun tabiat ehsonlarini o'zlashtirish uchun ijodiy mehnat qilish kerakligi qayta-qayta uqtilganligiga yana bir karra amin bo'lamiz.

SHunisi muhimki, ular hech bir inson o'zi uchun zarur bo'lgan iste'mol buyumlarining barchasini o'zi yaratolmasligini, shuning uchun bir-biri bilan iqtisodiy aloqada, munosabatda bo'lishlari ob'ektiv zaruriyat ekanligini ham qayd qilganlar.

Bundan tashqari ularning asarlarida doimo xo'jaliklarning barcha turlarida (uy, shahar, davlat) daromad bilan harajat muvozanatiga katta e'tibor berish lozimligi, pulning mazmuni va uning kelib chiqish sabablari yoritilgan.

Lekin Aristoteldan boshlab butun dunyoning, jumladan, O'rta Osiyoning ko'pgina olimlari iqtisodiyotni izchil o'rganish asosida uning ko'pgina qonun-

qoidalarini, tushunchalarini yoritib bergan bo'lsalar ham, hali iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida shakllanmagan edi.

Iqtisodiyot nazariyasi mustaqil fan sifatida ko'pgina mamlakatlarda milliy bozor shakllangan va jahon bozori vujudga kelayotgan davrlarda "siyosiy iqtisod" nomi bilan shakllana boshladi.

Siyosiy iqtisod grekcha so'zdan olingan bo'lib "politiko" ijtimoiy, "oy kos" - uy, uy xo'jaligi, "nomos" - qonun degani.

YA'ni uy yoki ijtimoiy xo'jalik qonunlari ma'nosini beradi.

1575-1621 yillarda yashab, ijod qilgan fransuz iqtisodchisi Antuan Monkreten birinchi marta 1615 yilda "Siyosiy iqtisod traktati" nomli kichik ilmiy asar yozib, bu fanni mamlakat miqyosida iqtisodiyotni boshqarish fani sifatida asosladi. Keyinchalik klassik iqtisodchilar bu fikrni tasdiqlab, siyosiy iqtisod keng ma'noda moddiy hayotiy vositalarini ishlab chiqarish va ayirboshlashni boshqaruvchi qonunlar to'g'risidagi fandir deb yozgan edilar.

Iqtisodiyot nazariyasi fani shakllanishi jarayonida bir qancha g'oyaviy oqimlar, maktablar vujudga kelgan. Ular jamiyat boyligining manbai nima, u qaerda va qanday qilib ko'payadi, degan savollarga javob topishga urinishgan. Bunday iqtisodiy oqimlardan dastlabkisi "merkantelizm", deb atalgan. Bu oqim tarafdorlari odamlarning, jamiyatning boyligi puldan, oltindan iborat boylik savdoda, asosan tashqi savdoda-muomala jarayonida paydo bo'ladi, ko'payadi, savdoda band bo'lgan mehnat unumli mehnat, boshqa mehnatlar esa unumsizdir, deb tushuntirib keldilar. Keyinchalik ayirboshlash, ya'ni savdo jarayonida hech qanday boylik yaratilmasligi, qiymatning ko'paymasligi ma'lum bo'lib qoldi. Faqat ayirboshlashning ekvalentlik tartibi, ya'ni teng mehnatga teng boylik muvozanati buzilgan taqdirda boylik birovlar foydasiga qayta taqsimlanadi, natijada kimdir boyib, kimdir xonavayron bo'lib boradi.

Keyingi oqim "fiziokratlar" deb atalgan. Ular merkantelistlardan farqli o'laroq boylik qishloq xo'jaligida yaratiladi va ko'payadi, degan g'oyani olg'a surdilar. Ularning vakili bo'lgan F.Kene tomonidan mashhur jadval ishlab chiqildi. Keyinchalik iqtisod fanining klassik maktabi namoyondalari bo'lmish A.Smidt, U.Petti, D.Rikardo kabi atoqli iqtisodchi olimlar boylik faqatgina qishloq xo'jaligidagina emas, balki shu bilan birga sanoat, transport, qurilish va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarida ham yaratilishini isbotlab berdilar va hamma boylkning onasi - er, otasi mehnat, degan qat'iy ilmiy xulosaga keldilar. SHuni aytish kerakki, A.Smitning "ko'rinnas qo'l" tamoyili hozirgi kunda juda ko'p tilga olinmoqda. U o'zining "Halqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot" (1776 y.) degan kitobida insonni faollashtiradigan asosiy rag'bat shaxsiy manfaatdir deb ko'rsatadi. Inson o'z shaxsiy manfaatini amalga oshirishga, ya'ni foyda olishga intilib, mehnat taqsimoti sharoitida qandaydir tovar yoki xizmat turini yaratadi, boshqalarga etkazib beradi, o'z kapitalini ko'paytiradi va shu intilishda o'zi bilmagan holda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi deb tushuntiradi. U kapital, mehnat, tovar, ishchi kuchi va boshqa resurslarning erkin harakatini ta'minlash tamoyilini ilgari suradi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining rivojlanishida Sismondning ham muhim hissasi bordir. U kapitalistik iqtisodiy mexanizmni tanqid qilib, siyosiy iqtisod inson baxti yo'lidagi ijtimoiy mexanizmni takomillashtirishga qaratilgan fan bo'lmog'i lozim deb ko'rsatadi. Kapitalizmning iqtisodiy tuzumini tanqid qilish bilan bir qatorda undan ko'ra progressiv bo'lgan jamiyat qurish g'oyasi Sen-Simon, SHarl Fure, Robert Owen kabi sosial utopistlar tomonidan ilgari surilgan edi. Ular xususiy mulkni qattiq tanqid qilib, uni tugatish tarafdori edilar. Ulardan keyin marksizm deb nomlangan nazariy yo'nalish o'zlarining nazariyasida jamiyat taraqqiyotiga tabiiy-tarixiy jarayon deb qarab, ijtimoiy iqtisodiy formasialar, ularning iqtisodiy tuzumi, tarkibiy qismlari, vujudga kelish, rivojlanish va boshqasi bilan almashish sabablari to'g'risidagi ta'limotni hamda qo'shimcha qiymat nazariyasini yaratdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab "marjinalizm" deb atalgan oqim vujudga kelib shakllana boshladi. U inglizcha so'zdan olingan bo'lib, oxirgi, qo'shilgan degan ma'noni beradi. Uning asoschilari Avstriya iqtisodiy maktabining namoyondalari (Karl Menger, Fridrix fon Vizer, Bem Bavrek va boshqalar) bo'lib, ular tomonidan qo'shilgan tovar nafliligining, qo'shilgan mehnat yoki resurs unumdorligining pasayib borish qonuni degan nazariyalar ishlab chiqildi. Marjinalizm nazariyasi aniq olingan tovarga bo'lgan talab va uning bahosi o'rtasidagi bog'liqlik va o'zaro ta'sirini tahlil qilishda keng qo'llanildi. Iqtisodiyot nazariyasining yangi yo'nalishi neoklassik, ya'ni yangi klassik deb nom oldi. Bu nazariyaning yirik namoyondalaridan biri A. Marshall bo'lib, u iqtisodiy jarayonning funksional bog'lanishi va funksional nisbatlarini ishlab chiqishga harakat qildi, bozor muvozanatini va bahosini aniqlovchi omillar talab va taklifdan iborat deb qaradi. Bu nazariy yo'nalishning namoyondalaridan biri SHveysariya iqtisodchisi L. Valras bo'lib, u umumiy iqtisodiy muvozanat modelining nusxasini ishlab chiqishga harakat qildi.

Avstriya iqtisodiy maktabining namoyondasi Y. SHumpetter 1912 yilda yozgan "Iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi" deb atalgan kitobida iqtisodiy tizimlar o'zgarishining ichki kuchlarini, ularning ichki mazmunini va turtki beruvchi kuchini ko'rsatishga harakat qildi hamda u iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch tadbirkorlik degan xulosaga keldi.

1936 yilda ingliz iqtisodchisi Jon Keyns o'zining "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" degan kitobida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar: milliy daromad, kapital xarajatlar, iste'mol va jamg'arishning o'zaro bog'liqligini tahlil qilib, investisiya va iste'molning eng maqsadga muvofiq tarzda tashkil topishi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili deb ko'rsatadi. Keyns ta'limoti ta'sirida iqtisodiyotda makroiqtisodiy tahlil yo'lga qo'yildi. U davlatning iqtisodiyotni boshqarishda faol qatnashishi zarurligini isbotladi.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri monetarizm deb ataladi. Uning asoschilaridan biri amerikalik iqtisodchi Milton Fridmen bo'lib, uning tadqiqoti negizida iqtisodiyotni barqaror qilishda pul omili asosiy rol o'ynaydi, degan g'oya yotadi.

Amerikalik olim Vasiliy Leontev esa "xarajat - natija" deb atalmish iqtisodiy



andozaning asoschisidir.

Hozirgi paytda marjinalizm, monetarizm, keynschilik va boshqa qatop yo'nalishdagi iqtisodiy nazariyalar yig'indisi "Ekonomike" nomli kitobda mujassamlashgan bo'lib, u AQSH, An gliya va boshqa qator mamlakatlarda darslik sifatida o'tiladi. Rus tiliga tarjima qilinib, bizga ma'lum bo'lgan P. Samuelson, R. Makkonell va L. Bryularning kitoblari uning namunalariidir.

Hozirgi paytda bu yo'nalishdagi fan mamlakatimiz va boshqa qator MDH davlatlarida "Iqtisodiyot nazariyasi" deb atala boshlandi.

"Iqtisodiyot nazariyasi" fan sifatida shakllanguncha bosib o'tgan yo'l va unda vujudga kelgan g'oyalar, oqimlar juda murakkab, ko'pincha bir-biriga zid va qarama-qarshidir. SHunday bo'lsa-da, ular bir birini to'ldiradi, iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning ichki ziddiyatlarini, qonunlarini ma'lum darajada umumlashtirib ifodalaydi, hamda yaxlit fan sifatida o'rganiladi.

### 3-§. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari

Iqtisodiyot nazariyasi fani ijtimoiy fan bo'lib, falsafa, sosiologiya, psixologiya, huquq, siyosatshunoslik, tarix kabi ijurnoiy fanlar bilan ham chambarchas bog'liqdir, ulardan uslubiy va ilmiy ozuqa oladi va ularga ham manba bo'lib xizmat qiladi. Lekin ularning hech biri iqtisodiyot nazariyasi fanining o'mini bosolmaydi, bu fanning o'z vazifasi va predmeti bor.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmetini aniqlashni turli nazariy qarashlarni o'rganib, sintez qilishdan boshlasak ma'qul bo'lar deb hisoblaymiz.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nima? Bu fan asosan nimani tadqiq qilib, odamlarga nimani o'rgatadi? – degan savolning echimi juda murakkab bo'lib, bu haqda o'tmishda ham, hozir ham turli olimlar har xil fikrlar bildirib kelmoqdalar.

Masalan, Aristotel bu fanni uy xo'jaligini boshqarish qonunlari to'g'risidagi fan deb qaragan bo'lsa, merkantelistlar, fiziokratlar va ingliz klassik iqtisodiy maktabi vakillari unga boylik to'g'risidagi, uning manbalari va ko'paytirish yo'llari, boylikni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish to'g'risidagi fan deb qaradilar. Keyingi paytda mazkur fanni xalq xo'jaligi, ijtimoiy xo'jalik to'g'risidagi fan deb ham hisoblamoqdalar. Ayrimlar iqtisodiyot nazariyasi fanini moddiy hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni boshqarish qonunlari to'g'risidagi fan deb ko'rsatadilar. A. Marshal esa iqtisodiyot nazariyasi (siyosiy iqtisod) fanining predmeti insoniyat, jamiyatning normal hayotiy faoliyatini tadqiq qilishdan iborat deb yozadi.

Iqtisodiyot nazariyasi fani siyosiy iqtisod nomi bilan yuritilgan davrda qator darsliklarda va ayrim asarlarda uning predmeti moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida sodir bo'ladigan munosabatlarni o'rganishdan iborat deb ko'rsatilgan edi.

AQSHdan, boshqa ba'zi bir mamlakatlardan kirib kelgan «Ekonomiks» darsliklarida (iqtisodiyot nazariyasi «Ekonomiks» deb yuritilgan darsliklarda) bu fanning predmeti kishilarning moddiy talablarini to'laroq qondirish maqsadida

cheklangan resurslardan samarali foydalanish muammolarini tahlil qilish, kishilarning iqtisodiy xulq-atvorini o'rganishdan iborat deb ko'rsatilgan.

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan davrda Rossiya Federasiyasining turli shaharlarida chiqarilayotgan iqtisodiyot nazariyasi darsliklarida bu fanning predmeti bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan ta'riflar berilmoqda.

Masalan, iqtisod fanlari doktorlari, professorlar L.S. Tarasevich va A.I. Dobrininlar boshchiligida chiqarilgan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida bu fan «Rasional xo'jalik yuritish tizimining tarkibiy evolyusiyasini, haqiqiy boylikni va jamiyatning ayrim a'zolari va guruhlarining farovonligi, iqtisodiy o'sishning omillari va qonuniyatlarini o'rganadi», deb ko'rsatilgan.

Akademiklar G.P. Juravleva va V.I. Vidyapinlar boshchiligida chiqarilgan «Umumiy iqtisodiyot nazariyasi» nomli darslikda professor A.I. Dobrininning fikriga asoslangan holda: «Umumiy iqtisodiyot nazariyasi ijtimoiy fan bo'lib, u cheklangan resurslar sharoitida ehtiyojlarni qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarida kishilar va guruhlarning xulq-atvorini o'rganadi», deyilgan.

Prof. V.D. Kamaev boshchiligidagi mualliflar tomonidan yozilgan «Iqtisodiyot nazariyasi asoslari bo'yicha darslik» degan kitobda iqtisodiyot fanining predmeti cheklangan resurslar dunyosida ne'matlarni ishlab chiqarishdagi kishilarning xulq-atvori va uni boshqarishni o'rganishdan iborat deb ta'kidlanadi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti to'g'risida bildirilgan bu barcha fikrlardan ko'rinib turibdiki, siyosiy iqtisodga doir darslik va boshqa kitoblarda ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida sodir bo'ladigan munosabatlarni o'rganishga alohida e'tibor berilgan bo'lsa, «Ekonomiks»da va Rossiyada bozor iqtisodiyotiga doir chiqarilgan darsliklarning ko'pchiligida asosan kishilarning resurslarga, moddiy ashyo va buyumlarga bo'lgan munosabatini, xatti-harakatini o'rganishga, cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanishlariga alohida e'tibor berilgan.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyot nazariyasi fani masalaning u tomonini ham, bu tomonini ham chetda qoldirmasligi, masalaga bir tomonlama yondoshuvga yo'l qo'yimasligi lozim. Chunki har qanday mehnat, har qanday ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, eng avvalo, tabiat ashyolari, moddiy vositalar, pul mablag'lari orqali amalga oshiriladi va ulardan foydalaniladi. Shuning uchun mavjud resurslarga, ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga, ulardan unumli foydalanishga bo'lgan munosabat, ishlab chiqarish omillarining o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirida o'rganilishi lozim. Boshqa tarafdin, hech qanday mehnat yoki ishlab chiqarish alohida olingan kishi yoki guruh tomonidan, boshqalar bilan aloqalarsiz, munosabatsiz amalga oshirilmaydi. Ular ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida bir-birlari bilan albatta o'zaro munosabatda bo'ladilar va shu munosabatga qarab harakat qiladilar, o'z xulq-atvorlarini, xatti-harakatlarini belgilaydilar. Demak, iqtisodiyot nazariyasi fani shu munosabatlarning ikki tomonini qamrab olgan bo'lishi, ularni o'rganishi lozim. Bundan tashqari mazkur munosabatlar, xatti-harakatlar ishlab chiqarish jarayonining o'zidagina emas, balki

takror ishlab chiqarishning barcha fazalarida ishlab chiqarish, pul orqali ayirboshlash (sotib olish, sotish), taqsimlash va foydalanish, ya'ni iste'mol qilish jarayonlarida ham sodir bo'ladi. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmetini aniqlashda shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, iqtisodiyotning ko'pgina tomonlari aniq iqtisodiy fanlar tomonidan, ya'ni sanoat iqtisodiyoti, savdo iqtisodiyoti, agroiqtisodiyot va agrobiznes, iqtisodiy axborot, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, menejment kabi fanlar tomonidan o'rganiladi.

Iqtisodiyotning ayrim tomonlari esa moliya, soliq va soliqa tortish, kredit, pul muomalasi, bank ishi, bojxona ishi, statistika, ekonometrika, tashqi iqtisodiy aloqalar, buxgalteriya hisobi, xo'jalik faoliyati tahlili kabi fanlarda o'rganiladi.

Iqtisodiyot nazariyasi bu fanlar bilan chambarchas bog'liq holda amal qiladi, ulardan ayrim aniq tomonlarni oladi, o'rganadi. Lekin iqtisodiyot nazariyasi fani aniq iqtisodiy fanlarning nazariy asosi, ya'ni poydevori hisoblanadi, ularga uslubiy, nazariy yo'nalish beradi. Ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan ilmiy tushunchalarni, qonun-qoidalarni, iqtisodiyotning turli tarmoqlari, sohalari, tomonlari o'rtasidagi aloqadorlikni va o'zaro ta'sirini o'rganadi va aniqlab beradi.

Mana shularni hisobga olib, **iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti — iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qonun — qoidalarini o'rganishdan iborat, deb aytish mumkin.**

Iqtisodiyot nazariyasi fani iqtisodiy munosabatlarning turli shart-sharoitlarda, zamon va makonda shaklan va mazmunan o'zgaruvchanligini, ularni ifoda etuvchi ilmiy tushunchalar, qonun-qoidalarining ham o'zgarib turishini, ularning doimo harakatda, rivojlanishda bo'lishini o'rganadi. Bundan tashqari, iqtisodiyot nazariyasi turli iqtisodiy voqea — hodisalar va jarayonlarning mazmuni hamda mohiyatini o'rganibgina qolmay, ularning o'zaro aloqadorligini, bir-biriga ta'sirini ham tahlil qiladi.

Iqtisodiyot nazariyasi o'rganishi lozim bo'lgan muhim yo'nalishlardan biri cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanish, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish va boshqarish, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning omillari, qonuniyatlari va yo'llarini o'rganish va ko'rsatib berishdan iboratdir. Bu esa fanning predmeti, uning maqsadi va vazifalarida yanada oydinroq ko'rinadi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining maqsadi va vazifasini ikki tomonlama, ya'ni ham amaliy va ham nazariy tomonlarini tushuntirish mumkin.

Amaliy iqtisodiyotning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishni ta'minlash va shu asosda o'sib boruvchi ehtiyojlarni qondira borishdan iborat. Uning vazifasi shu maqsaddan kelib chiqib, cheklangan turli xil resurslardan samarali foydalanib, uning har bir birligi evaziga ko'proq tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash, har bir faoliyat turi bo'yicha xarajatlar miqdori bilan erishilgan samara, ya'ni tovar va xizmatlar miqdorini taqqoslash, resurslardan unumliroq foydalanish yo'llarini topishdan iboratdir. Bundan tashqari, iqtisodiyot nazariyasi aholini ish bilan

ta'minlash, pulning qadrsizlanishi oldini olish, aholini ijtimoiy himoya qilish yo'llarini ko'rsatib berish lozim. Iqtisodiyot nazariyasi fani makroiqtisodiyot darajasida tahlil qilib, uning sohalari, ko'rsatkichlari, omillari o'rtasidagi bog'lanishlarni, iqtisodiy o'sish yo'llarini aniqlab ko'rsatadi va davlatning ichki va tashqi iqtisodiy siyosatida ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotning nazariy maqsadi esa, eng avvalo, ilmiy bilishdan iboratdir. SHundan kelib chiqadiki, iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni kuzatish, ulardagi shakl va mazmun o'zgarishlarini, ichki bog'lanish va aloqalarni, ziddiyatlarni, qonun-qoidlarni, tushunchalarni bilib, birinchi navbatda, talabalarga, iqtisodchi mutaxassislarga va iqtisodiyot bilan qiziquvchi boshqa xodimlarga o'rgatishdan iboratdir.

Iqtisodiyot nazariyasining biz qayd qilgan amaliy va nazariy tomonlari bir – biri bilan chambarchas bog'liqdir. Amaliy iqtisodiyot nazariy bilimga ega bo'lishni, u bilan qurollanish zaruriyatini taqozo etadi. Nazariy bilim esa oldindan ko'ra bilish va amaliy harakat yo'lini to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Umuman olganda, iqtisodiyot nazariyasi fani iqtisodiy jarayonlar, voqea va hodisalar sirini bilishda ilmiy qo'llanmadir.

Iqtisodiyot nazariyasi fani «Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish...» vazifasini ham bajaradiki, bu iqtisodiyotni isloh qilish sohasidagi strategik maqsadlardan biri hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun Iqtisodiyot nazariyasi fani Prezidentimiz I.A. Karimovning so'zlagan nutq va ma'ruzalarida, asarlarida ko'rsatib berilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri prinsiplarini, o'tishning o'ziga xos yo'lini, o'zining iqtisodiy qonunlarini, yo'l-yo'riqlarini, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan qarorlar asosida mamlakatimiz oldida turgan iqtisodiy muammolar va vazifalarning chuqur tahlilini, uni echish yo'llarini yoritmog'i, o'tish davri iqtisodiyotning xususiyatlari, ko'p ukladli iqtisodning, turli shakldagi mulkchilikning vujudga kelish yo'llari, usullarini ko'rsatib bermog'i lozim.

#### 4-§. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning usullari

Haqiqiy fanning amalda vujudga kelishi faqatgina tadqiqot predmetining shakllanishi bilan emas, shu bilan birga uning bilish usulining qaror topishi bilan ham bog'liqdir. Uslubiyat — bu ilmiy bilishning prinsiplar tizimi, yo'llari, qonun-qoidalari va aniq hadislaridir. Bu ob'ektiv reallikni bilish dialektikasi, mantiqi va nazariyasini o'z ichiga oluvchi bir butun ta'limotdir. Uslubiyat umumilmiiy xarakterga ega, lekin har bir fan o'zining predmetidan kelib chiqib, o'zining ilmiy bilish usullariga ega bo'ladi. SHuning uchun uslubiyat umumilmiiy va ayni vaqtda xususiy bo'ladi.

Dialektik usul prinsiplari ilmiy bilishning umumiy usuli bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyot nazariyasida qo'llaniladigan bu prinsiplar quyidagilardir:

- Iqtisodiyot bir-biri bilan aloqada, chambarchas bog'liqlikda, ziddiyatda, o'zaro ta'sir qilib turadigan turli bo'g'inlardan, bo'laklardan iborat yaxlit bir jarayonki, u

doimo harakatda, rivojlanishda, mazmun va shakl jihatdan o'zgarib turadigan ichki va tashqi hodisalar bilan aloqada bo'ladi.

- Iqtisodiy jarayonning har bir bo'lagini alohida olib, uning o'ziga xos xususiyatlarini, kelib chiqish va yo'q bo'lish sabablari va oqibatlarini, uning ijobiy va salbiy jihatlarini, ichki va tashqi aloqadorlik va bog'liqlik tomonlarini zamon va makonda o'rganish. Bu erda shu narsani hisobga olmoq lozimki, biron-bir iqtisodiy hodisa o'zi bir jarayonning oqibati, natijasi bo'lgani holda, boshqa bir iqtisodiy jarayonga sabab yoki omil bo'lishi mumkin. Masalan, mashina, stanok, asbob-uskunalar bir ishlab chiqarish jarayonining oqibati, natijasi bo'lgani holda ikkinchi ishlab chiqarish jarayonining omili, sababi bo'lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar taqsimot va iste'mol sohalarida o'zgarish bo'lishiga, qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar esa sanoatda o'zgarish bo'lishiga turtki bo'ladi, va h. k.

- Iqtisodiy jarayonlarni oddiydan murakkabgacha, pastdan yuqorigacha rivojlanishida deb qarash. Bu erda son jihatidan o'zgarishlar to'plana borib, sifat jihatidan o'zgarishga olib kelishini hisobga olish zarur.

- Ichki qarama-qarshiliklar birligiga va ularning o'zaro kurashiga rivojlanishning manbai deb yondashish.

Iqtisodiy faoliyatlar, hodisa va jarayonlar tabiiy, moddiy, shaxsiy omillar va pul mablag'lari kabi omillarga tayangan holda kechadi, bu omillar o'zaro chambarchas bog'liq hamda ziddiyatda bo'ladi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi, ular doimo sifat va miqdor jihatdan o'zgarib turadi, turli davrlarda turlicha ijtimoiy shaklga ega bo'ladi, eski iqtisodiy qonunlar, tushunchalar o'rmiga yangilari paydo bo'ladi. Ana shular hisobga olinsa, bu fan uchun dialektik prinsiplarni qo'llashning qanchalik zarurligi va muhimligi darhol namoyon bo'ladi.

Dialektik dunyoqarash — bu qadimgi yunon falsafasidan boshlab to hozirgacha butun kishilik jamiyati ma'naviy taraqqiyoti tarixida inson aql-idroki erishgan buyuk yutuqdir. Dialektik uslubiyatning mohiyati o'rganilayotgan jarayonning ichki ziddiyatlar tufayli o'z-o'zidan harakatda bo'lishini tushuntirishdan iborat va bu narsa har qanday haqiqiy faniga, jumladan iqtisodiyot nazariyasi faniga ham taaluqlidir.

Shu bilan birga, iqtisodiyot nazariyasi fanining o'ziga xos tadqiqot usullari ham mavjuddir, ulardan eng muhimi ilmiy abstraksiya usulidir. Iqtisodiy jarayonlarning mohiyati o'zgarishini o'rganishda mikroskoplardan, kimyoviy laboratoriyalardan foydalanib bo'lmaydi, bunda abstraksiya kuchi ishga solinadi.

Ilmiy abstraksiya usuli — tahlil paytida xalal berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali narsalar, voqea-hodisalarni fikrdan chetlashtirib, o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tiborni qaratishdir. Bu usul yordamida o'rganilayotgan voqea va hodisaning ichki, ko'zga ko'rinmaydigan mohiyati, uning asl mazmuni bilib olinadi.

Tahlil va sintez usuli. Tahlil — bu o'rganilayotgan bir butunni alohida qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish. Sintez — bu o'rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab umumiy xulosa chiqarishdir. Murakkab iqtisodiy tizimlar ana shu yo'l bilan o'rganiladi, iqtisodiy tizim butunicha tasvirlab beriladi.

**Mantiqiylik va tarixiylikning birligi usuli.** Iqtisodiyot nazariyasida tarixiylik dalili tarixiy rivojlanish nuqtai-nazaridan tadqiqot olib borish zarurligini taqozo qiladi. Chunki iqtisodiy jarayonlar tarixiy jarayon sifatida rivojlanadi. Mantiqiylik usulida jarayonlar faqatgina tarixiy nuqtai-nazardan emas, shu bilan birga asosiy ichki zarur qonuniy bog'lanishlar bo'yicha ham tahlil qilinadi.

Foydalanilayotgan usullar ichida **eksperiment** ma'lum o'rin egallaydi, iqtisodiy o'sishning keskin o'zgarishi bosqichlarida, jumladan iqtisodiyotning inqiroz va beqarorlik bosqichlarida eksperimentdan keng foydalaniladi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish paytida eksperiment alohida o'ringa ega. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish, ya'ni ilmiy tajriba, eksperiment o'tkazish hisob-kitob vositasiga asoslanish va ilmiy yo'nalishlarni ishlab chiqish talab etiladi.

**Makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tahlilni qo'shib olib borish.** Mikroiqtisodiy tahlilda iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini bo'lmish korxon va firmalarning ichki jarayonlarini alohida iqtisodiy sub'ektlarning xatti-harakati, xulqi tadqiq qilinadi. Bu tahlilda alohida olingan tovarlarning xarajatlarini, kapital va boshqa resurslardan foydalanishning, baho tashkil topishining, ish haqi to'lashning, talab va taklif tarkib topishining shakli va mexanizmlarini o'rganish markaziy o'rin tutadi.

**Makroiqtisodiy tahlil makromutanosiblikni ta'minlash asosida milliy iqtisodiyotning to'raligicha faoliyat qilishi tadqiqoti bilan shug'ullanadi.** Milliy mahsulot, bahoning umumiy darajasi, inflyatsiya, ishchi kuchining ish bilan bandligi masalalari bu tahlil ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot o'zaro bog'langan va bir-biri bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi.

Iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy jihatdan tahlil qilishda taqqoslash, statistik, matematik va grafik usullaridan keng foydalaniladi. Ayniqsa, hozirgi davrda grafik usulni keng o'zlashtirish va qo'llash zarurdir. Grafiklar nazariya modellarini ifodalashda vositachi bo'lib xizmat qiladi. Aniqroq qilib aytganda, grafik usul o'zgaruvchi miqdorlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rgazmali qilib tasvirlaydi.

Bu usullar yordamida iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning mazmunini, ulardagi o'zgarishlarni, kelib chiqish sabab-oqibatlarini bilish mumkin bo'ladi.

## **Asosiy tayanch tushunchalar**

**Iqtisodiyot** — cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, insonlar uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va etkazib berishga qaratilgan va chambarchas bog'liqlikda amal qiladigan faoliyatlar birligidir.

**Ehtiyoj** — insonlarning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyatdir.

**Iqtisodiy resurslar** — ma'lum davrda ma'lum bir mamlakat ixtiyorida to'plangan va mavjud bo'lgan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ularni iste'molchilarga etkazib berish va iste'mol jarayonlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar, qo'riq-qlar, imkoniyatlar va manbalardir.

**Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti** – iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va ulardan foydalanish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlari tizimini, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qonun – qoidalarini o'rganishdan iboratdir.

**Uslubiyat** – iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning prinsiplari, yo'llari, qonun – qoidalari, aniq hadislari tizimidir.

**Ilmiy abstraksiya** – iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishda qo'llaniladigan usullardan biri bo'lib, tahlil paytida halaqit beruvchi ikkinchi darajali voqea – hodisalarni e'tibordan chetlashtirib, asosiy o'rganilayotgan hodisaning asl mohiyatiga fikri qaratishdir.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Iqtisodiyot tushunchasi va uning bosh masalasi nima?
2. Ehtiyoj nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
3. Iqtisodiy resurs tushunchasiga va uning turlariga ta'rif bering.
4. Nima uchun hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va etkazib berish insonning turli xil faoliyatlarida eng asosiy hisoblanadi?
5. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat? U boshqa iqtisodiy fanlar ichida qanday o'rin tutadi?
6. Iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda qanday usullardan foydalaniladi?
7. Makroiqtisodiy tahlil bilan mikroiqtisodiy tahlil o'rtasidagi farq nimadan iborat?

### **Adabiyotlar:**

1. Kari mov I. A. «Bizning bosh maksadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir», «O'zbekiston» 2005.
2. Kari mov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz.; T. «O'zbekiston», 2000y.
3. Kari mov I.A. O'zbeki ston buyuk kelajak sari. — T.; «O'zbekiston», 1998.
4. «To'g'ridan to'g'ri xususiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel.
5. Sh. Shodmonov, R. A limov, T. Jo'raev. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T., «Moliya» nashriyoti, 2002.
6. A. Qodirov. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
7. D. Tajiboeva. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
8. Makkonel K., Bryu S. «Ekonomiks», M.2002.
9. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Rayzberga.- Uchebnik: - INFRA – M.2004.

10. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof. M. N. Chepurina. Uchebnik: - INFRA – M.2004.
11. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsh. red. akad. V. I. Vidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA – M.2004.
12. Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
13. E. F. Borisov Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
14. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
15. Ioxin V. Ya. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
16. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy. d.e.n., prof. T. V. Chechelovoy. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalq so'zi - 25 mart.
2. Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov – 2005.
3. Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. Yaxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
4. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovi ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

#### Veb-saytlar:

1. [www .Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
2. [www .IMF.org](http://www .IMF.org)
3. <http://infoteka.economics.ru>
4. [www .finansv.ru](http://www .finansv.ru)
5. [www .cer.uz/files/downloads](http://www .cer.uz/files/downloads)
6. [www .2004.press-service.uz](http://www .2004.press-service.uz)
7. [www .rea.uz](http://www .rea.uz)
8. [www .jahon.mfa.uz](http://www .jahon.mfa.uz)
9. [www .budjet.rf.ru](http://www .budjet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ruzani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof. Sh. Sh. Shodmonov, G. D. Bobabekova, G. T. Xalikva tomonidan tayyorlangan « Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v predpodovanii ekonomicheskoy teorii » T-2004, « Innovatsionnie metodi obucheniya v ekonomicheskoy obrazovanii » va Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaeva, M. T. Yaxshievlar tomonidan tayyorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.



**Ishlab chiqarish jarayoni mazmuni, omillari va natijalari**

**Kirish**

**4-soat**

**Reja:**

1. **Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi**
2. **Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni.**
3. **Ishlab chiqarishning umumiy va oxirgi natijalari.**
4. **Ishlab chiqarish imkoni yatlari va uning chegarasi.**
5. **Ishlab chiqarish samaradorligi va uning ko'rsatgichlari**

**Kirish.**

Bu mavzuda bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish omillari va ishlab chiqarish jarayoniga tegishli muammolar qarab chiqiladi. Dastlab ishlab chiqarishning omillari tavsiflanadi, ishlab chiqarishning maqsadi va mazmuni ochib beriladi, so'ngra uning natijalari va samaradorligi bilan bog'liq masalalar bayoni beriladi. Tahlilda «ishlab chiqarish imkoniyati» tushunchasiga ham o'rin ajratiladi. Bobning oxirida keyingi qo'shilgan mahsulot va uning kamayib borishi, keyingi qo'shilgan mehnat va kapital unumdorligining pasayib borishi qonunining mazmuniga tegishli marjinalistik g'oyalar bilan tanishasiz.

**1-§. Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi**

Moddiy va ma'naviy ne'matlamini yaratish, xizmatlar ko'rsatish inson hayoti, uning yashashi va kamol topishi uchun moddiy asosdir. SHuning uchun ishlab chiqarishni to'xtovsiz olib borish va rivojlantirish har doim eng muhim iqtisodiy qonuniyat va zaruriyatdir.

Har qanday jamiyatda ishlab chiqarishning amalga oshishi uchun, eng avvalo uning ro'y berishi uchun zarur bo'lgan, unda qatnashadigan omillar mavjud bo'lmoqi lozim. Iqtisodiyotning tizimi va shaklidan qat'iy nazar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning hamma sohaları uchun umumiy bo'lgan uchta omil: ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmetlari bo'lishi shart.

**Ishchi kuchi** deb insonning mehnat qilishga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yiqindisiga aytiladi. Ishchi kuchi mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan kishilar uchun xosdir. Lekin ishchi kuchi insonning o'zi emas yoki uning mehnati ham emas, uning qobiliyatidan iboratdir.

**Mehnat qurollari** deb, inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir qiladigan vositalarga aytiladi (mashinalar, stanoklar, traktorlar, qurilmalar, uskunalar va boshqalar). **Mehnat predmetlari** esa bevosita mehnat ta'sir qiladigan, ya'ni mahsulot tayyorlanadigan narsalardir (er-suv, xom ashyo va boshqa turli materiallar). **Mehnat predmetlari** tabiatda tayyor holda uchrashi mumkin yoki oldingi davrdagi mehnat mahsuloti, ya'ni xom ashyo bo'lishi

mumkin. Mehnat qurollari va mehnat predmetlari birgalikda ishlab chiqarish vositalari deb yuritiladi. Bu esa mehnat jarayonining tabiatidan kelib chiqadi; shuning uchun ham ishlab chiqarish vositalari hamma ijtimoiy-iqtisodiy formasiyalar, insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun xosdir.

Mehnat vositalarini mehnat predmetlariga ta'sir etish harakteriga ko'ra bir nechta katta guruhlarga bo'lish mumkin.

**Birinchi guruhga** mashinalar, mexanizmlar, stanoklar, uskunalar, turli xil apparatlar va boshqalardan iborat mehnat qurollarini kiritish mumkin. Ularning yordamida ishchi tabiat ashyolari va kuchlariga bevosita ta'sir qiladi va bu ashyolarni o'zining iste'moli uchun zarur bo'lgan shaklga keltiradi.

**Ikkinchi guruhga** materiallarni saqlash uchun mo'ljallangan mehnat vositalari (sisternalar, turli xil bochkalar, quvurlar, omborlar va boshqalar) kiritiladi.

**Uchinchi guruhga** ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashmaydigan mehnat vositalari kiradi. Lekin bu vositalarsiz ishlab chiqarish jarayonining amalga oshishi mumkin emas yoki to'la va samarali amalga oshmasligi mumkin. Bularga binolar, yo'llar va boshqalar misol bo'la oladi.

Hozirgi fan-texnika inqilobi davrida ishlab chiqarishning rivojlanishida mehnat predmetlarining ahamiyati oshib bormoqda. Materiallarning tabiatda tayyor holda axtaramaydigan yangi turlari yaratilmoqda. Ishlab chiqarish omillari insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun umumiy bo'lsa-da, bu omillarga turli adabiyotlarda turlicha ta'rif berishadi va ularni turlicha tushuntirishadi.

Jumladan «Siyosiy iqtisod» darsliklarida ishlab chiqarishning ikki omili: moddiy va shaxsiy omillari mavjudligi tan olinadi. Bunda mehnat qurollari va mehnat predmetlari (er-suv, er osti boyliklari kabi tabiiy boyliklar ham) ishlab chiqarish vositalari deyiladi va ishlab chiqarishning moddiy omilini tashkil etadi, ishchi kuchi esa uning shaxsiy omili deb yuritiladi. Hozirgi bozor iqtisodiga doir ko'pchilik adabiyotlarda esa ishlab chiqarishning to'rt omili: mehnat, kapital, er-suv, tadbirkorlik qobiliyati tan olinadi.

Bu erda ishchi kuchi bilan mehnat o'rtasidagi farqni anglab olish juda muhimdir. Bizga ma'lumki, mehnat turli omillarning harakat jarayonidir. Ishchi kuchi, yuqorida aytganimizdek, insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyati, uning bilim, malaka darajasi bilan birgalikda ishlab chiqarishga qatnashishiga tayyor turgan omil bo'lib xizmat qiladi, mehnat esa ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchining qo'shilishi natijasida sodir bo'ladigan va ma'lum samara olishga qaratilgan faoliyatdir.

SHuning uchun biz mehnat degan tushunchani emas, balki ishchi kuchi degan tushunchani ishlab chiqarishning omili deb bilamiz va ishlab chiqarish omillari ishchi kuchi, kapital, er-suv va tadbirkorlik qobiliyatidan iborat deb ta'kidlaymiz.

Ishchi kuchi insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yiqindisi bo'lganligi uchun bozor iqtisodiyoti davrida inson emas, mehnat jarayoni ham emas, balki ishchi kuchi sotiladi, uning bozori bo'ladi. SHuning uchun hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan mehnat bozori tushunchasi o'miga ishchi kuchi bozori, mehnat resurslari o'miga ishchi kuchi resurslari deyilsa to'g'ri bo'lar

edi. Ishchi kuchi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchdir. Chunki u hamma moddiy vositalarni va pul mablaqlarini harakatga keltiradi, ulardan unumli foydalanadi.

**Kapital** tushunchasi ham turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ko'pchilik kapital tushunchasini tarixiy tushuncha deb qarab, uning kapitalizmga xosligini isbotlaydi va kapitalni o'z egasiga qo'shimcha qiymat keltiruvchi qiymat, o'z-o'zidan ko'payuvchi, o'suvchi qiymat deb hisoblaydi. Hozirgi davrdagi ayrim qarb iqtisodchilari ham, masalan, Dj. Klark, L. Valras, I. Fisherlar kapitalni daromad keltiruvchi, foyda keltiruvchi, foiz keltiruvchi qiymat deb qaraydilar.

Qator G'arb iqtisodchilarining fikrini keltirib i. f. d. prof. V.D. Kamaev o'zining rahbarligida chiqqan darslikda ham «Haqiqatdan ham -kapital o'zidan o'zi ko'payuvchi qiymat» deb yozadi. Lekin Amerika va Evropadan kelgan «Ekonomiks» darsliklari va boshqa ayrim adabiyotlarda kapitalni hamma ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llaniladigan moddiy vositalardan, ya'ni hamma turdagi mashinalar, asbob-uskunalar, inshootlar, zavod-fabrikalar, omborlar, transport vositalari va boshqalardan iborat deb ko'rsatadi, unga pul va tovarni qo'shmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, ayrim iqtisodchilar kapitalistik iqtisodiy tuzumning sosial mohiyatini ochish uchun masalaga bir tomonlama qarab, ishlab chiqarish omillarining qiymatiga e'tiborni kuchaytirgan. G'arbdagi ayrim kasbdoshlarimiz ham kapitalni bir tomonlama, ya'ni uning qiymat tarafini e'tiborga olgan bo'lsa, boshqalari esa iqtisodiy tushunchalarning tarixiyligini e'tibordan chetda qoldirib, uning moddiy ob'ektini, narsa va hodisalarning ashyoviy tomonini ko'rsatadilar, shuning uchun ular kapitalni doimiy o'zgarmas tushuncha deb, ishlab chiqarish vositalarini kapital deb ataydilar. Biz bu ikki xil tushunchani bir tanganing ikki tomoni, bir tushunchaning, ya'ni kapital tushunchasining ikki tomoni: uning bir tomoni moddiy va ashyoviy ko'rinishi, ikkinchi tomoni esa uning qiymat ko'rinishi ekanligini e'tiborga olamiz va uni bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital deb ishlatamiz. **Biz kapital deganda o'z egalari daromad keltiradigan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning hamma sohalarida ishlatiladigan ishlab chiqarish vositalarini, sotishga tayyor turgan tovarlarni, yangi vositalar va ishchi kuchini sotib olishga mo'ljallangan pul mablaqlarini, ularning ashyoviy tomoni va qiymatining birligini tushunamiz.**

Bu erda kapital turli shaklda: pul, ishlab chiqarish vositalari, tovar va boshqa moddiy vositalar shaklida bo'lishi mumkin.

Erga hamma adabiyotlarda deyarli bir xil tushuncha beriladi, ya'ni er-suv deganda tuproq unumdorligi, o'tloqlar, yaylovlar, suv, havo, o'rmon, qazilma boyliklar, umuman tabiiy resurslar tushuniladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida katta e'tibor beriladigan omillardan biri tadbirkorlik qobiliyati.

**Tadbirkor deb, iqtisodiy resurslar: ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi resurslarining, tabiiy resurslarning bir-biriga qo'shilishini ta'minlaydigan tashkilotchi, yangilikka intiluvchi tashabbuskor, iqtisodiy va boshqa xavfdan, javobgarlikdan qo'rqmaydigan dovyurak kishilarga aytiladi; bu xislatlar esa tadbirkorlik qobiliyati deb yuritiladi. Hozirgi davrda ayrim adabiyotlarda axborot**

va uning vositalarini, ekologiyani ham alohida omil deb ko'rsatadilar. Bizning fikrimizcha ular er va kapitalda o'z ifodasini topadi. Ishlab chiqarish jarayonida biz yuqorida sanab o'tgan omillarning hammasi qatnashadi, ular bir-birini to'ldiradi, bir-biriga ta'sir qiladi. Ulardan biri bo'lmasa ishlab chiqarish bo'lmaydi yoki samarasiz bo'ladi, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Ikki yoki bir nechta ishlab chiqarish omillarining bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida vujudga kelgan mahsulot (tovar yoki xizmat) ishlab chiqarish funksiyasi deyiladi. Ishlab chiqarishning omillari doimo bir xil bo'lib turmaydi, ular sifat va miqdor jihatdan o'zgarishda, rivojlanishda bo'ladi. Ishlab chiqarish vositalari rivojlanib, borgan sari murakkab mashinalar, asbob-uskunalar, stanoklar vujudga keladi. SHuningdek ishchi kuchi ham ongi, malakasi oshgan, yangi mashinalarni yaratadigan, ulardan unumli foydalanadigan bo'lib boradi.

Ishlab chiqarish omillari bir-biriga bog'liq va o'zaro ta'sirda bo'ladi, birining o'zgarishi ikkinchisiga ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish omillarining o'zaro ta'sir usuli texnologiyada o'z ifodasini topadi. Kishilar buyumlarning ilgari ma'lum bo'lmagan xususiyatlarini anglab, tovar va xizmatlarning yangi turlarini tayyorlash sirlarini bilib oladilar, ilqor texnologiyani qo'llaydilar, yangi materiallardan, energiya turlaridan foydalanadilar. Ishlab chiqarish omillarining va texnologiyaning o'zgarishi ishlab chiqarishni tashkil etishning mazmuni va shaklining o'zgarishiga, uning takomillashuviga sabab bo'ladi.

## 2-§. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni

**Ishlab chiqarish jarayoni-bu kishilarning iste'moli uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyatidir. Moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish, turli xizmatlar ko'rsatish jarayoni kishilar faoliyatining asosiy tomoni, chunki bu jarayonda kishilar o'rtasida bo'ladigan munosabatlar boshqa hamma sohalarda-ayirboshlash, taqsimot va iste'mol sohalari da ro'y beradigan munosabatlarning xususiyatlarini va yo'nalishini belgilab beradi.**

Ma'lumki, har qanday ishlab chiqarish, birinchi navbatda, mehnat jarayonidir yoki boshqacha qilib aytganda tabiatdagi bot narsalarning ko'rinishini o'zining iste'moli uchun muvofiq holga keltirish uchun qilingan faoliyatdan iboratdir. Ana shu mehnat jarayonida kishilar, eng avvalo, tabiat bilan, uning kuchlari va ashyolari bilan hamda bir-birlari bilan o'zaro ma'lum munosabatda bo'ladilar. Ishlab chiqarish jarayonida bo'ladigan bu munosabatlarning xarakterini, shakllarini va xususiyatlarini o'rganish va ularni bilgan holda ishlab chiqarishni ongli tashkil etish oliy maqsadga, ya'ni cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanilgan holda kishilarning o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish maqsadiga erishishning birdan-bir yo'lidir. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning ichki qonuniyatlari va uning rivojlanish xususiyatlari ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan ko'rsatib berilgan. Ular mehnat kishilar yashashining umumiy asosidir deb ta'riflaydilar. Demak, mehnat iste'mol qiymatlarini yaratuvchi sifatida, foydali mehnat sifatida kishilarning yashashi uchun hech qanday ijtimoiy shakllarga

bog'liq bo'lmagan holda abadiy tabiiy zaruriyatdir, mehnat bo'lmaganda kishi bilan tabiat o'rtasida modda almashinuvi ham mumkin bo'lmas edi.

Kishilar o'zining ongli maqsadga muvofiq unumli mehnati bilan tabiat moddalarining shakllarini o'zgartiradilar va iste'moli uchun zarur bo'lgan mahsulotni vujudga keltiradilar. Mehnat jarayonida kishilar bilan tabiat o'rtasida moddalar almashinuvi bilan birga insonning o'zi ham bar tomonlama kamol topib boradi, ya'ni kishilar o'zining mehnatga bo'lgan qobiliyatini, bilimini oshiradi va ularni amalda qo'llashni kengaytirib boradi.

SHunday qilib, mehnat jarayoni iste'mol qiymatlarni vujudga keltirish uchun maqsadga muvofiq qilinadigan harakatdir, tabiat yaratgan narsalarni kishi iste'moli uchun o'zlashtirib olishdir, kishi bilan tabiat o'rtasidagi modda almashuvining umumiy shartidir, kishi hayotining abadiy tabiiy sharoitidir.

Ishlab chiqarish jarayoni insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlariga, hamma mamlakatlarga, el-yurtlarga va xalqlarga xos bo'lib, umum insoniy kategoriyadir (tushunchadir).

SHuning uchun bu jarayon uzoq tarixga ega bo'lib, oddiy tosh va yoqoch qurollardan foydalanib, eng sodda ovchilik va dehqonchilik qilishdan tortib to hozirgi zamon murakkab texnologiyasiga asoslangan robotsozlik, samolyotsozlik, kompyuter texnikalarini, zamonaviy radio va televidenie vositalarini ishlab chiqarishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Hozirgi davrda mamlakatimiz hududida bir necha yuzlab tarmoqlar va sohalarda xalqimizning iste'moli va ishlab chiqarishning o'zi uchun zarur bo'lgan iste'mol buyumlari va asbob uskunalar ishlab chiqariladi.

Ishlab chiqarishning eng yirik sohalari sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va aloqa, qurilish, savdo, tayyorlov idoralari, moddiy-texnik ta'minot, kommunal va uy-joy xo'jaliklari, turli xil xizmat ko'rsatish sohalari va boshqalardan iborat. Har bir mamlakat o'z taraqqiyotining shu davrdagi bosqichi uchun zarur va qulay bo'lgan tarmoqlar tarkibini vujudga keltirishga harakat qiladi. Bunda resurslar cheklanganligi hisobga olinib ishlab chiqarishni o'stirish va xalqning talabini qondirish uchun o'ta zarur bo'lgan, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga, chet ellar bilan bo'ladigan hamkorlikni yuksaltirishga imkon beradigan tarmoqlarga alohida e'tibor beriladi.

Turli mulk shakllarining teng huquqliligi qaror topayotgan hozirgi o'tish davrida aholiga turli xizmatlar ko'rsatish miqdori ham o'smoqda. Bu esa Respublikamiz hukumatining keyingi yillarda aholining turmush sharoitini yaxshilash uchun olib borayotgan kompleks tadbirlari /individual mehnat faoliyati, kooperasiya, ijara pudrati, er, mulk, tadbirkorlik, soliqlar to'g'risidagi qonunlar/ natijasidir.

Xo'jalik yuritishning yangi shakli va usullarining aholiga xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, turli chiqindilarni qayta ishlash usullarining iqtisodiyotimizga kirib kelishining ob'ektiv sababi mehnatkashlarni tovar va xizmatlar bilan ta'minlash sohalarini rivojlantirishdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mehnat faoliyatining muhim tomoni bo'lgan uy xo'jaligi imkoniyatlaridan foydalanish /kasanachilik, hunarmandchilik, nonvoylik, uy boqcha va yasllari ochi sh, repetitorlik, qo'shimcha dars o'tishi/ ichki

imkoniyatlardan foydalanishning munosib yo'llaridan biri hisoblanadi, chunki bu usul qo'shimcha binolar qurilishini talab qilmaydi va mablaqni tejashga imkon beradi. SHu bilan birga xizmatlar turini va miqdorini ko'paytiradi.

Ma'lumki, bizda ish vaqtining anchagina qismi uy-ro'zqor ishiga to'g'ri kelmoqda. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga qaraganda, mamlakat aholisi uy-ro'zqor ishlariga yiliga sarflagan vaqt ijtimoiy ishlab chiqarishga sarflangan ish vaqtiga qaraganda ko'proq ekan. Buning ustiga uy-ro'zqor ishlari talaygina quvvatni talab qiladi. Ushbu va shunga o'xshash boshqa misollar maishiy xizmatlar ko'rsatish sohaslarini yanada rivojlantirish, uy-ro'zqor ishlarini mexanizatsiyalash imkonini beradigan mashina va asbob-uskunalarni ko'plab ishlab chiqarishni talab etadi. Ehtiyojlar tuni qancha ko'p bo'lsa shunga binoan ishlab chiqarish tarmoq va sohalari ham kengayib boradi. Ularni o'rganish oson bo'lsin uchun ishlab chiqarish ikki katta sohaga: moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishlarga bo'linadi.

Moddiy ishlab chiqarish sohaslarida zaruriy moddiy ne'matlar yaratiladi, nomoddiy sohalarda esa turli xil ma'naviy ne'matlar yaratiladi va xizmatlar ko'rsatiladi. Bu ikki soha bir-biri bilan chambarchas bo'qlangan holda rivojlanadi

| Krsatkichlar                          | 1999          |        | 2000          |        |
|---------------------------------------|---------------|--------|---------------|--------|
|                                       | mlrd.<br>so'm | %      | mlrd.<br>so'm | %      |
| YALpi ichki mahsulot:                 | 2128, 7       | 100, 0 | 3194, 5       | 100, 0 |
| SHu jumladan:                         |               |        |               |        |
| . ishlab chiqarilgan tovarlar qiymati | 1070, 5       | 50, 2  | 1614, 2       | 50, 5  |
| . ko'rsatilgan xizmatlar qiymat       | 772, 4        | 36, 4  | 1173, 9       | 36, 8  |

va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi.

\*Manba: Sotsialno-ekonomicheskoe polojenie Respubliki Uzbekistan za 2000 god. Tashkent, 2001, 8-bet

Moddiy ishlab chiqarish sohasi o'z navbatida ikki bo'linmadan birinchi va ikkinchi bo'linmalardan iborat bo'ladi. Birinchi bo'limda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalar va tashkilotlarining ishlab chiqarish iste'moli uchun zarur bo'lgan vositalar-stanok, mashina, asbob-uskuna, xom ashyo va turli materiallar ishlab chiqariladi. Ikkinchi bo'limda esa xalq iste'moli uchun zarur bo'lgan iste'mol tovarlari ishlab chiqariladi.

Birinchi bo'limda ishlab chiqarishdan chiqqan tovarlar shu yilning o'zida ikkinchi bo'limda va xizmat ko'rsatish sohaslarida ishlab chiqarish vositasi sifatida ishlatilishi mumkin, ikkinchi bo'limda yaratilgan tovarlar va nomoddiy soha xizmatlari o'z navbatida birinchi bo'linma uchun zarurdir. SHuning uchun ular o'rtasida doimo iqtisodiy aloqalar va munosabatlar sodir bo'lib turadi.

Ammo shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish jarayoni jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun xos bo'lgan umumiy hodisa bo'lsa-da, kishilar, sohalar, korxonalar o'rtasida ma'lum shakldagi o'zaro munosabatsiz

amalga oshishi mumkin emas. SHuning uchun ishlab chiqarish jarayoni hamisha ma'lum bir ijtimoiy shaklda, ya'ni shu davrda amal qilayotgan ishlab chiqarish munosabatlariga mos holda amalga oshadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday ishlab chiqarish, bir tomondan iste'mol qiymati yaratishdir, ikkinchi tomondan, moddiy vositalar va mehnatning sarflanishi, yangi qiymatning yaratilishi, boshqacha qilib aytganda, qiymatning o'sish jarayonidir.

Har qanday mahsulot, shu jumladan bozor sharoitidagi yoki unga o'tish davridagi mehnat mahsulati ham ikki xil xususiyatga ega: iste'mol qiymatiga, ya'ni ma'lum bir nafillikka va qiymatga ega bo'lib, jonli va buyumlashgan mehnat sarfining ma'lum miqdorini o'zida mujassamlashtiradi. Bu tovarning o'zaro bog'liq va hamisha bir-birini taqozo qiladigan ikki tomonidir (bu haqda keyingi bobda batafsilroq to'xtalamiz). SHuning uchun ham ishlab chiqarish jarayoniga hamisha uning pirovard maqsadi bilan birgalikda qaraladi. Ishlab chiqarishning maqsadi cheklangan resurslardan unumli foydalanib, kishilar talabini qondirish ekan, uning samarasi tovar va xizmatlarning natural va qiymat jihatdan o'sishida ko'rinadi. SHu nuqtai nazardan olganda ishlab chiqarish jarayoni hamisha nafillikni, ya'ni iste'mol qiymatini yaratish, ko'paytirish va qiymatlarning o'sish jarayoni hisoblanadi, uning asosiy maqsadi esa, iste'mol qiymatni, ya'ni nafli tovarni yaratishdan iborat bo'ladi.

Ishlab chiqarishning cheklangan resurslardan foydalangan holda kishilar ehtiyojini qondirishga qaratilishi va shunga zarur bo'lgan sifat va miqdorda iste'mol qiymati yaratishni bosh maqsad qilib qo'yishi uning ijtimoiy yo'nalishini ifoda etadi. Lekin bu umumiy ijtimoiy yo'nalish aniq kishilarning, tadbirkorlarning qiziqishi bilan boqlanganligina amalga oshadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoki unga o'tish davrida har bir mulk egasi yoki tadbirkor ma'lum miqdorda foyda olishni, sarflangan vositalariga, pul mablaqlariga nisbatan ko'proq qiymatga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yadi. SHuning uchun ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayoni bir tomondan, iste'mol qiymatlarini yaratish jarayoni bo'lsa, ikkinchi tomondan, qiymatning o'sish jarayoni bo'lib hisoblanadi. Masalan, tadbirkor ishlab chiqarishni tashkil etish uchun har bir tonnasi 1000 so'mdan 100 tonna, hammasi bo'lib 100 ming so'mlik paxta tolasi sotib oldi deylik. U shu paxta tolasidan ip yigiradi, qo'llanilgan asosiy vositalar amortizatsiyasi, energiya va boshqa xarajatlar 20 ming so'mni, ish haqi 30 mingni tashkil etsa, 30 ming so'mlik foyda oladigan bo'lsa hammasi bo'lib yaratilgan mahsulotning summasi 180 ming so'mni, qo'shilgan qiymat 80 ming so'mni tashkil etgan bo'ladi.

Agar biz 80 ming so'mlik qo'shilgan qiymatdan 20 ming so'mni amortizatsiya, energiya va boshqalardan iborat moddiy xarajatlar, ya'ni oldindan yaratilgan qiymatlar deb qarasaq 60 ming so'mlik qiymat, ya'ni 30 ming so'mlik ish haqi va 30 ming so'mlik foyda shu ishlab chiqarish jarayonida hosil qilingan yangi qiymat hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jarayonining ikki tomonini quyidagicha ifoda etishimiz mumkin.



### 3-CHizma: Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomoni.

#### 3-§. Ishlab chiqarishning umumiy va oxirgi natijalari

Har bir korxonada yoki ishlab chiqarish o'rnida turli omillarning birgalikda ishlatilishi natijasida mahsulot, ya'ni tovar va xizmatlar vujudga keladi. Lekin bunday korxonalar soni juda ko'pdir. Masalan, 1999 yil boshida O'zbekistonda ro'yxatga olingan xo'jaliklar soni 188 mingta edi. YUzaki qaraganda har bir korxonadagi individual ishlab chiqarish bir-biridan ajralgan holda mustaqilga o'xshab ko'rinadi. Ammo xilma-xil tovarlar va resurslarning uzluksiz oqimida individual mablaqlarning harakatlari bir-biri bilan qo'shilib, o'ralib chatishib ketadi. Chunki ayrim olingan individual ishlab chiqaruvchilarning faoliyati va ayrim mablaqlar, mahsulotlarning harakati o'zaro boqlangandir. SHu sababli, individual mehnatlarning harakati qo'shilib ketishi, butun ijtimoiy ishlab chiqarishning, jami yaratilgan tovar va xizmatlarning harakatini bildiradi. Demak, **ijtimoiy ishlab chiqarish o'zaro boqlangan va aloqada bo'lgan barcha individual ishlab chiqarishlarning yiqindisidir.** Har bir individual ishlab chiqarish, uning sarmoyasi va resurslari esa ijtimoiy ishlab chiqarishning ajralmas bir bo'lagidir.

Ijtimoiy ishlab chiqarish, ya'ni turli omillarning harakati natijasida juda ko'p turdagi tovarlar va xizmatlar massasidan iborat bo'lgan **milliy mahsulot** vujudga keladi.

Ilgari mamlakat bo'yicha ishlab chiqarishda vujudga keltirilgan mahsulotlar yiqindisi **yalpi ijtimoiy mahsulot** deb atalar edi. YALpi ijtimoiy mahsulotda yil mobaynida yaratilgan moddiy ne'matlar yiqindisi hisobga olinar edi, unda xizmat ko'rsatish sohaslarida vujudga keltirilgan ma'naviy ne'matlar va xizmatlar hisobga olinmas edi. Lekin bir ishlab chiqarish sohasidan chiqqan xom ashyo, materiallar, yonilpi va energiyalarning qiymati boshqa sohalarda ishlatilib, bir necha bor takror-takror hisobga olinib, mahsulotning hajmi sun'iy ravishda oshirib ko'rsatilar edi, iste'molga borib tushadigan tayyor mahsulot esa undan bir necha barobar kam bo'lar edi.



Mana shu takror hisoblashlarga barham berish uchun hozir milliy hisob tizimiga o'tilib, endi mamlakatda vujudga keltirilgan mahsulotlar, ya'ni tovarlar va xizmatlar yiqindisi yalpi milliy mahsulot deb atala boshladi. Yalpi milliy mahsulot deb ma'lum vaqt davomida, masalan, bir yilda yaratilgan va bevosita iste'molchilarga borib etadigan barcha tayyor mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor bahosidagi qiymati tushuniladi. Milliy mahsulot moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining yillik mehnati faoliyatining umumiy samarasi bo'lib hisoblanadi. Ichki milliy mahsulot ham xuddi shu mazmunda tushuniladi.

Yalpi milliy mahsulot bilan ichki milliy mahsulotning farqi shundaki, yalpi milliy mahsulotga mamlakat ichidagi va turli mamlakatlardagi korxonalarimizda vujudga keltirilgan, qo'shma korxonalarda hissamizga (mamlakatimiz hissasiga) to'g'ri keladigan mahsulotlar kiradi.

Boshqa mamlakatlar yoki fuqarolar tomonidan bizning mamlakatimiz hududidagi qurilgan korxonalar mahsuloti, qo'shma korxonalaridagi mahsulotda ularning hissasi hisobga olinmaydi. Ichki milliy mahsulotda esa mamlakat hududida ishlab chiqarilgan hamma mahsulot va xizmatlar (boshqa mamlakatlar korxonalari, qo'shma korxonalarida yaratilgan hamma tovar va xizmatlar qo'shib) hisobga olinadi. Hozirgi paytda O'zbekistonda ko'proq ichki milliy mahsulot hisobga olinmoqda. SHuning uchun biz endi ichki milliy mahsulot to'g'risida gap yuritamiz.

Mulkdorlar hamda ishchilar o'zlariga kerak bo'lgan iste'mol buyumlarini qaerdan oladilar? Ikkinchidan, ishlab chiqarishni takror olib borish va kengaytirish uchun ular ishlab chiqarish vositalarini qaerdan oladilar? Uchinchidan, ishlab chiqarilgan mahsulotning qaysi qismi mulkdor, tadbirkor va davlatning ehtiyojlarini qaysi qismi ishchi va xizmatchilarning ehtiyojlarini qondira oladilar?, degan savollar tuqiladi. Bu masalani hal etish uchun ichki milliy mahsulotning tarkibiy qismlarini bilish va tahlil qilish lozimdir. CHunki ichki milliy mahsulotning har bir tarkibiy qismi ishlab chiqarishning muhim samarasi bo'lib hisoblanadi.

Jami ijtimoiy mahsulot bilan yalpi yoki ichki milliy mahsulot o'rtasidagi farqni aniq tushunish uchun quyidagi misolni keltiramiz.

Ishlab chiqarilgan milliy mahsulotning tuzilishi (raqamlar ixtiyoriy olingan).

**Jadval 1**

| Sotib olingan xom ashyo, yonil'gi, materiallar | Qo'shilgan qiymat |          |  |       | Ichki milliy mahsulot | Jami ijtimoiy mahsulot |
|--|-------------------|----------|--|-------|-----------------------|------------------------|
|  | Amartizasiya      | Ish haqi | To'langan soliqlar va to'lovlar (bahoga qo'yiladi-gar qismi) | Foyda |                       |                        |
|  |                   |          |  |       |                       |                        |

|                       | Iste'mol qilingan ishlat chiqarish vositalari(s) |    | Zaruriy mahsulot (V) | Qo'shimcha mahsulot (m) |     |     |      |
|-----------------------|--|----|----------------------|-------------------------|-----|-----|------|
|                       |  |    |                      |                         |     |     |      |
| Paxta i/ch            | 40   | 30 | 30                   | 20                      | 20  | 100 | Q0   |
| Paxtani qayta ishlash | Q0   | 40 | 50                   | 25                      | 30  | Q5  | 285  |
| To'qimachilik         | 285  | 50 | 60                   | 30                      | 40  | 180 | 465  |
| Tikuvchilik           | 465  | 45 | 50                   | 35                      | 30  | H0  | 625  |
| Jami                  | 930  | H5 | 190                  | o'0                     | O'0 | 585 | 1515 |
|                       | s=1095   |    | v=190                | m=230                   |     | 585 | 1515 |

Bundan ko'rinib turibdiki, jami ijtimoiy mahsulot 1515 birlikni tashkil etadi, ichki milliy mahsulot esa 585 birlikni tashkil etadi.

Lekin bu erda shuni aytish lozimki, mamlakat miqyosida takror hisobga yo'l qo'ymaslik uchun yalpi va ichki milliy mahsulotni hisoblashda sotib olingan xom ashyo, yonilqi va materiallar hisobga olinmaydi, faqat qo'shilgan qiymat hisobga olinadi, ularning yiqindisi esa yalpi yoki ichki milliy mahsulot deb yuritiladi. Ammo har bir korxonaga va tarmoq uchun sotilgan tovar mahsuloti ichki milliy mahsulotdan emas, balki jami yaratilgan ijtimoiy mahsulotdan iboratdir. Masalan, bizning misolimizda paxtani qayta ishlash korxonasi ishlab chiqargan va sotgan mahsulot 285 birlikni, ichki milliy mahsulot hisobiga kiradigan qo'shilgan qiymat esa 145 birlikni tashkil etadi. Sotilgan mahsulotning (285) 140 birligi xom ashyo, yonilqi va materiallarni sotib olish uchun ishlatiladi. SHuning uchun biz bu mavzuda korxonalar va tarmoqlar yaratgan yillik milliy mahsulot haqida gapirganda ko'proq jami ijtimoiy mahsulotni nazarda tutamiz.

Yalpi va ichki milliy mahsulotlar haqida esa ushbu to'planning keyingi bo'limida batafsil tushuntiriladi.

Milliy mahsulot turli korxonalarda va tarmoqlarda yaratilsa-da, ularni umumlashtirib, asosan ikki tarkibda, ya'ni natural buyumlashgan holda va qiymat tarkibida hisobga olinadi. Ularning o'zgarishi jamiyatning iqtisodiy rivojlanish dinamikasini aks ettiradi. Moddiy buyumlarning ishlatilishi, ishlab chiqarish yoki shaxsiy iste'mol vositasi bo'lib xizmat qilishga muvofiq milliy mahsulot o'zining natural buyumlashgan shakli bo'yicha ikki qismdan: ishlab chiqarish vositalari va iste'mol tovarlaridan tashkil topadi. Keyingisi o'z navbatida iste'mol buyumlaridan va aholiga ko'rsatilgan turli xizmatlardan iborat bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonini davom ettirish uchun, birinchidan, iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalarini faqat qiymat holdagina emas, balki uni moddiy natura shaklida ham qayta tiklash zarur. Buning uchun albatta ichki milliy mahsulot tarkibida ma'lum miqdorda ishlab chiqarish vositalari natural shaklda mavjud bo'lishi kerak. Ikkinchidan, ishchi kuchining qayta tiklanishi uchun mulk egalari va tadbirkorlarning shaxsiy iste'moli uchun milliy mahsulot tarkibida zarur iste'mol buyumlari mavjud bo'lishi shart. SHuning uchun ham milliy mahsulot ikki xil tovar mahsulot sifatida mavjud bo'ladi, bu esa o'z navbatida, ikki yirik bo'linmalar o'rtasida tovar ayirboshlash imkonini beradi.

Ichki milliy mahsulot faqatgina natural jihatdan emas, balki qiymat jihatdan ham hisobga olinadi va uning qiymat tarkibi tahlil qilinadi.

Milliy mahsulot qiymat jihatdan uch qismdan iborat bo'ladi, ya'ni:

1. Ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalarining, ya'ni ular qiymatining mahsulotga o'tgan qismi (S).

2. Yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning zaruriy mehnat bilan ishlab chiqarilgan zaruriy mahsulotning qiymati (U).

3. Yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning mulkdorlar, tadbirkorlar va jamiyat uchun qilingan qo'shimcha mehnat bilan ishlab chiqarilgan qo'shimcha mahsulot qiymati (M) dan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, oldingi ishlab chiqarish jarayonlarida yaratilgan va ushbu jarayonda iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalarining qiymatidan hamda shu ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan yangi qiymat, ya'ni sof milliy mahsulotdan iboratdir ( $MM=MS+SMM$ ). Chunki milliy mahsulotning bir qismidan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalarining o'rnini qoplash uchun foydalaniladi. Ishlab chiqarishning uzluksiz davom etishi va rivojlanishi uchun iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari har qanday asbob-uskunalar, xom ashyo, yoqilqi va boshqa yordamchi materiallar o'rnini to'ldirib turishi talab qilinadi. Buning uchun milliy mahsulotning bir qismidan foydalaniladi.

Demak, sof milliy mahsulot bevosita ishlab chiqarishda band bo'lgan menejerlar, ishchilar, dehqonlar va muxandislar, texnik xodimlarning yangidan sarf qilingan mehnati, ya'ni zaruriy mehnat bilan yaratilgan zaruriy mahsulotdan va qo'shimcha mehnat bilan yaratilgan qo'shimcha mahsulotdan iboratdir.

**Zaruriy mahsulot** deb ishchi va xizmatchilar ish vaqtining bir qismi bo'lgan zaruriy ish vaqtida yaratilgan ishchi kuchini normal holatda saqlash va qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mahsulotga aytiladi.

Zaruriy mahsulot sof milliy mahsulotning muhim qismi bo'lib, bevosita ishchi va xizmatchilarga tegishlidir. Sof mahsulotning zaruriy mahsulotdan ortiqcha qismi, ya'ni qo'shimcha ish vaqtida yaratilgan qismini **qo'shimcha mahsulot** deyiladi.

Bu qo'shimcha mahsulot tadbirkorlarga va mulkdorlarga hamda davlatga tegishlidir.

Zaruriy va qo'shimcha mahsulot jamiyat taraqqiyotining deyarli hamma bosqichlariga xosdir. Lekin ular o'rtasidagi nisbat turli davrlarda turlicha bo'ladi. Ibtidoiy jamoa tuzumining dastlabki davrida jamoadosh hamma kishilarning vaqti faqat zaruriy mahsulotni, ya'ni yashash uchun eng zarur mahsulotni topib eyish bilan band bo'lgan. Keyinchalik, ya'ni bu tuzumning oxirlariga kelib, qisman mehnat unumdorligi oshib, zaruriy mahsulotdan ortiqcha, ya'ni qo'shimcha mahsulot paydo bo'lgan va uning ayrim kishilar tomonidan o'zlashtirilishi natijasida **xususiy mulk** paydo bo'lgan.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining quldorlik, feodalizm va kapitalizm deb atalmish bosqichlarida qo'shimcha mahsulotning mavjudligi haqida xech kim munozara qilmaydilar.

Sobiq Socialistik jamiyatda ko'pgina iqtisodchilar qo'shimcha mahsulot faqat xususiy mulkchilik davriga xos deb tushunib, ijtimoiy mulk mavjud bo'lgan davrda

u bo'lmaydi deb keldilar. Lekin ular korxonalar olayotgan foyda mahsulotning qaysi qismi ekanligini, davlat boshqaruvi, mudofaa, ta'lim, fan-madaniyat uchun mablaqlar qaerdan olinishini tushuntirib bera olmas edilar. 1965 yillardan keyingina zaruriy va qo'shimcha mahsulot iqtisodiy adabiyotlarda tushuntirila boshlandi. Hozir, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ham bu tushunchani rad qiluvchi kishilar topiladi.

Lekin bunday iqtisodchilarga mulkdorlar va tadbirkorlar olayotgan foyda, foiz, dividend daromadlari, davlat soliqlari, er rentasi kabi pul ko'rinishidagi daromadlarning tub manbai nima, ular milliy mahsulot qaysi qismining taqsimotdagi harakat ko'rinishi?-deb so'rasangiz javob bera olmaydilar. Foyda va boshqa turli ko'rinishdagi daromadlar manbaini bilmaslik nima uchun tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar zarar ko'radi-yu, uni sotuvchilar foyda ko'radi degan savollarga ham javob berishda ojizlikka olib keladi. Ular iqtisodiy hodisa va jarayonlarning tub ildiziga tushunmaganlar, balki uning yuzaki tomonlarini o'rganish bilangina cheklanib qolganlar.

Qo'shimcha mahsulotni rad qilish o'miga uning mazmunini, harakat shakllarini puxta o'rganib, yanada ko'paytirish va taqsimlanishini takomillashtirish yo'llarini qidirishga kuch sarflash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Har bir korxonada, tarmoqda qo'shimcha mahsulotni ko'paytirish asosan uch yo'l bilan-ishlovchilar sonini ko'paytirish, ish kunini uzaytirish va ish kuni chegarasi o'zgarmagan holda zaruriy ish vaqtini kamaytirish evaziga qo'shimcha ish vaqtini ko'paytirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ish kunini uzaytirish yo'li bilan olingan qo'shimcha mahsulot absolyut qo'shimcha mahsulot deb, ish kuni o'zgarmaganda zaruriy ish vaqtini kamaytirib, qo'shimcha ish vaqtini ko'paytirish evaziga olingan qo'shimcha mahsulot esa nisbiy qo'shimcha mahsulot deb ataladi.

Yil davomida olingan qo'shimcha mahsulotlar yiqindisi qo'shimcha mahsulot massasi, uning zaruriy mahsulotga nisbati esa (foizda ifodalanishi) qo'shimcha mahsulot normasi deb yuritiladi.

Agar qo'shimcha mahsulot normasini  $m^1$ , massasini  $m$ , zaruriy mahsulotni  $v$  bilan belgilasak *qo'shimcha mahsulot normasi  $m^1 = m/v \cdot 100\%$*  ko'rinishdagi formula bilan aniqlanadi. Qo'shimcha mahsulot bozor iqtisodiyoti va unga o'tish sharoitida qo'shimcha qiymat shaklida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan qo'shimcha qiymat sotilish jarayonida foydaga aylanadi. Foydadan davlat soliq sifatida, ssuda kapital egalari esa foiz sifatida, er egalari renta sifatida o'z ulushlarini oladilar.

Qolgan qismi esa tadbirkorlarning sof foydasi bo'lib, uning hisobidan o'zlarining iste'molini qondiradi, investisiyani, turli sosial yo'nalishdagi ishlarni amalga oshiradilar. Ko'rinib turibdiki, qo'shimcha mahsulotni ko'paytirish hech kimga zarar bermaydi, aksincha jamiyat a'zolarining hammasi uchun manfaatlidir.

Ma'lumki, qo'shimcha mahsulot bilan zaruriy mahsulot o'rtasida har doim ziddiyat va aloqadorlik bo'ladi. Ularning har ikkalasida ham butun xalq xo'jaligini rivojlantirish va jamiyat a'zolarining farovonligini oshirish maqsadlari yo'lida foydalaniladi.

Lekin ularning sof milliy mahsulotdagi hissasi turli omillar ta'sirida, masalan, texnika taraqqiyotining rivojlanishi, ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibining o'zgarishi, mehnat unumdorligining oshishi natijasida o'zgarib turadi. Mehnat unumdorligining o'sishi natijasida zaruriy mahsulotning absolyut miqdori o'sgan holda sof milliy mahsulotdagi hissasi kamayib, qo'shimcha mahsulotning hissasi oshib boradi.

Hozirgi davrdagi bozor iqtisodiyotiga doir adabiyotlarda ishlab chiqarish omillari bilan uning samaralari o'rtasidagi bog'liqlikni ishlab chiqarish funksiyasi deb atashadi. Masalan, Ishlab chiqarish omillari er /E/, kapital /K/ va ishchi kuchi /I/dan iborat deb faraz qilsak, olingan mahsulotni (M) deb olsak, ishlab chiqarish funksiyasi  $M=F(E, K, I)$  dan iborat bo'ladi.

Bu formula ishlab chiqarishga jalb qilingan omillarining, ya'ni sarflarning har birligi evaziga olingan mahsulotni bildiradi va e'tiborni kam sarflab, ko'proq mahsulot olish imkoniyatini qidirishga qaratadi. Undan tashqari, bu ko'rsatkich har bir mahsulot birligini ishlab chiqarishga va ko'paytirish mo'ljallangan mahsulot hajmini ishlab chiqarishga qancha sarf talab qilinishini aniqlash imkonini beradi.

Ishlab chiqarishda turli xil omillar sarfini birdaniga yoki ayrimlarini ko'paytirish yo'li bilan mahsulotni ko'paytirish mumkin. Lekin boshqa omillar va sharoitlar teng bo'lgani holda ayrim omillar sarfini oshirish yo'li bilan mahsulotni cheksiz ko'paytirib bo'lmaydi. Masalan, firma yoki korxonada ishlab chiqarish binolari, mashina, stanok va boshqa asbob-uskunalar soni va sifati o'zgarmagan holda ishchilar sonini va xom ashyoni ko'paytirish yo'li bilan mahsulotni ma'lum miqdorda oshirish mumkin. Bunda bino va asbob-uskunalardan foydalanish darajasi oshiriladi, ya'ni to'xtovsiz ishlatiladi, ilgari bir smenada ishlayotgan bo'lsa endi ikki yoki uch smenada ishlatishga erishiladi. Ammo ma'lum darajaga borganidan keyin qo'shimcha jalb qilingan ishchi kuchi yoki xom ashyolar samarasi kamayadi. Ikkinchidan, ishlab turgan ishchilar soni o'zgarmagan holda ularni yangi texnika va texnologiyalar bilan qurollantirish, ya'ni har bir ishchiga to'g'ri keladigan kapital miqdorini oshirish hisobiga ham mahsulotni ko'paytirishga erishish mumkin. Lekin bu jarayon ham cheksiz emas. Bunda omillardan foydalanish va ularning miqdorini oshirish evaziga olingan mahsulotni uch xil o'lchamda o'lchaydilar: umumiy mahsulot, o'rta mahsulot va qo'shilgan mahsulot.

Umumiy mahsulot jalb qilingan asosiy kapital, ishchi kuchi, xom ashyo va materialardan foydalanish evaziga olingan mahsulotning umumiy hajmidir.

O'rta mahsulot esa jalb qilingan har bir ishchi kuchi yoki kapitalning bir birligiga to'g'ri keladigan mahsulotga aytiladi. Bu esa umumiy mahsulot miqdorini umumiy omil (ishchi kuchi yoki kapital) miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.  $O'M=M/I, K$ .

Oxirgi qo'shilgan mahsulot deb eng so'nggi qo'shilgan omil kapital yoki ishchi kuchi evaziga o'sgan mahsulotga aytiladi.

Masalan, o'tgan yili 100 nafar ishchi kuchi yordamida 100 ming so'mlik mahsulot olingan bo'lsa, bu yil 120 ishchi kuchi ishlab 130 ming mahsulot olinsa, 20 nafar qo'shilgan ishchi, 30 ming esa qo'shilgan mahsulot bo'ladi.

Bu oxirgi qo'shilgan mahsulot (o'sgan) miqdorini so'nggi qo'shilgan (o'sgan) ishchi kuchi yoki kapital miqdoriga bo'lish yo'li bilan qo'shilgan omil, ya'ni qo'shilgan kapital yoki qo'shilgan ishchi kuchi unumdorligi aniqlanadi.

YA'ni  $QM = \Delta M / \Delta K$  yoki  $KM = \Delta M / \Delta I$

Bu tushunchalarni quyidagi jadvalda yanada aniqroq ifodalash mumkin. o'shilgan mahsulot va qo'shilgan omillar unumdorligi

Jadval 2

|  | 1-yil | 2-yil | qo'shilgar miqdor | Qo'shilgan omillar unumdorligi $\Delta M / \Delta O$ |
|--|-------|-------|-------------------|--|
| Jalb qilingan kapital ming so'm hisobida | 120   | 150   | 30                | 1  |
| Ishchi kuchi (ishchilar soni)            | 100   | 120   | 20                | -  |
| Olingan umumiy mahsulot                  | 100   | 130   | 30                | 1, 5   |
| O'rtacha mahsulot:                       | 100   | 130   | 30                | -  |
| A) ming so'm kapitalga                   | 0, 83 | 0, 87 | 0, 04             | -  |
| B) 1 ishchiga                            | 1     | 1, 08 | 0, 08             | -  |

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, ikkinchi yili birinchi yilga qaraganda omillar miqdori oshirilgan, ular oxirgi qo'shilgan omillar deb yuritiladi. SHuningdek mahsulot ham o'sgan, ana shu 30 birlikdagi o'sgan mahsulot oxirgi qo'shilgan mahsulot deb yuritiladi.

Har bir qo'shilgan omil evaziga olingan qo'shilgan mahsulot esa qo'shilgan omil unumdorligi deb aytiladi.

qarb adabiyotlarida qo'shilgan mahsulotni aniqlash uchun hamma omillar olinmaydi, balki alohida olingan bir omil olib ko'rsatiladi. Masalan, boshqa sharoitlar teng bo'lganda xom ashyo yoki ishchi kuchining o'sganligi nazarga olinib, uning evaziga olingan, ya'ni qo'shilgan mahsulot aniqlanadi

YUqorida aytganimizdek, alohida olingan omil evaziga qo'shilgan mahsulot ma'lum darajaga borgandan keyin kamaya boshlaydi. Bu kamayish ayniqsa uning har birligi evaziga qo'shilgan mahsulotda aniq seziladi. Mana shu qo'shilgan omil unumdorligining pasayishiga qarab, marjinalistlarning vakillari unumdorlik-ning kamayib borish qonuni degan qonunni kashf qilishgan.

Ularning qoyasi bo'yicha har bir keyingi qilingan xarajat yoki omil oldingisiga qaraganda kam samara beradi va oqibatda umumiy o'rtacha mahsulot ham pasayib ketadi.

Bu qonunni ular iqtisodiyotning universal qonuni deb e'lon qiladilar va uni isbotlash uchun ko'pdan-ko'p er bir birligiga (gektarga) sarflangan qo'shimcha kapital unumdorligining pasayib borishini ko'rsatadilar.

Bu qonun e'lon qilinganiga 100 yildan ko'proq vaqt o'tdi, u davrlarda fan-texnika etarli rivojlanmagan edi. Bunday sharoitda u to'g'ri bo'lgan.

Lekin hozirgi fan-texnika va texnologiya tez rivojlanib, yangiliklar ishlab chiqarishga joriy qilinib turgan davrda bu qonunning amal qilmasligi deyarli hamma adabiyotlarda va hamma iqtisodchi olimlar tomonidan tan olinmoqda.

SHunday qilib keyingi jalb qilingan omil yoki xarajat unumdorligining pasayib borish qonuni quyidagicha to'rt holatda amal qilishi mumkin.

1. Ishlab chiqarishning boshqa omillari o'zgarmay faqat bir omil to'xtovsiz oshirilganda;

2. Fan-texnika taraqqiyotmaganda yoki ishlab chiqarishga jalb qilinmaganda;

3. Omillar o'rtasidagi miqdoriy va sifatiy nisbatlar buzilganda;

4. SHart-sharoitni hisobga olmasdan xarajatlar ko'r-ko'rona amalga oshirilganda;

Boshqa holatlarda u qonun amal qilmaydi.

#### 4-§. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi

Iqtisodiyot nazariyasi fani, mavjud cheklangan iqtisodiy resurslardan qanday qilib foydalanilganda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini to'laroq qondirib borish mumkin?-degan muammo ustida bosh qotiradi. Bunda, birinchidan iqtisodiy resurslardan foydalanishning turli xil muqobil variantlari mavjud bo'lishi ko'zda tutilib, ulardan eng samaralisi, ya'ni jamiyat ehtiyojlarini ancha to'laroq qondiradigan miqdorda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkonini beradigan turini tanlab olishga harakat qilinadi. Ikkinchidan, iqtisodiy resurslar nisbatan cheklanganligi sababli jamiyat a'zolarining barcha ehtiyojlarini birdaniga qondirish mumkin bo'lmaydi. SHuning uchun jamiyatga qaysi mahsulotlarni ishlab chiqarish, qaysilaridan vaqtincha voz kechish lozimligini hal qilish, ya'ni tanlashni amalga oshirish zarur bo'ladi. SHunday tanlash orqali, resurslarning mavjud darajasida mahsulot olishning aniqlangan eng yuqori miqdori jamiyatning ishlab chiqarish imkoniyatini ko'rsatadi. Jamiyatning ishlab chiqarish imkoniyatidan to'liq foydalanish uchun iqtisodiy resurslarning to'liq bandligiga erishish va ishlab chiqarishning to'liq hajmini ta'minlash zarur.

To'liq bandlilik deganda biz ishlab chiqarishga yaroqli bo'lgan barcha resurslardan to'la unum bilan foydalanishni tushunamiz. Ishchi majburiy ihsiz bo'lib qolmasligi, iqtisodiyot ishlashni xoxlagan va unga layoqatli bo'lgan barchani ish bilan ta'minlashni zarur. Haydalgan erlar yoki kapital uskunalar ham bo'sh qolmasligi lozim.

Ishlab chiqarishning to'liq xajmi, resurslarni samarali taqsimlashni, ya'ni ulardan mahsulotning umumiy hajmiga eng ko'p hissa qo'shadigan qilib foydalanishni va mavjud texnologiyalarning eng yaxshisini qo'llashni ham bildiradi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish imkoniyatlarining ma'lum chegarasi bo'ladi. Ishlab chiqarish imkoniyati chegarasini jadval ma'lumotlaridan foydalanib ancha aniq tasvirlash mumkin (4-jadval). Bu muammoning mohiyati quyidagicha: resurslar kamyob bo'lganligi sababli iqtisodiyot to'liq bandlilik va ishlab chiqarishning to'liq hajmida ham tovar va xizmatlarni cheklanmagan miqdorda ishlab chiqarishni ta'minlay olmaydi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi to'g'risida yaxshiroq tasavvurga ega

bo'lish uchun:

Birinchiidan, iqtisodiyot faqat ikki xil mahsulot-non va tegirmon ishlab chiqaradi (bunda non iste'molchilik tovarlarini, tegirmon ishlab chiqarish vositalarini bildiradi);

Ikkinchiidan, iqtisodiy resurslar miqdor va sifat jihatdan o'zgar olmaydi;

Uchinchiidan, mehnat unumdorligi va texnologiya doimiy bo'lib qoladi, deb faraz qilamiz. Mavjud resurslar cheklanganligi sababli iqtisodiyotning tegirmon va non ishlab chiqarishni birdaniga ko'paytirib borish imkoniyati cheklangan. Resurslarning cheklanganligi mahsulot ishlab chiqarishning cheklanganligini bildiradi: bunday sharoitda tegirmon ishlab chiqarishni har qanday ko'paytirishga, resurslarning bir qismini-non ishlab chiqarishni kamaytirish orqali erishadi. Aksincha, agar non ishlab chiqarishni ko'paytirish afzal ko'rinssa, buning uchun zarur resurslar faqat tegirmon ishlab chiqarishni qisqartirish hisobiga olinishi mumkin.

Jadvalda jamiyat tanlash mumkin bo'lgan sanoat tegirmonlari va non miqdorining muqobil uyg'unlashuvi keltirilgan. A-Muqobil variantga binoan, iqtisodiyot o'zining butun resurslarini tegirmon, ya'ni ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishga yo'naltiradi. E-Muqobil variantda esa mavjud resurslar to'liq icha non, ya'ni iste'mol buyumlarini ishlab chiqarishda foydalaniladi.

| Mahsulot turi        | Muqobil variantlar |   |   |   |   |
|----------------------|--------------------|---|---|---|---|
|                      | A                  | V | S | D | E |
| Non (mln.dona)       | 0                  | 1 | 2 | 3 | 4 |
| Tegirmon (ming dona) | 10                 | 9 | 7 | 4 | 0 |

Bu har ikki muqobil variant ochiqdan-ochiq amalga oshmaydigan

mavhum hisoblanadi. Har qanday iqtisodiyot odatda o'zining mavjud umumiy resurslari hajmini ishlab chiqarish vositalari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'rtasida taqsimlashi zarur. A-muqobil variantdan E-variant tomon iste'mol tovarlari, E dan A variantga tomon ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish ko'payib boradi.

Jadvaldagi asosiy qoya quyidagicha: har qanday vaqt oraligida iqtisodiyot to'liq bandlilik va ishlab chiqarishning to'liq hajmida u mahsulotni ko'proq olishi uchun X mahsulotning bir qismidan voz kechishi zarur. Iqtisodiy resurslar kamyob bo'lganligi sababli, iqtisodiyot X va U mahsulotni bir vaqtda ko'paytira olmaydi.

Ishlab chiqarish imkoniyati haqidagi tushunchani chuqurlashtirish uchun jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni chizmada tasvirlaymiz. Chizmada ko'rsatilganidek oddiy ikki o'lchamli grafikdan foydalanib, tegirmon (ishlab chiqarish vositalari) ishlab chiqarish haqidagi ma'lumotlarni tik o'qqa, non (iste'molchilik tovarlari) ishlab chiqarish haqidagi ma'lumotlarni esa yotiq o'qqa joylashtiramiz.

Ishlab chiqarish imkoniyati egri chiziqidagi har bir nuqta ikki xil mahsulot




ishlab chiqarishning qandaydir eng ko'p hajmini ko'rsatadi. Non va tegirmon ishlab chiqarishning har xil uyqunlashuvini amalga oshirish uchun jamiyat ulardagi mavjud resurslarning to'liq bandligi va ishlab chiqarishning to'liq hajmini ta'minlashi zarur. Non va tegirmonning barcha uyqunlashuvi ularning eng ko'p miqorini ko'rsatadi, bu esa barcha mavjud resurslardan samarali foydalanish natijasida olinishi mumkin. Ishlab chiqarish imkoniyati egri chiziqidan tashqarida joylashgan har qanday nuqtaga (masalan, W) resurslarning mavjud hajmi va ishlab chiqarishning bu texnologiyasida erishib bo'lmaydi.

Jamiyat uchun mahsulotlarning erishib bo'ladigan har xil uyqunlashuvlaridan tanlab olish imkoniyati egri chiziq ichida joylashadi.

Jamiyat bu mahsulotlar uyqunlashuvidan birortasini tanlashi zarur: ko'proq tegirmon ishlab chiqarish kamroq non ishlab chiqarishni bildiradi va aksincha

Xar qanday mahsulotning qandaydir miqdorini olish uchun, voz kechishga to'g'ri keladigan boshqa mahsulot miqdori bu mahsulotning muqobil ishlab chiqarish harajatlari deb ataladi.

Biz iqtisodiyot resurslarining to'liq bandligi va ishlab chiqarishning to'liq hajmi bilan mos keladi deb hisobladik. Agar band bo'lmagan resurslar bo'lsa yoki resurslari samarasiz foydalanilsa, (to'liq foydalanilmasa) iqtisodiyot jadvalda ko'rsatilgan xar bir muqobil variantdagidan kamroq mahsulot ishlab chiqargan va bu chizmada keltirilgan ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'ining ichida joylashgan bo'lur edi.



1-grafik. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chiziqi.

Agar resurslarning miqdori va sifati hamda texnologiya o'zgarsa, iqtisodiyotda ishlab chiqarishning umumiy hajmi ham ishlab chiqarish imkoniyati egri chiziqining holati o'zgaradi. Mavjud resurslarning ko'payishi har bir variantda bitta yoki har ikkala mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payishiga olib keladi,

Biz tahlilda texnologiya doimiy yoki o'zgarmay qoladi deb hisobladik. Haqiqatda texnika na texnologiya doimiy takomillashib o'zgarib boradi. Dastlab

texnika taraqqiyoti faqat ishlab chiqarish vositalarining takomillashuviga, ancha samarali mashina va uskunalarning yaratilishiga olib keladi, deb hisoblaymiz. Bunda texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish imkoniyatlarining oshishiga olib keladi. Jamiyat resurslarning o'zgaragan miqdorda ko'proq tovarlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Iqtisodiy o'sish mahsulotning ko'proq umumiy hajmini ishlab chiqarish layoqati bo'lib, u resurslar taklifining ko'payishi va texnika taraqqiyoti natijasi hisoblanadi, iqtisodiy o'sish resurslarning to'liq bandligida iqtisodiyotning ham rion va ham tegirmon ishlab chiqarishning ko'proq hajmini ta'minlashi hisoblanadi. Turqun iqtisodiyot ko'proq U mahsulot olish uchun X mahsulotning bir qismidan voz kechishga majbur bo'lsa, dinamik o'sib boruvchi iqtisodiyot X vaU mahsulotlarining ko'proq miqdoriga ega bo'lish layoqatini bildiradi. Odatda iqtisodiy o'sish jamiyatning har xil mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha quvvatining mutanosib ko'payishiga olib kelmaydi. Ayrim mahsulot turlarini ishlab chiqarish hajmi ko'payishi, boshqalari o'zgarishsiz qolishi mumkin.

### 5§.Ishlab chiqarishning samaradorligi va uning ko'rsatkichlari

Ishlab chiqarish samaradorligi va uni oshirish masalasi har doim iqtisodiyot nazariyasi fanining dolzarb muammosi sifatida, uning diqqat markazida bo'lib keladi. Ayniqsa, hozirgi paytda bu masala yanada keskin qo'yilmoqda. Buning sababi shundaki, ishlab chiqarish samaradorligini oshirmasdan turib, rnamlakatimiz oldida turgan muhim masala mustaqil iqtisodiy taraqqiyotni jadal-lashtirish vazifasini amalga oshirib bulmaydi. Samaradorlikning iqtisodiy mazmuni sifatida har doim ishlab chiqarishning pirovard natijasi bilan unga avanslangan resurslar, mablaglar yoki qilingan harajatlar o'rtasidagi nisbat tushiniladi.

Lekin turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar sharoitida shu jamiyatning maqsadidan kelib chiqib samaradorlik muammosining tub mohiyati o'zgaradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning asosiy maqsadi foyda olishga qaratilganligi sababli har bir iqtisodiy sub'ekt ko'proq foyda olishga intiladi. SHuning uchun ham ishlab chiqarish samaradorligi olingan foydaning (F) ishlab chiqarishga sarflangan resurs harajatlariga (IX) nisbati bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$R = \frac{F}{IX} \times 100\%$$

Buerda: R – foyda normasi,  
IX - iqtisodiy resurs xarajatlari.

Iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlikning bosh mezoni haqida ham bir qancha fikrlar mavjud. Ayrim olimlar ishlab chiqarish samaradorligining bosh mezoni foyda, boshqa birlari esa yalpi milliy mahsulot, sof mahsulot, uchinchilari milliy daromad, to'rtinchilari esa qo'shimcha mahsulot deb ko'rsatadilar. Biz hozir bu

erda fikrlaming qaysi biri to'g'ri ekanligi haqida batafsil to'xtalmaymiz, lekin shuni aytish kerakki, ko'pchilik olimlar tomonidan bozor iqtisodiyoti sharoitida samaradorlikning bosh ko'rsatkichi olingan foydaning xarajatlarga nisbati, ya'ni rentabellik yoki foydalilik darajasi bilan belgilanadi, deb tan olinadi. Ishlab chiqarish samaradorligi ko'p qirrali masala bo'lib, bu aytilgan birgina asosiy ko'rsatkichda, uni to'la ravishda hap tomonlama ifodalab bo'lmaydi. SHuning uchun ishlab chiqarish samaradorligini to'la ifodalashda unda qatnashgan omillarning unumdorligini, ulardan samarali foydalanish darajasini bildiradigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Bulardan biri mehnat unumdorligidir. Mehnat unumdorligi deb ishchi kuchining vaqt birligi mobaynida mahsulot yaratish qobiliyatiga aytiladi va ishlab chiqarilgan mahsulotning (iste'mol qiymatining) sarflangan mehnat miqdoriga nisbati bilan belgilanadi. Sarflangan mehnat miqdori esa ishlangan vaqt bilan, kishi kuni, kishi soati va h.k. bilan belgilanadi. Agar mehnat unumdorligini MU, mahsulotni M bilan, sarflangan ish vaktini esa V bilan- belgilasak mehnat unumdorligi quyidagicha aniqlanadi:

$$MU = M/V$$

Mehnat unumdorligi sarflangan jonli mehnatning hap bir birligi evaziga, ya'ni kishi kuni, kishi soati hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan aniqlanadi. Samaradorlikni aniqlashda kapital unumdorligi degan ko'rsatkichdan ham foydalaniladi va u ishlab chiqarishda qatnashgan kapitalning har bir birligi evaziga olingan mahsulot, daromad yoki foyda bilan aniqlanadi. Agar kapital unumdorligini-KU deb, ishlab chiqarishda qatnashgan kapital miqdorini-K, mahsulotni- M, yalpi daromadni-YAD bilan, foydani-F bilan belgilasak quyidagi formulalar hosil bo'ladi:

$$KU = M/K; \quad KU = YAD/K \quad KU = F/K.$$

Ishlab chiqarishning muhim omillaridan biri er hisoblanishi sababli erdan foydalanishni samaradorligi ko'rsatkichi ham aniqlanadi. Bu ko'rsatkich olingan mahsulot xajmining er maydoniga (gektarga) nisbati bilan hisoblanadi.

Samaradorlikni aniqlashda bu ko'rsatkichlardan tashqari mahsulotning mehnat siqimi, material siqimi, energiya siqimi degan ko'rsatkichlar ham qo'llanib, ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotning har bir birligini yaratish uchun ketgan yoki ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat, energiya va moddiy ashyolar miqdorini ifodalaydi.

Bu ko'rsatkichlarning hap biri ishlab chiqarishda qatnashgan turli omillar samaradorligini ifodalab, bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun unga ta'sir qiladigan omillarni ham bilish zarurdir. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bir qancha omillar ta'sir qiladi:

1. Ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtirish va uning natijalarini tezlik bilan ishlab chiqarishda qo'llash;

2. Ishlab chiqarishni rasional joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperasiyalash;

3. Iqtisodiyotning tarkibiy qismlarini va uning tashkiliy bo'qinlarini o'zgartirish;

4. Ishlab chiqaruvchilarni ragbatlantirish va ularning faolligini oshirish;

5. Mavjud tabiiy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona, tejab-tergab foydalanish, yangi, arzon, sifatli xom ashyo va energiya turlarini, ekinlarning yangi hosildor navlarini, chorva mollarining mahsuldor zotlarini topib ishlab chiqarishga joriy qilish

6. Kishilarning bilim saviyasini, malakasini oshirish, etuk ishchi va mutaxassislar tayyorlash.

Bu sanab o'tilgan omillar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sir qiladigan asosiy va butun iqtisodiyotning barcha sohalari uchun umumiy omillardir. Bularidan tashqari aniq olingan xo'jaliklarda, tarmoqlarda va xududlarda samaradorlikni oshirishning shu joyning sharoitlari xususiyatidan kelib chiqadigan qanchadan-qancha omillari borki, ularni topib ishga solish va foydalanish samaradorlikni keskin oshirishning keng imkoniyatlari bo'lib, hisoblanadi. Biz bu erda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hamma omillari to'g'risida batafsil to'xtala olmaymiz. Lekin uning muhim va hozirgi kunda respublikamiz uchun dolzarb omillaridan biri bo'lgan ilmiy texnika taraqqiyoti to'g'risida qisqacha to'xtalamiz.

Fan-texnika taraqqiyoti fan sohasidagi ishlab chiqarish qurollari, texnologiya, boshqarish va boshqa ko'pgina o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi davrda fan-texnika tez sur'atlar bilan taraqqiyot etmokka da u ilgari texnika taraqqiyotiga qaraganda bir muncha afzalliklarga egadir.

Hozirgi davrdagi fan-texnika taraqqiyoti afzalligi shundaki, ilqor mamlakatlarda fan yangiliklari tezlik bilan ishlab chiqarishga joriy qilinadi, binobarin fan bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanib boradi.

Hozirgi davrdagi ishlab chiqarishning texnik bazasini mustahkamlash elektronika, radioelektronika, telemexanika, atom energiyasi, kimyo va boshqa fanlarning erishgan yutuqlari bilan bevosita bo'liqdir.

Xullas fanning erishgan yutuqlari ishlab chiqarish taraqqiyoti va uning iqtisodiy samaradorligi uchun cheksiz imkoniyatlar ochib beradi. SHuning uchun ham O'zbekiston davlati fan-texnika taraqqiyotiga katta e'tibor berib, uni keskin jadallashtirishni, texnikaning eng yuqori unumdor va samaradorlikni ta'minlovchi yangi turkumlarini, maqbullik jihatdan yangi texnologiyalarni keng joriy etish vazifasini qo'y mokka. Fan taraqqiyotining natijasi va uning ishlab chiqarish bilan yaqinlashishining muhim belgisi takomillashgan, chidamli va unumli mehnat qurollari hamda predmetlarini vujudga keltirish va ishlab chiqarishga joriy qilish hisoblanadi. Ishlab chiqarishga yangi unumli mehnat qurollari va sifatli mehnat predmetlari qancha ko'p kirib kelsa jonli mehnat shuncha ko'p mehnat vositalarini harakatga keltiradi va ko'p iste'mol qiymati yaratadi. Davlatning investisiya siyosati resurslarni fan-texnika taraqqiyotining ilqor sohalari bo'lgan aviasiya, mashinasozlik sanoatini, informatika, elektronika,

atom energetikasi, ishlab chiqarish sohaslarini kompleks mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, yangi materiallarni yaratish va ularga ishlov berish texnologiyasi singari muhim yo'nalishlarga jalb qilishga qapatilgandir. SHuning uchun ham fan-texnika taraqqiyotining evolusion va revolusion shakllarini farqlamoq lozim. Fan-texnika taraqqiyotining evolusion shaklda rivojlanishi deganda, uning mavjud texnologiyasi asosida, mashinalar va uskunalarni qisman modernizatsiyalash asosida rivojlanishi tushuniladi.

Revolusion shaklda rivojlanishi deganda esa, texnikaning eng so'nggi avlodlarini qo'llash, prinsipial yangi texnologik tizimga o'tish tushuniladi. Fan-texnika taraqqiyotining keyingi shaklda rivojlanishi yuksak samara beradi. SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov o'zining asarlarida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini hozirgi zamon fan va texnikasining eng yangi yutuqlari bilan qayta qurollantirish lozimligini ta'kidlamokda. Buning uchun avvalombor texnika taraqqiyotining asosini tashkil etuvchi ishlab chiqarishning hamma sohaslarini yangi, unumdor, arzon texnika bilan qurollantiruvchi mashinasozlikni rivojlantirishga e'tiborni qapatmoq lozimdir.

### Asosiy tayanch tushunchalar

**Ishchi kuchi**-insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlari yiqindisi.

**Mehnat qurollari**-insonning tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir qilishda vosita bo'lib xizmat qiladigan narsalar: mashinalar, stanoklar, traktorlar, pluglar, qurilmalar, uskunalar va boshqalar.

**Mehnat predmetlari**-bevosita mehnat ta'sir qiladigan, ya'ni mahsulot tayyorlanadigan narsalar (er-suv, xom ashyo, materiallar va boshqalar).

**Kapital**-ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda ishlatilib, o'z egalari daromad keltiradigan ishlab chiqarish vositalari, tovarlar va pul mablaqlaridir.

**Er-suv-tuproq unumdorligi**, o'tloqlar, suvlar, o'rmon, qazilma boyliklardan iborat bo'lgan va foydalanishga tortilgan tabiiy resurslar.

**Tadbirkorlik qobiliyati**-insonda bo'lgan tashabbuskorlik, tashkilotchilik, novatorlik, iqtisodiy xavfdan, javobgarlikdan cho'chimaslik hislatlarining birligi.

**Ishlab chiqarish jarayoni**-kishilarning maqsadni ko'zlab amalga oshiriladigan faoliyati bo'lib, iste'moli uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan jarayon. Ishlab chiqarish jarayoni bir tomondan iste'mol qiymatlarini (naflilikni) yaratish jarayoni bo'lsa, ikkinchi tomondan qiymatning o'sishi jarayonidir.

**Ijtimoiy ishlab chiqarish**-o'zaro bog'liqlikdan va doimiy aloqada bo'lgan barcha individual ishlab chiqarishlarning birligidan iboratdir.

**Ishlab chiqarishning umumiy samarasi**-turli tovarlar va xizmatlar massasidan iborat bo'lgan milliy mahsulot.

**Yalpi ijtimoiy mahsulot**-ma'lum bir davrda, masalan, bir yilda yaratilgan moddiy ne'matlar yiqindisi.

**Ichki milliy mahsulot**-bir yil davomida mamlakat hududida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga etib boradigan barcha tayyor tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor bahosida qiymati.

**Sof milliy mahsulot**-ishlab chiqarishda va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan xodimlarning sarflangan mehnati, vujudga keltirgan yangi mahsulot. U ichki milliy mahsulotdan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan asosiy vositalar amortizatsiyasini chegirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

**Zaruriy mahsulot**-ishchi va xizmatchilarning zaruriy ish vaqtida yaratilgan va ishchi kuchini normal holatda saqlash va qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mahsulot.

**Qo'shimcha mahsulot**-ishchi va xizmatchilarning qo'shimcha ish vaqtida yaratilgan mahsulot bo'lib, sof mahsulotning zaruriy mahsulotdan oshiqcha qismidir. Qo'shimcha mahsulot tadbirkorlarga, mulkdorlarga va davlatga tegishlidir.

**Ishlab chiqarish funksiyasi**-ishlab chiqarish omillari bilan uning samaralari o'rtasidagi bog'liqlikni bildiradi.

**Qo'shilgan kapital**-ishlab chiqarishda mavjud band bo'lgan kapital miqdori ustiga yangi qo'shimcha ravishda sarflangan kapital, boshqacha qilib aytganda kapital miqdorining o'sgan qismi.

**O'rtacha mahsulot**-jalb qilingan ishchi kuchi va kapitalning bir — birligiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori.

**Qo'shilgan mahsulot**-so'nggi qo'shilgan omil: kapital yoki ishchi kuchi evaziga o'sgan mahsulot.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Ishlab chiqarish omillari nimalardan iborat?
2. Kapital tushunchasiga ta'rif bering va uning tarkibiga nimalar kirishini tushuntirib bering.
3. Ishlab chiqarish jarayonining mazmunini va uning ikki tomonini tushuntiring.
4. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalarini tushuntirib bering.
5. Yillik milliy mahsulotning tarkibi nimalardan iborat?
6. Zaruriy va qo'shimcha mahsulot nima, qo'shimcha mahsulot normasi va massasi formulasini yozib tushuntiring.
7. Qo'shilgan mehnat, qo'shilgan kapital va qo'shilgan mahsulot tushunchalarini izohlab bering.
8. Qo'shilgan mehnat va kapital unumdorligining pasayib borish qonunini tushuntiring.

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. «Bizning bosh maksadimiz – jamiyatni demokratiyalashurish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va islox etishdir», «O'zbekiston» 2005.

2. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz», T. «O'zbekiston», 2000y.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari.» -T. «O'zbekiston», 1998.
4. «To'g'ndan to'g'ri xususiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel.
5. Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T., «Moliya» nashriyoti, 2002.
6. A. Qodirov. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
7. D. Tajiboeva. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
8. Makkonel K., Bryu S. «Ekonomiks», M.2002.
9. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Rayzberga.- Uchebnik: - INFRA – M.2004.
10. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof. M. N. Chepurina. Uchebnik: - INFRA – M.2004.
11. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsh. red. akad. V. I. Vidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA – M.2004.
12. Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
13. E. F. Borisov Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
14. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
15. Ioxin V. Ya. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
16. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy. d.e.n., prof. T. V. Chechelovoy. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalk so'zi - 25 mart.
2. Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov – 2005.
3. Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. Yaxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
4. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovi ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

### Veb-saytlar:

1. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
2. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
3. <http://infoteka.economics.ru>
4. [www.finansv.ru](http://www.finansv.ru)
5. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
6. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
7. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)

8. [www.iahon.mfa.uz](http://www.iahon.mfa.uz)

9. [www.budiet.rf.ru](http://www.budiet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ro'zani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof.Sh.Sh Shodmonov, G.D.Bobabekova, G.T.Xalikova tomonidan tayyorlangan «Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v predpodovanii ekonomicheskoi teorii».T-2004, «Innovatsionnie metodi obucheniya v ekonomicheskoi obrazovanii» va Sh.Sh.Shodmonov, T.M.Ziyaeva, M.T.Yaxshievalar tomonidan tayyorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami.T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.



### 3. Mavzu.

## Ijtimoiy iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari

Kirish

4 soat

Reja:

1-§. Ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari va iqtisodiy tizimlar, ularni bilishga bo'lgan yondashuvlar.

2-§. Mulchilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni.

3-§. Mulch ob'ektlari va sub'ektlari.

4-§. Mulchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni.

5-§. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish yo'llari va usullari.

### Kirish

Bu mavzu ishlab chiqarishning ijtimoiy va texnologik usullari hamda iqtisodiy tizim tushunchalarini qarab chiqish bilan boshlanadi. Tahlil davomida iqtisodiy tizim modellari va ularning xususiyatlari ko'rsatib beriladi.

Ishlab chiqarish har doim ma'lum mulchilik va iqtisodiy tizimlarning aniq shakli doirasida sodir bo'ladi. SHuning uchun bu erda mulchilik munosabatlarining mohiyati, mulch shakllarining iqtisodiy mazmuni va bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida mulch shakllarining o'zgartirish yo'llari va usullari kabi masalalarga alohida o'rin ajratiladi.

### 1-§. Ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari va iqtisodiy tizimlar, ularni bilishga bo'lgan turlicha yondashuvlar.

Insoniyat taraqqiyoti bosqichlari va har bir bosqichga hos bo'lgan iqtisodiy tizimlarni o'rganish iqtisodiy jarayonlarni, ularni o'zgaruvchan ekanligini bilishda muhim ahamiyatga egadir.

Taraqqiyot bosqichlarini bilishda turli xil yondoshuvlar bo'lib, ular madaniylashtirish (sivilizatsion) darajasi jihatdan, texnika va texnologik taraqqiyot darajasi va sosial-iqtisodiy shakllar o'zgarishi jihatdan qarashlar mavjuddir.

Ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli yondoshuvlardan biri formasion yondoshuv bo'lib, unda ishlab chiqarishning ijtimoiy usullari va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga e'tibor berilgan. Ishlab chiqarish usuli ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish (iqtisodiy) munosabatlarining birligidan iborat.

Ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari, ya'ni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birgalikda jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini tashkil qiladi. Boshqacha aytganda ishlab chiqaruvchi kuchlar-bu ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar bilan tabiat o'rtasidagi bog'lanishni amalga oshiruvchi shaxsiy va texnik-buyumlashgan elementlar tizimidan iborat.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim mezon i va umumiy ko'rsatkichidir.

Odamlar ishlab chiqarish jarayonida faqat tabiat ashyolari va boshqa moddiy ashyolar bilan emas, shu bilan birga o'zaro bir-biri bilan ham munosabatlarda bo'ladilar, ya'ni ishlab chiqarish munosabatlariga kirishadilar. Bunda ishlab chiqarishda tarkib topadigan tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bir-biridan farq qiladi. Tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarishni tashkil qilish jarayoni da vujudga keladi. Mazkur munosabatlar kishilar o'rtasidagi aloqalar sifatida chiqib, shu bilan birga ishlab chiqarish holatini bevosita xarakterlaydi, ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti muayyan bosqichlarining xususiyatlarini va ularning ijtimoiy uyg'unlashuvini aks ettiradi. Bu masalan, mehnat taqsimoti, uni ixtisoslashtirish va kooperasialash, ishlab chiqarishni to'plash va uyg'unlashtirishdir.

Ishlab chiqarish har doim muayyan ijtimoiy shaklga ega bo'ladi. Bu ijtimoiy shakl ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni vujudga keltiradi, ularning mohiyati va asosini ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik munosabatlari tashkil etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar-bu kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlardir. Ular takror ishlab chiqarish munosabatlari yoki iqtisodiy munosabatlar deb ham ataladi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojining muayyan darajasi ishlab chiqarish munosabatlarining u yoki bu turini taqozo qiladi.

Muayyan taraqqiyot darajasidagi ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari muayyan turining birligi va o'zaro ta'siri ishlab chiqarish usulini tashkil etadi. Ishlab chiqarish munosabatlari faqat ishlab chiqaruvchi kuchlar bilanгина o'zaro aloqada bo'lib qolmaydi. Ular bir vaqtda bazis ham hisoblanib, uning ustida ishlab chiqarish munosabatlarining ushbu tizimiga xos bo'lgan alohida siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, milliy, oilaviy va boshqa ijtimoiy munosabatlar hamda tartibotlarning alohida turlari qad ko'taradi. Ana shularning yig'indisi jamiyatning ustqurmasini tashkil etadi. Siyosat, huquq, ahloq va ustqurmaning boshqa elementlari ham faol rol o'ynaydi, o'zlarini vujudga keltirgan ishlab chiqarish munosabatlariga, ular orqali esa jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlariga ham aks ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish usuli bilan jamiyat ustqurmasi ijtimoiy-iqtisodiy formasiyani tashkil etadi.

### **Ishlab chiqarish usuli va ijtimoiy-iqtisodiy formasiya tarkibi.**

Bu erda har ikki holatga e'tibor berish muhim. Birinchidan, ishlab chiqarish munosabatlari mustaqil, alohida tizimni tashkil qilmaydi. U ishlab chiqaruvchi kuchlar bilari ham, shuningdek ustqurma bilan ham har doim o'zaro ta'sirda bo'ladi. Ikkinchidan, turli formasialarda o'ziga xos ishlab chiqarish munosabatlari

amal qiladi va bu esa har bir formasiyaga mos keluvchi ishlab chiqarish usulini belgilab beradi.

Insoniyat jamiyati tarixida bir-biri bilan izchil almashinib turgan qator ishlab chiqarish usullari va shunga muvofiq ijtimoiy-iqtisodiy formasiyalar ajralib turadi.

Ishlab chiqarish usullari almashinishining klassik namunasi Evropada namoyish qilingan deb hisoblanadi. Evropa hududida bir-biri bilan almashinib, ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodal va kapitalistik munosabatlar izchil tarkib topdi. Boshqa qit'alarga kelganda esa, bu erda kapitalizmga bo'lgan davrda mana shu mamlakatlarning hammasi aniqroq qayd etilgan. Osiyo, Afrika, Avstraliyada Evropa mustamlakachiligining ta'siri seziladi. Adabiyotlarda Osiyocha ishlab chiqarish usuli deb atalmish usul haqida ham qayd qilinadi. Bu usulning shakllanishida mamlakatlarning katta turkumiga xos bo'lgan ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining sug'orish sistemalarini markazlashtirilgan tarzda tartibga solib turish va davlatning ana shu sharoitlarda alohida roli bilan bog'liq sifat xususiyatlari aks etadi.

Biroq u yoki bu xalq yoxud qit'aning tarixiy taraqqiyoti xususiyati ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, ularning dialektik o'zaro aloqasini rad etmaydi.

### **Jamiyat taraqqiyoti bosqichlariga texnologik yondoshuv xam ma'lum bir oqim hisoblanadi.**

Ular jamiyat tarixiy taraqqiyoti davomida ro'y berayotgan o'zgarishlar ko'lami va xarakterini yaxshiroq tushunib olish uchun ishlab chiqarishning turli texnologik usullarini tahlil etish, mashinalashgan ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanish tarixiga murojaat qilish zarur deb hisoblaydilar.

Mehnat vositalari, materiallar, texnologiya, energiya, axborotlar va ishlab chiqarishni tashkil etish bilan birgalikda ishlab chiqarishning texnologik usuli deyiladi.

Ular o'rtasidagi chegaralarni jamiyat taraqqiyoti tarixining yirik bosqichlari ajratib turadi. Bir texnologik ishlab chiqarish usulidan boshqasiga o'tish asosan mehnat vositalarining xarakteridagi o'zgarishlar, fan va texnika taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish texnologik usullarining dastlabki uchta bosqichlari alohida farqlanadi. Bular oddiy kooperasiya, manufaktura va mashinalashgan ishlab chiqarish. Oddiy kooperasiya - bu bir xil ishni yoki xizmat vazifasini bajaruvchi xodimlarning eng oddiy shaklidagi uyushishi, birgalashib ma'lum tartib asosida ishlaydigan kishilar, aniqroq'i ko'siblar guruhidir.

Mashinalashgan ishlab chiqarishga olib boruvchi yo'lda manufaktura, ya'ni mehnat taqsimotiga asoslangan, lekin mashina hali mavjud bo'lmagan sharoitdagi kooperasiya muhim rol o'ynaydi. Manufaktura davrida ishlab chiqarishning umumlashuv jarayoni davom etadi. Yalpi ishchi tarkib topadi, har bir ayrim xodim esa jami ishchi kuchining tarkibiy qismiga aylanadi. Bunda oddiy kooperasiyadagidek qo'l mehnatiga va qo'l mehnatiga asoslangan qurolga

tayanadi. Qo'l mehnatiga asoslangan qurollar manufaktura sharoitida takomillashishning eng yuqori darajasiga etadi.

Manufaktura ixtisoslashtirilgan qurol va asboblarning vujudga keltirib hamda ishchini tor operatsiyalarni bajarishga bog'lab, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tish uchun zarur shart-sharoit tayyorlaydi. Bu davrda ishlab chiqarishni tashkil etish, mehnatning mazmuni va xarakterida, ishlab chiqarishning butun texnologik usulida, iqtisodiy munosabatlarda va butun ijtimoiy hayotda ham tub o'zgarishlar ro'y beradi. XUSH asrning so'nggi 30 yili ichida boshlangan sanoat revolyusiyasi natijasida yirik mashinalashgan ishlab chiqarish vujudga keldi.

Sanoat to'ntarilishi texnika ishlab chiqarishni tashkil etishda tub revolyusion o'zgarishlarga, mehnat unumdorligini oshirishda ulkan sakrashlarga olib keldi hamda mashinalar paydo bo'lishi bilan fabrika korxonaning asosiy shakli bo'lib qoldi. Kooperatsiyaning bu shakli xuddi manufaktura singari, mehnat taqsimotiga asoslanadi, lekin undan mashinali mehnatga asoslanishi bilan tubdan farq qiladi. Fabrika ichidagi mehnat taqsimoti tamomila mashinalarning vazifalari bilan belgilanadi. Agar manufakturada mehnat taqsimoti ko'p jihatdan ishchiga, uning qobiliyati va malakasiga bog'liq bo'lsa, fabrikada mehnatni tashkil qilishni va butun texnologik sikl bo'yicha ishchilarni taqsimlashni mashina belgilab beradi.

Fabrika sharoitida ishchilarning tarkibi kengaydi. Bu mehnat taqsimotining yanada chuqurlashishiga ham ta'sir qildi. Mehnat taqsimoti bevosita ishlab chiqarish jarayoni chegarasidan "o'tib ketdi" va mehnat jarayonini ta'minlash, nazorat qilish, hisobga olish va tashkil etish bilan shug'ullanuvchi xodimlarning toifasini vujudga keltirdi.

Mashinalar tizimiga asoslangan fabrika bugun ham ko'p jihatdan ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy bo'g'ini rolini saqlab kelmoqda. SHu bilan birga fan va texnikadagi revolyusion o'zgarishlar, EXMning paydo bo'lishi va rivojlanishi, yagona axborot tizimlarining yaratilishi, ishlab chiqarish umumlashuvining yanada o'sishi uning texnikaviy bazisini jiddiy ravishda o'zgartirib yubordi.

Bu o'zgarishlar ikki asosiy yo'nalishdan bormoqda. Bir tomondan, ilgari mustaqil bo'lgan mashinalar tizimining texnologik jarayonlar bilan bog'lovchi juda katta uyushmalar /birlashmalar/ vujudga kelmoqda. Bunday asosda yangi tashkiliy tuzilma-kombinatlar, konsernlar, transnatsional korporatsiyalar vujudga kelmoqda. Ikkinchi tomondan, ishlab chiqarishda, xizmat ko'rsatish sohasida, ilmiy faoliyatda uncha katta bo'lmagan tuzilmalar rivojlanmoqda.

XX asrning o'rtalaridan boshlab to hozirgacha bo'lgan davrda texnik o'zgarishlar amalda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari va sohalarida mashinalar sistemasining hamma elementlarini, konstruksion materiallarni, texnologiyani, axborot tizimini mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishni qamrab oldi. Sifat xususiyatidagi bu o'zgarishlar hozirgi davr fan-texnika revolyusiyasi ekanligini bildiradi.

Fan-texnika, texnologiya va axborot tizimidagi o'zgarishlarga qarab ko'pincha olimlar, masalan, R.Aron, Dj. Golbreyt, U.Rostou va boshqalar jamiyat

taraqqiyoti bosqichlarini uch bosqichga: industrlashgangungacha bo'lgan jamiyat, industrlashgan jamiyat, yuqori industrlashgan yoki axborotlashgan jamiyatlarga bo'lib o'rganishni tavsiya etadilar.

Bunda ular Industrlashgangungacha bo'lgan jamiyatning asosiy belgilari sifatida; a) aholining asosan qishloq xo'jaligi bilan bandligi; b) qo'l mehnatining hukmronligi; v) mehnat taqsimotining juda sayozligi (dehqonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik, savdo, boshqaruv va boshqalar); g) natural xo'jalikning hukmronligi va boshqalar.

Jamiyat taraqqiyotining ikkinchi muhim bosqichi industrlashgan jamiyatning asosiy belgilari deb; a) ishlab chiqarishning mashinalash-ganligi; b) sanoatning fan-texnika yutuqlari asosida rivojlanishi, unda ishchilar sonining ko'payishi; v) shahar aholisining qishloq aholisiga qaraganda ko'payishi va boshqalar.

Taraqqiyotning uchunchi muhim bosqichi yuqori darajada industrlashgan jamiyatning asosiy belgilari deb; a) xizmat ko'rsatish sohasining yuksak darajada rivojlanishi; b) aholining asosiy qismi 60-70 % shu sohada band bo'lishi; v) fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchiga aylantirishi, fan xodimlarining va malakali mutaxassislar rolining oshishi; g) iqtisodiyotning hamma sohalarida va kundalik hayotda axborot va hisoblash texnikalarining keng qo'llanilishi; d) tovar xizmatlar sifatiga putur etkazmasdan iqtisodiy resurslarning hamma turlarini tejash imkonini beradigan yangi texnika va texnologiyalarning keng qo'llanilishi va boshqalar.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek texnika va texnologiyadagi o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotida asosiy moddiy rol ni o'ynaydi va tashkiliy, boshqaruv tizimlarining, ishchi-xizmatchilar tarkibining o'zgarishiga, mehnat unumdorligining o'sishiga olib keladi. Lekin bu texnik o'zgarishlarga qarab bir tomonlama yondoshuv bilan jamiyat taraqqiyoti qonunlarini aniqlab bo'lmaydi. Ayniqsa iqtisodiy tizimlar va ularning xarakterini bilishda ham texnik ham sosial iqtisodiy o'zgarishlarning birgalikda olib, ularning o'zaro bir-biriga ta'sirini va shu dialektik aloqadorlik va ta'sir natijasida sodir bo'ladigan taraqqiyot qonunlarini o'rganish zarurdir.

Jamiyat taraqqiyotiga jumladan texnika va texnologiyaning rivojiga sosial-iqtisodiy munosabatlarning kuchli ta'sirini shunda ko'rish mumkinki, bir necha ming yillab mudrab rivojlanmay yotgan texnika va texnologiya taraqqiyoti tovar xo'jaligi va bozorning vujudga kelishi bilan gurkirab o'sib ketdi.

Texnika taraqqiyotining hamma bosqichlari ya'ni oddiy kooperasiya, manufaktura mashinalashgan ya'ni industrlashgan ishlab chiqarish, yuqori darajadagi industrlashgan, axborotlashgan jamiyat bosqichlari keyingi 250-300 yilga, ya'ni tovar xo'jaligi rivoj topgan davrga to'g'ri keladi. SHuning uchun ham keyingi paytda ko'pgina iqtisodchilar jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini iqtisodiy tizimlarga bo'lib o'rganadilar.

Xar bir davrda va makonda amal qilayotgan iqtisodiy munosabatlar majmuasi-iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikda iqtisodiy tizimni tashkil qiladi.

Iqtisodiy nazariyada ko'pincha iqtisodiy tizim tushunchasini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi bilan bog'lab turkumlashga harakat qilinadi. SHu asosda dunyodagi rivojlangan mamlakatlar asosan ikkita belgi bo'yicha bir-biridan farqlanadi: 1) Ishlab chiqarish vositala-riga mulkchilik shakllari; 2) Iqtisodiy faoliyatni boshqarish va uyg'unlash-tirish usullari bo'yicha. Bu belgilar asosida iqtisodiy jihatdan rivojlanishi turlicha bo'lgan mamlakatlar iqtisodiy tizimining 3ta nusxasiga kiritiladi: An'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyoti va bozor iqtisodiyoti tizimlari.

**An'anaviy iqtisodiyot** - deyarli hamma mamlakatlar bosib o'tgan tarixiy tizimdir. U hozirgi davrda ham ko'plab iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ularda urf-odatlar, udumlarga, an'analarga asoslangan iqtisodiy jarayonlarga amal qiladi. Ularda natural yoki mayda tovar xo'jaligi hukmron bo'ladi. Bu erda ishlab chiqarish, ayirboshlash, daromadlarni taqsimlash vaqti-vaqti bilan o'matiladigan urf-odatlariga asoslanadi. Merosxo'rlik va sulola /tabaqa/ shaxslarning iqtisodiy rovida hukmronlik qiladi, ijtimoiy-iqtisodiy turg'unlik aniq ifodalanadi. Texnika taraqqiyoti va yangiliklarni joriy qilish keskin cheklangan, chunki ular an'analar bilan ziddiyatli hisoblanadi va ijtimoiy tuzum barqarorligiga xavf tug'diradi. Iqtisodiy faoliyatga nisbatan diniy va madaniy tartiblar birlamchi hisoblanadi.

Bu erda shuni ta'kidlash lozimki iqtisod muammosini hal qilishning bir xil va umum tan olingan echimi mavjud emas. Xar xil madaniyat va tarixiy o'tmish, har xil urf-odat va an'analar, qarama-qarshi mafkuraviy qarashlarga ega bo'lgan turli jamiyatlar aniq iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun turli xil tartiblardan foydalanadi.

### **Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot.**

Sof bozor iqtisodiyotiga qarama-qarshi tizim, ma'muriy-buyruqbozli iqtisodiyot hisoblanadi. Bu tizim amalda barcha moddiy resurslarga ijtimoiy aniqrog'i davlat mulkchiligining hukmronligi va ma'muriy organlar tomonidan iqtisodiy qarorlarning markazlashgan tartibda qabul qilinishi bilan xarakterlanadi. Foydalanadigan resurslarning hajmi mahsulotning tarkibi va taqsimlanishi, ishlab chiqarishni tashkil qilish kabilarga tegishli barcha muhim qarorlar markaziy boshqarish organlari tomonidan qabul qilinadi.

Iqtisodiy taraqqiyotda muhim bosqich hisoblangan tizim Bozor iqtisodiyoti tizimidir.

Bozor iqtisodiyoti tizimi asosan ikki bosqichga egadir. Birinchisi erkin raqobatga asoslangan klassik bozor iqtisodiyoti-dir. (Adabiyotlarda uni sof kapitalizm deb ham yuritiladi).

Ikkinchisi esa hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti-dir. (Adabiyotlarda uni aralash iqtisodiyot tizimi deb ham yuritiladi).

SHuning uchun biz bu erda bozor iqtisodiyotining har ikki bosqichiga qisqacha to'xtalamiz. (keyingi boblarda unga to'la ta'rif beriladi).

Erkin raqobatga asosan bozor iqtisodiyoti resurslarga xususiy mulkchilik, iqtisodiy faoliyatda va tadbirkorlikda erkinlik, iqtisodiy jarayonlarni tartiblashda va uyg'unlashtirishda bozor mexanizmidan foydalanish bilan xarakterlanadi. Bunday tizimda uning ham bir qatnashchisining xulq atvori shaxsiy manfaatiga asoslanadi, har bir iqtisodiy birlik, alohida qabul qilingan qarorlar asosida, o'zlarining daromadlarini eng yuqori darajada etkazishga intiladi. Bozor tizimi yordamida alohida qabul qilingan qarorlar uyg'unlashtiriladi. Raqobat sharoitida tovarlar /xizmatlarning/ ishlab chiqarilishi, resurslarning taklif qilinishi shuni bildiradiki, har bir mahsulot va resurslarning ko'plab mustaqil harakat qiluvchi xaridor va sotuvchilari mavjud bo'ladi. Bu erda iqtisodiy jarayonlarga davlatning aralashuvi cheklangan xarakterga ega bo'ladi. SHu sababli davlatning roli, xususiy mulkni himoya qilish va erkin bozorning amal qilinishi engillashtiruvchi ishonchli huquqiy tartiblar o'rnatishdan iboratdir.

### Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti.

Hozirgi davrda real hayotda bozor iqtisodiyoti tizimi sof bozor mexanizmi va rejasi iqtisodiyot unsurlarini mujassamlash turadi. Mulkchilikning har xil shakllari, tadbirkorlikning turli yo'nalishlari mavjud bo'ladi, unda rejalashtirish, taxminlash, aholini sosial himoyalash kuchayadi. Masalan, AQSH iqtisodiyoti hozirgi davrda oldingi erkin bozor iqtisodidan sezilarli farq qiladi. Bu farqlar quyidagilarda ko'rinadi.

Birinchidan, Mulkning bir qismi davlat qo'lida bo'lib, u iqtisodiyotda faol rol o'ynaydi. Bu iqtisodiyotning barqarorligi va o'sishi uchun sharoit yaratishda, bozor tizimi etarli darajada ishlab chiqarmaydigan yoki umuman etkazib bermaydigan ayrim tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlashda, daromadlar taqsimlanishini o'zgartirishda va shu kabilarda namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, Sof kapitalizmdan farq qilib amerika iqtisodiyotida yirik korporasiyalar va kuchli kasaba uyushmalari shaklidagi qudratli iqtisodiy tashkilotlar mavjud.

Bu erda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, xususiy mulkchilik va bozor tizimiga suyanish, ijtimoiy mulkchilik va markazdan rejalashtirish har doim ham bir vaqtda mavjud bo'lmasligi mumkin. Masalan, sobiq millatchi Germaniya iqtisodiyoti, avtoritar kapitalizm deb atalgan, chunki mulkchilik xususiy bo'lib qolsada, mamlakat iqtisodiyoti qattiq nazorat ostiga olingan va markazdan boshqarilgan. Buning teskarisi, bozor sosializmi deb atalgan sobiq socialistik YUGoslaviya iqtisodiyotida resurslarga ijtimoiy mulkchilik xos bo'lgan va bir vaqtda iqtisodiy faoliyatni tashkil qilish va boshqarishda erkin bozor asosida olib borilgan. SHvesiya iqtisodiyotida ham 90%dan ortiq xo'jalik faoliyati xususiy firmalarda to'plangan bo'lsada, davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va daromadlarni qayta taqsimlashda faol qatnashadi.

## 2-§. Mul'kchilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni.

Mul'kchilik munosabatlari har qanday jamiyat iqtisodiy tizimining asosiy munosabatlaridan birini tashkil qilib, insoniyat iqtisodiy taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi.

Mul'kchilik munosabatlari moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish hamda jamiyat boyliklarini o'zlashtirish jarayonlarida vujudga keladi.

SHunday ekan, mul'kchilik munosabatlari - bu mul'kka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Mul'kka egalik qilish mul'kdorlik huquqining uning egasi qo'lida saqlanib turishini bildiradi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning ijtimoiy shaklini ifodalaydi. Ayrim hollarda mul'kka egalik qilish uning egasi ixtiyorida saqlangan holda, undan amalda foydalanish esa boshqalar qo'lida bo'ladi. Bunga ijaraga berilgan mol-mul'kni misol qilib keltirish mumkin. **Mul'kdan foydalanish**-bu mol-mul'kning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishidir. Mol-mul'kdan foydalanish yuz berganda u daromad olish uchun yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatilishini bildiradi. **Mul'kni tasarruf etish**-bu mol-mul'k taqdirining mustaqil hal qilini-shidir. U mol-mul'kni sotish, meros qoldirish, hadiya qilish, ijaraga berish kabi hollar orqali ro'y beradi.

Mul'kchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmunini uning ajralmas uch jihati ( egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish) belgilab bersada, bu munosabatlar xarakteri nafaqat alohida mul'k shakllarida balki bitta mul'k shakli doirasida ham farqlanishi mumkin.

Misol uchun xususiy mul'k shaklini olaylik. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bu mul'k shakli bir necha ming yillardan buyon hozirgacha saqlanib kelgan. SHu bilan birga bu davr davomida xususiy mul'k mazmunida tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Uning o'zgarishiga xususiy mul'kchilikni ro'yobga chiqarish usullari asos bo'ldi. Xususiy mul'kchilik mehnatga majbur qilish yo'li bilan ro'yobga chiqarilsa, u quldorlik yoki feodal xarakter kasb etadi: ro'yobga chiqarish mul'kdorning o'z mehnati yordamida amalga oshirilsa, mayda tovar ishlab chiqarishi uchun xarakterli bo'lgan mehnat qilib topilgan xususiy mul'k paydo bo'ladi; nihoyat, xususiy mul'k yollanma ishchilar tomonidan harakatga keltirilsa, kapitalistik xususiy mul'ki paydo bo'ladi.

Mul'kchilik jamiyatdagi ham huquqiy, ham iqtisodiy munosabatlar mazmunini o'zida ifodalaydi. Mul'kchilikning huquqiy va iqtisodiy mazmuni o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi, shu sababli mul'kchilik bir vaqtda ham iqtisodiy, ham huquqiy kategoriya hisoblanadi. Bu birlikda, yuqorida ko'rsatilganidek, hal qiluvchi rolni mul'kchilikning iqtisodiy tomoni egallaydi. Agar mul'k iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarilmasa, ya'ni ishlab chiqarishda foydalanilmasa yoki mul'k egasiga daromad keltirmasa, bunda u "huquqiy" kategoriya sifatida qoladi.

Mul'kchilik xo'jalik va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllari orqali iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqariladi.



Boshqa tomondan, mulkchilikning huquqiy jihati uning iqtisodiy tomoniga nisbatan faqat bo'ysunuvchi rol o'ynamaydi. Bu shunda ko'rinadiki, ishlab chiqarish vositalariga ma'lum huquqiy egalik qilmasdan, hech kim ishlab chiqarish jarayonini amalga oshira olmaydi, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarilgan mahsulotdan foydalana olmaydi. SHu sababli mulkchilikning huquqiy normalari /egalik qilish, tasarruf qilish, foydalanish huquqi/ iqtisodiy munosabatlarning aniqlashtirilgan ko'rinishi hisoblanadi.

Xuquqiy normalar, bir tomondan, aynan mulkchilik munosabatlarini muhofaza qilish zarurati bilan bog'liq holda vujudga kelsa, boshqa tomondan u tovar ishlab chiqarish sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishda g'oyat muhim rol o'ynaydi. Bu rol shunda ko'rinadiki, tovar xo'jaligi sharoitida ayrim ijtimoiy qatlamlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashmasdan, ayirboshlash munosabatlarida ishtirok etib ( masalan, savdo vositachilari) mulkdorga aylanish imkoniyati paydo bo'ladi.

SHunday qilib, mulkchilikning huquqiy normalari, birinchidan, ishlab chiqarish vositalari va yaratilgan moddiy ne'matlarning muayyan shaxslarga (huquqiy yoki jismoniy) tegishli ekanligini, ikkinchidan, mulk egalaringning qonun bilan qo'riqlanadigan vakolatlarini va nihoyat, uchinchidan mol-mulkni himoya qilish usullarini belgilab beradi.

### 3-§. Mulk ob'ektlari va sub'ektlari.

Mulkchilik munosabatlari, uning ob'ektlari va sub'ektlari bo'lishini shart qilib qo'yadi. Mulkka aylangan barcha boylik turlari mulkchilik ob'ektlaridir. Mulk ob'ekti bo'lib, inson yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar, tabiiy boyliklar, aqliy mehnat mahsuli, insonning mehnat qilishi qobiliyati-ishchi kuchi va boshqalar hisoblanadi. Mulk ob'ektida asosiy bo'g'in-bu ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish hisoblanadi. Ishlab chiqarish vositalari kimniki bo'lsa, ishlab chiqarilgan mahsulot ham unga tegishli bo'ladi.

Real hayotda ishlab chiqarish vositalarining umumlashish darajasi turli xil, ya'ni ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishi turli darajada va turli shakllarda amalga oshiriladi. SHunga mos ravishda mulk sub'ektlari vujudga keladi. Mulk sub'ekti jamiyatda ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy mavqeiga ega bo'lgan, mulk ob'ektini o'zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari bo'lib, ular jamoa, sinf, tabaqa yoki boshqa ijtimoiy guruhlarga birlashgan bo'ladi. Ayrim kishilar, oilalar va davlat ham mulkchilik sub'ekti bo'lib chiqadi.

Mulkning tuzilishi va shakli xilma-xilligi sababli, bu mulkni o'zlashtiruvchi yuqorida ko'rsatilgan sub'ektlar ham turli darajada bo'ladi. Masalan, davlat mulkining bevosita sub'ektlari respublika hokimiyati va boshqaruv organlari, davlat korxonalari va muassasalari hamda ularning mehnat jamoalari a'zolari bo'lishi mumkin.

Jamoa mulk sub'ektlari /tasarruf etuvchilar/ sifatida jamoa korxonalari, kooperativlar, xo'jalik jamiyati va shirkatlari, aksionerlik jamiyatlari, xo'jalik birlashmalari /uyushmalari/, jamoat va diniy tashkilotlar bo'lishi mumkin.

Aralash mulk, ya'ni huquqiy shaxslar va fuqarolarning mulki ham mavjud bo'lishi sababli, bu mulk sub'ektlari sifatida qo'shma korxonalar, xorijiy fuqarolar, xorijiy tashkilotlar va xorijiy davlatlar chiqadi.

SHunday qilib, mulk sub'ektlari ko'p darajali bo'lib, shu sub'ektlardan birontasi o'zini mulk egasi sifatida yuzaga chiqara olmasa, unda mulkchilik munosabatlari rasmiy, yuzaki tus oladi


#### 4-§. Mulkchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni.

Bozor iqtisodiyoti mulkchilik shakllarining xilma-xil bo'lishini talab qiladi, chunki tovar muayyan mulk ob'ekti bo'lgandagina oldi-soldi qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham: "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi" - deb ta'kidlanadi.

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida bu mulk o'z ichiga davlat mulkidan tashqari, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va matlubot sohasidagi jamoa mulkining xilma-xil turlarini, ijtimoiy tashkilotlar mulkini, uy xo'jaligi va shaxsiy tomorqa xo'jaligi hamda yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mehnatkashlarning shaxsiy mulkini, tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasidagi aralash mulk shakllarini va xususiy mulklarni o'ziga oladi.

SHu sababli "O'zbekiston Respublikasining mulkchilik to'g'risidagi" qonunida mulkning turli-tuman shakllari quyidagi mulk shakllariga kiritiladi: davlat mulki, jamoa mulki, xususiy mulk, shaxsiy mulk, aralash mulk.

Ушбекистонда хўжалик тартивини субъектларининг мулкчилик шакллари бўйича тақсимланиши қуйидаги маълумотлар билан тавсифлангани (инил бошига, умумий сонига % ҳисобила)



**DAVLAT MULKI** - Mulk davlatga tegishli bo'lganda mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf qilish davlat ixtiyorida bo'ladi. Davlat mulki asosan ikki yo'l bilan hosil bo'ladi:

1. Xususiy mol-mulkni milliy lashtirib, davlat qo'lga olish;

2. Davlat mablag'lari hisobidan korxonalar qurish, davlatga qarashli korxonalar va tashkilotlarda investitsiyani amalga oshirish yo'li bilan.

Davlat mulki haqiqatda ham xalqqa qarashli bo'lgan, bo'linmaydigan yoki umumiy resurslardan foydalanish uchun juda mosdir. Bunga misol qilib takror ishlab chiqarib bo'lmaydigan tabiiy resurslarni, yirik inshootlar va transport vositalari, yo'llar kabi iqtisodiy infra-strukturaning kattagina qismini ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonda Fuqarolik Kodeksiga muvofiq davlat mulki Respublika mulkidan va ma'muriy-xududiy tuzilmalar mulkidan (munisipal) iborat bo'ladi. Er, er osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, respublika xokimiyati va boshqaruvi tuzilmalari mol-mulki, davlatga qarashli madaniy va tarixiy boyliklar, byudjet mablag'lari, oltin zaxirasi, valyuta fondi va boshqa davlat fondlari respublika mulki hisoblanadi. Undan tashqari samolyotsozlik, mashinasozlik va boshqa yirik korxonalar, Kon Sanoati va boshqa inshootlarning asosiy qismi davlat ixtiyoridadir.

Ma'muriy-xududiy tuzilmalar (munisipal) mulkida davlat xokimiyati mahalliy organlari mol-mulki, mahalliy byudjet mablag'lari, munisipal uy-joy fondi va kommunal xo'jaligi korxonalari va boshqa mulkiy majmualar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari kabilar mol-mulki bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotni erkinlashtirish vazifasi davlat mulki monopoliyasini qisqartirishni taqozo qiladi. Chunki sog'lom bozor iqtisodiyoti davlat monopoliyasi bilan chiqishmaydi, monopoliya raqobatga to'sqinlik qiladi.

Mulki davlat tasarrufidan chiqarish oqibatida iqtisodiyotda davlat mulkining ulushi kamayib u asosan jamoa mulkiga, ayrim hollarda fuqaro mulkiga va xususiy mulkka ay lanadi.

Davlat korxonalarining asosiy fondlar, ishlovchilar soni, yalpi milliy mahsulot va milliy daromad yaratishdagi hissasi qisqarib, ayni vaqtda boshqa mulkka mansub korxonalar hissasi ortib boradi.

Jamoa mulki—muayyan maqsad yo'lida jamoaga birlashgan kishilar tomonidan moddiy va ma'naviy boyliklarni hamjihatlik bilan o'zlashtirishni bildiradi. Jamoa mulki davlat mulkini korxonalar jamoasi sotib olishi, badal to'lab korxonalar qurishi, aksiya chiqarib, ularni sotish kabi yo'llar orqali paydo bo'ldi. Jamoa mulkining muhim hususiyati shundaki, ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsuliga ayrim shaxslar emas, balki ma'lum guruh, kishilar egalik qiladi.

Jamoa mulkiga-kooperativlarning, ijara va jamoa korxonalarining, aksionerlar jamiyatlari, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, jamoa tashkilotlari va diniy tashkilotlarning mulki kiradi.

Kooperativlar mulkining asosiy belgisi ishlab chiqarish vositalari va uning natijalari o'zlashtirishning jamoa-guruh xususiyatidir. Mulkichilikning bu turida ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishi muayyan mehnat jarnoasi doirasida ro'y beradi. Ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish va ularni o'zlashtirish mulk egasi bo'lmish mehnat jamoasi doirasida

amalga oshiriladi, hamda jamoa va shaxsiy iqtisodiy manfaatlarining mushtarakligi vujudga keladi.

Kooperativlar qishloq xo'jaligida, sanoat, qurilish, transportda, savdo va umumiy ovqatlanish, pulli xizmatlar sohasida hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-madaniy hayotning boshqa tarmoqlarida, ilmiy va ilmiy-texnikaviy xizmat ko'rsatish sohaslarida barpo etilishi va faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Kooperativ faoliyat uchta asosiy turga ajraladi: ishlab chiqarish, matlubot va aralash kooperativlar.

Ishlab chiqarish kooperativlari o'z a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Ishlab chiqarish va xizmatlarning boshqa sohaslaridagi kooperativlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular ichida qishloq xo'jaligi kooperativlari alohida ajralib turadi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish kooperativlarining asosiy shakli jamoa va shirkat xo'jaliklaridir.

Masalan, jamoa xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jalik korxonalari doirasida kollektiv va oilaviy pudrat hamda er uchastkalari va asosiy fondlarni ijaraga olish sharoitida daromadlari pirovard natijaga bog'liq ravishda shakllanadigan xo'jalik hisobidagi kooperativ jamoalar tuzilmoqda.

Mulkchilikning davlat shakli bilan bir qatorda sohani rivojlantirishning bir qator masalalarini echishda uy-joy, ijtimoiy infrastrukturaning boshqa ob'ektlari-sanatoriylar, dam olish uylari, bolalar bog'chalari va shu kabilarni qurish/kooperativlar roli oshib bormoqda.

Mehnatkashlarning shaxsiy mulki asosida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslari, uy qurilish kooperativlari, bog'-tomorqa shirkatlari va shu kabi kooperativlar rivojlanmoqda.

SHaharlarda aholining tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabini yaxshiroq qondirish maqsadida davlat korxonalari va tashkilotlari uning tasarrufidan chiqarilib turli xil matlubot kooperasiyalari vujudga kelmoqda. Matlubot kooperasiyasining mulki mulkchilikning davlat va boshqa shakllaridan kelib chiqadi. Mulkchilikning bu shakli faoliyatida uning a'zolari o'z mehnati bilan ishtirok etishi shart emas. Matlubot kooperasiyalari mustaqil yoki turli korxonalar, tashkilot va muassasalar qoshida tashkil qilmishi mumkin. Matlubot kooperasiyasi tizimi xizmat ko'rsatish, shaxsiy tomorqa xo'jaligida etishtirilgan mahsulotlar va xalq hunarmandchilik buyumlarini shartnoma asosida sotishni ta'minlashda belgilangan huquqlardan foydalanadi.

**SHaxsiy mulk.** Mulki shakllari ichida kishilarning shaxsiy mulki muhim o'rin tutadi. SHaxsiy mulk bu fuqarolar mulki bo'lib, ularning shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Bu mulk shakli asosan shaxsning yoki uning oila a'zolarining mehnati asosida ko'payadi va rivoj topadi.

Fuqaroning shaxsiy mulki asosan ularning ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirokidan, o'z xo'jaligini yuritishdan tushgan mehnat daromadlari hisobiga vujudga keladi va ko'payadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsiy mulk aksiyadan keladigan dividend, bank foizlari, xususiy sohibkorlik daromadi kabi yangi manbaalarga asoslanadi.

SHaxsiy mulk ob'ektlari - bu turar joylar, bog'-hovli va uylar, transport vositalari, pul jamg'armalari, uy-ro'zg'or va shaxsiy iste'mol buyumlari, yakka tartibda va boshqa xo'jalik faoliyati uchun kerakli ishlab chiqarish vositalari, ularda hosil qilingan mahsulot va boshqalar bo'lishi mumkin. "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi qonunda ko'rsatilganidek, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat sohasidagi, xalq xo'jalik faoliyatining boshqa tarmoqlaridagi maydaroq korxonalar fuqaro va ularning oila a'zolarining mulki bo'lishi mumkin. SHaxsiy mulk ob'ektlari ehtiyojlarini qondirish doirasidan chiqib, daromad topish yo'lida ishlatilishi mumkin.

**Xususiy mulk - ayrim sohibkorlarga qarashli yollanma mehnatga asoslangan va o'z egasiga foyda keltiruvchi mulkdir.**

O'zbekiston Respublikasining mulkchilik to'g'risidagi qonunida (7-moddada), xususiy mulk o'z mol-mulkiga xususiy egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iboratdir deb ko'rsatilgan. SHu bilan birga xususiy mulk bo'lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmasligi ta'kidlanadi.

Xususiy mulk ham, boshqa har qanday mulk shakllari kabi, o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. U, so'zsiz, tashabbuskorlik va g'ayratchanlikni, mehnatga ma'suliyatlilik munosabatlarini rag'batlan-tiradi. SHu bilan birga, tovar ishlab chiqarish sharoitida u tekis daromad orttirishga intilish hissini tug'diradi. Mulkiylikning bu shaklini tan olish xalq xo'jaligida uni qo'llash foydali bo'lgan bo'g'inlarni aniqlash, uni tartibga solishning moliyaviy va huquqiy mexanizmlarini shakllantirishni taqozo qiladi. Lekin xususiy mulkchilikni bunday tan olish uni mutlaqlashtirish, bilan umuman bog'liq emas. Bu mulk sotib olingan ishlab chiqarish vositalari asosida mustaqil xo'jalik yuritish yoki davlat korxonalari, kooperativ firmalar, magazin, oshxona va shu kabilarni sotib olish orqali vujudga kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlarida xususiy mulkni shakllantirish manbalari ham ko'rsatiladi. Tadbirkorlik bilan shug'ullanish, yollanib ishlash kredit muassasalariga qo'yilgan mablag'lar, qim-matli qog'ozlardan olinadigan daromadlar, meros tartibda mol-mulkni qo'lga kiritish kabilar ana shunday manbalar bo'lishi mumkin. SHunday savol tug'iladiki - O'zbekistonda qishloq xo'jaligidan boshqa ayrim faoliyatlarda er ham xususiy mulk ob'ekti bo'lishi mumkin. SHu sababli Respublika Qonun hujjatlariga (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 21 yanvardagi Farmonining 3-bandi) muvofiq savdo, xizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlarini ular joylashgan er uchastkalari bilan birga tanlov asosida sotilishiga ruxsat beriladi. Mazkur er uchastkalariga xususiy mulk huquqining hamma me'yorlari taalluqli bo'lib, ular sotilishi, vasiyat qilib qoldirilishi ijaraga berilishi mumkin. Biroq ering boshqa toifalari, jumladan, umumiy foydalanishdagi erlar, qishloq xo'jalik ekinzorlari va davlat zahirasiga kiritilgan erlar davlatning alohida mulk ob'ektlaridir va shu sababli ular fuqarolarga faqat meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod egalikka berilishi mumkin.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida mulkchilikning turli xil shakllarini vujudga keltirish asosiy maqsad emas. Bu faqat ishlab chiqarishni

rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishning barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, tashabbuskorlik va sog'lom raqobatni vujudga keltirish uchun qulay muhit yaratishga qaratilgandir.

### 5-§. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish yo'llari va usullari.

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy sharti ko'p ukladli iqtisodiyotni va raqobatlashuvchi muhimi shakllantirish uchun shart-sharoitini vujudga keltirishdan iborat. Bunda asosiysi mulkchilik masalasini hal qilishdir. SHu sababli respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov mulkchilik masalasini hal qilishni "..... bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qiladi"<sup>1</sup> deb alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Uzoq yillar mobaynida respublikamiz iqtisodida umumxalq mulki deb atalgan, aslida esa davlatlashtirilgan mulk to'liq hukmronlik qilib keldi. Nazariya va amaliyotda umumxalq mulki deb hisoblangan mulk sub'ekti sifatida davlatning chiqishi jamiyat a'zolari o'rtasida bu mulkga "hech kimniki", "davlatniki", "birovning mulki" deb qarashlarining shakllanishiga olib keldi.

Bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish vazifasi o'tish davrida mulkchilikda davlat sektorining salmog'i ancha yuqori bo'lgan mamlakatlarda bu mulkning ma'lum qismini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni taqozo qiladi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishga qaraganda ancha keng tushuncha. Xususiylashtirishni davlat mulkiga egalik huquqini davlatdan xususiy shaxslarga o'tishidir. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishdan tashqari, bu mulk hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirishni ham ko'zda tutadi. U bir qator yo'llar bilan amalga oshiriladi: davlat korxonalarini hissadorlik jamiyatiga aylantirish, davlat korxonasini sotib, uni jamoa mulkiga aylantirish; mulkni qiymatga qarab chiqarilgan cheklar (vaucher) bo'yicha fuqarolarga bepul berish; mulkni ayrim tadbirkor va ish boshqaruvchilarga sotish; ayrim davlat korxonalarini chet el firma va fuqarolariga sotish yoki qarz hisobiga berish, davlat mol-mulkini auksionlarda kim oshdi savdosi orqali sotish va h.k.

Bu yo'llardan qaysi birini tanlash undan kutilgan maqsadga bog'liq. Masalan, Rossiyada Davlat mulkini vaucher orqali bepul taqsimlash usuli qo'llanildi. Buradan ommaviy xususiylashtirishdan ko'zlangan maqsad qisqa muddat ichida cheklar bozorini joriy etish hisobiga mulkdorlarning g'oyat keng qatlamini vujudga keltirishdan iborat edi. Agar tadbirkorlikni rag'batlantirish ko'zda tutilsa, xususiylashtirish<sup>1</sup> tanlab olingan ozchilik o'rtasida o'tkaziladi. Agar xususiylashtirish chetdan kapitalning kirib kelishiga, yo'l ochishi zarur bo'lsa, davlat mulkini xorijiy tadbirkorlarga berish shaklida amalga oshiriladi. O'z mulkini davlat tasarrufidan chiqarishda ayrim usullarga ustuvorlik berish boshqa usullarni qo'llashni rad etmaydi, aksincha, ularni ham qo'llash zarurligini bildiradi.

<sup>1</sup> . Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.T.3-T: O'zbekiston, 1996. 202 bet.

Masalan, korxonaga jamoasiga ustunlik berilib, davlat mulkini aksiyalashtirish, bu aksiyalarni sotib olishda shu jamoadan tashqari kishilar va chet el kapitalining ishtirok etishi ham bo'lishi mumkin. Mulkn davlat tasarrufidan chiqarish sharoitga qarab pulli, pulsiz yoki imtiyozli tarzda o'tkaziladi. O'z shakli va usulidan qat'iy nazar bu tadbir xilma-xil mulkchilikni vujudga keltirishni ta'minlaydi, chunki davlat mulki hisobidan nodavlat mulkining barcha shakllari va turlari rivojlanadi.

Mulkn davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish mulkchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan davlatning monopol hukmronligiga chek qo'yib, jamiyatda faollik ko'rsatayotgan erkin tadbirkorlik tashabbusiga keng yo'l va imkoniyatlar ochib berishdan iborat. Aslida xususiylashtirish iqtisodiyotning davlatlash-tirishdan qaytish yo'llaridandir. Xususiylashtirish davlat mulkini ma'lum darajada haqiqiy egalari - fuqarolarga berish demakdir. Ko'pincha xususiylashtirish - bu davlat mulkini ishlovchilarga berish, deb taqin qilinadi. Aslida mamlakatning barcha aholisiga davlat mulkini bo'lib berib bo'lmaydi, bunda aholining hammasi mulkka ega bo'lib, ishlab chiqarishni tashkil etish, uni boshqarish ishlab chiqarish hamda mahsulotni ayirboshlash kabi mashaqqatli ishlarni o'z zimmasiga olavermaydi.

Davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish jarayonida, avvalom bor, xususiylashtirish yo'li bilan yaxshi iqtisodiy natijalarga erishgan mamlakatlar tajribasidan to'laroq foydalanish va ular yo'l qo'ygan xatolar takrorlanmasligi kerakki, bu bilan bozor iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlashi mumkin. Xususiylashtirishni amalga oshirish uchun davlat mulkini xususiylashtirishning keng ko'lami dasturini ishlab chiqarish zarur.

Xususiylashtirish avvalo davlat mulkini inventarizatsiya etishdan, ya'ni hisob-kitob qilib, uning haqiqiy qiymati miqdorini aniqlashdan boshlanadi. SHundan keyin xususiylashtirish uchun ajratilgan davlat mol-mulkining ro'yxati tuziladi, davlat mulkini sotib olish shart-sharoiti aniqlanadi.

Xuquqiy jihatdan xususiylashtirilgan barcha korxonalariga erkin iqtisodiy xo'jalik yuritish huquqi berilishi va davlat sektori bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Davlat sektoriga nisbatan bu korxonalariga soliqlarni birmuncha kamaytirish va ayrimlarini ma'lum muddatga soliqdan ozod qilish zarur.

Xususiylashtirish natijasida aholi orasida ijtimoiy jihatdan tabaqalanish yuz beradi va kishilarning bajargan ishiga qarab oladigan haqi turlicha bo'lib, aholining daromadlarida ham tabaqalanish yuz beradi. Kishilar turli sohalarda, masalan biznesda turli shakllardagi mulkka ega bo'lib, aksiya sotib olish va korxonaga mulkida o'z hissalarini oshirib borishga harakat qiladilar.

Xususiylashtirish orqali korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib, ma'lum jamoa va shaxslarga sotilgandan keyin faoliyatlarini bozorning shafqatsiz raqobat qonunlari asosida tashkil etadi. Bozor korxonalarining yashovchanligini va ularni doimo raqobat kurashida o'z manfaatlarini himoya qilishga majbur etadi. Mabodo korxonaga raqobat kurashiga dosh berolmay sinsa, oldingi davrdagidek davlat byudjetidan mablag' hisobiga uni saqlab qolish hollariga xususiylashtirish orqali barham beriladi.

Xususiylashtirish mulkning bir shaklidan ikkinchi shakliga o'tishni aks ettirmasligi kerak, balki xususiylashtirish oldiga qo'yilgan vazifa katta bo'lib, ya'ni xususiylashtirish orqali avvalo barcha sohani o'z qaramog'ida turli uslublar orqali birlashtirib turgan davlat tizimini iqtisoddan ajratish uchun bir qancha tadbirlarni ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Davlat korxonalarini xususiylashtirish bu mulkchilikning rivojlanishiga, uning yangi bosqichiga o'tishiga bo'lgan talabidan kelib chiqadigan bir jarayondir. Xususiylashtirishning rivojlanishini ta'minlaydigan muhim omillardan biri - bu ishlab chiqaruvchilar hamda tadbirkorlarning tashabbusi, ularning ishlab chiqarishdagi faolligi hamda ishbilarmonligidir. Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida hokimiyat va ishlab chiqarish sohalariga yangi ishbilarmonlar, aholining faol qismi jalb etiladi va mulkiy munosabatlarni rivojlantirishdan hamda mulk shakllarini takomillashtirishdan aholining shu qismi manfaatdorgina bo'lib qolmay, balki o'rta va quyi ijtimoiy qatlarni ham mulkiy munosabatlarni takomillashtirishdan manfaatdor qiladi.

Xususiylashtirish milliy miqyosida barcha mutaxassislarning ishtirokida hamda davlat mulkini boshqarishda vakolatli bor shaxslar qatnashib, xususiylashtirish mavjud qonunchilik asosida odilona olib borilishi taqozo qilinadi.

Davlat mulkini xususiylashtirish siyosati mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini, mahalliy va milliy sharoitlarni, urf-odatlarni hisobga olgan holda olib borilishini ko'zda tutadi.

Davlatlashtirishdan qaytishning muhim yo'nalishlari bu ijra munosabatlarini rivojlantirish va aksionerlik mulkini shakllantirish hisoblanadi. Bu jarayon ma'lum tadbirlarga rioya qilingan holda olib borilishi lozim, bu avvalo, ixtiyoriylik asosida, oshkoralik hamda jamoatchilikning umum ishtirokida amalga oshirilib u mehnat jamoalarining iqtisodiy manfaatiga, davlat manfaatlariga putar etkazmasligi, shu bilan birga iste'molchilar manfaatlariga ham zid bo'lmasligi zarur. Bu holda mahsulot hajmi, sifati va mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishni boshqarishni yaxshi tashkil etish, mavjud moddiy texnika, moliyaviy va mehnat resurslaridan, fan va texnika yutuqlari, yangi texnologiyadan samarali foydalanish, tovar ishlab chiqarishni ko'paytirish hisobiga bozorda narxlarining pasayishiga erishish yo'li bilan aholining moddiy tarovonligining oshishiga erishish talab etiladi.

**O'zbekistonda** iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidayoq mulkchilikning hamma shakllari teng huquqli ekanligi konstitutsion tarzda e'tirof etildi va davlat mulki monopolizmini tugatish hamda bu mulkni xususiylashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirish vazifasi qo'yildi. Avvalo mulkchilikning turli xil shakllari qaror topishi uchun teng huquqiy normalar va amal qilish mexanizmlari yaratildi<sup>1</sup>.

O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga yondoshuvning muhim xususiyati - uni dasturlar asosida bosqichma-bosqich

<sup>1</sup> Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari (1994 y. 21 yanvar) va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi (1994 yil 16 mart) farmonlar.



amalga oshirishdan iborat. 1992-1993 yillar xususiylashtirishning birinchi bosqichini o'z ichiga olib, bu bosqichda xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash tizimini qamrab oldi. Engil, mahalliy sanoatga, transport va qurilishga, boshqa tarmoqlarga qarashli ayrim o'rta va yirik korxonalar keyinchalik sotib olinish huquqi bilan ko'proq ijra korxonalariga, jamoa korxonalariga, yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlariga aylantirildi. Aksiyalarning nazorat paketi davlat ixtiyorida saqlab qoldindi.

Xususiylashtirishning birinchi bosqichida davlat xalq xo'jaligining iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lgan, biroq butun mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydigan ayrim sektorlarini, ayrim korxonalarni saqlab turishni va mablag' bilan ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oldi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichi natijasida kichik xususiylashtirish amalda tugallandi, davlat mulkini boshqarish va uni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish uchun kerak bo'lgan muassasalar tizimi tuzildi.

Savdo, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, mahalliy sanoat korxonalarini xususiy va jamoa mulki qilib berildi. Natijada 1997 yilda savdo-sotiq hajmi va umumiy ovqatlanish yalpi mahsulotining 95 foizdan ortiqrog'i davlatga qarashli bo'lmagan sektorga to'g'ri keldi. Uy joylarni xususiylashtirish jarayonida ilgari davlat ixtiyorida bo'lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog'i fuqarolarning xususiy mulki bo'lib qoldi.

Davlat ijtimoiy dasturida belgilab berilgan ikkinchi bosqich 1994-1995 yillarga to'g'ri keldi. Bu bosqichda ko'plab o'rta va yirik korxonalar hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi hamda ularning aksiyalari respublika qimmatbaho qog'ozlar bozorining asosini tashkil etdi. Davlat mulki hissadorlikka aylantirilishi bilan bir qatorda kichik xususiy biznes korxonalarini qizg'in tashkil qilindi.

Mulki davlat tasarrufidan chiqarishning va xususiylashtirishning bu bosqichda ochiq turdagi aksionerlik jamiyatlarini vujudga keltirish, davlat mulkini tanlov asosida hamda kim oshdi savdosida sotish amaliyotga joriy qilindi. Ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozorining yangi muassasalari barpo etildi.

Davlat mulkini xususiylashtirish boshlangan davrdan 1994 yil oxirigacha 54 mingga yaqin korxonalar va ob'ekt davlat tasarrufidan chiqarildi. SHulardan 18.4 mingtasi xususiy, 26.1 mingtasi aksiyadorlik, 8.7 mingtasi jamoa mulkiga o'tdi, 661 tasi ijara korxonalariga aylandi<sup>1</sup>.

Mulki davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan keladigan samara ikki yoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, u aholining bo'sh turgan mablag'larini o'ziga jalb qilib, ularning bozorga ta'zini pasaytiradi. Ikkinchi tomondan, yangi mablag'larni ishlab chiqarishga jalb etish va tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni yuzaga keltirish uchun sharoit yaratadi. Bu erda shuni ta'kidlash lozimki xususiylashtirish iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan sektorini shakllantirishning yagona yo'li emas. Tashabbuskorlik asosida

<sup>1</sup> Qarang: I.A.Karimov O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T. "O'zbekiston", 1995, 56-bet.

yakka tartibdagi xususiy mulkchilikka asoslangan, shuningdek, turli xil kooperativlar, shirkatlar, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar ko'rinishidagi kichik va o'rta korxonalarni tashkil qilish - ikkinchi qudratli jarayon hisoblanadi.

Respublika iqtisodiyoti 1996 yildan boshlab mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning uchinchi bosqichiga kirdi. Bu bosqich yakunlovchi xarakterga ega bo'lib, bu davrda xususiylashtirilmaydigan ob'ektlar ro'yxatiga kirmagan barcha ob'ekt va korxonalar davlat tasarrufidan chiqarildi.

Respublikada xususiylashtirishning adresli yo'naltirilganligi uning navbatdagi xususiyatidir. Bu aholining barcha qatlamlariga mazkur jarayonda aniqroq va natijaliroq qatnashishi imkonini beradi. Xususiylashtirishning adresli yo'naltirilganligi uy-joylarning o'z egalariга imtiyozli yoki bepul berilishida, aholining ko'proq muhtoj va zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning turli xil dasturlari byudjet mablag'lari hisobiga qoplanishida, qishloq aholisi o'z yordamchi xo'jaligi uchun chek erlar olishi kabilarda ifodalanadi.

O'zbekistonda xususiylashtirishning to'lovligi uning navbatdagi muhim xususiyatidir. Pulni to'lash orqali davlat tasarrufidagi korxonalar va ob'ektlarni xususiylashtirishda mulkni bepul taqsimlash bilan bog'liq salbiy holatlar bartaraf etilishi bilan birga qator muammolarni hal qilish imkoniyati yaratiladi. Bulardan asosiysi avvalo tadbirkorlikni, xususiylashtirilgan korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning moliyaviy manbalari paydo bo'ladi, bozor infrastrukturasi barpo etish uchun resurslar qancha keladi va aholini ijtimoiy muhofazalash dasturini ro'yobga chiqarish uchun mablag'lar jamlanadi.

Davlat mol-mulkini yangi mulkdorlarga sotish yo'li orqali ularning mulkchilik boshqa shakllariga aylantirilishi bilan birga xususiylashtirishdan olinadigan mablag'lar shu korxonaning o'zini qo'llab-quvvatlashga, yangi raqobatlashuvchi korxonalar barpo etishga ham sarflanadi.

Navbatdagi muhim xususiyat - respublikada mulkni davlat tasarrufidan chiqarish chog'ida aholi uchun kuchli ijtimoiy kafolatlar yaratildi va ta'minlandi<sup>1</sup>. Ijtimoiy kafolatlar bir butun imtiyozlar tizimi orqali yaratildi. Bular xususiylashtirilayotgan korxonalar mehnat jamoasiga aksiyalarni imtiyozli shartlar bilan sotish, yangi mulkdorga eskirgan asosiy fondlar hamda ijtimoiy infrastruktura ob'ektlarini bepul topshirish, davlat korxonalarining mol-mulki fermalar, bog'lar va shu kabilarni imtiyozli shartlar asosida xususiylashtirish, hamda soliq to'lashda ayrim imtiyozlar berish kabilardir.

Ijtimoiy kafolatlar iste'mol savatining eng kam miqdorini kuzatib borish, eng kam ish haqini, daromad solig'ini tartibga solish kabilarni ham o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy muhofazalash davlatning barcha mulkdorlar: xissadorlar, xususiylashtirilgan uy-joylarning, sotib olingan texnika va avtotransport vositalarining, er maydonlari, xususiylashtirilgan fermalar va boshqa vositalarning egalariining huquqlarini himoya qilishda o'z ifodasini topadi.

<sup>1</sup> Qarang: I.A.Karimov O'zbekiston, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1995.51 bet.

Respublikada davlat mulkini xususiylashtirishning o'ziga xos boshqa jihatlari Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan bayon qilingan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy qoidalaridan kelib chiqadi. Bular quyidagilar:

a) davlat mulkini xususiylashtirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning ichki mantiqiga bo'ysindiriladi va ularning asosini tashkil qiladi;

b) mulkni xususiylashtirish jarayoni davlat tomonidan boshqariladi;

v) xususiylashtirishni huquqiy-me'yoriy jihatdan ta'minlashda qonunlarga rioya etiladi.

Xissadorlik jamiyatlari ixtiyoridagi vositalar va mablag'lar turli mulkdorlarning sherikchilik asosida ma'lum guruhlariga birlashib bo'lgan individual tarzda o'zlashtirilishi tushuniladi. Bu korxonalar hissdorlikka tayanib, mulkdor o'zining mulkini pay sifatida umumiy ishga qo'yadi va daromaddan qo'shilgan ulushiga qarab tegishli qismini o'zlashtiradi. Mazkur mulk shakli hissdorlik jamiyatlari faoliyatida ko'rinadi.

Xissadorlik jamiyatlari turli xil mulkdorlar mablag'larini birlashtirishning jahon xo'jalik yuritish amaliyotida ishlab chiqilgan va sinalgan shakli. Uning yordamida nafaqat turli sarmoyalar, balki davlat va mehnatkashlar bir qismining mablag'lari birlashtiriladi.

Xissadorlik jamiyatlari mulkining shakllanishi turli xil yo'llar bilan sodir bo'ladi. Bu - hissdorlik asosida yangi korxonalar va banklarni tashkil qilish, davlat korxonalarini aksiyalarini chiqarish va shu orqali ularni hissdorlik korxonalariga aylantirish. Keyingi holda davlat aksiyalarining nazorat paketini saqlab qolish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Turli shakldagi mulklarning birlashtirish natijasida aralash mulk paydo bo'ladi. Bu mulk alohida olingan ob'ektni turli mulkdorlar ishtirokida o'zlashtirilishini bildiradi.

Respublikamizda xususiylashtirish bo'yicha qo'yilgan vazifa, davlat sektori bozor sharoitida ham sezilarli rol o'ynashi inkor qilmaydi. Chunki iqtisodiyotning davlat korxonalarini saqlab qolishi kerak bo'lgan sohalar ham mavjud. Bunday korxonalar uchun ularning bozor sharoitlariga tarkiban moslashuviga imkon beradigan xo'jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqish talab qilinadi.

#### **Asosiy tayanch tushunchalar:**

**Ishlab chiqarish usuli**-ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari birligi hamda o'zaro ta'siri

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar**-ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari va ularni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birligi

**Ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar**-bu kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ehtiyojlarni ishlab chiqarish taqsimlash ayriboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

**Texnologik usul**-mehnat vositalari materiallar texnologiya energiya axborotlar va ishlab chiqarishni tashkil etish birgalikda ishlab chiqarishning texnologik usuli deyiladi.

**Mulkchilik munosabatlari** – mulkka egalik qilish, undan foydalanish, jamiyat boyliklarini o'zlashtirish va ularni tasarruf qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

**Mulkka egalik qilish** – mulkdorlik huquqining mulk egasi qo'lida saqlanib turishi va yaratilgan boyliklardan o'zlashtirishning ijtimoiy shaklidir.

**Mulkdan foydalanish** – mol–mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi, ijtimoiy hayotda qo'llanilishidir.

**Mulknı tasarruf etish** – mol–mulk taqdirining mustaqil hal qilinishidir.

**Mulk ob'ektlari** – mulkka aylangan barcha boylik turlaridir.

**Mulk sub'ektlari** – jamiyatda ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy mavqeiga ega bo'lgan, mulk ob'ektni o'zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilaridir.

**Xususiylashtirish** – mulkka egalik qilish huquqining davlatdan xususiy shaxslar ixtiyoriga o'tishidir.

**Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish** – shu mulk hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarini vujudga keltirishidir.

### **Takrorlash uchun savollar va o'quv topshiriqlari.**

1. Tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning farqlanishi asosida nima yotadi? Bu munosabatlarga mulkchilik munosabatlarining ta'siri qanday?

2. Mulkchilikning mohiyatiga ta'rif bering va uning turli shakllarining iqtisodiy mazmunini tushuntiring. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy mazmunini ta'riflang.

3. Mulk shakllariga uning sub'ektlari mos keladimi? Mulk sub'ektlarining ko'p darajali bo'lishiga sabab nima? Mulkchilik shakllarining farqlanishi asosida nima yotadi? Mulk har bir shaklining /davlat, jamoa, aralash, xususiy/ tuzilish va tarkibini tushuntirib bering.

4. Bozor iqtisodiyotiga o'tish nima uchun mulkchilikning turli shakllarini taqozo qiladi? Davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish nima uchun hozirgi bosqichda ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi? Xususiylashtirish bosqichlari va shakllariga tavsif bering.

5. Xususiylashtirishning qanday usullarini bilasiz? Bu usullardan birini tanlab olishga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

6. Ishlab chiqarish usuli va iqtisodiy formasiyaning ustqurma, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hamda ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan bog'liqligi qanday?

7. Ishlab chiqarish usullarining eng muhim xarakterli belgilarini ajratib ko'rsating. Bir ishlab chiqarish usulining boshqasiga almashinishi sabablari haqida mulohaza bildiring.

8. Ishlab chiqarish texnologik usulining tarkibiy qismlarini sanab ko'rsating. Fan-texnika taraqqiyotining ishlab chiqarish texnologik usuliga ta'siri qanday?

Ishlab chiqarish texnologik usullarining bosqichlari bir-biridan nima bilan farqlanadi?

### Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. «Bizning bosh maksadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir», «O'zbekiston» 2005.
2. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz», T. «O'zbekiston», 2000y.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari.» -T. «O'zbekiston», 1998.
4. «To'g'ridan to'g'ri xususiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha c hora – tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel.
5. Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T., «Moliya» nashriyoti, 2002.
6. A. Qodirov. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
7. D. Tajiboeva. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
8. Makkonel K., Bryu S. «Ekonomiks», M.2002.
9. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Rayzberga.- Uchebnik: - INFRA – M.2004.
10. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof. M. N. Chepurina. Uchebnik: - INFRA – M.2004.
11. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsh. red. akad. V. I. Vidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA – M.2004.
12. Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
13. E. F. Borisov Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
14. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
15. Ioxin V. Ya. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
16. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy. d.e.n., prof. T. V. Chechelovoy. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalk so'zi - 25 mart.
2. Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov – 2005.
3. Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. Yaxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
4. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovi ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

Veb-saytlar:

1. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
2. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
3. <http://infoteka.economics.ru>
4. [www.finansy.ru](http://www.finansy.ru)
5. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
6. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
7. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
8. [www.iahon.mfa.uz](http://www.iahon.mfa.uz)
9. [www.budjet.rf.ru](http://www.budjet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ruzani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof.Sh.Sh Shodmonov,G.D.Bobabekova, G.T.Xalikova tomonidan tayyorlangan « Pedagogicheskoe masterstvo i innovasii v predpodovanii ekonomicheskoe teorii ».T-2004, « Innovasionnie metodi obucheniya v ekonomicheskom obrazovanii» va Sh.Sh.Shodmonov, T.M.Ziyaeva, M.T.Yaxshievalar tomonidan tayyorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami.T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.

**TOVAR- PUL MUNOSABTLARI RIVOJLANISHI BOZOR  
IQTISODIYOTI SHAKLLANISHI VA AMAL QILINISHINING  
ASOSIDIR.**

**Kirish**

**4soat**

**Reja:**

**1-§. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tish va uning rivojlanishi.**

**2-§. Tovar va uning xususiyatlari.**

**3-§. Qiymat qonuni va uning vazifalari**

**4-§. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari.**

**Kirish.**

Insoniyat tarixiy taraqqiyotning ko'pgina bosqichlarida iqtisodiy shakllanishning ayrim turlari uzoq vaqt mavjud bo'lib turishi mumkin. Masalan, ish usullarining deyarli barchasiga xosdir. Ibtidoiy jamoa tuzimi emirilayotgan sharoitdagi vujudga kelgan tovar ayirboshlash bir ishlab chiqarish usulidan boshqasiga o'tib, bir necha ming yillardan beri mavjud bo'lib, rivojlanib kelmoqda.

SHu bilan birga biron-bir iqtisodiy shaklning turli tarixiy davr sharoitidagi mazmuni, o'z mi, roli va ijtimoiy oqibatlari ko'p jihatdan turlicha bo'ladi. Lekin ularning umumiy, eng xarakterli belgilari saqlanib qoladi. SHu sababli mavzuni ijtimoiy xo'jalik, ya'ni ishlab chiqarish shakllarini taxlil qilishdan boshlaymiz. Keyin tovar va uning xususiyatlari, tovar qiymatining miqdori, uni aniqlashga bo'lgan yondoshuvlar, pulning vujudga kelishi, mohiyati va vazifalari yoritiladi.

**1-§. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga  
o'tish va uning rivojlanishi.**

Natural ishlab chiqarish. Umumiy iqtisodiy shakllarning tarixan birinchisi natural ishlab chiqarish bo'lgan, bunda mehnat mahsulotlar ishlab chiqaruvchining o'z ehtiyojlarini qondirish uchun, ichki xo'jalik ehtiyojlari uchun muljallangan. Iste'mol ko'pincha ishlab chiqarishga mos kelgan, ularning bir-biri bilan bog'lanishi juda oson bo'lib, ushbu xo'jalikning o'zida bo'lgan. Bunday munosabatlar hamma zarur narsani o'zi uchun tayyorlagan ibtidoiy jamoada xukm surgan. Patriarxal dehqon xo'jaligini va feodal pomestyalari asosan natural xo'jalik bo'lgan. Natural ishlab chiqarish sharti ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanganligi oqibati sifatida vujudga kelgan, u vaqtda ijtimoiy mehnatdan uning u yoki bu turi endigina ajrala boshlagan edi. Bunday sharoitda biqiq yoki o'z ehtiyojlarini o'zi qondiradigan ishlab chiqarish organizmlari paydo bo'lgan. Mehnat ularning tor doirasidagina ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan. Natural ishlab chiqarish shakli barcha iqtisodiy jarayonlarni bir xo'jalik doirasida qat'iy cheklab qo'yadi, tashqi aloqalar uchun yul ochilmaydi. Ishchi kuchi muayyan xo'jalikda

juda qattiq biriktirib qo'yiladi va ko'chib yurish imkonidan mahrum bo'ladi. Natural xo'jalik shakllarining xuddi shu ko'rsatkichlari qishloq xo'jalik jamoalari ming yillar davomida barqaror yashovchi bo'lib qolganligining «siri»ni ochib beradi. Natural xo'jalik ishlab chiqarish maqsadlarini nixoyat cheklab qo'yadi, ishlab chiqarish hajm jihatidan juda oz va turi jihatidan kam xil bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga buysungan. SHuning uchun ham jamiyat asta-sekinlik bilan tovar ishlab chiqarishga o'tadi.

Tovar ishlab chiqarish. Tovar ishlab chiqarish natural xo'jalikning rivojlanishi, uning turi va miqdorining o'sishi natijasida paydo bo'ldi.

Tovar ishlab chiqarish, ya'ni tovar xo'jaligida kishilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar buyum orqali, ular mehnati mahsullarini oldi-sotdi qilish orqali namoyon bo'ladi. Tovar ishlab chiqarishning natural ishlab chiqarishdan farqi shundaki, bunda tovar yoki xizmat o'zining iste'moli uchun emas, balki bozorga sotish uchun yaratiladi.

Bu ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarning, mehnatni o'lchash va uni jamiyatning jami mehnatga kiritishning o'ziga xos usulidir. Natural xo'jalikni siqib chiqarish va tovar ayirboshlashning rivojlanish jarayoni mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, xususiy mulkning vujudga kelishi va rivojlanishi asosida individual xo'jaliklarning tovar ayirboshlashga, oldi-sotdiga o'tish yuli bilan boradi. Ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuv, ularni turli xil ishlab chiqaruvchilar o'rtasida ayirboshlashni zarur qilib qo'yadi. Ixtisoslashuv esa mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi, demak tovar ayirboshlash faqat zarurgina emas, balki foydali bo'lib boradi. Vaqtni va moddiy resurslarni tejash qonuni tovar xo'jaligini rivojlantirishning xarakterlantiruvchi kuchi bo'lib chiqadi. Tovar ayirboshlashga tortiladigan ishlab chiqaruvchilar bir-biriga tobora ko'proq bog'liq bo'lib qola boshlaydi.

Kapitalizmga borgan ishlab chiqarish usullarida tovar tashkilotlari, jamoalar, quldor latifudiyalari, feodal va dehqon xo'jaliklar o'rtasida aloqalar o'rnatilishiga yordam berib, ishlab chiqarishning va umuman jamiyatning rivojlanishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochgan.

Feodal tuzumi emirilish davrida tovar munosabatlari tez yoyila boshladi. Biroq bu davrda asosan xunamandchilikdan iborat bo'lgan oddiy tovar ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Insoniyat jamiyati rivojining kapitalistik ishlab chiqarish usuli sharoitida tovar munosabatlari jamiyat iqtisodining barcha tomonlarini keng va chuqur kamrab oladi.

Tovar xo'jaligining va umuman ayirboshlash vujudga kelishi va amal qilinishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari hamda shart-sharoitlari qanday? Bu, birinchidan, ijtimoiy mehnat taqsimotidir, bunda ishlab chiqaruvchilar u yoki bu aniq mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Ixtisoslashuv, o'z navbatida, siyosiy ustunlik prinsipi buyicha, ya'ni mahsulotni nisbatan kam muqobil qiymatda ishlab chiqarish layoqati bilan aniqlanadi. Bu kategoriya iqtisodiy nazariyaning markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi har xil malaka va



mahoratga ega bo'lad*i*, cheklangan resurslar bilan etarlicha ta'minlanadi. Masalan, ikki kishi oyoq kiyim va ko'ylak ishlab chiqaradi. Birinchisi bir oy davomida 3 juft oyoq kiyim tayyorlaydi yoki 6ta ko'ylak tikadi. Ikkinchisi esa mos ravishda 2 juft oyoq kiyim yoki 8ta ko'ylak tayyorlaydi. Birinchi kishining bir juft oyoq kiyimining qiymati ikkita ko'ylakka teng. Birinchi ishlab chiqaruvchida oyoq kiyim ishlab chiqarishning qiymati nisbatan kam, demak u to'liq oyoq kiyim ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi zarur. Ikkinchisida ko'ylak nisbatan kam qiymatga ega bo'lganligi sababli, uni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi maqsadga muvofik hisoblanadi. Ikkinchidan, ishlab chiqaruvchilar xususiy mulk munosabatlari tufayli iqtisodiy jixatdan bir —biridan muayyan tarzda alohidalashib qoladi, bunda ular o'z mehnat natijalarini o'zlari tasarruf qiladilar. Iqtisodiy alohidalik nima, ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish zarurligi va yaratilgan mahsulotlarni kimga va qaerga sotishni faqat ishlab chiqaruvchining o'zi xal qilishini bildiradi. Xuddi shu ikki holat tovar ishlab chiqarishni zarur qilib qo'yadi va bozor vujudga kelishining shart-sharoiti hisoblanadi. Mehnat mahsuli tovarga, ya'ni bozorda ayirboshlash uchun, sotish uchun tayyorlanadigan narsaga, ishlab chiqaruvchilar esa tovar ishlab chiqaruvchilarga aylanadi.

Nixoyat, bozor vujudga kelishining muhim shart —sharoitlaridan biri erkin ayirboshlash hisoblanadi. Chunki ijtimoiy mehnat taqsimoti, ixtisoslashuvi va iqtisodiy alohidalik nima, qancha va kim uchun ishlab chiqarishni mustaqil aniqlaydigan, ierarxiyaga asoslangan tizimlarda erkin ayirboshlash xo'jalik gumashmalariga ular faoliyatining eng samarali yunalishini ko'rsatib beradigan erkin baholarning shakllanishiga yordam beradi.

## 2-§. Tovar va uning xususiyatlari.

Tovar-pul munosabatlarini tushunishda tovarning mazmunini uning hususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga egadir.

Tovar deb,birom bir naflilikka va qiymatga ega bo'lgan ayirboshlash uchun yaratilgan mahsulotga aytiladi. YOki, boshqacha aytganda, tovar naflilikka iste'mol qiymatga va almashuv qiymatiga ega bo'lgan bozor uchun ishlab chiqariladigan mahsulot yoki xizmatlardir.

Demak, tovarning ikki xususiyati bor: *birinchidan*, u kishining qandaydir ehtiyojini qondiradi: *ikkinchidan*, u boshqa buyumga ayirboshlana oladigan buyumdur. Boshqacha aytganda, tovar iste'mol qiymatga va almashuv qiymatga ega.

Buyumning iste'mol qiymati shundan iboratki, u kishilar uchun foydali, naflidir. U shaxsiy iste'mol buyumi sifatida bevosita yoxud ishlab chiqarish vositalari sifatida bilvosita kishilarning biron —bir ehtiyojini qondiradi.

Madomiki, tovar mehnat mahsulining shakli ekan, mehnat mahsulining yuqorida qarab chiqilgan barcha xossalari tovarga xosdir.

Xo'sh, tovarning mahsulotdan farqi nimada? Tovar, eng avvalo, o'z iste'moli uchun emas, balki boshqa mahsulotlarga ayirboshlash, bozorga sotish

maqsadida tayyorlanadigan mahsulotdir. Tovarning natural – buyum va ijtimoiy – iqtisodiy tomonlari xususiyatlari ana shundan kelib chiqadi.

Xar bir tovar ma'lum bir nafillikka ega, lekin bu iste'mol qiymat uni yaratuvchining o'z ehtiyojlari emas, balki ayirboshlash orqali boshqa kishilar ehtiyojini qondiradi, ya'ni ijtimoiy iste'mol qiymat hisoblanadi. Iste'mol qiymati tovarlarning boshqa tovarlarga ayirboshlanish qobiliyatiga ega bo'lganligi uchungina, u o'zining yaratuvchini qiziqtiradi. Tovarning shu xususiyati, ayirboshlanuvchanligi uning almashuv qiymati nomini oladi. Tovarlarini sotishda ularning narx ko'rsatkichi almashuv qiymati yaqqol ko'rsatadi. Inson mehnati bilan yaratilmagan ko'plab buyumlar masalan, buloqdagi suvlar, yovvoyi daraxt mevalari iste'mol qiymatiga ega bo'ladi. Lekin ular ham doim ham tovar bo'lavermaydi. Buyumlar tovar bo'lishi uchun, u ayirboshlashga mo'ljallangan, bozorga, sotishga chiqarilgan bo'lishi zarur.

Almashuv qiymat – bu biror turdagi iste'mol qiymatning boshqa turdagi iste'mol qiymatga ayirbosh qilinadigan miqdoriy nisbati. Masalan, bitta bolta 20 kg, gallaga ayirbosh qilinadi. Ayirbosh qilinadigan tovarlarning bu miqdoriy nisbatida ularning almashuv qiymati ifodalanadi.

Almashuv qiymati nimaga asoslanadi? Qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlari<sup>1</sup> hisoblaydiki, tovarlar qiymatining umumiy asosi – bu mehnat, shu sababli ular ma'lum miqdorlarda bir-biriga tenglashtiriladi. Ularning fikricha tovarlarning tabiiy xususiyatlaridan birortasi – og'irligi xajmi, shakli va shu kabilar umumiy asos bo'la olmaydi, faqat mehnat sarflari shunday asos hisoblanadi. Almashivning zarur sharti ayirboshlanadigan tovarlarning xar xil iste'mol qiymatlari hisoblanadi, lekin xar xil tovarlarining iste'mol qiymati sifat jixatidan turlicha bo'lishi mumkin: mehnat qiymati nazariyachilari karashlaricha miqdoriy o'lchamga ega emas. Miqdor jixatdan baravarlashtirish esa ular fikricha hamma sifat jixatidan umumiy, yagona biron-bir narsa borligini takozo etadi. Ayirboshlanadigan tovarlar uchun shunday umumiy narsa ularni yaratgan mehnatdir.

Bu o'rinda so'z mehnatning muayyan, aniq turlari to'g'risida bormaydi. Bu turlar bir-biridan sifat jixatdan farq qiladi, bu esa aniq iste'mol qiymatlarining xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Tovarlar o'lchovdosh bo'lishining boisi shuki, bularning hammasi umuman mehnat mahsulidir, ya'ni inson kuchi, miyasi, muvagi asablari va xokazolari sarfning mahsulidir. Demak, umuman inson mehnati mahsuli sifatida tovarlar bir xil va o'lchovdoshdir. Tovarida mujassamlashgan ijtimoiy mehnat uning qiymatini tashqil qiladi. Bu qiymat tovar ayirboshlaganda ko'rinadi, shuning uchun almashuv qiymati (ya'ni iste'mol qiymatlarini ayirboshlash nisbati) qiymat shakli bo'lib, uning tashqi ko'rinishi bo'lib xizmat qiladi. Tovarning o'zi esa ikki tomonining iste'mol qiymati va qiymatining uzviy birligi bevosita ish vaqtlarida, ijtimoiy zarur ish Vaqti deb ataladigan ish Vaqtida hisoblanadi. Ijtimoiy zarur ish Vaqti muayyan ijtimoiy

<sup>1</sup> Tovar qiymatini mehnat bilan aniqlashga yondoshuvlarida ma'lum farqlar mavjud bo'lsada ularga A.Smit, D.Rikardo, K.Marks, U.Petti, Dj.S.Milt va boshqa ayrim iqtisodchilarni, ularning izdoshlarini kiritish mumkin.

normal ishlab chiqarish sharoitida va muayyan jamiyatdagi mehnat malakasi va jadailashuvi darajasi o'tracha bo'lgan sharoitda biron bir tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqtidir.

Bu erda yana savol tugiladi –bu qanday mehnat: oddiymi yoki murakkab, malakalimi yoki malakasiz, aqliymi yoki jismoniy. Qiymatni hisoblashda nisbatan murakkab, mehnat ko'paytirilgan yoki darajaga keltirilgan oddiy mehnat sifatida chiqadi. shu sababli oz miqdordagi murakkab mehnat ko'p miqdordagi oddiy mehnatga tenglashtiriladi. Murakkab mehnatni oddiy mehnatga keltiruvchi koeffisientlar qanday yoki kim tomondan aniqlanadi?

Qiymatning mehnat nazariyasi bu savollarga aniq javob bermaydi. Ularni ilmiy jixatdan aniqlash zarurdir.

Qo'shilgan miqdor foydaliligi nazariyasi vaqillari (K.Menger, E.Bem-Baver, F.Vizer) ayirboshlash asosida taqqoslash o'lchami mehnat qiymati emas, naflilik yotadi deb hisoblaydi. SHu bilan birga ularning goyasida xususlan xar xil naflilikni hisoblash va takksolash muammosi muhim urinni egallaydi.

Mavzuning davomida ko'pchilik G'arb iqtisodchilari fikricha iqtisodiy nazariyadan «sub'ektiv inqilob» nomi ostida qayd qilinib, xaqiqiy to'ntarish deb hisoblangan qo'shilgan miqdor naflilik nazariyasining ancha keng tavsifiga to'xtalamiz.

Tovarda mujassamlashgan mehnatning ikki yoklama tabiati. Qiymatning mehnat nazariyasiga asos solganlar jumlasiga klassik burjua siyosiy iqtisodning asoschilari Uilyayum Petti, Adam Smit va David Rikardo kirsada, bu nazariyaning rivojlantirish –tovar yaratish uchun mehnatning ikki tomonlama tabiati kashf etish va taxlil qilish K.Marks zimmasiga tushdi. Bu masala buyicha K.Marks taxlilining qisqacha mazmuni qarab chiqamiz. Tovarning ikki xil xususiyatga ega bo'lishiga sabab tovar ishlab chiqaruvchi mehnat tabiatining ikki tomonlamaligi deb hisoblanadi. Bir tomondan, bu –muayyan turdagi mehnatdir. U o'ziga xos mehnat quroli va predmetlarning kasbiy malakasi va mutlaqo aniq natija –muayyan naflligi yoki iste'mol qiymati bilan xarakterlanadi. SHuning uchun, iste'mol qiymatni yaratgan mehnat aniq mehnat deb nom olgan. Ikkinchi tomondan, mehnat –aniq shakldan qat'iy nazar umuman sarflangan inson ishchi kuchidir, jami ijtimoiy mehnatning kismidir. U o'zining shu sifatida absrakt mehnat deb ataladi. Bu mehnat esa tovar qiymatini yaratadi. Umuman mehnat va ijtimoiy mehnat jamiyatning taraqqiyotining hamma bosqichlarida mavjud bo'lgan. Ibtidoiy jamiyatda ham, patriarxal oilada ham odamlar kuchlarini sarflab, biron-bir tarzda bir-birlari uchun mehnat qilganlar. Biroq bunda qiymat vujudga kelmagan, tovar yaratilmagan. Demak, qiymatda oddiy ijtimoiy mehnat emas, balki alohida tarixiy sharoitdagi ijtimoiy mehnat mujassamlanadi.

Xo'sh, uning o'ziga xos xususiyati nimada? Bu xususiyat shundaki, tovar ishlab chiqarish sharoitida mehnatning ijtimoiy xarakteri yashiringan bo'ladi. Mehnat faqat ayirboshlash sohasida, ya'ni o'zi amalga oshib bo'lganidan keyin ijtimoiy xarakterni namoyon etadi. Qiymat yaratuvchi absrakt mehnat. – mehnatning faqat tovar ishlab chiqarishiga xos bo'lgan va alohidalashgan tovar ishlab chiqaruvchilar munosabatini ifodalaydigan o'ziga xos ijtimoiy shakldir.

Bu koida, K.Marks fikricha, ijtimoiy mehnatning moddiylashuviga qiymatga ham bəb-baravariga taaluqlidir. Qiymat tovarning emas, balki faqat mehnatning ijtimoiy xossasi bo'lib, tabiat ashyolarining birorta ham molekulasi, zarrachasi yo'qdir. Qiymatning asosida odamlar bir-birlari uchun mehnat qilishlarini bildiruvchi ijtimoiy mehnat yotadi. Biroq, alohidalashgan tovar ishlab chiqaruvchilar mehnati singari o'zining ijtimoiy xarakterini faqat mehnat mahsullarini ayirboshlash orqali ko'rsatadi.

Tovarlar qiymatining miqdori mehnat unumdorligiga qarab o'zgaradi. Mehnat unumdorligi ma'lum ish vaqti birligi mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori bilan yoki mahsulot birligini chiqarish uchun sarflangan ish vaqti bilan o'lchanadi. Mehnat unumdorligining o'zgarishi tovar birligi qiymatining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Mehnat unumdorligi o'ssa, tovar birligining qiymati kamayadi yoki aksincha, mehnat unumdorligi kamaysa, tovar birligining qiymati oshadi.

Mehnat unumdorligiga bir qancha omil ta'sir qiladi. Bu omillar mehnat qurollarining rivojlanishi darajasi va samaradorligi, ishchining malaka darajasi, fan va texnikaning taraqqiyoti darajasi, fan va texnika yutuqlari ishlab chiqarishga joriy etish darajasi, ishlab chiqarishning to'planuv darajasi, tabiiy sharoitlardir.

### 3-§. Qiymat qonuni va uning vazifalari

Qiymatning mehnat nazariyasi. YUqorida ta'kidlanganimizdek, bu nazariya tarafdorlari qarashicha, tovarlarning ayirboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi. Qiymatning miqdori esa, ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan, ya'ni ijtimoiy zaruriy ish vaqti bilan o'lchanadi.

Ijtimoiy zaruriy ish vaqti ishlab chiqarishning mavjud ijtimoiy normal sharoitda va shu jamiyatda mehnat maxorati va jadallashuvining o'rtacha darajasida biron iste'mol qiymatini tayyorlash uchun talab qilinadigan ish vaqtidir.

Ijtimoiy normal (yoki tipik) ishlab chiqarish sharoiti muayyan turdagi tovarlarning aksariyat kismi yaratiladigan sharoitdir. Bu odatda o'rtacha sharoit, faqat shu sharoitda o'rtacha maxoratga ega bo'lgan va o'rtacha jadallik bilan ishlaydigan ishlab chiqaruvchi bir soatlik mehnat mobaynida bir ijtimoiy normal sharoitga mos kelmasa (undan yaxshiroq yoki yomonroq bo'lsa), yoxud xodimning mahorati va mehnatining jadalligi jamiyatda qaror topgan o'rtacha darajada yaxshiroq yoki pastroq bo'lsa, bu holda bir soatlik mehnat mobaynida yaratgan qiymat tegishlicha ko'proq yoki ozroq bo'ladi.

Qiymatning mehnat nazariyasiga ko'ra ijtimoiy zarr ish vaqti o'ziga xos ijtimoiy mehnat me'yoriy rolni o'ynaydi. Bu me'yor bozorda aniqlanadi va tovar ishlab chiqaruvchilar unga amal qilishlari zarurdir. Keragidan ortiqcha mehnat sarflari qiymat yaratmaydi, ya'ni jamiyat tomonidan e'tirof etilmaydi, rad etiladi. Bozorda muayyan turdagi tovarlarning asosiy massasini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lganidan amaldagi ortiqcha mehnat sarflariga hech kim to'lamaydi.

Tovar qiymatida oddiy mehnat ifodalanadi. Oddiy mehnat deganda maxsus tayyorgarlik talab qilmaydigan mehnat tushuniladi. U turli mamlakatlarda va turli

davlatlarda bir xil emas. Lekin qiymat namoyon bo'ladigan xar bir muayyan bozorda (u xoh ichki, xoh tashqi bozor bo'lsin) oddiy mehnat avvaldan mavjud mehnatdir. U shunday boshlang'ich negizki, malakasi jihatidan unga tenglashtiriladi. Binobarin, murakkab mehnat darajasiga ko'tarilgan yoki ko'paytirilgan oddiy mehnat sifatida namoyon bo'ladi. Murakkab mehnatni oddiy mehnatga tenglashtirish bozorda individual sarflarni ijtimoiy zarur sarflariga tenglashtirish bilan birga sodir bo'ladi.

Iste'mol qiymatining, yangi nafillikning o'zi qanday o'lchanadi? Dona, tonna, metr va xokazolar kabi ko'rsatkichlar muayyan turdagi mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari bir-biridan ko'p farq qilmagan, talab esa barqaror bo'lgan sharoitdagina qo'llanilishi mumkin. Bunday tafovutlar o'sa borgan sari mazkur o'lchovlar yaroqsiz bo'lib qoladi. Bir tonna ruda, agar undagi quruq jinsning solishtirma og'irligi ancha farq qilsa, boshqasiga ekvivalent bo'lmaydi, og'irligi bir xil, lekin turli markadagi sementning turi ham bir-biridan farq qiladi va xokazo. SHu va shunga o'xshash hollarda tovarlar muayyan turining asosiy iste'mol xossalarini ifodalovchi boshqa o'lchov kerak bo'ladi. Bunda mahsulot sifati uning tabiiy xususiyatidan iborat bo'lmaydi. Mahsulot iste'mol qiymatining u qondiradigan ehtiyojga mos kelish darajasi muhim ahamiyatga ega. YA'ni mahsulotning naf keltirish darajasi —uning inson, jamiyatning ehtiyojlarini qondirish layoqati qiymati miqdoriga bab —baravar taqsimlanadi.

Qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlari —tovar ishlab chiqarish sharoitda tovar ishlab chiqaruvchilar o'trasidagi aloqalarni, ijtimoiy mehnatni taqsimlash va rag'batlantirishni tartibga soluvchi, ob'ektiv qiymat qonunini mavjud bo'lishini tan oladi. Ular fikriga ko'ra, bu qonunga binoan tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy zaruriy sarflarning yuqorida keltirilgan tariflaridan kelib chiqsak, qiymat qonuni individual mehnat sarfi ijtimoiy zarur mehnat sarfidan ko'proq bo'lgan ishlab chiqaruvchilarni, ya'ni shu vaqt ichida ko'p miqdorlarda iste'mol qiymatlarining ko'proq foydali samaraning ko'p tayyorlanishi yoki yanada ko'proq mehnat unumdorligini ta'minlaydigan ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantiradi. Mehnat unumdorligi ijtimoiy normal mehnat unumdorligidan kam bo'lgan ishlab chiqaruvchilarni qiymat qonuni jazolaydi. Bu bilan iqtisodiy sharoitlar tovar ishlab chiqaruvchilarning mehnat unumdorligini oshirishga yoki boshqa xil tovarlarni chiqarish uchun o'tishga rag'batlantiradi. Aks holda ular bozordan siqib chiqarilish, xonavayron bo'lish xavfi ostida kolishlar mumkin.

Qiymat qonuni tovar ishlab chiqaruvchilarni ularning individual mehnat sarflari bilan ijtimoiy zarur mehnat sarflari o'trasidagi nisbat bog'liq holda tabakalashtiradi, sarflarni kamaytirishni rag'batlantiradi va mehnatning ishlab chiqarish sohalari buyicha taqsimlanishini tartibga solib turadi. Qiymat qonuni baholar qonuni sifatida ko'rinadi. Baholar asosida qiymat yotadi. Uning vazifasi baholar qiymat bilan teng bo'lganda ham, ular farq qilganda ham amalga oshaveradi. Masalan, eng yuksak mehnat unumdorligiga erishgan ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlarini ijtimoiy zarur sarflaridan kamroq lekin ayrim individual sarflaridan yuqori baholarga sotishlari va yuqori foyda olishlari

mumkin. Lekin ularning axvolini ko'proq kafolatlangan deb bo'lmaydi. Agar ular texnik va tashkiliy yangiliklarni qo'llamasalar, ko'proq samara beradigan ishlab chiqarish usullarini qidirib topmasalar, ular bir muncha vaqtdan keyin o'z ustunliklaridan ajralib qoladilar.

Qiyamat qonunining tartibga solib turuvchi mexanizmi rakobat kurashi natijasida bozor baholarining stixiyali ravishda tebranib turishidan, ularning ijtimoiy qiymatdan farq qilib turishidan iborat. Tovar bahosining ijtimoiy qiymatidan chetga chiqish shart-sharoitlari kuyidagilardan iborat deb hisoblanadi:

|                |        |               |
|----------------|--------|---------------|
| Talab = taklif |        | baho = qiymat |
| Talab > taklif | bo'lsa | baho > qiymat |
| Talab < taklif | bo'lsa | baho < qiymat |

SHunday qilib, tovarlar bahosining ular qiymatidan farq qilishi tovar ishlab chiqaruvchilarning xoxishi bilan sodir bo'lmay, balki ob'ektiv qiymat qonunining kuchi ta'siri ostida bo'ladi.

Qiyamat qonuni resurslarning turli ishlab chiqarish sohalari o'rtasida taqsimlanishini tartibga solib turish vazifasini bajarayotganda ham baholar dinamikasi muhim rol o'ynaydi. Agar u yoki bu aniq tovar ijtimoiy ehtiyojini qondirish uchun zarur bo'lganidan kamroq ishlab chiqarilsa, bu talabning taklifdan oshib ketishiga sabab bo'ladi. Tovar bahosi oshib ketadi. Baholar, shu bilan birga daromadlar kamayadi, bu tarmoqdagi ishlab chiqarish resurslari daromad yuqori bo'lgan boshqa tarmoqlarga o'tib ketadi. Qiymatning mehnat nazariyasi modellarida qiymat qonuniga asoslangan ishlab chiqarish nisbatlari tartibga soluvchi bozor mexanizmi ana shunday.

Qo'shilgan miqdor nafililigi nazariyasi. YUqorida qarab chiqqanimizdek, qiymatning mehnat nazariyasiga ko'ra, mehnat sarflarining ijtimoiy zaruriy darajasi faqat bozorda, ayirboshlashda yuzaga chiqadi. Qiymat faqat bozorda almashuv qiymat ko'rinishida o'zining ifodalanish shaklini oladi. Qisqacha aytganda, qiymat ishlab chiqarishda yaratiladi, bozorda esa namoyon bo'ladi. SHu erda qo'shilgan miqdor nafililigi nazariyotchilari karashlari bilan qarama-qarshilik paydo bo'ladi. Uning mohiyati nimadan iborat? Agar tovar bozorda sotib olinsa, bu kimdir tovar ishlab chiqarishiga ketadigan sarflarni ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari sifatida baholashi sababi emas, balki mazkur tovar xaridor uchun foydali samaraga ega bo'lishi sababli ruy beradi, xaridor bu tovarni qadrlaydi.

Kishilar tomonidan juda xilma-xil moddiy va ma'naviy ne'matlar (hamda xizmatlar) ularni ishlab chiqarishga ijtimoiy zaruriy mehnat sarflanganligi uchun emas, balki ne'matlar nafililikka ega bo'lishi sababli qadrlanadi va u yoki bu tovarni ishlab chiqarishga mehnat sarflari faqat shu sababli amalga oshiriladiki, kishilar ma'lum foydaliliklarga ehtiyoj sezadi. U yoki bu mehnat sarflarining ijtimoiy zarurligi kim tomonidan yoki nima bilan aniqlanadi? Oddiy qilib bozor tomonidan! –deb aytish so'zsiz tugri, lekin bu to'liq emas va juda umumiy javob. Keyingi qo'shilgan miqdor nafililigi nazariyasi tараfdorlari fikrlariga ko'ra, faqat

to'vaming foydaliligiga mehnat sarflariga ijtimoiy zaruriy deb nomlanadigan xarakter berishi mumkin.

Qiyamatning mehnat nazariyasi tarafdorlari juda yaxshi tushunadiki, ne'matlarning ijtimoiy naflliligisiz, iste'mol qiyamatlarisiz tovar kategoriyasining mavjud bo'lishi umuman mumkin emas.

Keyingi qo'shilgan miqdor (tovar) naflliligi nazariyasi bilan qiyamatning mehnat nazariyasining bir-biriga to'g'ri kelmasligi turli xil iste'mol qiyamatlarini yoki nafllilarni hisobga olish muammosi bilan bog'liq. Bu masala qo'yilishining o'zi birinchi qarashda be'mani ko'rinishi mumkin. Nima foydali olmami yoki tanbur? Sog'lom aql doirasida bu savolga javob mumkin emasligi keyingi qo'shilgan miqdor nafllilik nazariyasi xatoligiga eng ishonchli isbot deb hisoblanadi. Albatta, savol bunday mavxum qo'yilganda unga javob berish kerak emas. Ammo xo'jalik qarorlarini ishlab chiqishda xar bir aniq holda tadbirkor tomonidan yoki shaxsiy iste'mol qilish jarayonida foydali samarali taqqoslash doimo ruy beradi. Masalan, agar inson og'ir kasal bo'lib vitamin etishmasligidan kiynalsa, nima foydali olmami yoki tanbur, degan savolga javob berishi shakshubxasiz aniq. Yoki er qimirlash natijasida ko'plab turar joylar buzilgan bo'lsa, maxalliy xokimiyat o'z byudjeti sarflarini muxokama qilishda, kaysi foydaliroq – turar joylarni qayta tiklashmi yoki opera teatri qurishmi? – degan savolga javob topishda qiynalmaydi. Xar doim xo'jalik qarorlari qabul qilish talab qilinganda, umuman ehtiyojlarni taqqoslamasdan, u yoki bu moddiy va ma'naviy ne'matlarning foydali samarasiga baho bermasdan hech qanday iqtisodiy faoliyat mumkin bo'lmagan bo'lardi.

Keyingi qo'shilgan miqdor foydaliligi nazariyasi tarafdorlari, foydalilikning ikki turini ajratib ko'rsatish zarur deb hisoblaydi. a) abstrakt yoki tug'ma foydalilik, ya'ni ne'matlarning kishilar biron-bir ehtiyojlarni qondirish layoqati; b) aniq foydalilik, bu ne'mat mazkur nusxani foydaliligining sub'ektiv bahosini bildiradi. Bu sub'ektiv baho ikki omilga bog'liq; mazkur ne'matning mavjud zaxirasi va unga bo'lgan ehtiyojning tuyinganlik darajasi (ehtiyojning jadallashish darajasi).

Keyingi qo'shilgan miqdor naflliligi nazariyasi tarafdorlari sub'ektiv foydalilik miqdorini hisoblashda G.Gosen qonunidan foydalanadi (nemis iqtisodchisi, 1810-1858 yy). Bu qonunga binooan, ehtiyoj qondirilib borilishi bilan «to'yinganlik darajasi» o'sadi, aniq qo'shilgan miqdor naflliligi esa tushadi («zaruriy ehtiyoj» darajasi). Bu mazkur ehtiyojni qondiruvchi har bir navbatdagi qo'shimcha ne'mat oldingisiga qaraganda kamroq nafllilikka ega bo'lishini bildiradi, ne'matlar zahira cheklangan bo'lganda esa uning «zaruriy ehtiyojini» qondiruvchi keyingi nusxasi mavjud bo'ladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, mazkur turdagi ne'mat qiymati, eng zarur ehtiyojni qondiruvchi keyingi nusxaning naflliligi bilan aniqlanadi.

Keyingi qo'shilgan miqdor naflliligi muammosini o'rmonda yashovchi chol ega bo'lgan besh qop g'alla misolida tasvirlash mumkin. Bu g'alla qoplarining foydaliligi kamayib boruvchi tartibda joylashadi: birinchi qop eng zarur oziq – ovqat ehtiyojlarini qondirish uchun iste'mol qilinadi, ikkinchisi – ovqatlanishni

yaxshilash uchun, uchinchi –uy parrandalarini boqish u, to'rtinchi –pivo tayyorlash uchun, beshinchi –ermak uchun (to'tiqushni ovqatlantirishga).

Qandaydir bir qop g'alladan mahrum bo'lgan chol amalda to'tiqushni ovqatlantirishdan, ya'ni unga zarur bo'lgan ehtiyojini qondirishdan voz kechgan bo'lur edi. SHu sababli, xususan, u besh qop g'alladan har birining naflliligini aniqlab beradi.

Demak, har bir ne'matning oxirgi qo'shilgan birligi, ya'ni uncha muhim bo'lmagan ehtiyojni qodiruvchi birligining naflliligi qo'shilgan miqdor naflliligidir.

Qiymat va baho nazariyasida yangi yo'nalishni boshlab bergan kishi, mashhur ingliz iqtisodchisi M.A.Marshall hisoblanadi. Qo'shilgan miqdor naflliligi nazariyasining bir tomonligini u qiymatni faqat nafllilik bilan tushuntirishda ko'rdi. A.Marshall keyingi qo'shilgan miqdor naflliligi nazariyasini talab va taklif nazariyasi hamda ishlab chiqarish harajatlari nazariyasi bilan bog'lashga harakat qildi.

A.Marshallning tovar qiymati nima bilan aniqlanishini bilishda qo'shilgan miqdor naflliligi va ishlab chiqarish harajatlari sintez qilish (umumlashtirish) zarurligi haqidagi fikri juda mashhur. Neoklassiklarning qiymat va bahoning bir negizli (monistik) nazariyasini yaratishga urinishdan chekinish xususan A.Marshall ishlari bilan bog'liq. Neoklassiklarning prinsiplari qiymatning yagona manbai, bahoning yagona asosi va bozor xo'jaligida jamiyat daromadlarining yagona manbai topilishi zarurligini bildiradi. Bunday yagona manba, masalan, K.Marks nazariyasida mehnat, neoklassiklarda qo'shilgan miqdor naflliligi kategoriyasi hisoblanadi. A.Marshall nazariyasida esa qiymat va baho ham talab (qo'shilgan miqdor naflliligi) va ham taklif (tovar ishlab chiqarish harajatlari) tomonida yotuvchi bozor kuchlari o'zaro ta'siri orqali aniqlanadi.

A.Marshall fikricha, tovar qiymati teng darajada keyingi qo'shilgan miqdor naflliligi va ishlab chiqarish harajatlari bilan aniqlanadi. SHunday qilib, A.Marshalldan boshlab iqtisodiyot nazariyasida qiymatning tub asosini qidirib topishdan chekinish va funksional tahlilga, ya'ni bir vaqtda baholar va talab – takliflarning o'zaro ta'sirini aniqlashga o'tildi.

#### 4-§. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari.

Pul uzoq zamonlardan beri odamlarga ma'lum. Pul qanday paydo bo'lgan va qanday tarixiy yo'lni bosib o'tgan? Pulning kelib chiqishi haqidagi masala turli xil nazariyotchilar tomonidan ayirboshlashning rivojlanish jarayoni bilan bog'liqligi ta'kidlanadi.

Bir tovarning qiymati u boshqa tovarga ayirboshlaganda ma'lum bo'ladi (T-T). Birinchi qarashda ayirboshlash bitimida tovarlar bir xil rol o'ynaydigandek ko'rinadi. Aslida esa ulaming roli turlichadir. Bir tovar o'z qiymatini boshqa tovarga nisbatan ifodalaydi. Ikkinchi tovar esa (uning qiymatini boshqa tovarga nisbatan ifodalaydi) ekvivalent rovida chiqadi, qiymatning ekvivalent shaklini tashkil etadi. Xuddi mana shu erda pulning kurtagi mavjud bo'ladi.



Ayirboshlash rivojining dastlabki bosqichini qiymatning oddiy yoki tasodifiy shakli deb ataladi. Bunda, masalan, boltaning egasi uni 4 qop donga almashtiradi. ( 1 bolta= 4 qop don).

Bu tenglikda bolta o'z qiymatini donga ifodalaydi. Don esa bolta qiymatining ifodasidir, uning qiymatini ifodalash uchun material bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi va ishlab chiqarishning o'sishi natijasida ayirboshlash yanada rivojlandi. Tobora ko'p turdagi va miqdordagi mahsulotlar ayirboshlash jarayoniga jalb etilib boradi.

Bunda sotishga eng yuqori layoqatli bo'lgan tovar pul bo'lib qoldi. Pul –bu ayirboshlashning mutloq qadrli vositasi. Pul rolini turli tovarlar bajarib, ishlab chiqarishning rivojlanish jarayonida bu rol asta –sekin oldinga o'tib borgan.

XIX asrning oxirida mamlakatlar birin ketin oltin valyutaga, ya'ni monometal tizimiga o'ta bos hlaydilar. Bu hol Avstriyada 1892, Yaponiyada 1897, Rossiyada 1898, AQSHda esa 1900 yilda sodir bo'ladi. Angliyada oltin pul tizimi XVII asrning oxirida Germaniyada 1871 yilda, Gollandiyada 1877 yildayoq joriy etilgan edi.

Umumiy ekvivalent rolini nodir metallarga yuklatilishiga sabab quyidagilar:

- Sifat jihatdan bir xil; o'lchamga keltirish mumkinligi;
- Zanglamasdan va uzoq muddat saqlash mumkinligi;
- Bo'linuvchanligi va uni yaxlit holiga keltirish mumkinligi;
- Tabiatda nisbatan kam'yobligi;
- Ozgina miqdordagi va og'irlikdagi nodir metallning qiymati ancha yuqoriligi;

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkin. Pulning vujudga kelishi tarixiy jarayon, u tovar ayirboshlashning rivojlanishiga asoslanadi, tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash ziddiyotlarining keskinlashuvi natijasidir. Pul (oltin yoki kumush) umumiy ekvivalent rolini o'ynovchi maxsus tovardir.

Pulning ishtirokisiz bo'ladigan oddiy tovar ayirboshlashida (T-T) tovar sotish va tovar sotib olish vaqti jihatidan doim bir vaqtda sodir bo'ladi. Pul paydo bo'lishi bilan ayirboshlash ikki qarama-qarshi bo'limga: sotish va sotib olishga ajraldi. Har bir xususiy mulkdor tovar sotib olishdan oldin o'z tovarini sotishi kerak. Bu hol ayirboshlashda vositachi –savdogarlarning qatnashuviga sharoit vujudga keltiradi. Boshqacha aytganda, pul muomalasi savdo kapitalining paydo bo'lishi uchun shart –sharoit vujudga keltiradi. Yirik mulkdorlar qo'lidagi pul boyliklarining ko'payishi sud xo'dlik kapitalining pasdo bo'lishi uchun ham sharoit yaratadi.

Pul tovar muomalasi doirasidan tashqarida ham amal qila boshlaydi: pul rentasi, pul soliqlari vujudga keladi, natural majburiyatlar pul majburiyatlariga aylanadi. Hozirgi sharoitda oltin, pul –tovar bo'lishdan to'xtadi. Hozir pul vazifasini nima bajaradi? Bu savolga javob berishdan oldin pulning vazifalanni qarab chiqamiz.

Pul ishlab chiqarish va muomala jarayonida bir qator vazifalarni bajaradi: 1. Qiymat o'lchovi; 2. Muomala vositasi; 3. Boylik to'plash vositasi; 4. To'lov vositasi.

Pul vazifalarining rivojlanish darajasi tovar ishlab chiqarishning rivojlanish darajasiga bog'liq.

1. Pulning birinchi vazifasi qiymat o'lchovi vazifasidir.

Tovarning almashuv qiymatini ifodalash, uni o'lchash uchun qo'lda naqd pulga ega bo'lish shart emas. Pulning bu vazifasini ideal pul bajaradi. Tovar egasi fikran ideal ravishda shu tovarning almashuv qiymatini pul bilan ifodalaydi. Tovarning bahosi talab va taklif muvofiq kelgan taqdirdagina tovarning qiymatiga muvofiq keladi. Agar talab va taklif muvofiq kelmasa, baho qiymatidan farq qiladi. Demak, tovarlarning bahosi tovarlarning qiymatiga, pulning qiymatiga, talab va taklifning nisbatiga bog'liq.

Tovar almashuv qiymatining pul bilan ifodalanishi uning bahosidir. Tovarning almashuv qiymatini o'lchash uchun muayyan miqdordagi pul materialini birlik qilib olish zarur. Bunday birlik baholar o'lchovi (masshtabi) deb ataladi. Bir tomondan baholar o'lchovi har qanday o'lchov birligi kabi shartlidir. Ikkinchi tomondan esa, u muayyan mamlakatda hamma tomonidan e'tirof etilgan bo'lishi kerak. SHuning uchun davlat pul birligi huquqini qonun bilan mustahkamlaydi, bu birlik shu tariqa rasmiy tan olinadi.

Dastlab pul birliklari va ularning nomlari ko'pincha muayyan og'irlikda nodir metallar bilan bog'liq bo'lgan, valyuta sistemalarining nomlari (funt sterling) ham shundan dalolat beradi. Lekin vaqt o'tishi bilan, «vazn» nomi pul birligidan nodir metallarning haqiqiy vaznidan tobora ko'proq farq qila boshlagan. Buning bir qancha sabablari bor, bularning biri shu bilan bog'liqlik, tarixan uncha nodir bo'lmagani, umumiy ekvivalent rolini o'ynagan metallar nodirroq, demak, qimmatroq metallar tomonidan siqib chiqarilgan; bunda pul nomlari avvaligicha qolgan. Masalan, funt sterling dastlab bir funt kumushning pul bilan ifodalangan nomi bo'lgan. Lekin oltin qiymat o'lchovi sifatidagi kumushni siqib chiqargach, avvalgi nom o'z qiymati jihatidan bir funt kumushga teng bo'lgan oltin miqdoriga nisbatan ishlatila boshlagan. Boshqa sabab tangalarni soxtalashtirish, bunda davlat pul zarb qilinayotganda tangaga talab qilingandan ko'ra kamroq miqdorda pul materiallarini sarflaydi.

Tovar ayirboshlash rivojlangan sharoitda mehnat mahsuli bo'lmagan, ya'ni qiymatga ega bo'lmagan narsalar (masalan, ishlanmagan er) bahoga ega bo'lishi mumkin. Faqat narsalargina emas, balki hatto evaziga kimdir muayyan miqdorda pul to'lashga tayyor turgan ma'naviy qadriyatlar (sha'n, vijdon va hokazolar) ham shunday shaklga kiradi. Bunday hollarda baho bo'lsada, lekin qiymat bo'lmaydi.

2. Tovar muomalasi jarayonida naqd pul bo'lishi kerak, chunki tovarlarni oldi-sotdi paytida ularning ideal baholari real pulga aylanmogi lozim. Bu jarayonda pul muomala vositasi vazifasini bajaradi. Pulning muomala vositasi sifatidagi vazifasi shundan iboratki, u tovarlar muomalasi jarayonida vositachi bo'lib maydonga chiqadi. Pul paydo bo'lishi bilan bevosita tovar ayirboshlash (T-T) tovar muomalasi (T-P-T) shaklini oladi, bu esa sifat o'zgarishlariga olib keladi.

Bevosita tovar ayirboshlashning tor doiralari barham topadi. Bir odamga tovarni sotib, ikkinchi odamdan uni sotib olish mumkin. Pul olish uning darhol sarflanishini bildirmaydi —xarid qilishdan tiyilib turish bir bozorda sotish; boshqasidan sotib olish mumkin. Natijada ayrim ayirboshlash aktlari yagona tovar muomalasi jarayonida chirmashib va qo'shilishib ketadi. Bu jarayon davomida pul doim bir kishidan boshqasiga o'tib turadi, pul muomalasini sodir etadi. Muomala vositasi vazifasini bajarayotgan pul qo'ldan —qo'lga o'tib, tovar ayirboshlashda faqat vositachi bo'lib qoladi. SHuning uchun mazkur funksiyada real pul materiali boshqa material bilan almashtirilishi mumkin. Bunday almashtirishni amalga oshirish uchun faqat bir narsa, ya'ni muayyan belgi yoki ramzini jamiyat muayyan miqdordagi pul materiali ning ifodasi deb tanilishi kafolatlanishi zarur.

Dastlab tovarlarni ayirbosh qilishda pul bevosita kumush yoki oltin quymalar shaklida mavjud bo'lgan. Bu hol ayirboshlash vaqtida qiyinchiliklar tug'dirgan: pul metallni o'lchash uni mayda bo'laklarga bo'lish, sifatini belgilash zarur bo'lgan. Asta —sekin pul metall quymalari o'miga monetalar ishlatila boshlagan. Monetalar o'z vazni va sifati jihatidan ma'lum miqdordagi metaldan iborat; uning vazni va sifati davlatning alohida muhri bilan tasdiqlangan bo'ladi.

Oltin pul muomalasi amaliyoti ko'rsatadiki, uzluksiz muomalada bo'lish natijasida oltin tangalar eyilib ketadi, o'z massasining bir qismini yo'qotadi va to'la qiymatli bo'lmagan pulga aylanadi. SHu sababli muomalaga oltin o'mini bosuvchi pul sifatida to'la qiymatli bo'lmagan qiymat belgilari chiqarilgan.

3. Pul muomala dan chiqarilganda boylik to'plash vazifasini bajara boshlaydi. Har bir tovar ishlab chiqaruvchi o'zini bozor tasodiflaridan ehtiyot qilish uchun va o'z tovarini sota olish o'lmasligidan qat'iy nazar boshqa tovarlarni sotib olish imkoniyatiga ega bo'lish uchun o'zini ma'lum pul rezervi bilan ta'minlashi kerak.

Natural xo'jalik sharoitida boylik jang'arish mahsulot jang'arish shaklida amalga oshirilgan. Tovar xo'jaligining rivojlanishi boylik jang'arishning pul jang'arish shaklini keltirib chiqaradi. Tovarlarini cheklanmagan miqdorda saqlab bo'lmaydi, pulni istagan miqdorda saqlash mumkin.

Tovar xo'jaligi taraqqiyotining dastlabki davrlarida pul jang'arish uni muomala dan chiqarib olish yo'li bilan amalga oshirilgan. Keyinchalik foyda ketidan quvish hukmron ahamiyat kasb etib, bo'sh yotgan pul foyda keltirmasligi sababli pul egalari uni harakatga solishga, uni foydali joyda ishlatish yo'lini topishga intildilar.

SHuning uchun pul saqlash uchun banklarga qo'yiladi. Banklar esa, ularni bir joyga to'plab, kredit vositasida foydalanadi.

Boylik to'plash vositasini faqat oltin tangalar emas, balki pul materiallari, oltin buyumlar va boshqalar ham o'ynay oladi.

4. Tovarlar nasiyaga to'lov muddati kechiktirib sotilganda, pul to'lov vositasini bajaradi. Xaridorlar tovarning pulini to'lov muddati kelgandan keyingina to'laydi. Pulning to'lov vositasi sifatida vazifasi tovar muomalasi doirasi bilan cheklanmaydi. Pul qarz berilganda, renta va soliqlarni to'lashda ham to'lov

vositasi vazifasini bajaradi. Nima uchun tovarni sotish bilan unga haq to'lash o'rtasidagi vaqt jihatidan ajralish paydo bo'ladi? Aniq vaziyatlar turlicha bo'lishi mumkin. Buning eng tub sababi ishlab chiqarish sikllarining turlicha davom etishidir. Masalan, qishloq xo'jaligida hosil bir yilda bir marta yig'ib olinadi. Lekin dehqonga butun yil mobaynida tovar kerak bo'ladi. Sotishning kredit formasi keskin murakkablashib, sustlashib ketgan bo'lur edi. Pulning to'lov vositasi sifatidagi vazifasi bu xil qiyinchiliklarni bartaraf etishga va bu bilan xo'jalik oborotini tezlashtirishga imkon beradi. SHunday qilib, qog'oz pullar, veksel va banknotlar –pulning to'lov vositasi sifatidagi vazifasidan kelib chiqdi.

Veksel oboroti negizida (veksel –qarz majburiyati degani) emissioner bank tomonidan chiqariladigan va uning obro'si bilan quvvatlanib turiladigan kredit pullar vujudga keladi. Kredit pullar qog'oz pullar bilan qo'shilib, tovar muomalasiga xizmat qila boshlaydi. Bu bilan oltinni pul muomalasidan siqib chiqarish yo'lida yana bir qadam qo'yiladi.

Kreditning va kredit tizimi rivojlanishi bilan pulning to'lov vositasi sifatida qo'llanish sohasi ancha kengaydi, kredit pullarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bir kishi tomonidan boshqa kishiga beriladigan kredit qarz majburiyatini, vekselni keltirib chiqaradi. Biroq vekselar muomalasi cheklangan, chunki ularga xususiy shaxslar kafolat beradi. SHu tufayli puxtaroq kafolatga ob'ektiv zarurat keli b chiqadi, buning orqasida banknot paydo bo'ladi. Banknot xususiy shaxsning vekseli o'miga bank tomonidan beriladigan vekselidir. SHunday qilib, banknot pulning to'lov vositasi sifatidagi vazifasidan kelib chiqadi. Banknotlar bilan bir qatorda muomalaning kredit qurollaridan yana bir turi –cheklar ishtirok etadilar. Chek omonat egasi tomonidan o'z hisobidagi puldan chekda ko'rsatilgan shaxsга berish to'g'risida bankka yozilgan buyruqlardir.

Kredit munosabatlarining rivojlanishi naqd pul ishlatmasdan qarz majburiyatlarini o'zaro bir –biriga o'tkazish yo'li bilan qarzlarni uzishga imkon beradi.

### Asosiy tayanch tushunchalar:

**Natural ishlab chiqarish**-bunda mehnat mahsulotlari ishlab chiqaruvchining o'z ehtiyojlarini qondirish, ichki xo'jalik ehtiyojlari uchun mo'ljalalanadi.

**Tovar ishlab chiqarish**-bunda tovarlar o'zining iste'moli uchun emas, balki bozorda sotish, ayirboshlash uchun va boshqalarning iste'molini qondirish maqsadida ishlab chiqariladi.

**Tovar**-biron bir nafilikka va qiymatga ega bo'lgan ayirboshlash uchun yaratilgan mahsulotdir.

**Nafilik**- tovarlarning kishilarning biron-bir iste'molini qondirish layoqati.

**Almashuv qiymati** –bu biror turdagi iste'mol qiymatning boshqa turdagi iste'mol qiymatiga ayirbosh qilinadigan miqdoriy nisbat.

**Aniq mehnat**– muayyan aniq shaklda sarflanib iste'mol qiymatning aniq turini vujudga keltirishga qaratilgan mehnat.

**Abstrakt mehnat**- aniq shaklidan qat'iy nazar umuman inson ishchi kuchining sarflaniishi, ijtimoiy mehnatning bir qismi.

**Mehnat unumdorligi**- rna'lum vaqt davomida ishlab chiqarish uchun ketgan vaqt bilan aniqlanadi.

**Mehnat intensivligi**- vaqt birligida mehnatning sarflanish tezligi yoki jadalligi.

**Pul-harima tovar** va xizmatlarni sotish va sotib olish mumkin bo'lgan umumiy ekvivalentdir.

### **Taktirlash uchun savollar va topshiriqlar.**

1. Ijtimoiy xo'jalik shakllariga umumiy tavsif bering. Tovar ishlab chiqarish va bozoring vujudga kelishining umumiy shart -sharoitlarini tushuntiring.

2. Nima uchun tovarga iste'mol qiymat va almashuv qiymatining birligi sifatida qaraladi? Tovardagi bu ikki xil xususiyat nimadan kelib chiqadi?

3. Keyingi (oxirgi) qo'shilgan miqdor (tovar va xizmat) nafililigi nima va uning pasayish sababini tushuntiring.

4. Tovarlarining qiymatini aniqlashga bo'lgan quyidagi fikrlarga o'zingizni munosabatingizni bildiring:

a) Ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan belgilanadi;

b) Keyingi qo'shilgan tovarlarning nafililigi bilan aniqlanadi;

v) Keyingi qo'shilgan tovarlarning nafililigi va ishlab chiqarish harajatlari bilan aniqlanadi;

5. Pulning mazmunini va vujudga kelishining umumiy shart -sharoitlarini tushuntirib bering.

6. Oltin pul va qog'oz pul o'rtasidagi umumiylik va farqlarini ko'rsatib bering: qog'oz va kredit pullarining qadr-qiymati va barqarorligi nima bilan belgilanadi?

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. «Bizning bosh maksadimiz - jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va islox etishdir», «O'zbekiston» 2005.
2. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz», T. «O'zbekiston», 2000y.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari.» -T. «O'zbekiston», 1998.
4. «To'g'ridan to'g'ri xususiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora - tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel.
5. Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T., «Moliya» nashriyoti, 2002.
6. A. Qodirov. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
7. D. Tajiboeva. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
8. Makkonel K., Bryu S. «Ekonomiks», M.2002.
9. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Rayzberga.- Uchebnik: - INFRA - M.2004.

10. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof. M. N. Chepurina. Uchebnik: - INFRA – M.2004.
11. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsh. red. akad. V. I. Vidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA – M.2004.
12. Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
13. E. F. Borisov Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
14. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
15. Ioxin V. Ya. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
16. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy. d.e.n., prof. T. V. Chechelovoy. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalq so'zi - 25 mart.
2. Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov – 2005.
3. Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyayev va M. T. Yaxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
4. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovi ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

### Veb-saytlar:

1. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
2. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
3. <http://infoteka.economics.ru>
4. [www.finansv.ru](http://www.finansv.ru)
5. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
6. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
7. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
8. [www.iahon.mfa.uz](http://www.iahon.mfa.uz)
9. [www.budjet.rf.ru](http://www.budjet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ro'zani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof. Sh. Sh. Shodmonov, G. D. Bobabekova, G. T. Xalikova tomonidan tayyorlangan «Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v predpodovanii ekonomicheskoy teorii». T-2004, «Innovatsionnie metodi obucheniya v ekonomicheskoy obrazovanii» va Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyayeva, M. T. Yaxshievlar tomonidan tayyorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.

## II- Bo'lim.

### Bozor iqtisodiyoti nazariyasi.

5-mavzu.

2-soat

#### BOZOR IQTISODIYOTINING MAZMUNI VA ASOSIY BELGILARI.

**Kirish**

**Reja:**

**1-§. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari.**

**2-§. Bozor iqtisodiyotida resurslardan samarali foydalanish muammolari.**

**3-§. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va zidiyatlari.**

**4-§. Bozor tushinchasi va uning vazifalari.**

**5-§. Bozor turlari va tuzilishi.**

**5-§. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari.**

Bu mavzu bozor iqtisodiyoti tushunchasining mazmunini bayon qilib berish bilan boshlanib, uning asosiy belgilari, sub'ektlari va rivojlanish bosqichlari talqiniga alohida o'rin ajratiladi. Bozor iqtisodiyotining doimiy va asosiy muammolari, bunday iqtisodiyotning afzalliklari va zidiyatlari tahliliga ham o'rin beriladi.

Mazkur mavzu bozor va uning turlari, bozor infratuzilmasi, uning tarkibiy qismlari hamda unsurlarini yoritib berish bilan yakunlanadi.

#### **1-§. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari.**

Xozirgi davrda bozor iqtisodiyoti dunyoning ko'pchilik mamlakatlari uchun xos bo'lib, u turli mamlakatlarda har xil darajada va o'ziga xos xususiyatlar bilan amal qilmoqda va rivojlanmoqda. Bu iqtisodiyotning amal qilish mexanizmi ko'plab asrlar davomida shakllanib hozirgi davrda madaniylashgan shaklni kasb etdi va ko'pgina mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi. Mazkur iqtisodning barqarorligi shu bilan tushuntiriladiki, uzoq davrli iqtisodiy evolyusiya davomida uning amal qilishining asosiy klassik tamoyillari saqlanib qoldi.

Bozor iqtisodiyotining kelib chiqish va mavjud bo'lishining umumiy sharoiti oldingi bobda aytganimizdek xususiy mulkchilikning kelib chiqishi va ijtimoiy mehnat taqsimoti bo'lib hisoblanadi. Xususiy mulkchilik va mehnat taqsimoti ijtimoiy xo'jalikning tovar shaklini taqozo qiladi, tovar ishlab chiqarishning mavjud bo'lishi o'z-o'zidan pul muomalasi, ayirboshlash, taqsimlash va iste'molning bozorli xususiyatini ko'zda tutadi. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bozor iqtisodiyoti taraqqiyotining asosini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti - bu tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir. Bunday iqtisodiyot erkin tovar - pul munosabatlariga asoslanadi, uning negizida tovar va pulning turli shakldagi harakati yotadi. Iqtisodiy monopolizmi

inkor etadi. Xozirgi zamon iqtisodiy nazariyalarda bozor iqtisodiyoti deganda bozor xo'jaligi sub'ektlari iqtisodiy xatti-harakatlarining erkin, mustaqil ravishda yuz berishi va ularning tovar pul mexanizmi orqali bir biriga bog'lanib muvofiqlashuvi tushuntiriladi. Bozor iqtisodiyotida bozor aloqalari butun tizimni, uning hamma bosqichlarini ishlab chiqish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol jarayonlarini, hamda iqtisodiy munosabatlarning barcha sub'ektlarini qamrab oladi.

Bozor iqtisodiyoti sub'ektlari tarkibiga tadbirkorlar ham, o'z mehnatini sotuvchi ishchilar ham, pirovard iste'molchilar, ssuda kapitali egalari ham va qimmatli qog'ozlar egalari ham kiradi. Bozor xo'jaligining asosiy sub'ektlarini uchta guruhga bo'lish qabul qilingan: uy xo'jaliklari, tadbirkorlik va davlat.

Uy xo'jaliklari - iqtisodiyotning iste'molchilik sohasida faollik qiluvchi asosiy tarkibiy birlik. Uy xo'jaliklari doirasida moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarida yaratilgan tovar va xizmatlar iste'mol qilinadi. Bozor iqtisodiyotida uy xo'jaliklari mulkdor va ishlab chiqarish omillarini etkazib beruvchilar hisoblanadi. Iqtisodiy resurslarni sotishdan olingan pul daromadlari shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun sarflanadi.

Tadbirkorlik - bu daromad (foйда) olish maqsadida amal qiluvchi korxonalar, kishilar faoliyatidir. U ish yuritish uchun o'zining yoki qarz olingan kapitalni ishga solishni taqozo etadi, ulardan olingan daromad ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun sarflanadi. Tadbirkorlik tovar xo'jaligida tovar va xizmatlarni etkazib beruvchi hisoblanadi.

Davlat - foyda olish maqsadiga ega bo'lmagan, asosan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan, har xil byudjet tashkilotlari va muassasalari sifatida namoyon bo'ladi.

Xar qanday bozor iqtisodiyotini tartibga solish mexanizmi asosan uchta tarkibiy qismdan iborat bo'ladi: baho, talab va taklif hamda raqobat.

Baholarning nisbati o'zgaruvchanligi, ishlab chiqaruvchi uchun ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi zarurligini aniqlashda yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi. Talab va taklif hamda raqobatchilik muhitidagi o'zgarishlar, o'z navbatida, baholardagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Bozor iqtisodiyotining muhim va umumiy belgilari quydagilardan iborat:

-Turli shakldagi mulkchilikning mavjud bo'lishi va unda xususiy mulkchilik ustivorligi.

-Tadbirkorlik va tanlov erkinligi.

-Raqobat kurashlari.

-Davlatning iqtisodiyotiga cheklangan holda aralashuvi.

-Korxonalar va firmalarning ichki va tashqi shart-sharoitlari

o'zgarishlariga moslashuvchanligi.

Ana shu belgilar mavjud bo'lganda «...bozor mexanizmi yaxshi ishlay boshlaydi, haqiqiy raqobat vujudga keladi, iqtisodiyotni o'z-o'zidan tartibga soladigan, muvozanatga keltiradigan mexanizmi vujudga keladi»

Bozor iqtisodiyotining bu belgilari uning hamma bosqichlari uchun umumiydir. Lekin bozor iqtisodiyotining mazmuni va belgilari haqida gap



borganda tarix bosib o'tgan uning ikki turini bir-biridan farq qila bilish zarurdir. Uning birinchi ko'rinishi uzoq vaqt davomida shakllanib, rivojlangan g'arb mamlakatlarida XIX asming oxirlarigacha davom etib keldi. U iqtisodiy adabiyotlarda klassik yoki sof bozor iqtisodiyoti deb nom oldi. Uning asosiy belgilari: a) xususiy mulkchilikka asoslangan holda iqtisodiy faoliyat yuritish; b) kapital va ishlab chiqarishning korxonada miqyosida umumlashganligi; v) tadbirkorlar, ishchilar, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning shaxsiy erkinligi; g) tadbirkorlarning yuqori foyda olish uchun kurashlari; d) iqtisodning talab va taklifi erkin bozor bahosi va raqobat kurashlari asosida tartiblanishi; e) aholining ijtimoiy himoya qilinmasligi, ishsizlikning va aholi ijtimoiy taqaballashuvining kuchayishi.

Bozor iqtisodiyotining ikkinchi ko'rinishi hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti deb atalib, XIX asming oxiri va XX asr boshlaridan buyon amal qiladi.

a) Mulchilikning turli shakllariga ya'ni xususiy, davlat, jamoa, aralash mulk shakllariga asoslanib iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyati yuritish.

b) Kapital va ishlab chiqarishning yuqori darajada umumlashganligi uning bir qismi yirik monopoliyalar va davlat qo'lida to'planib, milliy va xalqaro miqyosda umumlashganligi.

v) Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning faol ishtiroki. Bunda davlat fan-texnika taraqqiyoti va boshqa omillarni hisobga olib, turli iqtisodiy tadbirlarni, rivojlanish istiqbolini belgilash, turli sohalarda va tarmoqlarda o'rtasidagi nisbatlarni tartibga solish chora tadbirlarini belgilash vazifalarini bajaradi.

g) Xo'jaliklarni yuritishda reja usulidan foydalanishning kuchayishi (biznes reja, marketing tizimi orqali boshqarish).

d) Ijtimoiy himoyaning kuchayishi. Buning uchun turli xil davlat, jamoa va xususiy turdagi ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta fondlarining vujudga kelishi.

Bozor iqtisodiyotining bu har ikkala turida uning asosiy belgilari va xususiyatlari saqlanib qoladi, ularda tovar va pulning harakati, ularning qonun-qoidalariga asos va shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyotida yuqorida qarab chiqilgan belgi va tartiblar bilan birga, barcha hozirgi zamon iqtisodiy tizimlariga xos bo'lgan bir qator shart-sharoitlar bo'lishi taqozo qilinadi. Bular quyidagilar: ilg'or texnologiya va yangi texnik vositalardan keng miqyosda foydalanish; ishlab chiqarishning ixtisoslashishi.

## 2-§. Bozor iqtisodiyotida resurslardan samarali foydalanish muammolari.

Bozor iqtisodiyotiga yo'l tutgan har qanday mamlakat bu iqtisodiyotning qanday amal qilishini tushunib olish va o'ziga qo'ygan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun iqtisodiyotning umumiy muammolari bo'lgan bir qator savollarga javob topishi zarur.

1. Nima ishlab chiqarish zarur? va qancha ishlab chiqarish zarur?
2. Qanday ishlab chiqarish zarur?

### 3. Kim uchun ishlab chiqarish zarur?

Biz 2-bobda ya'ni "Ishlab chiqarish jarayoni" degan mavzuda bu savollarni qo'yib, unda taraqqiyotning hamma bosqichlariga xos bo'lgan umumiy javobni bergan edik. Agar ularni lo'nda qilib takrorlaydigan bo'lsak,

1) Xalq ehtiyoji uchun zarur turda va miqdorda tovar va xizmat ishlab chiqarish;

2) Mavjud resurslardan foydalanib, yangi texnika va texnologiya asosida ishlab chiqarish;

3) Xalq iste'moli uchun ishlab chiqarish deb javob bergan edik.

Lekin bozor iqtisodiyoti davrida bu savollarga o'zicha javob beriladi. Bu javoblar bozor iqtisodiyotining o'ziga xos tarixiy xarakteridan kelib chiqadi.

Nima va qancha ishlab chiqarish zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida eng avvalo iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanish darajasiga, talab va taklif nisbatiga bog'liq. Bunda mavjud bo'lgan resurslar qanday hajmda band qilinishi yoki qaysi qismi ishlab chiqarish jarayonida foydalanishi ham hisobga olinishi lozim.

Nima ishlab chiqarish zarur, degan savolga javob berishda korxonalar zarar ko'rmaslik va foyda olish uchun intilish qoidasiga amal qilishni hisobga olib xulosa chiqarishimiz zarur. SHu bilan birga tovar va xizmatlarning qanday to'plami jamiyatning moddiy ehtiyojlarini to'la qondirilishi e'tiborga olinishi kerak. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat foyda keltirishi mumkin bo'lgan tovarlar ishlab chiqariladi, va xizmatlar ko'rsatiladi zarar keltiradigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilmaydi. Bunda foyda olish yoki olmaslikni ikki narsa o'rtasidagi nisbat aniqlaydi:

1. Korxonalar o'z tovarini sotishdan oladigan umumiy pul daromadi.

2. Uni ishlab chiqarishga qilingan umumiy xarajat.

Umumiy daromad tovar bahosini sotilgan tovar miqdoriga ko'paytirish orqali hisoblanadi. Umumiy xarajatlar har bir resurslar bahosini uni ishlab chiqarishda foydalangan miqdoriga ko'paytirish va keyin har bir resurs sarflarini qo'shishi bilan hisoblanadi.

Ishlab chiqarish uchun resurslarning zarur miqdorini sotib olish va o'z ixtiyorida saqlash uchun qilinadigan xarajatlar iqtisodiy xarajatlar deyiladi. Bu resurslarning har biriga xarajatlar, ya'ni resurslarning bahosi resurslar bozorida talab va taklifning nisbati bilan aniqlanadi. Bu erda shuni alohida ta'kidlash lozimki, tadbirkorlik layoqati ham, er, ishchi kuchi va kapital kabi resurs o'z bahosiga ega. SHu sababli ishlab chiqarish xarajatlari nafaqat ish haqi, mukofot kapital uchun foiz va er uchun renta to'lovlari, balki tadbirkorlarga qandaydir tovarni ishlab chiqarishni tashkil qilish va bu ishlab chiqarish jarayonida barcha boshqa resurslarni birlashtirish vazifasini bajargani uchun oladigan foyda ham kirishi kerak. Tadbirkorga bu vazifalarni bajargani uchun oladigan foydali me'yoriy foyda deyiladi. Demak, mahsulot shunday holda ishlab chiqariladiki, qachonki uni sotishdan keladigan umumiy daromad etarli darajada yuqori bo'lib ish haqi, foiz, soliqlik renta to'lash me'yoriy foyda olish uchun etarli bo'lsin. Agar mahsulot sotishdan olinadigan umumiy daromad, me'yoriy foydani ham o'z ichiga

oladigan barcha ishlab chiqarish xarajatlaridan ortiq bo'lsa, bu ortiqcha summa barcha taxliklarni o'z zimmasiga olib va korxonada ishlab chiqarishning bosh tashkilotchisi vazifasini bajaruvchi shaxs ro'ida chiquvchi tadbirkor qo'lida to'planib boradi. Ko'rsatib o'tilgan umumiy daromadning barcha ishlab chiqarish xarajatlaridan ortiqcha summasi, sof yoki iqtisodiy foyda deyiladi. U iqtisodiy xarajatlar tarkibiga kirmaydi, chunki korxonani tadbirkorlik qobiliyatini sotib olish uchun sarflamaydi.

Iqtisodiy (sof) foyda oluvchi tarmoqda kengayib boruvchi tarmoqqa aylanib borish tamoyili mavjud bo'ladi, chunki ortiqcha ustama foydada kam foydali tarmoqlardan yangi korxonalarni jalb qiladi. Ammo tarmoqda yangi ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishi o'z-o'zini cheklovchi jarayon hisoblanadi. Chunki tarmoqqa yangi korxonalar kirib kelishi bilan uning mahsulotining taklifi bozor talabiga nisbatan o'sadi. Bu asta-sekin mazkur mahsulotga bozor bahosini pasaytiradi. Vaqt o'tishi bilan baho o'z darajasiga etmaydi va iqtisodiy foyda yo'qoladi. Boshqacha aytganda, raqobat bu foydani yo'qqa chiqaradi. Iqtisodiy foyda nolga teng bo'lganda, bozor talabi va taklifining bunday nisbati, bu tarmoq mahsulotining umumiy miqdorini aniqlaydi. Shu vaziyatda tarmoq o'zining "ishlab chiqarish muvozanatli hajmiga" etadi. Bozor talabi yoki taklifida yangi o'zgarishlar ro'y bermaguncha bu muvozanat buzilmaydi. O'z-o'zidan aniqki, tarmoq zarar ko'rganda korxonani bunday tarmoqda qatnashishga qiziqmaydi. Aksincha, vaqti kelib tarmoqdagi mavjud bo'lgan korxonani o'zining faoliyatini to'xtatgan yoki ancha yuqori foyda keltiruvchi boshqa tarmoqqa o'tgan bo'lur edi. Ammo bunday holda zarar ko'rgan tarmoq mahsulotining bozor taklifi bozor talabiga nisbatan qisqaradi va shu bilan mahsulotning bahosi zarar yo'qolguncha yana osha boshlaydi. Natijada tarmoq o'zining ishlab chiqarish hajmini qaytatiklaydi va barqarorlashtiradi.

Ishlab chiqariladigan mahsulot turi va miqdorini aniqlashda iste'molchi talabining alohida muhim rolini ta'kidlash lozim. Iste'molchilar pul daromadlarini sarflash orqali mahsulot bozoriga talab bildiradi. Agar bunday talab bildirish etarli darajada ko'p miqdorda to'plansa, korxonani shu mahsulotni ishlab chiqarishga tayyor bo'ladi. Iste'molchi talabining ko'payishi, bu mahsulotni ishlab chiqaruvchi tarmoq uchun iqtisodiy foyda bildiradi. Iste'molchi talabining qisqarishi korxonaning zarar ko'rishiga va vaqti kelib qiyin ahvolga tushib qolgan tarmoqning qisqarishiga olib keladi. Qisqasi iste'molchining talabi korxonaning qaysi mahsuloti foyda keltiruvchi ishlab chiqarish bo'lib qolish masalasini hal qilishida muhim rol o'ynaydi.

Bir mahsulotning foyda va boshqasining zarar keltirishini taqozo qiluvchi talabini iste'molchi hal qilishi, korxonaning nima ishlab chiqarish masalasini erkin tanlashini cheklashligini ko'rib chiqdik.

Korxonani ishlab chiqarish uchun mahsulot tanlashda iste'molchi talabini hisobga olishi zarur. Bu aytilganlar ko'p darajada resurslarni etkazib beruvchilarga ham taalluqli. Resurslarga talab - bu xosilda talab, ya'ni ishlab chiqarish resurslari taqozo qiluvchi tovarlar va xizmatlarga talabdan kelib chiqadi. Resurslarni etkazib

beruvchi o'zining mehnat va moddiy resurslarini sotishdan oladigan daromadlarini yuqori darajaga etkazishga intilishda bozor tizimining talabidan kelib chiqishi shubhasiz. Faqat iste'molchi talabiga mos bo'lgan tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar foyda olib ishlashi mumkin va shu korxonalar resurslarga talab ko'rsatadi.

Qisqasi, iste'molchi o'zining maqbul ko'rishini mahsulotlar bozoriga bildiriladigan talab shaklida namoyon qiladi. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni etkazib beruvchilar o'zlarining manfaatlarini ta'minlash uchun shu talabga mos ravishda, ya'ni yuqori foyda olish uchun pul to'lash qobiliyatiga ega bo'lgan iste'molchilarga zarur bo'lgan miqdorda va turda ishlab chiqaradi va etkazib beradi.

Bozor tizimi puldor iste'molchining xoxishini, korxonalar talabini hisobga oladi va ular uchun ishlab chiqaradi va resurslarni etkazib beruvchilarga uzatadi va ulardan tegishli javob olishga erishadi.

Qanday ishlab chiqaradi yoki u qanday tashkil qilinadi - degan savolga ham bozor iqtisodiyoti sharoitida o'ziga xos javob bo'ladi. Bunda uchta uzviy bog'liq masalaga e'tibor beriladi:

- alohida tarmoqlar o'rtasida resurslar qanday taqsimlanishiga
- ishlab chiqarishni qanday korxonalar amalga oshira olishiga
- har bir korxonada resurslarning qanday uyg'unlashuvini va qanday texnologiyani qabul qilinishiga.

Bozor tizimi, resurslarni, avvalo mahsulotlariga iste'molchi ancha yuqori talab bildiradigan va bu mahsulotlarni ishlab chiqarish foyda keltiradigan tarmoqlarga yo'naltiradi. Foyda bermaydigan tarmoqlar resurslardan mahrum bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarishni qanday korxonalar amalga oshira oladi?. Ishlab chiqarishga iqtisodiy jihatdan ancha samarali texnologiyani qo'llashga intilsa va shunga layoqatli bo'lsa. Ancha samarali texnologiya iqtisodiy samaradorlik bilan xarakterlanadi. Iqtisodiy samaradorlik quyidagilarga bog'liq: mavjud texnologiyaga, ya'ni mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlovchi resurslarning muqobil uyg'unlashuviga yoki ishlab chiqarish omillariga, resurslarning baholariga. Boshqacha aytganda, iqtisodiy samaradorlik mahsulotning mavjud hajmini resurslardan eng kam xarajat qilib olishni bildiradi.

Bozor iqtisodiyoti o'zgaruvchan bo'ladi: iste'molchilar, ishlab chiqarish texnologiyasi, etkazib beriladigan resurslar tarkibi o'zgarishiga mos ravishda o'zgaradi. Resurslarni taqsimlashning bugungi kunda ancha samarali bo'lgan tizim, vaqt o'tishi bilan iste'molchi didining o'zgarishi, ishlab chiqarish yangi texnologiyasining yaratilishi va taklif qilingan resurslar tarkibining qayta o'zgarishi oqibatida eskirishi va samarasiz bo'lib qolishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti, bu o'zgarishlarga moslashishga layoqatlimi?

Iste'molchi dididagi o'zgarishlarning mahsulot bahosi va foydaga ta'siri, bir tarmoqni qisqartirish va boshqasini kengaytirishni taqozo qiladi. Bu o'zgartirish resurslar bozori orqali amalga oshiriladi, chunki kengayib boruvchi tarmoq

resurslarga ko'proq talab bildirs, qisqarib boruvchi tarmoq ularga talabni kamaytiradi. Buning natijasida vujudga keluvchi resurs baholarining o'zgarishi, resurslarni qisqaruvchi tarmoqlardan kengayuvchi tarmoqlarga qayta taqsimlaydi.

Demak, bozor tizimi texnologiyaning o'zgarishi va har xil resurslarga taklif tarkibidagi o'zgarishlarga moslashadi.

Bozor iqtisodiyoti so'zsiz texnika taraqqiyoti uchun rag'bat yaratadi. Ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirishga olib keluvchi texnologiyani birinchi qo'llash, korxonaning o'z raqobatchilari oldidagi vaqtinchalik ustunligini ta'minlaydi. Ishlab chiqarish xarajatlarning pasayishi korxonaning iqtisodiy foyda olishini bildiradi. Bundan tashqari, bozor tizimi yangi texnologiyaning tez tarqalishi uchun sharoit ham yaratadi. SHunday qilib, bozor iqtisodi sharoitida har bir korxonaga yuqori foyda berishi mumkin bo'lgan texnika va texnologiya yordamida ishlab chiqaradilar.

Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, bozor iqtisodiyoti sharoitida:

A) foyda beradigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqariladi

B) puli bor, yuqori foyda olish imkonini beradigan xaridorlar uchun ishlab chiqariladi;

V) yuqori foyda olishni ta'minlaydigan texnika va texnologiya yordamida ishlab chiqariladi.

### 3-§. Bozor iqtisodiyotining ustunligi va zaif tomonlari.

#### Bozor tizimining afzalligi.

Bozor tizimining afzalligi o'z tasdig'ini uning amal qilishining biz qilgan taxlilimizda topadi. Ulardan ikkitasi ayniqsa e'tiborga loyiq.

1) Resurslarni taqsimlashning samaradorligi.

Bozor tizimi resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. Bu tasdiqning mazmuni shuki, raqobatli bozor tizimi, resurslarni jamiyatga eng zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltiradi. U ishlab chiqarish uchun resurslarni uyg'unlashtirishning ancha samarali usullarini va ishlab chiqarishga yangi, ancha samarali texnologiyani qo'llashni taqozo etadi. Qisqasi, bozor tizimi shaxsiy manfaatni shunday tartibda boshqaradiki, u jamiyatga mavjud resurslardan zarur tovarlarni eng ko'p miqdorda ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

2) Erkinlik. Bozor tizimi foydasi hisobiga muhim noiqtisodiy dalil bo'lib shu holat xizmat qiladiki, u shaxsiy erkinlik roliga ishonch bog'laydi. Jamiyatni tashkil qilishning asosiy muammolaridan biri ko'plab ayrim shaxslar va korxonalar iqtisodiy faoliyatini uyg'unlashtirishdan iborat. Bunday uyg'unlashtirishni amalga oshirishning ikki usuli mavjud. Biri - bu markazdan boshqarish va majbur qilish tadbirlarini qo'llash; boshqasi - bu bozor tizimi vositasi orqali ixtiyoriy hamkorlik. Faqat bozor tizimi iqtisodiy faoliyatni majbur qilmasdan uyg'unlashtirishga layoqatli. Bozor tizimi tadbirkorlik va tanlash erkinligini namoyish qiladi, xususan shu asosda u muvofiqiyatga erishadi.

### **Bozor tizimining kamchiligi.**

Bozor iqtisodiyotining tanqidchilari tasdiqlaydiki, bunday iqtisodiyot o'zining bosh nazorat mexanizmi - raqobatning tugashiga yo'l qo'yadi va xatto rag'batlantiradi. Ular raqobat kuchsizlanishining ikkita asosiy manbai mavjud bo'lishini ko'zda tutadi.

1. Iqtisodiy nuqtai nazardan raqobat maqbul bo'lsada, u hammadan ko'proq alohida ishlab chiqarishga o'zining shafqatsiz ta'sirini o'tkazadi. Bozor iqtisodiyotidagi erkin muhitda go'yoki tadbirkorlar foyda ketidan quvib va o'z iqtisodiy mavqeiini yaxshilashga intilib raqobatning cheklangan yo'lidan ozoq bo'lishga harakat qilishi xos. Firmalarning qo'shilishi, kompaniyalarning xufyona kelishuvi, shafqatsiz raqobat - bularning hammasi raqobatning kuchsizlanishi va undan tartibga soluvchilik ta'sirini chetga chiqarishini taqozo qiladi.

2. Ayrim iqtisodchilar hisoblaydiki, bozor tizimi rag'batlantiradigan texnika taraqqiyotining o'zi, raqobatning zaiflashishini taqozo qiladi. Eng yangi texnologiya, odatda quyidagilarni talab qiladi: a) juda katta miqdordagi real kapitaldan foydalanishni; b) yirik bozorlarni; v) kompleksli, markazlashgan va qat'iy bir butun bo'lib birlashgan bozorni; g) boy va ishonchli xom-ashyo manbalarini. Bunday turdagi texnologiya bozorning hajmiga nisbatan keng miqyosdagi hisoblanuvchi ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lish zarurligini bildiradi. YA'ni eng yangi texnologiyani qo'llash asosida ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligiga erishish, ko'pincha ko'p miqdordagi nisbatan mayda firmalar emas, uncha ko'p bo'lmagan nisbatan yirik ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lishini taqozo qiladi.

Bozor tizimi jamiyatning ehtiyoji yuqori bo'lgan tovarlar bilan ta'minlashiga ham kafolat bermaydi. Raqobatning so'nib borishi bilan bozor tizimi ham, resurslarni samarali taqsimlash mexanizmi sifatida kuchsizlanib boradi deb hisoblaydi. Ishlab chiqaruvchilar va resurs bilan ta'minlovchilar iste'molchining xoxish irodasida kamroq bo'ysinadi va ularning mustaqilligi iste'molchining mustaqilligiga putr etkazadi. Talab bildirish yordamida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarining uyg'unlashuvi jarayoni o'z kuchini yo'qota boshlaydi.

Bozor iqtisodiyotining navbatdagi ziddiyati isrofli va samarasiz ishlab chiqarish. Tanqidchilar bozor tizimi jamiyatni ularning ehtiyoji yuqori bo'lgan tovarlar bilan ta'minlashiga ham shubha bildiradi. Ular raqobatning kuchsizlanib borishi bilan, iste'molchining mustaqilligiga putr etadi, bozor tizimi o'zining iste'molchining xoxishiga ancha mos keluvchi resurslarni taqsimlash layoqatini ham yo'qotadi deb hisoblaydi. Bozor tizimi samaradorligini tan olishga qarshi boshqa dalillar ham mavjud.

Bozor iqtisodiyotining umumiy e'tirof qilingin kamchiliklaridan biri shundan iboratki, ko'proq layoqatli yoki epchil tadbirkorlarning ko'p miqdordagi moddiy resurslarni jamg'arishiga imkon beradi, meros qoldirish huquqi esa vaqt o'tishi bilan bu jamg'arish jarayonini kuchaytiradi. Ko'rsatib o'tilgan jarayon, uy xo'jaliklari etkazib beradigan mehnat resurslarining son va sifat farqlariga qaramay, bozor iqtisodiyotida pul daromadlarining favqulotda notekis

taqsimlanishini tug'diradi. Natijada oilalar bozorda o'z ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish layoqati bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Boylar kambag'allarga qaraganda ancha ko'p miqdordagi tovarlarga talab bildirish mavqeiga ega bo'ladi. Bundan xulosa shuki, bozor tizimi boylar uchun zebu-ziynat buyumlari ishlab chiqarishga zarur resurslarni kambag'allar uchun qat'iy zarur buyumlar ishlab chiqarishga ketishi mumkin bo'lgan resurslar hisobiga ajratadi.

Tovarlar hajmi bilan pul massasi o'rtasidagi ro'y berib turadigan nomuvofiqlikni bartaraf eta olmasligi ham bozor iqtisodiyotining ziddiyati hisoblanadi va bu-pulning qadrsizlanishi-inflyasiya bilan birga boradi.

#### 4-§. Bozor tushunchasi va bozorning vazifalari

Bozor tushunchasi bozor iqtisodiyotining markaziy kategoriyasi bo'lib, iqtisodiyot nazariyasida ham, xo'jalik yuritish amaliyotida ham, barcha mamlakatlar tajribasida ham qo'llaniladigan, ilmiy-amaliy tushunchadir. Bu tushuncha yuzaki qaraganda oddiy tushunchaga o'xshab ko'rinadi, ayrimlar bozorni tovarlar sotiladigan va xarid qilinadigan joy deb o'ylashadi. Lekin uning ichki mazmuniga e'tibor berilsa, u ko'p qirrali bo'lib, uning mazmuni o'zgaruvchan ekanligini, turli davrlarda turli ma'noni anglatishini bilib olish mumkin. Bozor tushunchasi tovar ayirboshlashning kelib chiqishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, u ibtidoiy jamoa tuzumining oxirlarida kelib chiqqan va dastlab tovar almashuv, tovar ayirboshlash joyi yoki maydoni degan mazmuni anglatgan.

Dastlab bozor ikki yoki bir necha qabilalarning a'zolari bir-birlari bilan tovar almashuv joyi sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, hunarmandchilikning rivojlanishi, shaharlarning kelib chiqishi bilan alohida maydonlar ajratilib, «bozor joyi» deb e'lon qilingan shu maydonda (joyda) kishilar oldi-sotdi qilishgan. Lekin hali u davrlarda tovar ayirboshlash T-T ko'rinishida, ya'ni bir tovarga boshqa tovarni ayirboshlash shaklida bo'lib, o'z tovarini boshqa tovarga ayirboshlashda vaqt va masofa bo'lmagan, birdaniga bir vaqtning o'zida o'sha joyda ayirbosh sodir bo'lgan. Lekin tovar ayirboshlash rivojlanib uning ziddiyatlari kuchayib borishi natijasida pulning kelib chiqishi bilan sotish va sotib olish ikki xil jarayonga bo'lingan va T-P-T ko'rinishida boshlagan. Endi tovarni sotish T-P va sotib olish P-T zamon va makon jihatdan bir bo'lmazligi mumkin. Chunki sotuvchi o'z tovarini bir joyda sotib pul qilib, boshqa vaqtda boshqa joyda kerakli tovarni sotib olishi mumkin. Pulning kelib chiqishi bilan savdogarlar, ya'ni tovarlarni ishlab chiqaruvchidan olib iste'molchiga bir joydan olib ikkinchi joyga sotish bilan shug'ullanadigan maxsus guruhlar paydo bo'ldi.

Mehnat taqsimoti chuqurlashib yana bir soha, savdo sohasi vujudga keldi. Bu soha tovar pul harakatini tezlashtirish imkonini berib, iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchini bog'laydigan vositaga aylandi. Bunda ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi ham bir-birlari bilan uchrashishi shart bo'lmay qoldi. Ular savdogarlar-

vositachilar orqali aloqa qilishlari mumkin bo'lib qoldi. Endi bozor tushunchasining mazmuni o'zgarib, yangi ma'no kasb etadi, ya'ni tovar-pul muomalasining yangi shakli sifatida namoyon bo'la boshladi. Oldi-sotdi jarayonida yangi o'ziga xos muhim tovar – ishchi kuchining paydo bo'lishi bilan bozor umumiy tus olib, uning mazmuni yanada kengaydi. Endilikda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga emas, balki ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi ham bozor jarayoni orqali o'tib, ishlab chiqarishga jalb etila boradigan bo'ldi, ularning bir-biriga o'zaro ta'siri to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita, bozor orqali sodir bo'ladigan bo'ldi.

SHunday qilib, hozirgi davrda bozor ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilarning ko'p qirrali murakkab aloqalarini, ularning o'zaro bir-birlariga bo'lgan ta'sirini bog'laydigan bo'g'in, jamiyat taraqqiyotida modda almashuvini ta'minlaydigan jarayon sifatida shakllandi.

Bozorning asosiy belgilari sotuvchi va xaridorlarning o'zaro kelishuvi, ekvivalentlilik prinsipi asosida ayirboshlash, sotuvchilarning xarajatlari qoplanib, foyda olishi va pul to'loviga qodir bo'lgan xaridorlarning talabini qondirish va raqobatchilikdan iboratdir. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan boshqa hamma mamlakatlardagi kabi bizning mamlakatimizda ham o'tish davri suronlarida ayrim adabiyotlarda bozor tushunchasiga engil-elpi qarab uning almisoqdan qolgan eski, bir tomonlama, hozir ma'nosini yo'qotgan ta'rifini ko'rsatish hollari uchramoqda. Turli kishilar tomonidan yozilgan maqola va kitoblarda bozorga turlicha ta'rif berilib, u qizg'in munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ayrim mualliflar bozorni sotuvchi va xaridorlar tartibsiz to'planib, juft-juft, to'p-to'p, guruh-guruh bo'lib oldi-sotdi qiladigan joy deb hisoblasalar, ayrimlari uni kishilarga rizqu ro'z ulashadigan fayzu barakatli, sirli dasturxon deb ataydilar.<sup>1</sup>

Boshqa bir guruh mualliflar esa bozorni ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarni, ayniqsa soddada dehqonlarni aldash evaziga yashaydigan va boyiydigan, aldamasa tura olmaydigan muttahamlar, tarozidan uradigan qalloblar, birga olib o'nga sotadigan noinson olib-sotarlar, firibgar vositachilar to'planadigan, kishilarni aldashning turli hiyla-nayranglari ishlatiladigan bir nopokiza makon sifatida ta'riflaydilar.<sup>2</sup> Bu ta'riflar ma'lum darajada bozorning ijobiy yoki salbiy tomonlarini va uning oldi-sotdi qilish joyi ekanligini ifoda etsa-da, shu bilan birga unga tor doirada bir tomonlama, yuzaki qarash natijasi bo'lib, uning haqiqiy ichki mazmunini, vazifasini, tutgan o'mini ochib bera olmaydi.

Bozor tovarlarni ishlab chiqarish va ayirboshlash, pulning vujudga kelishi, ularning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan tarixiy tushuncha bo'lib, hozirgi davrda keng tarqalgan ob'ektiv iqtisodiy jarayondir.

Bozor ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida pul orqali ayirboshlash (oldi-sotdi) jarayonida bo'ladigan munosabatlar yig'indisidir. Bunda bozorning moddiy asosini joy emas, balki tovar va pulning

<sup>1</sup>Alimov B., SHodiev M., Rasulov T., «SHarqona bozor fazilatlarini», T. Universitet, 1996 yil, 11 bet.

<sup>2</sup>Sulaymonov I., «Bozorda tarbiy, sotuvchilada iymon bo'lsa», «Xalq so'zi» ro'znomasi, 1998 yil 26 fevral, 42 son.



harakati tashkil etadi. Bozor tushunchasi iqtisodiyotning to'rtta fazasi (ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol jarayonlari) dan faqat ayirboshlash jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bozorda hech qanday bo'ylik yaratilmaydi, ishlab chiqarilmaydi, kishilarga baxt, rizqu ro'z ham ulashilmaydi, lekin unda turli mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda mavjud bo'lgan minglab korxonalarda ishlayotgan millionlab qo'li gul mehnatkashlar tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlar, ko'chmas mulklar, iqtisodiy resurslar, ishchi kuchi pulga sotiladi va sotib olinadi.

Unda oldi-sotdi jarayonidagi zarur bo'lgan xizmatlar bajariladi. Har bir jismoniy shaxs yoki korxonaga o'zi ishlab chiqargan tovar yoki xizmat turini sotadi va o'ziga kerakli bo'lgan yuzlab tovar turklarini sotib oladi. Bu oldi-sotdi jarayonida bozor sub'ektlari, ya'ni oldi-sotdi qilayotgan kishilar bir-birini ko'rmasliklari, tanimasliklari ham mumkin. Ular turli hujjatlar, shartnomalar, namunalarga binoan vositachi tashkilotlar orqali savdo qilishlari mumkin. Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan paxta, pilla, oltin, mashina, traktor, stanok, samolyot, asbob-uskuna, o'g'it, urug' va boshqa yuzlab tovar va xizmatlarning o'z yaratilgan joyidan shartnomalarga binoan to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilarga jo'natilishi fikrimizning dalili bo'lib, bozor alohida savdo-sotiq qiladigan joy deb tushunish to'g'ri emasligini ko'rsatadi. Undan tashqari tovar va xizmatlarni pul orqali oldi-sotdi qilish jarayonida ayrim shaxslar yoki korxonalar sarflangan mehnat va moddiy xarajatlarga nisbatan yuqori darajada ortiqcha foyda oladi, tez boyiydi, ularning ayrimlari esa foyda olish u yoqda tursin, qilgan sarf xarajatlarini ham qoplay olmay, katta zarar ko'radilar, sinib xonavayron bo'ladilar. 1997 yilda Respublikamizda qishloq xo'jaligida 662 ta, boshqa sohalarda 302 ta korxonaga zarar ko'rib, shundan 300 ta qishloq xo'jaligi korxonalari bu zarami o'zining mol-mulki hisobidan qoplashi mumkinligi, qolgan 332 tasi esa o'z zararini qoplay olmay xonavayron bo'lishga mahkum ekanligi, sanoat va boshqa sohalardagi 302 ta zarar ko'rgan korxonalardan 145 tasi bankrot deb e'lon qilinganligi, 1999 yilda esa 898 ta qishloq xo'jalik korxonalari shirkatlarga aylantirilib, ularning 12,3 foizi, ya'ni 119 ta shirkat xo'jaligi yilni zarar bilan yakunlaganligi,<sup>1</sup> bozorning yoppasiga baxt-sodat keltiruvchi afsonaviy joy emasligini yana bir bor isbotlaydi. Endi nima uchun bu bozorda kimlardir mehnat qilmasdan yoki sarflagan xarajatlarga nisbatan boshqalardan ortiqcha daromad oladi, boshqalari esa sarf xarajatlarni qoplay olmay, mehnatiga yarasha daromad qila olmaydilar, xonavayron bo'ladilar degan savol hammani qiziqtiradi. SHuni aytish lozimki, bozorda hech qanaqa ilohiy yoki afsonaviy kuch yo'q. Aytilganlarning hammasi bozor munosabatlarining o'zidan kelib chiqadi. Bozorga sotishga chiqarilgan tovar va xizmatlar talabga nisbatan kam bo'lsa baholar oshib ketadi, ayirboshlashning ekvivalentlik muvozanati buziladi, natijada tovarni sotuvchi me'yoridan ortiqcha daromad olib, tez boyiydi yoki aksincha, bozorda tovarlar miqdori talab miqdoridan oshib ketsa, baholar pasayib ketib, sotuvchilar zarar

<sup>1</sup> Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va istiholatlarni chuqurlashtirish — eng muhim vazifamiz. «Xalq so'zi» 2000yil, 15 fevral

ko'radilar. Buning ustiga ishlab chiqarish jarayonida sustkashlik, no'noqlik va xo'jasizlik yuz berib, ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, zarar yanada oshib ketadi, chunki bozor bunday ortiqcha behuda sarflarni hisobga olmaydi.

SHunday qilib, bozorda katta foyda olish yoki xonavayron bo'lish sababini tovarlarni pul orqali ayirboshlash jarayonida kishilar o'rtasida yuz beradigan munosabatlardan qidirib topish lozim ekan, savdo bo'layotgan joyda, bozor maydonida hech qanaqa sir-asror yo'q ekan. Oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlari do'koni, avtomobilga xizmat ko'rsatish stansiyasi, benzin sotadigan joy, sanoat tovarlari do'koni, tijoratchilarning savdo shaxobchalari, turli xil supermarketlar, yirik savdo markazlar (GUM, SUM kabilar) va savdo yarmarkalari, ijtimoiy, xususiy ovqatlanish joylari bularning hammasi bozorning odatdagi ko'rinishlari bo'lib, u erda ham yuqorida aytilgan munosabatlar sodir bo'ladi. Fond birjalari, chet el valyutalari bozori, don birjalari va auksionlar (kim oshdi savdosi) yuqori darajada rivojlangan bozorlar bo'lib, ularda sotuvchi va xaridorlar bir-biri bilan aksiya, obligasiya, milliy valyuta va qishloq xo'jalik mahsulotlari orqali bog'lanadi. Bozorning ayrim turlari sotuvchi va xaridorlar o'rtasidagi shaxsiy aloqa bilan farqlansa, boshqalarida ular hech qachon bir-birini ko'rmaydi yoki bilmaydi. SHunga muvofiq bozor aloqalari bevosita va bilvosita aloqalarga bo'linadi. Bularning har qanday turidan qat'iy nazar uning ishtirokchilari (sub'ektlari) fuqarolar (uy xo'jaliklari), turli xil korxonalar, firmalar va davlat tashkilotlaridir. Bozor sub'ektlari ikki guruhga – sotuvchi va xaridorlarga bo'linib, ular bozor munosabatlarining turli vazifalarini bajaradi. Sotuvchilar bozorga tovar va xizmatlarni taklif etadi, xaridorlar esa ularga talab bildiradi. Bozor o'z sub'ektlari manfaatini bir-biriga bog'lab, ularni muvofiqlashtiradi.

Bozorning asosiy vazifasi ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarni, iqtisodiy resurslarni iste'molchilarga etkazib berishdan iboratdir. Bu erda bozor ishlab chiqarish bilan iste'molni bir-biriga bog'laydi, ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmat o'z iste'molchisini topadi. Bunda bozor vositachi bo'lib xizmat qiladi. Bozorda qiymat shakllari almashadi. U qiymatni tovar shaklidan pul shakliga aylantiradi. Individual mehnat sarflari sifatida chiqqan tovarlar bozor tomonidan tan olinsa ijtimoiy mehnat sarfini namoyon qiladi va tovarning bozor qiymati hosil bo'ladi.

Bozor ayirboshlash kategoriyasi bo'lib, ishlab chiqarishning uzluksiz takrorlanib turishiga yordam beradi. Ishlab chiqarish, yangidan boshlanishi uchun yaratilgan tovarlar sotilishi va ularning pulga aylanishi, puldan esa kerakli iqtisodiy resurslar xarid qilinishi zarur. Bozor vositasida tovarni sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga, ishlab chiqaruvchilar resurslar sotib olish yo'li bilan sarflangan ishlab chiqarish vositalari o'rnini qoplaydigan va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun kerakli moddiy va mehnat resurslariga ega bo'ladi. Bozor orqali resurslarning erkin harakati ta'minlanadi va ularning tarmoqlar o'rtasida taqsimlanishi ro'y beradi. Iste'molchilar bozorda u yoki bu tovarga bo'lgan talabini bildiradi. Bozor

bu talabni ishlab chiqaruvchilar va resurslarni etkazib beruvchilarga uzatadi. Resurslar talab bildirgan tarmoqlar va sohalar o'rtasida taqsimlanib turadi.

Bozor iqtisodiyotni tartibga solib turish vazifasini talab, taklif, raqobat va baholar yordamida bajaradi. U o'zida talab va taklifni jamlab, bu bilan nimani, qancha miqdorda va qaysi vaqtda ishlab chiqarish kerakligini aniqlab beradi. Bozor baho vositasida iqtisodiy resurslarni tovarlarga talab kamaygan tarmoqlardan talab ortgan tarmoqlarga oqib kelishini ta'minlaydi.

Bozor turli xil vazifalarni bajarsada, ular o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi. Bozorning mazmunini to'laroq tushunmoq uchun uning turlarini va ichki tuzilishini bilish zarur.

### 5-§. Bozorning turlari va tuzilishi

Hozirgi davrdagi bozor murakkab tuzilishga egadir.

Bozorning ichki tuzilishi murakkab bo'lganligi sababli uni turkumlashga har xil mezonlar asos qilib olinadi. Bular sotiladigan va sotib olinadigan mahsulot turi, bozor sub'ektlari xususiyatlari, bozor miqyosi, iqtisodiy aloqalar xarakteri va boshqalar. Bozorning etuklik darajasiga qarab rivojlanmagan bozor, klassik (erkin) bozor, hozirgi zamon rivojlangan bozorlarga bo'linadi. Rivojlanmagan, shakllanayotgan bozor ko'proq, tasodifiy xarakterga ega bo'lib, unda tovarga – tovar ayirboshlash usuli (barter) ko'proq qo'llaniladi. Bozorning bu turi tarixan hali haqiqiy pul kelib chiqmagan davrga to'g'ri keladi. Lekin hozirgi davrda ham ayrim mamlakatlarda pul inqirozga uchrab, ijtimoiy ishonchni yo'qotgan, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davrlarda ham bu bozor amal qilishi mumkin. Erkin (klassik) bozor-tovar va xizmatlarning har bir turi bo'yicha juda ko'p ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, ya'ni sotuvchilar va sotib oluvchilardan iborat bo'lib, pul orqali ayirboshlash jarayonida ular o'rtasida erkin raqobat kelib chiqadi, baholar talab va taklif o'rtasidagi nisbatga qarab erkin shakllanadi, raqobatning turli usullari qo'llaniladi, aholi va ishlab chiqaruvchilar keskin tabaqalanadi. Hozirgi zamon rivojlangan bozori — bunda davlat ham bozor ishtirokchisi bo'lib, bozor ancha tartiblashtiriladi va boshqariladi, turli xil birjalar va boshqa oldi-soldi jarayoniga xizmat qiluvchi sohalar rivojlangan bo'ladi, raqobat kurashlari aholining tabaqalashuvi yumshatilib, ularning daromadlari darajasi o'rtasidagi farqlar kamayadi. Bozor hududiy jihatdan ham turlicha bo'lishi mumkin.

Bular Mahalliy bozorlar (Toshkent bozori, Samarqand bozori, Urgut bozori, London bozori, Nyu-York bozori, Pekin bozori va boshqalar); milliy bozorlar: (O'zbekiston bozori, Rossiya bozori, Ukraina bozori, Angliya bozori, Amerika bozori, Xitoy bozori va boshqalar); hududiy bozorlar (Markaziy Osiyo yoki Osiyo bozori, g'arbiy Evropa bozori) va nihoyat jahon bozori.

Sotiladigan va sotib olinadigan mahsulotlarning tavsifiga ko'ra bozorlar quyidagi turlarga bo'linadi: iste'mol tovarlari va xizmatlari bozori, ishlab chiqarish

vositalari va ishchi kuchi (resurslar) bozori, valyuta bozori va fond birjalari, ilmiy texnika kashfiyoti va ishlanmalar bozori.

Muomalaga chiqadigan sub'ektlarning xususiyatiga ko'ra ulgurji va chakana savdo to'g'risida gap yuritiladi. Chakana savdoda asosan sotib oluvchilar fuqarolar hisoblanadi. Tashkilot va muassasalar esa sotuvchi hisoblanadi. Ulgurji savdoda davlat tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid qilish alohida o'rin tutadi. Bunda asosiy xaridor davlat, sotuvchilar esa fermerlar, shaxsiy, kooperativ va davlat xo'jaliklaridir.

SHuningdek, davlat va kooperativ savdo, dehqon bozori ham farqlanadi. Davlat savdosini davlat, kooperativ savdoni matlubot kooperasiyalari amalga oshiradi. Dehqon bozorida savdoni, alohida fuqarolar, jamoa va fermer xo'jaliklari hamda boshqa kooperativlar amalga oshiradi.


Tovar va xizmatlar bozori bozoring asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu bozorda xo'jalik sub'ektlarining barcha uchta turi: fuqarolar (uy xo'jaliklari) davlat va korxonalar qatnashadi.

Iste'mol tovarlari va xizmatlari bozorining maxsus turi intellektual tovarlar bozori. Bu bozorda aqliy mehnat mahsuli bo'lgan tovarlar — ilmiy g'oyalari, texnikaviy yangiliklar, san'at va adabiyot asarlari, har xil axborotlar oldi-sotdi qilinadi. Intellektual bozor tarkibida ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni ayirboshlash katta o'rin tutadi. U amalda patent, lisenziya va nou-xau sotishdan iborat bo'lib, bu bozorda asosan innovasiya firmalari ish ko'radi. Mazkur firmalar yangiliklarni topish, bozorda sotish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha xizmat ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish vositalari (resurslar) bozorida tovar sifatidagi mehnat vositalari va materiallar oldi-sotdi qilinadi. Bu bozorda mashina, asbob-uskuna, xom ashyo, yoqilg'i va materiallar kabi ishlab chiqarish vositalari yirik hajmda ko'tarasiga (ulgurji) sotiladi. Resurslar bozorida tovarlar shaxsiy iste'molga emas, ishlab chiqarish iste'moliga xizmat qiladi. ya'ni ishlab chiqarish talabini qondiradi.

Bozoring barcha sub'ektlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar iste'mol tovarlari va resurslar bozori orqali ancha to'liq va yorqin namoyon bo'ladi. SHu sababli bozoring ikki turi va ularning sub'ektlari o'rtasida amalga oshiriladigan oldi-sotdi bitimlarining ko'rgazmali tavsifini keltirarniz.

Rasm 1.



*1-rasm. Iste'mol tovarlari bozori va resurslar bozori hamda bozor sub'ektlari o'rtasida resurslar, mahsulot va daromadlar harakati.*

Rasmdan ko'rinib turibdiki, u y xo'jaliklari va davlat iqtisodiy resurslarga egalik qilib, ularni resurslar bozoriga etkazib beradi. Korxonalar resurslarga talab bildiradi. Korxonalar resurslarni sotib olishga qilgan xarajatlari resurslarni etkazib beruvchilarning daromadlari (ish haqi, renta, foiz va foyda) oqimini tashkil qiladi.

Uy xo'jaliklari resurslarni sotishdan olinadigan pul daromadlarini sarflash jarayonida son-sanoqsiz ko'p tovar va xizmatlarga o'zlarining talabini bildiradi. Bir vaqtda korxonalar aynan shu bozorda tovar va xizmatlarni taklif qiladi. Tovlar va xizmatlarga iste'molchilik sarflari oqimi korxonalarning pul tushumi yoki daromadini tashkil qiladi.

Iqtisodiy resurslar bozorining tarkibiy qismini ishchi kuchi bozori tashkil qiladi. Ishchi kuchi bozorida – o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan iqtisodiy resursning oldi-sotdi bitimi amalga oshiriladi. Bu bozorda biznes tomonidan ishchi kuchiga bo'lgan talab, uy xo'jaliklari tomonidan bildirilgan ishchi kuchi taklifi bilan to'qnash keladi. SHunday ekan, ishchi kuchi bozorida iqtisodiy sub'ektlarning ikki turi – tadbirkorlar va yollanma ishchilar harakat qiladi. Ishchi kuchi insonning mehnat qilish qobiliyati sifatida tovarga aylanadi, bu qobiliyat bozor orqali uning egasidan ajratib olinishini bildirmaydi. Ishchi kuchi bozorida insonning o'zi emas, uning mehnat qilish qobiliyati ma'lum muddatga sotiladi.

Ishchi kuchi bozorining aniq namoyon bo'lish shakllaridan eng muhimi — mehnat birjasidir. Mehnat birjasi — ishchilar va tadbirkorlar o'rtasidagi ishchi kuchini oldi-sotdi bitimini tuzishda vositachilikni amalga oshiruvchi va ishsizlarni ro'yxatga oluvchi muassasa.

Moliya bozori. Bu bozor turli-tuman va ko'p jihatli bo'lsa ham, oldi-sotdi ob'ekti bitta, ya'ni pul (pulga tenglashtirilgan qog'ozlar) hisoblanadi va turli xil shakllarda bo'ladi. Ortiqcha mablag'larga ega bo'lgan xo'jalik sub'ektlari, bu moliyaviy resurslarni, mablag'lar kamyobligini sezgan sub'ektlarga taklif qiladi.

Moliyaviy bitimlarning xarakteriga qarab, moliya bozorini turkumlash mumkin. Bunda moliyaviy bozor ikkiga ajraladi: qarz majburiyatlari (iste'molni qondiradigan pul) va kapital (mulk) bozori. Qarz majburiyatlari bozorida pul vaqtincha qarz hisoblanadi va olingan pul shaxsiy iste'mol uchun ishlatiladi. Mulk bozorida qo'yilgan puldan daromad olish huquqi sotiladi va sotib olinadi. Bu bozorda mablag'lar kapital sifatida ishga solinib, foyda keltiradi. SHuni hisobga olib kapital bozorini ikkita bo'g'inga ajratish mumkin: ssuda kapitali bozori va qimmatli qog'ozlar bozori. Ssuda kapitali bozori — pul shaklidagi kapitalning foiz to'lash sharti bilan qarzga berilishidir. Bu bozorda qisqa muddatli majburiyatlar muomalada bo'ladi. Bular asosan davlat va banklarning majburiyatlari hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida aksiya, obligasiya, veksel, chek, depozit kabilar oldi-sotdi qilinadi. Bular davlat tomonidan chiqarilgan uzoq muddatli majburiyatlar hamda korporasiyalarning aksiya va obligasiyalaridan iboratdir. Bu bozorda broker va dilerlar vositachilik qiladi. Mazkur bozor amalda fond birjalari, auktsionlar va banklardan iborat bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlarning harakati xususiyati bo'yicha moliya bozori birlamchi va ikkilamchi (hosila) bozorlarga bo'linadi. Birlamchi bozorda yangi nusxadagi qog'ozlar sotiladi va sotib olinadi, ikkilamchi bozorda oldin chiqarilgan qimmatli qog'ozlar harakat qiladi. Birlamchi bozorda qimmatli qog'ozlar sotilsa, ikkilamchi bozorda qayta sotiladi.

Iqtisodiyot uchun qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori favqulodda muhim ahamiyatga ega. U xo'jalik sub'ektlari o'rtasida moliyaviy vositalarning erkin harakat qilishi ta'minlaydi.

### 6-§. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari.

Bozor infratuzilmasi - bu bozor aloqalarini o'rnatish va uning bir maromda amal qilishga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tizimidir. Unga ombor xo'jaligi, transport, aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar, tovar va xizmatlar muomalasiga xizmat qiluvchi muassasalar (birjalar, auktsionlar, savdo uylari, savdo-sotiq idoralari va agentliklari kabilar), moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasalar (bank turidagi muassasalar, kreditlash idoralari, sug'urta va moliya kompaniyalari, soliq idoralari) va ijtimoiy sohaga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar (uy-joy va kommunal xizmat idoralari, aholini ishga joylashtirish firmalari) kiradi. Axborot xizmati idoralari ham bozor infratuzilmasining alohida bo'g'inini tashkil qilib, ularga ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va sotish bilan shug'ullanuvchi kompaniya va firmalar kiradi.

Bozor infratuzilmasining bu barcha unsurlari ishlab chiqaruvchilarning savdo-sotiq, moliya-kredit ishlariga, sherik topishiga, ish kuchini yollashiga ko'maklashadi, davlatning iqtisodiyotini tartibga soluvchi tadbirlarini amalga oshiradi, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida aloqa o'rnatishga yordam beradi. Ularning bir qismi davlat mulkchiligida joylashsa, boshqalari mustaqil muassasa va uyushmalardan iborat bo'lib, ko'rsatgan xizmatlari uchun haq oladi.

Bozor infratuzilmasida tovar (xizmat)lar muomalasiga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar muhim o'rin tutishi sababli ularning asosiylarining qisqacha tavsifini beramiz.

Birja - namuna (yoki standart)lar asosida ommaviy tovarlarning muntazam savdo - sotiq ishlarini o'tkazuvchi tijorat muassasalaridir. Tovar birjalaridan farq qilib, fond birjasida qimmatbaho qog'ozlar va chet el valyutalarining oldi-sotdisi amalga oshsa, mehnat birjasi ishchi kuchi egasi bilan uni yollovchi korxonalar o'rtasida turib, unga bo'lgan talab va taklifni bir-biriga bog'laydi.

Birjaning barcha shakllarida kelishuvning xarakterli belgisi tovar, aksiya va valyuta kurslariga, bahoning tebranib turishiga e'tiqov yo'li bilan ta'sir qilishdir.

Birjada uning qatnashchilari ayirboshlash to'g'risida bitim tuzadi, lekin tovami etkazib berish va uning haqini to'lash birjadan tashqarida yuz beradi. Bunda tovar egasi va xaridorlar qatnashishi shart emas. Ular nomidan ishni brokerlar (dallollar) yuritadi. Broker (makler)lar - bu tovar, fond va valyuta birjalarida oldi-sotdi bitimlarini tuzishda vositachilik qiladigan shaxs yoki maxsus firma. Ular odatda mijozlar topshirig'iga ko'ra va uning hisobiga ish yuritadi, kafolat beruvchi hisobiga o'z nomidan savdo bitimlari tuzishi ham mumkin.

Birjaning yana bir xususiyati shundaki, bu erda hali ishlab chiqarilmagan, lekin tayyorlanishi aniq bo'lgan, oldin sotib olinib, egasi ixtiyoriga kelib tushmagan tovarlar ham sotiladi.

Birjalar ixtisoslashgan yoki universal bo'lishi mumkin. Ixtisoslashgan birjalarda ayrim turdagi yoki bir guruh, tovarlar, universal birjalarda har xil tovarlar sotiladi.

Auksionlar - alohida xususiyatlarga ega bo'lgan tovarlarni sotish uchun muayyan joylarda tashkil qilingan maxsus kim oshdi savdo muassasasi. Auksionda savdo tovarlarning nisbatan cheklangan ro'yxati bo'yicha, ommaviy sotuvga qo'yish yo'li bilan o'tkaziladi. Auksion e'lon qilingan vaqtda va ma'lum davrda o'tkaziladi. Bunda tovarlarning bozorga kelib tushish mavsumi va hajmi hisobga olinadi. Auksion savdosida namuna tovarlar ro'yxatda ko'rsatilgan tartibda savdoga qo'yiladi, xaridorlar orasida eng yuqori narxni taklif qilgan kishi tovarni sotib oladi.

Auksionlarda san'at asarlari, noyob buyumlar, kolleksiyalar ham sotilishi mumkin. Savdo yarmarkalari ma'lum vaqtda o'tkazilib, bu erda tovarlar ulgurji ravishda oldi-sotdi qilinadi. Tovar savdosi uning egasi bilan savdo firmasi o'rtasida yuz berib, unda bevosita iste'molchi qatnashmaydi.

Savdo uylari - savdo muassasasining maxsus turi. U ixtisoslashgan yoki universal bo'lishi mumkin. Ixtisoslashgan savdo uyi ayrim tovarlar bilan (kiyim-kechak, oyoq kiyim, gazlama va h.k.) universal savdo uyi har xil tovarlar bilan savdo qiladi. Savdo uylari tarkibida savdo firmalari muhim o'rin tutadi. Ular tijorat ishini yurituvchi va ixtisoslashgan savdo-sotiq korxonalaridir. Firmalar mustaqil yoki yirik sanoat korporasiyalari tarkibida ish yuritib, ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanadigan turlarga bo'linadi. Ayrim firmalar har ikkala savdo turi bilan ham shug'ullanadi.

Ulgurji savdo firmalari tovarlarni o'z mulkiga sotib olib, keyin iste'molchilarga sotadi. Chakana savdo firmalari har xil shaklni olib, ular mustaqil do'konlar, maxsus do'konlar va supermarketlardan iborat bo'ladi.

Supermarket - bu xaridorning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishiga asoslangan keng tarmoqli savdo korxonasi. U tovarlarning deyarli hamma turlari bilan, jumladan import tovarlar bilan savdo qiladi. Supermarket xaridorlarga bepul maslahatlar beradi, tovarlarni buyurtma bo'yicha xaridor uyiga etkazadi, ularga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatadi.

Ko'p tarmoqli tashqi savdo firmalari ham savdo uyi deb ataladi. Ular o'z nomidan va ko'pincha o'zlari hisobidan eksport-import hamda boshqa savdo

aloqalarini olib boradi. Tashqi savdo uylari savdo korxonalarini sotib olish, jihoz va uskunalarni ijaraga topshirish, kreditlar berish, sug'urta xizmati ko'rsatish bilan moliya va ishlab chiqarish xizmatida ham qatnashadi.

Infratuzilma tizimida moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasalar alohida o'ringa ega. Ular moliya bozori, uning asosi bo'lgan kapital bozorini shakllantiradi va amal qilish tartib - qoidalarini o'rnatadi. Moliyaviy muassasalardan ko'pchiligi o'ziga xos belgilarga ega bo'lsada, ularning barchasiga bitta umumiy belgi xos. Ular o'zlarining majburiyatlarini bildiradi, ya'ni mablag'lari ortiqcha bo'lgan sub'ektlardan pul qarz oladi va o'z nomidan mablag'lari etishmagan sub'ektlarga pul qarz beradi.

Bozor infratuzilmasining banklar, sug'urta kompaniyalari, soliq va bojxona idoralari kabi moliya-kredit munosabatlarida alohida o'ziga xos o'ringa ega. Ularning iqtisodiy faoliyati va moliyaviy munosabatlarda tutgan o'ri bilan keyingi mavzularda batafsil tanishamiz.

Bozor iqtisodi sub'ektlarini moliyaviy axborotlar bilan ta'minlash bozor infratuzilmasining axborotlik xizmati idoralari, shu jumladan auditorlik firmalari zimmasiga tushadi. Auditor firmalar - korxonalar, firma, kompaniyalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirib boruvchi, ular hisobotini ekspertizadan o'tkazuvchi idora. Ular odatda aksioner jamiyat yoki kooperativ shaklda faoliyat ko'rsatadi va to'liq mustaqillikga ega bo'ladi. Auditor firmalar o'z ishini har bir mamlakatda yoki xalqaro miqyosda qabul qilingan hisob-kitob va taftish qoidalariga binoan olib boradi. Auditor firma ishida qatnashuvchi taftishchilar auditorlar deb ataladi.

SHunday qilib, bozor infratuzilmasi va uning qarab chiqilgan unsurlari bozorning barcha turlarining faoliyat qilinishi, hamda davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni ta'minlaydi.

### Asosiy tayanch tushunchalar

**Bozor iqtisodiyoti**-tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

**Bozor mexanizmi**-bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan dastak va vositalardir.

**Bozor-ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar** (sotuvchilar va xaridorlar) o'rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo'ladigan munosabatlar yig'indisidir.

**Bozor ob'ekti**-bozorga, ayirboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyatning natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlardir.

**Bozor sub'ekti**-bozorning, ayirboshlash munosabatlarining qatnashchiligidir.

**Bozor infratuzilmasi**-ayirboshlash munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasaviy tuzilmalardir.



## Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining umumiy tomonlarini va farqlarini tushuntirib bering.
3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
4. Bozor tushunchasining ta'rifini bering va uning asosiy vazifalarini ko'rsating.
5. Bozorni turkumlashda qanday mezonlar asos qilib olinadi? Ularni sanab ko'rsating.
6. Etuklik darajasiga qarab bozorning qanday turlari ajratiladi?
7. Bozor infratuzilmasi nima?

## Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir», «O'zbekiston» 2005.
2. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz», T. «O'zbekiston», 2000y.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari.» -T. «O'zbekiston», 1998.
4. «Tashkilotdan to'g'ri xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish uchun» asidagi qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel.
5. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T., «Moliya» nashriyoti, 2002.
6. A. Qodirov. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
7. D. Tajiboeva. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
8. Makkonel K., Bryu S. «Ekonomika», M.2002.
9. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Rayzberga.- Uchebnik: - INFRA – M.2004.
10. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof.M. N. Chepurina. Uchebnik: - INFRA – M.2004.
11. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsh. red. akad. V. I. Vidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA – M.2004.
12. Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
13. E. F. Borisov Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
14. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
15. Ioxin V. Ya. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
16. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy. d.e.n., prof. T. V. Chechelovoy. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

## Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalq so'zi - 25 mart.
2. Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov – 2005.
3. Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. Yaxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
4. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovi ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

### Veb-saytlar:

1. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
2. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
3. <http://infoteka.economics.ru>
4. [www.finansv.ru](http://www.finansv.ru)
5. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
6. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
7. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
8. [www.jahon.mfa.uz](http://www.jahon.mfa.uz)
9. [www.budjet.rf.ru](http://www.budjet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ro'zani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof.Sh.Sh Shodmonov,G.D.Bobabekova, G.T.Xalikova tomonidan tayyorlangan « Pedagogicheskoe masterstvo i innovasii v predpodovanii ekonomicheskoe teorii »-T-2004, « Innovasionie metodi obucheniya v ekonomicheskoe obrazovanii» va Sh.Sh.Shodmonov, T.M.Ziyaeva, M.T.Yaxshievlar tomonidan tayyorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami.T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.

## 6-Mavzu:

# BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH DAVRI. O'ZBEKISTONDA BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH TAMOYILLARI VA XUSUSIYATLARI.

Reja:

2-soat

Kirish.

1-§. O'tish davri tamoyillari va xususiyatlari.

2-§. Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari

3-§. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish vazifalari

Kirish.

Bu mavzu o'tish davri nazariyasi, xususan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarini bayon qilish bilan boshlanadi. Keyin O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari, respublikada bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib beriladi.

Mavzu bozor munosabatlariga o'tish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohatlarni chuqurlashtirish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish vazifalarini tahlil qilish bilan yakunlanadi.

### 1-§. O'tish davri tamoyillari va xususiyatlari.

Bozor iqtisodiyotining oldingi bobda tilga olingan belgilari uzoq davr davomida shakllanib, pirovard natijada yaxlit ijtimoiy tizimni tashkil qiladi.

Bunda bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari (model) xilma-xil bo'lib, ularning umumiy va xususiy tomonlari farqlanadi.

Jahon tajribasida bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha har xil yo'llari quyidagi uchta asosiy yo'llarga umumlashtirilib kiritiladi:

1. Rivojlangan mamlakatlar yo'li;
2. Rivojlanayotgan mamlakatlar yo'li;
3. Sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'li;

Bu yo'llarning umumiyligi-ularning hammasi bozor iqtisodiyotiga o'tishni maqsad qilib qo'yadi, va mazkur iqtisodiyotning qonun-qoidalari, amal qilish mexanizmi ko'p jihatdan umumiy bo'ladi. Har bir yo'lning o'ziga xos xususiyati bozor munosabatlarini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, milliy sharoitlari har xil bo'lishidan kelib chiqadi.

Masalan: bozor munosabatlariga o'tishning G'arbcha modeli (rivojlangan mamlakatlar yo'li)da oddiy tovar xo'jaligi dan erkin raqobatga asoslangan klassik yoki erkin bozor iqtisodiyoti tomonidan madaniylashgan bozor iqtisodiyoti tomon boriladi.

Mustamlakachilikdan ozod bo'lib, mustaqil rivojlanayotgan mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lining xususiyati-bu qoloq, an'anaviy

iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishdir. Nihoyat, sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'lining muhim belgisi, markazlashtirilgan, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan hozirgi zamon rivojlangan bozor tizimiga o'tish hisoblanadi. Bu yo'ning boshqa yo'llardan farqi shundaki, totalitar iqtisodiyotning bozor iqtisodiyoti bilan umumiyligi yo'q, ular batamom bir-biriga zid. Shu bilan birga uchinchi yo'lda bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlarning o'zi o'tish sharoitlari, iqtisodiy rivojlanish darajasi, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari bilan bir-birlaridan farqlanadi. Bularning hammasi bozor iqtisodiyotiga o'tishning mazkur yo'lga alohida xususiyatlarini kiritadi.

Markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishda maqsad bir xil bo'lsada, turli mamlakatlar turli yo'llarni tanlashlari mumkin. Hammaga ma'lumki, bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishda ikki yo'l, ya'ni revolyutsion va evolyutsion yo'llar mavjud. Polsha, Chexoslovakiya, Rossiya va boshqa ayrim mamlakatlar bozor iqtisodiyotiga o'tishning revolyutsion yo'lini birdaniga katta to'ntarishlar qilish yo'lini tanladilar. Boshqacha aytganda ular «Karaxt qilib davolash» degan usulni qo'lladilar. Bu yo'lni amalga oshirish uchun Rossiyada «300-kun» «500-kun» degan o'tish dasturlari ishlab chiqildi. Bu dasturlarni tezkorlik bilan amalga oshira boshladilar. Bunda ular bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishda ancha uzoq muddatli o'tish davri bo'lishini unudilar. Natijada bu mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmi keskin tushib ketdi, ko'plab koxonalar yopilib, ishsizlar soni oshdi, pulning qadri keskin pasayib ketdi, iqtisod esa haligacha karaxtkidan chiqmadi, odamlarning ahvoli og'irlashdi.

Shuning uchun O'zbekiston bu yo'ldan bormay boshqa yo'l tanladi. Bu yo'l O'zbekistonning o'ziga xos madaniy tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarini hamda bu yo'ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolyutsion to'ntarishlarsiz, ijtimoiy to'qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda asta-sekinlik, lekin qat'iyatlilik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iboratdir.

«Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf odatlar va turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tishdagi iqtisodiyotni bir yoqlama, beso'naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham bershga asosla-nadi»<sup>1</sup> deb yozadi mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish yo'li ijtimoiy-yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Bu yo'lni amalga oshirishga iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga Prezidentimiz I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan beshta muhim tamoyil asos qilib olinadi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Islom Karimov. *O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari*. T.O'zbekiston, 1997 yil, 188 bet.

<sup>2</sup> Qarang: Karimov I.A. *O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari*. T. «O'zbekiston», 1995y, 10-11 bet.

Birinchiidan, iqtisodiyotni mafkuradan holi qilish, uning ustivorli-gini ta'minlash.

Ikkinchiidan, o'tish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishi.

Uchinchiidan, butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlariga asoslanmog'i, qonunlarning ustivorligi ta'minlanmog'i lozim.

To'rtinchiidan, bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak.

Nihoyat, beshinchiidan, bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish. Bozor munosabatlariga o'tishda bu tamoyillarning hammasi ham muhim ahamiyatga egadir, lekin ularning ichida bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish tamoyili alohida e'tiborga loyiq. Chunki tegishli huquqiy negizni, bozorning infratuzilmalarini yaratish, odamlarda bozor ko'nikmalarini hosil qilish yangi sharoitlarda ishlay oladigan kadrlarni tayyorlash uchun vaqt kerak bo'ladi.

Bundan tashqari bozor munosabatlariga o'tish faqatgina iqtisodiyot sohasini o'zgartirish bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy hayotning bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgara barcha sohasini, shu jumladan siyosiy, ma'naviy-ahloqiy, maishiy va boshqa sohalarni ham tubdan o'zgartirishni taqozo qiladi. Bularning hammasi bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, evolyutsion yo'l bilan o'tish haqidagi g'oya juda muhim va afzal ekanligini ko'rsatadi.

Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish tamoyilini amalga oshirish, iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy bosqichlarini aniq ajratish, bu bosqichlarning har biri uchun aniq maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishni talab qiladi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlarida bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida quyidagi ikkita vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib qo'yilganligi ta'kidlanadi:

-totalitar tizimning og'ir oqibatlarini engish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;

-respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini

hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish.<sup>1</sup>

Shu vazifalarni hal qilish uchun birinchi bosqichda isloh qilishning muhim yo'nalishlari aniqlab olinadi va bajariladi.

Birinchiidan, o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy negizini mustahkamlash.

Ikkinchiidan, mahalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat korxonalarini, uy-joy fondini xususiy lashtirish qishloq xo'jaligida va xalq xo'jaligining boshqa sohasida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish.

Uchinchiidan, ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta'minlash.

Respublika iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tkazish bo'yicha birinchi bosqichda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish jarayonida iqtisodiyot sohasiga

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqirlashtirish yo'lida.  
- T. : O'zbekiston, 1995. 19 bet.

tegishli bo'lgan, iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun xujjatlari qabul qilindi.

Birinchi bosqichda kichik xususiy lashtirish amalda tugallandi, davlat mulkini boshqarish va uni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish uchun zarur bo'lgan muassasalar tizimi tuzildi.

Qishloq xo'jaligida agrar islohot jarayonida bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan yangi xo'jalik tizimi shakllandi va iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan qismi keng rivojlandi.

Xalq xo'jaligini, tarmoqlar va hududlarni boshqarishning eng maqbul va mavjud sharoitlarga mos bo'lgan tizimlari ishlab chiqildi. Narxlar to'liq erkinlashtirildi, bozor infratuzilmasining asosiy qirralari shakllantirildi aholini ijtimoiy himoyalash tizimi amalga oshirila boshladi, iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishildi.

Respublikada bozor munosabatlarga o'tishning birinchi bosqichida iqtisodiyotda va ijtimoiy sohada yuz bergan tub o'zgarishlar uning o'z taraqqiyotida keyingi sifat jihatdan yangi bosqichga o'ta boshlash uchun mustahkam, shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga islohot qilishning birinchi bosqichi natijalari keyingi bosqichning strategik maqsadlari va ustivor yo'nalishlarini aniq belgilab olish imkonini berdi.

Ikkinchi bosqichda investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va shuning negizida iqtisodiy o'sishni ta'minlab, bozor munosabatlarni to'liq joriy qilish maqsad qilib qo'yiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib I.A.Karimov asarida bu bosqich uchun bir qator vazifalar ajratib ko'rsatiladi.<sup>1</sup>

**Birinchi vazifa**-davlat mulklarini xususiy lashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga etkazish. Bunda davlat mulkini xususiy lashtirish, tadbirkorlik faoliyatini keng qo'llab quvvatlash, kichik xususiy korxonalar tashkil qilishni rag'batlantirish hisobiga ishlab chiqarishda davlatga qarashli bo'lmagan qismning ulushini oshirish ko'zda tutiladi.

**Ikkinchi vazifa**-ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Bu ham korxonalar va tarmoqlarning ham umuman davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishish imkonini beradi.

**Uchinchi vazifa**-milliy valyuta-so'mni yana ham mustahkamlashdan iborat.

Bu so'mning konvertatsiyasi, qat'iy valyutalarga erkin suratda almashtirish layoqati bo'lib, unga pulning qadrsizlanishiga qarshi ta'sirchan choralarni qo'llash, iste'mol mollari ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda ichki bozorni shunday mollar bilan to'ldirish, korxonalarining chetga mol chiqarishini kengaytirish hisobiga valyuta zahiralarni mustahkamlash yo'li bilan erishiladi.

**To'rtinchi vazifa**-iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xomashyo etkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish.

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqirlashtirish yo'lida.  
T.: O'zbekiston, 1995. 175-178 - betlar.

Bunda tarkibiy o'zgarishlarda Respublika uchun eng asosiy hisoblangan tarmoqlarni, jumladan yoqilg'i, energetika va g'alla komplekslarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

O'tish davrining ikkinchi bosqichida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish, ularga tegishli yordam ko'rsatish borasida birinchi bosqichda tutilgan yo'l davom ettiriladi.

Shunday qilib, O'zbekistonda iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazishda ikki bosqichli taraqqiyot yuzaga keladi.

Birinchi bosqichda davlat sektori va bozor xo'jaligidan iborat, yarim erkinlashgan iqtisodiy tizim yuzaga keladi.

Ikkinchi bosqichda iqtisodiyot to'liq erkinlashtiriladi, xususiylashtirish tugallanadi, narxlar erkin qo'yib yuboriladi, davlat korxonalarining monopol mavqei tugatiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning mazkur bosqichlari muqarrar bo'lib, lekin bu bosqichlarning davomiyligi, ular doirasida echiladigan vazifalar har xil bo'ladi.

## **2-§. Respublikada bozor islohatlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari.**

Iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalarining bir turidan butunlay boshqa yangi turiga o'tish, iqtisodiy islohatlar strategiyasini ishlab chiqish va uning asosiy yo'nalishlarini aniqlab olishni taqozo qiladi. Iqtisodiy islohatlar-bu bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir.

Iqtisodiy islohatlardan ko'zda tutilgan maqsad, mamlakat aholisi uchun hayot kechirish va faoliyat qilishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma'naviy - ahloqiy etukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

Islohatlarni amalga oshirishdan oldin bozor iqtisodiyotiga o'tishning nazariy modeli yaratildi. /**Shu bobning 1-§ da qarab chiqildi.**

Bu modelda yangi iqtisodiyotga o'tishning umumiy tomonlari va milliy xususiyatlari nazarda tutiladi, islohatlarning asosiy yo'nalishlari belgilanadi.

Respublikada iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohatlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohati;
- boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohati;
- ijtimoiy islohatlar.

Iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishning bu asosiy yo'nalishlari I.A.Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida» kitobida bayon qilib berilgan.

Iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishning boshlang'ich nuqtasi bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'ladi.

Respublikada iqtisodiy islohatlarning huquqiy negizini yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning bir nechta yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi yo'nalish-davlat va iqtisodiy mustaqillikning huquqiy negizlarini yaratish, davlatni boshqarish qoidalarini tartibga soluvchi qonunlarni qabul qilish.<sup>1</sup>

Boshqaruv tizimining yuqori va quyi darajadagi vazifalari aniq chegaralab qo'yildi. Bako'latli hokimiyatning yagona to'la huquqli organi bo'lgan hokimlik instituti yaratildi, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish sohasida fuqarolar yig'ini joriy qilindi.

Ikkinchi yo'nalish-tizimdagi o'zgarishlarga, yangi iqtisodiy munosa-batlarga va shu jumladan mulkchilik munosabatlariga asos bo'ladigan qonunlar tizimini yaratish.<sup>2</sup> Respublikada bu yo'nalish bo'yicha qabul qilingan qonunlarda mulkdorning huquqi tan olindi, xususiy mulkchilik huquqi e'tirof qilindi, mulkchilikning barcha shakllari uchun teng sharoit yaratildi. Davlat mulkini xususiy lashtiri shning samarali mexanizmi ishlab chiqildi. Qisqacha aytganda bozor munosabatlarining negizi bo'lgan ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishning barcha huquqiy asoslari yaratildi.

Uchinchi yo'nalish-xo'jalik yuritishning va institutsional o'zgarishlar-ning bozor sharoitlariga mos keladigan yangi mexanizmni yaratishga qarata-digan qonunlar.<sup>3</sup> Bozor infratuzilmasini yaratish va uning faoliyatiga hos jarayonlarni tartibga solishni ta'minlaydigan bunday qonunlarni qabul qilishdan oldin, iqtisodiyotning turli sohaslarida xo'jalik yuritayotgan sub'ektlarning huquq va iqtisodiy erkinlik borasidagi maqomini belgilab beradigan qonunlar qabul qilindi. Korxonalar to'g'risidagi qonun, kooperatsiya to'g'risidagi, dehqon xo'jaligi to'g'risidagi, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risidagi qonunlar shular jumlasidandir.

To'rtinchi yo'nalish-Respublikamizni halqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida, ta'riflovchi huquqiy normalarni yaratish.<sup>1</sup> Bu yo'nalishdagi qonunlarni qabul qilish natijasida mamlakatimizning tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi tarixida sifat jihatdan yangi bosqich boshlandi

Beshinchi yo'nalish-insonlarning konstitutsion va yuridik huquqlarini, ijtimoiy kafolatlarini va aholini ijtimoiy himoyalashni ta'minlaydigan qonunlarni

<sup>1</sup> Shu yo'nalish bo'yicha respublikada quyidagi qonunlar qabul qilindi: O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida; O'zbekiston Respublikasining Vazirlar mahkamasi to'g'risida; Joylarda davlat hokimiyati to'g'risida; Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida.

<sup>2</sup> Bunday qonunlar jumlasiga milkchilik to'g'risidagi, yer to'g'risidagi, davlat isarufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risidagi, ijara to'g'risidagi va shu kabi qonunlar kiradi.

<sup>3</sup> Bu guruh qonunlariga banklar va bank faoliyati to'g'risidagi, pul tizimi to'g'risidagi, tadbirkortik to'g'risidagi, sug'urta to'g'risidagi, birjalar va birja faoliyati to'g'risidagi, auditorlik faoliyati to'g'risidagi, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risidagi qonunlar kiradi.

<sup>1</sup> Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi, O'zbekiston respublikasining etakchi halqaro tashkilotlarga a'zoligi to'g'risidagi, valyurani tartibga solish to'g'risidagi qonunlar.



ishlab chiqish.<sup>2</sup>Bu qonunlar bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholining eng muhtoj tabaqalari manfaatlarini qonun kuchi bilan himoya qilishgagina emas, balki ularning ma'naviy imkoniyatlarini namoyon qilish, islohatlar uchun mustahkam ijtimoiy zamin yaratishga ham imkon beradi.

YUqorida qarab chiqilgan barcha qonunlarda bozor iqtisodiyotining huquqiy asoslarini yaratish ham amaliy, hamiqtisodiy islohatlarni amalga oshirishning huquqiy asosini tashkil qildi.

Bozor islohatlarining bosh bo'g'ini mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirishdir, chunki shu orqali ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatlashish muhiti shakllantiriladi hamda bozor iqtisodiyotiga o'tishning shart-sharoitlari vujudga keltiriladi. Shu sababli respublikada mulkiy munosabatlarni isloh qilishdan ko'zda tutilgan maqsad davlat mulki monopolizmini tugatish va bu mulkni xususiy lashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat.<sup>3</sup>

Respublikada iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichidayoq qishloq xo'jaligini isloh qilishga ustunlik berildi. Bunga quyidagilar sabab bo'ldi. Birinchidan respublikamiz iqtisodiyotida agrar soha ustivorlikka ega, aholisining ko'pchiligi qishloq xo'jaligida band, iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan shu tarmoq ahvoriga bog'liq. Hozirgi kunda agrar sektor hissasiga yalpi ichki milliy mahsulotning 1/4 qismidan ko'prog'i to'g'ri keladi, halq xo'jaligida band bo'lganlarning 37 foizga yaqini qishloq xo'jaligida ishlaydi va barcha aholining yarmidan ko'prog'i qishloqda yashaydi.

Ikkinchidan, respublika butun sanoat potentsialining yarmiga yaqinini tashkil qiladigan sanoatning ko'pgina tarmoqlarini (paxta tozalash, to'qima-chilik, engil, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mashinasozligi va boshqalar) rivojlantirish istiqbollari bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liq.

Uchinchidan, qishloq xo'jalik mahsulotlari (asosan paxta) hozirgi vaqtda valyuta resurslari, respublika uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, texnika va texnologiya uskunalari chetdan sotib olishni ta'minlayotgan asosiy manbadir.

To'rtinchidan, mustaqillik sharoitida qishloq xo'jaligining oziq-ovqat muammosini hal etishdagi roli ortib boradi.

O'zbekistonda agrar islohatning negizi yerga bo'lgan mulkchilik masalasi. Respublika Konstitutsiyasida yer xususiy mulk qilib sotilishi mumkin emasligi, balki uni uzoq muddatli ijara shartlari bilan topshirish mumkinligi ta'kidlangan.

Shunday ekan, qishloqda bozor munosabatlarini shakllantirishga yemi meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanish uchun ijaraga berib qo'yish orqali erishish ko'zda tutilgan.

<sup>2</sup> Ish bilan bandlik to'g'risidagi, nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risidagi, fuqarolarning davlat nafaqasi ta'minoti to'g'risidagi, ta'lim to'g'risida, vijdon Erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida qabul qilingan qonunlar.

<sup>3</sup> Mulkiy islohatlarning negizi bo'lgan davlat mulkini xususiy lashtirishning respublikadagi xususiyatlari, amalga oshirilish shakllari, usullari va yo'llari bilan biz oldindan tanish bo'lganligimiz sababli, bu yerda iqtisodiy islohatlarning boshqa yo'nalishlariga kengroq o'rin beramiz.

Respublikada yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlarini isloh qilishning boshqa xususiyati, dalat melioratsiya, irrigatsiya, yerlarning unumdorligini oshirish dasturlarini bajarishni o'z zimmasiga oladi. Buni bizdagi dehqonchilikning xususiyati taqozo qiladi. Bu xususiyat shundaki, u faqat sug'oriladigan yerlarda olib boriladi. Respublikada barcha haydaladigan yerlarning 3/4 qismidan ko'prog'i (4,2 mln.ga) sug'oriladigan yerlar bo'lib, uning yarmidan ko'prog'i yaxshi meliorativ holatda, qolgan yerlar esa melioratsiya ishlari (qayta o'zlashtirish, kollektor-drenaj tarmog'ini) olib borishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda har gektar sug'orib kelingan yerni qayta o'zlashtirish uchun 1990 yilgi darajadan 14-15 baravar ko'p xarajat talab qilinadi. Bundan xulosa shuki, birorta ham fermer irrigatsiya va melioratsiya ishlarini o'zi mustaqil amalga oshira olmaydi. Faqat davlat melioratsiya tarmog'ini loyihalashga, qurishga va irrigatsiya tadbirlarini amalga oshirishga qodir.

Respublikada agrar islohatlarning navbatdagi yo'nalishi, barcha davlat qishloq xo'jalik korxonalarini (birinchi navbatda zarar ko'rib ishlayotganlarini) jamoa xo'jaliklariga va mulkchilikning boshqa shakllari (kooperativlar, aksiyadorlik xo'jaliklari va har xil xususiy korxonalar) ga aylantirish hisoblanadi.

Bunda birlamchi qishloq xo'jalik bo'g'ini fermer xo'jaliklarini birlashtiradigan va ularga modeliy-texnikaviy ta'minot, texnika, agrokimyo xizmati ko'rsatadigan kooperativ bo'lishi lozim. Ularning tarkibida fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Respublikada agrar islohatlarni amalga oshirish dasturlariga asoslanib, 1992 yildan boshlab o'tgan davr mobaynida mavjud 1137 davlat xo'jaligidan 1066 tasi mulkchilikning aksiyadorlik, jamoa va ijaradagi korxonalar shakllariga aylantirildi. Natijada qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining tarkibi mulkchilik shakllari bo'yicha ancha o'zgardi.

1994 yilda qishloq xo'jaligida davlatga qarashli bo'lmagan sektor butun mahsulotning deyarli 95%<sup>1</sup> (1991 yil 63%) ni, 1998 yilda esa 98,7% ni ishlab chiqardi<sup>2</sup>.

Qishloq xo'jaligini isloh qilishning keyingi yo'nalishi - bu shaxsiy tomorqalarni kengaytirish, yangi sug'oriladigan yerlarni shaxsiy xo'jaliklar va bog'-dala hovli uchastkalariga ajratib berish yo'li bilan aholini yer bilan ta'minlash. Shu ko'rilgan chora - tadbirlar hisobiga, birinchidan qishloq joylarda ishsizlikning kuchayib borish havfini barham toptirishga, ikkinchidan, aholining real daromadlarini oshirishga, uchinchidan, aholini hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdagi keskinlikka barham berishga va to'rtinchidan, yakka tartibda uy-joy qurilish ko'lamini ancha kengaytirishga muvaffaq bo'lindi.

Islohatlar amalga oshirilgan dastlabki yillarda aholiga foydalanish uchun qo'shimcha 550 ming gektar sug'oriladigan yer ajratildi, shaxsiy tomorqa uchun

<sup>1</sup> Qarang: Karimov I.A O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1995. 64-65 betlar

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining 1998 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. Toshkent-1999 7-bet.

berilgan yerning umumiy maydoni 700 ming gektarga etdi. Natijada dehqon xo'jaliklarning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi umumiy hajmidagi ulushi 1992 yildagi 33% dan 1998 yilda 60,3%ga ko'tarildi<sup>3</sup>.

Respublikada agrar islohatlarning navbatdagi yo'nalishi-bu qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining tarkibiy tuzilishini takomillash-tirish. Bunda xo'jalik-larga ekin maydonlari tarkibini va ishlab chiqarish hajmini mustaqil belgilash huquqi beriladi.

Don mustaqilligiga erishish va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashni tiklash yo'li izchil amalga oshirilishi natijasida donli ekinlar maydoni ancha kengaydi, paxta ekiladigan maydonlar esa tegishli ravishda qisqardi. Don etishtirishni ko'paytirib borish (1994 yil 2,7, 1995 yil 4,4 mln t.) uni chetdan keltirishni qisqartirish va qisqa davrda to'liq don mustaqilligiga erishish imkonini beradi.

Respublikada agrar islohatlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichida xo'jalik yuritish mexanizmini takomillash-tirishga ham katta ahamiyat berildi.

Bunga dastlab umumdaviat ehtiyojlari uchun etkazib berilayotgan mahsulotlarga oqilona xarid narxlarini belgilash, keyinchalik mahsulotlarning ko'pchilik turlariga davlat buyurtmasini asta-sekin bekor qilish (1995 yildan faqat paxta va donga davlat buyurtmasi saqlanib qoldi) hamda qishloq xo'jalik korxonalarini qo'llab-quvvatlash (soliqlardan ozod qilish, kreditlarni qaytarish muddatini cho'zish va boshqalar) orqali erishildi.

Hozirgi davrda agrar islohatni tubdan hal etishni talab qilayotgan g'oyat muhim yo'nalish-qishloq xo'jaligida band bo'lgan ortiqcha ishchi kuchini bo'shatib olish va ularni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga (sanoat, xizmat ko'rsatish sohalari) jalb etishdan iborat. Bunda qishloq joylarda faoliyat shaklini tez o'zgartira oluvchi, zamonaviy texnologiyaga ega bo'lgan qishloq xo'jalik xom-ashyosini qayta ishlovchi, kasanachilik va xalq hunarmandchiligiga asoslangan kichik korxonalarni ochildish ustivor vazifa hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzil-mani jadal rivojlantirish-agrar islohatning hozirgi kundagi usti-vor yo'nalishidir.

Bu yo'nalishda kommunal va muhandislik tizimlarining keng tarmog'ini yaratish, servis va maishiy xizmat tarmog'ini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Shu vazifani bajarish yo'lida keyingi yillarda ham 2000 yilgacha mo'ljallangan qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish hamda 1998-2000 yillarda qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish ishlari davom ettirildi. Qishloqlarda 1965 km vodoprovod tarmog'i ishga tushirildi, 4844 km gaz tarmoqlari qurildi. Mablag' bilan ta'minlanadigan barcha manbalar hisobidan 1998 yilda umumiy maydoni 6,83 mln kv.m uy-joy binolari foydalanishga topshirildi.

<sup>3</sup> O'sha joyda, 35 -bet.

Yuqorida qarab chiqilgan agrar islohatlarni amalga oshirishning barcha yo'nalishlari respublikaning xususiyatlari va bozor iqtisodiyotiga o'tish talablaridan kelib chiqadi.

Mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor munosabatlariga o'ushda moliya-kredit sohasini isloh qilish alohida o'rin tutadi. Moliya-viy munosabatlarda davlat byudjeti tanqisligini kamaytirib borish, byudjetdan beriladigan dotatsiyalar va subsidiyalarning bosqichma-bosqich qisqartirish, birinchi darajali, eng zaur umumdavlat ehtiyojlari uchungina byudjetdan mablag' ajratish, xalq xo'jaligini rivojlantirishda investitsiya kreditlaridan keng foydalanish; islohatlarining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Kredit sohasidagi islohatlar bank tizimini takomillashtirish, ularning mustaqilligini va pul muomalasi uchun javobgarligini oshirishga qaratiladi. Shu maqsadda Respublikada markaziy bank hamda keng tarmoqli tijorat va xususiy banklardan iborat ikki bosqichli bank tizimi vujudga keltirildi. Markaziy bank zimmasiga federal rezerv tizimiga xos bo'lgan vazifalar yuklatildi. Ixtisolashgan aktsiyadorlik-tijorat banklari («G'alla banki», «Meva-sabzavot bank», «Tadbirkor bank», «Savdogar bank», «Paxta bank», va boshqa banklar) shaxobchalar shakllantirildi.

Iqtisodiyotni isloh qilishning eng asosiy muammolaridan biri narxlarni erkinlashtirishdir. Narxlarning erkin shakllanishi uchun narxlar tizimini isloh qilish ham zarur bo'ladi. Dastlab davlat xarid narxlarining amal qilish doirasi qisqartiriladi va keyin ichki narxlar jahon narxlariga muvofiqashtirib boriladi. Shuningdek narxlarni erkinlashtirishda xom-ashyo va mahsulot ayrim turlarining, narx-navo bilari aholi va korxonalar daromadlari o'rtasidagi tenglikka erishishga harakat qilinadi.

Respublikada islohatlarni asta-sekin va bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyili, narxlarni erkinlashtirishda yondashishga ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi.

Islohatlar boshlanishdan oldingi davrda respublikada narx-navoning nomutanosib tizimi tarkib topadi. Xom-ashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlari narxi pasaytirilib, ishlov beruvchi va qayta ishlovchi tarmoqlar tovarlarining narxi esa sun'iy ravishda oshirib borilgan edi. Bundan ko'rilgan katta zarar respublikani dotatsiya oluvchi mintaqaga aylantirib qo'ydi.

Narx belgilashdagi nomutanosibliklar tufayli butun tarmoqlar, shu jumladan qishloq xo'jaligidagi ko'plab korxonalar zarar ko'rib ishladi. Xalq xo'jalik tarmoqlari ko'rgan zarar, ayrim mahsulot turlari (don, un va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari) etishtirishga qilingan xarajatlar va turli ijumoiy imtiyozlar berishdan ko'rilgan zarar byudjet mablag'lari hisobidan qoplanar edi. 1991 yil shu maqsadda sarflangan mablag' respublika byudjeti jami xarajatarining 12% dan ortig'ini tashkil qilgan.

Bularning hammasi narxlar islohatini amalga oshirishga real vaziyatni va aholining mavjud turmush darajasini hisobga olib, oldindan ishlab chiqilgan dastur asosida yondashishni talab qiladi.

Narxlar islohati boshlangandan 1994 yilgacha hamma turdagi xom-ashyo va mahsulotlar bo'yicha erkin narxlarga o'tildi, barcha iste'mol mollari narxi ustidan davlat nazorati bekor qilindi.

Isloh qilishning dastlabki davrida (1992 yil) keng doiradagi ishlab chiqarish-texnik vositasi bo'lgan mahsulotlar, ayrim turdagi xalq iste'mol mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning kelishilgan narxlari va tariflarga o'tildi. Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qo'yildi.

Narxlar islohatining navbatdagi bosqichida (1993 yil) kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'lig'icha to'xtatildi. Narxlarni erkinlashtirishning oxirgi bosqichida (1994 yil oktyabr-noyabr) xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxi erkin qo'yib yuborildi.

Shunday qilib iqtisodiyotni isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarni to'liq erkinlashtirish bilan tugadi.

Iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, boshqarishning tegishli tizimini yaratishni talab qiladi. Shunga asosan respublikada butun xalq xo'jaligini, tarmoqlar va hududlarni boshqarishning eng maqbul va hozirgi davrga mos bo'lgan tuzilmalari ishlab chiqildi.

Ko'plab markaziy iqtisodiy organlar va vazirliklar tugatildi (Davlat reja qo'mitasi, Davlat ta'minot qo'mitasi, Davlat narxlar qo'mitasi, Davlat agro-sanoat qo'mitasi va boshqa qo'mita hamda vazirliklar) yoki ularning faoliyati tubdan qayta ko'nildi. Faoliyat tugatilgan ma'muriy apparatlar o'rniga yangi boshqarish bo'g'inlari tuzildi.

Masalan, Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, respublika ulgurji va birja savdosi aksiyadorlik uyushmasi, antimonopol va narx-navo siyosatini o'tkazish boshqarmasi kabilar shular jumlasidandir.

Respublika moliya vazirligi va markaziy bankining vazifalari hamda tarkibiy tuzilishi ancha o'zgartirildi.

Masalan, Moliya vazirligi zimmasiga respublika byudjetini vujudga keltirish bilan bir qatorda, davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari va qoidalarini ishlab chiqish, valyuta ishlarini boshqarish vazifasi yuklatildi.

Nazorat organlari faoliyatini tartibga solish, davlatning yagona soliq va bojxona siyosatini o'tkazish maqsadida Davlat soliq qo'mitasi va Bojxona qo'mitasi tuzildi. O'tkaziladigan iqtisodiy islohat ishlarini muvofiqlashtirib turish uchun Prezident huzurida iqtisodiy islohat, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha idoralararo kengash tuzildi.

Ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish dasturlarini ishlab chiqish kabi vazifalarni bajarish uchun Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi tuzildi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarish va shu soxa korxonalarini faoliyatini muvofiqlashtirib turish uchun Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tuzildi.

Respublika iqtisodiyotining tarmoqlari va ayrim sohalarini boshqarish tizimida ham chuqur tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi. Tarmoq vazirliklari uyushmalarga, kontsernlarga, korporatsiyalar, ittifoqlar va boshqa xo'jalik birlashmalariga aylantirish bilan batamom tugatildi. Transport, sayohatchilik, madaniyat, kinolash tirish kabi faoliyat sohalarida milliy kompaniyalar tuzildi.

Boshqarishning mahalliy darajasida (viloyat, tuman, shahar) ijroiya-boshqaruv vazifalarini bajarish uchun hokimlik joriy qilindi. Quyi bo'g'in boshqaruvida korxonalar va tashkilotlarga iqtisodiy erkinlik berilib, ular yangicha ish uslubiga o'tdi.

Islohot qilish natijasida tarkib topgan boshqaruv tizimi bozor iqtisodiyotiga o'tib borish bilan yanada takomillashib va rivojlanib boradi.

Bozor islohatlari bozor infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlarini ham qamrab oladi. Bunda moliya, bank-kredit tizimi muassasalari, sug'urta, auditorlik, yuridik va konsalting firmalari hamda kompaniyalarini, birja tizimini yaratish taqozo qilinadi.

Respublikada bozor infratuzilmasini yaratish bir qator yo'nalishlar bo'yicha bordi. Birinchi yo'nalish bo'yicha tovar-xom ashyo birjasi tizimi rivojlandi. Bu o'z navbatida brokerlik va dilerlik idoralari, savdo uylari, vositachi firmalar paydo bo'lishiga olib keldi.

Ikkinchi yo'nalishda kapital bozori ishini ta'minlash kerak bo'lgan tuzilmalar vujudga keltirildi. Kredit resurslari bozori va valyuta bozori vujudga keltirildi hamda davlatga qarashli bo'lmagan sug'urta kompaniyalari tuzildi.

Uchinchi yo'nalish mehnat bozorini shakllantirishdan iborat bo'lib, bu sohada 240 dan ortiq mehnat birjasini o'z ichiga oluvchi katta tarmoq tuzildi.

Bozor islohatlari tashqi iqtisodiy aloqalarga ham tegishlidir. Bu sohada islohatlarni amalga oshirish borasida respublikaning zamonaviy tashqi iqtisodiy kompleksi mutlaqo yangidan shakllantirildi, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning mohiyat e'tibori bilan yangi mexanizmi vujudga keltirildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishi zarur bo'lgan muassasalar (Tashqi iqtisodiy aloqa vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, bojxonalar xizmati) barpo etildi. Respublikaning barcha vazirliklari va idoralari, korxonalarida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'limlar, tashkilotlar va firmalar tuzildi.

Tub iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish asosiy maqsad emas. Barcha islohatlarning asl maqsadi insonga munosib turmush kechishi va faoliyat qilish sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat. Shu sababli iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishning butun davri davomida aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish ob'ektiv zaruriyatidir.

Respublikada aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi.

Birinchi yo'nalish-narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish.

Ikkinchi yo'nalish-respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish.

Uchinchi yo'nalish-islohatlarning dastlabki bosqichida aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash.

Respublika uchun ijtimoiy himoyalash tizimini tanlab olishda halqning uzoq yillar davomida qaror topgan ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarini, turmush tarzi va dunyo-qarash xususiyatlarini hisobga olinadi.

Shunday qilib, islohatlarning barcha yo'nalishlari mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor iqtisodiyotiga o'sib o'tishiga qaratildi. Bu islohatlar, O'zbekistonning mustaqilligini iqtisodiy jihatdan ta'minlash, uni iqtisodiy jihatdan rivojlangan va halqaro miqyosda obro'-e'tiborli mamlakatga aylantirishga xizmat qiladi.

### **3-§. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish vazifalari**

Respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, iqtisodiyotni rivojlantirish borasida bir qator vazifalar turadi. Bular-xususiylash-tirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlash-tirish; makroiqtisodiy barqarorlikka erishish; milliy valyutani mus-tahkamlash; iqtisodiyot tarkibiy-tuzilishini tubdan o'zgartirish; ijtimoiy kafolatlarini kuchli bo'lgan demokratik davlatni shakllantirish vazifalaridir. Bu vazifalarni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslari hamda ustivor yo'nalishlari Prezidentimiz I.A.Karimovning yuqorida nomlangan kitobida ifodalab berilgan.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat mulkini xususiylash-tirish natijasida ikkita asosiy vazifa hal qilinadi.

Birinchi, davlat ixtiyorida bo'lgan mulk o'zining haqiqiy xo'jayinlari qo'lga topshiriladi.

Ikkinchi, ko'p ukladli iqtisodiyot va rag'batlantiruvchi raqobatchilik muhiti vujudga keltiriladi.

Mulkni haqiqiy xo'jayinlari qo'lga topshirish tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratilishini bildiradi. Raqobatchilik muhitini vujudga keltirish esa, eng avvalo mulkning davlat monopoliyasi ekanligiga barham berish va bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi (xizmat ko'rsatuvchi), ammo mulkchilikning turli shakllariga-davlat, jamoa, xususiy va boshqa shakllariga asoslangan ko'pdan-ko'p korxonalar tashkil qilishdan iborat.

Xususiylashtirish jarayonida mulkchilik shakllari o'zgarishi bilan birga, yagona halq xo'jalik kompleksi sharoitida tarkib topgan tor ixtisoslashgan tarmoq monopoliya tuzilmalariga barham berish imkoniyati ham tug'iladi.

Monopoliya lashtirilgan tuzilmalarni xususiylashtirishda, ishlab chiqarishning o'zini nisbatan ixchamlashtirish, korxonalarni texnikaviy, texnologik va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan qayta o'zgartirish loyihalarini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Tashabbuskorlikka asoslangan, shuningdek turli xil kooperativlar, shirkatlar, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar ko'rinishidagi yangi kichik va o'rta korxonalarni tashkil qilish iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan qismini shakllantirishning ikkinchi qudratli jarayonidir.

O'z-o'zidan aniqi, bozor iqtisodiyoti sharoitida ham, davlat korxonalarini saqlanib qolib, iqtisodiyotda sezilarli rol o'ynayveradi. Shu sababli, mazkur korxonalar uchun, ularning bozor sharoitlariga moslashuviga imkon beradigan xo'jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqish talab qilinadi, ularni tijoratlashtirishga, ya'ni foyda uchun ishlaydigan korxonalariga aylantiriladi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish bozor munosabatlarini shakllantirish yo'lidagi muqarrar jarayondir. U eng avvalo tanglik hodisalariga barham berishga qaratiladi. Tanglik holati inqirozga uchrashning oldini olish uchun ishlab chiqarish va chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning sifati va turini o'zgartirish yuzasidan chora-tadbirlar ko'rishga undaydi. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga, mahsulotning sifati va iste'mol xossalari yaxshilashga, uning raqobatga bardoshligini oshirishga majbur qiladi. Bularning barchasi pirovard natijada bozorda talab va taklif o'rtasida qulay muvozanatni ta'minlashga olib keladi. Kengroq ma'noda barqarorlashtirish-bu eng avvalo makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslikdir. Shuningdek u pul qadrsizlanishining oldini olish, to'lov balansini bir me'yorda saqlash sohasida aniq maqsadni ko'zlab olib boriladigan davlat siyosatidir.

Jahon tajribasida barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirishda bir necha xil yondashuvlar tarkib topgan. Bulardan birinchisi monetar yondashuv deb ataladi. U pulning qadrsizlanish darajasini pasaytirib turishga, pul massasini hamda to'lovga qodir bo'lgan jami talabini keskin kamaytirish hisobiga pul muomalasini barqarorlashtirishga asoslanadi. Bu yondashuvning kamchiligi ishlab chiqarishning jismoniy hajmi kamayishiga, va investitsiya faoliyati to'xtab qolishiga olib keladi.

Ikkinchisi-ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga, tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishga yordamlashish, iqtisodiyotda nomutanosiliklarga barham berishga asoslangan yondashuv. Bunda bir me'yordagi qattiq moliyaviy va pul kredit siyosati, tovar bilan qoplashning iloji bo'lmagan ortiqcha talablarni cheklash bo'yicha tadbirlar bilan uzviy bog'lab olib boriladi.

Respublikada o'tish davrida makroiqtisodiy barqarorlikka erishishda ikkinchi yondashuvga ustunlik beriladi. Bu ishlab chiqarishning ilg'or tuzilmasiga erishish uchun ustivor, istiqbolga ega bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni har tomonlama rag'batlantirish, eng muhim bo'g'inlarni aniq-lash (neft, energetika, don, paxtani qayta ishlash sanoati va h.k.) va shu orqali iqtisodiyotni tarkiban qayta tashkil qilish bo'yicha amalga oshiriladigan yondashuvdir. Ustivor hisoblangan



etakchi tarmoqlar belgilab olinishi bilan birga, ularning ichki tuzilishini qayta o'zgartirish ham hisobga olinadi.

Barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqishda, muvozanatga keltirilgan monetar siyosat, asosiy tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni tarkiban qayta tashkil qilishni qo'llab-quvvatlash siyosati bilan birga qo'shib olib borilishi zarur.

Ana shu yondashuvlar asosida iqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga yo'l qo'ymaslik
- ustivor tarmoqlarda ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirish va rag'batlantirish

- davlat byudjeti va korxonalar moliyaviy ahvolidning barqarorligini ta'minlash

- pulning qadrsizlanishini to'xtatish

- to'lov balansi va davlat valyuta rezervlarining holatini yaxshilash.

- muvozanatlashirilgan ijtimoiy siyosat asosida aholi turmush darajasini yaxshilash.

Barqarorlashtirishning hal qiluvchi omillaridan biri bu byudjet intizomiga rioya qilish va uning, kamomadini cheklash hisoblanadi. Bunda soliq tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi bosqichda iqtisodiyotni barqarorlashtirishda kredit-bank tizimini, pul muomalasini mustahkamlash, valyuta munosabatlarini tartibga solish ham alohida o'rin tutadi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida milliy valyutani mustahkamlash umummilliy vazifa hisoblanadi. Shu sababli milliy valyutaning barqarorligi, uning ichki bozorda erkin almashinuvini ta'minlash uchun respublikada bir qator dasturlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Birinchiidan, milliy valyutaning tovar (xizmat)lar bilan barqaror ta'minlanishiga erishish. Bunda bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirish va ularning umumiy hajmida respublikada ishlab chiqariladigan mahsulotlar hissasini oshirib borish hal qiluvchi o'ringa ega bo'ladi.

Ikkinchiidan, etarli barqaror valyuta zahiralarga ega bo'lish. Bunga respublika eksport imkoniyatini kengaytirish, korxonalarni eksport uchun mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalariga aylantirish va ularning jahon bozorida mavqegini oshirish orqali erishiladi.

Uchinchiidan, ishlab topilgan har bir so'mni qadrlash va xalq xo'jaligiga sarflangan har bir so'mning foyda bilan qaytishiga erishish. Buning uchun qat'iy moliyaviy-kredit siyosatini izchillik bilan o'tkazish zarur.

To'rtinchiidan, pul qadrsizlanishiga, inflyatsiyaga qarshi puxta o'ylangan siyosat o'tkazish. Bunda ichki bozorni mollar bilan to'ldirish, naqd pul va kredit emissiyasining o'sishiga, aholi qo'lida pulning harakatsiz turib qolishiga yo'l qo'ymaslik birinchi darajali ahamiyatga ega.

Respublikaning bozor iqtisodiyotiga o'tishida iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirish vazifasi butunlay yangi xalq xo'jalik kompleksini bunyod etishga qaratiladi. Bu iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilish, ishlab chiqarilayotgan

mahsulot, eksport va import tarkibini qayta qurish, shuningdek eng muhim makroiqtisodiy va takror ishlab chiqarish nisbatlarini tartibga solishni talab qiladi.

Respublikada bozor munosabatlariga o'tish jarayonida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohatlar demokratik, adolatli va fuqarolik jamiyatini barpo etish vazifasiga bo'yundiriladi. Davlatchilikdagi demokratizm qonunlarning qay dara-jada ustunligi, huquq va erkinliklar qanchalik keng berilgani, ijtimoiy kafolatlar kuchi bilan belgilanadi. Adolatparvarlik esa aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish va ularni ijtimoiy himoyalash mexanizmidagi o'z aksini topadi.

Jamiyatchilik g'oyalari, jamoa manfaatlarining birligi, ko'pchilik fikrining ustunligiga asoslanish-fuqarolik jamiyatining xususiyatlaridir.

Shunday qilib, Respublikada iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish iqtisodiyotda yangi bozor munosabatlariga asos soladi, iqtisodiy faoliyat erkinligi va tadbirkorlikni namoyon etish uchun sharoit yaratib beradi, ijtimoiy-ma'naviy sohada ijtimoiy kafolatlar mustahkamlanadi.

### Asosiy tayanch tushunchalar.

**O'tish davri**-bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga mavjud iqtisodiy munosabatlardan butunlay boshqa, yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish taqozo qiladigan davrdir.  
**Bozor isloxtarlari**-bozor iqtisodiyotini va bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

**Iqtisodiy islohatlar**-iqtisodiyotda tub (yoki qisman) o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlardir.

**Iqtisodiy ukulad**-turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yuritishning shakllari va turlari.

**Iqtisodiy erkinlashtirish** - nima va qancha ishlab chikarishni, qaerga, qanday bahoda sotishni tadbirkorni o'zi belgilashi uchun imkon berish. Iqtisodiyotning barcha sohalarini va tarmoqlarini erkinlashtirish, xo'jalik yurutuvchi sub'ektlarning erkinligi va mustaqilligini ta'minlash, tadbir-korlik faoliyatini rivojlantirish uchun, barcha shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

**Isloxtlar kontseptsiyasi** -ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarning asosiy maqsad va yo'nalishlari, uni amalga oshirishning vazifalari va strategik yo'llarning umumiy g'oyasidir.

**Iqtisodiy barqarorlashtirish**-tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirishdir.

### Savollar va topshiriqlar

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning jahon tajribasida sinalgan asosiy yo'llari(modellari) ning tavsifini bering. Ularning umumiy va o'ziga xos tomonlarini ko'rsating.

2. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'li qanday xususiyatlarga ega? Respublika iqtisodiyotini isloh qilishga qanday tamoyillar asos qilib olinadi?

3. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish tamoyilining mazmunini batafsil tushuntiring. Har bir bosqichning maqsad va vazifalarini to'laroq bayon qiling?

4. Respublika iqtisodiyotini isloh qilish qanday yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi? Har bir yo'nalish bo'yicha o'zingizning fikr-mulohazalaringizni bildiring.

5. Bozor munosabatlariga o'tishda iqtisodiy islohatlar o'z oldiga qanday vazifalarni qo'yadi? Bu vazifalarning to'laroq tafsifini bering.

6. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish davrida davlatning etakchilik faoliyati nimadan iborat ekanligini tushuntirib bering.

7. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini qaror toptirishning qanday davlat dasturlarini bilasiz? Ularning bir-biri bilan qanday bog'langanligini tahlil qiling.

8. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohatlarni chuqurlashtirishning mazmunini tushuntiring. Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish o'z oldiga qanday vazifalarni qo'yadi?

#### Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. «Bizning bosh maksadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir», «O'zbekiston» 2005.
2. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz», T. «O'zbekiston», 2000y.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari.» -T. «O'zbekiston», 1998.
4. «To'g'ridan to'g'ri xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora – tadbiqlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel.
5. Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T., «Moliya» nashriyoti, 2002.
6. A. Qodirov. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
7. D. Tajiboeva. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
8. Makkonel K., Bryu S. «Ekonomiks», M.2002.
9. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Rayzberga.- Uchebnik: - INFRA – M.2004.
10. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof.M. N. Chepurina. Uchebnik: - INFRA – M.2004.
11. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsh. red. akad. B. I. Bidiyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA – M.2004.
12. Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
13. E. F. Borisov Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
14. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

15. Ioxim B. Ya. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.  
16. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy. d.e.n., prof. T. B. Chechelovoy.  
Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalq so'zi - 25 mart.
2. Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov - 2005.
3. Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. Yaxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T-2005.
4. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovy ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

#### Veb-saytlar:

1. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
2. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
3. <http://infoteka.economics.ru>
4. [www.finansy.ru](http://www.finansy.ru)
5. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
6. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
7. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
8. [www.jahon.mfa.uz](http://www.jahon.mfa.uz)
9. [www.budjet.rf.ru](http://www.budjet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ro'zani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof. Sh. Sh. Shodmonov, G. D. Bobabekova, G. T. Xalirkva tomonidan tayyorlangan «Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v predpodovanii ekonomicheskoy teorii». T-2004, «Innovatsionnye metody obucheniya v ekonomicheskoy obrazovanii» va

Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaeva, M. T. Yaxshievlar tomonidan tayyorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.

## TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI. BOZOR MUBOZANATI

Kirish

2-soat

Reja:

- 1- §. Talab tushunchasi miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar
- 2-§. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni.
- 3-§. Talab va taklif o'rtasidagi nisbat, bozor muvozanati
- 4-§. Talab va taklifning egiluvchanligi

## Kirish

Bozor iqtisodiyotining amal qilishida talab va taklif qonunlari muhim o'rin tutadi. Talab va taklif narxni shakllantiradi, shu bilan birga narx talab va taklif o'rtasidagi nisbatni aniqlab beradi. Bu mavzuda avvalo talab va taklifning har qaysisiga narx ta'sirini alohida-alohida qarab chiqamiz. Keyin talab va taklif ta'sirida muvozanatli narxning o'rnatilishini tushuntirib beriladi. Bu yerda talab va taklif qonunlari, ularning miqdoriga ta'sir etuvchi omillarni, ular o'rtasidagi mutanosiblikni tushuntirishga alohida e'tibor beriladi.

## 1- §. Talab tushunchasi miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar.

Biz ehtiyoj tushunchasini dastlabki mavzuda bergan edik. Ehtiyoj tushunchasi insonlarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir. Uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tarixiy ko'rinishi talab tushunchasidir. Talab ehtiyojdan farq qilib, mustaqil iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi.

Ehtiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, talab bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir. Ehtiyoj zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanmasa, u «xohish», «istak» bo'lib qolaveradi. Talabning bir qator muqobil variantlari mavjud bo'ladi, chunki narx o'zgarishi bilan tovarning sotib olinadigan miqdori ham o'zgaradi. Shu bog'liqlikdan kelib chiqib, talabga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Iste'molchi ma'lum vaqtda narxlarning har bir darajasida sotib olishga qodir bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori talab deyiladi.

Talablar har xil bo'lib, bir xil tovar yoki xizmatlarga bo'lgan talabning ikki turi farq qilinadi: yakka talab va bozor talabi. Har bir iste'molchining, ya'ni alohida shaxs, oila, korxonaga, firmaning tovarning shu turiga bo'lgan talabi yakka talab

deyiladi. Bir qancha (ko'pchilik) iste'molchilarning shu turdagi tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yig'indisi bozor talabi deyiladi.

Individual ya'ni yakka talab ham, bozor talabi ham miqdor jihatdan aniqlanadi. Lekin bu miqdor har doim ham bir hil bo'lib turmaydi, balki ular o'zgaruvchan bo'ladi. Talab miqdorining o'zgarishiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Ularning ichida eng ko'p ta'sir qiladigan omil narx omilidir.

Narx bilan sotib olinadigan tovarlar miqdori o'rtasidagi bo'ladigan bog'liqlikni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida qarab chiqamiz.

VII-1 jadval. Narx bilan sotib olinadigan mahsulot miqdori o'rtasidagi bog'liqlik.

| Bir kg un narxi (so'm) | Talab qilinadigan un miqdori (kg) |
|------------------------|-----------------------------------|
| 50                     | 10                                |
| 40                     | 13                                |
| 30                     | 17                                |
| 20                     | 25                                |
| 10                     | 50                                |

Jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, 1 kg uchun narxi 50 so'mni tashkil qilsa, iste'molchi (ma'lum vaqt oralig'i -hafta yoki oyda) 10 kg, agar bahosi 20 so'm bo'lsa, 25 kg sotib olishga qodir bo'ladi va hokoza. Jadval ma'lumotlari, beshta mumkin bo'lgan narxdan qaysisi real ravishda mavjud bo'ladi degan savolga javob bermaydi. Bo'ladi avvalo talab va taklifga bog'liq bo'lib, uni mavzuning keyingi qismida tahlil qilamiz.

Jadval ma'lumotlari tovarga narxning pasayishi sotib olinadigan tovar miqdorining o'sishiga va aksincha narxning o'sishi uning miqdorining kamayishiga olib kelishini ko'rsatadi. Mahsulot narxi bilan sotib olinadigan tovar miqdori o'rtasidagi bo'ladi teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik talab qonuni deyiladi.

1. Iste'molchilar ma'lum bir tovarni uning narxi past bo'lsa, ko'proq sotib ola boshlaydi. Iste'molchi uchun narx sotib olishga xallaqit qiluvchi to'siq sifatida namoyon bo'ladi. Bu to'siq qancha yuqori bo'lsa, u shuncha kam tovar sotib oladi. Boshqacha aytganda, yuqori narx iste'molchining xarid qilish istagini so'ndiradi, past narx esa bu istakni kuchaytiradi.

2. Mahsulotni xarid qiluvchi, har bir keyingi xarid qilingan mahsulot birligidan kam qoniqish hosil qiladi yoki kam naf oladi. Masalan, tushlik vaqtida ikkinchi marta sotib olingan kotlet iste'molchiga birinchisiga qaraganda kamroq qoniqish beradi; uchinchi ikkinchisiga qaraganda yanada kam qoniqish yoki naf

keltiradi va hokozo. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, iste'molchi mahsulotning keyingi birligini faqat uning narxi pasaygan sharoitda sotib oladi.


3. Talab qonunining tahlilini daromad va o'rmini bosish samarasi orqali tushuntirish ham mumkin. Iste'molchi pul daromadining oshishi uning sotib olish layokatini oshiradi, shu sababli u shu mahsulotdan oldingiga qaraganda ko'proq sotib olish qudratiga ega bo'ladi. Bu daromad samarasi deyiladi. Daromad samarasi, tovarlar narxi o'zgarganda iste'molchining real daromadi va uning talabi qanday o'zgarishini ko'rsatadi.

Daromad samarasi va o'rmini bosish samarasi bir-biriga o'zaro bog'liqda xarkat qiladi va turli vaziyatlarda ulardan bittasi ancha kuchli ta'sirga ega bo'lishi mumkin.

Real iqtisodiy hayotda ba'zan narxlar o'ssada ayrim tovarlarga talabning ortishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar ham uchraydi. Bu vaziyat Giffen samarasi deb ataladi (ingliz iqtisodchisi R.Giffen nomi bilan). Giffen kambag'al ishchi oilalari kartoshka qimmatlashishiga qaramasdan uni iste'mol qilish kengayishini kuzatib, bu samarani tasvirlab ko'rsatgan. Tushuntirish shunga asoslanadiki, kartoshka kambag'al oila ovqatida mahsulotlarning asosiy qismini egallaydi. Agar kartoshka narxining o'sishi ro'y bersa, bunda kambag'al oila go'sht sotib olishdan umuman voz kechishga majbur bo'ladi, o'zining ko'p bo'lmagan daromadining barchasini kartoshka sotib olishga sarflaydi.

Demak, bunday vaziyatda narxlarning oshishi zarur tovarlarga talabning kamaymasdan, aksincha uning oshishiga olib kelishi mumkin.

Tovar narxi va uning xarid qilinadigan miqdori (talabning) o'rtasidagi teskari bog'liqlikni oddiy ikki o'lchamli grafikda tasvirlash mumkin: yotiq chiziq talab miqdorini, tik chiziq narxni ko'rsatadi.



#### Talab miqdori

Grafikdagi DD chiziq VII-1 jadvalda qarab chiqilgan narx va talab hajmi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni tasviriy aks ettiradi.

Grafikdagi har bir nuqta tovarning aniq narxi va iste'molchi shu narxda sotib olishi mumkin bo'lgan tovar miqdorini ko'rsatadi.

Narx va talabning hajmi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatuvchi bu chiziq talab egri chizig'i deyiladi.

Agar talab egri chizig'i o'zining oldingi holatida qolsa va bunda u yoki bu tovarni solib olishdagi har qanday miqdoriy o'zgarish talab miqdorining o'zgaruvchanligini bildiradi.

Real hayotda biror omil ta'sirida (daromadlar o'sishi, shov-shuvlar, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning barqarorlashishi yoki beqarorlashishi) talabda o'zgarish ro'y beradi. Talabning o'zgarishi bir vaqtda narx o'sishi va talab miqdorining ortishini keltirib chiqaradi. Iqtisodiy hayotda qarama-qarshi vaziyat ro'y berishi ham mumkin: talabning qisqarishi ta'sirida narxning tushishi va talab miqdorining kamayishi kuzatiladi. Har ikkala hol talab hajmining o'zgarishini ko'rsatadi. Birinchi holda talab egri o'z o'mini yuqoriga ( $D_1D_2$ ), ikkinchi holda pastga ( $D_3D_3$ ) o'zgartiradi. (VII-1 rasm).

Talab miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Talab hajmining o'zgarishi faqat tovar narxiga emas, balki boshqa bir qator omillarga ham bog'liq bo'ladi. Bu omillar talabning narxdan tashqari omillari deyiladi.

Talabga narxdan tashqari quyidagi asosiy omillar ta'sir qo'rsatadi: 1. Iste'molchining didi; 2. Bozordagi iste'molchilar soni; 3. Iste'molchining daromadlari; 4. Bir-biriga bog'liq tovarlarning narxi; 5. Kelajakda narx va daromadlarning o'zgarishining kutilishi.

Bu omillarning o'zgarishi talab hajmining o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatishini qara b chiqamiz.

1. Iste'molchining didi. Biror mahsulotga iste'molchi dididagi ijobiy o'zgarish ro'y bersa, narxning tegishli darajasida unga bo'lgan talab ortadi. Iste'molchi didiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar talabning qisqarishiga olib keladi.

2. Xaridorlar soni. O'z-o'zidan aniqki, bozorda iste'molchilar soni ko'paysa, talab ortadi, iste'molchilarning soni kamaysa, talab qisqaradi. Masalan, aloqa vositalarining takomillashuvi xalqaro moliyaviy bozor doirasini mislsiz kengaytiradi hamda aktsiya va obligatsiya kabi moliyaviy aktivlarga bo'lgan talabning o'sishiga olib keladi. Tug'ilish darajasining pasayishi bolalar bog'chasi va maktabga bo'lgan talabni kamaytiradi.

3. Iste'molchi pul daromadi. Pul daromadi o'zgarishining talab hajmiga ta'siri boshqa omillarga qaraganda ancha murakkab. Pul daromadining ortishi juda ko'p tovarlarga talabni nisbatan oshiradi, daromadning kamayishi esa bunday tovarlarga talabni kamaytiradi. Daromad oshsa, uning o'sishiga qarab iste'molchilar narx yuqori bo'lsada, ko'proq sifatli tovarlarni xarid qiladi. bunda ular kamroq non, kartoshka, karam sotib olishi, mumkin chunki ortiqcha daromad unga ancha yuqori oqsil tarkibiga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari masalan, go'sht va sut mahsulotlari xarid qilish imkonini beradi. Daromadning o'zgarishi bilan talab to'g'ri mutanosiblikda o'zgaradigan tovarlar oliy toifali tovarlar deyiladi.

Daromadlar kamayganda talab oshadigan tovarlar past toifali tovarlar deyiladi (masalan, kartoshka).



4. O'zaro bog'lik tovarlar narxi. O'zaro bog'liq tovarlarga talabning ortishi yoki kamayishi, ularning bir-birining o'rnini bosishi tovarlar hisoblanadi. Shu sababli sariyog' narxi oshsa, bu margaringa bo'lgan talabning ortishiga olib keladi. Agar sariyog' narxi tushsa bu margaringa bo'lgan talabni kamaytiradi. Demak, agar ikki tovar o'rnini bosuvchi tovarlar hisoblansa, ulardan birining narxi bilan boshqasiga bo'lgan talab hajmi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'ladi. Ikkita tovar bir-birini to'ldiruvchi hisoblansa, ularga bir vaqtda talab paydo bo'ladi. Masalan, agar benzin narxi pasaysa, bu motor yog'iga bo'lgan talabni qisqartiradi. Shunday qilib, benzin va motor yog'iga talab o'zaro bog'liq bo'lib, ular bir-birining narxi va boshqasiga bo'lgan talab hajmi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'ladi.

5. Narx va daromadlar o'zgarishini kutilishi. Kelgusida iste'molchi daromadlari, tovar narxi o'zgarishining kutilishi va tovarlarning naqd bo'lishi yoki bo'lmasligi kabi omillar talab hajmini o'zgartirishi mumkin. Kelgusida narxning nisbatan oshishining kutilishi, iste'molchi joriy talabning oshishiga olib keladi. Aksincha, narxning pasayishi va daromadning ko'payishining kutilishi tovarlarga bo'lgan joriy talab hajmining qisqarishiga sabab bo'ladi.

## 2-§. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni.

Taklif ishlab chiqaruvchi ma'lum vaqt ichida ishlab chiqarishga qodir bo'lgan narxning har bir darajasida bozorga sotishga chiqaradigan mahsulotlar miqdorini ko'rsatadi. Narx o'zgarishi bilan sotishga chiqariladigan mahsulot miqdori ham o'zgarishi sababli talab kabi taklifning ham bir qator muqobil variantlari mavjud bo'ladi. Bu alohida ishlab chiqaruvchi uchun VII-2 jadvalda ko'rsatilgan.

VII-1 jadval. Alohida ishlab chiqaruvchining mahsulot taklifi.

| I kg un narxi (so'm) | Haftalik taklif qilinadigan un miqdori (kg) |
|----------------------|---|
| 50                   | 60  |
| 40                   | 50  |
| 30                   | 35  |
| 20                   | 20  |
| 10                   | 5   |

Taklif har xil narxlarda sotishga qancha miqdorda mahsulot chiqarilishini ko'rsatadi.

Narxning oshishi bilan shunga mos ravishda sotishga chiqariladigan tovar (taklif) miqdori ham ortadi, narxning tushishi bilan taklif hajmi qisqaradi. Bu o'zaro to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik taklif qonuni deyiladi.

Iste'molchi uchun narxning oshishi to'siq rolini bajarsa, ishlab chiqaruvchi uchun rag'batlantiruvchi vazifasida chiqadi.

Narx darajasi taklif miqdori o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni ko'rsatuvchi VII-2 jadvaldagi ma'lumotlarni grafikda tasvirlab, taklif egri chizig'ini tasvirlash mumkin.

"Bir vaqtda narxning va taklif miqdorining o'zgarishi ro'y bersa, bu taning o'zgarishini bildiradi. Bunda taklif egri chizig'i yuqoriga (S3 S3) yoki pastga (S2 S2) suriladi. Taklif egri chizig'i dastlabki holatida qolib, u yoki bu tovarni sotishdagi har qanday miqdorning o'zgarishini ko'rsatadi. (VII-2 rasmda egri chizibo'yicha A nuqtadan B nuqtaga harakat)."

Bozorda taklif qilinadigan tovar hajmiga narxdan tashqari bir qator omillar ta'sir qiladi. Bu omillarning asosiylari quyidagilar:

- 1) Resurslarning narxi; 2) Ishlab chiqarish texnologiyasi;
- 3) Soliq va dotatsiyalar; 4) Boshqa tovarlarning narxi;
- 5) Narx o'zgarishining kutilishi; 6) Bozordagi sotuvchilar soni.

Taklifning shu omillardan bir yoki nechtasining o'zgarishi taklif hajmining o'zgarishini taqozo qiladi.

Taklifga ta'sir qiluvchi omillarni alohida-alohida qarab chiqamiz.

1. Resurslarning narxi. Ishlab chiqarish xarajatlari va taklif o'rtasida mustahkam o'zaro bog'liqlik mavjud. Resurs narxlarining pasayishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va taklifni oshiradi. Aksincha, resurslarga narxning oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va taklifni qisqartiradi. Masalan, mineral o'g'itlar narxining pasayishi bug'doy taklifini oshiradi, yomg'irliq sug'orish xarajatlarining oshishi makkajo'xori doni taklifini qisqartiradi.

2. Ishlab chiqarish texnologiyasi. Texnologiyalarning takomillashuvi mahsulot birligini ancha samarali ishlab chiqarishga imkon beradi. Resurslarning mavjud narxida ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va taklif ko'payadi. Masalan, paxta zararkunandalari qarsi ancha samarali biologik usullarning yaratilishi paxta tolasining miqdorini va sifatini, binobarin taklifini oshiradi.

3. Soliqlar va dotatsiyalar darajasi. Ko'pchilik soliqlar ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradi. Shu sababli soliqlarning oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va taklifni qisqartiradi. Masalan, import tovarlarga boj to'lovlarning oshishi uning taklifini qisqartiradi. Aksincha, davlat qandaydir tovar ishlab chiqarish yoki biror sohaga subsidiya bersa, bu amalda xarajatlarni kamaytiradi va uning taklifini oshiradi.

4. Boshqa tovar narxi. Boshqa tovarlar narxining o'zgarishi ham mazkur tovar taklifini o'zgartiradi. Masalan, qo'y gushti narxining pasayishi mol go'shti taklifini oshiradi. Aksincha, mol go'shti narxining tushishi qo'y go'shti taklifini oshiradi.

5. Narx o'zgarishini kutilishi. Kelgusida mahsulot narxining o'zgarishining kutilishi ham ishlab chiqaruvchining bugungi kundagi bozorga mahsulot etkazib

berish hohishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, kelajakda narxining keskin pasayishining kutilishi neftning taklifini pasaytiradi.

6. Ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) soni. Tovar ishlab chiqaruvchilar qanchalik ko'p bo'lsa, taklif qilinadigan mahsulot miqdori shunchalik ko'p bo'ladi. Tarmoqdagi ishlab chiqaruvchilar soni ortib borishi taklifni ko'paytiradi, chunki tovar ishlab chiqarish ko'payadi.

Taklif hajrining o'zgarishiga tovarning saqlanish xususiyati, saqlash xarajatlari va transport tashish imkoniyatlari ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, uzoq vaqt saqlab bo'lmaydigan qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari uchun taklif kamdankam o'zgaruvchan bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonining xususiyati, tabiiy resurslarning mavjud darajasi ham taklifga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, narxning o'zgarishiga javoban ishlab chiqarishni kengaytirish yoki boshqa xil mahsulot ishlab chiqarishga o'tish imkoniyatini mavjud bo'lsa taklif o'zgaradi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yerlar cheklangan bo'lsa, uning narxi (renta) qanchalik oshmasin, yer taklifini oshirib bo'lmaydi.

Ijodiy kasb soha xodimlar (masalan, olimlar, shoirlar, yozuvchilar, musavvirlar va boshqalar) mehnat mahsuli va noyob san'at asarlarining taklifi ham no'zgaruvchan bo'ladi.

### 3-§. Talab va taklif o'rtasidagi nisbat, bozor muvozanati

«Talab va taklif» tushunchalari tahlili, bizga sotuvchi va xaridorlar manfaatlariga mos kelishini qarab chiqishga o'tish imkonini beradi. Mos kelishlik o'z ifodasini muvozanatli narxda topadi.


Qarab chiqilgan talab va taklif egri chiziqlarini bitta grafikka joylashtirib bozor muvozanatli nuqtasini hosil qilarniz:

$T_b = T_r = S_m = Q_m$ , bu yerda,  $T_b$  - talab,  $T_r$  - taklif,  $S_m$  = muvozanatli baho,  $Q_m$  - tovarning muvozanatli miqdori.

Grafikda  $K$  nuqtaga muvozanatli baho ( $U_m$ ) va mahsulotning muvozanatli miqdori ( $Q_m$ ) mos keladi. Muvozanatli nuqta ( $K$ ) yoki muvozanatli narx ( $U_m$ )ga VII-3 rasmda tasvirlanganidek sotuvchi va xaridorlar manfaatlarining spiral bo'yicha xarakati natijasida bir-biriga yaqinlashish yo'l bilan erishiladi. Xususan, bizning misolda, narx 50 so'm bo'lganda, xaridor mazkur tovar (un) dan 10 kg sotib olishga, sotuvchi esa 60 kg bozorga chiqarishiga tayyor bo'ladi. 10 so'mlik narxda sotuvchi va xaridorlar ahvoli butunlay qarama-qarshi tomonga o'zgaradi: sotuvchi faqat 5 kg uchun chiqarishga, xaridor esa 80 kg sotib olishga tayyor bo'ladi va hakoza.

**Taklif**

**Talab**



3-rasm. Muvozanatli narx.

VII-4 rasm. Talab va taklifning o'zgarishi hamda ularning narx va mahsulot miqdoriga ta'siri.

Spiral bo'yicha har bir harakatda ularning manfaati muvozanatli nuqtaga erishilguncha bir-biriga yaqinlashib boradi va muvozanatli nuqtalar talab va taklifi tengligini ko'rsatadi.

Agar 50 so'mda ifodalangan narx darajasiga e'tiborni qaratsak, bunda 1 va 2 nuqtalar o'rtasidagi farq tovarlar ortiqcha ishlab chiqarilishini ko'rsatadi va to'yingan tovar bozorini xarakterlaydi. Aksincha, 10 so'mlik narxda, 3 va 4 nuqtalar o'rtasidagi farqda ifodalangan tovar kamyoqli (defitsit) vujudga keladi va hamda bu kamyoqli tovar bozorini xarakterlaydi.

Muvozanatli narxni tushunib olish uchun vaqt omili katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ham sotuvchi va ham xaridor uchun o'rnatilgan muvozanatli narx qanday xarakter kasb etishini bilish muhim. Shu sababli bozordagi bir zumlik, qisqa davrli va uzoq davrli muvozanatlik holatni farqlash zarur.

Bir zumlik muvozanat uchun taqdim qilinadigan tovarlarning o'zgarmas yoki doimiy miqdori xos. Bu ishlab chiqarishning bozor vaziyatiga tez, birdaniga moslasha olmasligi bilan bog'liq.

Qisqa davrli muvozanatlik, ishlab chiqarish va taklifni vaqtinchalik amal qiluvchi omillardan foydalanish asosida ko'paytirish imkoniyati bilan taqazo qilinadi.

Bunday vaqtinchalik omillarga ish vaqtidan tashqari, dam olish va bayram kunlari ishlash, ish smenasini ko'paytirishlar kiradi.

Uzoq davrli muvozanatlik o'zgarishi uzoq muddatli xarakterdagi omillardan foydalanishni taqazo qiladi. Bunda ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, yangilash va qo'shimcha quvvatlarni vujudga keltirish bilan bog'liq investitsiyalar haqida gap boradi. Bu davrda yangi korxonalar qurish hamda mazkur bozorda yangi korxonalar qurish paydo bo'lishi ham mumkin bo'ladi.

Endi bu yerda talab va taklifdan birortasining o'zgarishi muvozanatli narxga qanday ta'sir qilishini tahlil qilamiz. Dastlab talab o'zgarishining oqibatlarini qarab chiqamiz.

Bunda talab o'zgaradi va taklif doimiy bo'lib qoladi deb hisoblaymiz. Talab VII-4 a rasmda ko'rsatilganidek ortsa talab va taklif egri chiziqlari yangi nuqtada kesishadi. Bu nuqta muvozanatli miqdorining oldingidan boshqa yangi darajasini ko'rsatadi, ya'ni narx ko'tariladi, mahsulot miqdori ko'payadi.

Talabning kamayishi (VII-4 a rasmda) daromad narxlarning pasayishi va mahsulot miqdorining qisqarishiga olib keladi.

Qisqacha aytganda, talabning o'zgarishi va buning natijasida muvozanatli narx va mahsulotning muvozanatli miqdori o'zgarishlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud.

Taklif o'zgarishining narxga ta'sirini qarab chiqishda talabni doimiy deb hisoblaymiz. Taklif oshgan taqdirda (VII-4 b rasm) talab va taklif egri chiziqlarining yangi kesishish nuqtasi muvozanatli narxdan pastda joylashadi. Boshqa tomondan, taklif qisqargan taqdirda, bu mahsulot narxining oshishiga olib keladi. (VII-4 b rasm). Demak, taklifning o'zgarishi va buning natijasida muvozanatli narx o'zgarishi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud.

Endi talab va taklif hajmining bir vaqtda o'zgarishini qarab chiqamiz. Dastlab, taklif ko'payadi, talab esa kamayadi, ya'ni ular qarama-qarshi yo'nalishda o'zgaradi deb hisoblaymiz. Bunda taklifning ko'payishi mahsulotning muvozanatli miqdorining kamayishiga olib keladi.

Talab va taklif bir xil yo'nalishda o'zgaradi, ya'ni talab ham taklif ham oshadi deb hisoblasak, narxga ikkita qarama-qarshi ta'sirini taqqoslash lozim: a) taklifning oshishi natijasida narxning pasayishi va talabning oshishi natijasida narxning o'sishi. Agar taklifning ko'payishi talabning ko'payish hajmidan yuqori bo'lsa, muvozanatli narx pasayadi, aks holda muvozanatli narx ko'tariladi. Bu o'zgarishlarning mahsulot muvozanatli miqdoriga ta'siri bir xil, talabning ham, taklifning ham o'sishi mahsulot miqdorining ko'payishiga olib keladi.

Talab va taklifning bir vaqtda kamayishi ham xuddi shunday tahlilga olib keladi. Taklifning kamayishi talabning kamayishidan yuqori bo'lsa muvozanatli narx o'sadi. Aks holda muvozanatli narx pasayadi.

Talab va taklif qandaydir vaqt davomida parallel o'zgarishi ham ehtimoldan holi emas. Haqiqatda, biror hodisa, bir vaqtda talab va taklifga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, yog' tayyorlash texnologiyasining takomillashuvi, taklifini ham, sutga bo'lgan talabni ham kamaytirishi mumkin.

Shunday holatlar bo'ladi ki, bir tomondan talab va taklifning kamayishi boshqa tomondan talab va taklifning ko'payishi to'liq bir birining ta'sirini kesishi mumkin. Bu holda muvozanatli narx o'zgarmaydi.

#### 4-§. Talab va taklifning egiluvchanligi

Iste'molchining mahsulot narxlarining o'zgarishiga sezgirlik darajasini aniqlashda narxli egiluvchanlik tushunchasidan foydalaniladi. Ayrim mahsulotlar narxidagi uncha sezilarli bo'lmagan o'zgarishlar sotib olinadigan mahsulot miqdorida katta o'zgarishlar bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bunday mahsulotlarga talab nisbatan egiluvchan deyiladi. Boshqa xil mahsulotlar narxidagi sezilarli o'zgarish xarid miqdorida faqat katta bo'lmagan o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Talab hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarmay qolganda, narx 1% o'zgarganda talab necha foizga o'zgarishini ko'rsatuvchi ko'rsatkich talabning narxli egiluvchanligi ko'rsatkichi deyiladi. Bu ko'rsatkich ko'pincha oddiy qilib talabning egiluvchanligi deb ataladi.

Talabning narxli egiluvchanlik ( $E_t$ ) darajasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$E_t = \frac{\Delta Q}{\Delta S}$$

$\Delta Q$  – talab miqdorining foizli o'zgarishi;

$\Delta S$  – narxlarning foizli o'zgarishi.

Narxdagi foizli o'zgarishni aniqlashda narxdagi o'zgarish dastlabki narxga, talab miqdoridagi foizli o'zgarishni aniqlashda talab miqdoridagi o'zgarish dastlab talab bildiradigan mahsulot miqdoriga bo'linadi.

$$\Delta Q = \frac{(\Delta Q_q - \Delta Q_b)}{Q_b} * 100\%; \Delta S = \frac{(\Delta S_q - \Delta S_b)}{S_b} * 100\%;$$

bu yerda:  $Q_b$  – talabning dastlabki yoki bazis davrdagi hajmi;

$Q_q$  – talabning yangi davrdagi hajmi;

$S_b$  – dastlabki yoki bazis davrdagi narx;

$S_q$  – yangi davrdagi narx.

Talab egiluvchanligini aniqlab beruvchi bir qator holatlar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilar:

1. Mahsulotlarning o'rmini bosuvchanligi.

Iste'molchiga biror mahsulotning o'rmini bosuvchi boshqa mahsulotlar ko'proq tavsiya qilinsa, unga talab shuncha egiluvchan bo'ladi. Masalan, sof raqobatli bozorda har qanday sotuvchi tomonidan taklif qilinadigan mahsulotlarning juda ko'p miqdorda o'rmini bosuvchilari amvjud bo'ladi, shu sababli har bir alohida sotuvchi mahsulotlariga talab butunlay egiluvchan bo'ladi.

2. Mahsulot qiymati (narxi) ning iste'molchi daromadidagi salmog'i.

Iste' molchi daromadida mahsulotlar narxi qanchalik katta o'rinni egallasa, unga talab shuncha yuqori egiluvchan bo'ladi. Masalan, daftar yoki qalam narxining 10 foizidan o'sishi, bir necha so'mni tashkil qiladi va bu talab bildirgan mahsulot miqdorida juda kam o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga, avtomobil yoki uy narxining 10 foizli o'sishi, mos ravishda 0,5 yoki 1,5 mln. so'mni tashkil qiladi. narxlarning bunday oshishi juda ko'p oilalar bir necha yillik daromadining katta qismini tashkil qiladi va aytish mumkinki bu sotib olinadigan mahsulot miqdorini sezilarli kamaytiradi.

### 3. Mahsulotlarning iste'mol xususiyatlari.

Zebi - ziynat u buyumlariga talab odatda egiluvchan, hayotiy zarur buyumlarga esa talab noegiluvchan hisoblanadi. Masalan, non va elektr energiya zaruriy iste'mol buyumlari hisoblanadi, shu sababli ularga narxning oshishi non yoki elektr energiyani iste'mol qilishning keskin kamayishiga olib kelmaydi. Boshqa tomondan zebi -ziynat buyumlariga narxlar oshganda ularni qiyinchiliksiz iste'moldan chiqarib tashlash mumkin.

4. Baqt omili. Qaror qabul qilish uchun vaqt oralig'i qancha uzoq bo'lsa, mahsulotga talab shuncha egiluvchan bo'ladi. Masalan, agar mol go'shuning narxi 10% ga ko'tarilsa, iste'molchi uni xarid qilishni birdaniga qisqartirmasligi mumkin. Lekin bir qancha vaqt o'tishi bilan u o'zining moyilligini tovuq yoki baliq go'shtiga o'tkazishi mumkin.

Taklifning egiluvchanligi. Agar ishlab chiqaruvchi bahoning o'zgarishini sezuvchan bo'lsa, taklif o'zgaruvchan bo'ladi va aksincha. Yuqorida qarab chiqilgan formuladan taklifning egiluvchanlik darajasini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin. Faqat formuladagi "Talab miqdorining foizli o'zgarishi" jumlasini "Taklif qilingan mahsulot miqdorining foizli o'zgarishi" jumlasiga almashtirish zarur.

Taklifning egiluvchanligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil, mahsulotga narxning mavjud o'zgarishini hisobga olish uchun zarur bo'lgan vaqt oralig'i hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi narxning mavjud o'zgarishiga moslashish uchun qanchalik uzoqroq vaqtga ega bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi shunchalik katta o'zgaradi va shunga mos ravishda taklifning egiluvchanligi ham yuqori bo'ladi. Biz yuqorida vaqt omilining juda qisqa, qisqaroq va uzoq muddatli davrlaridagi taklifning o'zgarishiga ta'sirini tahlil qilib bergan edik. Bu ta'sir taklifning egiluvchanligida ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

## Asosiy tayanch tushunchalar

**Talab** - iste'molchi ma'lum vaqtda narxlarning har bir darajasida sotib olishga qodir bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdoridir.

**Talab egri chizig'i** - grafikda narx va talabning hajmi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatadi.

**Talab qonuni** - tovarlar narxi bilan uning sotib olinadigan miqdori o'rtasidagi teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlikni ifodalaydi.

**Taklif** – ishlab chiqaruvchi ma'lum vaqtda ishlab chiqarishga qodir bo'lgan narxning har bir darajasida bozorga sotishga chiqaradigan tovarlar miqdoridir.

**Taklif egri chizig'i** – narx va taklifning hajmi o'rtasidagi to'g'ridan –to'g'ri bog'liqlikning grafikdagi tasviridir.

**Taklif qonuni** – narx bilan sotishga chiqariladigan tovarlar miqdori o'rtasidagi bevosita yoki to'g'ridan–to'g'ri bog'liqlikni ifodalaydi.

**Taklif (talab) ning egiluvchanligi** – narx 1% o'zgariganda talab necha foiz o'zgarishini ko'rsatadi. Bu talabning narx bo'yicha o'zgaruvchanligi ham deyiladi.

**Daromad samarasi** – narx pasayiganda iste'molchi pul daromadlarining sotib olish layoqatining ortishidir.

### Savol va topshiriqlar.

1. Talab qonunini tushuntiring. Talabga qanday omillar ta'sir qiladi?
2. Taklif qonunini tushuntiring. Taklifga qanday omillar ta'sir qiladi?
3. Bozor narxi yoki muvozanatli narx qanday bo'ladi?
4. Bozor muvozanati deganda nimani tushunasiz

### Adabiyotlar:

17. Karimov I. A. «Bizning bosh maksadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir», «O'zbekiston» 2005.
18. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz», T. «O'zbekiston», 2000y.
19. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari.» -T. «O'zbekiston», 1998.
20. «To'g'ridan to'g'ri xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel.
21. Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T., «Moliya» nashriyoti, 2002.
22. A. Qodirov. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
23. D. Tajiboeva. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
24. Makkonel K., Bryu S. «Ekonomiks», M.2002.
25. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Rayzberga.- Uchebnik. - INFRA – M.2004.
26. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof.M. N. Chepurina. Uchebnik: - INFRA – M.2004.
27. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obuq. red. akad. B. I. Bidiyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA – M.2004.
28. Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
29. E. F. Borisov Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
30. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
31. Ioxin B. Ya. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.



32.Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy. d.e.n., prof. T. B. Checheiovoy.  
Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

5. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalq so'zi - 25 mart.
6. Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov – 2005.
7. Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. Yaxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
8. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovi ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

### Veb-saytlar:

10. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
11. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
12. <http://infoteka.economics.ru>
13. [www.finansv.ru](http://www.finansv.ru)
14. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
15. [www.2004.press-service.uz](http://www.2004.press-service.uz)
16. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
17. [www.iahon.mfa.uz](http://www.iahon.mfa.uz)
18. [www.budiet.rf.ru](http://www.budiet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ro'zani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof. Sh. Sh. Shodmonov, G. D. Bobabekova, G. T. Xalirkva tomonidan tayyorlangan «Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v prepodovanii ekonomicheskoy teorii». T-2004, «Innovatsionnye metody obucheniya v ekonomicheskom obrazovanii» va Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaeva, M. T. Yaxshievlar tomonidan tayyorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.

## RAQOBAT VA NARXNING TASHKIL TOPISHI

Kirish

4-soat

Reja:

1. Raqobatning iqtisodiy mazmuni va mohiyati.
2. Raqobat kurashining shakl va usuliari
3. Monopoliya mohiyati va turlari
4. Narx vositasidagi va narxsiz raqobat.
5. Narx, narxning tashkil topishi va vazifalari
6. Narx turlari va ularning mazmuni.
7. O'zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi. Davlatning monopoliyaga qarshi tadbirlari.

### Kirish

Bozor iqtisodiyoti, o'zining etuklik darajasi va rivojlanish xususiyatlaridan qat'iy nazar raqobatning mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Shu bilan birga bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o'z shakllarini o'zgartirib boradi. Mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimov raqobatning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko'rsatib, "Raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat - bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir" - deb yozadilar<sup>1</sup>. Bu muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan jihatlarni yoritib berish mazkur bobning asosiy vazifasi hisoblanadi.

### 1. Raqobatning iqtisodiy mazmuni va mohiyati

Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo'jaligining eng muhim belgisi, rivojlantirish usuli hisoblanadi. Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish, unga turli tomondan yondoshishini talab qiladi. Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o'rtasidagi raqobat, tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat. Bunda ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xom ashyo va materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashadi. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat oxir-oqibatda iste'molchilar uchun kurashdir.

Resurslarni etkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat, o'zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, yer, ishchi kuchi) yuqori baholarda sotish uchun boradi. Ishlab

<sup>1</sup> I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'ntinchi sessiyasidagi ma'ruzasi, 1999 yil, 14 apreldagi, Toshkent, O'zbekiston, 1999 yil, 34 bet.

chiqaruvchilar va resurslarni etkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat bozor munosabatlarni rivojlangan, iqtisodiyot to'liq erkinlashgan sharoitda yorqin namoyon bo'ladi.

Raqobat iste'molchilar o'rtasida ham yuz berib, u tovarlarni qulay va arzon baholarda sotib olishga qaratiladi. Ya'ni xaridor xar bir sarflangan pul birligi evaziga ko'proq nafillikka ega bo'lishga harakat qiladi. Arzon va sifatli tovarni tezroq sotib olish uchun kurashadi.

Shunday qilib raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha sub'ektlarni o'rtasidagi muraqab munosabatlarni ifodalaydi.

Raqobat-bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafillikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi sarflangan xarajatlarining xar bir birligi evaziga ko'proq foyda olish uchun kurash boradi. Mana shu foyda orqasidan quvish natijasida tovarlarni sotish doiralari, ya'ni qulay bozorlar uchun, arzon xom-ashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbaalari uchun ular orasidagi kurash bo'ladi.

O'z navbatida xaridorlar, ya'ni iste'molchilar sarflagan xar bir so'm xarajati evaziga ko'proq nafillikka ega bo'lish uchun kurashadi, ularning har biri arzon va sifatli tovar va xizmatlarga ega bo'lishga harakat qiladi. Turli tovarlar: iste'mol tovarlari xom-ashyo, energiya, stanoklar, mashinalar, asbob-uskunlar, ishchi kuchi kabilar taklifi talabdan kam bo'lsa, iste'molchilar ulardan tezroq va ko'proq olish uchun harakat qiladilar va natijada bahoning ijtimoiy qiymatidan yuqorilanishiga sabab bo'ladi.

Raqobatning asosini, avvalo ishlab chiqaruvchilarning mulk egasi sifatida alohidalashuvchi va mustaqil bo'lishi tashkil etadi. Chunki har

bir mulk egasining o'z manfaati bo'lib, ular shu manfaatga erishish uchun intiladi. Mulq egasining tovar ishlab chiqarish va barcha boshqa sohalardagi faoliyati shu manfaatga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bu jihatdan qaraganda raqobat iqtisodiy munosabatlar sub'ektlar manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lishini aniq xarakterlaydi. Raqobat mavjud bo'lishining boshqa sharti - bu tovar pul munosabatlarining ma'lum darajada rivojlangan bozor tizimining bo'lishi.

Demak, mulk egalari alohidalashuvi va mustaqil bo'lishi bilan birga tovar - pul munosabatlari yoki bozor xo'jaligi raqobatning iqtisodiy asosini tashkil qiladi. Bu shu bilan isbotlanadiki, bozor iqtisodiyotining dastlabki belgilari paydo bo'lishi bilan birga unga xos bo'lgan raqobat ham yuzaga keladi.

Raqobatning asosiy sohasi bozor, chunki unda iqtisodiy sub'ektlar alohidalashgan manfaatlarining to'qnashuvi ro'y beradi.

## 2. Raqobat kurashining shakl va usullari

Raqobat kurashlari mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini qarab chiqish zarur. O'z miqyosiga ko'ra raqobat eng avvalo ikki turga tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular erkin yoki erkin raqobat, monopolistik raqobat, dvupoliya va oligopoliya raqobatdir.

Erkin raqobat sharoitida tarmoqda bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. YUqori darajada tashkil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladi.

Raqobatlashuvchi korxonalar bir xil yoki bir jinsli turdosh mahsulot ishlab chiqaradi. Narxlarning bir xil darajasida iste'molchiga qaysi sotuvchidan mahsulotni xarid qilish farqsiz bo'ladi.

Erkin raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarsiz nazoratni amalga oshiradi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarishning uncha katta bo'lmagan hajmini beradi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak mahsulot bahosiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Buni misolda tushuntiramiz: 10 mingga raqobatlashuvchi korxonalar (firma) mavjud deb faraz qilamiz. Ularning har biri 100 birlikdan mahsulot ishlab chiqaradi. Taklifning umumiy hajmi, 1 mln. birlikni tashkil qiladi. Endi faraz qilamiz, shu 10 ming korxonadan biri o'z ishlab chiqarishini 50 birlikka qisqartiradi. Bitta korxonaning ishlab chiqarishini qisqartirilishi umumiy taklifga deyarli sezilarsiz ta'sir ko'rsatadi, aniqrog'i, umumiy taklif miqdori 1 mln.-dan 999950 birlikka kamayadi. Taklifdagi bu sezilarsiz o'zgarish mahsulot bahosiga sezilarli ta'sir ko'rsatish uchun etarli emas. Qisqacha aytganda, alohida raqobatlashuvchi ishlab chiqaruvchi bozor narxini o'mata olmaydi, faqat baho bilan kelishadi yoki unga moslashadi. Boshqacha aytganda, alohida raqobatlashuvchi firma bozor hukmi ostida bo'ladi.

Erkin raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lganlari esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan yangi korxonalarning paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

### 3. Monopoliya mohiyati va turlari.

Monopoliyada tarmoqda asosan bitta firma hukmronlik qilishi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona yirik ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi.

Bunday sharoitda firma narx va taklif xajmi ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi.

Monopoliyaning mavjud bo'lish tarmoqqa kirish uchun to'siqlarning mavjud bo'lishiga sabab bo'ladi. Iqtisodiy, texnik, huquqiy yoki boshqa to'siqlar yangi raqobatchilarning tarmoqqa kirishiga yo'l qo'ymaydi. Tarmoqqa kirish uchun to'siqlar har xil ko'rinishlarni oladi. Bular quyidagilar:

a) Ishlab chiqarish miqyosi taqozo qiladigan to'siqlar, shu jumladan, moliyaviy to'siqlar ko'p holatlarda shunchalik katta bo'ladiki bu tarmoqqa kirishni taqiqlash bilan barobar. Masalan, yirik ishlab chiqaruvchi hisoblangan avtomobil

sanoatiga kirish, yangi texnologiyaga asoslangan zarur uskunalarni sotib olishga juda katta pul-kapital talab qiladi.

b) Tabiiy monopoliyalar tabiati taqozo qiladigan to'siqlar. Buning mazmuni shundan iboratki, bir qancha tarmoqlarda raqobat mavjud bo'lmaydi, uni amalga oshirish mumkin emas. Ijtimoiy foydalanishdagi bunday tarmoq korxonalari tabiiy monopoliyalar deyiladi. Tabiiy monopoliyalarga elektr, gaz va suv ta'minoti, kabelli televidenie va aloqa korxonalari misol bo'la oladi. Bu tarmoqlarga odatda davlat tomonidan cheksiz imtiyozlar beriladi. Shu sababli davlat bunday monopoliyalar faoliyatini tartibga solishda o'z huquqini saqlab qoladi. Agar tarmoqlar davlat mulkchiligi giga asoslangan bo'lsa, bunday ijtimoiy foydalanishdagi korxonalar tartibga solinadigan yoki davlat tomonidan tuzilgan monopoliyalar deyiladi.

v) Patent va litsenziyalar kabi qonuniy to'siqlar. Davlat patent va litsenziyalar berib tarmoqqa kirish uchun qonuniy to'siqlar ham yaratadi. Patentlar tadqiqotchiga mahsulotini to'liq nazorat qilish huquqini beradi. Patentlar albatta tadqiqotchi uchun amal qilib turgan davrdagina monopol holatni ta'minlaydi. Tarmoqqa kirish yoki faoliyat turi bilan shug'ullanish davlat tomonidan litsenziya berish yo'li bilan cheklanishi mumkin. Masalan, davlat miqyosida radio va televidenion eshittirishlarga tegishli vazirlik (mahkama) litsenziya beradi. Kirik shaharlarda shaxsiy avtomobilidan taksi sifatida foydalanish uchun mahalliy hokimiyatdan litsenziya olish zarur. Taksi taklifini shu orqali cheklash taksi egalari va shofyorlarga monopol daromadni ta'minlaydi.

g) Xom-ashyoning muhim turlariga, xususiy mulkchilik monopoliyalar tomonidan potentsial raqobatchilar uchun samarali to'siq yaratish vositasi sifatida foydalanishi mumkin. Ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur hisoblangan xom ashyoga ega bo'lgan yoki uni nazorat qiluvchi firma, raqobatlashuvchi firmalarning paydo bo'lishiga to'sinlik qilishi mumkin.

d) G'irrom raqobat. Firmalar o'z raqiblarining tarmoqqa kirib kelishini tajovuzkorona va shafqatsiz bartaraf qilishi mumkin. Bank va resurslarni etkazib beruvchilarni material va kredit berishdan voz kechirish, etakchi mutaxassislarni og'dirib olish bahoni keskin tushirish g'irrom raqobatning oddiy usullaridir.

Real hayotda faqat erkin raqobat bo'lmagani kabi uning qarama-qarshisi faqat "erkin monopoliya" ham mavjud bo'lmaydi. Erkin raqobat va erkin monopoliya - bu bozorli vaziyatning ikki qutbini ifodalovchi nazariy abstrakt tushunchalar hisoblanadi.

Oligopoliyaning asosiy belgilarini to'laroq qarab chiqamiz:

1. Tarmoqda ko'p bo'lmagan korxonalarining mavjud bo'lishi oligopoliyaning eng muhim belgisi. Qachonki tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, tarmoq oligopolistik hisoblanadi. Oligopolistik tarmoqdagi korxonalarining soni aniq belgilanmaydi. Chunki bozorning oligopoliya modeli erkin monopoliya bilan monopolistik raqobat oralig'idagi katta sohani qamrab oladi.

2. Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko'pchilik sanoat mahsulotlari: po'lat, mis, alyuminiy, qo'rg'oshin, temir va shu kabilar - fizik ma'noda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste'molchilik tovarlari: avtomobillar, yuvuvchi vositalar, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashgan oligopoliya hisoblanadi.

3. Oligopoliya qanday usul bilan rivojlanishidan qat'iy nazar, ko'p bo'lmagan firmalar o'rtasidagi raqobat o'zaro bog'liq bo'ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o'zining baho siyosatini mustaqil o'zgartirishga botina olmaydi. Oligopolistik uchun narx o'rnatishda eng muhimi xarajatlar va talab haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

4. Uchta ko'p bo'lmagan firmalarning umumiy o'zaro bog'liqlikda joylashishi yashirincha kelishishga qulaylik tug'diradi. Yashirincha kelishish baholarini qayd qilish, bozorni bo'lish yoki taqsimlash va boshqacha yo'llar bilan o'zlari o'rtasidagi raqobatni cheklashdan iborat. Yashirincha kelishish bir qator shakllarda bo'lishi mumkin. Uning eng oddiy shakli kartel bitimi hisoblanadi. Kartel bitimiga kirgan firmalar narxlar va ishlab chiqarish hajmini kelishib oladi. Kelishilgan narxni ushlab turish mumkin bo'lishi uchun ishlab chiqarish hajmi tartibga solinishi, ya'ni bozorga bo'lingan bo'lishi zarur.

5. Bahodagi rahnamolik yashirincha kelishishda ham o'z o'mini tutadigan norasmiy vosita hisoblanadi. Bunda tarmoqdagi katta yoki yancha samarali firma narxni o'zgartirishi, boshqa firmalar esa uning orqasidan ergashishi mumkin.

6. Oligopolistik tarmoqda bozor ulushi odatda narxsiz raqobat asosida aniqlanadi. Oligopolistik narxsiz raqobatga asosiy o'rin beradi, chunki birinchidan, raqobatchilarga reklama va mahsulotni o'zgartirish ancha muraqab, ikkinchidan, oligopolistik kamdan kam holda narxsiz raqobatni moliyalashtirish uchun etarli moliyaviy resurslarga ega bo'ladi.

Biz qarab chiqqan raqobatning to'rtta shaklining har biri milliy iqtisodiyotda alohida-alohida, ya'ni erkin holda uchramaydi. Iqtisodiyot sohasini batafsil o'rganish, cheksiz ko'p har xil raqobati vaziyatlar mavjudligi sharoitida, ikkita bir xil tarmoqni topish qiyinligini ko'rsatadi.

Shu sababli erkin raqobatli bozorning xarakterli belgilari bilan, erkin monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliyaning xususiyatlari o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib berish foydali. Bunday taqqoslashni engillashtirish uchun bozorning keyingi uchta modelini bildirish uchun "takomillashmagan" yoki "nomukammal" raqobat degan umumiy nomdan foydalaniladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish bizga nisbatan ancha oldin boshlangan mamlakatlarda raqobat munosabatlarini rivojlantirish favqulodda murakkab va uzoq davrni oladigan jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Agar g'arb mamlakatlari iqtisodiyotida raqobat bozor xo'jaligining ajralmas qismi (xususiyati) sifatida tabiiy paydo bo'lsa, o'nlab yillar davomida ma'muriy buyruqbozlik tartibi hukmron bo'lgan, raqobatni va bozorning boshqa belgilarini tan olmagan mamlakatlarda ko'p narsani "joriy qilish" va hatto majburan qabul

qilishga to'g'ri keladi. Shu munosabat bilan iqtisodiyotimizning hozirgi holatida raqobat munosabatlarini rivojlantirishning mavjud real imkoniyatlarini hisobga olish muhim rol o'ynaydi.

Birinchiidan, raqobatsiz iqtisodiyotning samarali haraqat qila olmasligiga ishonch shakllandi. Bu ishonch ta'sirida yaqin vaqtlargacha sotsializmida nima "mumkin", nima "mumkin emas"-ligini aniqlovchi g'oyaviy qarashlar emirilmogda. Ikkinchiidan, respublikada raqobatni davlat tomonidan rag'batlantirish va tartibga solishning keng rejali harakatlari kuzatilmogda. Uchinchiidan, raqobat hali keng joriy qilinmasada, bozor iqtisodiyotiga o'tishda muhim qadamlar qo'yilmogda.

#### 4. Narx vositasidagi va narxsiz raqobat

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat.

Narx vositasida raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlarini narxlarini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlarinikiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi.

Uning asosiy va eng ko'p qullaniladigan ko'rinishi - "narxlar jangi" deb aytiladiki, bunda yirik ishlab chiqaruvchilar raqiblarini tarmoqdan siqib chiqarish uchun narxni vaqti-vaqti bilan yoki uzoq muddat pasaytirib turadi. Raqobatning bu usuli korxonada ishlab chiqarishning ancha past xarajatlaridan foydalanmasa, bozorda o'z o'rnini mustahkamlash uchun foydaning bir qismidan voz kechishiga to'g'ri keladi. Bu usulni qullash uchun ishlab chiqaruvchi boshqa raqiblariga qaraganda unumliroq texnologiyani kiritishi, malakaliroq ishchilarni yollashi va ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil qilishi kerak bo'ladi. Faqat shundagina uning tovarining individual qiymati bozor qiymatidan past bo'lib, mazkur tovar narxni tushurish imkoniyatini beradi.

Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri - demping narxlarni qullashdir. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o'zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxidan ham past bo'lgan narxlar bo'yicha chiqaradi.

Shu orqali ular ichki bozorda narxlarning barqarorligiga erishish mamlakatdagi ortiqcha mahsulotni yo'qotish, yangi bozorlarga kirib olish va unda o'zlarining iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga harakat qiladi.

Ayrim hollarda narx yordamida raqobatlashishning belgilangan narxlardan chegirma qilish, asosiy xarid qilingan tovarlarga boshqa tovarlarini qo'shib berish muayyan hollarda imtiyozli narxlarni belgilash kabi usullardan ham foydalaniladi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda baho yordamida raqobat qilish o'z o'rmiga ega emas, chunki ishlab chiqaruvchilardan birining o'z mahsulotiga narxni pasaytirishi uning raqobatchilarining ham shunday harakat qilishini taqozo qiladi. Bu bozorda firmalarning mavqeini o'zgartirmaydi, faqat tarmoq bo'yicha foydani kamaytiradi.

Narxsiz raqobat shu bilan xarakterlanadiki, bunda raqobat kurashining asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro'-e'tibori hisoblanadi.

Narxsiz raqobat bilan bir vaqtda yashirin narx yordamidagi raqobat ham bo'lishi mumkin. Buning uchun yangi tovarlarning sifati oshishi va iste'mol xususiyatlarining yaxshilanishi ular narxlarining oshishiga qaraganda tez ro'y berishi kerak. Hozirgi davrda bir turdagi mahsulotlarning ko'payishi ularning sotishni rag'batlantiruvchi reklama, tovar belgilari va fabrika muhrlaridan foydalanishni keltirib chiqarmoqda. Iste'molchilik bozorida qo'shimcha xizmat ko'rsatish orqali xaridorlarni o'ziga jalb qilish keng tarqalmoqda.

Narxsiz raqobatning tovar sifatini tabaqalashtirish kabi usuli ham mavjudki, bunda tovarlar bir xildagi ehtiyojni qondirishi va bir turga mansub bo'lishi, lekin turli-tuman iste'mol xossalari ega bo'lishi mumkin.

Tovarlar talabga nisbatan ortiqcha bo'lgan sharoitda ishlab chiqaruvchilar tovarlarini kreditga sotish usulidan foydalanib raqiblaridan ustun kelishlari mumkin. Bunda dastlab tovar narxining faqat bir qismi to'lanadi, uning qolgan qismi esa shartnomada kelishilgan aniq muddatlarda to'lanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti avj olgan hozirgi sharoitda, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlari ustidan nazorat qilish uchun kurash raqobatning asosiy usullaridan biriga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi korxonalar xaridorlarni jalb qilish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan iste'molchilik tovarlariga kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatishning turli xillarini amalga oshirmoqdalar. Masalan, kompyuter ishlab chiqaruvchi firma, o'z mahsulotini sotibgina qolmasdan, balki uni o'rnatadi, iste'molchi korxonada xodimlarini ulardan foydalanishga o'rgatadi, kafolatlangan muddatda va undan keyingi davrda ta'mir ishlarini bajaradi, texnikaviy xizmatni amalga oshiradi; mahsulotlari o'lchamlarini buyurtmachi ehtiyojlariga yaqinlashtiradi.

Narxsiz raqobat usullari ichida marketing muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga moslashtiruvchi tadbirlar tizimidan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida talabni yaxshi o'rgangan va iste'molchilar ehtiyojlarini to'laroq qondira oladigan korxonalar har doim raqobat kurashida yutib chiqadi.

Irish ishlab chiqaruvchilar bozordagi vaziyatni o'zgartirish uchun o'zining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni kamaytirib tovar taklifini qisqartiradilar. Shu sababli iqtisodiy beqarorlik davrlarida ham narx beqarorligicha qolaveradi.

Shunday qilib, monopoliyalar hukmron bo'lgan sharoitda narxsiz raqobat muhim o'rin tutadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, monopoliyalar tovar sifatini oshirish, iste'molchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash yo'li bilan tovar ko'paytirishi mumkin. Ikkinchidan, ular moliyaviy jihatdan kuchli bo'lganligi sababli mahsulotini yangilash, ishlab chiqarishni qayta jihozlash va reklamaga zarur bo'lgan mablag'ni sarflay oladilar.



## 5. Narxning mazmuni va uning vazifalar

Tovarlar qiymati va ularning nafiligi o'zlarining namoyon bo'lishini narxda topadi. Amaliy hayotda qiymat tovar ishlab chiqaruvchilarni, nafilik esa iste'molchilarni rag'batlantiruvchi, ularni harakatga keltiruvchi kuch sifatida amal qiladi.

Tovarning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan, lekin doimo bir-birini taqozo etadigan, birisiz ikkinchisi bo'lmaydigan ikki xususiyatga, ya'ni ma'lum bir nafilikka (iste'mol qiymatiga) va qiymatga ega ekanligi, tovar yoki xizmat shu ikki xususiyat birligidan iborat ekanligi o'quvchiga oldingi mavzulardan ma'lumdur.

U yerda biz tovarning qiymati har qanday sarflarni emas, balki mavjud sharoitda shu tovarni ijtimoiy zaruriy miqdorda va sifatda ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy zaruriy sarflarni ifoda etishini aytib o'tgan edik. Baholar mazmunini aniqlashda tovardagi mana shu ikki xil xususiyatning birligini, bunda iste'mol qiymat (nafilik) qiymatni o'zida olib yuruvchi moddiy asos ekanligini to'g'ri hisobga olmaslik natijasida narx mazmuni turli olimlar va oqimlar tomonidan turlicha aniqlanmoqda va unga turlicha ta'rif berilmoqda.

Buning ustiga narxning darajasiga (uning baland yoki past bo'lishiga), uning o'zgarishiga turli xil omillar ta'sir qiladiki, bu ham masalani to'g'ri tushunishni bir oz chigallastiradi.

Masalan, klassik siyosiy iqtisod maktabi vakillari g'oyalari hamda siyosiy iqtisod darsliklarida narxning asosini qiymat tashkil qiladi deyilgan bo'lsa, marjinalizm yo'nalishidagi va hozirgi davrdagi P. Samuelson, Makkonell va S. Bryularning «Ekonomik» darsliklarida tovar narxining asosini uning nafiligini tashkil qiladi deyiladi. Bunda keyingi qo'shilgan tovar nafiligiga alohida e'tibor beriladi.

Uchinchi guruh olimlar esa narx talab va taklif asosida tashkil topadi deyishadi. Ularning har biri o'zlaricha turli isbotlar topib, o'z g'oyalarini isbotlashga harakat qiladilar.

Alohida tovarlarga qilingan mehnat sarflari turlicha bo'lib, ulardan ayrimlari ijtimoiy mehnat sarfi sifatida to'la tan olinsa, boshqasi qisman tan olinadi, uchinchisi esa umuman tan olinmasligi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, bozordagi mavjud narxlarga mehnat sarflari yoki qiymatning aynan o'zi deb qarash noto'g'ridir. Chunki unga mehnat sarfidan boshqa omillar ham ta'sir qilib, natijada narx qiymatdan past yoki yuqori bo'lishi mumkin.


Jumladan, o'zgarib turuvchi talab va taklif ta'siri ostida biror tovarning bozor narxi tebranib, uning qiymatidan u yoki bu tomonga farqlanishi mumkin. Raqobat ham qiymat — narx nisbatiga xuddi talab va taklif kabi ta'sir ko'rsatadi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, xaridor u yoki bu tovarni sotib olishda, nafaqat uning

qancha turishini, balki mazkur tovarning iste'mol xususiyatlari o'zining ehtiyoji va didiga qanchalik mos kelishini, ya'ni uning naflliligini ham hisobga oladi.

Tovarning xarid qilinishi uning alohida olingan bir kishi uchun emas, balki jamiyat uchun naflliligini va shu bilan birga ijtimoiy qiymatini ham tan olishni bildiradi. Shu sababli, «ijtimoiy iste'mol qiymat» tushunchasining o'zi biror tovar (xizmat) ning jamiyat uchun naflliligi, qadr-qiymatga egaligini ko'rsatadi. Shu mulohazalardan kelib chiqib ayish mumkinki, narx o'zida faqatgina nafllilik yoki sarflaming birini emas, balki har ikkalasining bir vaqtda mavjudligini va ularning ma'lum miqdorini pul ko'rinishida ifoda etadi.

Tovardagi ikki xususiyati birdaniga tan olinmasa, u pulda ifodalanmasa oldi-sotti sodir bo'lmaydi. Chunki tovarning qiymati tomonida sotuvchining manfaati, naflliligi (iste'mol qiymati) tomonida esa xaridorning manfaati yotadi. Tovar egasi o'z tovari uchun ketgan sarflarni qoplab, ma'lum darajada, iloji boricha ko'proq foyda olishni ta'minlashi mumkin bo'lgan darajada qiymatni pul shaklida o'zgartirishga intilsa, xaridor iloji boricha sarf qilayotgan pulining har bir birligiga ko'proq naflikka (iste'mol qiymatiga) ega bo'lishga harakat qiladi. Ularning manfaatlari to'g'ri kelgan nuqtada, darajada narx o'rnatilib, tovar pul almashuvi, oldi-sotti sodir bo'ladi.

Bu holatni yaxshiroq tasavvur qilish uchun biz quyidagi chizmaga e'tiborni jalb etamiz.



4-Chizma

Bu chizmadan tovarning narxi ma'lum bir iqtisodiy jarayonni ifoda etuvchi mustaqil ilmiy tushuncha ekanligi, tovarning ikki xususiyatiga asoslanishini, ular bilan chambarchas bog'liqlikda o'zgarishini ko'rish mumkin. Undan tashqari, hozirgacha real hayotda turli-tuman tovarlar va xizmatlar naflliligini, ularning o'zgarishini bir ko'rsatkichga keltirib hisoblashning pul ko'rinishidan boshqa o'ltirami iqtisodiy fanlarda topilgan emas.

Bulardan xulosa qilib ayish mumkinki, narx — real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy naflliligining puldagi ifodasidir.

Bu yerda shuni yana bir bor ta'kidlash joizki, narxda alohida olingan ishlab chiqaruvchilarning individual sarflari emas yoki alohida olingan individual shaxslarning psixologik jihatdan nafillikka bergan bahosi ham emas, balki jamiyat tomonidan tan olingan ijtimoiy sarflar va jamiyat uchun zarur bo'lgan miqdorda va sifatda yaratilgan va tan olingan ijtimoiy nafillik (iste'mol qiymat) o'z ifodasini topadi. Tovarlar va xizmatlar uchun qilingan ijtimoiy sarflarning asosli ravishda o'sishi yoki tovar va xizmatdagi sifat ko'rsatkichlarining o'sishi ushbu tovar narxining oshishiga olib keladi.


Masalan, mashinalarda ot kuchining oshishi, salonlarida, boshqaruv va tezligida bo'lgan o'zgarishlar uning narxining oshishiga sabab bo'ladi. Chunki shu o'zgarishlar bilan bir vaqtda unga sarflangan harajatlar ham oshgan bo'ladi. Bunday ikki tomonlama o'zgarishlar natijasida narxlarning o'zgarishi hamma tovarlar va xizmatlarga xosdir. Narx tovar va xizmatlardagi ikki xususiyatning puldagi ifodasi sifatida, ularning o'zgarishi natijasida o'zgaradi.

Uning uchun real hayotda turli tovarlar va xizmatlardagi ikki xil xususiyat o'zgarishlari ularning hajmini hisoblashda ikki xil narxda hisobga olinadi.

Narxning mazmunini to'laroq tushunish, uning darajasiga ta'sir etuvchi omillarni bilish muhim ahamiyatga egadir. Bulardan asosiylari:

Qiymat yoki ishlab chiqarish sarflari; tovarning nafillik darajasi; mazkur tovarga talab va taklif nisbati; raqobat holati, davlatning iqtisodiy siyosati va h. k. Bu omillar ichida tovar qiymati va nafilligi uning narxini belgilovchi asos bo'lib xizmat qiladi.

Boshqa omillar esa narxning ijtimoiy qiymat bilan ijtimoiy nafillik miqdori atrofida goh birinchisining, goh ikkinchisining foydasiga tebranishiga sabab bo'ladi. Masalan, talab va taklif nisbatini olaylik. Agar tovarlarning ayrim turiga talab taklifga nisbatan baland bo'lsa, ijtimoiy qiymat o'zgarmagan holda narxning darajasi nisbatan oshiq bo'ladi, yoki aksincha taklif talabga nisbatan ko'proq bo'lsa, ijtimoiy qiymat o'zgarmagan holda narxning darajasi unga nisbatan past bo'ladi.



5- Chizma

Narx darajasiga boshqa omillarning ta'siriga alohida to'xtalmasa ham bo'ladi. Chunki soliq miqdori qancha ko'p bo'lsa, narx darajasi shuncha yuqori bo'lishi hammaga ayondir.

Narxning iqtisodiy mazmuni uning vazifalari ko'rib chiqilganda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

## 6. Narx turlari va uning mazmuni

Iqtisodiyotning turli sohalari va tarmoqlaridagi ishlab chiqarish va sotish sharoitlarining xilma-xilligi hamda bozor munosabatlarining rivojlanish darajasidagi farqlar narx turlarini farqlash zaruriyatini tug'diradi. Iqtisodiyotda amal qilib turgan barcha narx turlari uning tizimini tashkil qiladi. Narx tizimida ularning ayrim turlarining iqtisodiy mazmunini qisqacha qarab chiqamiz.

**Ulgurji narxlar.** Ishlab chiqaruvchilar tomonidan katta partiyadagi tovarlar bir yo'la ko'tarasiga sotilganda ulgurji narxlardan foydalaniladi. Ulgurji narxlar ishlab chiqaruvchilar va ta'minlash-sotish tashkilotlari harajatlarini qoplashi hamda ularning ma'lum miqdorda foyda ko'rishini ta'minlashi zarur. Ulgurji narxlar tovar bijalari va savdo uylarida ham qo'llaniladi.

**Shartnoma narxlar.** Bu sotuvchi va xaridorning roziligi bilan belgilanadigan, ular tomonidan tuzilgan shartnomada qayd qilingan narxlardir. Shartnoma narxlar odatda shartnoma bitimi amal qilib turgan davrda o'zgar olmaydi. Mazkur narxlar ham milliy va ham xalqaro bozorda qo'llaniladi. U xalqaro bozorda qo'llanilganda tovar (xizmat)larning jahon narxlariga yaqin turadi.

**Chakana narxlar.** Bu narxlarda tovarlar bevosita iste'molchilarga sotiladi. Chakana narxga tovarning ulgurji narxi, chakana savdo tashkilotlarining harajatlari va ularning oladigan foydasi kiradi. Chakana narx tovarlarga bo'lgan talab va taklifni bog'lovchi rolini o'ynaydi, hamda ularning nisbatiga qarab yuqori yoki past bo'lishi mumkin.

Davlatning narxlarni tartibga solishlik faoliyati chegaralangan (limitlangan) va dotatsiyali narxlarni vujudga keltiradi. **Chegaralangan narxlarda davlat narxlarning yuqori va quyi chegarasini belgilaydi, ular shu doirada o'zgarishi mumkin.** Bunday narxlar yordamida davlat inflyatsiyani jilovlaydi, narxlarni nazorat qiladi. **Dotatsiyalangan narx** - bu davlat byudjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxlar. Bunday narxlardan kam daromadli oilalar, beva-bechoralar, ishsiz va nogironlarni hayotiy zarur negmatlar bilan eng kam darajada ta'minlab turishda foydalaniladi.

**Demping narx.** Bozorda o'z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarish uchun firmalar maxsus narxdan foydalanadiki, ular demping narx yoki bozorga kirib olish narxi deb ataladi. Demping narxda rasmiy narxning bir qismidan kechib yuboriladi.

Sotish hajmini o'zgartirmasdan yuqori foyda olishga erishish uchun firmalar nufuzli narxdan foydalanadi. Bu narxni qo'llash uchun bozorda raqobat cheklangan va monopol vaziyat mavjud bo'lishi zarur. Mazkur vaziyatda talab

narxga bog'liq bo'lmaydi, shu sababli narxning ko'tarilishi tovar sotilishini keskin kamaytirmaydi. **Bundan tashqari aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan nufuzli tovarlar ham mavjudki. ular nufuzli narxlarda sotiladi.**

Rivojlangan mamlakatlarda yuqori daromad oluvchi aholi qatlami uchun dala hovliga ega bo'lish, mashhur kurortlarda dam olish, oxirgi nushadagi kiyimlarni kiyish, yangi modeldagi avtomashinada yurish - martabali yoki obro'talab iste'mol hisoblanadi. Martabali iste'mol nufuzli narxlarni yuzaga chiqaradi. Ular odatdagi narxlardan ancha yuqori bo'ladi. Narxlarni qo'llashda tovarlarni ishlab chiqarish harajatlari va rentabellik darajasi, bozordagi talab, uning o'zgarishi va bozordagi narxga raqobatlashuv sharoiti hisobga olinadi. Shunga qarab ma'lum davrgacha o'zgarmaydigan **qat'iy (standart) narxlar va o'zgaruvchan narxlar** qo'llaniladi. Shunday tovarlar borki, iste'molchilar ularning narxi o'zgarmasligini afzal ko'radi. Masalan, kommunal xizmat, transport xizmati ta'riflari shunday narxlar jumlasiga kiradi.

O'zgaruvchan narx belgilanganda, harajatlari va bozordagi talabning o'zgarishi hisobga olinadi. O'zgaruvchi narxlar xarid miqdorini va xarid vaqtini ham ko'zda tutadi, tovarlar ko'p miqdorda sotib olinsa narx tushiriladi. Xarid vaqti hisobga olinib, mavsum boshida tovarlar narxlari oshib borsa, mavsum oxirida ular pasayadi. Amaliyotda **preyskurant narxlar** ham ishlatiladi. Bunday narxlar firma preyskurantlarida (narx ko'rsatkichlarida) e'lon qilinadi va tovar narxining qaysi summa atrofida bo'lishini ko'rsatadi, ammo haqiqiy narx preyskurant narxdan yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Narxlar farqining miqdoriy ifodasi **narx diapazoni** deyiladi. **Narx diapazoni narxlar oralig'ining puldagi ifodasidir.** Narx diapazoni quyi, o'rta va yuqori narxlarni o'z ichiga oladi. Narx diapazoni qanchalik katta bo'lsa, tovar muomalasi shunchalik tez yuz beradi. chunki talab bilan narx o'zaro bog'lanadi.

Bozor ko'lami hisobga olinganda **hududiy (mintaqaviy), milliy va xalqaro narxlar** mavjud bo'ladi. **Hududiy narx** faqat ma'lum hududiy bozorga xos bo'lib, u shu hudud doirasidagi omillar ta'siridan hosil bo'ladi. **Milliy bozor narxi** bir mamlakat doirasida amal qiluvchi va ularning xususiyatini aks ettiruvchi narxlardir. **Milliy narx** mamlakat doirasidagi ijtimoiy sarf-harajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni, tovar naflliligini, uning qanchalik qadrlanishini hisobga oladi. **Jahon narxi muayyan tovarga ketgan baynalminal harajatlarni, tovarning jahon standarti talabiga mos kelish darajasini va xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini hisobga oladi.**

Narx xilma-xil turlardan iborat bo'lsada, ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan, chunki ularda jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning ishlatilish samarasi o'z ifodasini topadi. Iqtisodiy nazariyada **narx nisbati** degan tushuncha bor, u **narx pariteti deb ham yuritiladi.** Iqtisodiyot bir-biri ga bog'liq va yagona bo'lganidan narxlar bir-birini yuzaga chiqaradi. Masalan, ruda narxi metall narxiga, metall narxi mashina narxiga, mashina narxi kiyim narxiga kiradi, chunki bu narxlarning har biri o'zidan keyingi mahsulot harajatlarni shakllantiradi. Bozorga shunday o'ziga

xos tovarlar chiqadiki, ular ko'pchilik sohalarda ishlatiladigan eng muhim iqtisodiy resurslar hisoblanadi. Bular metall, neft, ko'mir, gaz, yog'och, bug'doy, paxta kabi tovarlar bo'lib, ular narxining o'zgarishi butun narxlar nisbatini o'zgartiradi.

## 7. O'zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi. Davlatning monopoliyaga qarshi tadbirlari.

Raqobatning amal qilishi ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo'lishi mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi.

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhiti uzoq davr davomida, o'z-o'zidan, evolyutsion yo'l bilan vujudga kelgan. Bu asta-sekin erkin raqobat muhitini keltirib chiqargan.

Iqtisodiyotda monopollashuv printsiplari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o'z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya'ni iqtisodiyotning monopollashuv darajasi uning miqyosi va xarakteriga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo'lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi. Masalan, AQShda davlatning xususiy monopoliyalar faoliyatini cheklashga qaratilgan tadbirlari 1980 yilda trestlarga qarshi qabul qilingan qonunda («Sherman qonuni») o'z ifodasini topadi. Monopoliyalarga qarshi qonunchilik va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar boshqa mamlakatlarda ham sharoit taqozo etgan shakllarda amal qiladi.

Buyruqli iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, bizning respublikada sog'lom raqobatga shart-sharoit hozirlash, iqtisodiy sub'ektlar mustaqilligini kengaytirish orqali ularni raqobatchilikka jalb qilish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning muhim jihatlari hisoblanadi.

O'zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o'z egalari qo'lga topshirilsa, ikkinchidan, ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi.

Shunday qilib, O'zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo'li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli xo'jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor tizimiga o'tishdir. Bu yerda raqobatchilik munosabatlarini shakllantirish, avvalo, mustaqil erkin tovar ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mas'uliyat asosida o'z manfaatiga ega bo'lgan va tadbirkorlik tahlikasini

zimmasiga oluvchi erkin xo'jalik sub'ektlarining mavjudligi, ularning bozor orqali aloqa qilishidir.

O'zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish Prezidentimiz I. Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, iqtisodiyotni erkinlashtirish – bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etishni anglatadi. Shuningdek Prezidentimizning Bazirlar Mahkamasida bo'lib o'tgan Majlislarda so'zlagan nutqida (2000 yil, fevralida) biznesni erkinlashtirish, ularga iqtisodiy mustaqillik berishning aniq yo'nalishlari ko'rsatiladi.

Shu maqsadda O'zbekistonda «Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida»gi qonun (1992 yil, avgust) kuchga kiritildi hamda uning asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir turkum me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Mazkur qonunga ko'ra, bozorda ataylab taqchillik hosil qilish, narxlarni monopollashtirish, raqobatchilarning bozorga kirib borishiga to'sqinlik qilish, raqobatning g'irrom usullarini qo'llashi man etiladi. Qonunni buzuvchilar raqibiga etkazgan zararni qoplashlari, jarima to'lashlari, g'irromlik bilan olgan foydadan mahrum etilishlari shart.

Monopoliyaga qarshi faol choralarini amalga oshirish uchun moliya vazirligi tizimida monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish bosh boshqarmasi tuzildi. Boshqarmaga ro'yxatga kiritilgan monopoliya mavqeidagi korxonalar mahsuloti bo'yicha narx larni va rentabillikni tartibga solib turish huquqi berildi.

1996 yil 1 iyul holati bo'yicha respublika va mahalliy bozorlar Davlat reestrída 5153 ta mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlar turi bo'yicha jami 878 korxonalar hisobga olingan. Respublikada monopol mavqeiga ega bo'lgan korxonalarni Davlat reestrída kiritish uchun mezonlar belgilashda jahon tajribasi hamda o'tish davrining o'ziga xos jihatlari hisobga olinadi.

Hozirgi davrda Respublikada agar korxonalar ishlab chiqargan muayyan mahsulotlar tovarlar bozorida shunday mahsulotning 35%idan ortiq bo'lsa, bu korxonalar monopolistik korxonalar sifatida Davlat reestrída kiritiladi. Oziq-ovqat tovarlari guruhi uchun bunday mezon darajasi 20% deb belgilangan.

Respublikada monopoliyalar ro'yxatiga kirgan korxonalar (tarmoq) larning bozordagi mavqeini tartibga solishda davlat bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullardan ikkitasini ajratib ko'rsatish lozim:

1. Monopol mavqeidagi mahsulotlarga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabillikning chegarasini belgilab qo'yish.

2. O'z monopol mavqeini suiiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo'lib tashlash yoki maydalashtirish. Bu usul Bazirlar Mahkamasining (1994 yil 18 iyuldagi 366 sonli) qarori bilan tasdiqlangan «Ob'ektlarning xo'jalik yurituvchi jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to'g'risidagi Nizom» asosida amalga oshiriladi. Respublikada faqat 1994-1996 yillar davomida monopol mavqeidagi aksiyadorlar jamiyatlari, ijara va boshqa jamoa korxonalar tarkibidan 14972 ob'ekt chiqarilib, mustaqil korxonalariga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» (1996 yil, aprel) qonuni asosida g'irrom raqobatga, shu jumladan Respublika bozorlariga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarishga yo'l qo'ymaydigan mexanizmi yaratishga ham alohida e'tibor beriladi.

Tabiiy monopoliyalarni davlat yo'li bilan tartibga solish ular mahsulot (xizmat) lariga narxlar va tariflar darajasini, shuningdek taklif etiladigan tovarlar va xizmatlar turiga doir asosiy ko'rsatkichlarni belgilashni o'z ichiga oladi.

Raqobatchilik muhitini shakllantirish maqsadida va davlatga qarashli bo'lmagan sektorni qo'llab-quvvatlash uchun tadbirkorlikni rivojlantirish fondi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ko'maklashish fondi tashkil etildi. Raqobatchilik muhitini shakllantirishga ko'plab xalqaro tashkilotlar ham faol qatnashmoqda. Jumladan YUNIDO yordamida bir nechta biznes inkubatorlar tashkil etildi. Evropa jamiyati Komissiyasi Amaliy aloqalar markazini. Germaniya texnikaviy ko'maklashuv jamiyati kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash markazini tashkil etdi.

Respublikada raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda amalga oshirilayotgan barcha ishlar bozor iqtisodiyotini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan barcha mamlakatlarda davlatning narx sohasidagi siyosati ko'p jihatdan narxlarni erkinlashtirish, milliy bozor narxlarini jahon bozori narxlariga yaqinlashtirishga qaratiladi.

Erkin narxlar - bu talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxlaridir. Madaniylashtirilgan bozor sharoitlarini vujudga keltirishda erkin narxlar jamiyat va bozor munosabatlari barcha sub'ektlari manfaatlarini eng maqbul tarzda uyg'unlashtirishga imkon beradi.

Narxlarni erkinlashtirish - iqtisodiy islohatlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, islohatlarning ijtimoiy - iqtisodiy oqibatlari ko'p jihatdan shu muammoning hal etilishiga bog'liq bo'ladi. Narxlarni erkinlashtirish xom ashyo bilan mahsulot ayrim turining narxlarini, narx bilan aholi va korxonalar daromadlari o'rtasida mutanosiblikka erishishga qanday yondashilishi bilan farqlanadi. Shu yondashuvlarga asoslanib, narxlar qo'yidagi yo'llar bilan erkinlashtiriladi:

a) narxlarni birdaniga, yoki "esankiratadigan" tarzda qo'yib yuborish; b) narxlarni sun'iy ravishda to'xtatib qo'yish; v) narxni davlat tomonidan boshqarish va nazorat qilishni ma'lum darajada saqlab qolish.

Bozor munosabatlariga o'tayotgan har bir mamlakat, shu yo'llardan birini tanlashda ulardan har birining mavjud real shart-sharoitlarga qanchalik mos kelishi, aholi asosiy qismining moddiy ahvoriga qanday darajada ta'sir ko'rsatishi, isloh qilishning tanlab olingan nusxasiga qanchalik darajada javob berishi va kutiladigan salbiy oqibatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.



Sobiq sotsialistik tizim mamlakatlari negizida vujudga kelgan bir qancha yangi mustaqil davlatlar narxlarini erkinlashtirishning "esankiratuvchi" yo'lini tanlab oldi. Barcha turdagi xom ashyo resurslari, iste'mol mollari hamda xizmatlar narxini bir yo'li erkin qo'yib yubordi. Natijada narxlar keskin oshdi. Bu aholi keng qatlamining birdaniga qashshoqlashuviga, ijtimoiy ahvolning keskinlashuviga olib keldi. Ishlab chiqarishning pasayishiga, milliy sanoat va qishloq xo'jaligining izdan chiqishiga sabab bo'ldi.

O'zbekistonda respublika iqtisodiyotini isloh qilishning o'ziga xos tamoyillari, mamlakatdagi vaziyat va aholining turmush darajasi hisobga olinib, narxlarini asta-sekinlik bilan va bosqichma-bosqich erkinlashtirish yo'li tanlab olindi. Shu yo'l bilan narxlarini erkinlashtirishning dastlabki bosqichida (1992 yilning boshida) keng doiradagi ishlab chiqarish-texnika vositasi bo'lgan mahsulotlar, ayrim turdagi xalq iste'moli mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning erkin narxlari va tariflariga o'tildi. Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qo'yildi, ayrim turdagi xizmatlarning eng yuqori tariflari joriy qilindi.

Narxlarini erkinlashtirishning keyingi bosqichida (1993 yil) kelishilgan ulgurji narxlarini davlat tomonidan tartibga solish to'xtatildi. Qat'iy belgilangan va davlat tomonidan tartibga solib turiladigan narxlarda sotiladigan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning soni ancha qisqardi.

Narxlarini erkinlashtirishning navbatdagi bosqichida (1994 yil oktyabr, noyabr) xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxlari erkin qo'yib yuborildi, transport va kommunal xizmatlarning tariflari oshirildi. Shunday qilib, respublikada iqtisodiyotini isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarini bosqichma-bosqich (uch bosqichda) to'liq erkinlashtirish bilan tugadi. Narxlarini erkinlashtirish aholini ishonchli iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash tadbirlari bilan biga olib borildi. Davlat tomonidan turli kompensatsiya maqsadidagi jang'armalar tuzildi, ish haqi, nafaqa va stipendiyalarning eng kam miqdori muntazam suratda oshirib borildi, bolalar uchun nafaqalar joriy etildi. Aholining muhtoj qismiga yordam ko'rsatildi, imtiyozli soliq stavkalari joriy etildi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

**Raqobat** – bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafillikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi.

**Tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat** – tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqegini mustahkamlash uchun kurashdan iborat.

**Raqobat shakllari** – raqobatchilik muhitning etuklik darajasi bilan farqlanib, sof (erkin) raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyani o'z ichiga oladi.

**Raqobat usullari** – raqobat kurashida qo'llaniladigan vosita va dastaklardan iborat bo'lib, bunda raqobat narx vositasida va narxsiz raqobatlashish usullari orqali amalga oshiriladi.

**Narx** – bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafiligining puldagi ifodasidir.

**Ulgurji narxlar** – ishlab chiqaruvchilar tomonidan tovarlar katta partiyalarda bir yo'la ko'tarasiga sotilganda mavjud bo'ladi.

**Chakana narxlar** – tovarlar bevosita iste'molchilarga sotiladigan narxlardir.

**Dotatsiyalashgan narx** – davlat byudjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxdir.

**Demping narx** – bozorda o'z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarish uchun foydalanilib, bozorga kirib olish narxi deb ham ataladi.

**Nufuzli narx** – aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan tovarlarni sotishda qo'llaniladi.

**Narx diapazoni** – narxlar oralig'idagi farqning puldagi ifodasi.

**Erkin narxlar** – talab va taklif ta'sirida shakllanadigan narxlardir.

### **Takrorlash uchun savollar va o'quv topshiriqlar**

1. Raqobatning mohiyati va maqsadini tushuntirib bering.
2. Raqobatchilik munosabatlarining rivojlanishi qanday bosqichlardan iborat? Har bir bosqichda raqobatning xarakteri va asosiy belgilarini ajratib ko'rsating.
3. Raqobat shakllariga tushuncha bering va ularning har biriga xos belgilarini ko'rsating.
4. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatning farqini tushuntirib bering.
5. Narxning iqtisodiy mazmunini uning vazifalari orqali tushuntirib bering. Narx asosiy turlarining qisqacha tavsifini bering.
6. Sof raqobat sharoitida narxning tashkil topish mexanizmini tushuntirib bering.

### **Adabiyotlar:**

33. Karimov I. A. «Bizning bosh maksadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir», «O'zbekiston» 2005.
34. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz.; T. «O'zbekiston», 2000y.
35. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. — T.; «O'zbekiston», 1998.
36. «To'g'ridan to'g'ri xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel.
37. Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T., «Moliya» nashriyoti, 2002.

- 38.A. Qodirov. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
- 39.D. Tajiboeva. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
- 40.Makkonel K., Bryu S. «Ekonomiks», M.2002.
- 41.Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Rayzberga.- Uchebnik: - INFRA – M.2004.
- 42.Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof.M. N. Chepurina. Uchebnik: - INFRA – M.2004.
- 43.Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsh. red. akad. B. I. Bidiyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA – M.2004.
- 44.Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
- 45.E. F. Borisov Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
- 46.Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
- 47.Ioxin B. Ya. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
- 48.Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy, d.e.n., prof. T. B. Chechelovoy. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

9. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalq so'zi - 25 mart.
- 10.Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov – 2005.
- 11.Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. Yaxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
- 12.Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovy ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

#### **Veb-saytlar:**

19. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
20. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
21. <http://infoteka.economics.ru>
22. [www.finansy.ru](http://www.finansy.ru)
23. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
24. [www.2004.press-servis.uz](http://www.2004.press-servis.uz)
25. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
26. [www.jahon.mfa.uz](http://www.jahon.mfa.uz)
27. [www.budget.rf.ru](http://www.budget.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ruzani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof.Sh.Sh Shodmonov, G.D. Bobabekova, G.T. Xalirkva tomonidan tayyorlangan «Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v predpodovanii ekonomicheskoi teorii».T-2004, «Innovatsionnye metody obucheniya v ekonomicheskom obrazovanii» va Sh.Sh.Shodmonov, T.M.Ziyeva, M.T.Yaxshieva tomonidan tayyorlangan Iqisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami.T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.

## TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA UNING SHAKLLARI

Kirish

4 soat

Reja:

1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari
2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari.
3. Tadbirkorlik kapitalining harakati va bosqichlari.
4. Tadbirkorlik kapitalining aylanish Asosiy va aylanma kapital.
5. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va undan foydalanish samadorligi

### Kirish

Mulkchilikning turli shakllariga asoslangan raqobatli iqtisodiyotga o'tish sharoitida xo'jalik birliklari (korxonalar, firma) doirasida ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish turli xil shakl va usullarda amalga oshiriladi.

Ularning ichida tadbirkorlik faoliyati alohida o'rin tutadi va bu faoliyat tufayli mulkchilikning turli shakllari iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqadi va o'z egasiga daromad keltiradi.

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda tadbirkorlik layoqati iqtisodiy resurslar hisoblanib, inson resurslarining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Shu sababli biz oldin tadbirkorlik qobiliyatini iqtisodiy resurslarning bir turi sifatida qarab chiqqan edik. Bu yerda tadbirkorlik faoliyatining mohiyati, maqsadi va bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida amal qiladigan shakllariga batafsil to'xtalamiz. Keyin tadbirkorlik kapitali va uning harakati tahliliga o'rin beriladi. Kapital harakatida vujudga keladigan jarayonlar va uning namayon bo'lish shakllari ham tahlil qilinadi.

### 1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari

Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Tadbirkorlikning tarixi juda o'z-o'ziga o'tmishga borib taqalada, uning hozirgi zamon tushunchasi XVIII asrda paydo bo'lgan va ko'pincha «Mulkdor» iborasi bilan bir xil tushunilgan.

Keyinchalik real xo'jalik hayotida qatnashuvchi kapitalning mulkdor kapitaldan ajralib chiqishi natijasida «tadbirkorlik» tushunchasi «mulkdor» tushunchasiga to'g'ri kelmay qoladi.

Hozirgi zamon g'arb adabiyotida ham tadbirkorlikka foyda olish maqsadini ko'zlab ko'rib yuritish san'ati, iqtisodiy va tashkiliy ijodkorlik, tashabbusning erkin namoyon bo'lishi, novatorlik, xavf-xatarga nisbatan tayyor bo'lish va shu kabi ko'p qirrali tomonlari bilan qaraladi.

Hozirgi kunda bizning iqtisodiy tafakkurimiz, aniqrog' i boshqarish nazariyasi xam tadbirkorlik faoliyatini shunday tushunish tomon bormoqda.

Qisqa qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyati foyda olishga qaratilgan faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun albatta mulk egasi bo'lish shart emas, u zarur vositalarni ijaraga olishi, ssuda olishi va ishni yuritishi mumkin.

Tadbirkor bozordagi talabni qondirish imkoniyatlarini oldindan ko'ra oladi va ularni qondirish niyatida zarur bo'lgan sarmoyalarni jalb qiladi, ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish jarayonida birlashtiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishda foydalaniladigan mulk va boshqa boyliklar tadbirkorlik faoliyatisiz o'zini iqtisodiy jihatdan to'la namoyon qilmaydi va, shubhasiz, tovar ishlab chiqaruvchilarga etarlicha daromad keltirmaydi.

Tadbirkorlik faoliyati tushunchasining mazmuni uning to'rtta o'zaro bog'liq vazifasini aniqlash bilan to'liq tushuniladi.

1. Tadbirkor foyda olish maqsadida tovar (yoki xizmat) ishlab chiqarishning yagona jarayonida yer, suv, kapital va mehnat resurslarini birlashtirish tashabbusini oladi. Shu bilan birga tadbirkor bir vaqtda ishlab chiqarishning harakatlantiruvchi kuchi va ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun boshqa resurslarni bir joyda uyg'unlashtiruvchi tashabbuskor hisoblanadi.

2. Tadbirkor biznesni yuritish, foydani ko'paytirish bo'yicha asosiy qarorlar qabul qiladi, bu qarorlar korxonada faoliyatining maqsadini aniqlab beradi.

3. Tadbirkor – yuqori foyda orqasidan quvib, yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish texnologiyasi yoki hatto biznesni tashkil qilishning yangi shakllarini tijorat asosida joriy qilishga harakat qiluvchi tashabbuskor shaxs hisoblanadi.

4. Tadbirkorlik faoliyati –bu tahlikaga boruvchi faoliyatdir.

### **Tadbirkorlik rivojlanishining shart — sharoitlari.**

Tadbirkorlikning rivojlanishi, o'z navbatida, bir qator sharoitlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi, ular asosida umuman tovar ishlab chiqarishning umumiy ijtimoiy –iqtisodiy shart-sharoitlari yotadi.

Birinchidan, tadbirkor xo'jalik yuritishda uning sub'ektlarida xo'jalik yuritishning u yoki bu turini tanlash bo'yicha, ishlab chiqarish dasturini shakllantirishi, moslashtirish, manbalarni tanlash, resurs topish, mahsulot sotish, ularga baho belgilash, foydani tasarruf qilish va shu kabilar bo'yicha ma'lum xuquq va erkinliklar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Ikkinchidan, tadbirkor ishlab chiqarish vositalariga, ishlab chiqarilgan mahsulot va olingan daromadga mulkchilik xuquqiga ega bo'lishi kerak. Tadbirkorlik faoliyati mulkdorning o'zi tomonidan ham, uning mol-mulki asosida ish yurituvchi sub'ekt tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Xo'jalik yuritish xuquqi, ya'ni mol-mulkidan foydalanish va daromadni tasarruf qilish tadbirkor tomonidan takror ishlab chiqarish jarayonini boshqarishining muhim shart-sharoitini tashkil qiladi.

Ma'lumki, tadbirkorlik faoliyatining vazifasi nafaqat foyda olishga, balki uni qaysi maqsadlarda ishlatish va sarmarali sarflash yo'llarini topishga qaratiladi, ya'ni u iste'mol-taqsimotchi nuqtai-nazaridan emas, balki yuqori raqobatbardoshlikni saqlab turish, xo'jalikni takomillashtirish, kengaytirish va shu kabilarni amalga oshirishga asoslanadi.

Uchinchidan, xo'jalik yuritish yo'lini erkin tanlash, daromadni investitsiyalash imkoniyati va shu kabilarni real ta'minlaydigan ma'lum iqtisodiy muhit va ijtimoiy siyosiy sharoit yaratishi zarur.

To'rtinchidan, erkin tadbirkorlik, mulkchilik va o'zlashtirishning turli-tuman shakllari va turlarini taqozo qiladi. O'z navbatida turli-tumanlilikning o'zi ob'ektiv xodisa bo'lib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi oqibati sifatida maydonga chiqadi.

Etarli moliyaviy manbalarga, yaxshi ma'lumot va malakali tayyorgarlikka ega bo'lish, umumiy tijorat qonunchiligi, soliq bo'yicha imtiyozlar, tadbirkorlik muhiti va uni rivojlantirishda jamiyat manfaatdorligining mavjud bo'lishi tadbirkorlikni rivojlantirishning navbatdagi shart-sharoitlari hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lgan davlatlarda tadbirkorlik yaxshi rivojlanadi, aks holda faoliyatning bu turi xufiyona iqtisodiyot sohasiga o'tib ketadi.

## 2-§. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari

Hozir jahonda ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi va harakterining beqiyos darajada bir-biriga qo'shib ketishi ko'zatiladi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning ijtimoiy, umumdavlat maqsadlarida foydalanadigan va, nihoyat, jamoa, guruh, xususiy va shaxsiy maqsadlarda ishlatiladigan turlari mavjud. Shunga mos ravishda tadbirkorlikning turli-tuman: davlat, jamoa, shaxsiy, xususiy, aralash va boshqa hosila shakllari rivojlanadi.

Hozir jahonning ko'pchilik mamlakatlarida davlat yirik tadbirkor hisoblanadi. Milliy daromadning 20 foizidan 50 foizigacha davlatlar ulushiga to'g'ri keladi. Davlat korxonalari ko'pincha mamlakat iqtisodiyoti uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yoki katta kapital qo'yilmalar talab qiladigan tarmoqlarda to'ziladi. Masalan, Angliyada davlat sektori qora metallurgiya, ko'mir qazib chiqarish, aero-kosmik sanoat, aloqa vositalari, temir-yo'l transporti, elektr va gaz bilan ta'minlash kabi sohalarni qamrab oladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat korxonalari milliy lashtirilgan chet el kompaniyalari bazasida asosan sanoatning konchilik tarmoqlarida to'ziladi. Rivojlanayotgan va rivojlangan ko'pchilik mamlakatlarda davlat kompaniyalari sanoat firmalari orasida peshqadam hisoblanadi.

Turli mamlakatlarda davlat korxonalarining huquqiy maqomi turli-tumanligi bilan ancha farqlanadi. Hatto bir mamlakatda ham barcha davlat korxonalarining faoliyatini tartibga soluvchi yagona qonuniy hujjat mavjud emas.

YUqorida ko'rib o'tilgan sharoitlar asosida davlat korxonalarini uchta guruhga bo'lish mumkin:

- byudjet korxonolari;
- davlat ishlab chiqarish korxonolari;
- aralash kompaniyalar;

Huquqiy va xo'jalik mustaqilligiga ega bo'lmagan korxonalar byudjet korxonalariga kiradi. O'zlarining holati bo'yicha ular davlatning ma'muriy boshqarish tizimiga kiradi va biron-bir vazirlik, mahkama yoki mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga bevosita bo'ysunadi yoki ularning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular olgan foydadan soliq to'lamaydi. Barcha daromad va harajatlar davlat byudjeti orqali o'tadi.

**Davlat ishlab chiqarish korxonolari** – bu korxonalarining ancha keng tarqalgan tashkiliy, huquqiy shaklidir. Ular mol-mulkka ega bo'lib, xo'jalik faoliyati bilan birga davlat tomonidan belgilangan doirada boshqarish va tartibga solish vazifalarini ham bajaradi, ya'ni davlat korporatsiyalari o'zida tijorat korxonolari va davlat organlari belgilarini mujassamlashtiradi.

**Aralash kompaniyalar.** Ular hissadorlik jamiyatlari va majburiyatlari cheklangan shirkatlar shaklida tashkil qilinib, aksiyalari davlatga va xususiy omonatchilarga taalluqli bo'ladi. Aralash kompaniyalar hissadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun asosida ish yuritadi va yuridik shaxs hisoblanadi, xo'jalik faoliyatida xususiy firmalar bilan barobar tijorat asosida qatnashadi. Shu bilan birga, ular xususiy firmalarga nisbatan ma'lum imtiyozlardan foydalanadi. Bular davlat tomonidan pul va dotatsiyalar berish, chet el litsenziyalarini engil shartlar bilan olish, boshqa davlat korxonalarini bilan xom ashyo va yarim fabrikatlarni qat'iy belgilangan baholarda etkazib berish, ishlab chiqargan mahsulotni sotish uchun bozor bilan ta'minlanganlik va shu kabilar.

Hamma vaqt korxonasi (firma) jamoa tadbirkorligini amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy kategoriya sifatida korxonasi ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil qilishning asosiy birlamchi bo'g'ini hisoblanadi. Huquqiy nuqtai nazaridan korxonasi deganda yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yuritish sub'ekti tushuniladi. Ular o'ziga birlashtirilgan mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradi va sotadi, ishlarni bajaradi va xizmatlar ko'rsatadi. Korxonalarining mulkchilik mavqeidan tashqari xilma-xil tashkiliy —huquqiy shakllari ham mavjud bo'ladi. Korxonalar xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari, ishlab chiqarish kooperativlari, jamoa korxonalarini, ijara korxonalarini, xo'jalik birlashtirmalari shaklida to'zilishi mumkin.

**Kooperativ tadbirkorlik** – jamoa tadbirkorligining alohida shakli bo'lib, jamoa mulkiga asoslanadi va kooperatsiya a'zolarining uning faoliyatida o'z mehnati bilan ishtirok etishini taqozo qiladi. Kooperativ mulkchilikka asoslangan tadbirkorlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: ishlovchilarning ishlab



chiqarish vositalari bilan bevosita qo'shilishi (xususiy mulkchilikda bunday qo'shilishda mulkdor, davlat mulkchiligida esa davlat vositachi hisoblanadi); kooperatsiya a'zolarining ishlab chiqarish vositalaridan keng foydalana olishi; ularning iqtisodiy jihatdan teng huquqliligi; jamoaning o'z-o'zini boshqarishni amalga oshirishi; jamoa va shaxsiy manfaatlarining uyg'unligi yuzaga kelishi va h.k.

**Xususiy tadbirkorlik** alohida shaxs yoki korxonada tomonidan xususiy tashabbus asosida tashkil qilinadi. Tadbirkorlikning bu shaklida mulk va ishlab chiqarish natijalari xususiy shaxslarga tegishli bo'lib, ishlab chiqarishni tashkil qilish yollanma mehnatga asoslanadi.

**Shaxsiy tadbirkorlik** shaxsiy mulkka asoslanadi, ishlab chiqarishni tashkil qilish o'zi yoki oila a'zolari mehnati asosida amalga oshiriladi. Shaxsiy korxonada egasi uning menejeri ham hisoblanib, korxonaning barcha majburiyatlari uchun shaxsiy javobgar bo'ladi. Xo'jalik xuquqi nuqtai-nazaridan shaxsiy tadbirkorlik huquqiy shaxs hisoblanmaydi, shu sababli uning egasi cheklanmagan mas'uliyatga ega bo'lib, faqat fuqarolardan olinadigan daromad solig'ini to'laydi. Bu odatda kichik magazin, xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar, dehqon xo'jaliklari, hamda xuquqshunos va hakamlarning malakaviy doirasida tashkil qilingan tadbirkorlikdir.

O'zbekistonda kichik va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning mintaqaviy dasturlarini amalga oshirish natijasida faqat 1998 yilning o'zida 15 mingga yaqin kichik xususiy korxonalar, jumladan, 2,7 ming dehqon va fermer xo'jaliklari yuzaga keltirildi.

Sindikat – bir tarmoq tadbirkorlari tomonidan ortiqcha raqobatni bartaraf qilish, barqaror foyda olish maqsadida mahsulot sotishning birlashtirilishi;

Konsortsiyalar – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarni birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi (Masalan, yirik miqyosli loyihalarga juda katta miqdorda va o'zoq muddatli kredit berish yoki investitsiyalar qo'yish).

Kontsern – qatnashish tizimi orqali korxonalarni nazorat qiluvchi ko'p tarmoqli hissadorlik jamiyati.

Tadbirkorlikning sanab o'tilgan tashkiliy-iqtisodiy shakllari, bozorni nazorat qilish uchun monopolistik birlashmalar hisoblanadi. Shu sababli, davlat raqobatchilik muhitini ta'minlash uchun monopoliyalarga qarshi qonunlar qabul qilindi. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning muhim shakllaridan biri hissadorlik (aktsionerlik) jamiyatlaridir.

Ancha katta va yirik ishlarni bajarishlari uchun kishilar o'zlarining mehnatini (mehnatning oddiy kooperatsiyasi), mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurslarini (kapitallar) birlashtirishlari lozim bo'ladi. Jamoa kuchini shu asosda birlashtirish natijasida turli xil ittifoqlar (uyushmalar) vujudga keladiki, ular ilmiy adabiyotlarda, qonuniy bitimlarda «jamiyat» deb atala boshlandi.

Jamiyat umumiy tushuncha; ularning shakli iqtisodiy mazmuni, faoliyatining maqsadi va xuquqiy majburiyatlari har xil bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda korxonalarni hissadorlik shaklda tashkil qilish jahon xo'jaligi va hammadan avvalo yirik ishlab chiqarishning ajralmas qismi hisoblanadi. AQSh, Yaponiya va G'arbiy Evropadagi barcha etakchi mamlakatlarda hissadorlik jamiyatlari sanoat, savdo, sug'urta ishi va iqtisodiyotning boshqa sohalarida korxonalarining etakchi tashkiliy-huquqiy shakli bo'lib qoldi.

Aktsiya chiqarish va uni erkin joylashtirish hissadorlik munosabatlarning muhim tomonlaridan birini tashkil qiladi.

**Aktsiya** – bu uning egasi hissadorlik jamiyati kapitaliga o'zining ma'lum hissasini qo'shganligiga va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog'ozdir. Bundan tashqari, aktsiya korxonani boshqarishda qatnashish huquqini ham beradi.

**Aktsiya kursi.** Aktsiyalar maxsus tovar sifatida sotiladi va sotib olinadi, shu sababli bahoga ega.

Aktsiyada ifodalangan pul summasi uning nominal qiymati deyiladi, aktsiya bozorida sotiladigan baho aktsiya kursi deyiladi.

Aktsiya kursi u bo'yicha olinadigan dividendga to'g'ridan – to'g'ri bog'liqlikda joylashadi. Aktsiya keltiradigan daromad qancha yuqori bo'lsa, haridor uning uchun shuncha yuqori baho to'laydi. Shu bilan birga aktsiya kursi foiz miqdoriga teskari bog'liqlikda bo'ladi. Xaridor bu aktsiya bo'yicha olinadigan daromadi bankka qo'yilgan puldan keladigan foizdan kam bo'lmasa, uni sotib oladi.

Aktsiya kursi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Aktsiya kursi} = \frac{\text{divident}}{\text{ssudafoizi}} * 100$$

Bu formula ham aktsiya kursi dividend miqdoriga to'g'ri mutanosib va ssuda foizi miqdoriga teskari mutanosib bo'lishini ko'rsatadi. Ssuda foizi o'sganda aktsiya kursi tushadi. Agar dividend ssuda foiziga qaraganda yuqori darajada o'ssa, aktsiya kursi ko'tariladi.

Aktsiyaning haqiqiy bozor kursiga dividend va ssuda foizi darajasi bilan birga, shu aktsiyaga talab va taklif nisbati ham ta'sir qiladi.

Hissadorlik jamiyatlari aktsiya bilan birga obligatsiya ham chiqaradi.

**Obligatsiya** – uning egasi jamiyatga qayd qilingan foiz olish sharti bilan pul qo'yganligini tasdiqlaydi. Obligatsiya hissadorlik jamiyati moliyaviy mablag'larini ko'paytirish uchun chiqariladi.

Aktsiya egasi korxonaga mulkdori, obligatsiya egasi esa uning kreditori hisoblanadi. Undan tashqari, obligatsiya aktsiyadan farq qilib, o'z egasiga yillik kafolatlangan daromad keltiradi, ammo hissadorlik jamiyati ishlarini hal qilishda ovoz berish huquqini bermaydi. Obligatsiyalar bo'yicha to'lanadigan daromad odatdagi ssuda foizi miqdoridan ortiq bo'lmaydi. Uning qiymati hissadorlik jamiyati tomonidan ma'lum muddat o'tishi bilan to'lanadi. Aktsiyaga qo'yilgan mablag' obligatsiyaga joylashtirilgandan farq qilib, aktsioner talabi bo'yicha qaytarilishi mumkin emas va faqat sotish orqali qoplanadi.

**Ta'sischiilik foydasi.** Hissadorlik jamiyatining tashkil topishi ta'sischiilik foydasi kabi daromad turining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Ta'sischiilik foydasi sotilgan aksiyalar summasi va hissadorlik korxonasiga haqiqatda qo'yilgan mablag' miqdori o'rtasidagi farqdan iborat.

**Dividend.** Hissadorlik korxonasida ta'sischiilik foydasi bilan bir qatorda dividend kabi daromad turi shakllanadi.

Dividend (lotincha **dividendus** - bo'lishga tegishli) - aktsiya egasiga to'lanadigan daromad. Dividend vositasida aktsiya egasi qimmatli qog'ozning shu turiga qo'yilgan pul mablag'lari (kapital) ning tegishli qismiga o'zining mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqaradi. Dividend orqali faqat hissadorlik jamiyati olgan foydaning bir qismi taqsimlanadi. Uning boshqa qismi jamg'arishga, soliq to'lashga va shu kabilarga ketadi. Dividend miqdori olinadigan foyda va chiqarilgan aktsiya miqdoriga bog'liq va hamda odatda ssuda foizidan yuqori bo'ladi.

Odatdagi aksiyalar bo'yicha dividend miqdori hissadorlik jamiyati joriy yilda olgan foyda miqdoriga bog'liq. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend miqdori esa joriy yildagi foyda miqdoridan qat'iy nazar qayd qilingan foiz shaklida o'ramiladi. Jamiyat tugatilgan taqdirda imtiyozli aktsiya egasiga aktsiya qo'yilgan mablag' uning nominal qiymati bo'yicha qaytariladi.

Hozirgi kunda bizning respublikamizda korxonalarini aksionerlashtirishning ikkita yo'nalishi tarkib topdi: birinchi yo'nalishda o'zining huquqiy statusini o'zgartirmaydigan, davlat mulki bo'lib qoladigan korxonalar, ikkinchi yo'nalishda o'zining huquqiy statusini o'zgartirib to'liq hissadorlik jamiyatiga aylangan korxonalar aktsiya chiqaradi.

Respublikada hissadorlik jamiyatlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishi davlat mulkchiligidagi yirik va o'rta korxonalarini keng ko'lamda hissadorlikka o'tkazish, ular negizida ochiq hissadorlik jamiyatlarini to'zish hisoblanadi. Shu bilan birga ilgari to'zilgan yopiq turdagi hissadorlik jamiyatlari ochiq turdagi jamiyatlar qilib qayta to'zilishi ko'zda tutilgan. Buning ma'nosi shuki, hissadorlikka o'tish jarayoni respublika aholisining keng qatamlari uchun, shuningdek, horijiy jismoniy va huquqiy shaxslar uchun ochiq bo'lishi lozim. Bunga qimmatli qog'ozlarning ochiq savdosini o'tkazib turish, fond birjasining faoliyatini kengaytirish, investitsiya kompaniyalari, investitsiya fondlari, kliring va agentlik tarmoqlarini tashkil qilish orqali qimmatli qog'ozlar bozori infrato'zilmasini vujudga keltirish orqali erishiladi.

### **3. Tadbirkorlik kapitalining harakati va bosqichlari.**

Tadbirkorlikning har qanday shakli o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ma'lum miqdordagi ishlab chiqarish vositalariga, va moliyaviy maglablariga ega bo'lishi zarur. Bu vosita va mablag' lar foyda olish maqsadida ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish jarayoni uchun zarur bo'ladi.


Tadbirkor ixtiyoridagi barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag'lari birgalikda tadbirkorlik kapitali deb ataladi. Uzoq yillar davomida bizning xo'jalik amaliyotimizda va iqtisodiy atamashunosligimizda u korxonalar mablag'lari (ishlab chiqarish fondlari) deb qabul qilindi va shu tushuncha bilan yuritildi. Bozor iqtisodiyati shakllanayotgan hozirgi davrda barcha mulkchilikka asoslangan korxonalar (shu jumladan, davlat korxonalari va muassasalar) o'zlarini tadbirkorlikning u yoki bu shakli sifatida namoyon qiladi. Shu sababli, biz xam, ular ixtiyoridagi ishlab chiqarish vositalari, tovarlar va pul mablag'larini tadbirkorlik kapitali, yoki qisqacha kapital deb aytamiz. Tadbirkorlik kapitali ishlab chiqarish va muomala jarayonida doimo harakatda bo'ladi va bu harakat jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o'tadi.

Pul kapitalning iqtisodiy faoliyat omillariga sarflanishi, ularning ishlab chiqarishda qullanilishi, ishlab chiqarilgan tovarlarning sotilishi va mablag'larning dastlabki shakliga qaytishi kabi bosqichlarni o'z ichiga olgan harakati uning doiraviy aylanishini tashkil qiladi.

Ishlab chiqarishga sarflanadigan har qanday sarmoya o'z harakatini pul shaklidan boshlaydi. Pul (P) tegishli resurslar bozorida ishlab chiqarish vositalari (Iv) va ishchi kuchi (Ik) sotib olishga sarflanadi (avanslanadi). Bu xolda pul shunchaki tovarlar sotib olishgagina emas, balki ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy faoliyat omillarini sotib olishga sarflanadi. Ushbu muomala soxasida pul kapitali o'z harakatning birinchi bosqichidan o'tadi.



Mazkur jarayon natijasida pul shaklidagi mablag'lar unumli shaklga aylanadi va ular ishlab chiqarish jarayonining potentsial omillari hisoblanadi. Kapital harakatida ikkinchi bosqich ishlab chiqarish (Ich) jarayoni hisoblanib uning natijasida unumli qiymatli tovar (T) shaklini oladi. Bu yerda xosil qilingan tovarlar qiymati ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchiga sarflanadi



Chunki xosil qilingan tovarlar qiymatida ishlab chiqarish vositalarining ko'chgan qiymati, ishchi kuchi qiymatining ekvivalenti va ular tomonidan vujudga keltirilgan qo'shimcha mahsulot qiymati ham mavjud bo'ladi.


Uchinchi bosqichda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish sodir bo'ladi  $T' \rightarrow Tb \rightarrow P'$  bu yerda: Tb- tovarlar bozori; ushbu bosqichda tovarlar mahsulotlar bozorida pulga aylanadi va mablag'lar o'zining dastlabki shakliga qaytib keladi. Dastlab, pul shaklida sarflangan mablag' yana pul shaklida, ammo miqdor jihatidan ko'proq bo'lib qaytadi.

Shu sababli uni  $P' = P + p$  yoki  $P = P + p$  ko'rinishida ifodalash mumkin.

Tovarlarni sotishdan tushgan pul kapitali yana ishlab chiqarish omillari sotib olish uchun sarflanadi va shu tariqa yuqoridagi harakat tuxtovsiz takrorlanaveradi.

Tadbirkorlik kapitalining o'z harakatida uch bosqichi izchil bosib o'tib, muntazam ravishda bir shaklidan boshqa bir shakliga aylanib, yana dastlabki shakliga qaytib kelishi uning doiraviy aylanishi deyiladi.

Tadbirkorlik kapitali doiraviy aylanishining



...Ich...T' → Tb → P'

doiraviy aylanishning birinchi va uchinchi bosqichlari muomala sohasida ya'ni resurslar va tovarlar bozarida ikkinchi bosqichi ishlab chiqarishda ruy beradi.

Xar bir bosqichda kapital muayyan harakat shakliga kiradi. Birinchi bosqichda u pul shaklida, ikkinchi bosqichda unumli yoki ishlab chiqarish omillari va uchinchi bosqichda tovar shaklida yuzaga chiqadi. Kapital doiraviy aylanish jarayonida, uning har bir shakli alohida vazifani bajaradi va shunga ko'ra ular kapitalning harakat shakllari deyiladi.

Kapital pul shaklining harakati iqtisodiy faoliyat uchun zarur shart—sharoitlari yaratishdan iborat. Bunga pulni ishlab chiqarish vositalari va ish kuchi sotib olishga avanslash orqali erishiladi. Kapital unumli shaklining harakati tovarlar ishlab chiqarish va xuddi shu jarayonda qiymatning o'sishiga erishishni ta'minlash vazifasiga qaratiladi.


Kapital tovar shaklining harakati orqali ishlab chiqarilgan tovarlar qiymatining baho shaklida ro'yobga chiqishi sodir bo'ladi va o'sgan qiymatning pulga aylanishi bilan tadbirkorning foyda olish maqsadi ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish uzluksiz davom etishi uchun tadbirkorlik kapitali o'zining bir shaklidan boshqa bir shakliga aylanib turishi va ayni paytda har uchala shaklda ham mavjud bo'lmog'i lozim. Agar tadbirkorlik kapitali bu shakllarning birortasida to'xtab qolgudek bo'lsa, uning harakatidagi uzluksizlik bo'ziladi.

Tadbirkorlik kapitali uning har uchala shakli bir vaqtda o'z doiraviy aylanishiga ega bo'ladi. Tadbirkorlik kapitali pul shaklining doiraviy aylanishi




Unumli kapitalning doiraviy aylanishi:



Tadbirkorlik kapitali tovar shaklining doiraviy aylanishi

Iv



Mablag'ning pul shaklining doiraviy aylanishi uchun bosqichlarning shunday izchillikda (bozor—ishlab chiqarish bozor) bo'lishi xoski, bunda ishlab chiqarish muommilalarning bir—birini to'ldirib turadigan ikki bosqichi ( $P \rightarrow T$  va  $T \rightarrow P$ ) o'rtasida bo'ladi, shuningdek, doiraviy aylanish boshlarida pul shaklida avanslangan mablag' uning oxirida yana o'sha shaklga qaytadi.

Tadbirkorlik kapitali unumli shaklining doiraviy aylanishi ishlab chiqarishning muommilaga nisbatan etakchi rol o'ynashini ochib beradi: ishlab chiqarish birinchi o'ringa quyiladi, ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qiymatlari tashkil topadi.

Kapital o'z harakatini qanday ijtimoiy—iqtisodiy shakllarda amalga oshirmasin, ular uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek, doiraviy aylanish va uning bosqichlarining harakat ko'rinishi umumiy. Barcha xolda mablag'lar uchta harakat shaklida tadbirkorlikning doiraviy aylanishi, ularning bosqichlari va harakat shakllari o'zlarining iqtisodiy mazmuni jihatidan farqlanadi.

#### 4. Tadbirkorlik kapitalining aylanish. Asosiy va aylanma kapital.

Tadbirkorlik kapitalining harakati bir doiraviy aylanish bilan to'xtab qolmaydi, balki u uzluksiz davom etib, takrorlanib turadi. Doiraviy aylanishlarning bunday uzluksiz takrorlanib, yangilanib turishi oqibatida dastlabki avanslangan qiymatning to'liq qoplanishi tadbirkorlik kapitalining aylanishi deyiladi.

Kapitalning ayrim qismlari turli tezlikda harakat qilishi tufayli sarflangan mablag'larning aylanish tezligi turlicha bo'ladi. Masalan, unumli iste'molda bo'lgan xom ashyo va materiallar qiymati, bir doiraviy aylanishdan keyin boshqa qismi masalan, mehnat qurollari qiymati bir necha doiraviy aylanishdan keyin o'zining boshlang'ich shakliga qaytadi.

Kapital o'zining aylanish hususiyatiga qarab 2 qismga: asosiy va aylanma kapitalga bo'linadi.

Asosiy kapital—ishlab chiqarish jarayonida bir nechta doiraviy aylanishlar davomida qatnashadi, o'zining qiymatini tayyorlanayotga mahsulotga (xizmatga) bo'lib asta—sekinlik bilan o'tkazib boradi va ashyolar — buyum shaklini o'zgartirmaydi.

Aylanma kapital—bir doiraviy aylanishi davomida to'liq iste'mol qilinadi, o'zining qiymatini ishlab chiqarish natijalariga to'liq o'tkazadi va ashyoviy — buyum shaklini ham yo'qotadi.

Asosiy va aylanma kapital farqlanadi. Ularning farqlanishi asosida quyidagi belgilar etadi:

1. **Ishlab chiqarish jarayonida harakat qilish hususiyatlari.** Asosiy kapital tayyorlanayotgan mahsulot moddiy tarkibiga buyum jihatdan kirmaydi, o'zok davr davomida faoliyat qiladi (masalan stanok—10 yil, bino—50 yil), o'zining oldingi natural—buyum shaklini bir nechta doiraviy aylanishlar davomida saqlab qoladi.

Aksincha aylanma kapital (masalan paxta, jun, metall) har bir doiraviy aylanishda to'liq unumli iste'mol qilinadi, o'zining buyum – ashyoviy shaklini yo'qotadi va yangi turlari bilan almashi nadi.

2. **Qiyamatini ishlab chiqarish natijalariga o'tkazish xususiyati.** Asosiy kapital ishlab chiqarish jarayonida qator yillar davomida faoliyat qiladi ularning qiymati tovarlarga qisman o'tib boradi. Agar stanok 10 yil, binolar esa 50 yil davomida foydalanilsa, bunda har yili mahsulot qiymatiga stanok qiymatining 1/10 va bino qiymatining 1/50 qismi kiradi. Xom-ashyo va materiallar yoqilgi va energiya kabi aylanma kapital elementlari har bir doiraviy aylanishda to'lig'icha unumli iste'mol qilinadi va ularning qiymati mahsulot va xizmatlar qiymatiga to'lig'icha o'tadi

3. **Kapital qiymatining aylanish usuli.** Qiymatining aylanish usuli bo'yicha asosiy kapital qiymati ikkiga bo'linadi; qiymatning mahsulotga o'tgan qismi mehnat maxsuli bilan birga muomalada bo'ladi va doiraviy aylanish jarayonida tovar shaklidan pul shakliga o'tadi, xamda qoplash fondi shaklida asta – sekin jamg'ariladi: mahsulotga o'tmagan qismi ishlab chiqarish doirasida mavjud bo'lgan asosiy kapitalda gavalanganicha qolaveradi. Iste'mol qilingan mehnat predmetlari qiymati to'la—to'kis aylanib, yangi mahsulotlar qiymati tarkibiga kiradi. Mehnat vositalari o'z aylanishi davomida bir qator izchil doiraviy aylanishlarga ishtirok qiladi, vaxolangki mehnat predmetlarining aylanish vaqti bir doiraviy aylanish davriga to'g'ri keladi.

4. **Qayta tiklanish usuli.** Qayta tiklanish usulida asosiy kapitalning ishlab chiqarish natijalariga o'tkazilgan qiymati, bu vositalar bir qator doiraviy aylanishlarni o'z ichiga olgan muayyan davr davomida, edirilib, ishdan chikkandan keyin pul shaklidan yangi asosiy kapital shakliga aylanadi. Aylanma kapital har bir doiraviy aylanishdan keyin mahsulot ashyoviy buyum shaklida qaytib tiklanadi.

Tadbirkorlik kapitali o'z harakatida ishlab chiqarish va muomala bosqichlarini bosib o'tadi. Shu sababli uning aylanish vaqti (Av) ishlab chiqarish vaqti (Iv) va muomala vaqti (Mv) yigindisidan iborat:

$$Av=Iv+Mv$$

Sarflangan mablag'larning ishlab chiqarish jarayonida bo'lish vaqti, ya'ni ishlab chiqarish vositalari sotib olingandan tovar tayyor bo'lgan davrgacha ishlab chiqarish vaqtini, muomala jarayonida bo'lish vaqti, ya'ni ishlab chiqarish vositalari sotib olish va tayyor tovarlarni sotish uchun ketgan vaqt muomala vaqtini tashkil etadi. Ishlab chiqarish vaqti uch qismdan iborat bo'ladi.

1. Bevosita mehnat jarayoni yoki ish davri (Id).

2. Turlit anaffuslar davri (Td).

3. Ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarish zaxiralarida bo'lish, davri (Zd)  $Iv=Id+Td+Zd$ .

Ish davri—ishlab chiqarish vaqtining asosiy tarkibiy qismidir. Bu vaqt davomida mahsulot mehnatning bevosita ta'siri ostida bo'ladi. Ish davrining o'z unligi ishlab chiqariladigan mahsulot harakteriga, qo'llaniladigan mehnatning miqdori va uning unumdorligi darajasiga bog'liqdir.

Tanaffuslarni ikki sabab: tabiiy jarayonlarning mehnat buyumlariga ta'sir ko'rsatish zarurligi va tashkiliy harakterdagi sabablar taqozo etadi. Birinchi xolda, mehnat buyumlari u yoki bu darajada uzoq davom etadigan jismoniy, kimyoviy va biologik jarayonlarning ta'siri ostida bo'ladi. Buning natijasida muayyan foydali samaraga erishiladi yoki iste'mol qiymatlarining shakli o'zgaradi. Bunda mehnat jarayoni qisman yoki to'liq to'xtaydi, ishlab chiqarish jarayoni esa davom etadi. Tashkiliy sabablarga ko'ra tanaffuslar vaqti korxonalarining ish rejimi bilan, shuningdek ishlab chiqarishni tashkil kilish xususiyatlari bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish vositalarning zaxira va extiyotlar sifatida bo'lish vaqti bu. ularning ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan davrdir. Tez quritadigan, tez achitadigan, umuman texnologik jarayonlarni tezlashtiradigan yangi texnika va texnologiyalarning qo'llanilishi tanaffus davrining va binobarin ishlab chiqarish vaqtining qisqarishiga olib keladi. Transport shaxobchalarini rivojlantirish, xo'jalik aloqalarining samarali tizimini belgilash, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirish, extiejlarni puxta hisobga olish, muomala vaqtini qisqartirish uchun muxim ahamiyatga ega.

Kapitalning aylanish tezligi ulardan foydalanish samaradorligiga jiddiy ta'sir qiladi. Aylanish tezligi muayyan davr ichida (A) qilingan aylanishlar soni (p) yoki bir aylanishning uzun—qisqaligi (a) bilan belgilanadi:  $P=A/a$ ;  $a=A/P$

Agar kapital aylanish uzunligi uch oyni (90 kunning) tashkil etsa, u vaqtda  $p=12/3=360/4=4$ ;  $a=360/4=90$  kun bo'ladi.

Turli soxalarda kapitalning aylanish vaqti ularning ishlab chiqarish va muomaladagi sharoitiga karab turlicha bo'ladi. Masalan, eng sanoatda band bo'lgan kapitalning aylanish vaqti, kemasozlik va mashinasozlik sanoatlaridagi kapitalning aylanishiga nisbatan qisqa bo'ladi.

Avanslangan qiymatning aylanish tezligi ko'pgina omillarga bog'liq. Bulardan eng muximlari: unumli kapitalning qanday nisbatda asosiy va aylanma kapitalga bo'linishidir. Shu sababli asosiy va aylanma kapital tushunchalari iqtisodiy mazmunini qarab chiqamiz.

#### **4. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va undan foydalanish samadorligi.**

Tadbirkorlik kapitali tarkibida asosiy kapital, belgilovchi rol o'ynaydi. Uning miqdor va sifat jihatdan o'sishi, takomillashib borishi ishlab chiqarishning yuksak texnika darajasini ta'minlaydi va shu asosda samaradorligini o'stiradi.

Asosiy kapitalning miqdor jihatdan o'sishi unga qo'yiladigan investitsiyalar hajmiga, sifat jihatdan takomillashishi esa investitsiyalarning tarkibiga bog'liq bo'ladi. 1998 yil respublikada asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalar xajmi 369,7 mlrd. so'mni tashkil kilib, uning 239,4 mlrd. so'mi yoki 64,8 foizi qurilish — montaj ishlariga sarflangan. Mablagn bilan ta'minlanish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalar tarkibi quyidagi ma'lumotlar bilan karakterlanadi.



I-jadval. Investitsiyalarning ta'minlanish manbalari.

| Ko'rsatkichlar | Jami investitsiyalar | Shu jumladan        |                              |                                     |  |                 |
|----------------|----------------------|---------------------|------------------------------|-------------------------------------|--|-----------------|
|                |                      | Byudjet mablag'lari | Axoli va karxona mablag'lari | Bank kreditlari va boshqa qarzlilar | Chet el investitsiyalari (kreditlar bilan birga) | Boshqa manbalar |
| Mird so'm      | 369,7                | 89,5                | 181,9                        | 22,9                                | 75,0   | 0,4             |
| % hisobida     | 100,0                | 24,2                | 49,2                         | 6,2                                 | 20,3   | 0,1             |

Milliy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan asosiy kapitalning miqdoriy o'sishiga emas, balki ulardan olinadigan samarani oshirishga, ya'ni asosiy kapitalning har bir so'miga to'g'ri keladigan mahsulot xajmini ko'paytirishga bog'liqdir. Kapitalning samaradorlik darajasi turli omillarning ta'siri ostida shakllanadi, ular orasida: asosiy kapitalning tarkibi (tarmoq tarkibi, turlar bo'yicha tarkibi) asosiy kapitaldan foydalanish va taqsimlash samaradorligi; eskirgan mehnat vositalarini yangilari bilan amashtirish yo'llari va usullari muxim ahamiyatga ega.

Asosiy kapitalning tarmoq tarkibi ularning ayrim tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi va kapitalning umumiy qiymatidan har bir tarmoqning xissasi bilan harakterlanadi. Agar asosiy kapital tarkibida ko'proq texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish samaradorligini belgilaydigan tarmoqlarning ulushi oshsa, ularning tarmoq tarkibining yaxshilanganligini bildiradi.

Asosiy kapitalning turlari bo'yicha tarkibi ularning umumiy qiymatida, har bir turlarining xissasi va nisbati bilan harakterlanadi.

Asosiy kapitalning ayrim turlari ishlab chiqarishda o'z ishtiroki bo'yicha bir xil rol o'ynamaydi. Agar binolar asosan ishlab chiqarish jarayonining bir me'yorda borishini ta'minlab mehnatning umumiy sharoitini tashkil kilib, ishlab chiqarish samaradorligiga bilvosita ta'sir ko'rsatsa mehnat qurollari (ish mashinalari, uskunalari, va boshqalar) ishlab chiqarish jarayonida faol rol o'ynaydi va ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy kapitalning mulk shakllari bo'yicha tarkibi, kapitalning umumiy qiymatida har bir mulk shaklining xissasi bilan harakterlanadi.

Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish natijasida asosiy kapitalning mulk tarkibida davlat mulkining ulushi kamayib, boshqa mulkchilik shakllari va shu jumladan, xususiy mulkning ulushi ortib boradi. Bu o'z ifodasini mulkchilik shakllari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida ham topadi. Respublikada mulkchilik shakllari bo'yicha asosiy kapitalga qo'yilgan investitsion mablag'lar tarkibi quyidagi ma'lumotlar bilan harakterlanadi.

**O'zbekistonda asosiy kapitalga qo'yilgan investitsion mablag'larning  
mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi (% hisobida)**

|    | Mulkchilik shakllari  | Yillar |       |
|----|-----------------------|--------|-------|
|    |                       | 1997   | 1998  |
| 1. | Davlat mulki          | 67,7   | 59,4  |
| 2. | Nodavlat mulki undan: | 32,3   | 40,6  |
|    | xususiy               | 10,1   | 19,1  |
|    | xissadorlik           | 8,1    | 8,0   |
|    | qo'shma (zaralash)    | 9,9    | 9,9   |
|    | boshqa shakllari      | 4,2    | 3,6   |
|    | jami                  | 100,0  | 100,0 |

Mehnat vositalari ishlab chiqarish jarayonida foydalanish natijasida jismoniy eskirib boradi, ya'ni texnik ishlab chiqarish xossasini va iste'mol qiymatini asta-sekin yo'qotib boradi. Ayni vaqtda ularning qiymati kamayib, normal sharoitda mehnat vositalarining harakat qilishi, qiymatning mahsulotga o'tkazish hisobiga jismoniy yoyilish to'la qoplanadi. Agar bu sharoit yomon bo'lsa (foydalanish tezligi past, to'xtab turishlar ko'p va xokazo) eskirish qoplanmaydi va u yukotishni bildiradi. Bu yukotish asosiy kapitalning harakatsiz turish natijasidagi eskirishiga teng bo'ladi.

Mehnat vositalari jismoniy eskirish bilan birga ma'naviy jihatdan ham eskiradi. Ma'naviy eskirishning ikki xil shakli mavjud bo'lib, u bir-biridan farq qiladi.

Manaviy eskirishning birinchi shakli mehnat vositalari tayyorlanadigan tarmoqlarda mehnat unumdorligi oshganligi natijasida ular qiymatining pasayishida ifodalanadi. Bu shakl ishlab turgan uskunalarni yangilari bilan almashtirishni zarur kilib qo'ymaydi, chunki ishlab turgan va yangi uskunalarining texnika darajasi bir xil bo'lib qolaveradi. Birok, ancha past qiymatga ega bo'lgan mehnat vositalarining keng qo'llanishi shunga olib keladiki, ilgari sotib olingan mehnat vositalari qiymatining bir qismi yukoladi. Masalan: Agar oldin bironta stanok 100 ming so'mga olib kelib o'rnatilgan bo'lsa, bu yil uni 70 ming so'mga sotib olish mumkin bo'ladi. Shunda oldingi stanokka sarflangan qiymatning 30 foizi yukoladi.

Manaviy eskirishning ikkinchi turida ancha mukammal, arzon va unumli mashinalarning ishlab chiqarishga kirib kelishi bilan ilgari o'rnatilgan kam tejamli mehnat vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmay qoladi va natijada ular yangilari bilan almashtiriladi. Manaviy eskirishdan ko'riladigan zararining oldini olishning asosiy yo'li mehnat quollaridan ancha samarali foydalanish hisoblanadi.

**Amortizatsiya va uning normasi.** Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlar amortizatsiya fondi yordamida qoplanadi. Amortizatsiya asosiy kapital xarakatidagi ikkinchi bosqich hisoblanadi.

Amortizatsiya mehnat vositalari qiymati yoyilib borishiga qarab, uni asta-sekin ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tkazish va pul shakliga aylantirish xamda asosiy kapitalni keyinchalik takror ishlab chiqarish maksadlarida pul resurslarini jamg'arish jarayonidan iborat. Asosiy kapitalning eskirishi bilan amortizatsiya o'rtasida mustaxkam aloqa bor. Biroq bular bir xil tushunchalar emas. Eskirish mehnat vositalaridan foydalanish vaqtida ularning texnik-ishlab chiqarish xossalarni asta-sekin yuqotish natijasida qiymatning kamayishi va mahsulotga o'tkazilishi jarayonini aks etiradi. Amortizatsiya ancha murakkab jarayon bo'lib, iste'mol qilingan mehnat vositalari qiymatini ularning yoyilishga muvofik ravishda mahsulotga o'tkazish va uni pul shakliga aylantirish, iste'mol qilingan mehnat vositalarining o'zini qoplash maqsadida pul fondini jamg'arish jarayonini aks etiradi. Shunday qilib, eskirish amortizatsiyaning dastlabki shart-sharoitidir.

Amortizatsiya ajratmalari ishlab chiqarish jarayonida harakat qiluvchi asosiy kapital qiymatining mahsulotga o'tkazilgan qismidan iborat. Amortizatsiya ajratmalari mahsulot tannarxiga kiritiladi. Mahsulot sotilgandan keyin tushgan mablag'ning amortizatsiya ajratmalariga teng bo'lgan qismi korxonalarining bankdagi hisobida pul jamg'armasi shaklida to'planib va ularning amortizatsiya fondini tashkil etadi.

Amortizatsiya normasi amortizatsiya ajratmalari yillik summasining shu asosiy kapital qiymatiga nisbatan normativ sifatida aniqlanadi va foizda ifodalanadi. Amortizatsiya ajratmalarining umumiy normasi asosiy kapitalni takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlariga muvofik ravishda ikki qismdan iborat bo'ladi: bir qismi asosiy kapitalni to'la qoplashga (kayta tiklashga), ikkinchisi ularni qisman qoplashga (kapital remont kilishga) mo'ljallanadi.

Amaliyotda umumiy yillik amortizatsiya normalarini ( $A_n$ ) belgilashda: asosiy kapital qiymati ( $Kas$ ) asosiy kapitalning harakat qilishi muddati davomida kapital remont qilish uchun sarflar, eskirgan mehnat vositalarini tugatishdan olingan mablag' ( $Ot$ ) va shu vositaning xizmat davri ( $x_d$ ) hisobga olinadi:

$$A_n = \frac{Kas + R_k - Ot}{x_d} \times 100$$

Amortizatsiya normalari mehnat vositalari jismoniy va ma'naviy yoyilishining xaqiqiy miqdorini aks ettirishi kerak. Oshirilgan normalar mahsulot tannarxini sun'iy ravishda oshirib yuboradi, pasaytirilgan normalar esa asosiy kapital tiklanish davrini, kechiktiradi va shu tariqa tarakkiyotiga to'g'onoq bo'ladi.

Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligining oshishi, avvalo qo'shimcha kapital mablag' sarflanmasdan turib mahsulot xajmini ko'paytirishda o'z ifodasini topadi.

Bir tomondan, milliy mahsulot yoki milliy daromadning o'sish sur'atlari bilan, ikkinchi tomondan, asosiy kapitalning o'sish suratlari o'rtasidagi nisbat milliy iqtisodiyot miqyosida asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligining umumlashuvchi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan asosiy kapital qiymati o'rtasidagi aloqani aks ettiradi, u o'zaro bog'langan ikki ko'rsatkichi-kapitaldan olinadigan samara ( $K_s$ ) va mahsulot kapital sig'imi ( $K_{sig}$ ) ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi. Milliy iqtisodiyot miqyosida asosiy kapitaldan olinadigan samara darajasi ishlab turgan asosiy kapitalning har bir so'miga to'g'ri keladigan yalpi milliy mahsulot yoki milliy daromadni, kapital sig'imi darajasi esa ishlab chiqarilgan milliy daromad yoki yalpi milliy mahsulotning bir so'mi hisobiga asosiy kapital qiymatining to'g'ri kelishini harakterlab beradi:

$$K_s = \frac{YaMM}{K_{as}} \quad \text{yoki} \quad F_s = \frac{Md}{K_{as}}$$

$$K_{sig} = \frac{K_{as}}{Yamm} \quad \text{yoki} \quad K_{sig} = \frac{K_{as} (F_{as})}{M_d}$$

Korxonada miqyosida kapitaldan olinadigan samara darajasi asosiy kapitalning bir so'mi evaziga korxonada ishlab chiqaradigan mahsulot miqdori ( $M$ ) bilan, kapital sig'imi esa korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotning ( $M$ ) bir so'm hisobiga qancha asosiy kapital qiymati to'g'ri kelishi bilan harakterlanadi:

$$K_{samara} = \frac{M}{K_{as}}, \quad K_{sig, kor} = \frac{K_{as}}{M}$$

Korxonadagi mehnat vositalarining aynm turlaridan foydalanish samaradorligi natural ko'rsatkichlari yordami bilan aniqlanadi. Masalan, bir to'quv dastgohida metr hisobida bir kunda to'qilgan mato, bir avtomobilida bir kunda tonna hisobida tashilgan yuk va xokazo.

### Aylanma kapital harakati va samaradorligi

Asosiy kapital (fondlar) harakati aylanma kapital va muomala mablag'lari harakati bilan o'zviy bog'liq. Shu sababli aylanma kapital va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini aniqlash va oshirish omillarini ko'rsatib berish muxim axamiyatga ega.

Aylanma kapitalning foydalanishning umumlashuvchi ko'rsatkichi xalq xo'jaligi miqyosida mahsulotning material sig'imi, mahsulot yaratishda iste'mol qilingan aylanma kapital qiymatining ( $A_1 + A_2 + A_3 + \dots + A_n$ ) yalpi milliy mahsulot ( $YaMM$ ) yoki milliy daromadga ( $Md$ ) nisbati sifatida aniqlanadi:

$$\text{Msig} = \frac{\text{Ap}}{\text{Md}}$$

Korxonada miqdoridagi material sig'imi (Msig kor) unda iste'mol qilingan aylanma kapital qiymatining u ishlab chiqaradigan mahsulot qiymatiga nisbat sifatida aniqlanadi.

$$\text{Msig kor} = \frac{\text{Ap}}{\text{M}}$$

Sarflangan aylanma kapital birligi hisobiga ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot material sig'imi ko'rsatkichiga teskari miqdordir.

Aylanma kapitalning ayrim turlaridan foydalanish samaradorligi darajasini aniqlash uchun metall sig'imi, energiya sig'imi va shu kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi u bilan aylanma kapital o'rtasidagi nisbatga bog'liqdir. Bevosita ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan aylanma kapitalning salmog'i qanchalik ko'p bo'lsa, aylanma mablag'lardan shunchalik samarali foydalaniladi.

Amaliyotda aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ularning aylanish koeffitsienti bilan o'lchanadi. Bu koeffitsient bir yil ichida sotilgan mahsulot qiymatining aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'iga nisbati sifatida aniqlanadi. Bu ko'rsatkich aylanishlar sonini va ayni vaqtda aylanma mablag'lar keladigan sotilgan mahsulot summasini ko'rsatib beradi.

Aylanish o'zunligi (a) yildagi kunlar sonining aylanishlar soniga (p) nisbati bilan aniqlanadi.

$$A = \frac{360}{P}$$

Agar bir yilda aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldig'i 10 mln so'm bo'lganida 60 mln. so'mlik mahsulot sotilgan bo'lsa, aylanish koeffitsienti 6 ni ( $p=60/10$ ) tashkil qiladi. Aylanma mablag'lar 6 aylanish qilib, bir aylanishning o'zunligi 60 kunni ( $360/6$ ) tashkil qiladi.

Aylanma mablag'lar tezligini oshirish ularga bo'lgan talabni kamaytirdi. Masalan, yuqoridagi misolda aylanish o'zunligini 6 o'miga 8 gacha ( $p=360/45$ ) ko'paytirishga olib keladi. Aylanma mablag'larga bo'lgan extiyoj 10 million so'm o'miga, 7,5 mln. so'mni tashkil etadi ( $((60 \times 4)/360)$ ).

Binobarin, aylanma mablag'larning aylanishini 15 kunga tezlatish 2,5 mln. so'mlik aylanma mablag'larni bo'shatib beradi va korxonada aylanma

mablag'larining o'sha summasida mahsulot chiqarishni 20 mln. so'mga ko'paytirishni [(8x10)-60] ta'minlaydi.

Aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtiradigan asosiy omil ishlab chiqarish vaqtini avvalo ish davrini, shuningdek, muomala vaqtini qisqartirishdir.

### Asosiy tayanch tushunchalar

**Tadbirkorlik faoliyati** – foyda olish maqsadida tahlika (tavakkalchilik) bilan hamda mulkiy javobgarlik asosida va amaldagi qonunlar doirasida o'z tashabbusi bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir.

**Hissadorlik jamiyati** – ko'proq foyda olish maqsadida mehnat, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs (kapital) larini birlashtirishgan uyushmadir.

**Aksiya** – bu uning egasi hissadorlik jamiyati kapitaliga o'zining ma'lum hissasini qo'shganligi va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog'ozdir.

**Aksiya kursi** – qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyalarning sotiladigan bahosidir.

**Obligatsiya** – uning egasi jamiyatga qayd qilingan foiz olish sharti bilan pul qo'yganligini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir.

**Ta'sischiлик foydasi** – sotilgan aksiyalar va hissadorlik korxonasiga haqiqatda qo'yilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farqdan iborat bo'lib, jamiyatni ta'sis etuvchilar o'zlashtiradi.

**Dividend** – aksiya egasi o'zlashtiradigan daromad turidir.

### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tadbirkorlik faoliyatiga ta'rif bering. «Tadbirkor» va «mulkdor» tushunchalarini izohlang.
2. Tadbirkorlikning vazifalarini sanab ko'rsating. Nima uchun tadbirkor tahlika (tavakkalchilik) bilan faoliyat ko'rsatadi?
3. Tadbirkorlikning rivojlanish shart –sharoitlari nimalardan iborat?
4. Tadbirkorlikning shakllarini va ularning xususiyatlarini ko'rsating.
5. Hissadorlik jamiyatiga ta'rif bering. Aksiya nima, aksiya kursi qanday aniqlanadi? Aksiya kursiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsating.
6. Tadbirkorlik kapitali nima? Uning tarkibiy tuzilishi qanday?
7. Tadbirkorlik kapitali ishlab chiqarish va muomala jarayonida qanday bosqichlardan o'tadi xamda qanday shakllarga kiradi?
8. Kapitalning aylanishiga tavsif bering. "Aylanish vaqti qanday vaqtlarni o'z ichiga oladi? Ulariga tushuncha bering.
9. Kapitalning aylanish tezligi qanday aniqlanadi? Kapitalning aylanish o'zunligi ikki o'yni tashkil qiladi deb faraz qilsak, bir yilda necha marta aylanadi va bir aylanishining uzunligi qancha davom etadi?

10. Unumli kapital asosiy va aylanma kapitalga qanday mezonlar bo'yicha ajratiladi? Asosiy va aylanma kapitalga tavsif bering.
11. Amortizatsiyaning iqtisodiy mazmuni nimadan iborat? Uning normasi qanday aniqlanadi?
12. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi qanday ko'rsatkichlar orkali aniqlanadi? Aylanma kapital va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini tushuntiring. Avanslangan kapital qiymatning umumiy va real aylanishi qanday aniqlanadi?

#### Adabiyotlar:

49. Karimov I. A. «Bizning bosh maksadimiz – jamiyatni demokratizatsiya va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir», «O'zbekiston» 2005.
50. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz», T. «O'zbekiston», 2000y.
51. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari.» -T. «O'zbekiston», 1998.
52. «To'g'ridan to'g'ri xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel.
53. Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T., «Moliya» nashriyoti, 2002.
54. A. Qodirov. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
55. D. Tajiboeva. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
56. Makkonel K., Bryu S. «Ekonomiks», M.2002.
57. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Rayzberga.- Uchebnik: - INFRA – M.2004.
58. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof. M. N. Chepurina. Uchebnik: - INFRA – M.2004.
59. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsh. red. akad. B. I. Bidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA – M.2004.
60. Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
61. E. F. Borisov Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
62. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
63. Ioxin B. Ya. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
64. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy, d.e.n., prof. T. B. Chechelovoy. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

13. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalq so'zi - 25 mart.
14. Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov – 2005.

15. Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. Yaxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
16. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovi ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

**Veb-saytlar:**

28. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
29. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
30. <http://infoteka.economics.ru>
31. [www.finansy.ru](http://www.finansy.ru)
32. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
33. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
34. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
35. [www.iahon.mfa.uz](http://www.iahon.mfa.uz)
36. [www.budjet.rf.ru](http://www.budjet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ro'zani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof. Sh.Sh.Shodmonov, G.D.Bobabekova, G.T. Xalikova tomonidan tayyorlangan «Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v prepodovanii ekonomicheskoy teorii». T-2004, «Innovatsionnye metody obucheniya v ekonomicheskoy obrazovanii» va Sh.Sh. Shodmonov, T.M.Ziyaeva, M.T. Yaxshievlar tomonidan tayyorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.



## ISH HAQI BA MEHNAT MUNOSABATLARI.

Kirish

4 soat

Reja:

1. Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Ish haqi nazariyasi
2. Ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari.
3. Mehnat munosabatlari va ularning evolyutsiasi.

Bu mavzu kishilarning hayot kechirish va turmush darajasini aniqlab beruvchi, daromadlarning asosiy tush bo'lgan ish haqini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Avvalo ish haqining iqtisodiy tabiati bilan bog'liq muammolar va uning shakllari, hamda bozor munosabatlar sharoitida ish haqi darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar qarab chiqiladi. Tahlil ish haqi stavkasini tabaqalashtirishni tushuntirish bilan davom ettiriladi. Mavzuda mehnat munosabatlarining iqtisodiy mazmuni va uni shakllantirishda turli shartnomalarning va kasaba uyushmalarining roliga alohida o'rin beriladi.

## 1. Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Ish haqi nazariyasi

Ish haqining mazmunini to'g'ri tushunish uchun eng avvalo yaratilgan milliy mahsulotning taqsimlanish printsiplarini yaxshi tushunish lozimdir. Mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning (tovar va xizmatlarning) taqsimlash printsiplari bo'yicha turlicha nazariyalar mavjud. Bu nazariyalarning hammasini to'g'ri deb ko'r-k'rona qabul qilib, mamlakatimizda joriy qilish to'g'ri bo'lmaydi. Shuning uchun ularni tahlil qilib, biz uchun zarur va maqbul joylarini ya'ni hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitiga, mamlakatimiz sharoitiga mos keladigan tomonlarini umumlashtirib, o'z xulosalarimizni berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ma'lumki keyingi davrlarda bizning mamlakatimizga ko'plab kirib kelgan bozor iqtisodiyotiga doir adabiyotlarning ko'pchiligida «uch omil» nazariyasi deb atalmish nazariya keng tarqalgan.

Ularda daromadlarning hosil bo'lishda uchta omil: yer, kapital va mehnat qatnashadi deyiladi. Bu g'oyaning asoschililaridan biri frantsuz olimi J.B.Sey «ishlab chiqarishning uch omili» degan g'oyani ilgari surib, unda tovarlarni ishlab chiqarishda mehnat, yer va kapital bab barobar qatnashadi. Ular ya'ni uch omil, hamma daromadlar manbaidir va birobarm daromadlar ular o'rtasida taqsimlanadi deb ko'rsatadi.

Uning bu g'oyasi 1847-1938 yillarda yashab ijod qilib o'tgan amerikalik iqtisodchi olim J.B. Klarkning qo'shilgan omil (keyingi qo'shilgan kapital yoki

ishchi) unumdorligi degan g'oyasiga asos bo'lib xizmat qiladi. J.B. Klark o'zining «Boyliklarning taqsimlanishi» nomli asarida yaratilgan boylik uchchala omil o'rtasida ularning har biri yaratgan miqdoriga (ya'ni unumdorligiga) qarab taqsimlanadi deb ko'rsatdi. Bunda u davom etib, agar mashinalar soni ko'paymasdan ishchilar soni ortib borsa, har bir qo'shilgan ishchi oldingisiga qaraganda kam unum keltiradi, uning mehnat unumdorligi kamayib boradi, ishchilarning yaratilgan mahsulotdagi xissasi mana shu kamayib boruvchi unumdorlikning ishchilar soniga ko'paytirilganiga teng bo'ladi deb ko'rsatadi.

Sev va Klarklarning g'oyasidagi ijobiy tomonni shundan iboratki,

a) kapital, yer va ishchi kuchi (jonli mehnat)ning har uchchalasi tovar yoki xizmatning nafilligini yaratishda qatnashadi.

b) yaratilgan nafillik miqdori bilan bu uchchala omilning miqdori va unumdorligi, o'rtasida bog'liqlik mavjudki, agar bu uchchala omil bir biriga mos ravishda miqdor va sifat jihatidan oshsa, tovar va xizmat xajmi oshadi. (Buni biz 2-inchi mavzuda ko'rsatganmiz).

Ammo bu g'oyalarning kamchiligi quyidagilardan iborat bo'lib, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitiga to'g'ri kelmaydi.

1. Sev va Klark tovar va xizmatlarda gavalangan mehnatning ikki yoqlama xarakterini va undan kelib chiquvchi tovarning ikki xil xususiyatini tushunmaganliklari tufayli kapital va yer tovar nafilligini yaratishda qatnashsada qiymat yaratmasliklarini ular faqat eskirishiga teng, ya'ni amortizatsiya ajratmalariga teng qiymatni ya'ni yangi tovarga jonli mehnat ta'sirida o'tkazishini, yangi qiymat esa faqat jonli mehnat tomonidan yaratilishini tushunmagan edilar.

2. Klark tomonidan yaratilgan qo'shilgan mehnat unumdorligining kamayib borish qonuni turli omillarning bir-biriga mosligi ta'minlanmagan, ko'r-korona xarajatlar oshirib borilgan, hamda ilmiy-texnika taraqqiyoti mutlaqo to'xtab qolgan davrga (holatga) mos kelib, hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga to'g'ri kelmaydi.

3. Sev va Klark aytganlaridek, hozirgi davrda yaratilgan boylik, to'g'rirog'i milliy mahsulotning hammasi bu uchchala omilning miqdori va unumdorligiga qarab taqsimlanmaydi, balki uning amortizatsiya ajratmalari, markazlashgan fondlar tashkil qilingandan qolgan qismi shu omillarga qarab uning egalari o'rtasida taqsimlanadi.

Sev va Klarklardan tashqari ayrim oqimlar masalan Lassolchilar Mehnat hamma boylikning va madaniyatning manbayidir, shuning uchun hamma daromad hamma jamiyat a'zolari o'rtasida teng taqsimlanishi zarur deb ko'rsatadilar.

Lassolchilar birinchidan boylikning faqatgina mehnat emas, shu bilan birga yer (tabiat) va kapital ham bo'lishini. uning nafilligini yaratishda har uchchala omil qatnashishini unuttidilar.

Ikkinchidan, ularning yaratilgan mahsulotni hamma jamiyat a'zolari o'rtasida teng taqsimlash zarur degan g'oyasi mutlaqo noto'g'ri bo'lib, bunday

holatda mahsulotni ko'paytirishga xech qanaqa qiziqish bo'lmasligini tushunmadilar. Undan keyin sobiq sotsialistik mamlakatlarda jumladan SSSRda mahsulot va daromadlar davlat qo'lida bo'lib, mehnatga qarab taqsimlanadi degan g'oya hukmron bo'ldi. Lekin uning talablari va printsiplari bajarilmadi. Davlat, partiya va xo'jalik rahbarlari yaratilgan mahsulotning ko'pchilik qismini o'z hoxishlariga, davlat foydasiga taqsimlardilar va turli yo'llar bilan o'zlashtirib, undan foydalandilar, shu vaktning o'zida mehnatkash o'z mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga yarasha xaq ola olmadilar.

Mana shu yuqoridagi aytilgan nazariy fikrlarni va amaliy tajribalarni hamda hozirgi davrda bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar talablarini hisobga olib, yaratilgan mahsulotni taqsimlashning asosiy yo'nalishlarini ko'rsatishga harakat qilamiz.

a) umuman olganda mahsulotni, binobarin daromadlarni taqsimlash ham doim bir xil bo'lmay, balki shu davrda amal qilib turgan iqtisodiy munosabatlar tizimiga, jumladan mulkchilik munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoitlari ya'ni, kapitalga mulkchilikning turli shakllari mavjud bo'lgan, yerga esa davlat mulki bo'lib turgan sharoitda yaratilgan milliy mahsulot mulk egalari (davlat, jamoa, xususiy, shaxsiy) va ishchi kuchining egasi bo'lgan ishchi-xizmatchilar o'rtasida taqsimlanadi.

Bunda albatta umum mamlakat manfaatlarini ko'zlab ish olib boruvchi Davlat ixtiyoriga daromadlarning bir qismi taqsimlanadi.

b) milliy mahsulotdan eng avvalo shu mahsulotni yaratishda qatnashgan ishlab chiqarish vositalarining qiymati, aniqrog'i, hozirgi davrda ichki milliy mahsulotdan amortizatsiya summasi ajratib qo'yiladi. chunki bu summa asosiy ishlab chiqarish vositalarini (asosiy kapitalni) qayta tiklash uchun zarurdir.

v) Undan keyin turli xil tabiiy ofat, ish tashlash va boshqa turli xil xodisalarning ta'sirini bartaraf qilish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni o'z maromida to'xtovsiz olib borish uchun zaxira fondlari, qariyalar, bolalar, nogironlar va turli boshqa turli kam ta'minlangan oilalarni himoya qilish uchun ijtimoiy himoya fondlariga ajratiladi.

g) davlatni boshqarish, mamlakat mudofaasini mustahkamlash, aholining tinch hayotini va mehnatini qo'riqlash uchun mamlakat miqyosida fan - madaniyatni, ta'lim tizimini, sog'liqni saqlashni rivojlantirish uchun fondlar ajratiladi (bu ajratmalar ko'pdan - ko'p davlat soliqlari tarzida amalga oshiriladi).

Ichki milliy mahsulotning yuqorida aytilganlardan qolgan qismi hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital, yer egalari va ishchi kuchi egalari o'rtasida taqsimlanadi va jamiyat a'zolarining ixtiyoriga kelib tushadi.

Chunki bu jarayon natijasida ishlab chiqarishda qatnashgan ishchi kuchi egasi va boshqa omillar egalari - mulkdorlarning mahsulotdagi ulushi aniqlanadi,

hamda ularning omilli daromadlari sifatida shakllanadi. Bu ish haqi, foiz, renta va foyda shaklidagi daromad turlari ko'rishini oladi.

**Yaratilgan ichki milliy mahsulotning bir qismi ishchi va xizmatchilarga tegishli bo'lib, ular o'rtasida mehnatning miqdori, sifati va unumdorligiga qarab taqsimlanadigan qismi ish haqi fondi deb yuritiladi.** Ish haqi hozirgi davrda hamma mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Ish haqining mazmunini aniqlashda turli iqtisodchilar turli tomondan yondashib, unga turlicha tarif beradilar.

Masalan, «Yashash uchun vosita minimumi» ( D.Rikardo va T.Maltuslarning) kontsepsiyasida ish haqini yashash uchun zarur vositalarning fiziologik minimumi bilan bir xil deb hisoblaydi. Lekin ish haqini yashash uchun zarur vositalarning fiziologik minimumi bilan bir xil deb qarash to'g'ri emas. Bu minimum o'z ichiga ishchi kuchi shakllanadigan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlar tug'dirgan ehtiyojlarni ham oladi. Shu bilan birga ishchi kuchi bahosining quyi chegarasini yashash uchun zarur vositalar miqdorining minimumi bilan aniqlash, ishga yollovchilar ish haqini mazkur quyi chegaradan pasaytirishga intilishiga olib kelishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning xo'jalik amaliyotidagi ish haqining darajasini kuzatish shuni ko'rsatadiki, ishchi kuchi bozorida real ish haqining o'rtacha darajasi yashash uchun zarur jismoniy vositalar minimumiga qaraganda ancha yuqori darajada o'rnatilgan.

Qiymatning mehnat nazariyasi (Angliya klassik siyosiy iqtisod maktabi, marksistik yo'nalishidagi iqtisodchilar) ishchi kuchini alohida, o'ziga xos tovar deb hisoblaydi. Shu sababli bu nazariya ish haqiga tovar bo'lgan ishchi kuchi qiymatining o'zgargan shakli, ya'ni puldagi ifodasi sifatida qaraydi va uni ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan tirikchilik vositalari qiymati sifatida aniqlaydi. Mazkur g'oya tarafdorlari ishchi kuchi qiymatiga bir qator omillar, avvalo tabiiy shart-sharoitlar, aholining madaniy rivojlanishi, ularning malakasi va ishchi oilasini saqlash hamda ularning tabiiy takror ishlab chiqarish sharoitlari ta'sir qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga bu g'oyada hayotiy ehtiyojlar hamda ularning qondirilish usullari mamlakatning ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida erishilgan darajaga bog'liqligi ta'kidlanadi.

Bu fiklar hozirgi davrda ham ko'pgina ko'zga ko'ringan iqtisodchi olimlar tomonidan maqullanib takrorlanmoqda. Masalan: A.F. Shishkin, E.F. Borisovlar o'zlarining «Iqtisodiyot nazariyasi» darsliklarida ish haqini ishchi kuchi va tovar qiymatining pullashi ifodasi deb ta'riflamoqdalar<sup>1</sup>.

Bu mualliflar o'z fikrlarini asoslashda ko'pgina olimlar mehnat jarayoni bilan ishchi kuchining farqiga bormaganligini, shu sababli bozorda mehnat

---

<sup>1</sup>Borisov E.F. «Ekonomiskaya teoriya» uchebnik M. Izd-va «Yurist», 1997, 268 bet.  
Shishkin A.F. «Ekonomiskaya teoriya» uchebnik kniga 2, M. izd-va «Vlados», 1996, 134 bet.

sotiladi deb fikr yuritishini tanqid qilib bozorda mehnat emas, balki ishchi kuchi tovar sifatida sotilishini, bu jarayon yuzaki qaralganda mehnatga haq to'lashga o'xshab ko'rinishini isbotlashga harakat qilganlar.

Lekin ish haqiga «ishchi kuchi qiymatining puldagi ifodasi» sifatida qarash, aniq ishchi kuchi bozorida ish haqi darajasiga uning unumdorligi, mehnat intensivligi, talab va taklif kabi omillarning ta'sirini etarli hisobga olmaydi.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasida juda ko'p mualliflar tomonidan, jumladan Ekonomiks darsliklarida, 1998 yilda Moskvada chiqarilgan B.D. Kalshev rahbarligida chiqarilgan «Iqtisodiyot nazariyasi» (rus tili) darsligida, 1997 yilda Toshkentda chiqarilgan A. Ulmasovning «Iqtisodiyot asoslari» o'quv qo'llanmasida va boshqalarda ish haqi mehnat bahosi sifatida talqin qilinadi. Bunda ular asosan bozorda mehnat sotiladi degan bizningcha noto'g'ri tushunchaga asoslanishadi. Mehnat ishchi kuchining funktsiya qilish, uning ma'lum maqsadga qaratilgan faoliyat jarayoni bo'lib, uning na qiymati, na bahosi yo'qligi, bu jarayonni bozorga olib chiqib sotib bo'lmasligi fanda ham, real hayotda ham, iqtisodiy amaliyotda ham hammaga ayon alla qachon isbotlangan xodisadir. Shuning uchun buni isbotlashga harakat qilmasak ham bo'ladi.

Lekin bu g'oyaning negizida bir ijobiy tomon borki, undan albatta foydalanish zarur. Bu ham bo'lsa ular malakasi, intensivligi va natijasi bilan bog'lashga harakat qilganlar. Ish haqining mazmuni to'g'risidagi turli nazariyalarni, (turli mamlakatlardagi, o'z mamlakatimizdagi amaliyotni) umumlashtirib, quyidagi xulosalami chiqarish mumkin.

1. Ish haqi to'g'risidagi nazariyalarda unga bir tomonlama yondashish xarakteri mavjud bo'lib, uning murakkab va ko'p qirrali iqtisodiy jarayon ekanligi o'ziga e'tibordan chetda qolgan ko'rinadi.

Lekin bu nazariyalarning har birida ish haqining u yoki bu tomoniga to'g'ri baho berilgan bo'lib, ularda foydalanish mumkin bo'lgan ijobiy yoki ratsional mag'iz mavjuddir.

2. Ish haqining umumiy darajasi har doim har bir mamlakatda iqtisodiyotning erishgan darajaga, ya'ni, umumiy mehnat unumdorligi, milliy mahsulot hajmi, uning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdoriga bog'liq bo'ladi. Chunki shu mahsulotlarning bir qismi mehnatning miqdori va sifatiga qarab taqsimlanadi. Shuning uchun ham u turli mamlakatlarda turli miqdorlarda bo'ladi.

3. Ish haqi tovar sifatida oldi —sotdi bo'ladigan ishchi kuchining qiymati bilan bog'liqdir. Chunki uning miqdori ishchi kuchini takror ishlab chiqarishga, ishchining o'zini, oila a'zolarini boqishga etadigan darajada bo'lishi lozim.

4. Ish haqining miqdori va darajasi ishchi kuchining malakasi, uning mehnatning va unumdorligi bilan bog'liq bo'ladi.

5. Ish haqining darajasi har bir firma yoki korxonaning erishgan darajasi bilan, ya'ni ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmi, va bir ishchiga to'g'ri kelgan miqdori bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham u mehnat miqdori, malakasi bir xil bo'lsada turli firmalarda, turli korxonalarda turlicha miqdorda bo'lishi mumkin.

Ushbu xulosalardan keyin ish haqining mazmuniga ta'rif berib aytish mumkinki, ish haqi — ishchi va xizmatchilarning mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab, milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasidir.

Ish haqining asosiy vazifasi ishchi kuchini sotishdan boshqa daromad manbai bo'lmagan ishchi xizmatchilarning hayot va mehnat sharoitini yaxshilash mehtanning miqdori va sifatiga bog'liqliligini boshqacha qilib aytganda mehnat me'yori bilan iste'mol me'yori o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashdan iboratdir.

Albatta ishchi kuchi takror hosil qilishda ish haqidan tashqari foiz, renta, foyda, devidend, turli imtiyozlar va nafaqalarning ham roli bor. Lekin ishchi va xizmatchilar ko'pchiligining hayot manbai mehnatdan keladigan ish haqi va boshqa daromadlardir. Ish haqining mazmunini to'laroq tushunish uchun nominal va real ish haqi tushunchalarini bilish zarurdir.

Ishchi uchun qanday shakida va qancha summa ish haqi olishi emas, balki unga qancha miqdorda tovarlar va xizmatlar sotib olishi mumkinligi muhim. Shu sababli nominal va real ish haqi farqlanadi. **Nominal ish haqi bu ma'lum vaqt davomida olingan pul summasi yoki pul shaklidagi ish haqi. Real ish haqi — bu nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori. Boshqacha aytganda real ish haqi —bu nominal ish haqining «sotib olish layoqati».** O'z-o'zidan aniqki, real ish haqi nominal ish haqiga va xarid qilinadigan tovarlar (va xizmatlar) bahosiga bog'liq. Shunday ekan real ish haqi boshqa sharoitlar bir xil bo'lganda, nominal ish haqiga to'g'ri mutanosibdir va iste'mol buyumlari va xizmatlar narxining darajasiga teskari mutanosibdir. Bu miqdorlar nisbatini formulada quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$V_H$$
$$V_P = \frac{V_H}{P}$$

bu yerda  $V_P$ —real ish haqi ;  $V_H$ —nominal ish haqi ;  
 $P$  R—iste'mol buyumlari va xizmatlarga baho darajasi.

Nominal ish haqi—ishlab topilgan pul daromadi darajasini, real ish haqi esa xodimlarning iste'moli va farovonlik darajasini xarakterlaydi.

## 2. Ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari.

**Ish haqining shakllari va turlari.** Ishlab chiqarishning texnik asoslaridagi, ishchilar mehnatining mazmunidagi, ularga bilim berish va kasbkorlikka o'rgatish borasidagi o'zgarishlar munosabati bilan ish haqi shakli va tizimlari ham o'zgarib boradi. Ish haqini tashkil etishda uning ikkita asosiy

shakli: vaqtbay va ishbay shakllari farqlanadi. Baqtbay ish haqida uning darajasi xodimning malakasi, mehnatning sifati va ishlagan vaqtiga qarab belgilanadi. U odatda mehnatning natijalarini aniq hisoblab bo'lmaydigan, balki ular aniq vazifalar doirasini bajarish bilan belgilanadigan vaqtda (masalan, injener-texnik xodimlar va xizmatchilar, sozlovchilar, elektromontyorlar va shu kabilarga haq to'lashda) yoki mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonining borishi bilan belgilanadigan va bevosita ishchiga bog'liq bo'lmagan paytlarda (masalan konveyerlar va avtomat liniyalarida ishlash) qo'llaniladi.

Ishbay ish haqida ish haqining miqdori mahsulot birligi uchun belgilangan to'lov(ratsenka)ga muvofiq, tayyorlangan mahsulotning soniga bog'liq bo'lishini nazarda tutadi. Mahsulot birligi uchun ratsenka (to'lov), ta'rif stavkasidagi haqni ishlab chiqarish normasiga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Haq to'lash shakllarining aniq mehnat sharoitlarini hisobga oladigan turlari ish haqining tizimini tashkil qiladi. Chunonchi, ishchilarning bir qismiga to'g'ri ishbay tizimi bo'yicha haq to'lanadi. Bunda ishlab chiqarish normasi qay darajada bajarilishidan qat'iy nazar, ish haqi yagona mahsulot birligi uchun belgilangan ratsenka bo'yicha to'lanadi.

Ishbay-mukofot tizimi bir qancha ko'rsatkichlar uchun mukofot berishni nazarda tutadi. Ishbay-progressiv haq to'lashda ishchining belgilab qo'yilgan norma doirasida ishlab chiqargan mahsulotiga uning birligi uchun asosiy va o'zgarmas ratsenka bo'yicha ish haqi beriladi, normadan yuqorisiga esa oshirilgan haq (ratsenka) bo'yicha pul to'lanadi. Ishbay-ish haqining tizimida yakka tartibdagi, jamoa va ijara pudratida qo'llaniladigan mehnatga haq to'lash farqlanadi. Bunda olingan tayyor mahsulot uchun uning sifati va ishlab chiqarish chiqimlarini hisobga olib haq to'lanadi. Haq to'lashning jamoa shaklida ish haqi brigada, sex va boshqa bo'linmaning pirovard mehnat natijalariga bog'liq qilib qo'yiladi. Bunda har bir xodim faqat o'ziga berilgan shaxsiy topshiriqlargagina emas, balki shu bilan birga bo'linmaning butun ish xajmini ham bajarishdan manfaatdor bo'ladi.

Ishchilarning ish haqini tabaqalashtirish eng avvalo davlat tarif tizimi yordamida amalga oshiriladi. Tarif tizimi majmui yordamida tarmoqlar va mamlakat mintaqa bo'yicha, ular ichida esa ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab ishchi va xizmatchilarning ish haqi darajasi tartibga solib turiladi.

Tarif tizimi tarif-malaka spravochniklarini va ish haqiga har xil koeffitsientlarini o'z ichiga oladi.

Tarif-malaka spravochniklari ayrim kasblar va mehnat turlarining batafsil ta'rif, u yoki bu aniq ishni bajaruvchining bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablardan iborat bo'ladi, shuningdek, unda bu ishni tariflash uchun qo'yiladigan razryadlar ham ko'rsatiladi. Birinchi razryad bilan ishchilardan uzoq vaqt tayyorgarlikni talab qilmaydigan eng oddiy ishlar, oxirgi (eng yuqori) razryad bilan

esa eng murakkab ishlar ta'riflanadi. Ulardan ishchilarga malaka razryadlari berish uchun foydalaniladi.

Tarif setkasida razryadlardan tashqari ta'rif koeffitsientlari ham bo'lib, ular birinchi razryadli ishchiga haq to'lash bilan keyingi razryadli ishchilar mehnatiga haq to'lashning o'zaro nisbatini ko'rsatadi (birinchi razryadning tarif koeffitsienti hamma vaqt birga teng).

Tarif stavkalari tegishli razryadga ega bo'lgan ishchining mehnatiga to'lanadigan haq miqdorini belgilab beradi. Bunda boshlang'ich nuqta muayan tarif setkasida belgilangan birinchi razryad stavkasidir. Birinchi razryadning tarif stavkasini tegishli tarif koeffitsientiga ko'paytirish yo'li bilan har qanday razryadli ishchining tarif stavkasi aniqlanadi.

Mehnat qilish sharoiti og'ir va zararli bo'lgan ishchilarga tarif stavkasiga qo'shimcha haqlar belgilanadi. Tarif stavkalariga ustamalar shaklidagi haq (razryadlar bo'yicha farqlantirilgan) professional mahorat uchun belgilanadi.

Alohida tarmoqning xalq xo'jalik ahamiyatiga qarab amalda ish haqini va mansab maoshlarini farqlantirish ishlari amalga oshiriladi. Bunda mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etakchi tarmoqlarga tajribali, malakali kadrlarni jalb etish, bu tarmoqlarda ishchi va xizmatchilar tarkibi barqaror bo'lishini ta'minlaydigan sharoitlarni vujudga keltirish maqsadi ko'zlanadi.

Respublikamizma ham tarif tizimi orqali ish haqi tabaqalashtirilib, turli kasblar va ish turlari uchun ish haqi to'lashning yagona razryadlari aniqlangan. Narxlar o'sishi bilan minimal ish haqi darajasi (I-razryad) hamda barcha razryadlar ular o'rtasidagi nisbat saqlangan holda oshirib boriladi. Masalan, 2002 yil 1 apreldan boshlab Respublika-mizda ish haqining minimal darajasi 3945 so'm qilib belgilanib, boshqa razryadlarga to'g'ri keladigan ish haqi summasi ham shunga mos ravishda oshiriladi.

### 3. Mehnat munosabatlari va ularning evolyutsiasi

Ishga yollash bo'yicha korxonada ma'muriyati va ishchilar o'rtasidagi munosabat mehnat shartnomalari yordamida shakllanadi. Mehnat shartnomalari avvalo ish haqi stavkasi, normadan ortiqcha bajarilgan ishlar uchun stavka, dam olish kunlari va tanaffuslar, pensiya fondlari va sog'liqni saqlashga ajratmalar, hamda baholarning o'zgarishini hisobga olib iste'molchilik savati qiymatini tartibga solish kabi paketlarni o'z ichiga oladi. Keyin mehnat sharoiti masalalari qarab chiqiladi. Nihoyat, qator tashkiliy masalalar hal qilinadi. Odatda kelishuv bir necha yilga (asosan uch) tuziladi.

Ayrim hollarda davlat ham korxonada ma'muriyati va ishchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Asosan bu ish tashlash masalalariga tegishli.

Ammo ish tashlash huquqi «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar haqidagi xalqaro paket»da mustahkamlangan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklar jumlasiga kiradi.



Ko'pchilik mamlakatlarda mehnat munosabatlarining rivojlanishida bosh masala ishsizlikni ijtimoiy kafolatlashga, ishlovchilarning mehnat sharoitini yaxshilash va ish haqini oshirish imkoniyatlari bilan bog'liq masalalar hisoblanadi. Bu muammolarni hal qilishda asosiy rol kasaba uyushmalariga tegishli bo'ladi.

Biz yuqorida sof raqobatli bozorda ishchilar o'zlarining ishchi kuchini sotishda faol raqobatlashadi degan faraz bilan cheklandik. Ko'pchilik bozorlarda ishchilar o'zlarining ish kuchini kasaba uyushmalari orqali jamoa bo'lib «sotadi». Kasaba uyushmalari nisbatan ko'p sonli ishga yollovchilar bilan muzokaralar olib boradi va ularning asosiy iqtisodiy vazifasi ish haqini oshirishdan iborat bo'ladi. Kasaba uyushmalari bu maqsadga turli xil yo'llar bilan erishishi mumkin. Ularning asosiylarini qarab chiqarimiz:

**1. Ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirish.** Kasaba uyushmalar nuqtai nazaridan ish haqini oshirishning eng qulay usuli mehnatga bo'lgan talabni kengaytirish hisoblanadi. Mehnatga bo'lgan talabning ortishi natijasida ish haqi stavkasi ham, ishchi o'rnlari soni ham ortadi. Kasaba uyushmalari mehnatga bo'lgan talabni belgilovchi bir yoki bir necha omillarni o'zgartirish yo'li bilan ishchi kuchiga bo'lgan talabni ko'paytirish mumkin. Xususan, ular quyidagilarga erishishga xarakat qiladi: 1) ishlab chiqariladigan mahsulot yoki ko'rsatiladigan xizmatga talabni oshirish; 2) mehnat unumdorligini oshirish va 3) ishchi kuchi bilan birgalikda foydalanadigan boshqa ishlab chiqarish omillari baholarini o'zgartirish.

**2. Ishchi kuchi taklifini qisqartirish.** Kasaba uyushmalari mehnat taklifini qisqartirish yo'li bilan ish haqi stavkasini oshirishi mumkin. Bunga quyidagi yo'llar bilan erishiladi: a) immigratsiyani cheklash; b) bolalar mehnatini qisqartirish; v) pensiyaga muddatida chiqishni qo'llab-quvatlash; g) ish haftasini qisqartirishga yordam berish;

Bulardan tashqari kasaba uyushmalari tadbirkorlarni o'z a'zolarini ishga yollashga majbur qilib, mehnat taklifi ustidan to'liq nazorat o'rnatadi. Kasaba uyushmalari o'z a'zolari sonini qisqartirish siyosati orqali (masalan, uzoq muddatli o'qitish, yangi a'zolarni qabul qilishni cheklash yoki ta'qiqlash) mehnat taklifini sun'iy ravishda qisqartiradi. Bu, o'z navbatida, ish haqi stavkasining ortishiga olib keladi.

**3. Kasbni malakali litsenziyalash.** Bu ma'lum mehnat turi taklifini cheklash vositasi hisoblanadi. Bunda kasaba uyushmalari korxonalar ma'muriyatiga kasbdagi ishchilar aniq ko'rsatilgan talablarga javob bergan taqdirda ishga qabul qilishga ta'sir ko'rsatadi. Bu talablar o'z ichiga ishchining ta'lim darajasi, mutaxassislik bo'yicha ish staji, imtihon natijasi va shaxsiy tavsiflarini oladi.

**4. Kasaba uyushmalari jamoa shartnomalari tuzishda monopoliya xolatga ega bo'lgan tadbirkorlarga qarshilik ko'rsatish yo'li bilan ham ish haqi stavkasini oshirishga erishishi mumkin.** Buning natijasida ish haqini oshirish bilan bog'liq qo'shimcha sarflar, yangi ishchi kuchini yollash natijasida olinadigan qo'shimcha mahsulot xajmidan ortiq bo'ladi.

Hozirgi zamon mehnat munosabatlari, o'zida davlatning ta'sirini ham aks ettiradi. Davlatning qonunchilik faoliyati mehnat munosabatlarining barcha tomonlarini qamrab oladi. U nafaqat iqtisodiyot davlat sektorining ishchi kuchiga bo'lgan talabini bildiradi, balki uni xususiy sektorda ham tartibga soladi, milliy iqtisodiyot miqyosida ishga yollashning asosiy o'lchamlarini aniqlaydi.

Mehnat munosabatlariga davlatning ijtimoiy dasturlari (kam ta'minlangan oilalarga yordam, ishsizlik bo'yicha nafaqa, har-xil ijtimoiy to'lovlar, pensiya ta'minoti va boshqalar) katta ta'sir ko'rsatadi. Bu dasturlar bozor taxlikasi yuqori bo'lgan davlatlarda aholining ijtimoiy - iqtisodiy ahvolini barqarorlashtirishga ma'lum bir darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning mehnat bozorida vositachilik roli ham mehnat munosabatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan, o'ziga qisman ishchi o'rinlarini qidirish va tavsiya qilish hamda ishga joylashtirish bo'yicha umummilliy dasturni ishlab chiqarish vazifalarini oladi. Ishchilarni o'qitish va qayta tayyorlashning davlat tizimi, bozorning o'zgaruvchan talablariga tez moslashishga imkon beradi.

### Asosiy tayanch tushunchalar.

**Ish haqi**-ishchi va xizmatchilarning mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasi.

**Baqtibay ishhaqi**-ishchining ishlagan vaqti (kun,hafta,oy) hisobga olinib,to'lanadigan ish haqidir.

**Ishbay ish haqi**-ishlab chiqargan mahsuloti miqdoriga yoki bajargan ish hajmiga qarab to'lanadigan ish haqidir.

**Nominal ish haqi**-pul shaklida olingan ish haqi summasi.

**Real ish haqi**- nominal ish haqi summasiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori yoki nominal ish haqining sotib olish layoqati.

### Savollar va o'quv topshiriqlari.

1. Ichki milliy mahsulotning taqsimlanish tamoyillariga nisbatan o'z fikringizni bildiring.
2. Ish haqining turlicha nazariyalarini tahlil qilib, ularga o'z qarashingizni bildiring?
3. Real ish haqi darajasi qanday omillar ta'siri ostida o'zgaradi?
4. Nima uchun ish haqining umumiy darajasi har xil mamlakatlarda turlicha?
5. Kasaba uyushmalari ish haqini oshirishning qanday usullaridan foydalanadilar?

## Adabiyotlar:

65. Karimov I. A. «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir», «O'zbekiston» 2005.
66. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz», T. «O'zbekiston», 2000y.
67. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari.» -T. «O'zbekiston», 1998.
68. «To'g'ridan to'g'ri xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel.
69. Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T., «Moliya» nashriyoti, 2002.
70. A. Qodirov. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
71. D. Tajiboeva. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
72. Makkonel K., Bryu S. «Ekonomiks», M.2002.
73. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Rayzberga.- Uchebnik: - INFRA – M.2004.
74. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof. M. N. Chepurina. Uchebnik: - INFRA – M.2004.
75. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsh. red. akad. B. I. Bidiyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA – M.2004.
76. Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
77. E. F. Borisov Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
78. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
79. Ioxin B. Ya. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
80. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy. d.e.n., prof. T. B. Chechelovoy. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

## Qo'shimcha adabiyotlar:

17. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalk so'zi - 25 mart.
18. Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov – 2005.
19. Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. Yaxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
20. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovy ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

## Veb-saytlar:

37. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
38. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
39. <http://infoteka.economics.ru>
40. [www.finansy.ru](http://www.finansy.ru)
41. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
42. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
43. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
44. [www.iahon.mfa.uz](http://www.iahon.mfa.uz)
45. [www.budiet.rf.ru](http://www.budiet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ro'zani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof. Sh. Sh. Shodmonov, G. D. Bobabekova, G. T. Xalikva tomonidan tayyorlangan «Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v prepodovanii ekonomicheskoy teorii». T-2004, «Innovatsionnye metody obucheniya v ekonomicheskoy obrazovanii» va Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaeva, M. T. Yaxshievalar tomonidan tayyorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.

## 11-Mavzu. AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES.

**Kirish.**

**4 soat**

**Reja:**

**1-§. Agrar munosabatlar va ularning xususiyatlari.**

**2-§. Renta munosabatlari. Yer rentasi shakllari.**

**3-§. Agrosanoat majmuasi va uning tarkibi. Agrosanoat integratsiyasi va uning shakllari.**

**4-§ Agrobiznes va uning turlari.**

**Kirish.**

Takror ishlab chiqarish jarayonining qonunlari iqtisodiyotning barcha sohalari, tarmoqlari va bo'g'inlari uchun umumiy bo'lsada, lekin ulardagi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga bog'liq holda o'ziga xos xususiyatlar ham kasb etadi. Ayniqsa, bu o'ziga xoslik qishloq xo'jaligida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki bu yerda takror ishlab chiqarish ko'p jihatdan jonli tabiat (hayvon, o'simlik va boshqalar) bilan ham bog'liq. Shuning uchun biz bu mavzuda takror ishlab chiqarishning umumiy tomonlari bilan birgalikda uning qishloq xo'jaligida namoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Avvalo agrar munosabatlarini tahlil qilib, keyin e'tiborni yer rentasiga qaratamiz. yer rentasining vujudga kelishi va taqsimlanishi muammosiga turlicha qarashlarni bayon qilib, ularning qisqacha tavsifini beramiz. Tahlil davomida agrosanoat integratsiyasi va agrosanoat majmuasining mazmuni, ularning tarkibi va vazifalariga to'xtalamiz.. Tahlilning oxirida, agrobiznes va uning turlarini bayon qilamiz.

### **1-§. Agrar munosabatlar va ularning xususiyatlari.**

Qishloq xo'jaligi xalq ho'jaligining muhim bo'g'inidir. Unda insoniyat hayoti uchun eng zarur bo'lgan oziq - ovqat mahsulotlari va sanoat tarmoqlari uchun xomashyo materiallari ishlab chiqariladi. Respublikamiz Prezidenti I.Karimov ta'kidlab o'tgandek, «Respublika sanoatining ko'pgina tarmoqlarini, jumladan, paxta tozalash, to'qimachilik, kimyo sanoatini, qishloq xo'jaligi mashinasozligini va boshqalarni ... rivojlantirish istiqbollari, ularning murakkab o'tish davridagi iqtisodiy ahvoli bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liqdir»<sup>1</sup>. Hozirgi paytda aholi iste'molchi buyumlarining yoki ulardan tayyorlangan oziq-ovqat, kiyim- kechak va boshqa buyumlardan iboratdir. Demak, aholi uchun zarur bo'lgan tovarlar bozorini to'ldirish uchun qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish darkor. Boshqa sohalarda kabi qishloq xo'jaligida ham takror ishlab

---

<sup>1</sup> Karimov I.A : «O'zbekiston buyuk kelajak sari». –T.»O'zbekiston», 1998, 225-226 betlar.

chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida muayyan iqtisodiy aloqa va munosabatlari sodir bo'ladi. Bu munosabatlar **agrar munosabatlar** deyiladi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish ko'p jihatdan yer bilan bog'liq, shuning uchun ham yerga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar agrar munosabatlarning **negizini** tashkil qiladi.

Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bu yerda ishlab chiqarish va uning natijalari bevosita tirik mavjudotlar (yer, o'simlik, chorva mollari) bilan bog'liq bo'ladi va tabiat qonunlari iqtisodiy qonunlar bilan bog'lanib ketadi. Bunda yer ham ishlab chiqarish quroli va mehnat predmeti sifatida qatnashadi. yerning boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqi shundaki, undan foydalanish jarayonida u eyilmaydi, eskirmaydi, aksincha, agar shunday to'g'ri foydalanilsa unumdorligi oshib boradi. yerning hosil berish qobiliyatiga **tuproq unumdorligi** deyiladi. Tuproq unumdorligi **tabiiy yoki iqtisodiy** bo'lishi mumkin. Uzoq yillar davomida kishilar-ning hech qanday aralashuvisiz, tabiiy o'zgarishlar natijasida, yerning ustki qatlamida o'simlik shimib olishi mumkin bo'lgan turli ozuqa moddalarning vujudga kelishi yerning **tabiiy unumdorligi** deyiladi.

Agar tuproq unumdorligi, kishilarning tabiatga ta'siri natija-sida, ya'ni tuproq tarkibi va dehqonchilik usullarini yaxshilash (masalan, yerlarni o'g'itlash, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, yerga ishlov berish-ning ilmiy asoslangan irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarni amalga oshirish usullarini joriy qilish kabi sug'orish va boshqa shu kabi) yo'llar bilan unumdorlik oshirilsa bu **iqtisodiy unumdorlikni** tashkil qiladi.

Demak, yerning unumdorligi tabiiy va iqtisodiy unumdorlikka bo'linar ekan, yerdan olinadigan hosil ko'proq mana shu yerning unumdorligini saqlash va uni oshirish, ya'ni insonning yerga faol ta'siri bilan bog'liq bo'ladi. Boshqa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari kabi qishloq xo'jaligida ham ishlab chiqarish shaxsiy va buyumlashgan omilarning bevosita birikishi asosida sodir bo'ladi. Qishloq xo'jaligida korxonalar ham davlat mulkchiligida, xususiy shaxsiy, jamoa mulk shaklida bo'lishi mumkin. Shunga mos ravishda, ular turli shakllarda xo'jalik yuritadi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoniga va texnologiya, kimyoviy o'g'itlar etkazib berishda, turli xil yangi yuqori navli qishloq xo'jaligi o'simliklari, chorva mollari zotlarini yaratishda, sug'orish ishlarini olib borishda, mutaxassislar tayyorlashda yordam ko'rsatish orqali ta'sir ko'rsatadi. Bu hol qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'proq ishlab chiqarishni ta'minlashning ham muhim sharti hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning navbatdagi xususiyati yer pul vositasida baholanmasligi, ya'ni qiymatga ega emasligi sababli asosiy kapital tarkibida hisobga olinmasligi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan ayrim asosiy kapital tarkibiy qismlari xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida bo'linmaydi. Masalan, ko'p yillik daraxtlar, mahsuldor chorva va ish xayvonlari, sug'orish inshootlari va boshqalar.

Bundan tashqari ayrim ishlab chiqarish vositalari, masalan, sug'orish inshootlari ishlab chiqarish natijasini ko'paytirishga faol ta'sir etkazadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi asosiy kapitallari tarkibida turli xil o'ziga xos inshootlar, binolar, uzatma mexanizmlar hissasi ancha yuqori bo'ladi. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishni amalga oshirishda asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan bir qatorda shu sohaning o'zida mavjud keltirilgan aylanma vositalar ham qatnashadi (yosh va boquvga qo'yilgan hayvonlar, em -xashak, urug'lik fondlari, mahalliy o'g'itlar). Ishlab chiqarish jarayoni qishloq xo'jaligida sanoatga nisbatan uzoqroq muddatni tashkil qilganligi sababli aylanma mablag'larning ko'pgina qismi hali tugallanmagan ishlab chiqarish shaklida bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning natijasi yerning hosildorligi va uning sifatiga bog'liq bo'ladi. yerning tabiiy, biologik, iqtisodiy va texnikaviy sharoitlarini yaxshilash qishloq xo'jaligidagi mavjud bo'lgan moddiy va moliyaviy mablag'lar (mahsulotlar, daromad va resurslar) doiraviy aylanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu omillardan to'laroq foydalanish qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ham muhim sharti hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish tabiiy sharoitlar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham bu yerda ish davri va umumiy ishlab chiqarish vaqti o'rtasidagi farq nisbatan birmuncha uzoqroq bo'ladi. Masalan, qishloq xo'jaligida turli o'simliklarni ekib bo'lgandan to yig'ishtirib hosili olunguncha ishlab chiqarish vaqti davom etadi. Ish davri esa shu vaqt ichida ish bilan band bo'lgan kunlar hisoblanadi. Bu hol qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan mehnat vositalaridan (kombayn, turli ekish qurollari va shu kabilardan) foydalanish vaqtiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, bu mehnat vositalaridan yilning ma'lum muddatlaridagina foydalaniladi, qolgan vaqtlarda esa ishlatilmaydi (masalan, seyalkadan yilning faqat 8-10 kuni davomida foydalanilsa, g'alla o'rish kombaynlari, paxta terish mashinalari esa yiliga 20-30 kun ishlatiladi, xolos). Lekin bu ish vositalariga har bir qishloq xo'jaligi korxonasi ega bo'lishi kerak, ishlab chiqarish texnologiyasi shuni talab qiladi, busiz takror ishlab chiqarish amalga oshirilmaydi. Bulardan tashqari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va mehnat jarayonlari mavsumiy bo'lishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham yil davomida aylanma mablag'larning sarfi bir me'yorda bo'lmaydi. Qish va yozgi mavsumlarida harakat qiladigan aylanma mablag'lar tarkibida bir muncha tafovutlar mavjud. Masalan, qish faslida aylanma mablag'larning ko'pgina qismi (urug'lik fondi, em -xashak, turli ozuqalar) ishlab chiqarish ehtiyot qismi shaklida turadi; yoz faslida esa, tugallanmagan ishlab chiqarish, (texnikaning ehtiyot qismlari, neft mahsulotlari kabilarining) hissasi ortib boradi. Qishloq xo'jaligi korxonalari aylanma mablag'larining doiraviy aylanishi xususiyatlaridan biri ular aylanma mablag'larning bir qismi bevosita o'zlarining ichki xo'jalik ehtiyojlariga sarflanishidan iborat, (Masalan, beda urug'i, kartoshka, makkajo'xori kabi mahsulotlarning urug'laridan xo'jaliklarning o'zleri ekishda foydalaniladilar, don mahsulotlarining bir qismi, em -xashaklar mollar uchun ishlatiladi). Shuning uchun etishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining

bir qismi ishlab chiqarish vositalari shaklida yana qayta ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilinadi. Qishloq xo'jaligi jarayonining qarab chiqilgan bu barcha xususiyatlari agrar munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi.

## **2-§. Renta munosabatlari. Yer rentasi shakllari.**

Yer rentasi orqali yerga bo'lgan mulkchilik xuquqi ro'yobga chiqariladi. O'zbekistonda «yer-davlat mulki-umummilliy boylik...» bo'lganligi sababli yerga bo'lgan mulkchilik huquqida yerga egalik qilish va yerdan foydalanish huquqlari alohida ajratib tahlil qilinishi lozim.

**Yerga egalik jismoniy va huquqiy shaxslarning ma'lum yer uchastkasiga tarixan tarkib topgan asoslardagi yoki qonun hujjatlarida beqilangan tartibdagi egalik huquqini tan olishini bildiradi.** yerga egalik deganda avvalo yerga bo'lgan mulkchilik huquqi ko'zda tutiladi. yerga egalikni yeri bo'lgan mulkdor, avvalo davlat amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining yer kodeksida ta'kidlanganidek: «Er uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli egalik qilish hamda ulardan foydalanish uchun berilishi mumkin»<sup>1</sup>

**Yerdan foydalanish huquqi-bu o'rnatilgan urf-odatlar yoki qonu-niy tartibda undan foydalanishni bildiradi.** yerdan foydalanuvchi yer egasi bo'lishi shart emas. Real xo'jalik hayotida yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ko'pincha har xil jismoniy va huquqiy shaxslar bajaradilar.

Yerga mulkchilik munosabatlarning asosini renta munosabatlari tashkil qiladi. Renta munosabatlari-bu yerdan foydalanish natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof-daromadni taqsimlash va o'zlashtirish munosabatlaridan iborat. yerdan foydalanganlik uchun to'lov renta deyiladi va u ijarachi yer mulkdoriga to'laydigan o'ziga xos «yer bahosi» sifatida chiqadi. Shu munosabatlar sababli qo'shimcha sof daromadning muhim shakli bo'lgan rentani batafsil qarab chiqamiz.

Renta nazariyasi hozirgacha yoritib berilmagan nazariyalardan hisoblanadi. Iqtisodchilar o'rtasida uning mohiyatini tushuntirish bo'yicha yondoshuv va qarashlar mavjud. Shu sababga ko'ra rentani miqdoriy aniqlash va uning mohiyatini tushuntirish bo'yicha asosiy va ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan nazariyalarga e'tiborni qaratamiz.

Qiymat nazariyasi tarafdorlari rentaning vujudga kelishini qiymat qonuni doirasida tushuntiradi.


G'arb iqtisodchilarining hozirgi zamon renta nazariyasida rentaning vujudga kelishini iqtisodiy resurs hisoblangan yerga bo'lgan talab va taklifning harakati hamda muvozanatli narxning hosil bo'lishi orqali tushuntiradi. Bunda rentaning

<sup>1</sup> -O'zbekiston respublikasining yer kodeksi». T.: «O'zbekiston» 1999 y. 20 -modda.



manbai to'g'risidagi qarashlar ham farqlanadi. Birinchi yondashuvga ko'ra-u ishchi mehnati bilan yaratiladi. Boshqasida renta yer mahsuli deb hisoblanadi. Renta vujudga kelishining manbai hoh ishchi mehnati, hoh yer bo'lmasin, oxir oqibatda har ikki holda qiymatning mehnat nazariyasidan to'liq ajralib bo'lmaydi. Har ikki holda ham rentani tushuntirish uchun qo'shimcha miqdor tushunchasidan foydalaniladi. Shu sababli bu muammo bo'yicha har ikki qarashni batafsil ko'rib chiqamiz.

G'arb iqtisodchilari rentaning vujudga kelishini tushuntirishda yer va boshqa tabiiy resurslar miqdorining doimiyliigi (qayd qilinganligi) hamda rentaning daromadning boshqa turlari (ish haqi, foyda va foiz)dan farqlanishiga e'tiborlarini qaratadi. Bu farqlanishni miqdori cheklangan yerga bo'lgan talab va taklif nisbatidan foydalanib izohlaydi va tegishli xulosalar chiqaradi. Tahliini soddalashtirish maqsadida, birin-chidan, barcha yerlar bir xil sifatga ega, ya'ni unumdorligi jihatidan bir xil deb faraz qilingan. Ikkinchidan, barcha yerlar bir xil mahsulot, (massa-lan, don) etishtirishda foydalaniladi va nihoyat uchinchidan yer raqobatli bozorda ijaraga olinadi deb hisoblaydi. yerga bo'lgan talab va taklif ta'sirida rentaning vujudga kelishini tushuntirishda grafik taxlildan foydalanadi. Bu 1-grafikda ko'rsatilgan. Grafikdagi S chiziq foydalaniladigan yer taklifini, D egri chiziq esa shu yerga bo'lgan talabni ko'rsatadi.



1-grafik. Yer rentasining aniqlanishi.

Er taklifining doimiy xarakteri shuni bildiradiki, talab yer rentasini belgilovchi yagona omil bo'lib chiqadi, taklif passiv rol o'ynaydi. yerga bo'lgan talabni o'z navbatida ikkita asosiy omil belgilab beradi.. Bular shu yerda etishtirilgan mahsulot narxi va yerning unumdorligi. Agar yerga bo'lgan talab  $D_2$  dan  $D_1$  ga ortsa yoki  $D_2$  dan  $D_3$  ga pasaysa, yer rentasi  $R_2$  dan  $R_1$  ga yoki  $R_3$  ga o'zgarishi zarur, yer taklif miqdorining o'zgarishi mavjud yer miqdoriga hech qanday ta'sir ko'rsatmadi. Agar yerga talab faqat  $D_4$  ga teng bo'lsa, yer rentasi nolga teng bo'ladi, ya'ni yer «tekin tovar» hisoblanadi.

Er taklifining mutloq cheklanganligi mashina, uskuna, inshoot kabi resurslarning nisbatan o'zgaruvchanligi bilan taqqoslash zarur. Bu resurslarning yalpi taklifi doimiy emas. Narxlarning oshishi tadbirkorlarni mazkur resurslarni ko'proq miqdorda ishlab chiqarib, bozorga taklif qilishga undaydi. Aksincha, tushganda, tadbirkorlar ularni yangisi bilan almashtirmaydi. Bunday hol ishchi

kuchining umumiy taklifiga ham tegishli. Ma'lum chegaragacha ish haqining ancha yuqori darajasi tobora ko'proq ishchilarni ishchi kuchi tarkibiga kirishiga undaydi, ancha past ish haqi ularni ishchi kuchi tarkibidan chiqishga majbur qiladi. Boshqacha aytganda, yerdan tashqari barcha resurslar uchun xarakatlaniruvchi vazifani bajaradi. Yuqori narxlar taklifni ko'paytirishga rag'bat beradi, past narxlar taklifni kamaytirishga undaydi.

Renta hech qanday harakatlaniruvchilik vazifasini bajarmaydi, chunki yerning yalpi taklifi doimiy. Agar renta yer birligi uchun 10 ming, 500, yoki «0» pul birligiga teng bo'lsa bundan farqsiz jamiyatda mahsulot ishlab chiqarish uchun yaroqli bir xil miqdordagi yer mavjud bo'ladi. Shu sababga ko'ra iqtisodchilar rentani ortiqcha deb hisoblaydi, u iqtisodiyotda mavjud yerni ko'paytirishni ta'minlamaydi. Boshqa tomondan yerga bo'lgan talabning o'zi (qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish uchun) hosila talab hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, agar bug'doy narxi pasaysa, bunda bug'doy etishtirish uchun yerga bo'lgan talab kamayadi. Talab kamaysa renta miqdori ham kamayadi.

Turli yer uchastkalari o'zlarining unumdorligi bo'yicha keskin farqlanishi sababli bu yerlarda rentaning vujudga kelishida ham farq bo'lishiga olib keladi. yerning unumdorligidagi farqlar yomg'ir va harorat (temperatura) kabi tabiiy iqlim omillar tufayli ro'y beradi. yer unumdorligidagi bu farqlar, unga bo'lgan talabda o'z aksini topadi. Narxning raqobatli bozor sharoitida tashkil topishi juda unumdor yerlarga yuqori rentaning, past unumdor yerlarga bir muncha kamroq rentaning o'rnatilishiga olib keladi. yerning o'mashgan o'rni (bozorlarga, temir yo'llarga, suv manbalariga va shu kabilarga) ham yer rentasidagi farqlarni tushuntirishda muhim omil hisoblanadi. Boshqa sharoitlar bir xil bo'lganda ijarachi mehnat va moddiy resurslarga nisbatan qulay joylashgan yer birligi uchun, bozordan uzoq joylashgan yerlarga qaraganda ko'proq ijara haq to'laydi.

Sifati (unumdorligi) bir xil bo'lmagan yerlarda vujudga keladigan renta miqdoridagi farqlarni 1-grafikda, faqat bir muncha boshqa nuqtai nazaridan oson kuzatish mumkin. Bunda har xil unumdorlikka ega bo'lgan talab va taklif yer uchastkasi oldingidek faqat bitta qishloq xo'jalik mahsuloti, aytalik don etishtiriladi, har bir yer uchastkasining hajmi doimiy va OS ga teng deb faraz qilinadi. Kapital, mehnat va o'zaro bog'liq boshqa resurslar miqdorini barcha uchastkalarga bir xil sarflaganda ularning unumdorligi yoki yanada aniqroq, pulda ifodalangan keyingi unumdorligi har bir uchastka uchun  $D_1, D_2, D_3, D_4$  talab egri chizig'ining holatidan guvohlik beradi. 1-, 2-, 3- yer uchastkalariga mos keluvchi iqtisodiy renta  $R_1, R_2$  va  $R_3$  bo'ladi, bunda rentalardan farq uchta yer uchastkasining sifati, (unumdorligi) bir xil emasligi ko'rsatadi, 4- yer uchastkasining unumdorligi shunchalik pastki, ijarachilar uni to'liq qishloq xo'jalik oborotiga kiritish foydasiz edi. Rentaning vujudga kelishini tahlil qilishda yerdan foydalanishning muqobil variantlari mavjud bo'lishini ham hisobga olish lozim. Ma'lum yer uchastkasidan nafaqat don, balki boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish, mol boqish, uy yoki boshqa ob'ektlar qurish uchun foydalanish

mumkin. yerdan foydalanishning bu muqobil variantlari ham renta miqdorida farqlar bo'lishiga olib keladi.

Bu shuni ko'rsatadiki, yer tabiatning ehsoni bo'lib, jamiyat nuqtai nazaridan qiymatga (ishlab chiqarish harajatlariga) ega bo'lmasada, alohida ishlab chiqaruvchilarning renta to'lovlari ishlab chiqarish harajatlari sifatida chiqadi. Jamiyat nuqtai nazaridan, faqat jamiyatning o'zidan tashqari yerdan foydalanishning muqobil variantlari bo'lmasada, alohida ishlab chiqaruvchi va korxonalar nuqtai nazaridan yerdan foydalanishning muqobil variantlari mavjud bo'ladi. Shu sababli alohida ishlab chiqaruvchi va korxonalar yerdan boshqa maqsadda foydalanishni bartaraf qilish uchun foydalanishdagi sferalarga to'lovlar qilishi zarur bo'ladi.

Jamiyat uchun renta xarajat emas, balki bu ortiqcha (qo'shimcha) qiymat.

**yer uchastkalarining unumdorligi va joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha daromad (qiymat)ning bir qismi renta shaklini oladi, differentsial (tabaqalashgan) renta deb ataladi.**

Iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarida alohida ishlab chiqaruvchi tovarlarining narxi bozor narxidan past bo'lgan taqdirda ular ortiqcha (ustama) foyda oladi. Lekin erkin raqobat ustama foydaning biror bir ishlab chiqaruvchi uchun uzoq muddatga cho'ziladigan imtiyoziga aylanishiga imkon bermaydi.

Muayyan tarmoq ishlab chiqaruvchilarning asosiy ko'pchiligi tomonidan zamonaviy mahnat vositalarining, yangi texnologiyaning qo'llanishi va ishlab chiqarishning yangicha tashkil etilishi ortiqcha qo'shimcha daromadning yo'q bo'lib ketishiga olib keladi.

Qishloq xo'jaligida esa eng muhim ishlab chiqarish vositasi —erning miqdori va sifatini tabiatning o'zi cheklab qo'ygan. yerning tabiiy mahsuldorligi va muayyan geografik joylashuvi kabi xossalari alohida kishilar hukumati ostida emas. yerning ko'pgina sifatli belgilari, shuningdek joyning iqlim va tabiiy sharoiti asrlar mobaynida nisbatan o'zgarmasdan qoladi. Ayni vaqtda qishloq xo'jalik mahsulotiga talab ko'paygan sari doim o'sib boradi.

Shuning uchun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini faqat yaxshi unumdor yer uchastkalari to'plash mumkin emas. Agar ishlab chiqarilgan mahsulot to'lovga qodir talab bilan ta'minlangan bo'lsa, yerning mahsuldorligi yoki joylashuvi jihatidan yomon sharoit qishloq xo'jalik tovarlariga narx shakllanishini tartibga soluvchi ijtimoiy normal sharoit hisoblanadi.

Natijada o'rtacha yoki yaxshi yerlarda xo'jalik yurituvchi ishlab chiqaruvchilar qo'shimcha foyda oladilar, bu foyda unumdorligi yomon uchastkalardagi ishlab chiqarish narxi (ishlab chiqarishning ijtimoiy bahosi) bilan o'rtacha va yaxshi unumli yer uchastkalaridagi individual yer uchastkalari mahsuldorlorligi yuqori, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarining pastroq va foydaning shunga yarasha ko'proq bo'lishida ifodalanadi.

O'rtacha yoki yaxshi unumdorlikka ega bo'lgan yerlar cheklangan bo'lishi sababli ulardan olinadigan qo'shimcha foyda qisqa muddatli emas, balki ozmi-ko'pmi doimiy xarakterga ega. Bu yerlar mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar

tomonidan egallab olinganligi sababli, bu ishlab chiqaruvchilar yerga xo'jalik ob'ekti sifatidagi monopolist bo'lib qoladi. Bu hoi differentsial rentaning vujudga kelishiga shart-sharoit yaratadi.

Shunday qilib, differentsial renta hosil bo'lishining tabiiy sharti miqdori cheklangan yerning sifati (unumdorligi) dagi farqlardir, uning ijtimoiy-iqtisodiy sababi esa foydalaniladigan yerlarda iqtisodiy jihatdan alohidalashgan tarzda mustaqil xo'jalik yuritishdir.

Differentsial renta o'zining kelib chiqish sharoitlarga qarab differentsial renta-I va differentsial renta -II ga bo'linadi. (I-jadval).  
Differentsial renta-I ning hosil bo'lishi. (1-jadval).

| Yer uchastkalari | O'rtacha ishlab chiqarish harajati (ming so'm) | Yalpi mahsulot (t) | Mahsulot alohida qiymati (1t=ming so'm) | Bozor qiymati (1t=ming so'm) | Yalpi mahsulot (ming so'm) | Differentsial renta (ming so'm) |
|------------------|--|--------------------|---|------------------------------|----------------------------|---------------------------------|
| A                | 10000  | 20                 | 500                                     | 500                          | 10000                      | -                               |
| B                | 10000  | 25                 | 400                                     | 500                          | 12500                      | 2500                            |
| B                | 10000  | 30                 | 333                                     | 500                          | 15000                      | 5000                            |

Differentsial renta-I yerning tabiiy unumdorligi bilan bog'liq bo'lgan, sanoat markazlariga, bozorlarga va aloqa yo'llariga yaqin joylashgan serunum yer uchastkalarida vujudga keladi. Chunki bunday yer uchastkalarida sarf xarajatlar darajasi unumdorligi past, bozorlardan, shaharlar-dan va markaziy yo'llardan uzoq joylashgan yer uchastkalarida daromad mahsulot birligiga to'g'ri keladigan harajatga nisbatan kam bo'ladi.

Natijada bu ishlab chiqaruvchilar differentsial renta I ni o'zlashti-rishga muvofiq bo'ladilar. Biz misol qilib, bir miqdorda ega bo'lgan, lekin hosildorligi turlicha uch xil yer uchastkasini (xo'jalikni) olamiz:

Misolimizdagi bu uch xil yer uchastkasining (xo'jaligining) ishlab chiqarish xarajatlari bir xil, ya'ni 10 ming so'mni tashkil qiladi. yalpi hosildorlik A uchastkachida 20 tonna, B va B uchastkalarida 20,30 tonnani tashkil qiladi. Har bir uchastkadan turlicha hosil olinganligi tufayli ularda etkazilgan mahsulotlar qiymati ham turlicha bo'lib chiqadi. Ya'ni A uchastkasida har bir tonna mahsulot qiymati 500 ming so'm bo'lsa, B uchastkasida 400 ming so'm, B uchastkasida esa 333 ming so'mni tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari unumdorligi yomon yer uchastkalarida etkazilgan mahsulotlar narxi bilan sotiladi (misolimizda 500 ming so'm). Natijada qoplash va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun jamg'arma bilan ta'minlanadi.

Qolgan B va B yer uchastkalari esa qo'shimcha sof daromad (B-2,5 va B-5 ming so'm) oladilar. Bu olingan qo'shimcha daromad yerning tabiiy unumdorligi bilan bog'liq bo'lgan differentsial renta-I ni tashkil qiladi. differentsial renta-II xo'jaliklarni rivojlantirish, yer unumdorligini oshirish uchun qo'shimcha xarajatlar qilish bilan, ya'ni qishloq xo'jaligini ximiyalashtirish; yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektlashtirish darajasini oshirish bilan bog'liq holda vujudga keladi. (2- jadval).

Differentsial renta –II ning hosil bo'lishi. (2 jadval).

| Yer uchastkalari | O'rtacha ishlab chiqarish harajati (ming so'm) | Yalpi mahsulot (t) | Mahsulot alohida qiymati (1t=ming so'm) | Bozor qiymati (1t=ming so'm) | Yalpi mahsulot (ming so'm) | Differentsial renta (ming so'm) |
|------------------|--|--------------------|---|------------------------------|----------------------------|---------------------------------|
| Birinchi yil     | 10000  | 20                 | 500                                     | 500                          | 10000                      | -                               |
| Ikkinchi yil     | 10000  | 40                 | 250                                     | 500                          | 20000                      | 10000                           |

Qaysi xo'jalik o'z ishlab chiqarishida bu ko'rsatilgan omillardan yaxshi foydalansa, xo'jaligini intensiv rivojlantirsa differentsial renta-II ni olishga muvofiq bo'ladi. Chunki xo'jaliklar hosildorlikni oshirishga erishganliklari uchun mahsulot birligiga sarf qilgan harajatlar birmuncha kamayadi. Natijada differentsial renta-II ni olish uchun sharoit vujudga keladi.

Bu holni misol bilan ifodalashimiz mumkin. Faraz qilamizki, yerga qo'shimcha 10 mln. so'm sarf qilish natijasida ikkinchi yili qo'shimcha 20 tonna mahsulot olingan holda, bu xo'jalik qo'shimcha 10 mln. so'm daromad, ya'ni differentsial renta II ni o'zlashtiradi. Bunday intensiv rivojlanish qishloq xo'jaligida asosiy yo'l hisoblanadi. Chunki qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirmay turib, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni va jamiyat a'zolarining o'sib borayotgan moddiy-ma'naviy talabini qondirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish uchun alohida e'tibor beriladi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni sanoatlashgan asosga qo'yish, intensivlashtirishni tezkorlik bilan amalga oshirish choralarini ishlab chiqarish birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotining bozor qiymati bilan alohida qiymati tafovut ishlab chiqaruvchilarning ustama qo'shimcha foydasini tashkil qiladi, differentsial rentaning har ikki ko'rinishini (renta I va renta II ni) o'z ichiga oladi. Differentsial renta I va II mahsulotning muayyan bozor (ijtimoiy) qiymati bilan xududlar bo'yicha yoki alohida olingan xo'jalikdagi individual qiymati o'rtasidagi tafovutdan iboratdir.

Differentsial renta I yuqorida qarab chiqilganidek xo'jaliklar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiiy sharoitda vujudga keladi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi korxonalarida hosil qilingan bu xildagi renta yer davlat mulki sababli uning manfaatlari yo'lida sarf qilish maqsadida markazlashtirilgan davlat fondida (byudjetida) to'planishi tozim. Bu hol o'rta va yaxshi unumli yerda joylashgan xo'jaliklarni iqtisodiy manfaatdor-ligiga putur etkazmaydi, balki boshqa xo'jaliklar bilan ozmi-ko'pmi iqtisodiy sharoitlarni tenglashtirish imkonini beradi. Markazlash-tirilgan davlat fondiga o'tgan bu mablag'larni (differentsial renta I), mamlakat oldida turgan vazifalarni amalga oshirish, xususan yangi yerlarni o'zlashtirish va yer unumdorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni amalga oshirish uchun yo'naltirilishi mumkin bo'ladi.

Differentsial renta II yerdan intensiv foydalanish, ya'ni uning iqtisodiy unumdorligini oshirish bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham bu xildagi rentaning asosiy qismi xo'jaliklarning o'zlarida qoldirilishi mantiqan to'g'ri bo'ladi. Uning faqat bir qismi davlat fondiga jalb qilinishi mumkin, chunki davlat ma'lum darajada bu rentaning hosil qilishda o'z xissasini qo'shadi, ya'ni transport yo'llari qurilishiga irrigatsiya meloratsiya ishlarini amalga oshirish uchun kapital mablag'lar sarflaydi, texnikalar, kadrlar, mineral o'g'itlar etkazib beradi. Shunday qilib, differentsial renta I va differentsial renta II yer egasi bo'lgan davlat bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida taqsimlanadi. yer xususiy mulk bo'lgan sharoitda bu renta ho'jalik yurituvchilar bilan yer egalari o'rtasida taqsimlanadi. Bu hol ko'proq absolyut (mutloq) rentani ko'rib chiqishimizda yanada tushunarli bo'ladi.

**Absolyut renta.** Ko'pgina mamlakatlarda qishloq xo'jaligida yerga xususiy mulkchilik monopoliyasi sharoitida ishlab chiqarishni olib borishga to'g'ri keladi. Bu monopoliya ijaraga beriladigan barcha yer uchastkalarining sifatidan qat'i nazar, yer egalari absolyut renta deb atalgan rentani olishga imkon beradi. Absolyut yer rantasining vujudga kelish mexanizmi shundan iboratki, yer egalari yerni ishlovchi ijarachilarga foydalanish uchun ijaraga beradilar va ulardan yerdan foydalanganlik uchun to'lovlar oladilar. **Mana shu to'lov absolyut yer rentasi deb nom olgan.** Agar yer ijaraga berilganda shu yerda turli xil inshootlar, binolar qo'rilgan bo'lsa, ularning ijara haqi alohida hisoblanadi.

Nima uchun qishloq xo'jaligida yaratiladigan qo'shimcha daromad jamiyat miqyosida barcha mulk egalari o'rtasida qayta taqsimlanmaydi va qishloq xo'jaligida olinadigan daromad o'rta foydadan yuqori bo'ladi? Degan savollar tug'iladi.

Tarixan, ko'pgina mamlakatlarda qishloq xo'jaligida kapitalning uzviy tuzilishi sanoatdagidan past. Shuning uchun qishloq xo'jaligida yaratilgan tovarlarning bozor qiymati ishlab chiqarishning ijtimoiy qiymatidan yuqori bo'ladi. Demak, qishloq xo'jalik tovarlari qiymatidagi qo'shimcha daromad miqdori jamiyatda shakllangan o'rta foydadan ortib ketadi. Qishloq xo'jalik tovarlarining bozor narxi bilan ijtimoiy ishlab chiqarish narxi o'rtasidagi bu tafovut **absolyut renta manbai** bo'lib xizmat qiladi.

Erga bo'lgan xususiy mulkchilik yer egalari jamiyatga absolyut renta shaklidagi o'ziga xos o'lpon solishga imkon beradi.

Absolyut rentaning vujudga kelishini misol orqali tushuntirib berish mumkin.

### A absolyut rentaning hosil bo'lishi.

3- jadval.

| Tarmoqlar         | Ishlab chiqarish harajat lari /S+V/ | Qo'shimcha daromad /R/ | Tovarning qiymati /S+V+R/ | R'ning o'rtacha foyda normasi /R'/ ga tenglashuvi | Tarmoqdagi foyda normasi /P' = $\frac{m}{C-V} \cdot 100$ %/ | O'rtacha R <sup>2</sup> | O'rtacha foyda | Ijtimoiy yoki bozor qiymati | Absolyut renta |
|-------------------|-------------------------------------|------------------------|---------------------------|---|---|-------------------------|----------------|-----------------------------|----------------|
| Sanoat A          | 70+30                               | 30                     | 130                       | $R = \frac{60}{240 - 60} \cdot 100 = 20\%$        | 30%   | 20                      | 20             | 120                         |                |
| Sanoat B          | 80+20                               | 20                     | 120                       |   | 20%   | 20                      | 20             | 120                         |                |
| Sanoat B          | 90+10                               | 10                     | 110                       |   | 10%   | 20                      | 20             | 120                         |                |
| O'rtacha          | 240+60                              | 60                     | 360                       |   |   |                         |                | 120                         |                |
| Qishloq xo'jaligi | 60+40                               | 40                     | 140                       |   | 40%   | 20%                     | 120            | 130                         | 20             |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligida kapitalning uzviy tuzilishi (1,5:1) sanoatdagidan (4:1) past bo'lishi natijasida bu yerda kapitalning har yuz birligiga sanoatdagiga qaraganda ko'proq qo'shimcha daromad hosil qilinadi. yerga xususiy mulkchilik monopoliyasi, qishloq xo'jaligida hosil qilingan bu qo'shimcha daromadning tarmoqlar o'rtasida taqsimlanib o'rtacha foydaga aylanishiga yo'l qo'ymaydi va bu ortiqcha daromad qishloq xo'jaligining o'zida qolib, absolyut rentaning manbaini tashkil qiladi.

Shunday qilib, absolyut yer rentasini keltirib chiqaradigan sabab yerga xususiy mulkchilik monopoliyasi, uning tashkil topish shart –sharoiti qishloq xo'jaligida kapital uzviy tuzilishining sanoatdagidan ancha past bo'lishidir.

Yuqoridagi shartli misollarda differentsial va absolyut rentaning hosil bo'lishini tahlil qilish orqali ishlab chiqarish xarajatlari, foyda, differentsial renta va absolyut renta o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni quyidagicha tasvirlash mumkin.

$$S+V+R_A+R_g+F_{o'r}$$

S+V- ishlab chiqarish harajatlari;

S+V+ F<sub>o'r</sub> –mahsulotlarning individual ishlab chiqarish bahosi;

S+V+R<sub>A</sub> +F<sub>o'r</sub> –mahsulotlarning individual qiymati

S+V+R<sub>A</sub> + R<sub>g</sub>+F<sub>o'r</sub> –mahsulotning ijtimoiy –zaruriy qiymati;

S –asosiy va aylanma kapital (ishlab chiqarish vositalari) ga xarajatlari;

V –ishchi kuchi xarajatlari;

F<sub>o'r</sub> –avanslangan kapital (S+V)ga o'rtacha foyda;

R<sub>A</sub> –absolyut renta;

R<sub>g</sub> –differentsial renta.

Renta nazariyasiga ko'ra qishloq xo'jaligida rentaning yana bir turi monopol renta ham mavjud bo'ladi. Boshqa yerda uchramaydigan tabiiy sharoit, ba'zan

noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari (uzumning alohida navlarini, sitrus ekinlari, choy va hokazolarning alohida turlarini) etishtirish uchun imkoniyat yaratadi. Bunday tovarlar monopol narxlar bilan sotiladi. Bu narxlarning yuqori bo'lishi ko'pincha to'lovga qodir talab darajasi bilan belgilanadi. Natijada monopol narxlar shunday mahsulotlarning individual qiymatidan ancha yuqori bo'lishi mumkin. Bu esa yer egalariга monopol renta olish imkonini beradi. Shunday qilib, boshqa tarmoqlardagi singari qishloq xo'jaligida ham sohibkor ijarachilar teng miqdordagi kapitalga teng foyda oladilar. Biroq raqobat yerga xususiy mulkchilik to'sig'ini enga olmasligi sababli, yer egalari sanoat kapitalistlariga tegadigan qo'shimcha daromad (qiymat) ning anchagina qismini renta tarzida «ushlab qoladilar».

Faqat qishloq xo'jaligida emas, balki **undirma sanoatda** ham qo'shimcha, daromad olinadi. Ma'lumki foydali qazilma konlari joylashuvi (va, demak, ishlash uchun qulayligi) jihatidan ham, konning boyligi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Xuddi qishloq xo'jaligidagi singari, o'rta va yaxshi konlardagi korxonalar qo'shimcha foyda oladilar, u ham differentsial rentaga aylanadi.

**Ijara haqi.** Renta munosabatlarini qarab chiqishda rentaning ijara haqidani farqiga e'tiborni qaratish zarur. Agar ijaraga beriladigan yerga oldin bino, inshoot va shu kabilar qurish bilan bog'liq ravishda kapital qo'yilmalar sarflanmagan bo'lsa, ijara haqi va renta miqdoran bir-biriga to'g'ri keladi. Aks holda, ijara haqi yer rentasidan farq qiladi. Ijara haqining quyidagilardan iborat: yerdan foydalanganlik uchun to'lanadigan renta (R), yerga ilgari sarflangan kapital uchun foiz (r); yer uchastkasini ijaraga bergunga qadar unga qurilgan inshootlar amortizatsiyasi (A). Buni formulada quyidagicha yozish mumkin:  $IH = R+r+A$ . Aytilganlarni misol orqali tushuntiramiz. yer uchastkasi ijaraga berilganda qadar unda mavjud asosiy

|                       |            |
|-----------------------|------------|
| Kapital qiymati:      | 30000 dol. |
| Amortizatsiya foizi   | 15%        |
| Amortizatsiya summasi | 4500 dol.  |
| Foiz normasi          | 5%         |
| Foiz summasi          | 1500 dol.  |

### Qishloq xo'jaligiga sarflangan kapital summasi

10000(6000s+4000u)

|               |                          |
|---------------|--------------------------|
| M= 100% foyda | 2000 dol.                |
| R= 20% renta  | 2000 dol.                |
| Ijara haqi =  | 2000+1500+4500=8000 dol. |

### 3-§. Yer resurslari bozori. Yerning narxi

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida yer faqat ijara ob'ekti emas, balki oldi -sotdi ob'ekti hamdir. Ishlab chiqarishning boshqa omillar -ishchi kuchi va kapital kabi yerga ham talab bildirishadi. yer ham qishloq xo'jalik mahsuloti



etishtirish va tabiiy qazilma boyliklar qazib olish uchun. har xil ishlab chiqarish va turar joy binolari, inshootlar, yo'llar, aeroportlar va hokazolar qurish uchun sotib olinadi. yerning bahosi nima bilan belgilanadi? yer almashuv qiymatga ega emas. Chunki u inson mehnati mahsuli emas.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, hamma narsa oldi-sotdi ob'ektiga aylanadigan bozor munosabatlari xukmron bo'lgan sharoitda alohida xil tovarlar vujudga keladi, ularning foydalanish, ularning egasiga keltiradigan daromadga asoslanadi. Bunday tovarlarning baholarini iqtisodiy nazariyotchilar irratsional narxlar deb ataydilar. yer ham irratsional narxga ega. yer uchastkasining egasi uni sotishda olingan summa bankka qo'yilganda, foiz tarzida u keltiradigan daromad shu yer uchastkasidan olinadigan rentadan kam bo'lmagan taqdirdagina yerni sotadi. Boshqacha aytganda, yerning narxi kapitallashtirilgan rentadir. Boshqa sharoitlar teng bo'lganda, xuddi shu renta miqdori yer narxini belgilaydi. U renta miqdoriga to'g'ri mutanosib va ssuda foizi normasiga teskari mutanosibdir. Shunday qilib, yerning narxi ikkita miqdorga bog'liq: 1) yer uchastkasi egasi olish mumkin bo'lmagan yer rentasi miqdoriga; 2) ssuda foizi normasiga.

Shundan kelib chiqib yerning narxi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$B = \frac{R}{r} * 100\%$  bunda R - ssuda foizi normasi, B - yer bahosi.

Faraz qilaylik, R - 15 ming dol., r' = 5%. Bunda B = 300 ming dol.ga teng bo'ladi. yer egasi faqat shu narxdagina yerini sotishi mumkin, chunki muayyan miqdordagi kapitaldan olinadigan foiz unga bankdan shunday yillik daromad olishga imkon beradiki, u rentaga teng bo'ladi.

Renta miqdori o'sib, ssuda foizi normasi pasayib borgan taqdirda yerning narxi o'sib boradi.

Er narxini aniqlashning bu usuli nazariy ahamiyatga ega. Amalda yer narxi, yer uchastkasiga talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillarga bog'liq. Jumladan, yerga narxning o'sishini, unga noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun talabning o'sishi bilan tushuntirilishi mumkin. Inflyatsiya va asosan giperinflyatsiya sharoitida yerga talab keskin o'sadi, bu tegishli ravishda yer narxining o'sishiga olib keladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan g'arb mamlakatlarida XX asr boshlaridan to hozirgi davrgacha yer narxi o'zgarish sur'ati barqaror o'sish tamoyiliga ega bo'lib, faqat ayrim davrlardagina uning pasayishi kuzatiladi.

**Erga yagona soliq.** Agar yer tabiatining tekin, in'omi ekanligini va uni ishlab chiqarishga hech qanday xarajat talab qilinmasligidan kelib chiqarilsa, nima uchun tarixan yoki meros bo'yicha yer egasi bo'lib qolganlarga renta to'lash zarur? Degan savol tug'iladi. Qiymatning mehnat nazariyasiga ko'ra har qanday yer rentasi-ishlab topilmagan daromad. Shu sababli deydi ular, yerni milliylashtirib davlat mulkchiligiga o'tkazish zarur va undan foydalanganlik uchun har qanday to'lovlar butun aholining farovonligini yaxshilash maqsadida ishlatilishi mumkin bo'lsin.

Ayrim mamlakatlarda, jumladan AQShda renta to'lovlarini tanqid qilish yerga yagona soliq uchun harakat shaklini olgan bo'lib, bu g'oya XXI asr oxirida ancha keng tarqaldi. (Genri Jorjning «Taraqqiyot va qo'shshoqlik» kitobi tufayli). Bunda asosiy e'tiborni, yerning mavjud taklifini yoki shunga mos ravishda butun iqtisodiyotning ishlab chiqarish potentsialini kamaytirmasdan iqtisodiy rentani to'liq (100% li) soliq bilan olish mumkinliga qaraladi.

Mazkur g'oyaga ko'ra aholi soni o'sadi, geografik chegara esa o'zgarmaydi. yer mulkdorlari esa o'zlarining yer egaligi uchun tobora ko'proq va ko'proq renta oladi. Rentaning bu o'sishi taklifi mutloq doirni bo'lgan resurslarga talabning ortishi natijasida ro'y beradi. Shu sababli ular yer rentasining bu o'sishi butun iqtisodiyotga tegishli bo'lishi to'g'risidagi fikmi quvvatlaydi va shu sababli yer rentasi to'liq (100% -li) soliq bilan olinishi hamda ijtimoiy ehtiyojlarga ishlatilishi zarur deb hisoblaydi.

Erga yagona soliqni tanqid qilish bo'yicha quyidagi qarashlar mavjud. Birinchidan, davlat sarflarining joriy darajasini qoplash uchun faqat yer solig'ining o'zi etmaydi, shu sababli unga yagona soliq sifatida qarash to'g'ri emas. Ikkinchidan, amalda ko'pchilik daromad foiz, renta, ish haqi va foydadan iborat bo'ladi. Tuproq unumdorligi odatda qandaydir ishlab chiqarish faoliyati tufayli yaxshilanadi va bunday holda iqtisodiy rentani kapitalni takomillashtirishdan olinadigan daromaddan ajratish qiyin. Uchinchidan, ishlab topilmagan daromad haqidagi masala yer va yer mulkchiligi haqidagi masaladan ancha keng tushuncha. yer egalardan tashqari ko'plab shaxs va guruhlar iqtisodiyotning umumiy rivojlanishidan «ishlab topilmagan» daromad oladi. Masalan, aksionerlik kapitali uchun olinadigan daromad bunga misol bo'lib, uni renta daromadidan ajratish qiyin. Nihoyat, qandaydir vaqt oralig'ida yo uchastkasiga mulk egaligi o'zgaradi. (hatto ko'plab marta). Shu sababli yerning oldingi mulkdori yer rentasining o'sishidan keladigan nafni o'tgan davrda o'zlashtirgan. yerga raqobatli bozor narxini to'lagan, uning hozirgi mulkdoridan yagona soliq undirish adolatga to'g'ri kelmaydi.

#### 4-§. Agrosanoat integratsiyasi.

**Agrosanoat majmuasi (ASM) –bu qishloq xo'jalik mahsuloti etishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish bilan shug'ullanuvchi xalq xo'jalik tarmoqlaridir.** ASM to'rtta sohani o'z ichiga oladi. Birinchi qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalari etkazib beradigan sanoat tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish texnika xizmati ko'rsatish bilan band bo'lgan tarmoqlar; ikkinchi soha –qishloq xo'jaligining o'zi; uchinchi soha –qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchiga etkazib berishni ta'minlaydigan tarmoqlar (tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish).

Agrosanoat majmuasi tarkibida to'rtinchi soha, ya'ni rivojlanish, shuningdek, odamlar hati va faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan

infratuzilma muhim o'rin tutadi. Bular yo'l-transport xo'jaligi, aloqa, moddiy-texnika xizmati, mahsulotni saqlash tizimi, ombor va tara xo'jaligi, moddiy

### Agrosanoat majmuasi

| I soha   | II soha           | III soha   | IV soha                                   |
|--|-------------------|--|---|
| Qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish | Qishloq xo'jaligi | Qishloq xo'jalik mahsulotlarini iste'molchiga etkazib berish | Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma |

bo'lmagan ishlab chiqarish tarmoqlari va boshqalar. Bundan ko'rinib turibdiki, infratuzilmasini agrosanoat majmuasining yuqorida aytib o'tilgan uch sohasidan faqat bittasiga bununlay kiritib bo'lmaydi. Tegishli bo'g'inlar ularning har qaysisida bor, shu bilan birga infratuzilma ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaga ajraladi. **Ishlab chiqarish infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarishga xizmat qiladigan tarmoqlarni, ijtimoiy infratuzilma odamlar turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan sohalarni ( uy-joy, madaniy- maishiy xizmat, savdo, umumiy ovqatlanish va hokazo) o'z ichiga oladi.**

Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganidek: «Qishloqni yaxshilash va qayta qurish chora-tadbirlari tizimida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega»<sup>1</sup>. Shu sababli Respublikada 2000 yilgacha mo'ljalangan qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish hamda 1998-2000 yillarda qishloq aholisini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlash Dasturini davom ettirilmoqda. Faqat 1998 yil davomida qishloqda 1965km vodoprovod tarmog'i ishga tushirildi, 4844km gaz tarmoqlari qurildi. Mablag' bilan ta'minlanadigan barcha manbalar hisobidan umumiy maydoni 6,83 mln. kv.m uy-joy binolari foydalanishga topshirildi. Qishloqda 204 qishloq vrachlik punktlari qurildi, natijada 200 qishloq aholi punktlari aholisi malakali vrachlar yordamidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Agrosanoat majmuasiga ta'rif berganda qishloq xo'jaligi hamma vaqt sanoat, savdo va boshqa tarmoqlar bilan mustahkam bog'liq bo'lib kelganligini hisobga olish kerak.

ASM tushunchasining paydo bo'lishi yagona takror ishlab chiqarish jarayoniga birlashgan qishloq xo'jaligi bilan tutash tarmoqlar aloqalari va o'zaro bog'lanishlarining sifat jihatidan yangi darajasini bildiradi. Umumiy pirovard natija mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlariga va qishloq xo'jalik xomashyosidan tayyorlangan tovarlarga bo'lgan ehtiyoj-larini qondirish

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston blyuk kelajak sari. T.: «O'zbekiston», 1998, 239-betlar.

Faqat qishloq xo'jaligining holatiga emas, balki ASMning barcha tarkibiy qismlariga uyg'un rivojlanishiga ham bog'liq bo'ladi.

**Agrosanoat integratsiyasi.** ASM tashkil topishining negizi agro-sanoat integratsiyasi qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste'molchiga etkazi beruvchi tutash tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir. Agrosanoat integratsiyasi barcha tarkibiy darajalarda, barcha bo'g'inlarda: mamlakat va mintaqalar ko'lamida, korxonalar, tumanlar darajasida mavjud.

Agrosanoat integratsiyasi ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, ijtimoiy mehnat taqsimotini, ixtisoslashuvni chuqurlashtirish natija-sidir. Ana shu asosda qishloq xo'jaligining tarmoqlararo aloqalari yanada mustahkamlanib boradi. Undan bir qancha vazifalar ajralib chiqib, ular alohida korxonalar va tarmoqlar (ishlab chiqarish texnika va agroximiya xizmati ko'rsatish, melioratsiya ishlari va boshqalar) aylanadi. Qishloq xo'jalikning boshqa tarmoqlar bilan aloqalari mahsulot sotish yo'li bo'yicha kuchayadi.

Ixtisoslashish hamda kapital to'lanuvi o'sishi asosida qishloq xo'jaligining tovariligi oshib boradi. Bunday sharoitda ASM amal qilishining pirovard samarasi qishloq xo'jaligining tutash tarmoqlari bilan aloqalari qanday yo'lga qo'yilganligiga, ularning muvozanatlashuviga xal qiluvchi darajada bog'liqdir.

Agrosanoat integratsiyasi ko'p qirrali bo'lib, u g'oyat xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Bular eng avvalo ana shu jarayon qaysi darajada, ya'ni butun mamlakat ko'lamidami, viloyat doirasi yoki korxonada darajasidami yuz berishiga bog'liq. Integratsiya jarayonining xarakteriga ayrim tarmoqlarning xususiyatlari, olinayotgan mahsulotning va uni iste'mol qilishning o'ziga xosligi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, qishloq xo'jalik korxonalari iqtisodiyotning holatiga, ular xo'jaligining ixtisoslashish darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Bu shart-sharoitlar hududlar bo'yicha farqlanganligidan, agrosanoat integratsiyasining shakllariga mintaqaviy xususiyatlar ham ta'sir etadi.

Butun mamlakat va mintaqalar ko'lamida agrosanoat integratsiyasi qishloq xo'jaligining tarmoqlararo aloqalari kuchayishida, xalq xo'jaligi oziq-ovqat (tarmoq) va mintaqa agrosanoat majmualari tashkil bo'lishi va rivojlanishida ifodalanaadi.

Xalq xo'jaligi agrosanoat majmuasi nimani o'z ichiga olsa, oziq-ovqat bo'yicha kichik majmualar ham o'shalarni o'z ichiga oladi. Bunda donchilik, sabzavotchilik, paxtachilik, sutchilik va boshqa agrosanoat kichik majmualari haqida gapirish mumkin. Ularning har biriga qishloq xo'jaligida tegishli mahsulotni etishtirish, texnika, boshqa ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish, texnologiyalarini yaratish, selektsiya, shu tarmoq mahsulotini tayyorlash, tashish, qayta ishlash va sotish sohalari kiradi.

Oziq-ovqat bo'yicha agrosanoat kichik majmualari o'z xususiyatiga ega. Chunki istalgan tarmoqqa alohida texnika, texnologiya, mahsulotni tashish, saqlash va qayta ishlash vositalari kerak. Kichik majmualarning Samara-dorligi ko'p

jihatdan ulami tashkil etish chog'ida ayrim tarmoqlarning xususiyatlari hisobiga olinishiga bog'liq.

Mintaqaviy agrosanoat majmualarining tarkibi uning butun mamlakatdagi tarkibidan ancha farq qilishi mumkin. Qishloq xo'jaligi uchun texnika va o'g'itlar ishlab chiqaradigan zavodlar barcha hududlarda ham mavjud emas. Lekin istalgan mintaqa qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish texnika xizmati ko'rsatuvchi tizim amal qiladi, qishloq xo'jalik mahsulotini tayyorlash, saqlash, qayta ishlash va sotish bilan shug'ullanuvchi sohalar bor. Demak, bu yerda qishloq xo'jaligining unga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar bilan mustahkam ishlab chiqarish iqtisodiy aloqalari vujudga keladi. Tarmoqlararo aloqalarni oqilona olib borish, agrosanoat majmuasini balanslashgan rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Mintaqaviy butun mamlakatdagi majmuaga qaraganda ko'proq tarmoq xarakteriga ega. Bu yerda mintaqadagi qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi agrosanoat majmuasining shakllari va tarkibiga muhim ba'zan ega belgilovchi ta'sir kursatadi. Ishlab chiqarish texnik xizmati tizimi qishloq xo'jalik mahsulotini tayyorlovchi, saqlovchi va sotuvchi korxonalar va muassasalar tarmog'i muayyan mintaqa qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvini belgilaydigan mahsulotlarning xususiyatini hisobga olib barpo etiladi.

Quyida darajada, ya'ni korxonalar va tuman darajasida agrosanoat integratsiyasining shakllari agrosanoat korxonalari birlashmalari va kombinatlari, agro firmalar, tuman agrosanoat birlashmalari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ishlab chiqarish va ilmiy ishlab chiqarish tizimlaridan iborat.

Biroq agrosanoat integratsiyasi jarayoni bunday tuzilmalarni yaratishga aylanib ketishi shart emas. U, shuningdek, ishlab chiqaruvchi korxonalarining tutash tarmoqlar (mahsulotni tayyorlash, saqlash, qayta ishlash va sotish, shuningdek, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish sohasi) korxonalari va tashkilotlari bilan bevosita barqaror shartnoma aloqalarini o'rnatishda ham ifodalanadi.

## 5-§ Agrobiznes va uning turlari.

**Tadbirkorlik faoliyatini qishloq xo'jalik sohalaridagi shakli agrobiznes ko'rinishida namoyon bo'ladi.** Agrobiznes tushunchasiga qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi biznes turlari ham kiritiladi. Bu qishloq xo'jaligiga texnikaviy ta'mirlash xizmat ko'rsatish, uning mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Qisqacha qilib aytganda, agrobiznes agrosanoat integratsiyasi natijasida vujudga kelgan agrosanoat majmuasining barcha bo'g'inlarni qamrab oladi.

Agrobiznes faoliyatining maqsadi iste'mol bozorini yetarli miqdorda sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoatni esa xom ashyo bilan uzluksiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

Agrobiznesning asosiy shakli va birlamchi bugini fermer va dexqon xo'jaliklaridir. Chunki ular bevosita qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chikaradi. Bu xo'jalilar uz yerida yoki ijaraga olingan yerda ish yuritib, unda mulk egasi va ishlab chiqaruvchi fermerning o'zi va oila a'zolari xisoblanib ayrim xollarda yollanma mehnatdan foydalanish ham mumkin. Fermer xo'jaligining afzalligi shundan iboratki, undan mulk va mehnat bevosita qo'shiladi, bu esa yuqora samarani ta'minlaydi. Fermer xo'jaliklari mustaqil tuzilma bo'lish sababli o'z faoliyatini bozor konyuktarisiga tez moslashtira oladi. Unda iqtisodiy manfaat va pirovard natija uchun mas'uliyat bitta faoliyatning ikki tomonini tashkil qiladi. Bularning hammasi fermer xo'jaligining yashovchanligini ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy shartlaridan biri fermer xo'jaliklarini tashkil qilish va rivojlantirish xisoblanadi.

Respublikada isloxtlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichlaridayoq, Prezidentimiz Islom Karimov fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi sifatida faoliyat kursatishi lozimligini ta'kidlab o'tgan edi. Shu sababli respublikamizda qishloq xo'jaligini fermerlashtirish agrar isloxtlarning tarkibiy qismi xisoblanadi. Respublikada bu jarayon zarar ko'rib ishlash natijasida og'ir axvolga tushib qolgan davlat xo'jaliklarining tarkibi fermer xo'jaliklaridan iborat shirkatlar uyushmasiga aylantirish, mavjud davlat va jamoa xo'jaliklari tarkibida ular resurslari xisobidan fermer xo'jaliklari uyushtirish hamda dexqonning o'z moliyaviy –mulki negizidan bunday xo'jaliklarni dexqon xo'jaligi tashkil qilish yo'li bilan boradi. Fermer xo'jaligining barcha tashkiliy shakllarning umumiy tomoni shundaki, ular ijaraga olingan davlat yerida faoliyat ko'rsatadi. Fermer va dexqon xo'jaliklarini tashkil qilish, rivojlantirish va ular faoliyatini tartibga solish O'zbekiston respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «dexqon xo'jaligi tug'risida»gi, «qishloq xo'jaligi kooperativi shirkat xo'jaligi tug'risida»gi qonunlarga hamda qishloq xo'jaligida isloxtlarni chukurlashtirishga qaratilgan boshqa xuquqiy bilimlarga va xukumat qarorlariga asoslanadi.

Bu qonuniy aktlarga ko'ra fermer va dexqon xo'jaliklari boshqa mulk shakllariga tegishli korxonalar bilan teng xuquqli ishlab chiqaruvchi xisoblanadi. Ular mulkida turar-joy, xo'jalik binolari, asbob-anjomlar, texnika va transport vositalari, jamlangan pul mablag'lari turadi.


Fermerlarga ajratilgan yerlarni meros qilib qoldirish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga olish xuquqi mustaxkamlab qo'yildi. Shu bilan birga bu xo'jalik uchun yerlarning unumdorligini saqlash va oshirishda davlat tomonidan kafolatlar yaratish yuli bilan ularni ximoyalash tizimi vujudga keltirildi. Shunday kilib fermer xo'jaliklarini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun ham xuquqiy ham tashkiliy shart-sharoitlar yaratildi. Natijadi Respublika 1999-yilga kelib fakat fermer xo'jaliklari soni 23 000 dan ziyodni tashkil qildi. Ularga birlashtirilgan qishloq xo'jalik foydalanishidagi yerlar maydoni 446.5ming gektarni tashkil qilib, bir xo'jalik ixtiyoridaagi yer maydoni 19.4 gektarga tug'ri keladi. 1999 yilda fermer

xo'jaliklarida butun qishloq xo'jalik mahsulotlarining 3.9 foizi etishtirilgan. (2-chizma).

Fermer xo'jaliklari samarali ishlashi uchun zarur xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma-agrofimlar, mashina-traktor parklari, ta'mirlash ustaxonalari, tayyorlov punktlari i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kayta ishlovchi kichik korxonalar tizimi shakllandi.

Agrobiznes turlaridan biri agrofimlardir. Ular ma'lum turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish va uni pirovard mahsulot darajasigacha kayta ishlashni kushib olib boradigan korxonalaridir. Agrofimlar ham qishloq xo'jaligi, ham sanoatga xos resurslarni ishlatib, istemolga tayyor bulgan mahsulot yaratadi. Mazkur turdagi korxonalar turli mulkchilikka asoslanishi, chunonchi oilaviy xo'jalik asosida ham tashkil topib, kichik zavodlar bilan birikishi mumkin. Agrasanoat birlashmalari va kombinatlari agrobiznesning yangi turlaridir.

2-chizma O'zbekistonda xo'jalik toifalari bo'yicha yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining ishlab chiqarilishi. (% hisobida)



Agrasanoat birlashmalari bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi va unga bog'lik ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir necha xo'jalik hamda korxonalarini birlashtiradi. Masalan, Bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar, ular mahsulotini qayta ishlovchi sex va zavodlar, etkazib beruvchi savdo-sotiq korxonalarini bir texnologik jarayonga birlashtirib agrasanoat birlashmalarini tashkil qiladi. Birlashma ishtirokchilari ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy mustaqilliklarini saqlab qolishi bilan birga, ularning umumiy mulki ham tarkib topib boradi.

Agrasanoat kombinatlari qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish, qayta ishlash va istemolchilarga etkazib berishgacha barcha texnologik jarayonga xizmat qiluvchi xo'jalik va korxonalarining ma'lum bir xududida birlashuvidir. Agrobiznes turiga kengilli va paxchilik mablag'lari asosida tashkil qilingan turli xil uyushma va ittifoqlarni ham kiritish mumkin.

Qishloq xo'jaligidagi davlat korxonalari, jamoa xo'jaliklari va shirkatlari, turli xil mulkchilik asosida tashkil qilingan qo'shma korxonalar ham agrobiznes turlari sifatida faoliyat ko'rsatadi.

### Asosiy tayanch tushunchalar

**Agrar munosabatlar**-erga egalik qilish tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini o'zlashtirish jarayonida vujudga kelgan munosabatlar.

**Er rentasi**-er egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirishning shaklidir.

**Renta munosabatlari** – yerdan foydalanish natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromadni taqsimlash va o'zlashtirish bilan bog'liqlikda vujudga keladigan munosabatlar.

**Differentsial renta**-er uchastkalarining unumdorligidagi va joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad.

**Differentsial renta -1-** yerlarning tabiiy unumdorligi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad.

**Differentsial renta-2-** yerlarning iqtisodiy unumdorligini oshirish natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad.

**Absolyut renta**- qishloq xo'jaligida yerga bo'lgan xususiy mulkchilik monopoliyasi natijasida vujudga kelib, hamma turdagi: yaxshi, o'rtacha va yomon yerlardan olinadigan renta

**Monopol renta**- alohida tabiiy sharoitga ega bo'lgan, noyob qishloq xo'jalik maxsulotlari etishtiriladigan yerlardan olinadigan renta.

**Undirma sanoatda renta** – foydali qazilma konlarning joylashishi va ularning boyligidagi farqlar natijasida vujudga keladi.

**Agrosanoat integratsiyasi** – qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va maxsulotni iste'molchiga etkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir.

**Agrosanoat majmuasi** – Qishloq xo'jalik maxsulotlarini etishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish bilan bog'liq xo'jalik tarmoqlarining birligi.

**Agrosanoat infratuzilmasi** – bevosita qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga xizmat ko'rsatuvchi sohalar.

**Qishloq ijtimoiy infratuzilmasi** – odamlar yashash va turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan sohalar.

**Agrobiznes** – tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq sohalardagi namoyon bo'lish shakli.

### Savollar va o'quv topshiriqlar

1. Agrar munosabatlarning iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rini va xususiyatlarini ko'rsatib bering. yerning boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqi nimadan iborat? yerning tabiiy va iqtisodiy unumdorligiga tavsif bering.



2. «Erga egalik» va «erdan foydalanish» tushunchalarini izoxlang. Turli xil renta nazariyalarining umumiy tomonlari va tub farqlarini ko'rsatib bering. yer taklifining mutloq doimiylikga deganda nimani tushunasiz? yerga bo'lgan talab nima uchun xosila talab deyiladi?

3. «Renta muvozanatli baho sifatida» degan tasdiqni izohlang. yer resurslar bozorida muvozanatlik qanday o'atiladi?

4. Differentsial ( I va II) va absalyut rentaning xosil bulish shart sharoitlari, manbalari va taqsimlanishini tushuntirib bering. Monopol renta nima? Qazib oluvchi va undirma sanoatda renta qanday xosil bo'ladi?

5. «Ijara xaqi» va «er rentasi» tushunchalarini izoxlang. yerning narxi qanday aniqlanadi? Nima uchun yer narxi o'sib borish tamoyiliga ega?

6. Agrobiznesning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va uning asosiy turlariga tavsif bering?

7. Agrosanoat majmuasi va agrosanoat integratsiyasi tushunchalari iqtisodiy mazmuniga o'z fikringizni bildiring. Ularning vujudga kelish shart-sharoitlari tavsifini bering.

#### Adabiyotlar:

81. Karimov I. A. «Bizning bosh maksadimiz – jamiyatni demokratizatsiya va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir», «O'zbekiston» 2005.
82. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz», T. «O'zbekiston», 2000y.
83. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari.» -T. «O'zbekiston», 1998.
84. «To'g'ridan to'g'ri xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel.
85. Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T., «Moliya» nashriyoti, 2002.
86. A. Qodirov. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
87. D. Tajiboeva. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
88. Makkonel K., Bryu S. «Ekonomiks», M.2002.
89. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Rayzberga.- Uchebnik: - INFRA – M.2004.
90. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof.M. N. Chepurina. Uchebnik: - INFRA – M.2004.
91. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsh. red. akad. B. I. Bidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA – M.2004.
92. Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
93. E. F. Borisov Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
94. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
95. Ioxin B. Ya. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

96. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy. d.e.n., prof. T. B. Chechelovoy. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

21. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalq so'zi - 25 mart.
22. Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov - 2005.
23. Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. Yaxshiyevlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
24. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovi ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

#### Veb-saytlar:

46. [www.Worlfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
47. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
48. <http://infoteka.economics.ru>
49. [www.finansy.ru](http://www.finansy.ru)
50. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
51. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
52. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
53. [www.iahon.mfa.uz](http://www.iahon.mfa.uz)
54. [www.budiet.rf.ru](http://www.budiet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ruzani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalani b dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof.Sh.Sh Shodmonov, G.D.Bobabekova, G.T.Xalikova tomonidan tayyorlangan «Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v predpodovanii ekonomicheskoy teorii». T 2004, «Innovatsionnye metody obucheniya v ekonomicheskoy obrazovanii» va Sh.Sh.Shodmonov, T.M.Ziyaeva, M.T.Yaxshiyevlar tomonidan tayyorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.

## 12-M avzu. Milliy maqsulot va uning harakat shakllari

Kirish:

4 soat

Reja:

1. Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy ko'rsatgichlari.
2. Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va harakat shakllari
3. Milliy hisoblar tizimi va uning asosii ko'rsatgichlari nisbati. Yalpi milliy maxsulotni hisoblash usullari.

Mazkur mavzu da iqtisodiy munosabatlar makroiqtisodiy darajada taxlil qilinadi. Dastlab milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy ko'rsatgichlariga tavsif beriladi. Milliy ishlab chiqarishning natijasi hisoblangan yalpi milliy maxsulot, uning harakat shakllari va tarkibiy qismlarining iqtisodiy mazmuni eritiladi. Keyin yalpi milliy maxsulotni hisoblash usullarini bayoni beriladi.

### 1. Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy ko'rsatgichlari.

Iqtisodiy nazariya va ho'jalik amaliyotida yalpi milliy maxsulotni hisoblashning xar hil usullari dan foydalaniladi. Buni quydagi holatlar taqozo qiladi: birinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarish tavsifiga nazariy yondoshuvdagi farqlar; ikkinchidan, statistik hisob-kitoblarning xar hil usullari; uchinchidan, yalpi milliy maxsulot harakatining turli bosqichlari, tegishli bir hil bo'lmagan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni taqozo qiladi.

**Makroiqtisodiyot** - bu mamlakat rniqiyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy so'zlarini bir butun qilib olingan milliy iqtisodiyotdir.

Milliy ho'jalikning tarkib topgan tuzilishi izhtimoiy mexnat taqsimoti rivojining natijasi hisoblanadi.

Makroiqtisodiyot o'z ichiga halq ho'jaligining moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish, hamda hizmat ko'rsatish sohalari ni oladi.

Moddiy ishlab chiqarish sohalari o'z ravbatida halq ho'jaligining ko'plab yirik tarmoqlaridan iborat bo'ladi. Ular ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga (I va II bo'linma) ajratiladi.

Milliy iqtisodiyot meyorida faoliyat qilish uchun barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohalari ning o'zaro bog'liqligi va muvozanatli rivojlanishi talab qilinadi.

Nomoddiy ishlab chiqarish milliy iqtisodiyotning ijtimoiy iste'molni qondirishga hizmat qiluvchi (soliqni saqlash, ta'lim, tarbiya) va millatning madaniy rivojlanishini belgilab beruvchi (fan, madaniyat, san'at, sport) sohalari ni, hamda davlat boshqaruv va mudofaa tizimini o'z ichiga oladi.

Hizmat ko'rsatish sohalari uy-joy, kommunal ho'jaligi va madaniy maishiy harakterdagi hizmat ko'rsatuvchi ko'plab tizimlardan iborat bo'ladi.

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmi bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali, mikro va makroiqtisodiy darajada aniqlanib, tahlil qilinadi. Bu ko'rsatkichlar yordamida korxonalar faoliyatiga baxo beriladi va milliy iqtisodiyotning rivojlanish tamoyillari aniqlanadi.

Masalan, korxonalar faoliyatiga baxo berish uchun, ularning daromadlari va harajatlari hisoblab chiqiladi. Shu ma'lumotlarga asoslanib korxonaning foyda olishi ekin zararko'rishini bilish mumkin. Agar korxonaning ishi yaxshi bo'lib, foyda olsa, tegishli ma'lumotlaridan muvaffaqiyat sabablarini aniqlash uchun foydalaniladi.

Korxonalar zarar ko'rgan taqdirda ham tegishli mikroiqtisodiy ko'rsatkichlaridan uning bevosita sabablari aniqlanadi.

Mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar ham butun iqtisodiyot uchun huddi shunday vazifani bajaradi. Bu tizimga kiruvchi turli hil ko'rsatkichlar, birinchidan, bizga ma'lum vaqt oralig'idagi ishlab chiqarish hajmini hisoblash va milliy iqtisodiyotning faoliyat yuritishini bevosita ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi, Yanum ni uning harakatining barcha bosqichlarida, ya'ni ishlab chiqarish, taqsimlash, qayta taqsimlash va natijada foydalanish bosqichlarida ko'rgazmali shaklda aks ettirishga imkon beradi.

Nixoyat mazkur ko'rsatkichlar tizimi mavjud resurslar va ulardan foydalanishning mos kelishi (tengligi) kuzatilganda, mamlakatdagi umumiy iqtisodiy muvozanatlik holatini aks ettiradi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini yaxshi tushunib olish uchun bozor ho'jaligi sub'ektlari va bozor operatsiyalari tarkibini (klassifikatsiyasini) bilib olish zarur.

Bozor ho'jalik sub'ektlarini quyidagicha tasniflash qabul qilingan.

1. **Nomoliyaviy korxonalar yoki ishlab chiqarish shakllari.**

2. **Uy ho'jaliklari.**

3. **Davlat ma'muriy tashkilotlari.**

4. **Mazkur mamlakat chegarasidan tashqaridagi ho'jalik sub'ektlari.**

Bozorli operatsiyalar uchta katta guruhga bo'linadi:

1. **Tovarlar va xizmatlar bilan operatsiyalar (ishlab chiqarish, investitsiyalash, iste'mol qilish, import va shu kabilar).**

2. **Taqsimlash operatsiyalari (ish haqi, foyda, ijtimoiy sugurta to'lovlari va h.k.)**

3. **Moliyaviy operatsiyalar (pulga taaluqli aktivlar va passivlarning o'zgarishi, valyuta va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, kreditli operatsiyalar va h.k.)**

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda moliyaviy balanslar tizimi alohida o'rin tutadi. Bunda balans shaklidagi jadval orqali resurslar va ulardan foydalanish ikki yo'qlama yozish tartibida ko'rsatiladi, ya'ni har bir operatsiya to'lovchisi va oluvchisiga ega bo'ladi. Shu sababli bir marta resurslar va ikkinchi marta foydalanish sifatida yoziladi.

BMT statistika xizmati tavsiya qilgan uslub bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar harakati ikki darajada aks etadi: yig'ma hisobda YaMM, MD harakati, kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish, boshqa mamlakatlar bilan operatsiyalar; mukammal hisobda esa tarmoqlararo aloqalar, daromadlarning harakati, ularning taqsimlanishi va pirovard foydalanishi ko'rsatiladi. Yig'ma hisobga yalpi milliy maxsulotni daromadlar va sarflar bo'yicha hisoblash misol bo'la oladi. Buni ma'vzuning keyingi qismida qarab chiqamiz.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasini harakterlovchi juda ko'plab makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mavjud. Tarihiy jihatdan dastlab moddiy ishlab chiqarish sohalari rivojlanish miqiyosini harakterlovchi ko'rsatkichlarga ustunlik berilgan. Bu faqat foydali buyumlarni tayorlashda qo'llaniladigan mexnat tan olingan ishlab chiqarish sharoitida to'liq tabiiy xol hisoblanadi.

Shu nuqtay nazardan kelib chiqib ingliz klassik siyosiy iqtisodchilari milliy ho'jalikdagi barcha mexnatni ikki turga ajratgan:

1) Moddiy boyliklar yaratuvchi unumli va uni istemol qiladigan mexnat.

2) Boylik yaratmaydigan, faqat uni istemol qiladigan unumlik mexnat.

Bu nazariy asos tegishli makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqarish va ulardan uzoq yillar davomida ko'pchilik mamlakatlar ho'jalik amaliyotida foydalanishga sabab bo'lgan.

Mazkur ko'rsatkichlarni hozirgi davrda ham moddiy ishlab chiqarish sohalari rivojlanishini iqtisodiy taxlil qilishda qo'llash foydadan holi emas.

Ishlab chiqarishni sohalari rivojlanishini eng umumiy holda - ijtimoiy maxsulot ko'rsatkichi harakterlaydi. Ma'lum vaqt davomida (odatda bir yilda) moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan barcha maxsulotlar o'zining qiimat ifodasida jami ijtimoiy maxsulotni tashkil qiladi.

Butun halq Ho'jaligi ishlab chiqarish vositalari va istemol buyumlari ishlab chiqaradigan tarmoqlardan iborat bo'lganligi sababli jami ijtimoiy maxsulot (JIM)ning ashyoviy (natural-buyum) tarkibi ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlaridan iborat bo'ladi. Bunday bo'linish asosida JIM tarkibii elementlarining iste'mol qilinish harakteri etadi. JIMning ishlab chiqarish vositalaridan iborat qismi (mashina, uskuna va shu kabilar) ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladi va demak belvosita iste'molni qondiradi, iste'mol buyumlari (oziq-ovqat, kiyim-kechak va shu kabilar) esa ulardan farq qilib, bevosita ehtiyojlarni qondirish uchun ishlatiladi.

JIMning tarmoq tarkibi ham farqlanadi. JIM tarmoq tarkibi undagi ayrim tarmoqlar (sanoat, qishloq ho'jaligi va shu kabi) maxsulotlarining ulushi sifatida namoyon bo'ladi.

Qiymat shaklida JIM - iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati (S) va yangidan yaratilgan qiymatidan (V+m) iborat bo'ladi.

JIMni W bilan belgilasak, bunda  $W = c + V + m$  bo'ladi.

Yangidan yaratilgan qiymat zaruriy maxsulot eki ishchi kuchi qiymatidan (V) va qo'shimcha maxsulotdan (m) iborat bo'ladi.

JIM ko'rsatkichi mu xim kamchilikga ega. Uni hisoblashda ishlab chiqarishning barcha texnologik bosqichlaridagi moddiy harajatlar miqdori bir necha marta ko'rib chiqiladi. Buni misol orqali tushintiramiz. Faraz qilalik shundan kostyum ishlab chiqarish jarayoni, u tayor maxsulotga aylanib, pirovard iste'molchi qo'liga kelib tushguncha beshta texnologik bosqichdan iborat bo'ladi.

Besh bosqichli ishlab chiqarish jarayoni.

XVII-1 jadval.

| Bosqichlar | Ishlab chiqarish                                | Maxsulot yoki materiyallarning sotish baxosi (som) | Qo'shilgan qiymat (so'm) |
|------------|---|--|--------------------------|
| I          | Qo'ychilik fermasi                              | 60   | 60 (60-0)                |
| II         | Junni qayta ishlovch korxonasi                  | 100  | 40 (100-60)              |
| III        | Kostyum ishlab chiqaruvchi firma                | 125  | 25 (125-100)             |
| IV         | Qiymatning ulgurju sotuvchi hisi                | 175  | 50 (175-125)             |
| V          | Qiymatning chakana sotuvchi hisi                | 250  | 75 (250-175)             |
|            | Jami sotish summasi                             | 710  | 250                      |
|            | Qo'shilgan qiymat yoki pirovard maxsulot baxosi |  |                          |

JIM bu barcha texnologik bosqichlardagi maxsulotning to'liq qiymatini, ya'ni shu ishlab chiqarishdagi oraliq maxsulot (mexnat predmetlari) va pirovard maxsulot (qo'shilgan maxsulot) qiymatini qo'shib chiqish orqali hisoblanadi. holbuki oraliq maxsulot xar bir oldingi ishlab chiqarish jarayonining natijasi bo'lib, ularning pirovard maxsuloti sifatida amortizatsiya ajratmasi, ish haqi, renta, foiz to'lovchilari va foйда shaklida taqsimlanib boradi. Bizning misolda oraliq maxsulot II-bosqich uchun 60, III - bosqich uchun 100, IV-bosqich uchun 125 va V - bosqich uchun 175 so'mni tashkil qiladi.

Jami oraliq maxsulot qiymati - 460 so'm. Barcha ishlab chiqarish bosqichlari pirovard (qo'shilgan) maxsuloti esa 250 so'm (60+40+25+50+75) ni tashkil qiladi. JIM barcha ishlab chiqarish texnologik bosqichlari maxsulotlari qiymatining summasi (710 so'm) eki ular oraliq va pirovard maxsulotlari qiymatining yig'indisi (460+250) sifatida aniqlanadi.

Boshqacha aytganda:

JIM oraliq maxsulot + pirovard maxsulot

Oraliq maxsulotga ishlov berish, qayta ishlash va sotish maxsablari uchun harid qilingan tovarlar kiradi.

Pirovard maxsulot iste'molchilar tomonidan foidalanish uchun sotib olinadigan tayor tovarlar va xizmatlardan iborat bo'ladi.

Pirovard maxsulot mexnat predmetlari qiymatini takroriy hisoblashdan ozod bo'lsada, u mexnat vositalarining yillik amortizatsiya ajratmalari summasiga teng bo'lgan, ko'chgan qiymat o'tmish mexnat natijasi bo'lib, oldingi davrlarda vujudga keltirilgan. Shu sababli moddiy ishlab chiqarish hodimlarining joriy yildagi faoliyatini aniq baxolash uchun boshqa umumlashtiruvchi ko'rsatkich zarur bo'ladi. Bunday ko'rsatkich sof milliy maxsulot qisoblanadi.

Sof milliy maxsulot - bu yalpi ijtimoiy maxsulotning bir qismi bo'lib, o'zida moddiy ishlab chiqarish soqalarida yil davomida yangidan vujudga keltirilgan qiymatini ifodalaydi.

Milliy daromad pirovard maxsulot -omortizatsiya eki  $W-ChV+m$

Butun milliy iqtisodiyotning holatini harakterlovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich - yalpi milliy maxsulot YAMM hisoblanadi.

Bu ko'rsatkich moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy xizmat ko'rsatish sohalaridagi barcha ho'jalik birliklari iqtisodiy faoliyati pirovard natijalarini qamrab oladi.

## **2. Milliy maxsulotning iqtisodiy mazmuni va harakat shakllari**

Yalpi milliy maxsulot (YAMM) - milliy ho'jalikda bir yil davomida vujudga keltirilgan pirovard maxsulot va xizmatlar bozor qiymatidan iborat bo'ladi.

Demak, YaMM milliy iqtisodiyotda yil davomida ishlab chiqarilgan barcha pirovard maxsulot (xizmatlar) ning bozor qiymati. Biz bilamizki, joriy yilda ishlab chiqilgan barcha maxsulotlar sotilmasligi mumkin, ularning bir qismi zahiralarni to'ldiradi. Ya'ni YaMM hajmini hisoblab topishda zaxiralarning xar qanday o'sish hisobga olinishi zarur, chunki YaMM erdamida joriy yildagi barcha maxsulotlar (sotilgan va sotilmagan) hisobga olinadi.

Milliy ishlab chiqarishning yalpi hajmini to'g'ri hisoblab chiqish uchun, mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha maxsulot va xizmatlar bir marta hisobga olinishi zarur. YaMM hajmini topishda sotilgan va qayta sotilgan maxsulotlarni ko'p marta hisobga olishlarni bartaraf qilish uchun, halq ho'jaligining barcha tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisi olinadi. Bizning yuqorida keltirilgan misolda (XVII-2 jadval) bu 250 s'ymni tashkil qiladi.

Qo'shilgan qiymat - bu korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan maxsulot qiymatidan etkazib beruvchilardan sotib olingan va iste'mol qilingan hom-ashe va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati.

Boshqacha aytganda qo'shilgan qiymat - bu korxonada yalpi maxsulotidan eki ishlab chiqargan maxsulotning bozor narhidan joriy moddiy harajatlar chiqarib tashlangan miqdoriga teng.

YaMM erdamida milliy iqtisodiyotda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish yillik hajmini hisoblashga harakat qilinadi. Ko'zlangan maqsada erishish uchun iqtisodiyotda yil davomida amalga oshiriladigan kuplab unumsiz bitimlar hisobga

olinmasligi zarur. Unumsiz bitimlarning ikki asosiy turi mavjud. 1. Sof moliyaviy bitimlarlar. 2. Saqlanib turgan tovarlarni sotish.

Sof moliyaviy bitimlar o'z navbatida uchta asosiy turga bo'linadi: a) davlat budjetidan bo'ladigan ijtimoiy to'lovlari; b) hususiy ijtimoiy to'lovlar; c) qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish.

Davlat ijtimoiy to'lovlari o'z ichiga davlatning alohida shaxs va oyilalarga beradigan ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlari, ishsizlik bo'yicha nafaqalap va faxriylik nafaqalarini oladi. Davlat ijtimoiy to'lovlarning muxim xususiyati shundan iboratki, uning oluvchilari bu to'lovlarga javoban ishlab chiqarishning joriy hajmini yaratishga hech qanday hissa qo'shmaydi. Shunday ekan, ulapni YaMM hajmiga kiritish, shu yil uchun bu ko'rsatkichni oshirishga olib kelgan bulup edi.

Xususiy ijtimoiy tulovlar, masalan, dorilfunun talabasining uyidan oladigan oylik yordam pullarini YaMM hajmiga kiritish ham xuddi shunday natijaga olib keladi. Qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan bitimlar, masalan, aksiya va obligasiyalarni sotish-sotib olish hajmi ham YaMM ga kiritilmaydi. Chunki bu bitimlar to'g'ridan-to'ri joriy ishlab chiqarish hajmini ko'paytirmaydi.

Ushlab turilgan buyumlarni sotish yohud joriy ishlab chiqarishni aks ettirmaydi, ehud ikki marta hisobni o'z ichiga oladi. Masalan, faraz qilamiz, siz 1985 yil ishlab chiqarilgan avtomashinangizni sotdingiz. YaMM hajmini aniqlashda bu bitim hisobga olinmasligi zarur, chunki u ishlab chiqarish joriy hajmining ko'payishi bilan birga bormaydi. Bir necha yil oldin ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish summasini zhorii iildagi YaMM hajmiga kiritish, shu yildagi ishlab chiqarish hajmining sun'iy oshirilishiga olib keladi.

Iqtisodiyotda yillik ishlab chiqarish hajmining ko'rsatkichi YaMM bilan birga, uning asosida hisoblanish mumkin bo'lgan bir qator o'zaro bogliq ko'rsatkichlar mavjud bo'ladiki, ular milliy iqtisodiyotning turli tumanlarini harakterlab beradi. YaMM ko'rsatkichiga sof eksport, eksport va import o'rtasidagi farq kiradi. Ammo turli mamlakatlarda tashqi savdo faoliyatining salmoqi keskin farqlanadi. Shu sababli milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasini halqaro taqqoslash uchun yalpi ichki maxsulot (YaIM) ko'rsatkichidan foydalaniladi. YaIM ma'lum vaqt davomida (bir yilda) mamlakat hududida ishlab chiqarilgan pirovard maxsulot va hizmatlarning bozor qiymati. U barcha ishlab chiqaruvchilar qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida chiqadi. YaMM berilgan bo'lsa undan to'lov balansi qoldig'i (eksport va import o'rtasidagi farq)ni chiqarib tashlash yo'li bilan YaIM aniqlanadi.

YaMM va YaIM ishlab chiqarish yalpi hajmining ko'rsatkichi sifatida bitta muxim kamchilikka ega. Ular mazkur yilda ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan o'rnini to'plash uchun zarur bo'lgan qiymatni ham o'z ichiga oladi. YaMMdan joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan kapital qiymati yoki yillik amortizasiya summasi ayirib tashlansa sof milliy maxsulot (SMM) ko'rsatkichi hosil bo'ladi.

YaMM - amortizasiya yillik summasi ? SMM



Shunday bo'lib, SMM amortizasiya ajratmasi summasiga kamaytirilgan YaMM sifatida chiqadi.

SMM qiymatiga davlat tomonidan o'ratiladigan egri soliqlar summasi kiradi. Egri soliqlar korxonaga tomonidan o'ratiladigan baxoga qo'shimcha hisoblanadi. Bunday soliqlar iste'molchi zimmasiga tushadi va uning hisobiga o'zlarining daromadining bir qismini yo'qotadi. SMMdan egri soliqlar chiqarib tashlansa milliy daromad (MD) ko'rsatkichi hosil bo'ladi.

Resurslarni etkazib beruvchilar nuqtai nazaridan, milliy daromad ularning joriy ishlab chiqarishda qatnashishdan olgan daromadlari summasi, korxonaga nuqtai nazaridan ishlab chiqarish omillari ekin resurslari baxosi ko'rsatkichi hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda bu ko'rsatkich mazkur yilda ishlab chiqarish hajmini yaratishga ketgan iqtisodiy resurslarning bozor baxolarini aks ettiradi.

**SMM - biznesga egri milliy daromad.**

Amaliyotda ishlab chiqarilgan va foydalanilgan MD farqlanadi. Ishlab chiqarilgan MD - bu yangidan yaratilgan tovar va xizmatlar qiymatining butun hajmi. Foydalanilgan MD - bu ishlab chiqarilgan MD-dan yoqotishlar (tabiiy ofatlar, saqlashdagi yo'qotishlar va h.k.) va tashqi savdo qoldiqi chiqarib tashlangan miqdorga teng.

Bizning amaliyotda MD iste'mol va jamg'arish fondiga ajratiladi. Iste'mol fondi - bu milliy daromadning jamiyat a'zolarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini hamda butun jamiyat ehtiyojlarini (ta'lim, mudofaa va h.k.) qondirishni ta'minlashga ketadigan qismi. Jamg'arish fondi - bu milliy daromadning ishlab chiqarishni rivojlantirishni ta'minlaydigan qismi.

Milliy daromadni daromadlar barcha turlarini (amortizasiya ajratmasi va biznesga egri soliqlardan tashqari) qo'shib chiqish yo'li bilan ham aniqlash mumkin.

Milliy daromadning bir qismi, jumladan ijtimoiy stoxovaniyaga ajratmalar, korxonaga foydasiga soliqlar va korxonaning taqsimlanmaydigan foydasi amalda uy xo'jaliklari qo'liga kelib tushmaydi. Aksincha, uy xo'jaliklari oladigan daromadning bir qismi, masalan, ijtimoiy to'lovlar - ular qilgan mehnatining natijasi hisoblanmaydi.

Shaxsiy daromad ko'rsatkichini topish uchun milliy daromaddan uy xo'jaliklari qo'liga kelib tushmaydigan daromadlarning uchta turini (ishlab topilgan) chiqarib tashlashimiz, hamda joriy mehnat faoliyatining natijasi hisoblanmagan daromadlarni unga qo'shishimiz zarur.

**Milliy daromad + ijtimoiy stoxovaniya ajratmasi + korxonaga foydasiga soliqlar + korxonaning taqsimlanmaydigan foydasi + ijtimoiy to'lovlar + shaxsiy daromad.**

Shaxsiy daromaddan soliqlari to'langandan keyin, uy xo'jaliklarining to'liq tasarrufida qoladigan daromad shakllanadi.

Soliqlar to'langandan keyingi daromad shaxsiy daromaddan shu daromad hisobidan to'lanadigan soliqlar miqdorini chiqarib tashlash yo'li bilan hisoblanadi.

Soliqlar to'langandan keyingi daromad uy xo'jaliklari eng oxirida ega bo'ladigan daromad hisoblanib, alohida shaxs va oilalar o'z tasarrufida bu daromadlarning bir qismini iste'mol uchun sarflaydi va boshqa qismini jamg'armaga yo'naltiradi. makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning qarab chiqilgan tahliliga asoslanib, bu ko'rsatkichlar butun tizimi nisbatini ko'rgazmali tasavvur qilishimiz mumkin bo'ladi.

|                       |               |                |
|-----------------------|---------------|----------------|
| Yalpi milliy mahsulot | Sof eksport   |                |
| Yalpi ichki mahsulot  | Amortizasiya  |                |
| Sof milliy mahsulot   | Egri soliqlar | Milliy daromad |

**Milliy daromad - ijtimoiy strahovaniya ajratmalari; korxonalar foydasiga soliqlar; korxonalar taqsimlanmaydigan foydasi + ijtimoiy to'lovlar ? Shahsiy daromad shu daromad hisobiga soliqlar, Soliqlar to'lanadigan keyingi daromad.**

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi yordamida milliy hisobni tashkil qilish imkoniyati vujudga keladi.

Yalpi milliy mahsulot ko'rsatkichi barcha ho'jalik birliklari yalpi pul daromadlari, hamda barcha tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga sarflarning umumiy miqdorini bir vaqtda aks ettiradi. Bu butun mamlakat miqyosida keng qamrovli milliy hisoblar tizimini kiritishga asos bo'ladi.

Milliy hisoblar - bu YaMM va milliy daromadni ishlab chiqarish taqsimlash hamda ulardan foydalanishni harakterlaydigan o'zaro bog'liq makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi.

Milliy hisoblarni tuzishda ikki eqlama o'quv tartibidan foydalaniladi. Bunday hisoblar halqaro statistikada standart tizim sifatida 1953 yildan boshlab qo'llanila boshladi. hozirgi davrda dunyoning 100 dan oshiq mamlakatlarida mazkur tizim keng qo'llaniladi.

Milliy hisoblar asosini yig'ma balanslar tashkil qiladi. Bunga daromad va harajatlar balans misol bo'lishi mumkin. Daromadlar ho'jalik birliklari va aholi umumiy daromadlari (ish haqi, foyda, daromadlarning boshqa turlari, amortizasiya) summasini aks ettiradi. Harajatlar to'rtta gruppadan iborat bo'ladi: iste'mol, investitsiyalar, davlat haridi, sof eksport. Milliy hisoblar makroiqtisodiyotning meyoridagi - muvozanatli holatga erishish darajasini aniqlashga erdam beradi.

**3. Milliy hisoblar tizimi va asosiy ko'rsatkichlari nisbati. Yalpi milliy mahsulot va uni hisoblash usullari**

YaMM (YaIM) uch hil usul bilan hisoblanishi mumkin:

Birinchi usul - bu YaMMni hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv. Bunda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bo'yicha yaratilgan qo'shilgan qiymatlar qo'shib chiqishda (YaIM tarmoq va ishlab chiqarishlar bo'yicha). Bu usul bilan hisoblangan YaMM (YaIM) alohida tarmoqlarning shu mahsulotini yaratishdagi rolini va hissasini aniqlash imkonini beradi. Masalan,

O'zbekistonda YaIM 1993 yil halq xo'jaligining tarmoqlari va sohalari bo'yicha 5095,2 mlrd. So'mni tashkil qilgan. Shu jumladan: moddiy ishlab chiqarish sohalarida - 4252,0 mlrd so'm (%) noishlab chiqarish sohalarida - 842,4 mlrd. So'm (%). Respublikada YaIM ning tarmoqlar bo'yicha tuzulishi shu yili quyidagi ma'lumotlar bilan harakterlangan. (mlrd. sym)

YaIM jami - 5095,2

shu jumladan: sanoatda - 1139,7 (22,4%)

qurilishda - 457,1 (9,0%)

qishloq xo'jaligida - 1420,9 (27,9%)

hizmat ko'rsatish sohalarida - 1596,8 (31,3%)

shu jumladan: savdoda - 316,9 (6,2%)

transport va aloqada - 280,5 (5,5%)

boshqa sohalarda - 999,4 (19,6%)

sof soliqlar - 480,7 (9,4%)

Ikkinchi usul - bu YaIM (YaIM)ni hisoblashga sarflar bo'yicha yondashuv.

Bunda mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot (hizmat)lar hajmini sotib olishga qilingan butun sarflar qo'shib chiqiladi. Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulotlarni mamlakat ichida ho'jalikning uchta sub'ekti - u ho'jaliklari, davlat, tadbirkorlar hamda chet ellik iste'molchilar sotib olishi mumkin.

Uy ho'jaliklarining pirovard iste'molchilik sarflari. Bu kundalik tovarlarga, hizmatlarga uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlariga va boshqalarga qilinadigan sarflardir.

Investision sarflar tadbirkorlik sektorining asosiy kapitalni yalpi jang'arishga qiladigan sarflardir.

Investision sarflar asosan uchta qismdan iborat: a)tadbirkorlar tomonidan mashina, yskuna va stanoklarning barcha pirovabd xaridi; b)barcha qurilishlar; v)zahiralarning o'zgarishi.

Birinci guruh elementlarning "investisiyalar" tarkibiga kiritilish sababi aniq, lekin keyingi element (qurilish)ning kiritilishi ayrim tushuntirishlarni taqozo qiladi. O'z-o'zidan aniqki, yangi fabrika, ombor eki elevator qurilishi investisiyalar shakli hisoblanadi. Lekin g'arb milliy hisobotida uy-joy qurilishi ham investisiya kategoriyasiga kiritiladi. Ko'p kvartirali turar joy uylari ham fabrika va zavodlar kabi daromad keltiruvchi aktivlar hisoblanishi dalil qilib keltiriladi. Bundan tashqari, ijaraga topshirilgan va mulkdor tomonidan egallagan yashash uylari hatto ijaraga topshirilmagan holda ham investision tovarlarga kipitiladi.

YaIM tarkibiga zahiralarning ko'payishi, ya'ni ishlab chiqarilgan, lekin mazkur yilda sotilmagan barcha maqsulotlar kipitiladi. Boshqacha aytganda YaIM o'z ichiga yil davomidagi zahiralalar va ehtiyojlar barcha o'sishining bozor qiymatini oladi. Korxonalar ombor va peshtaxtalarida yil oxirida, yil boshida bo'lganga nisbatan ko'proq tovarlar to'planib qolsa, bu iqtisodiyotda mazkur il davomida

iste'molga keradigan kyp'roq mahsulot ishlab chiqarganligini bildiradi. Zahiralarning bu o'sishi YaMMra joriy ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichi sifatida qo'shiladi.

Zahiralari kamayganda, u YaMM hajmidan chiqarilishi zarur. Zahiralarning kamayishi yil davomida milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgandan ko'poq mahsulot sotilganligini bildiradi. Boshqacha aytganda jamiyat mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotni va bunga qo'shimcha oldingi yillardan qolgan zahiralarning bir qismini iste'mol bo'lgan bo'ladi.

Qo'ldan qo'lga o'tgan qimmatli qog'ozlar va mavjud aktivlarning qayta sotilishi investisiyalarga kirmaydi. Chunki by bitim oldin mavjud bo'lgan aktivlarga mulkchilik huquqining bir kishidan boshqashiga o'tganligini bildiradi.

Milliy hisoblar tizimida YaMMni hisoblashda yalpi, xususiy va ichki investisiyalar tushunchasidan foydalaniladi. Xususiy va ichki investisiyalar mos ravishda xususiy va milliy kompaniyalar amalga oshiradigan investision sarflarni bildiradi. Yalpi investisiyalar o'z ichiga joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan mashina, uskuna va qurilmalarning o'rmini qoplash uchun mo'ljallangan barcha investision tovarlar ishlab chiqarishni, hamda iqtisodiyotda kapital hajmiga har qanday sof qo'shimchalarni oladi. Yalpi investisiyalar mohiyatiga ko'ra iste'mol qilingan kapitalni qoplash summasini va investisiyalarning o'sgan qismidan iborat bo'ladi. Boshqa tomondan sof xususiy ichki investisiyalar tushunchasi joriy yil davomida qo'shilgan investision tovarlar summasini xarakterlash uchun ishlatiladi. Ularning farqini oddiy misolda ancha aniq tushuntirish mumkin. Faraz qilaylik, Respublikamiz iqtisodiyotida 1995 yil 500 mlrd. So'mlik investision tovarlar (ishlab chiqarish vositalari) ishlab chiqarilgan bo'lsin. Ammo YaMMni ishlab chiqarish jarayonida shu yili 400 mlrd. So'mlik mashina, uskuna va boshqa investision tovarlar iste'mol qilingan. Natijada bizning iqtisodiyotga 1995 yil 100 mlrd. So'mlik jamg'arilgan kapital qiymati qo'shiladi. Shu yili yalpi investisiyalar 500 mlrd. So'mlik sof investisiyalar faqat 100 mlrd. So'mni tashkil qiladi. Ikki ko'rsatkich o'rtasidagi farq, 1995 yilgi YaMM hajmini ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilgan va iste'mol qilingan kapital qiymatini ifodalaydi.

Yalpi investisiyalar va amortizasiya (shu yili ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan kapital hajmi o'rtasidagi nisbat, iqtisodiyot yuksalish, turqunlik yoki tanazzul holatida joylashganligini xarakterlab beruvchi ko'rsatkich (indikator) hisoblanadi.

Yalpi investisiyalar amortizasiyadan ortiq bo'lsa, iqtisodiyot yuksalish bosqichida joylashadi, uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi. Masalan, bizning yuqoridagi misolda ta'kidlanganidek, 1995 yil yalpi investisiyalar 500 mlrd. So'mni, ishlab chiqarishda iste'mol qilingan investisiya tovarlar hajmi 400 mlrd. So'mni tashkil qilgan. Bu iqtisodiyotda shu yil 1996 yil eki 1997 yil oxirida 100 mlrd. So'mlik investision tovarlar ko'p bo'lganini bildiradiki, investision tovarlar

taklifining ko'payishi, iqtisodiyotning ishlab chiqarish quvvatlarini ko'paitirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Iqtisodiyot yalpi investisiyalar va amortizatsiya teng bo'lgan vaziyatni aks ettiradi. Bu iqtisodiyotda mazkur yilda YaMMni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan vositalarni qoplash uchun zarur bo'lgan miqdorda kapital ishlab chiqarishni bildiradi. Boshqacha aytganda, sof investisiyalar taxminan no'lga teng bo'ladi, ishlab chiqarish quvvatlari kengaymaydi.

Yalpi investisiyalar amortizatsiyaga qaraganda kam bo'lsa, ya'ni iqtisodiyotda ishlab chiqarilganga qaraganda kapital ko'proq iste'mol qilinsa, noqulay vaziyat vujudga keladi. Bunday sharoitda iqtisodiyotda investisiyalarning qisqarishi ro'y beradi. Bu yil oxirida kapital hajmi yil boshida mavjud bo'lgandan kam bo'lib qolishga olib keladi. Masalan, "Buyuk turqunlik" davrida, aniqrog'i 1933 yil AQShda yalpi investisiyalar hammasi bo'lib 1,6 mlrd. dol. ni, yil davomida iste'mol qilingan kapital - 7,6 mlrd. dol. ni tashkil qilgan. Shunday qilib, investisiyalarning sof qisqarishi 6 mlrd. dol. ga teng bo'lgan.

**Davlat pirovard sarflari** - bu korxonalarining pirovard maxsulotlarini va iqtisodiy pesurslarni, xususan ishchi kuchini sotib olishga davlatning (boshqaruvning quyi va maxalliy organlari bilan birga) barcha sarflarini o'z ichiga oladi. Ammo u davlatning barcha ijtimoiy tulovlarini bartaraf qiladi, chunki bunday sarflar yuqorida ta'kidlanganidek jopiy ishlab chiqarishning ko'payishini aks ettirmaydi, balki davlat daromadlarining oyla va alohida shaxslarga berilishi hisoblanadi.

Chet elliklarning milliy iqtisodiyot tovarlariga sarflari huddi mamlakat ichidagi iste'molchilik sarflari kabi milliy ishlab chiqarish darajasiga bog'liq. Shu sababli YaMMni sarflar bo'yicha hisoblashda tovar va hizmatlarga chet elliklarning sarflari, ya'ni eksport qiymati ham qo'shiladi. Boshqa tomondan, iste'molchilik va investision sarflar hamda davlat mablag'larining bir qismi import qilingan, ya'ni chet elda, ishlab chiqarilgan tovarlarga sarflanadi. Milliy ishlab chiqarish umumiy hajmi asossiz oshib ketmasligi uchun import hajmi YaMMdan chiqariladi. Buning uchun eksport va import miqdorlari o'rtasidagi farq aniqlanadi. Bu farq tovar va hizmatlarning sof eksporti, eki oddiy qilib sof eksport deyiladi. Sof eksport ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Agar eksport importdan ortiq bo'lsa, bu ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Agar eksport importdan ortiq bo'lsa. Bu ijobiy, aks holda salbiy bo'ladi.

Qarab chiqilgan sarflarning to'rt toifasiga uy ho'jaliklariga hizmat ko'rsatuvchi notijorat muassasalar (kasaba ittifoqlar, siyosiy partiyalar, diniy tashkilotlar va ijtimoiy tashkilotlar) pirovard sarflari va moddiy aylanma vositalari zahirasidagi o'zgarishlarni qo'shib chiqish yo'li bilan.

1993 yil O'zbekistonda sarflar (foida lanish) bo'yicha YaIM 5095,2 mlrd. So'mni tashkil qilgan. Shu jumladan:

**Pirovard iste'molga sarflar - 4184,9 mlrd. s'ym (82,1%)**

**Yalpi jam'arishga sarflar - 747,4 mlrd. s'ym (14,7%)**

**Sof eksport - 162,9 mlrd. So'm (3,2%)**

Uchinchi usul - bu YaMM (YaIM)ni daromadlar bo'yicha hisoblash.

Mazkur yilda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot hajminidan olingan barcha daromadlar uy ho'jaliklariga ish haqi, renta to'lovlari, foiz va foida shaklida kelib tushadi. Shu sababli bu usulda YaMM (YaIM) pirovard mahsulot hajmidan olingan barcha daromadlarni qo'shib chiqish orqali aniqlanadi.

YaMM (YaIM)ni daromadlar bo'yicha hisoblash uy ho'jaliklari, korxonalar va davlat muassasalarining dastlabki, ya'ni ham taqsimlangan daromadlarini mexnat haqi va yalpi foyda (renta, ssuda va bank fondi, tadbirkorlik foydasi va h.k.) ajratish mumkin. YaMM (YaIM)ni mazkur usul bo'yicha hisoblashda daromadlarning barcha toifasiga mablag'larni taqsimlashning daromad to'plash bilan bog'liq bo'lmagan ikki turi; iste'mol qilingan kapital ajratmalar (amortizatsiya ajratmasi) va biznesga egri soliqlar ham qo'shiladi.

Agar YaMMni hisoblashning oxirgi ikki usulni oddiy tenglik shaklida tasvirlasak:

**Mazkur yilda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotib olishga sarflar hajmi Mazkur yilda ishlab chiqarilgan maxsulotdan olingan pul daromadi.**

Maxsulotni ishlab chiqarishga nima sarflangan bo'lsa, bu mazkur maxsulotni ishlab chiqarish va o'zining inson va material resurslarini bozorda sotishga qo'yganlari uchun daromad hisoblanadi.

XVII-2 jadval.

**YaMMni hisoblashga sarflar va daromadlar bo'yicha yondashuv.**

| Ishlab chiqarish hajmini sarflash summasi bo'yicha hisoblash | Ishlab chiqarish hajmini sarflash summasi bo'yicha hisoblash   |
|--|--|
| 1. Uy ho'jaliklarining iste'molchilik sarflari<br>+          | 1. Uy ho'jaliklarining iste'molchilik sarflari<br>+ 1. Daromad to'lash bilan bo'li? bo'lmagan sarf va to'lovlar<br>a) amortizatsiya, b) egri soliqlar<br>+ |
| 2. Biznesning investitsion sarflari<br>+                     | 2. Ish haqi<br>+   |
| 3. Tovar va xizmatlarni davlat harid qilish<br>+             | 3. Renta to'lovlari<br>+   |
| 4. Chet elliklar sarfi<br>+                                  | 4. Foiz<br>+   |

|  |             |
|--|-------------|
| 5. Notijorat muassalami sarfi<br>+                       | 5. Foyda    |
| 6. Moddiy aylanma vositalar<br>zahirasidagi o'zgarishlar |             |
| YaMM (YaIM)  | YaMM (YaIM) |

O'zbekistonda 1993 yil YaIM daromadlar bo'yicha 5092,2 mlrd. So'mlik tashkil qilgan. Shu jumladan:

Mexnat haqi (zaruriy maxsulot) 1956,7 mlrd. So'm (38,4%)

Aralash daromadlar bilan birga yalpi foyda (qo'shimcha maxsulot) 2205,9 mlrd. So'm (9,4%)

Sof soliqlar 480,7 mlrd. So'm (9,4%)

YaMM (YaIM) tarkibiga kirgan daromadlar va daromad to'lash bilan bog'liq bo'lmagan sarflar (amortizatsiya va egri soliqlar) ning aloxida turlarini batafsil qarab chiqamiz.

Kapitalning ko'pchilik turlarining foydali xizmat muddati bir necha yildan ancha ko'p. Investision tovarlarni sotib olishga qilinadigan sarflar va ularning unumli xizmat muddati amalda bir davrga to'g'ri kelmaydi. Natijada bir tomondan sotib olish davrida foydaning va demak butun daromadning pasayishiga va boshqa tomondan keyingi yillarda foyda va yalpi daromadning oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida aloxida korxonalar investision tovarlarning foydali xizmat muddatini hisoblaydi va ularning umumiy qiymatini butun xizmat muddatiga teng taqsimlaydi. Kapitalning yil davomida ishlab chiqarish jarayonida istemol qilingan va yaratilayotgan maqsulotga ko'chgan qiymati amortizatsiya deyiladi. Amortizatsiya kapital turlari bo'yicha har yili ajratib boriladi. Masalan, to'quv dastgohining qiymati 5 mln. So'm, xizmat muddati 10 yilga teng. Yillik amortizatsiya ajratmasi 0,5 mln. So'mni (5:10) tashkil qiladi.

Amortizatsiya ajratmasi shu yil ishlab chiqarilgan mahsulot (YaMM) qiymati tarkibiga ishlab chiqarish harajatlari sifatida kirib, maxsulot sotilishi natijasida pul shaklida qaytib keladi va amortizatsiya fondi hisobida to'planib boradi. Bu fond mablag'laridan istemol qilingan kapitalni qayta tiklash, ya'ni yangi investision tovarlar sotib olish va amal qilib turganlarini qayta tiklash (kapital remont va restovratsiya) uchun foydalaniladi. U ishlab chiqarishni kengaytirish va kredit pesurslarining manbai ham hisoblanadi.

Daromad to'plash bilan bog'liq bo'lmagan harajatlarning boshqa turi shu sababli vujudga keladiki, davlat korxonalaridan ma'lum bir soliqni undirib oladi va ular biznes egri soliqlar deyiladi. Korxonalar unga ishlab chiqarish harajatlari sifatida qaraydi va shu sababli mahsulot bahosiga qo'shadi.

Bunday soliqlar o'z ichiga aksizlar, sotishdan olinadigan soliqlar, mulk solig'i, lisenziya va bojxona to'lovlarini oladi.

Daromadlarning eng katta turi birinchi navbatda ish haqini o'z ichiga olib, u tadbirkorlar va davlat tomonidan mexnatini taqdim qilganlarga to'lanadi. U ish haqiga ko'plab qo'shimchalar, xususan, tadbirkorlarning ijtimoiy sug'urta

to'lovlari va nafaqa ta'minotining xar hil xususiy fondlari, ishsizlik nafaqalari va boshqa har xil yordamlarni o'z ichiga oladi. Ish haqiga bu qo'shimchalar tadbirkorlarning ish kuchini yollash bilan bog'liq bo'lgan harajatining bir qismi sifatida chiqadi va shu sababli korxonaning ish haqi to'lashga umumiy sarflarining elementi sifatida qaraladi.

Renta to'lovlari iqtisodiyotni resurslar (kapital, er) bilan ta'minlovchi uy xo'jaliklarining oladigan daromadi hisoblanib, korxonaga harajatlari tarkibiga kiradi.

Foiz xususiy biznesning pul kapitali rgalariga pul daromadi to'lovlaridan iborat. Davlat to'monidan amalga oshiriladigan foizli to'lovlar, foizli daromadlardan chiqariladi.

Mulkdan olinadigan daromadlar ikki turga bo'linadi: bir qismi mulkda daromad eki nokorporativ tadbirkorlik sektori daromadi, boshqa qismi esa korpopasiyalar foydasi deyiladi. Nokorporativ tadbirkorlik sektori daromadi shaxsiy, sherikchilik va kooperativ mulkda joylashgan kopxonalar sof daromadini bildiradi.

Korporasiyalar foydasi uch usulda foydalanilishi mumkin. Birinchidan, ma'lum qismiga davlat davogar hisoblanadi va uni korporasiyalar foydasiga soliq shaklida oladi. Ikkinchidan, foydaning qolgan bir qismi, aksionerlarga dividend shaklida to'lanadi. Uchinchidan, daromad soliqi va dividend to'langandan keyin qolgan qismi, korxonaning taqsimlanmagan foydasi deyiladi. Kopxonaning bu taqsimlanmagan foydaci iste'mol qilingan kapitalni qayta tiklashga ajratmalar (amortizasiya ajratmasi) bilan birga ob'ektlar qurish va uckunalar sotib olish maqsadida ishlatiladi.

### 3. Nominal va real yalpi milliy maxsulot va ijtimoiy farovonlik.

YaMM yil davomida ishlab chiqarilgan barcha pirovard tovarlar va xizmatlarning bozor qiymati eki boshqacha aytganda bozor baxosi hisoblanadi. Baxo ishlab chiqarish umumiy hajmining har xil elementlarini yagona umumiy asosga keltirishning eng keng tarqalgan ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi. har xil yillarda ishlab chiqarilgan YaMM qiymatini faqat baxo o'zrarmagan taqdirda o'zaro taqqoslash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari baxo darajasi bizga iqtisodiyotda inflyasiya (baxo darajasining o'sishi) eki deflyasiya (baxo darajasining kamayishi) o'rin tutganligini va uning miqiyosi qandayligini bilish imkonini beradi.

Baxo darajasi indeks shaklida ifodalanadi. Baxo indeksi joriy yildagi ma'lum guruh tovarlar va xizmatlar to'plami baxolari summasini, xuddi shunday tovarlar va xizmatlarning bazis davrdagi baxolar summasiga taqqoslash orqali hisoblanadi. Taqqoslashning boshlang'ich davri "bazis yil" deyiladi. Agar aytilganlarni formula shakliga keltirsak, u quyidagi ko'rinishni oladi:

Baxo indeksi joriy yildagi iste'molchilik tovarlari baxosi yilidagi iste'molchilik tovarlari baxosi h 100 Amaliyotda qator hap xil tovar va xizmatlar to'plami yoki o'rvasining baxo indeksi hisoblanadi. G'arb mamlakatlari xususan AQShda bu indekslar ichida eng keng qo'llaniladigani iste'molchilik baxolari indeksi (IBI) hisoblanadi. Uning erdamida tirik shaxar axolisi sotib oladigan, iste'molchilik



tovar va xizmatlarning 300 turini o'z ichiga oluvchi bozor haltasining qayd qilingan baxolari hisoblanadi. Ammo baxoning umumiy darajasini hisoblash uchun YaMM baxo indeksidan foydalaniladi. YaMM baxo indeksi ancha keng tushuncha bo'lib, u o'z ichiga nafaqat iste'molchilik tovarlari, balki investision tovarlar, davlat tomonidan sotib olinadigan tovarlar hamda halqaro bozorda sotilgan va sotib olingan tovarlar va xizmatlar baxolarini ham oladi. YaMM baxo indeksi, nominal YaMM ni real YaMMga aylantirib hisoblash imkoniyatini beradi.

Nominal YaMM shu maxsulot ishlab chiqarilgan davrda amal qilib turgan baxolarda ifodalangan ishlab chiqarish hajmini bildiradi.

Ma'lum yil uchun YaMM baxo indeksini qanday qilib hisoblash mumkinligini ko'rsatuvchi oddiy shartli misol keltiramiz. Faraz qilamiz, 1995 yil xalq xo'jaligida 6400 mlrd so'mlik YaMM ishlab chiqarilgan. 1994 yil YaMM qiymati 5000 mlrd so'mni tashkil qilgan.

1995 yilga YaMM baxo indeksini aniqlash uchun, 1995 yildagi maxsulotlar baxolari summasini xuddi shu tovarlarning 1994 yildagi baxolari summasiga bo'lib, IOO ra ko'rsatish zarur.

Baxo indeksi (1995 yil) ?  $6400/50 \times 100 = 128$ .

Agar biz YaMM baxo indeksini qator yillar uchun hisoblasak, olingan indekslar bizga ularni solishtirib taxlil qilish imkonini beradi. Buni bir nechta misollarda tushuntiramiz.

1-misol. Agar 1995 va 1994 yillar uchun baxo indeksi mos ravishda 128 va IOO ra teng bo'lsa, aytishimiz mumkinki ko'rsatilgan yillap o'rtasidagi davrda baxo darajasi 28%ga oshgan (128-100).

2-misol. Agar 1990 yil uchun baxo indeksi 25ni tashkil qilgan bo'lsa, aytish mumkinki 1990-1995 yillapda baxo darajasi 412%ga o'sgan (128-25/25  $\times$  100).

3-misol. Agar baxo indeksi 1992 yilga IOO dan, 1993 yil 98ga tushsa, baxo darajasi 2 % ra pasaygan bo'ladi.

Jopiy yilda oldingi yillarga nisbatan baxo indeksining o'sishi inflyasiyani, pasayishi esa deflyasiyani ko'rsatadi.

YaMM bir vaqtning o'zida ham ishlab chiqarilgan tovarlar miqdorining o'zgarishini, ham baxo darajasining o'zgarishini aks ettiradi.

Bu shuni bildiradiki, YaMM miqdoriga butun maxsulot jismoniy hajmining va baxo darajasining o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi. Ammo kishilarning turmush darajasi birinchi navbatda baxolarga emas, balki ishlab chiqarilgan va aloxida shahs hamda oyilalarning qo'liga kelib tushgan tovarlar miqdoriga bog'liq.

YaMM ko'rsatkichini hisoblashda biz shunday vaziyatga to'xtab kelamizki, hap xil yillar uchun hisobot to'plamlaridan YaMM haqidagi ma'lumotlarni olib, qaysidir yilda nominal YaMM ning ko'payishi qandaydir darajada bir tomondan ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi va boshqa tomondan baxoning o'zgarishi hisobiga ro'y berganligini aytib bera olmamiz. Muammo shundan iboratki, YaMMning qiymat ko'rsatkichini maxsulot jismoniy hajmining o'zgarishini (baxolarning emas) o'zida aniq aks ettiradigan qilib tuzatish taqozo qilinadi. Bu

qiyinchiliklarni bartapar qilish usuli quyidagidan iborat: baxoning o'sishini hisobga olib YaMM jismoniy ko'rsatkichini qisqartirish va aksincha baxo tushganda uni oshirish.

Ko'rsatilgan tuzatish, bizga, xar hil yillarda baxolar va pul birligining kursi o'zgaray qolganda YaMM hajmi haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Joriy baxolarda va pulning zhopii kueslaei bo'yicha hisoblangan YaMM nominal YaMM deyiladi. Inflyasiya (baxolarning oshishi) .eki deflyasiya (baxolaming tushishi)ni hisobga olib, pulning o'zgarmas kurslarida hicoblangan YaMM real YaMM deyiladi.

Jopiy yildagi nominal YaMMni real YaMMra aylantirishning ancha oddiy va to'g'ridan to'g'ri rusuli nominal YaMMni baxo indeksiga bo'lishdir. Bu quydagi ko'rinishni oladi:

Nominal YaMM / Baxo indeksi real YaMM,

Yuqoridagi misolimizda 1995 yil nominal YaMM 6400 mlrd so'mni tashkil qiladi, shu yil uchun baxo indeksi - 128 (yuzdan bir ulushi - 1,28). Shu yil uchun real YaMM: 6400 / 1,28 h 5000.

Xulosa qilib aytish mumkinki, real YaMM ko'rsatkichi yordamida hap xil yillardagi ishlab chiqarish umumiy qiymati hisoblanib, o'zaro taqqoslanadi. Real YaMM doimiy baxolarda hisoblanishi tufayli, nominal YaMMra qaraganda iqtisodiyot real hajmining o'zgarishi ancha aniq karakterlab beradi.

YaMM (YaIM)ni hisoblashda har ikkala soha, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning natijalari hisobga olinsada, u ijtimoiy faravonlikni to'liq karakterlab berolmaydi. Bu YaMM ko'rsatkichida bir qator holatlarni va faoliyat natijalarini hisobga olish mumkin emasligi bilan izohlanadi. Bular jumlasiga quydagilar kiradi:

- uy beklarining uy-ro'zg'or xo'jaligida va qishloq xo'jalik hodimlarining tomorqa xo'jaligida bajargan ishlari.
- intellektual soha hodimlari (olimlar, ilmiy hodimlar) ning tayor maxsulot shaklida ifodalanmagan ishlari;
- harter ayir boshlashlar:
- ish vaqti (kunlari)ning qisqarishi va bo'sh vaqtning oshib borishi;
- maxsulot va hizmatlar sifati tavsifining yaxshilanishi;
- yalpi maxsulot tarkibi va taqsimlanish tartibining o'zgarishi;
- aholi jon boshiga maxsulot ishlab chiqarishning o'zgarishi;
- hufena iqtisodiyot daromadlari.

Milliy iqtisodiyot hufena sektorining hodimlari bir qator yashirin faoliyat turlaridan oladigan o'zlarining daromadlarini yashirishga harakat qiladi. Bundan tashqari ochiq iqtisodiyotda band bo'lganlar ham o'zlari oladigan daromadlarining bir qismini yashirib ko'rsatish mumkin.

Masalan, tadbirkor maxsulot sotishdan olgan daromadining bir qismini, ishchi rasmiylashtirishsiz yoki naxd pul to'lashga kelishib oladigan daromadini deklarasiyada ko'rsatmasligi mumkin.

Inflyasiya darajasi qanchalik katta va soliqlar yuqori bo'lsa, shaxslar qo'lidagi real daromad shunchalik kamayadi, bu ularning naqd pul eki natural tovar ayirboshlash orqali daromad olishga qiziqishini oshiradi. Xufena iqtisodiyot miqiyosi haqida rasmiy ma'lumotlar bo'lmasada, ko'pchilik baxolashlar uning hajmi YaMMning 5-15% ni, ayrim mamlakatlarda 30-40% ni tashkil qilishini ko'rsatadi. Bundan tashqari hufena iqtisodiyot rasmiy iqtisodiyotdan tezipoq o'sib borishini tasdiqlashga dalillar ham bor. Nihoyat, axolining qancha qismi yashirin iqtisodiyot eki faoliyatga jalb qilingan bo'lsa, daromadning shuncha qismi soliq hujjatlaridan yashiriladi, bu ishsizlikka taalluqli rasmiy hisobot ma'lumotlarining oshirilib ko'rsatilishiga olib keladi. Xufena iqtisodiyot va yashirin faoliyat natijalari YaMMda hisobga olinmaydi va demak uning real qajmini kamaytiradi. Sababini tushuntiring.

Zaxiradagi o'zgarishlar nima uchun investision sarflarning bir qismi sifatida hisobga olinadi? Faraz qilamiz, 1994 yil davomida zaxiralar 10 mln. So'mga kamaydi. Bu 1994 yil yalpi milliy maxsulot va yalpi xususiy ichki investisiyalar qanday aks etadi? Fikringizni tushuntiring.

Sof eksportning ta'rifini bering. Mamlakatdan eksport va mamlakatga import qilish, mamlakat ichidagi ishlab chiqarishga qanday ta'sir ko'rsatishini tushuntiring. qaday holda sof eksport nolga teng bo'lishini tushuntiring.

quyida keltirilgan ma'lumotlar asosida a)YaMM, b)SMM va v)milliy daromadni hisoblang (mln. So'm).

|                                      |       |
|--------------------------------------|-------|
| Ellanma ishchilarning ish haqi       | 194,2 |
| Tovar va xizmatlar ekrcorti          | 13,4  |
| Amortizasiya                         | 11,8  |
| Tovar va xizmatlarning davlat haridi | 59,4  |
| Biznesda egpi soliqlar               | 12,2  |
| Sof xususiy ichki investisiyalar     | 52,1  |
| Transport to'lovlari                 | 13,9  |
| Tovar va xizmatlar impoerti          | 16,5  |
| Daromad solig'i                      | 40,5  |
| Shaxsiy iste'molchilik sarflari      | 219,1 |

Faraz qilaylik, 1994 yil iqtisodiyotda yalpi ishlab chiqarish tovarlarning uchta turidan iborat bo'lgan - X, U va S. Ular quyidagi miqdorda ishlab chiqarilgan; H-4, U-I, S -3; va tovarlar baxosi quyidagicha bo'lgan: X-Z so'm, U-12 co'm, S-5 so'm. 1996 yil bu tovarlarning baxosi quyidagicha o'zgargan: H-5, U-IO so'm, 1996 yilni bazis sifatida foydalanilani, 1994 yil uchun YaMM baxo indeksini aniqlang. 1984-1992 yillar davomida baxo darajasi necha foiz ko'paygan?

+quydagi jadval ma'lumotlari bir qator yillar uchun nominal YaMM va tegishli baxo indekslarini ko'rsatadi. Real YaMM ni hisoblang faqat bir aniq holda nominal YaMM ko'rsatkichi bilan nima qilganingizni ko'rsating (tahminiy ma'lumotlar).

| Yil | Nominal YaMM | Baxo indeksi | Real YaMM |
|-----|--------------|--------------|-----------|
|-----|--------------|--------------|-----------|

|      | (mln. So'm) | da 1995-100 (mln. So'm) |
|------|-------------|-------------------------|
| 1947 | 235,2       | 22,1                    |
| 1956 | 428,2       | 28,1                    |
| 1967 | 816,4       | 35,9                    |
| 1973 | 1359,3      | 49,5                    |
| 1978 | 2249,7      | 72,2                    |
| 1983 | 3405,7      | 103,9                   |

Bundan tashqari YaMM (YaIM)ga ta'sir ko'rsatuvchi shunday omillar ham mavjudki ularning ta'siri natijasida ishlab chiqarish hajmining ko'rayishi jamiyat farovonligining oshishiga olib kelmasligi mumkin. Masalan, YaMM ishlab chiqarish va uning o'sishi, atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birga boradi. Bu havo va suvning ifloslanishi, shovqin, zararli chiqitlar hamda atrof muxit buzilishining boshqa turlaridir. O'z-o'zidan aniqki, atrof muxitning ifloslanishi bilan bog'liq chiqimlar iqtisodiy farovonlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. YaMMni ishlab chiqarish bilan bog'liq atrof muxitning ifloslanishini bartaraf qilishga ketadigan chiqimlar hozirgi vaqtda yalpi ishlab chiqarish hajmidan chiqarilmaydi va shunday qilib YaMM moddiy farovonlik darajasini oshirib ko'rsatadi. YaMM hajmi qanchalik katta bo'lsa, atrof muxitning ifloslanishi va YaMM miqyosining oshirib ko'rsatilishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Asosiy ta'yanch tushunchalar.

Makroiqtisodiyot - moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarni yaxlit bir butun qilib birlashtirgan milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir.

Milliy hisoblar tizimi - YaMM (YaIM) va milliy daromadni ishlab chiqarish, taxsirlash hamda ulardan foydalanishni tavsiflaydigan o'zaro bog'liq ko'rsatgichlar tizimi.

Yalpi milliy maxsulot (YaMM) - milliy iqtisodiyotda bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga borib tushadigan provard maxsulot va hizmatlarning bozor baxolaridagi summasi.

Qo'shilgan hizmat - ishlab chiqarilgan maxsulot qiymatidan sotib olingan va unumli iste'mol qilingan hom ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati.

Yalpi ichki maxsulot (YaIM) - yil davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan provard maxsulot va hizmatlarning bozor baxolaridagi qiymati.

Sof milliy maxsulot (SMM) - yil davomida yangidan yaratilgan maxsulot bo'lib, yalpi ichki maxsulotdan amartizasiya ajratkanlari summasini ayrib tashlash yo'li bilan aniqlanadi, u tarkiban milliy daromad va egri soliqlardan iborat bo'ladi.

Milliy daromad - yangidan vujudga keltirilgan qiymat bo'lib, SMMdan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi

**Shahsiy daromad** - milliy daromaddan ijtimoiy sug'urta ajratmalari, korxonalar foydasidan olinadigan soliqlar va korxonaning taqsimlanmaydigan foydasini chiqarib tashlash hamda axoli qo'liga kelib tushadigan ijtimoiy to'lovlar summasini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

**Nominal YaMM** - joriy baxolarda hisoblangan YaMM.

**Real YaMM** - baxolarning o'zgarishini hisobga olib, doimiy baxolarda hisoblangan YaMM.

**Oraliq maxsulot** - ishlov berish, qayta ishlash va qayta sotish maqsadlarida sotib olingan maxsulotlar.

**Pirovard maxsulot** - ishlab chiqarish jarayoni yakunlangan, shahsiy va unumli iste'mol qilishga tayyor bo'lgan maxsulotlar.

**Hufena iqtisodiyot** - YaMMni ishlab chiqarish, taqsimlash va undan foydalanishning rasmiy hisob-kitoblardan yashirin qismi.

### Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Milliy iqtisodiyot deganda nima tushunasiz?
2. Makroiqtisodiy ko'rsatgichlar nimalar va ular milliy iqtisodiyotda qanday rol o'ynaydi?
3. YaMM va SMM bir-biridan nima bilan farqlanadi? SMM va milliy daromadchi?
4. YaMM harakat shakllari tavsifini bering.
5. YaMM qanday usullarda hisoblanadi? Ularning farqi nimadan iborat?
6. Nominal va real YaMM tushunchalarini izohlang. Ularning farqini ko'rsating.

### Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. "Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isoh etishdir", "O'zbekiston" 2005.
2. Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz", T. "O'zbekiston", 2000yil.
3. Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari." -T. "O'zbekiston", 1998.
4. "To'g'ridan to'g'ri hususiy investisiyalarni jalb etishni raxbatlantirish borasidagi qo'shimcha chora - tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel'.
5. Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T., "Mo'liya" nashriyoti, 2002.
6. A. Qodirov. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T.2002.
7. D. Tajiboeva. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T.2002.
8. Makkonel K., Bryu S. "Ekonomiks", M.2002.
9. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Raizberga.- Uchebnik: - INFRA - M.2004.

10. Kurs ekonomicheskoy teory. Avtor koll. pod red. prof.M. N. Chepurina. Uchebnik: – INFRA - M.2004.
11. Ekonomicheskaya teoriya (Polit ekonomiya). Pod. obsch. red. akad. V. I. Vidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA - M.2004.
12. Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
13. E. F. Borisov ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
14. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
15. Iohin V. Ya. ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
16. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoi. d.e.n., prof. T. V. Chechelovoy. ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Halq so'zi - 25 mart.
2. Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teory. Kirov - 2005.
3. Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. Yaxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
4. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovnoy ekonomicheskoy teory. - M.2005.

### Veb-saitlar:

1. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
2. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
3. <http://infoteka.economics.ru>
4. [www.finansy.ru](http://www.finansy.ru)
5. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
6. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
7. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
8. [www.jahon.mfa.uz](http://www.jahon.mfa.uz)
9. [www.budjet.rf.ru](http://www.budjet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ro'zani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedogogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof. Sh.Sh.Shodmonov, G.D.Bobabekova, G.T. Halikrva tomonidan tayorlangan "Pedogogicheskoe masterstvo i innovasiy v predpodovaniy ekonomicheskoe teory".T-2004, "Innovacionnye metodi obucheniya v ekonomicheskome obrazovaniy" va Sh.Sh. Shodmonov, T.M.Ziyaeva, M.T. Yaxshievlar tomonidan tayorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami.T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.

## 13-Mavzu. Iqtisodiy o'sish va milliy boylik

**Kirish:**

**2 soat**

**Reja:**

**1-§. Iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyot.**

**2-§. Iqtisodiy o'sish omillari.**

**3-§. Iqtisodiy o'sishning zamona viy turi va uning hususiyatlari.**

**4-§. Milliy boylik va uning tarkibii tuzilishi.**

### **Kirish**

Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va barcha boshqa muammolarni hal qilishning asosiy yo'li - bu milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sishiga erishishdir. Axoli faravonligini oshirib borish ham pirovard natijada iqtisodiy o'sish darajasi va sur'atlariga bog'liq. Shu sababli mazkur bob tahlili iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va ko'rsatkichlarini bayon qilish bilan boshlanadi. Tahlil davomida iqtisodiy o'sishning omillari, milliy boylik va uning tarkibiy tuzilishini yoritib berishga ham o'rin ajratiladi.

### **1-§. Iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyot.**

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko'p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi.

Iqtisodiy rivojlanish o'z ichiga yuksalish va inqiroz davrlarini, iqtisodiyotdagi miqdor va sifat o'zgarishlarni, ijodiy va salbiy tamoyillarini olib notekis boradi.

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli, uning mezonlaridan, biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq taxlil qilinadi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo'lib, u epiq doira bo'yicha emas, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha harakatdir. U o'z ifodasini real YaMM (YaIM) ning ham mutloq hajmida va aholi jon boshiga ko'payishida topadi.

Iqtisodiy o'sishga tarixiy jixatdan yondashilganda, u bir xil sur'atlarda va bir tekis bormaydi.

Tarixda iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashish, jiddiy sustlashish va hatto cheklanish davrlari ma'lum. Agar katta tarixiy bosqichlar olib qaraladigan bo'lsa, jaxon va milliy iqtisodiyotda, barqaror iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishning har tomonlama taraqqiyot manzarasi hosil bo'ladi. Shu bilan birga iqtisodiy o'sish nafaqat miqdor balki muayan sifat o'zgarishlari shaklida ham namoyon bo'ladi. Shunday ekan iqtisodiy o'sish bevosita yalpi milliy maxsulot miqdorining mutloq va aholi jon boshiga ko'payishi hamda sifatining takomillashuvida ifodalanadi.

Maxsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillarining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy taraqqiyotning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

**Ekstensiv iqtisodiy o'sishga** ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, maxsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun mavjud korxonaga bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarining quvvati, miqdori va sifatini bo'yicha ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha huddi o'shunday yana bir korxonaga ko'riladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi. Masalan

**Iqtisodiy o'sishning intensiv turi** sharoitida maxsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillari sifat jihatidan takomillashtirish: yanada progressivroq ishlab chiqarish vositalarini va yanada texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini, oshirishi shuningdek mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard maxsulot miqdorining o'sishida, maxsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi. Bunda maxsulot ishlab chiqarishni 2 qissa oshirish uchun mavjud korxonaga teng bo'lgan yana bir korxonaga qurishga hojat yo'q. Bu natijaga ishlab turgan korxonani rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta qurollantirish, mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sado holda, alohida alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shuning uchun iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari farqlanadi.

Iqtisodiy o'sish murakkab va ko'p qirrali jaraendir. Shu sababli uni boxolash uchun qandaydir bitta ko'rsatkich kifoya qilmaydi, muayan ko'rsatkichlar tizimi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlar tizimida jismoniy va qiymat ifodasidagi ko'rsatkichlar farqlanadi.

Jismoniy ko'rsatkichlar ancha aniq natija beradi, (chunki ular inflyasiya ta'sirini bartaraf qiladi), lekin universal emas (iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisoblashda xarhil natijalar ishlab chiqarishni umumiy ko'rsatkichga keltirish qiyin). qiymat ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi, ammo har doyim ham uni inflatsiyadan to'liq, "tozalash" mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli iqtisodiy o'sish sur'atlari qiyosiy yoki doimiy narxlarda hisoblanadi.

Makro iqtisodiy darajada iqtisodiy o'sishning asosiy qiymat ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

- YaMM (smm) eki milliy daromad hajmining real ko'payishi:
- YaMM (smm) eki milliy daromadning axoli jhoy boshiga o'sish sur'ati:

Iqtisodiy o'sishni aniqlashda har ikkala ko'rsatkichdan ham foydalanish mumkin, lekin ularning ahamiyati turlicha:

Masalan: agar diqqat markazida siyosat potensial muommosi tursa, birinchi aniqlash ko'proq mos keladi. Aloxida mamlakat va regionlardagi axolini turmush



darajasini taqqoslashda, ko'proq ikkinchi ko'rsatkichdan foydalaniladi. Jumladan, Hindistonda yamm Shvesariyanikidan deyarli 70% oshib ketadi, ammo Hindiston axoli turmush darajasi bo'yicha Shvesariyadan 60% baravardan ko'proq orqada.

Odatda iqtisodiy o'sish % (foiz)da o'sishning yillik sur'ati sifatida aniqlanadi. Masalan, agar o'tgan yili real yamm 60 mlr. So'mni va joriy yilda 70 mlr. So'mni tashkil qilgan bo'lsa, o'sish sur'atini joriy yildagi real yamm hajmiga bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin. Bu holda o'sish sur'ati 16,6 % ni (70-60, 60-100) tashkil qiladi.

Iqtisodiy o'sishning umumiy ko'rsatkichlari ham mavjud bo'lib ulardan asosiylari ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi, mexnat unumdorligi va ish vaqtini tejash shahsiy daromad va foyda massasi milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quydagi ko'rsatkichlar bilan harakterlanadi:

a) ishlab chiqarish vositalarining rivojlanish darajasi, ya'ni uning unumdorligi. Bu muayan vaqt birligi ichida ma'lum miqdordagi mahsulot yaratish imkonini beradi.

b) hodimning malakasi va tayorgarlik darajasi. Bu ishchi kuchining mavjud ishlab chiqarish vositalarini o'zlashtirib olish va ular samaradorligini oshirish layoqatini ko'rsatadi.

v) ishlab chiqarishning moddiy va shahsiy omili o'rtasidagi, qo'llanilayotgan ishlab chiqarishda mashg'ul bo'lgan hodimlar soni o'rtasidagi nisbat. Bu nisbat ishlab chiqarishning texnik tuzilishi deb ataladi va uning o'sishi inson mexnatining tobora murakkab va texnik jihatdan takomillashgan mashinalar moslamalar va uskunalar bilan ta'minlanishini aks ettiradi.

g) mexnat taqsimoti ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperasiyasi. Bizga ma'lumki mexnat taqsimoti natijasida iqtisodiy o'sishni ko'p marta oshirish mumkinligi allaqachon aniqlab berilgan. Jumladan A Smit Halqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqoti degan asarida:

Mexnat unumdorligini oshirish va ish vaqtini tejashga erishish ayni vaqtda ham jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyoti darajasini va ham iqtisodiy o'sishni harakterlab beradi. Axoli jon boshiga ishlab chiqarilgan milliy daromad, shuningdek xarhil maxsulot turlari iqtisodiy o'sishni aniq ifodalaydi.

Ish vaqti tejsalsa va mexnat unumdorligi ortsa shahsiy daromad va foyda miqdori ham o'sadi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy taraqqiyotni ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'laydi. Chunki ularning ko'payishi, birinchidan ishlab chiqarishning uzluksiz o'sib va takomillashib borishi uchun, ikkinchidan. Shu orqali insonning kamol topishi uchun moddiy shart-sharoit yaratadi.

Iqtisodiy o'sish jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan boshqa ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqilgan yamm ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi. Bunda halq xo'jaligining yirik sohalari moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish o'rtasidagi nisbat ham o'rganiladi. Alohida tarmoqlar, tuzilishini tadqiq qilish iqtisodiy o'sishni aniqlashda alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Jumladan, qayta ishlovchi sanoatning tarmoq tahlili unda

mashinasozlik va himiya kabi fan-texnika taraqqiyotini ta'minlovchi tarmoqlar qanday hissani egallashini ko'rsatadi. Yoqilg'i-energetika, agrosanoat, qurilish va butlovchi materyallar, mudofaa, harbiy-sanoat va boshqa yirik ho'jalik maxsulotlarining iqtisodiyotdagi hissasi ham taxlil qilinadi.

## 2. Iqtisodiy o'sish omillari.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar iqtisodiyotning jismoniy o'sish layoqatini belgilab beradi, ular taklif omillari deb ham ataladi. Bu omillar quydagilar:

- 1) tabiiy resurslarning miqdori va sifati.
- 2) mexnat resurslari miqdori va sifati
- 3) asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi.
- 4) texnologiya va fan texnika taraqqiyoti

Ko'p miqdordagi sifat jihatdan resurslarga ega bo'lish, texnologik potensial bilan birga real mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish imkonini beradi. Ikkinchidan, real iqtisodiy o'sishga taqsimlash omillari ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish potentsiyalidan maxsadga muvofiq foydalanish uchun kafolat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatilishi ham zarur. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli maxsulotning mutloq miqdorini oladigan qilib tahsirlash ham zarur bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi, taklif va taqsimlash omillari o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi. Masalan, resurslar miqdorining o'sishi va sifatining yaxshilanishi, texnologiyani takomillashtirish iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat yaratadi. To'liq bandlik va resurslarni samarali taqsimlash bunday o'sishni ro'yobga chiqaradi. Shunday ekan, iqtisodiyot ishlab chiqarish potentsiyalini to'liq ruyobga chiqarish imkoniyati talab va taqsimlash omillari bilan cheklanadi. Bu erda shuni hisobga olish lozimki, ishlab chiqarish potentsialining o'sish faqat ulardan maxsulot chiqarishni ko'paytirishning eng yuqori imkoniyatini ta'minlash darajasida samarali foydalanilsa iqtisodiy o'sish ro'y beradi. Masalan, Respublikamizda ish kuchining sof o'sishi yiliga yuz ming kishini tashkil qilsa, bu o'z-o'zidan aniqki ishlab chiqarish quvvatini yoki iqtisodiyot potentsialini ko'paytiradi. Iqtisodiy potentsialning ko'payishi ishlab chiqarishning o'sishida ifodalanish uchun, bu barcha kishilarga o'zlarining qobiliyatini to'liq ruyobga chiqaradigan tarmoqlar va korxonalardan ish topish zarur.

## 3. Iqtisodiy o'sishning zamonaviy turi va uning hususiyatlari

Iqtisodiy o'sishda resurslarni taqsimlash omillari ham o'z o'rniga ega bo'lsada, bu muammoni tahlil qilishda asosiy e'tibor taklif omillariga qaratilishi zarur. Taklif omillarining iqtisodiy o'sishga ta'sir kilish quydagichadir. Real maxsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillari.

1. Band bo'lganlar soni
2. Ishlagan kishi soatlarining o'rtacha miqdori.
- Mexnat sarflari ishlagan soatlar

Ishlab  
chiqarishning  
real xajmi

1. Texnika taraqqiyoti. Mexnat unumdorligi
2. Kapital qo'yilmalar hajmi. (o'rtacha soatlik bajarilgan ish)
3. Ta'lim va malaka tayorgarlik.
4. Resurslarning joylashtirish samaradorligi.
5. Boshqa omillar.

Bu sxema ko'rsatadiki, real maxsulot ikki asosiy usulda ko'paytirilishi mumkin:

- 1) resurslarning ko'proq xajmini jalb etilishi.
- 2) ulardan ancha unumli foydalanish yo'li bilan.

Avvalo mexnat sarflarining o'sishini qarab chiqamiz. har qanday sharoitda real YaMM mexnat sarflarining (kishi soatida) mexnat unumdorligiga (bir ishlovchining soatlik bajarilgan real ishi ko'paytmasi sifatida aniqlanadi. Ya'ni, YaMMning ishlagan kishi soatlari mexnat unumdorligi. Buni shartli misol orqali tushuntiramiz. Faraz qilamiz, korxonada o'n kishi band va ulardan har biri yiliga ikki ming soat ishlaydi. qirq soatlik 50 hafta ) umumiy ishlagan kishi soati 20 ming tashkil qiladi. Agar bir kishi soati hisobiga uch ming so'mlik maxsulot umumii ishlab chiqarilgan maxsulot (real YaMM) 6 mln so'mni tashkil qiladi.

Mexnat sarflari miqdori ishlovchilar soni va ish haftasining o'rtacha uzunligiga bog'liq. Ishlovchilar soni o'z navbatida mexnatga layoqatli ishdagi axoli soni va ishchi kuchining ishlab chiqarishga jalb qilinganlik darajasini belgilab beradi.

Mexnat unumdorligi texnika taraqqiyoti fond bilan qurollanganlik darajasi, ishchi kuchining sifati va uni taqsimlashning samaradorligi, x'ar hil resurslarni uyg'unlashtirish va boshqarish kabi omillar ta'siri ostida bo'ladi. Boshqacha aytganda mexnat unumdorligi sog'liqni saqlash, malakali tayorgarlik, ta'limning yaxshilanishi va manfaatdorlikning oshishi, mashina va uskunalar, hamda tabiiy resurslar bilan ta'minlashning o'sib borishi, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishni yaxshilash, ishchi kuchini kam samarali tarmoqlardan ko'proq samarali tarmoqlarga joylashtirish bilan o'sib boradi.

Mamlakatning iqtisodiy o'sish su'ratini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar (real YaMM va axoli jon boshiga real YaMMning o'sishi) miqdoriy ko'rsatkichlar bo'lib ular - birinchidan maxsulot sifatining oshishini to'liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o'sishini to'liq karakterlab berolmaydi.

- ikkinchidan, real YaMM va aholi jon boshiga YaMMning o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi. - uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof muhitga va insonning hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.

Iqtisodiy o'sishga uning omillarining miqdoriy ta'siri bir hil emas, lekin har bir omilning iqtisodiy o'sishga ta'sirini miqdoriy hisoblash ancha murakkab ish AQShlik iqtisodchi Denison birinchi bo'lib iqtisodiy o'sishga turli xil omillarning miqdoriy ta'sirini aniqlashga harakat qilib, ko'radi. Uning hisobi bo'yicha 1929 - 1982 yillardagi davr ichida AQShda real, milliy daromad o'rtacha yiliga 2,9 % o'sgan. Bu o'sishning alohida omillariga to'g'ri keladigan hissasi quyidagi jadvalda keltirilgan. AQShda real milliy daromadning o'sishga ta'sir qiluvchi omillar, 1929 - 1982yil.

| O'sish omillari   | Har bir omilning salmog'i |
|---|---------------------------|
| 1. Mexnat sarflarining ko'payishi                             |                           |
| 2. Mexnat unumdorligining o'sishi                             | 32                        |
| texnika taraqqiyoti   | 68                        |
| kapital sarflari  | 28                        |
| ta'lim va malakali tayorgarlik                                | 19                        |
| ishlab chiqarish miqyosi                                      |                           |
| taqozo qilinadigan tejash resurslarni taqsimlashni yaxshilash | 14                        |
| huruhiy tarbiya va boshqa omillar                             | 9                         |
|   | 8                         |
|   | 9                         |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki - mexnat unumdorligining oshishi AQShda milliy daromad o'sishining eng muhim omillari hisoblanadi. Shu davr ichida milliy daromad o'sishining taxminan, 1/3 qismi mexnat sarflarining ko'payishi, 2/3 qismi mexnat unumdorligining oshishi hisobiga ta'minlangan.

Mexnat unumdorligining o'sishini taqozo qiluvchi omillarni batafsil qarab chiqamiz.

Fan-texnika taraqqiyoti mexnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti o'z ichiga nafaqat ishlab chiqarishning butunlai yangi usullarini, balki boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakllarini ham oladi. Umuman aytganda fan - texnika taraqqiyoti deyilganda provard maxsulot chiqarishni ko'paytirish maqsadida mavjud resurslarni yangicha uyg'unlashtirishni taqozo qiluvchi yangi bilimlarning ochilishi tushuniladi. Amaliyotda texnika taraqqiyoti va kapital qo'yilmalar (indestisiyalar) mustahkam o'zaro bog'liq, texnika taraqqiyoti

ko'pincha yangi mashina va uskunalarni indetisiyalashga olib keladi. Masalan, atom energiyasidan foydalanish bo'lisha texnologiyani qo'llash uchun atom elektrostansiyalarini qurish zarur bo'ladi. Birinchi qarashda texnika taraqqiyoti tarixiy va shiddatli harakter kasb etadi. Gaz va yoqilg'i dvigatellari, konveyer va yig'ma liniyalar bizning hayotga o'tmishning eng muhim yutuqlari sifatida keladi.

Respublika oldida texnika taraqqiyoti sohasidagi asosiy vazifa, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani qo'llash, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishning yangi usul va shakllarini joriy qilish hisoblanadi.

Mexnat unumdorligining o'sishini aniqlab beruvchi asosiy omil har bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi asosiy kapital hajmi hisoblanadi. Ma'lum vaqt ichida, kapitalning hajmi mutloq ko'payishi mumkin, ammo ishchi kuchi soni tezroq o'sa, mexnat unumdorligi pasayadi, chunki har bir kishining fond bilan qurollanganlik darajasi kamayadi.

Masalan, O'zbekistonda keyingi yillarda ishlovchilarning fond bilan qurollanish darajasi oshib borish tamoyiliga ega bo'lgan, lekin bu mexnat unumdorligining oshishini va ohiri oqibatda iqtisodiy o'sishni ta'minlay olmagan. Chunki fondan olinadigan samara pasayib borgan. Buning asosiy sabablari quyidagilar. Birinchidan, fond bilan qurollanish asosan eski texnikaviy asosda va fondlar passiv qismning o'sishi hisobiga oshib borgan. Ikkinchidan, respublikada milliy daromadga investisiyalar qissasi, boshqa industrial rivojlangan mamlakatlardagidan past bo'lgan. Bundan tashqari, qayta ishlovchi sohalar va infrastrukturani rivojlantirish uchun kapital qo'yilmalar etarli emas.

Ta'lim va malakali tayorgarlik, mexnat unumdorligini oshiradi va natijada ancha yuqori ish haqiga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Inson kapitalini investisiyalash mexnat unumdorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'z-o'zidan aniqki, ishchi kuchi sifatining eng oddiy ko'rsatkichi ta'lim darajasi hisoblanadi. Hozirgi davrda respublikamiz xalq xo'jaligida band bo'lganlarning 4 tadan 1 tasi oliy va o'tarta maxsus ta'limga ega. Lekin oliy va eki o'rtta maxsus ta'limga ega bo'lganlar, aniq sohalaridagi bilimlari darajasi bo'yicha boshqa rivojlangan mamlakatlardagi ishchilardan ancha orqada va ko'pchiligi ta'lim olgan sohasi bo'yicha faoliyat turida band emas. Shu sababli keyingi yillarda respublikamizda maktab, oliy va o'rtta maxsus bilim yurtlarida ta'lim berishning test va reyting tizimlari joriy qilinmog'da. Kadrlar tayorlashning milliy dasturidan keng foydalanilmoqda.

Iqtisodiy o'sishni to'xtatib turuvchi omillar ham mavjud bo'ladiki, ular mexnat muhofazasi, atrof muhitning ifloslanishi va shu kabi holatlar natijasida kelib chiqadi. Keyingi yillarda davlat tomonidan atrof muhit mexnat va sog'liqni muhofaza qilishni tartibga solishda keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Bu o'z navbatida iqtisodiy o'sish sur'atiga salbiy, ta'sir ko'rsatadi. Chunki bunday tadbirlarni amalga oshirish tegishli harajatlarni taqozo qiladi. Shu orqali mexnat unumdorligini oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy kapitalni investisiyalash mablag'lari boshqa tomonga jalb qilinadi.

#### 4. Milliy boylik va uning tarkibiy tuzilishi.

Milliy boylik insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida avlodlar tomonidan yaratilgan va jang'arilgan moddiy, nomoddiy va intellektual boyliklar hamda tabiiat inonmlaridan iboratdir.

Milliy boylikning bir qismini inson mehnatining natijasi hisoblasak, boshqa qismi tabiiyat boyliklaridan iborat bo'ladi. Shunday ekan milliy boylik keng ma'noda o'z ichiga nafaqat moddiy va nomoddiy nematlar, yaratilgan san'at asarlari intellektualsohoyatni balki barcha tabiiat resurslari va boyliklari hamda takror ishlab chiqarishning tabiiy iqlim sharoitlarini ham oladi. Milliy boylikning bu barcha tarkibiy qismlarini miqdoran, qiymat o'lchovlarida hisoblab chiqish bir qator ob'ektiv sabablariga ko'ra juda qiyin, jumladan uning tabiiyat inonmlaridan iborat qismi inson mehnatining natijasi hisoblanadi va qiymat o'lchovlariga ega emas. Shu sababli iqtisodiy taxlii amaliyotida milliy boylikning tor ma'nodagi tushunchasidan foydalaniladi. Tor ma'noda milliy boylik insoniyat mehnati bilan yaratilgan va takror ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan barcha moddiy boyliklardan iborat bo'ladi. Milliy boylikning bu qismi milliy iqtisodiyot rivojining butun tarihi davomida doimiy takrorlanib turuvchi ishlab chiqarish jarayonining, umumiy natijasi sifatida chiqadi va moddiy buyumlashgan shaklda namoyon bo'ladi. U kishilarning ko'plab avlodi mehnati natijasi hisoblanadi.

Aytilganlardan kelib chiqib, milliy boylikni shartli ravishda quyidagi uchta yirik tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Moddiy buyumlashgan boylik:
2. Nomoddiy boylik:
3. Tabiiy boylik:

Moddiy buyumlashgan boylik oxiri oqibatda ishlab chiqarishning, umumli mehnatining natijasi hisoblanadi. U ishlab chiqarishning maxsulotlarini joriy iste'mol qilishdan ortiq ya'ni oqibatida vujudga keladi va o'sib boradi.

Ammo moddiy buyumlashgan boylikni qator yillardagi yillik yalpi maxsulotlar yig'indisi sifatida tasavvur qilish noto'g'ri bo'lur edi. Chunki bu boylikning bir qismi har yili ishdan chiqib va qaytadan yangilanib turadi (ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari). Shu sababli ishlab chiqarish vositalarining o'rni qoplash bilan bir vaqtda yalpi maxsulotning faqat bir qismi moddiy buyumlashgan boylik sifatida jang'arilib boriladi. Demak, qoplash fondi va moddiy buyumlashgan boylikning o'sishi yalpi milliy maxsulot hisobiga amalga oshiriladi. Milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan qismi qiymat shakliga ega bo'lib, tarkibiy tuzilishi bo'yicha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ishlab chiqarish xarakteridagi asosiy kapital (fondlar). Bular butun milliy boylikning tarkibida ancha katta salmohga ega bo'ladi, hamda o'zining texnikaviy darajasi bo'yicha yalpi milliy maxsulotning o'sish imkoniyatini belgilab beradi:
- ishlab chiqarish xarakteridagi asosiy kapital (fondlar). Asosiy kapitalning bu turiga davlatning uy-joy fondi ijtimoiy madaniy xarakterdagi ob'ektlar kiradi.

- aylanma kapital (fondlar). Milliy boylikning bu qismi mexnat predmetlaridan iborat, bo'lib asosiy kapitalning taxminan 1/4 qismini tashkil qiladi.

- tugallanmagan ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan qismi. Ular ishlab chiqarish bosqichida mexnat jarayoni ta'siri ostida bo'lib, potentsiyal tayor maxsulot hisoblanadi.

- moddiy zahiralalar va ehtiyojlar. Bunga muomila bosqichdagi tayor maxsulot, korxonalar va savdo tarmoqlaridagi moddiy zahiralalar davlat ehtiyojlari va rezerv fondlari kiradi. Moddiy zahiralalar iqtisodiyotda ro'y berishi mumkin bo'lgan va oldindan bilib bo'lmaydigan favqulotda holatlarda foydalanish maqsadida ushlab turiladi.

Davlat ehtiyojlariga oltin zaxiralari, sug'urta va mudofa ehtiyojlari uchun zarur zaxiralalar kiradi.

- axolining uy, tomorqa va yordamchi xo'jalikda jamg'arilgan mol-mulk. Buncha uy-joy, avtomobil, madaniy-maishiy buyumlar, kiyim-kechaklar va shu kabilarning qiymati kiradi.

Moddiy buyumlashgan boylik tarkibiy qismlarining mazmuni va ularning salmog'i o'zgarishsiz qolmaydi. Asosan fan-texnika taraqqiyoti, sharoitida moddiy, buyumlashgan boylik tarkibida yirik o'zgarishlar ro'y beradi. Sanoat kapitali tez ko'payadi va yangilanadi, noishlab chiqarish kapitali tarkibida ilmiy, o'quv, sog'liqni saqlash muassasalarining mulki tobora ko'proq hissasini egallaydi. Tabiiy resurslarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish sur'atlari o'sib boradi.

Moddiy buyumlashgan boylik o'sishining asosiy omillari sifatida qo'yidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- mexnat unumdorligining o'sishi:
- ishlab chiqarish samaradorligining ortishi:
- milliy daromadda jamg'arish normasining ortishi:

Moddiy buyumlashgan boylik ishlab chiqarishning natijasi va shart-sharoiti hisoblanadi. Buning manosi shuki, bir tomondan maxsulotdan milliy boylik tomon harakatda boylikning iste'mol qilingan qismining qoplanishi va uning ko'payishi ro'y beradi. Boshqa tomondan milliy boylik ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoiti, uning moddiy texnikaviy asos hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarishning o'sish sur'ati va miqyosi milliy boylikdan foydalanish harakteriga bog'liq bo'ladi.

Moddiy buyumlashgan boylikni oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish farqlansada, har ikkalasi ham yalpi milliy mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Milliy boylikning boshqa qismi tabiiy boyliklar ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoitini va inson faoliyatining tashqi muhitini tashkil qiladi. Tabiiy boylikning vujudga kelishi insoniyat jamiyatiga bog'liq emas, u tabiiy qonunlari asosida ro'y beradi. Foydali qazilma boyliklar o'rmonlar, suv va er resurslari huddi shunday vujudga kelib ishlab chiqarishdan tashqarida turadi.

Tabiiy inonmlari o'zlarining dastlabki ko'rinishida tabiiy boylik bo'lib, shu holatida inson faoliyatining natijasi hisoblangan ijtimoiy boylik tarkibiga kirmaydi.

Buning ma'nosi shuki, tabiiy boyliklar jamiyat uchun faqatgina potensial boylik hisoblanadi. Ular real boylikka inson mehnatining ta'siri oqibatida aylanadi.

Milliy boylik nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratiladi. Uning bir qismi nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida vujudga keltiriladi va jamiyatning nomoddiy boyligi hisoblanadi. Nomoddiy sohalarida asheviy-buyum shakli bilan bog'liq bo'lmagan aloxida turdagi iste'mol qiymatlar hosil qilinadi. Ular ham moddiy ishlab chiqarish sohalarining faoliyati qilishi va rivojlanishi uchun shuningdek bevosita axolining turmush darajasini ta'minlash va oshirib borish uchun zarur bo'ladi. Bunday boyliklarga ta'lim, sog'likni saqlash, fan madaniyat, sport sohalarida, vujudga keltiriladigan nomoddiy qimmatliklar kiradi.

Jamiyatning nomoddiy boyliklarida madaniyat va san'atning rivojlanish darajasi, jamiyat a'zolarining to'plagan ilmiy bilimlari va intellektual darajasi, ishlovchilarning ixtisosligi va malakaviy bilim darajasi, sog'liqni saqlash, ta'lim va sportning rivojlanish darajasi o'z ifodasini topadi.

Moddiy buyumlashgan boylikning o'sishi jamiyat moddiy qimmatliklari ko'payishning asosi hisoblanadi. Agar fan-texnika taraqqiyoti yuqori sur'atlar bilan rivojlansa madaniyat, san'at, fan kabi nomoddiy sohalar ham o'sib va takomillashib boradi.

Shunday qilib, milliy boylik moddiy buyumlashgan va tabiiy boyliklardan ancha keng tushuncha bo'lib, o'z tarkibiga jamiyatning nomoddiy harakterdagi qimmatliklarini ham oladi.

#### Asosiy tayanch tushunchalar.

Iqtisodiy rivojlanish – ko'p o'lchamli jarayon bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida o'z ifodasini topadi.

Iqtisodiy o'sish – YaMM (IMM, SMM, MD) miqdorining mutloq va axoli jon boshiga hamda iqtisodiy resurs harajatlari birligi hisobiga ko'payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanadi.

Iqtisodiy o'sishning ko'rsatkichlari - iqtisodiy o'sishni aniqlashda foydalaniladigan qiymat va natural (jismoniy) ko'rsatkichlar tizimidan iborat.

ekstensiv iqtisodiy o'sish - ishlab chiqarishga qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi.

intensiv iqtisodiy o'sish - ishlab chiqarish omillarining rivojlanib, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali maxsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi.

Ustuvor ekstensiv iqtisodiy o'sish - iqtisodiy o'sishda ekstensiv iqtisodiy omillarning yuqori o'ringa egaligini bildiradi.

Ustivor intensiv iqtisodiy o'sish - iqtisodiy o'sishda intensiv omillarning yuqori o'ringa egaligini bildiradi.

Milliy boylik - insoniyat jamiyati taraqqiyotida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy va ma'naviy boyliklar hamda foydalanishga jalb qilingan tabiiy boyliklari.



Moddiy-buyumlashgan boylik - milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan asheviy - buyum ko'rishga ega bo'lgan qismi.

Tabiiy boylik - milliy boylikning tabiat in'omlaridan iborat bo'lgan, foydalanishga jalb qilingan, ishlab chiqarishning shart-sharoitini va inson faoliyatining tashqi muhitini tashkil qiladigan qismi.

Ma'navii boylik - asheviy-buyum ko'rishiga ega bo'lmagan nomoddiy qimmatliklardan va insoniyatning intellektual saloqiyyati natijalaridan iborat.

### Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish tushunchalarining ta'rifini bering hamda ularning umumiy tomonlari, farqlarini ko'rsating.
2. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari qanday aniqlanadi? Nima uchun real hayotda sof ekstensiv sof intensiv iqtisodiy o'sish turlari uchramaydi?
3. Mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga, aholisining turmush darajasiga va ishlab chiqarishning samaradorligiga baxo berishda iqtisodiy o'sishning qanday ko'rsatkichlaridan foydalaniladi?
4. Iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi taklif, taqsimlash va talab omillarini tushuntiring hamda ularning ahamiyatini baxolang.
5. Milliy boylik tushunchasining ta'rifini bering va tarkibii tuzilishini ko'rsating.
6. Milliy boylik tarkibida moddiy-buyumlashmagan boylik qanday o'ringa ega va u qanday tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi?
7. Nima uchun er, suv kabi tabiiy boyliklarni qiymat o'lchovida baxolab, milliy boylik tarkibiga kiritish qiyin?
8. Madaniy, tarihiy obidalar va arhitektura edgorliklarining milli boylik tarkibida aks etishini qanday izohlaymiz? Ularning har biriga misollar keltiring.

### Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. "Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir". "O'zbekiston" 2005.
2. Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard mahsadamiz", T. "O'zbekiston", 2000i.
3. Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari." -T. "O'zbekiston", 1998.
4. "To'g'ridan to'g'ri hususiy investissiyalarni jalb etishni rahbatlantirish borasidagi qo'shimcha chora - tadbirlari tog'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel'.
5. Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T., "Moliya" nashriyoti, 2002.
6. A. Qodirov. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T.2002.
7. D. Tajiboeva. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T.2002.

8. Maklonel K., Bryu S. "Jkonomiks", M.2002.
  9. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Raizberga.- Uchebnik: - INFRA - M.2004.
  10. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof.M. N. Chepurina. Uchebnik: - INFRA - M.2004.
  11. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsch. red. akad. V. I. Vidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA - M.2004.
  12. Kulikov L. M. ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
  13. E. F. Borisov ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
  14. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
  15. Iohin V. Ya. ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
  16. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoi. d.e.n., prof. T. V. Chechelovoy. ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
- qo'shimcha adabiyotlar:
17. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Halq so'zi - 25 mart.
  18. Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov - 2005.
  19. Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. Yahshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
  20. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovnoy ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

#### Veb-saitlar:

1. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
2. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
3. <http://infoteka.economics.ru>
4. [www.finansy.ru](http://www.finansy.ru)
5. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
6. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
7. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
8. [www.jahon.mfa.uz](http://www.jahon.mfa.uz)
9. [www.budjet.rf.ru](http://www.budjet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ro'zani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof. Sh.Sh. Shodmonov, G.D. Bobabekova, G.T. Halikova tomonidan tayyorlangan "Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsiy v prepodovaniy ekonomicheskoy teorii". T-2004, "Innovatsionnye metody obucheniya v ekonomicheskoy obrazovaniy" va Sh.Sh. Shodmonov, T.M. Ziyaeva, M.T.

**Yaxshievalar tomonidan tayorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami.T-2005 y'qov qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.**

## 14- Mavzu. Milliy iqtisodiyotning nisbatlari va muvozanati.

**Kirish:**

2 soat

**Reja:**

**1-§. Iqtisodiy muvozzant tushunchasi va unga erishish mexanizmlari.**

**2-§. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari.**

**3-§. Yzbekistonda ishlab chiqarishni tarkibiy qayta qurish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash muammolari.**

**Kirish:**

Muvozzanatli tahlil iqtisodiy nazariyaning muhim tadqiq qilish usuli hisoblanadi. Bu usulda yaxlit halq ho'jaligining ko'rsatkichlari, ya'ni milliy daromad, investisiyalar, jamg'arma, bandlik va shu kabilarni tahlil qilishda foydalanadilar. Milliy iqtisodiyot miqyosida jamiyatning daromadlari va harajatlari o'rtasidagi muvozzanatlik asosiy o'rin tutib, bu yalpi taklif (yaratilgan milliy daromad) va yalpi talab (foydalanilgan milliy daromad) o'rtasidagi muvozzanatlikning o'ziga hos namoyon bo'lishidir. Bozor mexanizmi to'liq bandlilik sharoitida yalpi talab va yalpi taklif muvozzanatini ta'minlash layoqati masalasida turlicha qarashlar mavjud. Bir tomondan klassik hamda noklassik va boshqa tomondan Keynscha nazariya bu muammoga turlicha endashadi.

Bu bobda dastlab iqtisodiy muvozzanatlik tushunchasini va ishlab chiqarish muvozzanatli darajasini aniqlashga turlicha endashuvlarni qarab chiqamiz. Tahlilni ijtimoiy takror ishlab chiqarish mutanosiblik (proporsiya) lari tizimi va ularning darajasi hamda tarmoqlararo balansini bayon qilish bilan davom ettiradi. Mavzuning keyingi qismi makroiqtisodiy muvozzanatlikka erishishning bozor mexanizmlariga bag'ishlanadi.

### **1-§. Iqtisodiy muvozzanat tushunchasi va unga erishish mexanizmlari.**

Makroiqtisodiyot darajasida muvozzanatlik bu iqtisodiy resurslar va jamiyat ehtiyojlarining bir biriga mos kelishidir. Extiyojlar har doyim resurslardan ilgari lab borishi sababli iqtisodiy muvozzanatlikka odatda extiyojlarni cheklash eki resurslarni kupaytirish (va ularni eng optimal uy uy uyg'unlashtirish) orqali erishiladi.

Makroiqtisodiyotda iqtisodiy muvozzanatlikning shakllanish jarayoni va uni ta'minlash ancha murakkab va zidiyatli. Chunki u o'z ichiga hususiy va umumiy harakterdagi bir qator muvozzanatlar tizimini oladi.

Hususiy muvozzanatlik-bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan o'lchamlar eki iqtisodiy tamonlarining miqdoran mos kelishi. Hususiy muvozzanatlik ishlab chiqarish va iste'mol sotib olish lyoqati va tovar masalalari, byudjet daromadlari va harajatlari, talab va taklif o'rtasidagi muvozzanatliklar ko'rinishida chiqadi.

Umumiy muvozzanatlik iqtisodiy tizim barcha sohalarining o'zaro mos kelishini bildiradi. umumiy iqtisodiy muvozzanatlik asosida, avvalo, yalpi talab va yalpi taklifning mos kelishi etadi. Bu nafaqat iste'molchilik ne'matlariga, balki ishlab

chiqarish vositalariga ishchi kuchiga hamda barcha iqtisodiy faoliyat natijalariga umumiy talab va taklifning muvofiq kelishidir.

Umumiy iqtisodiy muvozanatlik bir qator shart-sharoitlarni taqozo qiladi. birinchidan ijtimoiy maqsadlar va iqtisodiy imkoniyatlarning mos kelib borishidir. Ijtimoiy rivojlanish maqsadlari va ustivor yo'nalishlari o'zgarishi, resurslarga extiyojlarni o'zgartiradiki, buning natijasida makroiqtisodiyotdagi mutonosabatliklarda ham o'zgarish ro'y beradi hamda engil muvozanatli holatni ta'minlash zarurligi kelib chiqadi. Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning o'zgarishi ijtimoiy-iqtisodiy isloxtalar va favqulotda ruy beradigan boshqa holatlar vaqti-vaqti bilan muvozanatlik shart-sharoitida o'zgarishlar buli shiga olib keladi.

Ikkinchidan, iqtisodiy muvozanatli mamlakatdagi barcha iqtisodiy resurslardan samarali foydalanadigan xo'jalik turini taqazo qiladi. Muvozanatli iqtisodiyotda ishlab chiqarish quvvatlarining bo'sh turishi ham ortiqcha maxsulotlar va resurslarni qo'llashda favqulotda isrofgarchiliklar ham bo'lishi mumkin emas.

Uchinchidan, muvozanatli ishlab chiqarishning umumiy tarkibiy tuzilishi iste'molning tarkibiy tuzilishiga mos kelishini bildiradi. To'rtinchidan, iqtisodiyotda muvozanatlikning umumiy shart-sharoitlari bo'lib, bozor muvozanati ya'ni barcha asosiy bozorlar (tovarlar, resurslar, ishchi kuchi va hokozolar) da talab va taklif muvozanatini hizmat qiladi.

Iqtisodiy muvozanatlik erkin raqobat, bozorda barcha haridorlar tengligi, iqtisodiy vaziyat barqarorligi kabi qator shart-sharoitlarni ham taqazo qiladi.

Real hayotda iqtisodiyot doimiy harakatda va to'xtovsiz rivojlanish holatida bo'ladi. Iqtisodiy sikl vazalarida, bozor kon'yukturasi, bozor sub'ektlari daromadlari va talabi tarkibida o'zgarishlar ro'y berib turadi.

Bulaming hammasi muvozanatli holatni turqun iqtisodiyotdagi shartli umumiy muvozanatlik sifatida qarab chiqishni taqazo qiladi.

Shunday qilib makro darajada umumiy iqtisodiy muvozanatlik-bu mamlakat butun iqtisodiyotning mutonosibligi. Bu barcha sohalar, tarmoqlar, xo'jalikning me'yorida rivojlanishining ta'minlaydigan iqtisodiy faoliyatning barcha qatnashchilari hamda barcha bozordagi o'zoro bog'lik va bir birini taqazo qiladigan muvozanatliklar tizimini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy muvozanatli darajasini aniqlashda asosan ikkita o'zaro bog'liq usuldan foydalaniladi. 1.Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli. 2. Jang'arma va investisiyalarni taqqoslash usuli.

1. Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash uchun (1-jadval) ma'lumotlaridan foydalanamiz. Makroiqtisodiyot uchun ishlab chiqarish umumiy hajmining miqdori ko'rsatkichi sifatida sof milliy maxsulotni (SMM) olamiz. Iqtisodiyotda yalpi sarflar iste'mol hajmi va investisiyalarga sarflarning umumiy summasidan ( $S+I_p$ ) iborat bo'ladi. Ishlab chiqarishning umumiy hajmini haraktirlash uchun tahlilda sof (yalpi emas) investisiyalar tushunchasidan foydalanamiz. Iqtisodiyotning muvozanatli darajasi -bu ishlab chiqarishning shunday hajmiki, u ishlab chiqarish mazkur hajmini sotib olish uchun etarli umumiy sarflarni ta'minlaydi. Boshqacha aytganda, sof milliy maxsulot muvozanatli darajasida ishlab chiqarilgan tovarlarning umumiy miqdori (SMM) harid qilingan tovarlar umumiy miqdoriga ( $S+I_p$ ) teng bo'ladi. Jadvalda ishlab chiqarish hajmi va yalpi sarflarni o'rganish shuni

ko'rsatadiki, bunday muvozanat ishlab chiqarish hajmining 5 ta darajasidan faqat SMM hajmining 470 mlrd. so'm darajasida mavjud bo'ladi.


**I-Jadval. Ishlab chiqarish muvozanatli darajasini aniqlash sharti.**

| Ko'rsatkichlar                             | 1   | 2   | 3   | 4   | 5   |
|--|-----|-----|-----|-----|-----|
| 1. Ishlab chiqarish hajmi /SMM mlrd. So'm/ | 390 | 430 | 470 | 510 | 550 |
| 2. Istemol: S /mlrd. So'm/                 | 390 | 420 | 450 | 480 | 510 |
| 3. Jang'arma / mlrd. So'm/                 | 0   | 10  | 20  | 30  | 40  |
| 4. Investisiyalar /mlrd. So'm/             | 20  | 20  | 20  | 20  | 20  |
| 5. Yalpi sarflar: S+Ip /mlrd so'm/         | 410 | 440 | 470 | 500 | 530 |
| 6. Muvozanatlik o'zgarish moyilli S+Ip=SMM | -20 | -10 | 0   | +10 | +20 |

Ishlab chiqarishning fakti shu darajasida bozorda butun maxsulotni sotib olish uchun zarur bo'lgan sarflar harajat qilinadi. Faqat shu holatida maxsulotning yillik o'sishi va sarflar muvozanatlikda joylashadi.

Ishlab chiqarish hajmi va bandlikning muvozanatli darajasi. Yalpi sarflar ishlab chiqarish hajmidan ortiq ekan kam bo'lsa buzilishi mumkin, jadvaldagi SMM va S+Ip ni taqqoslab, ular 470 mlrd. sumdan farq qilgan barcha darajada muvozanatlik buzilishni kuzatish mumkin. Yalpi sarflarning ishlab chiqarish umumiy hajmidan har qanday ortishi so'f milliy maxsulotning /SMM/ning o'sishiga, yalpi sarflarning har qanday yetishmasligi uning kamayishiga olib keladi.

Yuqorida chiqarilgan hulosalarni oddiy grafik erdamida ham oson tastiqlash mumkin. Grafikning yotiq o'qiga I-jadvalidagi ishlab chiqarish hajmi /SMM/ ni tik o'qiga yalpi sarflarni harakterlovchi ma'lumotlarni joylashtiramiz. Yalpi sarflar chizig'i ishlab chiqarish hajmi va daromadlar o'sishi bilan umumiy sarflar orib borishni ko'rsatadi. Ammo sarflar daromadlar o'sgan darajada ko'paymaydi, chunki daromadning bir qismi jang'armaga ketadi.



1-rasm. Ishlab chiqarish muvozanatli hajmini grafikda aniqlash.

Grafikdan ko'rinib turibdiki, muvozanatlikga sof milliy maxsulotning shunday miqdorida erishiladiki, u yalpi sarflar bilan kesishgan nuqtaga mos keladi. Bu kesishish yalpi sarflar sof milliy maxsulot /CMM/ga teng bo'lgan yagona nuqta hisoblanadi va tenglik muvozanatlik holatini bildiradi. Boshqa barcha hollarda muvozanatlik buziladi.

2. Jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usulining mohiyati shundaki, ishlab chiqarilgan maxsulotning har qanday hajmini shunga mos daromad hajmini beradi. Biroq uy xo'jaliklari bu daromadning bir qismini iste'mol qilmasdan jamg'arishga qo'yish mumkin. Jamg'arish -sarflar-daromadlar oqimidan potentsiyal sarflarni olib qo'yish hisoblanadi. Jamg'arish oqibatida iste'mol ishlab chiqarishning umumiy Hajmi /CMM/dan kam bo'lib qoladi. Shu sababli iste'mol bozorida ishlab chiqarilgan maxsulotning butun hajmini sotib olish uchun etarli bo'lmaydi va bu ishlab chiqarish umumiy hajmining kamayishiga olib keladi. Ammo tadbirkorlik sektori ham butun maxsulotni faqat provard iste'molchiga sotishni ko'zda tutmaydi. Maxsulotning bir qismi ishlab chiqarish vositalari eki investision tovarlar shaklini olib, tadbirkorlik sektorining ichida sotiladi. Shu sababli bu investitsiyalar jamg'armaga olingan mablag'larni potentsiyal qoplash hisoblanadi.

Agar jamg'armaga olingan mablag' investitsiyadan ortiq bo'lsa, bunda S+Ip SMM bo'ladi. Boshqacha aytganda, jamg'arma investitsiyalardan ortib ketganda, sof milliy maxsulotning har qanday darajasi muvozanatlikdan yuqori bo'ladi. Aksincha, agar investitsiyalar jamg'armaga ketgan mablag'lardan ortiq bo'lsa, S+Ip SMM bo'ladi va sof milliy maxsulotning har qanday darajasi muvozanatlikdan past bo'ladi. Jamarmaga qo'yilgan mablag' investitsiyalar bilan to'liq qoplanga, yalpi sarflar ishlab chiqarish hajmiga teng bo'ladi.

1 -jadvalning jamg'arma va investitsiya qatorlaridagi tegishli ma'lumotlarni ta'lim qilish ko'rsatadiki sof milliy maxsulot faqat 470 mlrd. sumlik darazhada bo'lganda uy xo'jaliklarining jamg'armaga bo'lgan xetiyohlari va tadbirkorlarning investitsiyon rejalari mos keladi. / S=Ip eki 20=20/. Faqat shu holda ishlab chiqarish hajmi va yillik sarflar muvozanatda joylashadi.

Muvozanatli sof milliy maxsulotni jamg'arma va investitsiyalarni takkoslash usuli yordamida aniqlashni grafik yordamida oson tasvirlash mumkin. grafik uchun kerakli ma'lumotlar I- jadvaldan olinadi. O'z-o'zidan aniqki, sof milliy maxsulotning muvozanatli darajasi 470mlrd. sum hisoblanadi, chunki shu nuqtada jamg'arma va investitsiyalar grafigi kesishadi. Faqat shu nuqtadan tadbirkorlar va uy xo'jaliklari teng miqdorda jamg'aradi va investirlaydi hamda CMM=c-Ip bo'ladi. Sof milliy maxsulotning barcha yuqori darajasida uy xo'jaliklarining jamg'armalari tadbirkorlarning investitsiyalariga qaraganda ko'proq bo'ladi va bu shunga olib keladiki, C+Ip<CMM bo'lib qoladi.



2-rasm. Mutanosiblikni jang'arma va investisiyalarni taqqoslash usuli yordamida aniqlash.

Sof milliy maxsulot muvozanatli darajadan past bo'lgan barcha darajada tadbirkorlar u xo'jaliklari jang'armalari summasidan oshib ketuvchi hajmda investirlashtirishni rejalashtiradi. Bu yerda investisiyalar jang'armaga olingan mablag'lardan ortik bo'ladi, demak,  $S+I_p > SMM$  bo'ladi.

Yuqorida ko'rganimizdek, jang'arma va investisiyalar sub'ekti moxiyati bilan har xil guruhlar hisoblanadi va shu sababli ular miqdori farqlanishi mumkin. Bu sof milliy maxsulot muvozanatining o'zgarishiga olib keladi. Ammo boshqa tamondan jang'arma va investisiyalar har doyim bir biriga tenglashib boradi. Bunga sabab amalda haqiqiy investisiyalar rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan investisiyalarni o'z ichiga oladi. Rejalashtirilmagan investisiyalar tenglashtiruvchi element sifatida amal qiladi va har doyim jang'arma va investisiyalar haqiqiy miqdorini moslashtirib boradi. Sof milliy maxsulot muvozanatli darajasi investisiyalar, jang'arma va iste'mol o'zgarishiga mos ravishda o'zgaradi. Agar o'zgarish investisiyalarda ro'y bersa, natijada u investisiyalardan kutiladigan sof foyda normasi va foyiz stavkasining o'zgarishiga olib keladi. Investisiyalardagi o'zgarishning muvozanatli CMM ta'sirini HHI-2 grafiklar yordamida oson tushinib ~~So'z milliy maxsulot (mlrd. s'um)~~ investisiyalardan kutiladigan sof foyda normasi o'sadi, investisiyalarga sarflar aytaylik 5 mlrd. So'mga ko'payadi. Bu XXI-2 rasmda investisiyalar grafigining yuqoriga  $I_p$  dan  $I_{p1}$  ga surilishida aks etgan. Shunga mos ravishda sof milliy maxsulot muvozanatli darajasi har ikkala grafikda o'sadi.

Aksincha agar investisiyalardan kutiladigan sof foyda normasi pasayadigan bo'lsa uoki foiz stavkasi o'ssa, investisiyalarga sarflarning aytaylik 5 mlrd. So'mga qisqarishi ro'y beradi. Bu XXI-2 rasmda investisiyalar grafigining  $I_p$  dan  $I_{p2}$  ga surilishida aks etgan. Bu surilish sof milliy maxsulot muvozanatli darajasining kamayishiga olib keladi. Iste'mol jang'armada o'zgarishi ro'y berganda ham ularning natijasi huddi yuqoridagidek bo'ladi, investision sarflarning 5 mlrd. So'mga ko'payishi, ishlab chiqarish hajmiga daromad darajasining 20 mlrd. So'm miqdorida o'sishini biz yuqorida ko'rdik. Bu o'zaro natija multiplikator samarasi deyiladi. Multiplikator samarasi - bu muvozanatli sof milliy maxsulotdagi o'zgarishning sarflardagi (investisiyalardagi) o'zgarishga nisbati.



### Real CMM dagi o'zgarish.

Ya'ni mul'tiplikator = -----

Sarflardagi dastlabki o'zgarish

Bizning misolimizda mul'tiplikator 4 ga teng (=20/5).

SMM dagi o'zgarish mul'tiplikator h Investisiyalardagi dastlabki o'zgarish.

Investision sarflardagi o'zgarishdan tashqari iste'mol, davlat haridi eki eksportdagi o'zgarishlar ham mul'tiplikator samarasiga ta'sir ko'rsatadi.

Mul'tiplikator samarasi 2 ta xolatga asoslanadi. Birinchidan, iqtisodiyotda bir sub'ekt tamonidan qilingan sarf, boshqasi tamonidan daromad shaklida olinadi. Ikkinchidan, daromaddagi har qanday o'zgarish iste'mol va jamg'arishda huddi shunday yo'nalishda o'zgarish bo'lishiga olib keladi.

Bunda iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi mutonosiblik saqlanib boladi, ya'ni iste'moldagi o'zgarish daromaddagi o'zgarishning 3/4 qismiga va shunga mos ravishdagi jamg'armadagi o'zgarish (JO') - 1/4 qismiga teng bo'ladi.

2 zhadval. Mul'tiplikator samarasi (shartli ma'lumotlar, mlrd. So'm)

|  | Daromadagi o'zgarish | Iste'moldagi o'zgarish | Jamg'armada o'zgarish |
|--|----------------------|------------------------|-----------------------|
|  | 1/2+3/               | 2/1-3/                 | 3/1-2/                |
| Investisiyalarning ko'zda tutilgan o'sishi | 5,00                 | 3,75                   | 1,25                  |
| Ikkinchi sikl                              | 3,75                 | 2,81                   | 0,94                  |
| Uchinchi sikl                              | 2,81                 | 2,11                   | 0,70                  |
| To'rtinchi sikl                            | 2,11                 | 1,58                   | 0,53                  |
| Beshinchi sikl                             | 1,58                 | 1,19                   | 0,39                  |
| Boshqa barcha sikllar                      | 4,75                 | 3,66                   | 1,19                  |
| JAMI:                                      | 20,00                | 15,00                  | 5,00                  |

Investisiyalarning dastlabki ko'payishi teng miqdordagi daromad (ish haqqi, foyda, renta va foiz)ni vujudga keltiradi. Daromadlarning 5 mlrd. So'mga o'sishi, iste'molning 3,75 mlrd. So'mga va jhamqarmaning 1,25 mlrd. So'mga o'sishiga olib keladi. sarflangan bu 3,75 mlrd. So'mni boshqa uy xo'jaliklari daromad shaklida oladi. Ular o'z navbatida bu 3,75 mlrd. So'mni 3/4 qismini (2,81 mlrd.) iste'mol qiladi, 1/4 qismini (0,94 mlrd.) jamg'aradi. Huddi shunday bir uy xo'jaligi iste'mol qiladigan 2,81 mlrd. So'm, boshqa uy xujaligiga daromad shaklida o'tadi va h. k. Investisiyalarning ko'zda tutilgan 5 mlrd. So'm o'sishi, mos ravishda sof milliy maxsulot muvozanatli darajasining 20 mlrd. So'mgacha o'sishiga olib keladi. shu sababli mul'tiplikator 4 ga (20/5) teng bo'ladi.

Jamg'armadagi o'zgarish va mul'tiplikator miqdori teskari mutonosiblikda joylashadi. Agar JO' bining misolimizdagi kabi 1/4 bo'lsa, mul'tiplikaior 4 ga teng bo'ladi. Agar Jo' 1/4 ni tashkil qilganda edi, mul'tiplikator 3 ga teng bo'ladi. JO' 1/5 ga teng bo'lganda esa, mul'tiplikator 5 ga teng bo'ladi.

Bulami umumlashtirib aytish mumkinki mul'tiplikator  $JO''$  ning teskari miqdoriga teng bo'ladi. Har qanday sonning teskari miqdori 1 ni shu songa bo'lish orqaly aniqlanadi.

qisqacha aytganda mul'tiplikator  $=1/JO''$

$IO'' + JO'' = 1$  bo'lgani uchun,  $JO'' = 1 - IO''$ .

Shunga mos ravishda mul'tiplikator formulasini quyidagi tartibda ezish mumkin:

$$\text{Mul'tiplikator} = \frac{1}{1 - IO''}$$

Te'liq bandlik sharoitida yalpi sarflar sof milliy maxsulot darajasi bilan mos kelmasligi mumkin. bu mos kelmaslik resission va inflyasion farqda ifodalanadi.

Inflyasion farqning oqibati talabning ortiqchaligi hisoblanadi, iqtisodiyotda maxsulotning jismonii hajmi o'zgarimganda narxlar ko'tariladi.

Bu shu vaqtgacha ishlab chiqarish muvozanatli darajasini aniqlashda tashqi savdoni hisobga olmadik va epiq iqtisodiyot mavjud deb faraz qildik. Endi bu farazdan chekinib eksport va import mavjudligi, hamda sof eksport (eksport-import) ijobiy eki salbiy bo'lishiga e'tiborni qaratamiz.

Iste'mol, investisiyalar va davlat haridlari kabi sof eksport ham mamlakat ichida ishlab chiqarish hajmi, daromad va bandlikning o'sishini keltirib chiqaradi. Shu sababli sof eksportni yalpi sarflarga uning elementi sifatida qo'yish zarur.

Demak, ochiq iqtisodiyot uchun yalpi sarflar  $S + In + X - M$  ni tashkil qiladi. Bu yerda  $H$ -eksport;  $M$ -import hajmi. Sof eksport  $H_p / X - M$  ga teng bo'lganligi sababli, aytish mumkinki, ochiq hususiy iqtisodiyot uchun yalpi sarflar  $C + In + X_n$  ga teng bo'ladi. Ijobiy sof eksport yalpi sarflarning o'sishiga olib keladi va milliy iqtisodiyotda sof milliy maxsulotning kupayishini keltirib chikaradi. Salbiy sof eksport yalpi sarflar darajasining nisbatan pasayishiga olib keladi va shunga mos ravishda sof milliy maxsulotni ham kamaytiradi.

Ishlab chiqarish muvozanatli darajasini aniqlashning 30-yillarda ishlab chiqilgan Keyinscha modelida yalpi sarflarning o'sishi narhlarining mavjud joriy darajasida ishlab chiqarish hajmining o'sishiga olib kelishi ta'kidlandi. Boshqacha aytganda sarflar va ishlab chiqarish hajmi o'zaro bog'liqlikning Keyinscha taxlili narxlarning doimiy darajasiga asoslanadi. Biz oldingi mavzularda qarab chiqgan yalpi talab va yalpi taklif modeli (2), yalpi taklif egri chiziqi oralik va tik kesmasida yalpi talabning o'sishi bilan narx darajasi ham o'sishini ko'rsatadi. Demak, bu taxlil narxlarning o'zgaruvchi darajasiga asoslanadi. Shunday ekan, yalpi talab va yalpi taklif modeli yordamida ishlab chiqarish muvozanatli darajasini aniqlash ko'prok darajada real holatini aks ettiradi. Chunki narx darajasining o'zgarishi ham yalpi sarflar iste'mol, investisiya va sof eksport va ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga olib keladi. Bundan tashkari yalpi talab va yalpi taklif modelida yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmiga narxdan tashqari boshqacha omillarning ta'siri ham hisobga olinadi.

Bizning respublikamiz kabi aralash iqtisodiyotga asoslangan mamlakatlarda ishlab chiqarish muvozanatli darajasini aniqlashda iqtisodiyotda mavjud bulgan barcha ho'jalik sub'ektlari sarflari, shu jumladan davlat sarflari hamda soliqlar darajasi ham hisobga olinishi zarur.

## 2-§. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari.

Milliy iqtisodiyotdagi muvozanatlik uning turli tomonlari va sohalari o'rtasida mutanosiblik bo'lishini taqozo qiladi.

Makroiqtisodiy jarayon hayot murakkab va ko'p qirrali bo'lishi sababli mutanosiblik turlari ham ko'p va hilma-xil. Ularning barchasini umumlashtirib mutanosiblikning quyidagi guruhlari tarkibiga kiritish mumkin.

**I. Umumiy iqtisodiy hissiyatdagi mutanosibliklar.** Bunga yalpi milliy maxsulot qiymatidagi tarkibiy qisimlar: qoplash fondi iste'mol fondi va jamg'arish fondi o'rtasidagi; yalpi milliy maxsulotning harakat shakillari: sof milliy maxsulot (milliy daromad shahsiy daromad va soliqlar to'langandan keyingi daromad) o'rtasidagi; iqtisodiyotning I va P-bo'linmalari o'rtasidagi; yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi; iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar massasi bilan pul massasi o'rtasidagi; axolining daromadlari bilan harajatlar o'rtasidagi mutanosibliklarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Ularning ayrimlarini qisqacha qarab chiqamiz. Yalpi milliy maxsulot qiymatidagi tarkibiy qisimlar o'rtasidagi mutanosiblik shuni bildiradiki, ulardan har birining o'z vazifasi bo'lib, ma'lum maqsadlar uchun, foydalaniladi. Amartizasiyani qilingan ishlab chiqarish vositalarining o'rni qoplash uchun ishlatiladi. Ish haqini ham o'z ichiga olgan iste'mol fondi jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirishga ketadi. Jamg'arish fondi ishlab chiqarishga qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish uchun, ya'ni ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflanadi. Yalpi milliy maxsulot tarkibiga ularning mutloq va nisbiy hissasining o'zgarishi butun iqtisodiyotda muvozanatning o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiyot bir maromda mutasil rivojlanib borishi uchun uning I va II bo'linmalari o'rtasida ham ma'lum bir mutanosiblik bo'lishi zarur.

I bo'linma maxsulot resurslari/ ishlab chiqarish omillari/ bozordagi talabga, II bo'linma maxsuloti iste'mol tovarlari va xizmatlar bozordagi talabga mos bo'lishi zarur. I bo'linma har ikkala bo'linma uchun ishlab chiqarish vositalari, II bo'linma har ikkala bo'linma uchun iste'mol buyumlari ishlab chiqarishi sababli ularning yalpi maxsuloti barcha bozorlardagi tashqi bozorni ham hisobiga olganda/ umumiy talabga muvofiq bo'lishi kerak.

Milliy iqtisodiyot muvozanatini ta'minlashda talab bilan taklif o'rtasidagi mutanosiblikning ahamiyati shundan iboratki, ular muvozanatda kelgandagina taklif qilingan tovarlar sotilib, talab qondiriladi, resurslar to'la tiklanib, ishlab chiqarish takrorlanadi. Talab bilan taklif muvozanati ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi aloqadorlikni bildiradi va ularning bozordagi ko'rinishidir.

Iqtisodiyotda yalpi milliy maxsulotning harakati pul vositasida amalga oshiriladi. Shu sababli tovar va xizmatlar massasi bilan pul massasi urtasida mutanosiblik talab kilinadi. Pul massasi har doim tovarlar massasi bilan ta'minlanishi zarur. Ular o'rtasida mutanosiblik bo'lmasa, iqtisodiyot izdan chiqadi. Umumiy iqtisodiy harakterdagi muvozanatlikning alohida turi axoli daromadlari bilan ularning harajatlari urtasidagi muvozanatdir. Jamiyat a'zolari yalpi milliy maxsulotdan uzt hissalarini dastlab pul shaklida olib, keyin uni tegishli bozorlarda tovar va xizmatlarga ayirbosh qiladi. Iqtisodiyotda muvozanatlik ta'minlanishi uchun axoli barcha daromadlarining iste'moliga mo'ljallangan qismi tovar xizmatlar harid qilish uchun

sarflanishi, jamg'armaga qo'yilgan daromadlari esa resurslar harakatiga jalb qilinishi ya'ni, moliya bozori orqali kapitalga aylantirilishi lozim.

2. Tarmoqlararo mutanosibliklar. Milliy iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlashda tarmoqlararo mutanosibliklar aloxida o'rin tutadi. Mamlakat halq xo'jaligi juda ko'p tarmoq va soxlardan iborat bo'lib, ularning rivojlanishi bir-biriga taqozo qiladi. Bir tarmoqda yaratilgan maxsulot boshqa tarmoqda iste'mol qilinadi eki pirovard maxsulotga aylantirilib o'z iste'molchisini topadi. Masalan, qishloq xo'jalik maxsulotlari ko'pchilik qismi /paxta, qalla, pilla, sut va h.k./sanoatning tegishli tarmoqlarida qayta ishlanib, pirovard maxsulotga aylantiriladi, va iste'molchilik tovarlari bozoriga chiqariladi. O'z navbatida sanoatning ishlab chiqarish vositalari yaratadigan sohalarning maxsulotlari halq xo'jaligining boshqa tarmoqlari /qishloq xo'jaligi, qurilish va h.k./da unumli iste'mol qilinadi. Bu ularning bir-biriga rivojlani shini taqozo qiladi. Tarmoqlararo mutanosibliklarga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va halq xo'jaligining boshqa tarmoqlari o'rtasidagi mutanosibliklar misol bo'ladi.

### 3. Tarmoqlar ichidagi mutanosibliklar.

Tarmoqlararo mutanosiblik va milliy ishlab chiqarish muvozanatlik darajasi tarmoqlar ichidagi mutanosiblik orqali ta'minlanadi. Tarmoqlar ichidagi mutanosiblik aloxida olingan tarmoq tarkibidagi soha va ishlab chiqarishlar o'rtasidagi bog'lilikni ifodalaydi. Masalan, sanoatning ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan sohalari, qishloq xo'jaligining dexqonchilik va chorvachilik sohalari o'rtasidagi mutanosibliklarni va h.k. Shu bilan birga ta'kidlab o'tilgan sohalarning ichidagi tarkibii bo'linmalar o'rtasida ham bog'liqlik bo'lishi zarur. Masalan, sanoatning qazib olish va qayta ishlash tarmoqlari, chorvachilikning sut va go'sht ishlab chiqarish sohalari o'rtasida va boshqalar

4. Hududiy (territorial) mutanosibliklar. Iqtisodiy rivojlanish mamlakat ayrim hududlari o'rtasidagi bog'liqlik ham taqozo qiladi. Yuzaki qaraganda hududlar o'rtasidagi mutanosibliklarning mamlakat iqtisodiy rivojidagi ro'li to'liq namoyon bo'lmaydi. Lekin aloxida hududiy bo'linmalar (viloyat, tuman, shaxar va boshqa hududii birliklar) ning bir-biriga iqtisodiy va tashkiliy jihatdan bog'liqligi ihtisoslashish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va kommunikatsiya nuqtai-nazaridan qaralsa, bu bog'liqlik ahamiyati yaqqol ko'rinadi.

5. Davlatlararo mutanosibliklar. Bu mutanosiblikni ikki holat taqozo qiladi. Birinchidan, dunening ko'pchilik mamlakatlari halqaro mexnat taqsimoti orqali bir-biri bilan bog'langan, ikkinchidan, shu bog'liqlik orqali milliy ishlab chiqarishning bir qismi chet elliklar tomonidan harid qilinadi yoki milliy ishlab chiqaruvchilar o'z iste'molining bir qismini chetdan keltirilgan maxsulotlar hisobiga qondiradi. Bu bog'liqlik qanchalik katta bo'lsa, sof eksport hajmi orqali muvozanatli YaMM ga shunchalik kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Qarab chiqilgan mutanosibliklarga erishish orqali milliy ishlab chiqarishning muvozanatli darajasini ta'minlab borishdan quydagilar ko'zda tutiladi:

Mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslardan samarali foydalangan holda jamiyatning ehtiyojlarini to'laroq qondirib borish.

To'la bandlilikka erishish, ya'ni mexnat qilishga layoqatli bo'lgan va ishlashni qo'laganlarni to'liq va samarali ish bilan ta'minlash.

Narx-navoning nisbiy barqarorligiga erishish va uni inflyasiya ta'siridan holi qilish.

Iqtisodiyotning bir maromda o'sib borishini etarli darajada investisiya bilan ta'minlash va muomaladagi pul massasiga bog'lab borish,

Eksport va importni muvofiqlashtirish asosida tashqi savdo balansining faolligiga erishish.

Bu maqsadlar faqatgina ularga intilish bo'lib, bunga erishish muqarrar ekanligini bildirmaydi. Chunki mutloq muvozanatga erishish mumkin emas, u buzilib va qaytadan tiklanib turishi orqali iqtisodiy o'sish notekis boradi.

#### **4 §. O'zbekistonda ishlab chiqarishni tarkibiy qayta qurish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash muammolari.**

Iqtisodiyotni butunlay yangi tartiblar asosida isloq qilish uning rivojida nomutanosibliklar bo'lishi va tanglik holatlarning kelib chiqishini muqarrar qilib qo'yadi. Shu sababli iqtisodiyotni barqarorlashtirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida uni jonlantirish va bir tekis rivojlantirish yo'lidagi qonuniy bosqichdir. U iqtisodiy rivojlanishda butunlay inqirozga uchrashga chap berish uchun ishlab chiqarish va chiqarilayotgan maxsulot tarkibini o'zgartirishga, ya'ni tanglik holatlarga barqam berishga yo'naltiriladi. Respublikada barqarorlashtirish siyosatidan ko'zda tutilgan maqsad eng avvalo, makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishni keskin darajada pasayishining oldini olish va ommaviy ishsizlikning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat bo'ladi. Shu bilan birga bu siyosat pul komissiyasini boshqarish, uning qadrsizlanishining oldini olish, mamlakat to'lov balansini bir me'orda saqlash kabi maqsadlarni ham o'z ichiga oladi.

Respublikada barqarorlashtirish siyosatini ishlab chiqishda jahon tajribasida sinalgan yondashuvlar hisobga olinib (UP-3) ishlab chiqarish sohalariga ustunlik beriladi. Moddiy ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishida ularni tarkiban qayta qurish ham ko'zda tutiladi. Bunda asosiy e'tibor katta istiqbolga ega bo'lgan, butun xalq xo'jaligining rivojlanish tamoyillarini belgilab beradigan etakchi tarmoq va sohalarga qaratiladi.

Iqtisodiyotda zarur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirguncha ishlab chiqarishning orqaga ketishiga barqam berish eng muhim maqsad bo'lib qoladi. Shu sababli respublikada keyingi yillarda makroiqtisodiy barqarorlik sohasida ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishini sekinlashtirishga moyillik ko'zga tashlanadi, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha esa o'sishga erishildi. 1995 yilda ishlab chiqarilgan yalpi ichki maxsulot 1994 yilga nisbatan 98.8 foiz, hosil qilingan milliy daromad esa 98.4 foizni tashkil etdi. Yalpi ichki maxsulotning kamayishi asosan tarkibiy o'zgarishlar, shuningdek ayrim tarmoqlar maxsulotiga talabning nisbatan qisqarishi tufayli ishlab chiqarishning pasayishi oqibatida sodir bo'ldi.

Respublikada ishlab chiqarish hajrining birmuncha pasayganligi iqtisodiyot tuzilmalariga ularni izdan chiqaradigan darajada jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Bunday

pasayish muqarrar bo'lib, u avvalombor ishlab chiqarish tarkibining qayta tuzilishi va bozor mexanizmini shakllantirish bilan bog'liq.

Sanoatda muayan ijobiy tarkibiy o'zgarishlar amalaga oshirilishi natijasida, uning maxsuloti 1995 yil oldingi yilga nisbatan 100,2 foizni tashkil qildi. Sanoatning etakchi asosiy tarmoqlari ayniqsa barqaror rivojlandi. Jumladan keyingi yillarda neft va gaz kondensati qazib olish ikki baravar, 1994 yilning o'zida 40 foiz ortdi, tabiiy gaz ishlab chiqarish esa 5 foiz ko'paydi.

Ishlab chiqarishning umumiy hajmida pirovard iste'mol maxsulotlarning ulushi 35,2 foizga qadar o'sdi. Tarkibiy qayta qurishlar asosida butunlay yangi halq ho'jalik majmuasini buned etish birinchi navbatda eng muxim makroiqtisodiy va takror ishlab chiqarish nisbatlarini tartibga solishni zarur qilib qo'yadi. Bunda asosiy e'tibor iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi, hududlarning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishga qaratiladi.

Tarkibiy siyosatning hududiy jihatlarini odamlar turmush darajasida vujudga kelgan hududiy nomutanosiblikni bartaraf etish, resurslar va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini qayta qo'rishda ishlab chiqarilayotgan maxsulot turini o'zgartirish, uning sifatini yaxshilash va maxsulot tayorlashga ketadigan jami harajatlarni kamaytirish talablari ham hisobga olinadi.

Iqtisodiyot tuzilishidagi o'zgartirishlar, chetdan maxsulot olib kelishni qisqartirish, halq xo'jaligining hom ashyo etishtirishga qaratilgan bir tomonlama yo'nalishini bartaraf etish va uning eksport imkoniyatini kengaytirish, tarmoqlar ichidagi va hududiy jihatdan vujudga kelgan nomutanosibliklarni bartaraf etish asosida iqtisodiyotning mutanosib va barqaror rivojlanishini ta'minlash vazifalarini hal etish bilan bog'liqdir.

Shu vazifalardan kelib chiqib, iqtisodiyot ichki tuzilishidagi o'zgarishlar - respublikaning energetika va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlovchi tarmoqlarni rivojlantirishga qaratiladi. Bunda birinchi navbatda eng muxim o'zak tarmoqlarni - neft va gaz sanoatini, energetikani, rangli metallurgiya sanoatini, mashinasozlik majmuasini, qishloq xo'jalik va agrosanoat majmuasining boshqa sohalarni rivojlantirishga ustunlik beriladi.

Xalq xo'jaligining takror ishlab chiqarish tuzilishini tubdan o'zgartirish asosida umumiqtisodiy barqarorlikka erishishda iste'mol bilan jamg'arish fondi o'rtaidagi eng maqbul mutanosiblikni ta'minlash asosiy orin tutadi. Iste'mol fondining eng maqbul darajasiga erishish - ichki bozorda talab bilan taklif o'rtaida mutanosiblikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli davlat eng muhim makroiqtisodiy tarmoq ishlab chiqarish nisbatlarini tartibga solib turuvchi omillarga ko'proq e'tibor berdi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiyotni barqarorlashtirish muammosini hal etishda ishlab chiqarish infrastrukturasi muhandislik kommunikatsiyalari, transport va aloqa tizimi singari tarmoqlarini ustivor rivojlantirishga ham alohida e'tibor beriladi.

Nomoddiy ishlab chiqarish sohasida tarkibiy qayta qurishlar faol investisiya siyosatini o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli respublika investisiya bazasini rivojlantirishga qattiq e'tibor berib, bunda o'z samoyalarimiz, tashqi kreditlar,

bevosita investisiyalar va ularning barcha manbalaridan foydalanish ko'zda tutiladi. Tashqi investisiyalarni jalb qilishni bevosita investisiyalar tarzida, davlat qarzдорlari, xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar, qarz beruvchi mamlakatlar moliyaviy kredit resurslari shakllarida amalga oshirish mumkinligi hisobga olinadi.

Shunday qilib, respublikada iqtisodiy islohotlar davomida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini qayta qurish vazifalariga axolining real turmush darajasini yaxshilash uchun zaruriy shart-sharoitlar sifatida qaraladi.

### Asosiy taya mch tushunchalar.

Iqtisodiy muvozanat - iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga teng kelish holati.

Hususi muvozanatlik - bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy miqdorlar eki iqtisodiy tomonlarining miqdoran teng kelishi.

Umum iqtisodiy muvozanatlik - jamiyat ehtiyojlari bilan mavjud iqtisodiy resurslar va ishlab chiqarish hajmining o'zaro mos kelishi.

Resession farq - yalpi sarflarning sof milliy maxsulot xajmidan kam bo'lmagan miqdori.

Inflyasion farq - yalpi sarflarning sof milliy maxsulot xajmidan kam ortiqcha bo'lgan miqdori.

Multiplikator samarasi - bu sof milliy maxsulotdagi o'zgarishning investision sarflardagi o'zgarishga nisbati.

Iqtisodiy mutanosiblik - iqtisodiyotning turli tomonlari va soxalari o'rtasida miqdor hamdasifat o'lchamlarining mos kelishlik darajasi.

### Savollar va o'quv topshiriqlari.

1. Iqtisodiy muvozanatlik, hususiy va umumiy muvozanatliklarga tavsif bering. Ularga misollar keltiring.
2. Muvozanatli CMM quyidagi ikki usul yordamida: grafikda qanday aniqlanishini tushuntiring: a) yalpi sarflar va ishlab chiqarish xajmining taqqoslash usuli; b) yopiq iqtisodiyot hususiy sektorida jang'arma va investisiyalarni taqqoslash usuli.
3. Multiplikator samarasi nima? Investisiyalar va multiplikator miqdori o'rtasidagi bog'liqlik qanday?
4. Milliy iqtisodiyotning muvozanatlik darajasiga erishishda hususiy mutanosibliklarning roli qanday Mutanosiblikning qanday turini bilasiz? Ularga qisqacha ta'rif bering.
5. Makroiqtisodiy barqarorlik nima? Unga erishish yo'llari qanday? Respublikada iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining qayta qurishlarini qaysi yo'llarda amalga oshirish ko'zda tutilgan?

### Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. "Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir", "O'zbekiston" 2005.
2. Karimov I.A. "O'zod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz", T. "O'zbekiston", 2000i.
3. Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari. " -T. "O'zbekiston", 1998.
4. "To'g'?'ridan to'g'ri xususiy investisiyalarni jalb etishni rahbatlantirish borasidagi qo'shimcha chora - tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel'.
5. Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T., "Moliya" nashriyoti, 2002.
6. A. Qodirov. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T.2002.
7. D. Tajiboeva. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T.2002.
8. Makkonel K., Bryu S. "ekonomiks", M.2002.
9. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Raizberga.- Uchebnik: - INFRA - M.2004.
10. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof.M. N. Chepurina. Uchebnik: - INFRA - M.2004.
11. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsch. red. akad. V. I. Vidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA - M.2004.
12. Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
13. E. F. Borisov ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
14. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
15. Iohin V. Ya. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
16. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoi. d.e.n., prof. T. V. Chechelovoy. ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalq so'zi - 25 mart.
2. Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoi teorii. Kirov - 2005.
3. Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. Yahshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
4. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovy ekonomicheskoi teorii. - M.2005.



### Veb-saytlar:

1. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
2. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
3. <http://infoteka.economics.ru>
4. [www.finansy.ru](http://www.finansy.ru)
5. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
6. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
7. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
8. [www.jahon.mfa.uz](http://www.jahon.mfa.uz)
9. [www.budjet.rf.ru](http://www.budjet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ro'zani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof. Sh.Sh.Shodmonov, G.D.Bobabekova, G.T. Xalikova tomonidan tayorlangan "Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsiy v predpodovaniy ekonomicheskoy teorii". T-2004, "Innovatsionnye metody obucheniya v ekonomicheskoy obrazovanii" va Sh.Sh. Shodmonov, T.M.Ziyaeva, M.T. Yaxshievalar tomonidan tayorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.

**15-Mavzu.**  
**Moliya tizimi va moliyaviy siyosat.**

**Kirish:**

2 soat

**Reja:**

**1- §. Moliya va hozirgi zamon jamiyatining moliya tizimi**

**2- §. Davlat byudjeti**

**3- §. Byudjet taqchilligi va davlat qarziari**

**4- §. Soliq tizimi va uning vazifalari**

**5- §. O'zbekistonda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish masalalari.**

**Kirish:**

Iqtisodiy rivojlanish jarayonida vujudga kelib, o'zgarib turadigan turli xil o'zaro bog'liq aloqalar pul vositasida amalga oshiriladi. Pul vositasida takror ishlab chiqarishning bir bosqich (fazasi)dan boshqaga o'tiladi, hamda ma'lum bir maqsadga qaratilgan ijtimoiy fondlar vujudga keltiriladi. Bu fondlar o'z navbatida takror ishlab chiqarishning uzluksiz davom etishini va uning kengaytirilishini ta'minlaydi. Yalpi milliy maxsulotni yaratish, taqsimlash va undan foydalanish jarayonida pul mustaqil harakat qilib, turli xo'jalik yurituvchi bo'g'inlar, uy xo'jaliklari va davlatning pul mablag'lari fondini tashkil etadi. Pul fondlari hosil bo'lish manbalari va amal qilish характери, maqsadlari va foydalanish usullariga qarab moliya va kredit shakllari tusini oladi. Biz bu bo'lda moliya tizimi, uning asosiy bo'g'ini bo'lgan davlat byudjeti va byudjet mablag'larining shakllanishida soliqlarning rolini qarab chiqamiz.

**1- §. Moliya va hozirgi zamon jamiyatining moliya tizimi**

Takror ishlab chiqarish jarayonida turli darajada, korxonalar (firma)lardan tortib, xalq xo'jalik tarmoqlari va butun jamiyat miqiyosida turli pul fondlari vujudga keladi. Shu sababli bu fondlarning shakllanishi va asosan sarflanishi jarayonini tartibga solish zaruriyati paydo bo'ldi. Takror ishlab chiqarish jarayonida pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar moliyaviy munosabatlar deyiladi. Bu munosabatlar pul fondlarining xarakatiga bog'liq ravishda davlat bilan korxonalar va tashkilotlar, tarmoqlar, regionlar va alohida fuqarolar o'rtasida vujudga keladigan barcha munosabatlarni qamrab oladi. Aytilganlardan pulning harakati bilan bog'liq barcha munosabatlar moliyaviy munosabatlarni tashkil qiladi degan xulosa kelib chiqmaydi. Moliyaviy munosabatlar pulning harakati bilan bog'liq munosabatlarning faqat bir qismini o'z ichiga oladi. Shahsiy iste'molga va ayirboshlashga (chakana savdoga, transportga, maishiy, kommunal xizmatlarga, tomoshaxonalarga va boshqalarga) to'lov uchun, jamiyatning ayrim a'zolari o'rtasidagi oldi-sotdi muomalasi, pulni tortiq qilish va meros qoldirish uchun xizmat qiladigan pul mablag'lari bunga kirmaydi.

Moliyaviy munosabatlar korxonalardan tortib umumdavlat miqiyosigacha bo'lgan bosqichlardagi pulning harakati bilan bog'liq munosabatlarni o'z ichiga olish sababli umumdavlat va hokimiyat mahalliy organlari (viloyat, tuman) hamda korxonalar

moliyasi farqlanadi.

Davlat bilan uning korxonalari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar, byudjetga tushadigan to'lovlar va davlatga qarashli korxonalarning fondlariga mablag'lar ajratish (subsidiyalar berish) yo'li bilan ro'yobga chiqadi. Bu hildagi munosabatlar jamiyat taraqqiyotining turli bosqichida, aniq vaziyatga, boshqarish usullari va xo'jalik yuritishning maqsad va vazifalariga qarab o'zgarib turadi. Bu hol moliyaviy siyosatda o'z aksini topadi. Chunonchi, xo'jalik yuritishning bozor mexanizmi ustunlik qilib borish bilan davlat korxonalarining ham iqtisodiy mustaqilligi kengayadi va bu hol korxonalaridan mablag' olish va ularga mablag' berish hususiyatini o'zgartiradi.

Mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar o'zaro iqtisodiy aloqalar tizimida muhim ahamiyatga ega. Ular o'rtasida tuziladigan xo'jalik shartnomalari faqat o'zaro to'lov majburiyatlarinigina emas, shartnoma intizomini buzganlik uchun jarimalar to'lash tizimini, shuningdek buyurtmachining alohida talabni bajarmaganlik uchun haq to'lashni ham qat'iy belgilab qo'yadi. Bunday moliyaviy munosabatlar faqat ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi munosabatlarni emas, balki texnika hizmati, savdo (ulgurzhi va chakana) va boshqa hizmat ko'rsatish sohasi tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Korxonalar bilan banklar o'rtasidagi munosabatlar, bank muassasalari orqali qarz berish tizimi asosida ta'minlanadi.

Korxonalar ichidagi, ya'ni korxonalar bilan uning tarkibiy bo'linmalari va hodimlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalariga hizmat qiluvchi moliyaviy munosabatlar alohida sohani tashkil etadi. Korxonalar iqtisodiy mustaqilligining kengayishi birlamchi bo'g'inlarining faoliyatiga tobora chuqurroq kirib boradi. Shunga muvofiq korxonalar mehnat jamoasining ijtimoiy muammolarni hal etish uchun xo'jalik ichidagi moliyaviy munosabatlar ham faollashadi.

Boshqaruvning turli darajalaridagi davlat organlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar soliqjami taqsimlash, tabiat va atrof muhitni muhofaza qilish tadbirlariga mablag' ajratish, territorial ishlab chiqarish majmualarining xo'jalik maqomini belgilash kabi masalalarda yuqori va quyi boshqaruv organlari o'rtasidagi munosabatlarni kiritish mumkin.

Davlat bilan mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar iqtisodiy dastaklar (soliq solish tizimi, mablag' solish) siyosati, turli xil iqtisodiy imtiyozlar berish yordamida tartibga solib turiladi.

Nomoddiy ishlab chiqarish sohasida (madaniyat, ta'lim, fizkultura, sport, axborot hizmati va boshqalar) turli tuman jamoa tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Buning har biri davlatdan mustaqil sur'atda tarkib topadigan (a'zolik badallari, yordamchi faoliyatdan keladigan daromadlar) eki davlat va turli xil mulkchilikdagi korxonalarning mablag'larini jalb qilish yo'li bilan tashkil topadigan byudjetga ega bo'ladi. Davlat bilan bu tashkilotlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar ikki tomonlama asosda bo'lishi, ya'ni byudjetga mablag' ajratish, soliq solish tizimi (daromaddan qissa olish) bilan uyg'unlashuvi mumkin.

Davlat bilan axoli o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar avvalo ijtimoiy iste'mol fondlaridan turli to'lovlar (pensiya, nafaqalar, stipendiyalar) va engilliklar olish munosabati bilan yuzaga keladi. Shuningdek, moliyaviy munosabatlar axoli

daromadlaridan to'lanadigan soliqlarni hamda mexnatkashlarning davlatga beradigan turli xil kreditlari, hususan zayomlar, lotareyalar, vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini ng jamg'armaga qo'yilgan qismini ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, moliyaviy munosabatlar ko'p qirrali bo'lib, iqtisodiy munosabatlarning muhim sohasini tashkil eiladi. Ayni vaqtda moliya munosabatlari ishlab chiqarish munosabatlaridagi va xo'jalik aloqalari tizimidagi o'zgarishlarni passiv aks ettirmaydi. Jumladan respublika iqtisodiyotida bozor munosabatlarini joriy qilish yo'lli ko'p jihatdan moliyaviy munosabatlarning takomillashuviga bog'liq. Shu bilan birga, moliya yagona xo'jalik mexanizmining bir bo'g'inidir, shu sababli uning samaradorligi butun iqtisodiyotni yangi munosabatlarga muvofiq qayta qurishga bog'liqdir.

## **2- §. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi va uning bo'g'inlari**

Moliya iqtisodiy kategoriyasi sifatida pul munosabatlari tizimi bo'lib, uning vositasida turli darajada pul mablag'lari fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish extiyojlari va boshqa ijtimoiy extiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.

Moliya makroiqtisodiyot doirasida o'zaro bog'liq to'rtta vazifani bajaradi: takror ishlab chiqaruvchi, taqsimlovchi, rahbatlantiruvchilik va nazorat qiluvchi.

1. Moliyaning takror ishlab chiqaruvchilik vazifasi ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlari doiraviy aylanishini moliyaviy ta'minlash va unga hizmat ko'rsatishdan iborat. Bunda qiymatning pul shakli o'zining doiraviy aylanish bosqichlari bo'yicha harakat qilib, takror ishlab chiqarishning uzluksizligi va barqarorligini ta'minlovchi moliyaviy va kreditli pul mablag'lari fondlari tashkil topishini ta'minlaydi.

Moliyaning bu vazifasini ish kuchini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda ham erkin namoyon bo'ladi. Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan sog'liqni saqlashni, xalq maorifini tashkil etish, malakali ishchi va mutahassis kadrlar tayorlash va qayta tayorlash, ijtimoiy ta'minotga harajatlari va shu kabilar amalga oshiriladi.

2. Moliyaning taqsimlovchi vazifasi moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan yalpi milliy maxsulotni, ayniqsa, uning milliy daromadni tashkil qiluvchi qismini davlat va mulkchilikning turli shakllariga asoslangan ishlab chiqarish sektorlari, iqtisodiyot tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish sohalari, mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi. Bundan milliy daromadning birqismi korxon va axoli daromadlaridan turli xil soliqlar olish, renta va bojxona to'lovlari, aksiz yig'inlari kabi orqali davlat qo'lida to'planadi. O'z qo'lida to'plangan milliy daromadning katta qismini davlat moliya vositasida axolining ijtimoiy madaniy extiejariga (uy joy qurilishi, tibbiyot hizmati, maorif, nafaqa, stipendiya va shu kabilar to'plashga), daromadlar darajasini ushlab turishga, milliy mudofaaga, atrof muhitni muhofaza qilish va shu kabilarga sarflaydi.

3. Moliyaning rahbatlantiruvchilik vazifasi, birinchidan, yaratilgan maqsulot qiymatini taqsimlash jarayonida, ikkinchidan, pul fondlarini tashkil qilish va sarflash

mexanizmi vositasida amalga oshiriladi. Ikki holda ham moliya ishlab chiqarish samaradorligiga, uning pivoord natijasiga, maxsulot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

4. Moliyadan ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol ustidan nazorat qilish vositasi sifatida foydalaniladi. Moliyaviy nazorat korxonalar (firma)larning moliya intizomga noya qilish uchun moddiy javobgar bo'lish tizimi, turli soliqlar undirib olish va mablag' bilan ta'minlash tizimi orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy munosabatlar va ularga xizmat qiluvchi maxsus muassasalar jamiyatning moliya tizimini tashkil qiladi. moliya tizimi korxonalar, tarmoqlar va umumdavlat moliyasini o'z ichiga oladi.

Korxonalar va tarmoqlar moliyasi ulardagi takror ishlab chiqarish jarayonida hamda alohida fondlar yaratish yo'li bilan hodimlarning ijtimoiy ehtiyojlariga xizmat qiladi. Bunday fondlarga ishlab chiqarishni, fan va texnikani rivojlantirish fondi kirib ular birgalikda korxonalar moliyasini tashkil qiladi. Ayni paytda ular tarmoqlarning va umumdavlat moliyalarining mablag'lari manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Umumdavlat moliyasi davlat byudjetini, ijtimoiy sug'urtasi fondini hamda davlat mulkiy va shahsiy sug'urtasi fondini o'z ichiga oladi. Davlat pul mablag'larining asosiy markazlashgan fondi bo'lmish davlat byudjeti moliya tizimining asosii bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. Davlat byudjeti - bu davlat harajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasi. Davlat daromadlari va harajatlarining asosiy qismi davlat byudjeti orqali o'tadi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqiyosidagi ijtimoiy vazifa larni hal qilish uchun sharoit yaratishdir.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlar va harajatlar qismi tarkibi XXIV-I jadvaldagi ko'rsatkichlar bilan harakterlanadi.

**XXIV-I jadval. O'zbekiston Respublikasi davlat byudzheting daromadlari va harajatlari tarkibi (1995 yil % hisobida)1**

| Daromadlar bo'yicha        |       | Xarajatlar bo'yicha            |       |
|----------------------------|-------|--------------------------------|-------|
| Daromadlar - jami          | 100,0 | Xarajatlar - jami              | 100,0 |
| Shu jumladan:              |       | Shu jumladan:                  |       |
| Tog'ri soliqlar            | 38,5  | Halq xo'jaligiga               | 12,2  |
| -daromad solig'i           | 28,6  | Davlat kapital quiymlari       | 18,8  |
| -Axolidan olingan soliq    | 9,9   | Ijtimoiy-madaniy tadbirlarga   | 45,3  |
| Egri soliqlar              | 49,3  | Axolini ijtimoiy himoyalash    |       |
| -Qo'shilgan qiymat solig'i | 19,2  | bo'yicha tadbirlarga           | 10,2  |
| -Aksiz solig'i             | 27,0  | Davlat hokimiyat va boshqarish |       |
| -Boj to'lovlari            | 3,1   | organlarini ushiab turishga    | 13,5  |
| Resurs to'lovlari          | 5,9   |                                |       |

Bu ko'rsatkichlar ancha oldingi davr uchun xos bo'lib bozor munosabatlariga o'tib borish jarayonida byudjeting ham daromadlar va ham harajatlar qismining tarkibi

o'zgarishga uchraydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjeti mablag'lari sarfida uchta muhim soha alohida ajratiladi. 1) Daromadlarni himoya qilish ; 2) Boshqarish va milliy mudofaa ; 3) Davlat qarzlari bo'yicha foiz to'lovlari.

"Daromadlarni himoya qilish" o'zida daromadlar darajasini ushlab turish bo'yicha bir qator dasturlarni aks etiradi. Bu qariyalarga, mexnataga layoqatsizlarga, invalidlarga, tibiyot yordamiga muqtojlariga, boquvchisini yoqotgan oyilalarga va shu kabilarga erdam berishni ko'zda tutadi.

Respublikamiz siyosiy mustaqillikka erishganligi munosabati bilan hozirgi davlat byudjeti harajatlar qismida aks etmagan milliy mudofaaga sarflar va davlat qarzlari bo'yicha foiz, to'lovlar, ham salmog'li qissani tashkil qilib boradi.

Davlat byudjeti daromadlar qismi asosan korxonalar foydasidan, axoli daromadlari va ish qaqidan olinadigan soliqlar, aksiz yig'inlari, bojxona to'lovlari va boshqa soliqlar hisobiga shakllanadi.

Qisqacha aytganda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida davlat byudjetining roli keskin o'zgaradi. Birinchidan, byudjet daromadlarini shakllantirish prinsipi o'zgaradi. Ikkinchidan, qaytarishsiz byudjetdan moliyalashtirish doirasi qisqaradi.

Davlatning moliyaviy mustahkamligi va barqarorligi davlat byudjetining defitsitsizligi (tanqissizligi)da ifodalanadi. Daromadlari harajatlaridan ortiq bo'lsa davlat byudjeti tanqissiz hisoblanadi. Respublikamiz davlat byudjeti tanqisligi 1998 yil yalpi ichki maxsulotdan 2,1 foizni tashkil qilgan.

Umumdavlat byudjeti bilan birga hokimiyat quyi organlarining (viloyat, tuman va mahalliy) byudjeti ham mavjud bo'ladi. Bu mavjud moliyaviy resurslarni ancha to'laroq jalb qilish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Hokimiyat quyi organlari byudjetining daromadlari o'z hududidagi korxonalar daromadidan, aholidan olinadigan soliqlar, mulk soliqlari va shu kabilar orqali shakllanadi.

Ularning daromadi qisman davlat byudjetidan beriladigan subsidiyalar hisobiga ham to'ldiriladi. Hokimiyat quyi organlari byudjet mablag'lari tegishli hududda ta'lim, sog'liqni saqlash, obodonchilik, yo'l qurilish va shu kabilarga sarflanadi.

Davlat mol mulkiy va shahsiy sug'urtasi umumdavlat moliyasining keyingi bo'g'ini hisoblanib, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar va fuqarolarga joriy qilinadi. U majburiy va ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Bu maqsadlar uchun fondlar korxonalar va aholining to'lovlari (vznoslari) hisobiga shakllanadi. Fond mablag'lari mol mulkiy sug'urtasiga (otilgan moddiy qimmatliklarni qoplashni ko'zda tutuvchi) va shahsiy sug'urtaga (ma'lum eshga etganda baxtsiz hodisa oqibatida mexnat qilish, layoqatini yo'qotganda va shu kabilarda fuqorolarga) pul to'lashni ko'zda tutadi.

Shahsiy sug'urta axolining pul jang'armalarini tashkil qilishning shakllaridan biri bo'lib ham hizmat qiladi.

Jamiyat moliya tizimi ijtimoiy siyosiy va ma'rifat ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilot va muassasalarning moliyasini ham o'z ichiga oladi. Kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, yoshlar, hotin qizlar, faxriylar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, sport jamiyatlari va boshqa ilmiy ma'rifiy zhamiyatlarining ham o'ziga hos moliyasi mavjud bo'ladi. Bunday izhtimoiy tashkilotlarning moliyaviy resurslarining manbai, tashkilot a'zolarining kirish puli va badallari, tijorat faoliyatidan kelgan daromad, homiyilar ajratgan yoki hayriya qilgan mablag'lardan iborat bo'ladi. Ularning moliya

resurslari o'zlarining nizomda ko'zda tutilgan faoliyatni amalga oshirish uchun sarflanadi.

Jamiyat moliya tizimida maxsus va hayriya fondlari ham alohida o'rin tutadi. Bu fondlar turli xo'jalik sub'ektlari va axolining pul mablag'larini aniq bir maqsad yo'lida birlashtiradi va ishlatadi.

Mazkur fondlarga respublikamizda amal qilib turgan "Mahalla", "Navro'z", "Orol" va "Ulug'bek" fondlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o'tib borish bilan jamiyat moliya tizimida turli xil sug'urta (ijtimoiy sug'urta, tibbiy sug'urta) fondlari va byudjetdan tashqari moliya fondlari (pensiya fondi, axolini ish bilari ta'minlash fondi, tabiyatni muxofaza qilish fondi, tarixiy yodgorliklarni saqlash fondi, tadbirkorlarga ko'mak berish fondi va boshqalar)ning ahamiyati ortib boradi.

### **3 -§. Davlat byudjetining milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashdagi ro'li.**

Davlat byudjeti milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashning butun jarayoniga xizmat qiladi. Yalpi milliy mahsulotning qoplash fondiga hamda jamiyat miqyosida milliy daromad shaklida namoyon bo'ladigan sof maxsulotga ajratilishi korxonalaming moliyaviy vositasida amalga oshadi.

Davlat byudjeti milliy daromadni birlamchi taqsimlash jarayonida, korxonalarda hosil qiladigan sof daromadning bir qismini markazlashgan tartibda foydalanish uchun davlat o'z

qo'lida to'playdi. Korxonalar sof daromadning asosiy qismi qo'shilgan qiymat solig'i shakliga kirib byudjetga o'tkaziladi. Hozirgi davrda davlat korxonalaming sof daromadlarini byudjet orqali taqsimlash, ular daromadidan olinadigan soliq to'lovlari shaklida ham amalga oshiriladi.

Hususi, jamoa va mulkchilikning boshqa shakllariga asoslangan korxonalar sof daromadning bir qismini mexnat haqi fondi hisobiga soliq to'lash yo'li bilan davlat byudjetiga o'tkazadi.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlari ustunlik qilib borish bilan davlat byudjeti orqali milliy daromadni birlamchi taqsimlashda korxonalaridan olinadigan soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz yig'inlari, bojxona to'lovlari, ko'chmas mulkka soliqlar va boshqa soliqlar) ning ahamiyati tobora ortib boradi.

Davlat byudjeti bilan bir qatorda davlat ijtimoiy sug'urtasi ham milliy daromadni birlamchi taqsimlashda qatnashadi. Ijtimoiy sug'urta fondiga korxonalaming mexnatga haq to'lash uchun mo'ljallangan fondlaridan tashqari ajratmalar jalb qilinadi.

Davlat byudjetida turli shakllarda to'plangan milliy daromad ishlab chiqarishning turli sektorlari va bo'linmalari o'rtasida, tarmoqlar va mamlakat hududlari o'rtasida qayta taqsimlanadi hamda jamiyat nomoddiy ishlab chiqarish sohasi pul bilan ta'minlanadi. Shunday qilib milliy daromadni byudjet orqali qayta taqsimlash natijasida, fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalar, boshqaruv organlari hamda mamlakat mudofaa xtiyojlari moliyaviy resurslar bilan ta'minlanadi.

Bunda korxonalar va umumdavlat moliyalarining milliy daromadni taqsimlash va mablag' bilan ta'minlashidagi nisbati mamlakatning taraqqiyoti darajasiga va xo'jalik yuritish usullariga bog'liq. Xo'jalik yuritish va boshqarishning ma'muriy buyrug' bo'lib usuli hukumron bo'lib kelgan uzoq davr davomida davlat byudjeti xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi daromadlarni to'plab, markazlashgan tartibda takror ishlab chiqarishni mablag' bilan ta'minlab keldi.

Bozor munosabatlari asoslangan xo'jalik yuritish sharoitida byudjet mablag'larini hosil qilish va uni taqsimlash sohasida davlat bilan korxonalarining o'zaro munosabatlari butunlay o'zgaradi. Milliy daromadni taqsimlab davlat byudjeti mablag'larini shakllantirishda soliqlarning roli ortib boradi va takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini mablag' bilan ta'minlash korxonalarining o'z resurslari hisobiga amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishga qilinadigan byudjet harajatlari korxonalarining faoliyatini pul bilan ta'minlash o'rniga tarmoqlararo yirik loyihalar, yangi regionlarni o'zlashtirish, transport shahobchalarni, aloqani va ishlab chiqarish infrastrukturasi boshqa sohalarini rivojlantirishga mablag' ajratish hal qiluvchi o'rinni egallab boradi.

Zarar ko'rib ishlaydigan davlat korxonalarini va samara bermaydigan xo'jalik echimlarini byudjet yordamida qo'llab-quvvatlash amaliyoti batamom tugaydi. Ayni zamonlarda davlat byudjetining ijtimoiy masalalarga, daromadlar darajasini ushlab turishga ulushi ancha kuchayadi, uy-joy, madaniy-maishiy qurilishi, xalq uchun tovarlar ishlab chiqarish dasturlarini amalga oshirishga mablag' ajratish ko'payib boradi.

Byudjet harajatlarning tarkibi o'zgargan sharoitida korxonalar (birlashma)lar, tarmoqlar moliyasining roli oshadi, ularning takror ishlab chiqarish jaraenida o'zini o'zi ta'minlashi kuchayadi. Korxonalar va iqtisodiyotning boshqa bo'g'inlarini rivojlantirishga qaratilgan pul mablag'larining miqdori ular faoliyatining pirovard natijalari bilan bevosita bog'lanadi. Korxonalarining foydasini va boshqa moliyaviy resurslarini byudjetga asossiz olib qo'yish va qayta taqsimlash amaliyoti barqam topadi. Hokimiyat boshqaruvining quyi bo'g'inlari byudjetning iqtisodiy bazasi kengayadi. Tegishli hududda joylashgan korxonalaridan olinadigan soliqlar, boshqa maxalliy daromad tushumlari, umumdavlat soliqlari hamda daromadlarning bir qismi quyidagidek byudjetlarning moliyaviy poydevonini tashkil qiladi. Olingan mablag'lar hududning ijtimoiy sohasini, uning ishlab chiqarish iqtisodiy qudratini hisobga olib rivojlantirish uchun sarflanadi.

#### 4- §. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari

Davlat byudjet daromadlar va harajatlarni muvozanatlashtirishni taqozo qiladi. Lekin hozirgi kunda dunyodagi ko'pchilik mamlakatlarda, davlat harajatlarning daromadlardan ortiqchaligi kuzatiladi. Buning oqibatida byudjet taqchilligi tez sur'atlar bilan o'sadi. Bu holning sabablari ko'p bo'lib, ularning ichida, davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolning uzluksiz o'sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi, harbiy harajatlarning, davlat ma'muriyati sonining ko'payishi va shu kabilar muhim o'rin tutadi.



Byudjet taqchilligining o'sishi mutlaq miqdorda va uning yalpi milliy maqsulot (YaMM)ga nisbatida aniq namoyon bo'ladi. 1998 yilga kelib byudjet taqchilligi YaMMga nisbatan faqat 2,1 foizni tashkil qilgan.

Respublika davlat byudzhetinging taqchilligi asosida ham yuqorida ta'kidlab o'tilgan sabablar etadi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari keskin kengayishini taqozo qildi, bu esa uning bu maqsadga harajatlarining o'sishiga olib keldi.

Byudjet taqchilligining dinamikasi xo'jalik kon'yunkturalaridagi joriy tebranishlari, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlarni ham aks ettiradi, sikllik krizislar davrida byudjetga soliq tushumlari hisobidan iqtisodiyotning ma'lum sektorlarini ushlab turishga, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarda investitsiyalar hajmini saqlab turishga harajatlarni ko'paytirishga majbur bo'ladi.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirish (qoplash)ning muxim sharoiti davlat krediti bo'lib chiqadi. Davlat krediti deganda, davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida chiqadigan barcha moliyaviy iqtisodiy munosabatlar yig'indisi tushiniladi.

Moliyaviy resurslarni davlat qarz olishning asosii shakli - bu davlat zayomlarini chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat axoli, banklar, savdo va sanoat kompaniyalarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qiladi.

Davlat o'zi uchun zarur bo'lgan resurslarni qanday manbalar hisobiga jalb qilish haqidagi masala, pul muomalasi holati va butun iqtisodiyotning amal qilish uchun muxim ahamiyatga ega bo'ladi. Agar hazina majburiyatlari hususiy sektorda joylashtirilsa, bunda pul resurslari ularning hususiy egalariidan davlat hisobiga vaqtincha qayta taqsimlanadi. Buning uchun davlat kapital egalari qiziqirish uchun o'zining zayomlarini etarlicha yuqori foizda chiqarishi zarur.

Masalan, AQSh federal byudzhetinging davlat qarzlari bo'yicha foiz to'lovlari, harajatlarning umumiy hajmida 1980 yildan 1989 yilgacha 8,9 foizdan 14,5 foizgacha ko'paygan. Shunday qilib, davlat qarzlarni hususiy sektorda joylashtirish, o'z navbatida byudjet harajatlarining yanada ko'paytirishiga olib keladi.

Davlat o'z majburiyatlarini nafaqat hususiy sektorda joylashtirishi, balki ularni Markaziy bankda hisobga olishi ham mumkin. Bunda bank muomalaga to'lov vositalarining tovar hajmining ko'paytirishi bilan bog'liq bo'lmagan qo'shimcha massasini chiqaradi. Mazkur holda, davlat byudjetini moliyalashtirish pul muomalasiga to'g'ridan to'g'ri inflyatsion ta'sir ko'rsatadi. Pul massasining o'sishi jamiyat haqiqiy boyligining ko'payishi bilan birga bormaydi.

Shuni ta'kidlash muhimki, davlat ssuda kapitali bozoriga qarz oluvchi sifatida chiqqanda pul resurslariga talab va taklif nisbatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Foiz stavkasining ancha oshishi ro'y beradi, buning natijasida kapital mablag'larni moliyalashtirishning umumiy sharoiti yomonlashadi va investorlar bir qismining pul bozondan o'ziga hos "siqib chiqarish samarasi" deb nom oladi.

Davlat zayomlari har xil muddatga chiqariladi va shu belgi bo'yicha qisqa muddatli (1 yil), o'rta muddatli (3-5 yil) yil va uzoq muddatli (5 yildan ortiq) zayomlarga bo'linadi.

qarz olishning, ularning muddati bo'yicha har xil turlari o'rtasidagi nisbat quydagi masala, davlat qarzlarni boshqarish uchun ikkinchi darajali ahamiyat kasb etmaydi. inflyatsion tamoyillar kuchaygan va pul muomalasining umumii beqarorligi

kuchaygan sharoitda qisqa muddatli qarzdorlikning salmog'i o'sadi. Pulning juda tez inflyatsion qadrsizlanishi sharoitida investorlar o'z mablag'larini uzoq muddatli davlat majburiyatlariga qo'yishdan qochadi. Kreditorlar inflyatsion jarayonlarning ta'siri ostida qadrsizlanish havfi kam bo'lgan qisqa muddatli hazina majburiyatlarini afzal ko'radi.

Ko'pchilik mamlakatlarda davlat qarzlari, qarzdorlikning boshqa turlari kabi YaMM ko'payishga qaranganda ancha tez o'sadi. Masalan, AQShda 1983-1990 yillar davomida YaMM 1,6 marta o'sdi. Shu davrda axoli, davlat va nomoliyaviy korporasi yalar umumiy qarzar, 2,2 marta ko'payib 10 trln. doll. dan oshib ketdi. bu YaMMdan deyarli 2 baravar ko'p. Davlat qarzlarning to'htovsiz ko'payib borishi, milliy daromadni foiz to'lovlari shaklida, tobora o'sib boruvchi qayta taqsimlashga olib keladi.

Katta byudjet taqchilligi va davlat majburiyatlari bo'yicha foiz to'lovlari o'sish sharoitida, davlat qarzlari to'lash vaqtini maksimal darajada cho'zishga harakat qiladi. Shu mahsadda davlat qarzlari shartlari o'zgartirish amaliyotida keng foydalaniladi. Bu tadbirlarni amalga oshirishning mohiyati shundaki, qarzlarni to'lashni kechiktirish uchun davlatning qisqa muddatli majburiyatlarini imkoniyat boricha o'rta va uzoq muddatli majburiyatlarga aylantirishga harakat qilindi. Buning uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin. Jumladan davlat o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini, o'rta va uzoqroq muddatli zayomlarga almashtiradi. U o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini, ancha yuqori foiz bo'yicha yangi, uzoq muddatli zayomlar chiqarish qisobiga ham sotib olish mumkin. Bunday turdagi tadbirlar qisqa davrli samara berish va vaqtincha davlatning moliyaviy ahvolini yengillatishi mumkin, chunki u odatda kelgusida foiz stavkasining oshishi va qarzar umumiy miqdorining o'sishi bilan bog'liq.

Bu yerda shuni ta'kidlash zarurki, davlatni moliyaviy tartibga solishning maqsadi faqatgina byudjetning balansligiga erishish hisoblanmaidi. Bundan tashqari, byudjet va pul kredit siyosati, makroiqtisodiy tartibga solishning ancha keng vazifalarini hal qilishga qaratiladi. Ularga siklga qarshi siyosatni amalga oshirish, bandlilik, to'lovga qobil talab va iqtisodiy faollikning umumiy darajasini tartibga solishlarni kiritish mumkin.

Iqtisodiy faollikning umumiy darajasi pasaygan va talab etarli bo'lmagan sharoitda, iqtisodiyotning krizisli holatga tushish havfiga qarshi byudjet harajatlarini ko'paytirish va soliqlarni kamaytirish tadbirlari ko'riladi. Davlat harajatlarining o'sishi, yalpi talab hajmini ko'paytiradi. Soliqlarni kamaytirish, kapital quyilmalarni ko'paytirish uchun ancha qulay sharoit yaratadi. Soliqlar kamayganda, davlat byudjet taqchilligini oshiradi va inflyatsion jarayonlarning kuchayishi uchun shart sharoit vujudga keladi. Byudjet harajatlarining daromadlaridan bunday turdagi ortiqchaligining vujudga kelishi, "faol byudjet taqchilligi" deb nom olgan. Shu bilan birga, byudjet daromadlarining iqtisodiy faollik tushishi natijasida kelib chiqadigan qisqarish ib "passiv taqchillik" deb nom olgan.

Uzoq muddatli rejada faol byudjet taqchilliga, ma'lum sharoitlarda aholi harid qilish layoqatining pasayishi va iqtisodiyotga davlat sarflari ta'sirining samarasi susayishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda davlat tartibga solishning

muhim muammolaridan biri, iqtisodiyotni "muzlatib qo'yish", inflyatsion jarayon bilan kurashish bo'lib qoladi.

Inflyatsiyaga qarshi tadbirlarning murakkabligi shundan iboratki uni amalga oshirish davlat harajatlarini qisqartirish, kredit foiz stavkasini oshirishi va pul massasini cheklashni taqozo qiladi. Bularning hammasi o'z navbatida, yalpi talabni ushlab turish, kapital qo'yilmalarini kamaytirishga, demak iqtisodiy faollikning tushishi va ishsizlikning ortishiga imkon tug'diradi.

Davlat qarzi. Xo'jalik hayoti baynalminallashuv jarayonlarining tez o'sishi, xalqaro kreditning jadal rivojlanishi bilan birga boradi. Davlat o'ziga zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun, bo'sh pul mablag'larining milliy chegaradan tashqaridagi manbaalaridan faol foydalanadi. Buning natijasida tashqi qarz vujudga keladi va u yuqorida aytib o'tilgan ichki qarzlardan keskin farq qiladi. Bu asosiy farq shundan iboratki, tashqi qarzda kredit bitimlarning qatnashchilari bo'lib kompaniyalar, banklar hamda turli mamlakatlarning davlat organlari chiqadi.

Davlat moliyaviy resurslarini ham suda kapitallarining milliy bozoridan va ham tashqi bozoridan qarz oladi.

Milliy bozorda tashqi qarzlarning yohud hususiy bank sindikatlari, yohud davlatlararo kelishuvlar yo'li bilan joylashtirilishi mumkin.

Xo'jalik hayoti baynalminallashuvining hozirgi bosqichi, xalqaro kreditning tez o'sishi, shu asosda tashqi qarzlarning shiddatli ko'payishi bilan harakterlanadi. Oxirga o'n yillikda rivojlanayotgan mamlakatlarda qarzlarning tez o'sishi kuzatilib, uning hajmi 1990 yilda 1265 mlrd. doll.ga etdi. Ammo tashqi qarzlarning tez o'sishi, qator sanoat iihatdan rivojlangan mamlakatlarda ham kuzatiladi. Jumladan, hozirgi vaqtda yirik hatto qarzdor mamlakatlardan biri AQSh bo'lib qoldi. O'tgan o'n yillikda, AQShda foiz stavkasining ancha yuqori darajasi, Amerika banklariga chet el kapitallarining oqib kelishini ta'minladi. Natijada 1988 yil AQShning sof qarzlari 540 mlrd. doll.ni uning YaMM II foizini tashkil qildi.

Xalqaro kreditning tez o'sishi kapitalning mamlakatlararo migrasiyasi, mamlakat va regionlar iqtisodiy o'zaro bog'liqligining chuqurlashuvining muqarrar natijasi hisoblanadi. Xalqaro kredit moliyaviy resurslarni ham hususiy sektorning extiyojlarini qondirish, ham davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun jalb qilish imkoniyatini sezilarli kengaytiradi. Shu bilan birga tashqi qarzlarning o'sishi bir qator boshqa muammolarni keltirib chiqaradi. Ulardan asosiy, milliy vositalar bilan nazorat qilib bo'lmaydigan ham kreditor va ham debitor mamlakatlar iqtisodiyotining kuchayib boruvchi bog'liqligi hisoblanadi.

## 5- §. Davlatning soliq tizimi va uning vazifalari

Soliq iqtisodiy kategoriya sifatida, sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli bo'lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Soliq - bu byudjetga majburiy to'lovlar shakli.

Soliq yordamida milliy daromadning tegishli qismi taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Davlat tomonidan olinadigan soliqlar hamda ularning tashkil qilinish shakli va usullari birgalikda soliq tizimini tashkil qiladi.

Turli xil daromadlar, mol - mulk tovar va xizmatlar soliq solish ob'ektlari bo'lishi mumkin.

Milliy iqtisodiyotda soliqlar quydagi uchta muhim vazifani bajaradi:

- davlat harajatlarini moliyalashtirish (fiskal vazifasi);
- ijtimoiy tanglikni ushlab turish (ijtimoiy vazifasi);
- iqtisodiyotni tartibga solish (tartibga solish vazifasi).

Davlat barcha soliq to'lovlardan olingan soliq tushumlarining bir qismini axolining ma'lum qatlami o'rtasida ishsizlik bo'yicha nafaqaga, ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha to'lov, urush va mexnat faxriylarga nafaqa kabi shakllarda qayta taqsimlaydi. Boshqa qismi hisobiga davlat sarflari moliyalashtiriladi.

Respublikamizda barcha soliq tushumlari 1992 yilda yalpi ijtimoiy maxsulotning taxminan o'ttiz foyizini, Shvesiya, Norvegiya, Fransiya, Angliya va GFRda tegishli ravishda 51,46,45,39 va 37 foizini tashkil qilgan. (1988 yil).

Davlat sarflari soliq tushumlari hisobiga amalga oshsada, davlat sarflari miqyosining o'sishi o'z navbatida soliqlarning o'sishini taqozo qiladi va uning darajasini belgilab beradi.

Xozirgi davrda umumiy tendensiya bo'lgan davlat sarflarining va shunga mos ravishda soliq hajmining o'sib borishini quyidagi omillar taqozo qiladi.

1. Axoli sonining o'sishi. Axoli jon boshiga davlat sarflari darajasi o'zgarmay qolgan taqdirda ham, axolining o'sgan qismini ijtimoiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlash qo'shimcha mablag'larni zarur qilib qo'yadi.

2. Ijtimoiy soha xizmatlari sifatiga talabning ortishi va urbanizasiya. Kishilar turmush darajasining ortishi ijtimoiy soxa xizmatlari hajmiga va sifatiga talabni oshiradi.

Axoli soni o'sishi bilan birga urbanizasiyaning kuchayishi ko'chalar, umumiy transport, qo'riqlash, yonhin xizmati, kanalizasiya va shu kabilarga juda katta sarflarni zarur qilib qo'yadi.

3. Atrof muxitning ifloslanishi. Axoli sonining o'sishi va urbanizasiyaning kuchayishi atrof muxitning sifati muammosini keskinlashtiradi. Juda ko'p miqdordagi moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish havo, suv va yerning ifloslanishi shaklidagi qo'shimcha harajatlarning o'sishini keltirib chiqaradi. Atrof muxit muammosini hal qilishda asosiy rol davlat zimmasiga tushadi.

4. Qashshoqlik va daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish. Bularga hususan ijtimoiy sug'urtani nivojlantirish, ishsizlik bo'yicha nafaqalar, ijtimoiy ta'minot, tekin medisina yordamlari davlat dasturi, oziq ovqat maxsulotlariga datsiyalar, davlat ujoy qurilishi kiradi.

5. Milliy mudofaa, davlat havfsizligining ta'minlash harajatlari hajmining o'sishi.

Xozirgi davrda soliq tizimida davlatning soliq siyosatini O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi va uning joylardagi (viloyat, shaxar, tuman) muassasalari amalga oshiradi.

Respublika hududida amal qiluvchi soliqlar, uning to'lovlari soliq undirishning ob'ektlari, soliq to'lash tartibi, soliq to'lash bo'yicha imtiyozlar, soliq to'lash bilan bog'liq ravishda kelib chiqadigan munozaralarni hal qilishning umumiy tartibi O'zbekiston Respublikasining soliq to'g'risidagi qonunlari bilan aniqlanadi.

Korxonalar faoliyatini solikli tartibga solish quyidagi umumiy asosida amalga oshiriladi:

- barcha daromadlardan, ularning manbalariga bog'liq bo'lmagan holda soliq undirishning majburiyati;
- soliq undirishda barcha uchun yagona umumdavlat siyosati;
- samarali ishlovchi korxonalarda hamda ho'jalik yuritishning progressiv shakllari uchun soliq normalarining rahbatlantiruvchilik rolini ta'minlash;
- soliq to'lovi bo'yicha barcha sub'ektlar majburiyati ustidan moliyaviy nazorat.

Soliq solish va uning stavkasini belgilash bir qator prinsiplarga asoslanadi. Soliq solish tartib(prinsip)lari juda oddiy, shu bilan birga ularning amaliyotga joriy qilish ancha murakkab. Soliq tizimi rivojlangan mamlakatlarda odatda soliqlar darajasini belgilashning quyidagi prinsiplari ajratib ko'rsatiladi.

1. Nafilik prinsipi - har xil kishilardan, ularning soliqlar hisobiga moliyalashtiriladigan dasturlardan foydalanishi darajasiga qarab turlicha soliq undirilishi kerak.

2. To'lov layoqatlilik prinsipi - soliq miqdori soliq to'lovchining boyligi va daromadlari darajasiga mos kelishi zarur. Boshqacha aytganda, soliq solish daromadlarning adolatli taqsimlanishini taqozo qilish zarur.

3. Adolatlilik prinsipi - daromadlari va hukumat dasturlaridan foydalanish darajasi bo'yicha teng bo'lgan kishilar teng miqdorda soliq to'lashi zarur.

Agar ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan teng bo'lgan soliq to'lovchilar teng miqdorda soliq to'lasa, teng bo'lmaganlar teng bo'lmagan miqdorda soliq to'lashi zarur. Xozirgi ijtimoiy iqtisodiy hayoti murakkab bo'lgan jamiyatda, soliq solishning barcha prinsiplariga aniq amal qilish, tabiiyki mumkin bo'lmagan masala. Shu sababli hozirgi davr soliq tizimi - bu har doym yuqoridagi prinsiplar bilan siyosiy hokimiyat o'rtasida oson bo'lmagan kelishuvdan iborat.

"Nafilik prinsipi" amaliyotda har xil ijtimoiy dasturlarni moliyalashtiruvchi soliqlarni har bir dastur amal qiluvchi daraja bilan va soliq undirishning tegishli ob'ektlarini aniqlab, u bilan moslashtirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, g'arb davlatlarida maxalliy yo'llar, polisiya va o't o'chirish xizmati, axlat va ko'chalarni yig'ishtirish o'rta ta'lim kabilar maxalliy soliq to'lovchilar hisobiga qoplanadi. Mahalliy byudjetning asosiy daromadi mulk solig'i va qisman savdodan (sotishdan) olinadigan soliq hisoblanadi.

Soliq solishning qolgan ikki prinsipi soliq undirishni shakllantirish va soliq solinadigan daromad tarkibini aniqlash natijasida amalga oshiriladi.

To'lovga layoqatlilik va olingan daromaddan soliq undirish prinsiplarining har qanday munozarasi ohiri oqqibatda soliq stavkasining u yoki bu daromad miqdorining o'sib borishi bilan o'zgarish usuli haqidagi masalaga olib keladi.

Soliq bo'yicha imtiyozlar qonunchilik bitimlarida belgilangan tartib va sharoitlar asosida o'rnatiladi. Soliq imtiyozlarining amaliyotda quyidagi turlari keng tarqalgan:

- ob'ektlarning soliq olinmaydigan eng kam darajasini belgilash;
- soliq to'lashdan alohida shahs yoki ma'lum guruhlarini (masalan, urush fahriylarini) ozod qilish;

- soliq darajasi (stavkasi)ning pasaytirish;
- soliq olinadigan summadan chegirish;
- soliqli kredit (soliq olishni kechiktirish yoki soliq summasini ma'lum miqdorga kamaytirish).

Soliqlar odatda progressiv (o'sib boruvchi), proporsional (mutanosib) va regressiv (kamayib boruvchi) soliqlarga bo'linadi. Bu bo'linish soliq stavkasi va daromadlar o'rtasidagi nisbatga asoslanadi.

1. Agar soliqning o'rtacha stavkasi daromadlar ortishi bilan o'sib borsa, progressiv soliq hisoblanadi. Bunday soliq nafaqat mutlaq katta summani, balki daromadlar o'sib borishi bilan undiriladigan daromadning ham ancha katta hissasini taqozo qiladi.

2. Daromadlar o'sib borishi bilan o'rtacha stavkasi pasayib boruvchi soliqlar regressiv soliqlar deyiladi. Bunday soliqlar daromadlar o'sib borishi bilan ularning kamroq va yanada kamroq qismini taqozo qiladi. Regressiv soliqlar mutlaq katta summa keltirishi mumkin, lekin daromadlar ortib borganda soliqlar mutloq miqdorining o'sishiga olib kelmasligi mumkin.

3. Proporsional soliq o'rtacha soliq stavkasi daromad hajmiga bog'liq bo'lmagan holda o'zgarishsiz qolishini taqozo qiladi.

Yuqorida aytilganlarni shahsiy daromad solig'i, misolida tushuntirib beramiz. Faraz qilamiz, soliq stavkasi shundayki, shahsiy daromad oluvchi soliq sifatida o'z daromadining 10 foizini to'laydi. So'zsiz bu proporsional daromad solig'i hisoblanadi.

Endi faraz qilamiz, soliq stavkasining o'zgarish xarakteri quydagicha: daromad oluvchi soliq olinadigan yillik daromadi 15 ming so'mdan kam bo'lsa, daromad solig'i sifatida 5 foiz, 15 mingdan 30 ming so'mgacha daromadga ega bo'lgan shaxs 10 foiz, 30 mingdan 40 ming so'mgacha daromad oluvchi - 15 foiz to'laydi va h.k. Bu, bizoldin tushunganimizdek progressiv daromad solig'i bo'ladi.

Oxirgi holat: agar siz 15 ming so'mdan kam daromad olganingizda, daromaddan soliq sifatida 15 foiz to'lashingizga to'g'ri kelsa, 15 mingdan 30 ming so'mgacha olganda - 10 foiz, agar sizning daromadingiz 30 ming so'm bilan 40 ming so'm oralig'ida joylashganda 5 foiz soliq to'lasangiz va H.K. - bu regressiv daromad solig'i hisoblanadi.

Progressiv soliqning umumiy hususiyati - yuqori daromad oluvchilarga, regressiv soliqlar kam daromad oluvchilarga eng kuchli ta'sir ko'rsatadi. Lekin ularga bilvosita yordam berish dasturlari va solig'larning darajasini belgilash orqali ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Soliqlar amal qilish doyrasiga ko'ra ikki darajadagi soliqlarni o'z ichiga oladi: umum davlat soliqlari va maxalliy soliqlar.

Maxsulot bahosiga qo'shilish xarakteriga ko'ra soliqlar egri va to'g'ri soliqlarga bo'linadi. Egri soliqlar tovar baxosi ustiga qo'yiladigan ustama hisoblansa, to'g'ri soliqlar narxning tarkibiy elementi sifatida bevosita narxning ichiga kiradi.

Korxonada axoli va mulk egalaridan olinadigan barcha soliqlar o'zlarining iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi asosiy turlarga bo'linadi: oborot solig'i, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq, resurs to'lovlari, amortizatsiya ajratmalari va

ijtimoiy sug'utada to'lovlar, shaxsiy daromad solig'i, ish haqi fondidan va korxonalar (korporasiya) foydasidan olinadigan soliq, mulk solig'i, aksiz yig'inlar va bojxonalar to'lovlari, meros qilingan va taqdim qilingan mulk solig'i, litsenziyalar va vizalardan olingan soliq va h.k. Bu soliqlarning asosiy qismi jamiyat miqiyosida tartibga solinadi va umumdavlat asosiy bo'g'ini bo'lgan davlat byudjetiga kelib tushadi.

Hokimiyat boshqaruvining quyi bo'g'inlari byudjeti asosan sotishdan olinadigan soliqlar va mulk soliqlari hisobiga shakllanadi.

Oborot solig'i. Oborot soligining hosil bo'lishi va ishlatilishining o'ziga hos mexanizmi (to'lashning shartligi, to'lovlar muddatlari va miqdorlarning qayd qilinishi) unga mablag'larni jamlashlarning soliq usuliga oyd tashqi belgilarni kasb etadi. Oborot solig'i egri soliqlardan farq qilib, maxsulot baxosi tarkibiga kiradi.

Oborot solig'i maxsulotning belgilangan ulgurji narxi bilan uning tannari o'rtasidagi tafovutning qat'iy qayd qilingan qismini davlat byudjetida jamlashning aloxida vositasi bo'lib qiladi. U tovarning narxini oshirmaidi, balki qo'shimcha maxsulotning bir qismi sifatida kiradi. Davlat ishlab chiqarish va taqsimotning yuzaga kelgan sharoyitlariga tayanib, sof daromadning ulushini hamda qaysi tovarlar narxlari orqali sof daromadning ulushini hamda qaysi tovarlar narxlari orqali sof daromadning oborot solig'i shaklida byudjetga kelib tushishini belgilab qo'yadi. Oborot solig'i milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash shakli sifatida ham maydonga chiqadi.

O'zbekiston Respublikasida 1991 yilda oborot solig'i vositasi bilan 4457,6 million so'm, ya'ni 47,6 mlrd. So'mdan iborat yaratilgan milliy daromad umumiy hajmining o'ndan bir qismidan ko'proq taqsimlangan va qayta taqsimlangan. Shu yili oborot solig'i tushumlari davlat byudjeti daromadlarining 15 foizdan ortiqrog'ini tashkil qilgan.

Keyingi yillarda oborot solig'i respublikada amal qilib turgan, soliq tizimidan chiqarildi va "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan soliq olish quyidagi" qonunga ko'ra aksiz solig'i amaliyotiga joriy qilindi.

Qo'shilgan qiymatga soliq. Ayrim g'arb mamlakatlari va AQShda investitsiyalardan kutiladigan foydani oshirish va yangi ishlab chiqarish ob'ektlarni raxbatlantirish maqsadida korporasiyalar foydasidan olinadigan solig'ni kamaytirish yoki umuman tugatish taklif qilinmoqda. Agar iqtisodiyot to'liq bandlilik holatida yoki shu holatga yaqin joylashsa, zarur resurslar iste'molchilik tovarlari ishlab chiqarishdan qanday qilib bo'shatib olinishi mumkin. Bu maxsadda erishish uchun iste'molchilik tovarlari uchun qo'shilgan qiymatga soliq (HHS-NDS) kiritish tavsiya qilinmoqda. Qo'shilgan qiymat solig'i chakana sotishdan olinadigan soliqqa juda o'xshash, farqi faqat shundaki, HHS narx bilan boshqa firmadan sotib olish qiymati o'rtasidagi farqqa qo'llaniladi. Mohiyati bilan HHS iste'molchilik tovarlari sotishdan olinadigan umumdavlat solig'iga tenglashadi. Ko'pchilik evropa mamlakatlari, masalan, Angliya va Shvesiya HHS dan daromadning muhim manbayi sifatida foydalaniladi.

HHS ma'lum darajada iste'molni cheklaydi. Lekin bu mablag'larning katta qismini jamg'arishga yo'naltirib (iste'molga emas) HHS to'lashdan qochish imkonini beradi. Shu bilan birga jamg'arish (iste'moldan ozod bo'lgan mablag') resurslarni iste'molchilik tovarlari ishlab chiqarish maqsadida yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan soliq olish haqidagi" (15 fevral 1991 yildagi) qonuni va shu qonunga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar (14 yanvar) 1992 yil, 2 iyul 1992 yil, 9 dekabr 1992 yil hamda moliya vazirligi va Respublika soliq qo'mitasining 15 yanvar 1993 yildagi "qo'shilgan qiymatga soliq to'lash va hisoblash tartibi haqidagi" qo'llanmasiga asosan bizning Respublikada ham qo'shilgan qiymat soliq undirila boshlandi.

HHS byudjet daromadiga sof daromad bir qismini olib qo'yish shakli bo'lib, bu soliq tovarlar va hizmatlarni sotish jarayonida yangidan qo'shilgan (yaratilgan) qiymat hisobidan to'lanadi. Soliq stavkasi erkin (shartnoma) baxolarda va tariflarda jo'natilgan (bajarilgan) tovarlar (hizmatlar) oboroti bo'yicha (25 foiz miqdorda o'rnatiladi).

Bundan qo'shilgan qiymatga soliq summasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$SA = \frac{Coo6 \cdot 25}{100}$$

SA-iste'molchidan olinadigan soliq summasi.

Bu erda:

Soob - soliq olinadigan oborot.

qayd qilingan baxolar va tariflar bo'yicha jo'natilgan tovarlar va bajarilgan hizmatlarga soliq summasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$SA = \frac{KK6 \cdot 25}{125}$$

Bu yerda:

KK6 - qayd qilingan baxo.

Resurs to'lovlari. Resurs to'lovlari stavkasi amal qilib turgan qonunchilik bo'yicha ishlab chiqarishga sarflangan moddiy harajatlar (Mh) qiymatning 6 foizi miqdorida o'rnatiladi va uning miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P_r = \frac{Mx \cdot 6}{100}$$

Bu erda:  $P_r$  - moddiy harajatlar

Resurslar to'lovlarining ob'ekti tannarxga kiritilgan moddiy harajatlar hisoblanadi. Resurs to'lovlari summasi maxsulot tannarxiga kiritiladi, bu esa ishlab chiqaruvchilarni moddiy harajatlarni tejashga rahbatlantiradi.

To'lovning bu turi xalq xo'jaligining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishini byudjetdan moliyalashtirishning qo'shimcha manbai hisoblanadi.



**Amortizasiya ajratmasidan to'lov.** To'lovning bu turida byudjetga amortizasiya ajratmalarining ma'lum qismi (30 foiz) o'tkaziladi. To'lovning miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$A_{AT} = \frac{Aa * 30}{100}$$

Bu yerda: Aa - amortizasiya ajratmasi

Soliq olishning ob'ekti asosiy fondlarning yil davomida eskirgan qiymati summasi hisoblanadi (uning qiymatini qayta baxolash hisobga olinadi).

Ijtimoiy sug'urta ajratmalaridan to'lov. Soliqning bu turi ish haqi fondi hisobidan olinadi. U ijtimoiy ta'minot dasturlarining kengayishi va rivojlanishi, hamda ish kuchi sonining o'sishi natijasida ortib boradi. Respublikada amal qilib turgan qonunchilik bo'yicha, korxonalar ish haqi fondi hajmidan 37 foiz hajmida ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisoblanadi. Bu mablag'ning 32 foizi Pensiya fondiga va ijtimoiy sug'urta fondiga, qolgan 5 foizi byudjetga o'tkaziladi. Demak byudjetga o'tkaziladigan ijtimoiy sug'urta ajratmalaridan to'lov stavkasi 5 foiz miqdorni tashkil qiladi.

Shaxsiy daromad solig'i. Soliqning bu turi fuqoralarning yillik daromadiga hisoblanib, soliq tizimining asosiy elementi hisoblanadi.

Shaxsiy daromad solig'i orqali milliy daromad qayta taqsimlanadi va undan tushgan mablag'lar byudjet daromadining muxim manbai hisoblanadi.

Daromad solig'i stavkasini aniqlashda fuqaro oladigan barcha daromad turlari - ish haqi, mukofot, taqdirlash, ovqat puli, pensiya va nafaqa, aliment, qo'shimcha daromadlar, renta va aksiya bo'yicha dividendlar hisobga olinishi kerak.

Soliq stavkasi daromad summasiga to'g'ri proporsionallikda joylashadi va shaxsiy daromadga bog'liq ravishda quyidagi ko'rinishni oladi.

**11-2 Jadval. Shaxsiy daromad solig'i stavkasi (1993 yil).**

| Daromad        |                |  |
|----------------|----------------|--|
| Yuqori         | Yuqori emas    | Soliq stavkasi (%)   |
| a <sub>0</sub> | a <sub>1</sub> | 14   |
| a <sub>1</sub> | a <sub>2</sub> | 14+16(a <sub>1</sub> -a <sub>2</sub> )   |
| a <sub>2</sub> | a <sub>3</sub> | 14+16(a <sub>1</sub> -a <sub>2</sub> ) +20(a <sub>3</sub> -a <sub>2</sub> )  |
| a <sub>3</sub> | a <sub>4</sub> | 14+16(a <sub>1</sub> -a <sub>2</sub> ) +20(a <sub>3</sub> -a <sub>2</sub> ) +30(a <sub>4</sub> -a <sub>3</sub> )   |
| a <sub>4</sub> | a <sub>5</sub> | 14+16(a <sub>1</sub> -a <sub>2</sub> ) +20(a <sub>3</sub> -a <sub>2</sub> ) +30(a <sub>4</sub> -a <sub>3</sub> ) +40(a <sub>5</sub> -a <sub>4</sub> )                                      |
| a <sub>5</sub> | a <sub>6</sub> | 14+16(a <sub>1</sub> -a <sub>2</sub> ) +20(a <sub>3</sub> -a <sub>2</sub> ) +30(a <sub>4</sub> -a <sub>3</sub> ) +40(a <sub>5</sub> -a <sub>4</sub> ) +50(a <sub>6</sub> -a <sub>5</sub> ) |

XIV-2 jadval. Shaxsiy daromad solig'i stavkasi

(tahminiy ma'lumotlar)

Soliq olinadigan umumiy daromad      Oxirgi soliq stavkasi (so'm)      Daromadning o'sishi (so'm)

**XXIV-2 jadval. Shaxsiy daromad solig'i stavkasi**

(tahminiy ma'lumotlar)

| Soliq olinadigan umumiy daromad | Oxirgi soliq stavkasi (so'm) | Daromadning o'sishi (so'm) | Soliqning o'sishi (so'm) | Umumiy soliq (so'm) | O'rtacha yillik stavka (5)/(1) |
|---------------------------------|------------------------------|----------------------------|--------------------------|---------------------|--------------------------------|
| 1                               | 2                            | 3                          | 4                        | 5                   | 6                              |
| 0                               | 0                            | -                          | -                        | -                   | -                              |
| 9000                            | 14                           | 9000                       | 1260                     | 1260                | 15                             |
| 12000                           | 16                           | 3000                       | 480                      | 1740                | 14,5                           |
| 15000                           | 30                           | 3000                       | 600                      | 2340                | 15,6                           |
| 22300                           | 30                           | 7500                       | 2250                     | 4590                | 20,4                           |
| 30000                           | 40                           | 7500                       | 3000                     | 7590                | 25,3                           |
| 30000<                          | 50                           | -                          | -                        | -                   | -                              |

Jadvalning 2 ustunida daromad solig'i stavkasining dinamikasi keltirilgan. 14 foyizli stavka 9000 so'mdan kam bo'lgan barcha yillik daromadlarga (3000 so'mdan yuqori) qo'llaniladi. Soliq olinadigan yillik umumiy daromad 9000 so'mlik darajadan ortib borishi bilara, shunga mos ravishda soliq stavkasi ham o'sib boradi. Umumiy yillik daromad 30000 so'mni tashkil qilganda, daromadning o'sgan qismi (7500 so'm) umumiy soliq summasini (7590 so'm) qoplamaydi. Umumiy yillik daromad summasi 30000 lik darajadan ortib borishi bilan soliq summasining o'sishi o'rtasidagi farq soliq foydasi hisobiga boradi.

Shaxsiy daromad solig'i bilan bog'liq masalani chuqurroq aniqlab olish uchun oxirgi va o'rtacha soliq stavkasi o'rtasidagi farqni tushuntirish zarur. Oxirgi soliq stavkasi o'sgan yoki qo'shimcha daromadga to'lanadigan soliq hisoblanadi. Oxirgi soliq stavkasi to'lanadigan soliqning o'sgan qismini o'sgan daromadga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

O'rtacha soliq stavkasi bu umumiy soliq summasining soliq olinadigan yillik daromadga bo'lingan nisbat. Agar umumiy soliq summasi 1740 so'mni, soliq olinadigan yillik daromad 12000 so'mni tashkil qilganda, o'rtacha soliq stavkasi 14,5 (1740 : 12000) foizga tenglashadi.

Hozir amal qilib turgan soliq tog'risidagi respublika qonuni shaxsiy daromad solig'i to'lashdan chetlashishlarga ma'lum darajada chek qo'ygan bo'lsada, unda progressivlik darajasini oz bo'lsada kamaytirish uchun aloxida imkoniyatlarga yo'l qo'yiladi. Yuqori daromad oluvchi ko'p kishilar, soliq olinadigan umumiy summani har xil yo'llar bilan ancha sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Masalan, axolining yuqori daromad oluvchi guruxlari o'zlarining daromadlariga soliq stavkasini, pullarni jam'arma depozitlari va korxonalar obligasiyalariga joylashtirib, 50,0 dan 0 (nol) darajagacha kamaytirish mumkin. Bundan tashqari yillik daromadlari summasini daromadlar tog'risidagi deklarasiyada kamaytirib ko'rsatish orqali soliq to'lashdan chetlashish yo'llari ham qonunda to'liq bartaraf qilinmagan. Soliq qonunchiligida soliq to'lashdan aniq ko'rib turgan chetlashish yo'llaridan tashqari qonunsiz (yashirin) bosh tortishning bartaraf qilib bo'lmadigan muammolari ham mavjud. Bu yerda daromadlarning giyohvand moddalar sotish, foyishabozlik, qimor oyinlari va shu kabi faoliyat turkari orqali "yashirin iqtisodiyotga" oqib ketishi ko'zda tutiladi. Bunga aloxida kishilarning foiz va dividend shaklida oladigan daromadlarini yashirishi ham

kiradi: mayda biznes egasi naxt oladigan pullarini yashirishi yoki soliq deklarasiyasida qisman ko'rsatishi mumkin.

Ish haqi olinadigan soliqlar. Ish haqi umumiy yillik daromadning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli fuqorolarning umumiy daromadidan olinadigan daromad solig'i ish haqi ham tegishli. Solig'ning bu turini yuqorida batafsil qarab chiqdik. Ish haqi fondidan olinadigan ijtimoiy sug'urta ajratmalari va undan to'lovlar (5 foizli) ham soliqlarning aloxida turi sifatida ko'rib chiqildi. Bulardan tashqari ish xaqidan bo'yidoqlar, so'qqaboshlar va kam oyilalilar ham soliq to'laydi. 1992 yil respublikamizda soliqning bu turlari axolidan olinadigan soliqlarning 1,8 foizini tashkil qilgan. Fuqoralar o'zlarining ish xaqidan turli ijtimoiy tashkilotlar va fondlarga ham to'lov va hayir exsonlar qilish mumkin.

Korxonalar daromadidan olinadigan soliq. Soliq qonunchiligida davlat korxonalar va tashkilotlari hamda jamoa va mulkchilikning boshqa shakllariga asoslangan korxonalar va tashkilotlar daromadlaridan davlat byudjetiga soliq to'lashi ko'zda tutiladi. Respublikada korxonalar daromadlaridan byudjetga tushumlar 1992 yil byudjet daromadining 17 foiziga yaqinini tashkil qilgan.

Daromad solig'i korxonalar daromadining mutloq summasidan olinadi. Soliq olinadigan daromad summasi quyidagi ketma-ketlikda hisoblab topiladi:

1. Umumiy daromad aniqlanadi. U o'z ichiga yalpi foyda (amortizatsiyani ham o'z ichiga oladi), boshqa korxonalardan kelib tushadigan dividendlar va obligatsiya bo'yicha foizlar (aksiya va obligatsiyalariga ega bo'lganligi uchun), zayom va bankdagi qoyilmalariga olinadigan foizlar va shu kabilar hamda ijaraga berilgan korxonalar mulkidan renta tushumlari, patent va litsenziya sotishdan tushumlar, mol mulkni sotishdan tushadigan daromadlarni oladi.

2. Daromadni kamaytiruvchi umumiy summa hisoblab topiladi (chiqim). Daromadni kamaytiruvchi chiqimlar o'z ichiga ishchi va hizmatchilarga to'lovlar (yalpi foydani hisoblashda maxsulot qiymatini oshirmadigan), to'langan soliq va foizlar, hayir exson fondlariga ajratmalar, amortizatsiya ajratmasi summasi, o'z pensiya fondiga ajratma va ishchilarga to'langan dividendlarni oladi. Soliq olinadigan daromad umumiy daromad bilan umumiy ajratma (chiqim)lar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Mulkchilikning barcha shakllariga asoslangan korxonalar daromadiga ma'lum stavka bo'yicha (bizda 18 foizli) daromad solig'i o'rnatiladi. Xalq Xo'jaligining ayrim tarmoqlari uchun pasaytirilgan (12 foizdan kam bo'lmagan) va oshirilgan soliq stavkasi (35 foizdan yuqori bo'lmagan) o'rnatilishi mumkin.

Korxonalardan olinadigan daromad solig'ini qo'llash ham ayrim kamchiliklardan holi emas. Birinchidan, soliqning harakat qilish sohasi ancha noaniq. Yuqori foyda olishni ko'zda tutib maxsulot ishlab chiqaruvchi va o'z maxsulotiga maksimal foydani ta'minlovchi narxni o'rnatgan korxonalar foydasiga soliq o'rnatilganda ishlab chiqarish hajmi va narxni o'zgartirish uchun asosga ega bo'lmaydi.

Aksiyaga egalik qiluvchi kompaniya soliqning butun og'irligini ancha past dividend yoki taqsimlanmagan kam foyda summasi shaklida o'z yelkasida ko'tarishga majbur. Ikkinchidan, korxonalar daromadiga soliq qisman ancha yuqori narxlar orqali iste'molchilarga va ancha past narxlar orqali resurslarni yetkazib beruvchilarga o'tadi. Aksiz solig'i. Bu soliqning ob'ekti natural yoki qiymat shaklida sotilgan tovarlar hajmi hisoblanadi. Aksiz solig'i egri soliq hisoblanib, tovar birligiga o'rnatiladi va

uning chakana narxiga kiradi hamda ancha yuqori narxlar orqali sotuvchidan iste'molchiga o'tadi.

Aksiz solig'i stavkasi va soliq olinadigan tovarlar ro'yxati Vazirlar Maxkamasi tomonidan aniqlanadi.

Maxsulot va hom ashyo resurslarini respublikadan tashqariga sotgan korxonalar ular uchun ham soliq to'laydi. Tashqariga chiqarilgan maxsulot va hom ashyo resurslari uchun to'lanadigan soliq, ayrim maxsulotlar narxiga kiradi va sotilganda iste'molchidan undirib olinadi. Soliqning bu tur qo'shilgan qiymat solig'iga qo'shimcha hisoblanadi.

Mulk solig'i. Mulk solig'ining asosiy qismining og'irligi shu mulk egasining yelkasiga tushadi, chunki bu solig'ni boshqaga yuklash mumkin emas. Bu - yer, shaxsiy mulk, hususiy uy yoki kvartira soliqlariga tegishli. Masalan, xatto yer sotilganda ham mulk soliqining qandaydir yukini unga ortish mumkin emas. Haridor shu yer uchun kelajakda to'lashga to'g'ri keladigan soliq hajmini e'tiborga olib eming narxini pasaytirishga harakat qiladi.

Ijaraga olingan yoki tadbirkorlik mulkiga soliq butunlai boshqa karakter kasb etadi. Ijaraga olingan mulkka solingan soliq to'liq yoki qisman mulkdordan ijarachiga renta to'lovlarini oshirish yo'li bilan o'tkazilishi mumkin.

Tadbirkorlik mulkiga solinadigan soliq ishlab chiqarish xarajatlari sifatida qoladi va shu sababli maxsulot baxosini o'rnatishda hisobga olinadi. Shu orqali bunday soliqlar iste'molchilar yelkasiga yuklatiladi.

Bundan tashqari dexqon xo'jaliklarini yurituvchi fuqarolar daromadidan ham soliq undiriladi. Soliq undiriladigan daromad yalpidaromad (pul yoki natural shakldagi) va shu daromadni olish uchun qilingan xarajhatlar o'rtasidagi farq hisoblanadi. Soliq stavkasi oylik tushumning 10 foizi miqdorida o'rnatiladi.


Yaxlit olingan soliq tizimini taxlil qilish uning favqulodda xilma xilligi amalii jixatdan keng qamrovligi va jamiyatning xo'jalik moliyaviy hayotining har bir bosqichidagi murakkab tuzilishini aks ettirishini ko'rsatadi.

Soliqlarning iqtisodiy faoliyatga ta'siri. Soliqlar takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy faollikni tartibga solishning vositalaridan biri ro'ida chiqib, yangi sifat kasb yetadi. Bu ta'sir ko'rsatish hoyat ko'p qirralidir. Uning ayrim tomonlarini qisqacha g'arab chiqamiz. Birinchidan, davlat foydaga soliq solish yo'li bilan, kapitalning jang'arilish jarayoniga juda sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, soliqni tartibga solish tadbirlaridan u yoki bu tarmoqning raqobatga layoqatlilikini hamda korxonalar ijtimoiy foydali faoliyatini raxbatlantirish va ularning kapital jang'arishga eng qulay sharoit yaratish uchun keng foydalaniladi. Uchinchidan, davlat imtiyozli soliqlar yordami bilan ishlab chiqaruvchi kuchlarni hududiy joylashtirishga, infrastruktura ob'ektlarini yaratish va shu kabilarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. To'rtinchidan, davlat butun xo'jalik kon'yunkturasiga umumiy ta'sir ko'rsatish maqsadida, soliq mexanizmidan keng foydalaniladi. Davlat iqtisodiy turqunlikni bartaraf qilish uchun imtiyozli soliqlar yordamida kapital quyilmalarning raxbatlantiradi, ham iste'molchilik va ham investision tovarlar yalpi talabni kengaitirish uchun ancha qulay sharoit yaratadi. Umumiy iqtisodiy kon'yunkturani raxbatlantirish bo'yicha yirik miqiyosidagi tadbirlarga, 80-yillar boshlarida AQShdagi soliqlarni keskin qisqartirish misol bo'ladi. Bu dasturni nazariy jixatdan asoslashga

amerika iqtisodchisi A.Loffer hisob kitoblari asos bo'ldi. U soliqlarni pasaytirish iqtisodiy yuksalish va davlat daromadlarining o'sishiga olib kelishini isbotladi. A.Loffering mulohazalariga ko'ra, korporasiyalar daromadiga soliqlar stavkasini haddan tashqari oshirish, ularning kapital qo'yilmalariga bo'lgan raxbatini susaytiradi, fan texnika taraqqiyotini to'xtatadi, iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi va bular oxiri oqibatda, Davlat byudjeti tushumlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat byudjetining daromadlari va soliq stavka (norma)si o'sishi o'rtasidagi bo'liqlikning grafikda tasvirlanishi "Loffer egri chizig'i" nomini oldi.

XXIV-I rasm.



Grafik tik o'qida soliq stavkasi, yotiq o'qida - davlat byudjetiga tushumlar (V) aks etgan. Soliq stavkasining optimal miqdori (R1) davlat byudjetiga eng yuqori tushum (V1) ni ta'minlaydi. Soliqlar yanada oshirilganda ishlashga va tadbirkorlikka qiziqish susayadi, 100 foizli soliq olishda davlat daromadi nolga teng bo'ladi, chunki hech kim tekinga ishlashni hohtlamaydi. Boshqacha aytganda, uzoq muddatli istiqbolda haddan tashqari yuqori o'rnatilgan soliqlarni pasaytirish jamg'armalar, investisiyalar bandlilikning soliq undiriladigan yalpi daromad hajmining o'sishini ta'minladi. Natijada solikli tushumlar summasi ko'payadi, davlat daromadlari hajmi o'sadi, taqchilik kamayadi va inflyatsiyaning susayishi ro'y beradi. Lekin o'z o'zidan tushinarliki, Loffer samarasi faqat erkin bozor mexanizmi me'yorida amal qilgan holdagina namoyon bo'ladi.

Loffer nazariyasining haqiqatga yaqinligi shundaki, soliq normasining oshishi yoki tushishi shubxasiz kapital qo'yilmalar dinamikasiga to'siq bo'luvchi yoki aksincha raxbatlantiruvchilik ta'sir ko'rsatadi. Ammo, umuman bozor iqtisodiyoti sharoitida investisiyalarga soliq stavkasidan tashqari ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar ichida muxim o'rinni siklning hususiyatlari, u yoki bu korxonada maxsulotiga talab va taklif nisbati, ular foydasining darajasi egallaydi.

#### 6- §. O'zbekistonda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish masalalari.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida umumiy iqtisodiy barqarorlikka erishish moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, shu jumladan davlat byudjeti barqarorligini mumkin bo'lgan darajada ushlab turish vazifasini ham o'z ichiga oladi.

Shunga muvofiq moliya siyosati Respublika davlat byudjetidagi taqchillikni yo'l qo'yilgan eng kam daraja doirasida ushlab turishga qaratiladi. Bu daraja yalpi ichki maxsulotning 3 - 4 foizi atrofida bo'lishi zarur. Haqiqatda esa Respublika byudjetining taqchilligi 1992 - yil oxirida 11,5 foizni tashkil qilib keyingi yillarda

pasayishi tamoyiliga ega bo'ldi (1995 - yil YaMMga nisbatan 2,8 foiz). Xozirgi davrda ham moliya siyosatining asosiy vazifasi byudjet taqchilligini cheklash hisobiga iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qaratilgan. Bunga erishish uchun Respublika iqtisodiyotida zarur tarkibiy o'zgarishlarni o'tkazish bilan bir qatorda ishlab chiqarishning orqaga ketishiga barxam berish va iqtisodi o'sishga erishish eng asosiy maxsad deb qarab kelinmoqda. Shu sababli keyingi yillarda ishlab chiqarishning orqaga ketishi tamoyillari ijobiy harakter kasb etib butunla barxam topdi. Respublikada yalpi ichki maxsulot ishlab chiqarishning oldingi yillarga nisbatan pasayishi 1992 yil 11,1 foiz, 1993 yil 2,4 foiz, 1994 yil 3,5 foiz, 1995 yil 4,0 foizni tashkil qildi va 1996 yil 1,6 foiz, 1998 yil 1,4 foiz o'sishga erishildi. Moliyaviy axvolni mustaqamlash orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishishda soliq siyosatini takomillashtirish ham muxim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda soliq tizimi o'ziga hos vazifalarni - hiznani to'ldirish qayta taqsimlash va raxbatlantirish vazifalarni to'la darajada bajarishi zarur. Soliqlarning birinchi vazifasi, davlat byudjeti daromad qismining eng muxim umumdavlat, xalq xo'jalik vazifalarini xalq etish uchun zarur bo'lgan miqdorda shakllanishini ta'minlashga qaratilishi lozim. Uning ikkinchi vazifasi, YaMMning bir qismini qayta taqsimlash va shu orqali iqtisodiyot tuzilishini o'zgartirish, axolini ijtimoiy himoyalash kafolatini ta'minlashda bevosita ishtirok etishdan iborat. Soliqlarning uchinchi vazifasi ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy hom ashyo, moliyaviy va mexnat resurslaridan samarali foydalanishga raxbatlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir.

Bu vazifalarni real bajarishi uchun amaldagi soliq tizimini anchagina isloq qilish talab qilinadi.

Soliq tizimini isloq qilishga asos qilib olingan asosiy tamoyil - korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishdir. Bu ularning o'z mablag'larini ishlab chiqarishni rivojlantirish, texnika bilan qayta qurollantirish va aylanma mablag'larni to'ldirishga sarflash imkoniyatini beradi. Bu esa oqibat natijada ishlab chiqarishning yuksalishiga olib keladi.

Korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishda daromad solig'idan foydadan undiriladigan soliqqa o'tish ko'zda tuiladiki, bu ishlab chiqansh va aylanma mablag'larni to'ldirishga sarflash imkoniyatini beradi. Foydaning ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan umumiy ruqudomi ko'payishi bilan birga, ayni vaqtda mexnatkashlar ish haqini ko'paytirish imkoniyati ham yaratiladi. Natijada faol mexnatni raxbatlantiruvchi iqtisodiy muxit yaratiladi.

Korxonalar zimmasidagi soliq yukini engillashtirishga erishishda qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasini kamaytirishga ham e'tibor qaratiladi.

Respublikada soliq tizimini isloq qilishda uning tarkibini tubdan o'zgartirish, resurslar, mol mulk soliqining rolini oshirish, jismoniy shaxslardan soliq undirishning progressiv tizimini joriy etish vazifasi qo'yiladi.

Tabiiy resurslarni qayta tiklash imkoniyatini yaratish va ulardan extiyotkorona foydalanish maxsadini amalga oshirish uchun yer, yer osti boyliklari, suv va qayta tiklanmaydigan boshqa resurslarga to'lov o'rnatish soliq siyosatining navbatdagi yo'nalishidir.

Respublika axamiyatiga ega bo'lgan soliqlar bilan maxalliy soliq o'rtasida aniq chegarani belgilash soliq tizimini takomillashtirishning eng muxim yo'nalishidir.

Bunda davlat byudjeti daromadining katta qismini joylarga berish, maxalliy byudjetlarni mustahkamlashga asosiy e'tibor qaratiladi.

Davlat byudjeti mutanosibligini kuchaitirish maqsadida, soliq tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda, korxonalarning moliya intizomini mustahkamlash, to'lov majburiyatlarini bir me'yorga keltirish, qarzlarning salbiy oqibatini tugatish muxim ahamiyatga ega bo'ladi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar.**

Moliya - pul mablag'larining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlardir.

Moliya tizimi - moliyaviy munosabatlar va ularni amalga oshirishga xizmat qiluvchi turli darajadagi moliyaviy muassasalardir.

Davlat byudjeti - davlat harajatlari va ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tarqatish rejasi.

Byudjet taqchilligi - byudjet harajatlarining daromadlar qismidan ortiqcha bo'lishi natijasida vujudga kelgan farq.

Davlat qarzlari - byudjet taqchilligini qoplash maqsadida davlat tomonidan tashqi va ichki mablag'lardan qarzga jalb qilingan moliyaviy resurslar. Davlat qarzlari qator yillarda surunkali byudjet taqchilligi natijasida vujudga keladi.

Soliqlar - davlatning markaziy va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan huquqiy va jismoniy shaxslar daromadining bir qismini byudjetga jalb qilish shaklidir.

Soliq stavkasi - soliq summasining soliq olinadigan summaga nisbatining foizdagi ifodasi.

Laffer egri chizig'i - davlat byudjeti daromadlari va soliq stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikning grafikda tasvirlanishi.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar.**

1. Moliyaning iqtisodiy mazmunini tushuntiring va uning iqtisodiy vazifalarini bayon qiling.
2. Jamiyat va davlat moliya tizimlari asosiy bo'yinlarining tavsifini bering. Moliya tizimida davlat byudjetining o'rnini qanday?
3. O'zbekiston davlat byudjeti mablag'larining shakllanish va taqsimlanish xususiyatlari to'g'risidagi mulohazalaringizni izohlang.
4. Davlat milliy byudjeti daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashda qanday rol o'ynaydi? Bunda qanday usullardan foydalaniladi?
5. Byudjet taqchilligi nima? Ijroiy va salbiy byudjet taqchilligini tushuntiring.
6. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va uning turlarini asosiy vazifalarini ko'rsating.
7. O'zbekistonda byudjet va soliq tizimini isloh qilish qanday yo'nalishlarda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan?

## Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. "Bizning bosh maksadimiz - Jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir", "O'zbekiston" 2005.
2. Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz", T. "O'zbekiston", 2000i.
3. Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari." -T. "O'zbekiston", 1998.
4. "To'g'ridan to'g'ri hususiy investitsiyalarni jalb etishni raxbatlantirish borasidagi qo'shimcha chora - tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel'.
5. Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T., "Moliya" nashriyoti, 2002.
6. A. Qodirov. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T.2002.
7. D. Tajiboeva. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T.2002.
8. Makkonel K., Bryu S. "ekonomiks", M.2002.
9. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Raizberga.- Uchebnik: - INFRA - M.2004.
10. Kurs ekonomicheskoy teoriy. Avtor koll. pod red. prof.M. N. Chepurina. Uchebnik: - INFRA - M.2004.
11. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsch. red. akad. V. I. Vidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA - M.2004.
12. Kulikov L. M. ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
13. E. F. Borisov ekonomicheskaya teoriya Uchebnik:- M.2005.
14. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
15. Iohin V. Ya. ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
16. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy. d.e.n., prof. T. V. Chechelovoy. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

## Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalq so'zi - 25 mart.
2. Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teoriy. Kirov - 2005.
3. Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. Yaxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
4. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovy ekonomicheskoy teoriy. - M.2005.



### Veb-saitlar:

1. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
2. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
3. <http://in.foteka.economics.ru>
4. [www.finansy.ru](http://www.finansy.ru)
5. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
6. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
7. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
8. [www.jahon.mfa.uz](http://www.jahon.mfa.uz)
9. [www.budjet.rf.ru](http://www.budjet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ro'zani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof. Sh.Sh.Shodmonov, G.D.Bobabekova, G.T. Halikova tomonidan tayorlangan "Pedagogicheskoe masterstvo i innovasii v predpodovanii ekonomicheskoy teorii". T-2004, "Innovatsionnye metody obucheniya v ekonomicheskom obrazovanii" va Sh.Sh. Shodmonov, T.M.Ziyaeva, M.T. Yaxshievlar tomonidan tayorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.

## 16-mavzu

### Pul kredit-bank tizimi va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli.

Kirish:

4-soat

Reja:

- 1-§. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari.
- 2-§. Inflyasiya, uning mexiyati, aniqlanishi va turlari
- 3-§. Kredit mexiyati, manbalari va vazifalari
- 4-§. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar, ularning vazifalari
- 5-§. O'zbekistonda milliy valyutani barqarorlashtirish vazifalari.

#### Kirish:

Pul va u bilan bog'liq munosabatlarni taxlil qilish, iqtisodiyot fanining eng muxim sohasini tashkil qiladi.

Pul iqtisodiy tizimning passiv qo'shimchasi hisoblansada, barqaror pul tizimi daromadlar va harajatlar aylanishiga xayotiy tus bagishlab, butun iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlab beradi, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanishga imkon tug'diradi va to'liq bandlilikka erishishni ta'minlaydi. Aksincha, tartibsiz amal qiluvchi pul tizimi ishlab chiqarish bandlilik va narx darajasining keskin tebranishiga asosiy sababi bo'lib, iqtisodiy rivojlanishga to'siq bo'lishi mumkin. Shu sabbali bu bobni pul muomalasi qonuniyatlarining taxlili bilan boshlaymiz. Pulga bo'lgan talab va taklifni o'rganib, foiz stavkasini xosil bo'lishini qarab chiqamiz.

Taxlilni keyingi bosqichda inflyasiyaning tabiyatini o'rganamiz. Nihoyat mavzuni respublikada milliy valyutani mustahkamlash vazifalarini taxlil qilish bilan yakunlaymiz.

#### 1-§. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari.

Pul tizimi - bu tarihan tarkib topgan va milliy qonunchilik bilan mustahkamlangan, mamlakatda pul muomalasini tashkil qilish shakli pul tizimining muxim tarkibiy qismlariga quydagilar kiradi:

1. Milliy pul birligi (dollar, frank, marka, yena, krona, so'm va h.k.), ularda tovar va xizmatlar narxi ifodalanadi.
2. Kredit va qog'oz pullar, hamda mayda tanga pullar tizimi. Ular naxd pul oborotida qonuniy to'ov vositasi hisoblanadi.
3. Pul chiqarish tizimi, ya'ni muomalaga pul chiqarishning qonunchilikda mustahkamlangan tartibi.
4. Pul muomalasini tartibga solish masalalarini nazorat qiluvchi davlat muassasalari.

Muomaladagi pulning turiga bog'liq ravishda, pul muomalasi tizimining ikki asosiy tipini ajratib ko'rsatish mumkin: 1. Metall pul muomalasi, bunda

muomalada to'la qiymatli oltin yoki kumush tangalar harakat qilib, pulning barcha vazifalarini bajaradi, kredit pullar esa metall pullarga erkin almashinishi mumkin. 2. Kredit va qog'oz pul muomalasi, bunda ular oltinga almashinishi mumkin emas, oltinning o'zi muomaladan chiqariladi.

Bizga ma'lumki 19 asrda oltin (yoki kumush) - barcha boshqa tovarlarga bevosita ayiribosh qilingan yagona tovar hisoblangan. Bu ayiriboshlash barcha tovarlarni bir butun tovar pul munosabatlari tizimiga bog'lovchi birlamchi zveno bo'lgan. Xususan bir qancha tovar turlarining oltin bilan uni qazib olish joyida bevosita bog'lanishi ekvivalentlik narx nisbatlarini shakllantirgan (u oltin va boshqa tovar qiymatini nisbati bilan aniqlangan). Keyin bu nisbatlar barcha boshqa tovarlarga bevosita ayiriboshlanadigan oltin tangalar (ichki savdoda) va oltin quyilmalar (tashki savdoda) umumiy axamiyat kasb etgan. Oltin kredit pullarning xarid qilish layoqati aniqlangan, ular oltinga nominal qiymati bo'yicha ayiriboshlangan.

19 asrda oltinning pul tizimidagi xal qiluvchi ahamiyati uning tovar sifatidagi umumiy ekvivalentlik roli bilan belgilanadi. Uning roli boshqa barcha tovarlarga bevosita ayiribosh qilinganligidan izohlanadi. Bu ayiriboshlash pul tizimida birlamchi munosabat hisoblanib pul tizimining ikkilamchi, uchlamchi va h.k. munosabatlarini, shu jumladan, kredit pul tizimini tarkibini belgilab bergan.

20 asrda, asosan uning ikkinchi yarmida, oltinning tovarlarga uni qazib olish joyida va tovar muomalasida bevosita ayiriboshlanishi barham topdi. Chunki oltin tangalar tovar aylanishidan olib qo'yildi va boylikka aylantirildi. Bunday sharoitda o'z-o'zidan aniqki, oltin boyliklar (banklar va hususiy shaxslarda saqlanuvchi) o'zining oldingi maxsus pul vazifasini bajara olmaydi. Oltin tangalar hozir ham boylik shaklida mavjud. Tashqi jixatdan (moddiy buyumlashgan) ular tovar muomalasi vositasi sifatida oltin tangalardan farq qilmaydi, sosial iqtisodiy jihadan u bilan hech qanday umumiylikka ega emas.

Xalkaro savdoda ham oltin vositachi chiqmaydi. Jahon bozorida tovarlar faqat konvertirlashgan valyutalarda sotiladi va sotib olinadi. Tashqi qarzni to'lash ham konvertirlashgan valyutalarda amalga oshiriladi, oltin boshqa tovarlar (masalan, neft) kabi faqat erkin bozor narxlarini bo'yicha uni sotib olish uchun foydalaniladi. Banknotlarni nominal bo'yicha oltinga almashtirish ham ancha oldin barham topgan. Ularning oltinga almashinishi erkin bozorda (oltin birjalarida) boshqa tovarlar (neft, bug'doy va h.k.) kabi olish-sotish yo'li bilan ro'y beradi. XIX asrdagidan farqli o'laroq oltinning tovarga ayiriboshlanishi kredit pullari orqali amalga oshadi.

Shunday qilib, hozirgi davrda, birinchidan, pul tizimi doirasida oltin kredit pullarga nisbatan birlamchi emas, aksincha kredit pullar oltinga nisbatan birlamchi va ikkinchidan, pul tizimining markaziy bo'g'inini oltin o'rniga kredit pullar egallaydi. Oltinga asoslangan pul tizimida kredit va qog'oz pullarga o'tilishi bilan, ular oltin tangalarning o'rnini muvaffaqiyat bilan almashtirdi.

Oltinning hozirgi zamon pul tizimiga ta'siri, yuqorida ta'kidlan-ganidek ikkinchi darajali axamiyatga ega va asosiysi bu pulning muxim vazifasi qiymat o'lchovi vazifasiga tegishli emas.

Shunday qilib XX asrda oltin, XIX asrdagidan farq qilib, pul tizimining xal qiluvchi bo'g'ini bo'lishdan va demak, umumiy ekvivalent tovar bo'lishdan to'xtadi. Umumiy ekvivalent bo'lib tovar bo'lmagan belgilar kredit va qog'oz pullar chiqdi. To'la qiymatli oltin va kumush pullar o'miga kelib, muomalada bo'lgan qog'oz pullar oltin bilan ta'minlanmagan. Masalan, 1913 yil AQShda bank tizimi tashkil qilinganda undan muomalaga chiqarilgan qog'oz pullarni to'liq oltin bilan ta'minlanish talabi 40 foiz ga, 1945 yil 25 foiz pasaydi va 1968 yil bu talab bekor qilindi.

Kredit va qog'oz pullar oltinning odatdagi tovardan pul tovarga aylanishi yo'lga to'siq qo'yadi va nafaqat muomaladagi oltin tangalar miqdorini cheklaydi, balki narxning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi.

Oltin asoslangan pul tizimining qanday ko'zda tutilgan ustunlik va kamchiliklari mavjud?

Oltin standart pul taklifini oltin bog'laydi. Pul miqdori mamlakatning rasmiy oltin zahirasi hajmi bilan bevosita bog'langan va davlat qayd qilingan narxlar bo'yicha oltinni sotish va sotib olishga majbur. Oltin pul tizimi davlatning iqtisodiyotiga juda ko'p pul yo'natirishga bo'lgan harakatini cheklaydi, pul taklifining o'sishi oltin taklifining o'sishi bilan chegaralanadi. Oltin pul tizimining kamchiligi shundaki, u birinchidan davlatning iqtisodiyotini barqarorlashtirishga karatilgan moliyaviy siyosatini, ya'ni ishlab chiqarish, narx va foiz stavkasi darajasining real tebranishini yumshatish uchun pul taklifini kiskartirish yoki kengaytirish imkoniyatini cheklaydi. Ikkinchidan, jahon oltin zahirasining bu demak pul taklifining o'sishi, (yirik oltin zahiralarning ochilishi yoki kam unumli rudalarda ilgor texnologiyaning kullanilishi natijasida) yangi inflyasiya to'liqini keltirib chiqarish mumkin, chunki konvertlashtirilgan valyutalar qayd qilingan narxlar bo'yicha yangi qazib olingan oltin ga ayirbosh qilinadi. Bundan tashqari, bir mamlakat ikkinchi mamlakatdan biror maxsulot, masalan gallani oltin hisobga sotib olsa, oltin olgan mamlakatda (oltin standart sharoitida) pul taklifi ko'payib, inflyasiya kelib chikishi mumkin. Uchinchidan, oltin standart sharoitda iqtisodiyot ma'lum darajada barqarorlikka mahkum, ya'ni oltinning qayd qilingan narxi bozor tomonidan aniqlangan yoki muvozanatli narxlaridan vaqt utishi bilan farqlanib turadi. Agar oltin bo'lgan talab va taklif uning bozor narxini qayd qilingan narxlaridan past umatsa, oltin Davlat Xazinasiga sotiladi, natijada pul taklifi kengayadi va inflyasiya kuzatiladi. Aksincha, agar oltinning bozor narxi qayd qilingan narxdan pul taklifi qisqaradi, iqtisodiyot deflyasiya va tanazzul tomon boradi. Oltin hozirgi davrda ham umumiy ekvivalent rolini o'yuvchi tovar bo'lib kolaveradimi - degan savolga javob berish bilan bu yerda ko'yilgan muammoga yakun yasaymiz.

1. Oltinning hozirgi zamon pul tizimiga ta'siri, uni XIX asr pul tizimi bilan yakinlashtiradi va bu ikkinchi darjali axamiyat kasb etib, pulning vazifasi - qiymat o'lchovi vazifasini kamrab olmaydi.

2. XX asrda oltin, XIX asrdagidan farq qilib, pul tizimining xal qiluvchi bo'g'ini va demak, umumiy ekvivalent - tovar bo'lishidan to'xtadi.

3. Umumiy ekvivalent bo'lib, tovar bo'lmagan belgilar shakli qog'oz pullar chikadi.

## 2-§. Inflyasiya, uning mohiyati, aniqlanishi va turlari

Pul rolini qimmatbaxo metall (oltin va kumush) lar bajarib kelgan davrda, pul -bu barcha boshqa tovarlar uchun umumiy ekvivalent hisoblangan maxsus tovar deb ta'riflash uning mohiyatini to'liq aks ettirgan.

Oltin standart xukronlik nazariyasi, oltin va kumush o'zlarining tabiiy xususiyalariga ko'ra pul hisoblanishini ko'zda tutadi.

Pulning nominalistik nazariyasi pulga faqat nominal hisob birligi sifatida qaraydi. Pulning miqdoriy nazariyasi shundan kelib chiqadiki, pul qiymati ularning muomaladagi miqdori bilan aniqlanadi; tovarlar muomalaga narxsiz, pul esa qiymatsiz chiqadi. Ayirboshlash jarayonida tovar va pul massalarining nisbatlariga bog'liq ravishda tovarlar narx pul esa qiymat kasb etadi.

Pulning mexnat nazariya (markscha) pulga maxsus tovar sifatida karaydi, uning qiymati ishlab chiqarishga ketgan mexnat sarflari (qazib olishga) bilan aniqlanadi, deb hisoblaydi.

Oltin pullar o'miga qog'oz pullar, keyinchalik tijorat va bank veksellari kirib kelishi hamda ular o'rnini kredit pullar egallab borishi bilan pulning mohiyatiga berilgan yuqoridagi ta'riflar o'z axamiyatini yoqotadi.

Kredit pullar to'lov majburiyatlari hisoblanib, u to'lov -hisob mexanizmida ayirboshlash vositasi sifatida foydalaniladi.

Xozirgi davrda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida barcha to'lov va hisoblarning 90% dan ko'progi kredit pullar yordamida amalga oshiriladi. Shunday ekan xozirgi zamon puli-bu mutlok sotib olish layoqatiga ega bo'lgan, sotish bitimini sotib olish bitimidan vaqt va makonda ajratishga imkon beruvchi vosita.

Ammo pul qanday shakllarda chikmasin va qanday kurinislarni olmasin uzok utmish davrdan xozirgi kungacha bir xil asosiy vazifalarni bajaradi.

Pul muomalasi - bu tovarlar aylanishiga hamda notovar xarakteridagi to'lovlar va hisoblarga hizmat qiluvchi naxd va naxdsiz shakldagi pulning harakati. Naxd pul muomalasiga bank biletleri va metall tangalar (pul belgilari) hizmat qiladi. Naxd pulsiz hisoblar cheklar kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi.

Pul muomalasi - bu tovarlar ( va hizmatlar) aylanishiga vosita bo'lib, hizmat qiluvchi pulning harakati. U tovarlarning sotilishiga, hamda moliya bozorining harakatiga hizmat qiladi.

Tovar muomalasi pul muomalsi orqali ta'minlanadi. Tovar muomalsini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori quydagilarga bog'liq.

1. Muayan davrda, aytaylik bir yil davomida sotilishi lozim bo'lgan tovarlar narxining so'mmasiga. Tovarlar qancha ko'p bo'lsa, ulami sotish uchun shuncha pul birligi talab qilinadi.

2. Pul birligining aylanish tezligiga. Buning ma'nosi shuki, aynan bir pul so'mmasi ko'proq yoki ozroq miqdordagi oldi -sotdi aktivga hizmat qilishi mumkin. Masalan, bir yil ichida 1000 so'm turta oldi-sotdi bitimida ishtirok etgan bo'lsa, bu shu pul yordamida 4000 so'mlik tovar sotilganligini, agar ikkita oldi-sotdi bitimda ishtirok etgan bo'lsa, faqat 2000 so'mlik tovar sotilganligini bildiradi. Demak, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori pul aylanishi tezligiga teskari mutanosib. Aylanish tezligi, o'z navbatida, tovarni sotish qancha pul so'mmasi yordamida amalga oshirilsa, shu pul so'mmasiga bo'lingan sotish so'mmasiga tengdir.

(Bizning misolda  $4000 / 1000 = 4, 2000 / 1000 = 2$ ).

Pul bir xil bo'lmagan tezlik bilan aylanish qilinadi. Bu ko'p omillarga, jumladan ular hizmat qilinayotgan tovarlar tunga bog'liq.

3. Muomala uchun zarur bo'lgan pul birligi miqdori puldan to'lov vositasi vazifasidan foydalanishga ham bog'liq. Ko'pincha tovarlar qarzga sotiladi va ularning xaqi kelishuvga muvofiq keyingi davrlarda tulanadi. Demak, zarur pul, birliklari miqdori shunga muvofiq miqdorda kamayadi. Ikkinchi tomondan, bu davrda ilgari kreditga sotilgan tovarlar xaqini to'lash vaqti boshlanadi. Bu pulga extiyojni ko'paytiradi.

Mazkur holatlarni hisobga olganda, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori quydagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$P_m = \frac{T_b - H_k + H_t - K_t}{A_t} \quad \text{bunda,}$$

$P_m$  - muayan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul birligi miqdori

$T_b$  - sotilishi lozim bo'lgan tovarlar narxi summasi

$H_k$  - xaqi sotish davridan boshqa vaqtda tulanadigan tovarlar narxi summasi

$H_t$  - xaqini to'lash muddati kelgan tovarlar narxi so'mmasi

$K_t$  - bir-birini koplaydigan to'lovlar summasi

$A_t$  - pul birligi aylanish tezligi

Muomalada bo'lgan pul birligi miqdorining tovarlar narxi so'mmasidan oshib ketishi va buning natijasida tovarlar bilan ta'minlanmagan pulning paydo bo'lishi pulning qadrsizlanishi, ya'ni inflyasiyani bildiradi.

Inflyasiya tovarlar narxining oshib ketishiga olib keladi. Shuning uchun narxlar indeksi - inflyasiya bor yo'qligining, u naqadar chukurligining eng asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Inflyasiyaga turli omillar sabab bo'lishi mumkin. Pul birliklarini ortikcha chiqarib yuborish ham, tovar ishlab chiqarishning to'lovga layoqatli talabning o'sishidan orqada qolishi ham, talab qilinmaydigan tovarlarning bozorga chiqarilishi ham shunday omillar jumlasiga kiradi. Inflyasiyani shu mavzuning keyingi qismida batafsil qarab chiqamiz.

### 3-§. Kredit mohiyati, manbalari va vazifalari

Inflyasiya makroiqtisodiy beqarorlikning jihatlaridan biri hisoblanadi.

Inflyasiya iqtisodiy hodisa sifatida uzok vaqtlardan buyon mavjud. Inflyasiya termini birinchi marta Garbik Amerikada, 1861-1865 yillardagi fuqarolar urushi davrida ishlatila boshlagan va qog'oz pul muomalasining ko'payib ketishi jarayonini bildirgan. Iqtisodiy adabiyotlarda inflyasiya tushunchasi XX asrda, birinchi jaxon urushidan keyin keng tarkaldi.

Inflyasiyaning eng umumiy, an'anaviy aniqlanishi - pul muomalasi kanallarining tovar aylanish ehtiyojlaridan yuqori pul massasi bilan to'lashi bo'lib, bu pul birligining qadsizlanishi va shunga mos ravishda tovar narxlarining o'sishini keltirib chiqaradi.

Inflyasiya - bu umumiy narx darajasining oshishidir. Albatta bu barcha tovarlar narxlarining oshishini bildirmaydi. Inflyasiya juda tez o'sgan takdirda ham ayrim tovarlar narxi nisbatan barqaror bo'lib qolishi, ba'zilariki esa tushishi ham mumkin. Inflyasiya tovarlar narxining o'sishida namoyon bo'lsa ham, faqat sof pul fenomenining o'ziga bog'lash to'g'ri emas. Bu bozor xo'jaligining har xil sohalarida takror ishlab chiqarish nomutanosibliklari tug'diradigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir.

Pul tovarlarga va o'z harid qilish kuchining barqarorligini saqlab qolgan chet el valyutalariga nisbatan qadsizlanadi. Avvalo ta'kidlash zarurki, narxning o'sishi tovarlarga talabning uning taklifidan oshib ketishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, inflyasiya - bu yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi nomutanosiblik natijasidir

Pul sohasining holatiga bog'liq bo'lmagan holda tovar narxlari mexnat unumdorligi darajasidagi o'zgarishlar, siklik va mavso'mmiy tebranishlar, takror ishlab chiqarish tizimidagi tarkibiy siljishlar, bozorning monopoliyalashuvi, iqtisodiyotni davlatning tartibga solishi, soliklarning yangi stavkasini kiritish, pul birligini deval'vasiya va reval'vasiya qilish, bozor kon'yukturasining o'zgarishi, tashki iqtisodiy aloqalar ta'siri, tabiiy ofatlar va shu kabilar oqibatida o'sishi mumkin. Demak, narxning o'sishi har xil sabablarga ko'ra kelib chikadi. Lekin narxning har qanday o'sishini inflyasiya emas va uning o'sishining yuqorida sanab o'tilgan sabablarni ichidan, xaqiqatdan inflyasion sabablarini ajratib ko'rsatish muxim. Narx o'sishining xaqiqatda inflyasion sabablariga quydagilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, bu byudjet tanqisligiga ifodalanuvchi, davlat daromadlari va harajatlari nomuvozanatligi yoki nomutanosibligi. Agar bu tankislik mamlakat markaziy emmision banki qarzlarini hisobiga, boshqacha so'z bilan aytganda "pechat qilish stanogidan faol" foydalanish hisobiga moliyalashtirilsa, bu muomaladagi pul massasini o'sishiga olib keladi.

Ikkinchidan, agar investisiyalarni moliyalashtirish yuqoridagiga uxshash usullarda amalga oshirilsa, narxning inflyasion o'sishi ruy berishi mumkin. Asosan iqtisodiyotni xarbiylashtirish bilan bog'liq investisiyalar, inflyasion xafli

hisoblanadi. Harbiy harajatlarning o'sishi ko'pchilik mamlakatlarda dalat byudjetining surunkali takchilligi va davlat qarzlari ortishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi, chunki ularni qoplash uchun davlat pul massasini ko'paytiradi.

Uchinchidan, narx darjasining umumiy oshishi bozor tarkibining o'zgarishi bilan bog'liq. Xo'ziri zamon bozor - bu ma'lum darajada oligopolistik bozor. Oligopolist esa narx ustidan hukmronlikka ega bo'ladi hamda uni ushlab turish va kuchaytirishdan manfaatdor. Tarmoqda yangi ishlab chiqaruvchilar oqimini cheklab, oligopolistlar yalpi talab va taklifning uzok davr mos kelmasligini ushlab turadi.

To'rtinchidan u yoki bu mamlakat iqtisodiyotining "ochikligi" ning o'sishi, uning jaxon xo'jaligi aloqalariga tobora ko'proq tortilishi biln "import qilinadigan" inflyasiya ihavi ortadi. Valyutalar kursi uzgarishsiz qolgan sharoitda, mamlakat har doyim, chetdan keltiriladigan tovarlarga narxlarning "tashqaridan" oshishi ta'sirini sezadi. "Import qilinadigan" inflyasiya bilan ko'rashish imkoniyati yetarlicha cheklangan. Albatta, o'z valyutasini reval'virasiya qilish mumkin. Ammo reval'vasiya bir vaqtda vatan eksporti tovarlari narxini oshiradiki, bu jaxon bozorida raqobatga layoqatligining pasayishini bildiradi.

Beshinchidan, narxning o'sishi inflyasion kutish natijasida ro'y berishi mumkin. Buning mohiyati shundaki, odamlar uzok vaqt davomida tovar va hizmatlarga narxning o'sishiga tuktash kelib hamda uning pasayishiga ishonchini yo'qotib, tovarlarni joriy extiyojlaridan ortiqcha sotib ola boshlaydi. Bir vaqtda ular, nominal ish haqini oshirishni talab qiladi va shu bilan joriy iste'molchilik talabini kengaytiradi. Ishlab chiqaruvchilar qisqa vaqt ichida hom ashyo, materiyal bug'lovchi buyumlarning yanada qimmatlashishini kutib, o'zlarining maxsulotlariga tobora yuqori narxlarni o'rnatadi. Natijada narxlar nafaqat oldin qondirilmagan to'lovga layoqatli talab, balki inflyasion kutish darajasiga ko'tarilib ketadi.

Shunda ekan, joriy talabning inflyasion kutish oqibatida kengayishi, narxning yanada o'sishini rag'batlantiradi. Bir vaqtda axoli jamg'armasi qisqaradi va kredit resurslari kamayadi. Bu ishlab chiqarish investisiyalari va demak, tovar hamda hizmatlar taklifi o'sishini ushlab turadi. Bunday holdagi iqtisodiy vaziyat yalpi talabning tez o'sishi va yalpi taklifning sekin ko'payishi bilan harakterlanadi. Natijada narx umumiy ravishda oshadi.

Inflyasiyani hisoblash uchun- inflyasiya sur'ati ko'rsatkichidan foydalaniladi va bu ko'rsatkich o'rganilayotgan davrda iste'molchilik tovarlari narxi o'rtacha darjasining o'sish sur'atini ifodalaydi.

Inflyasiya sur'atini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi :

$$I_s = \frac{U_{THi} - U_{THo}}{U_{THo}} * 100 \%$$

bu yerda;



Is - inflyasiya sur'ati ( iste'molchilik tovarlari narxi o'rtacha darajasining o'sishi sur'ati)

UTHi - urganilayotgan yilda iste'molchilik tovarlari narx indeksi:

UTHo - bazis yilda iste'molchilik tovarlari narx indeksi

Inflyasiya narx indeksi yordamida bazis davrga nisbatan aniqlanadi. Maslan, iste'molchilik tovarlariga narx indeksi 1995 yil 113, 6; 1996 yil -118,3 ga teng bo'lsa, inflyasiya sur'ati quydagicha bo'ladi;

$$\text{Inflyasiya sur'ati} = \frac{118,3 - 113,6}{113,6} * 100 = 4,1\%$$

Iqtisodchilar inflyasiyasining bir qancha turini jumladan: talab va taklif inflyasiyasi farqlaydi.

1. Talab inflyasiyasi. Narx darajasining an'anaviy o'zgarishi jami talab ortiqchaligi bilan tushuntiriladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektori ishlab chiqarish real hajmini ko'paytirib ortiqcha talabni qondira olmaydi. Chunki barcha mavjud resurslar to'liq foydalanilgan bo'ladi. Shu sababli bu ortiqcha talab narxning oshishiga olib keladi va talab inflyasiyasini keltirib chiqaradi.

Jami talab va ishlab chiqarish hajmi bandlik va narx darajasi o'rtasida murakkab bog'liqlik mavjud. Jami sarflar ko'payib borganda narx darajasi odatda to'liq bandlikka erishilguncha o'sib bora boshlaydi. To'liq bandlilik sharoitida qo'shimcha sarflar sof inflyasiya sarflar bo'lib qoladi.

Narxning doimiy darajasida nominal va real yalpi milliy maxsulot (YaMM) bir xil darajada ko'payadi. To'liq bandlilik erishilguncha ikkinchi kesmadad vujudga keluvchi inflyasiyada ishlab chiqarish hajmining o'zgarishini (fizik hajmda) aniqlash uchun nominal YaMM ni real YaMM ga aylantirish zarur. "Sof" inflyasiya sharoitida nominal YaMM ko'pincha juda tez sur'atlar bilan o'sadi, real YaMM esa o'zgarishsiz koladi.

2. Inflyasiya ishlab chiqarish xarajatlari va bozordagi taklifning o'zgarishi natijasida ham kelib chikishi mumkin. Ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi taqozo qiladigan inflyasiya, narxlarning maxsulot birligiga qilinadigan harajatlarning ko'payishi hisobga oshishini bildiradi.

Bunday harajatlar, resurslarga qilingan umumiy harajatlarni, ishlab chiqarilgan maxsulot miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

$$\frac{\text{Mahsulot birligiga}}{\text{Xarajatlar}} = \frac{\text{Umumiy xarajatlar}}{\text{maxsulot miqdori}}$$

Maxsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi iqtisodiyotda foydani va maxsulot xajmini qisqartiradi. Natijada tovarlar taklifi ham kiskaradi. Bu o'z navbatida narx darjasini oshiradi. Ishlab chiqarish xarajatlari nominal ish haqi, hom ashyo va energiya narxlarning o'sishi hisobga ortib boradi.

Inflyasiya daromadlarni qayta taqsimlab milliy ishlab chiqarish xajmiga ta'sir ko'rsatadi. Avvalo inflyasiyaning daromadlarni qayta taqsimlashga ta'sirini qarab

chiqamiz. Bu ta'sirni bilish uchun nominal va real daromadlar o'rtasidagi farqni tushuntirish muxim.

Nominal daromad-bu kishilarning ish xaqi, renta, fozi yoki foyda shaklida oladigan pul daromadlari miqdoridir. Real daromad-nominal daromad summasiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori bilan belgilanadi. Nominal daromadlar narxlar darajasiga karaganda tez ko'paysa, real daromad ortadi. Aksincha, narx darajasi nominal daromadga karaganda tez o'ssa, real daromad kamayadi. Real daromadning o'zgarishini quydagi oddiy formulada ifodalash mumkin.

| Real daromadning o'zgarishi (%) | Nominal daromadning o'zgarishi (%) | Narx darajasining o'zgarishi (%) |
|---------------------------------|------------------------------------|----------------------------------|
|---------------------------------|------------------------------------|----------------------------------|

Shunday qilib, agar sizning nominal daromadingiz yil dovomida 10 foizga, narx darajasi esa shu davrda 5 foizga ko'paysa, real daromadingiz taxminan 5 foizga yaqin oshadi. Aniq ma'lumot nominal daromadni narx indeksiga bo'lish yo'li bilan olinadi. Bizning misolda, nominal daromad 10 foizga, ya'ni 100 so'mdan 110 so'mga, narx darajasi (indeks) 5 foizga, 100 dan 105 ko'paysa, real daromad 104,76 so'mga ( $110/1,05$ ) yoki 4,76 ga oshadi.

In flyasiya pulning sotib olish layoqatining pasayishi bo'lib, bu real daromad daromad yoki turmush darajasining pasayishiga olib kelmasligi mumkin. Amma, agar nominal daromad inflyasiyadan orqada qolsa, real daromad pasayishi mumkin. Bashorat qilish mumkin yoki mumkin emasligiga qarab kutilayotgan va kutilmagan inflyasiya farqlanadi. Kutilayotgan inflyasiya va uning oqibatlarini oldindan bashorat qilish mumkin, kutilmagan inflyasiyani oldindan aytib bo'lmaydi. Birinchi xolda inflyasiyaning kutilayotgan salbiy oqibatlariga tayorlanib uni sezilarli darajada yumshatish mumkin. Ikkinchi xolda narxlarning kutilmagan o'sishi natijasida mamlakat iqtisodiy axvolidning sezilarli yomonlashuvi ruy berishi mumkin.

Nixoyat, kutilayotgan va ko'zda tutilmagan inflyasiyalar daromadlarni qayta taqsimlashga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Kutilayotgan inflyasiyada daromad oluvchilar uning salbiy oqibatlarini kamaytirish yoki bartaraf qilish choralarini qurishi mumkin. Kuzda tutilmagan inflyasiya daromad oluvchining real daromadini keskin kamaytiradi. Inflyasiya-nisbatan qayd qilingan (o'zgarmas) nominal daromad oluvchi kishilarni jazolaydi. Boshqacha aytganda inflyasiya daromadlarni qayd qilingan daromad oluvchilar zarraliga va axoli boshqa guruxlari foydasiga qayta taqsimlaydi.

Katta yoshdagi nafaqa hisobiga yashovchilar, qayd qilingan renta oluvchi yer egalari va boshqa transfert to'lovlari hisobiga yashovchi oilalar, yollanma ishchilarning ayrim guruhlari inflyasiya qurboni bo'ladi. Bunday hollarda iste'molchi tovarlari narxlar indeksi hisobga olinib, axolining bu guruxlari daromadlari davlat tomonidan qisman indeksasiya qilinadi.

qayd qilinmasdan daromad hisobga yashovchilar inflyasiyadan yutish mumkin. Bunday oyilalar yoki axoli guruxlari nominal daromadlari narx darajasidan o'sib ketishi va natijada real daromadi ko'payishi mumkin.

Inflyasiyadan jamg'arma egalari ham yutqizadi. Narxlarining o'sishi bilan jamg'armalarning real qiymati yoki sotib olish layoqati kamayadi. Inflyasiya natijasida qiymati qayd qilingan qimmatli qog'ozlarning qiymati ham pasayadi.

Inflyasiya debitorlar va kreditorlar o'rtasidagi daromadlarni ham qayta taqsimlaydi. Hususan, ko'zda tutilmagan inflyasiya debitorlarga (suda oluvchilarga) kreditorlar hisobidan (suda beruvchilar) foyda keltiradi. Faraz qilamiz, siz bankdan 2 yildan keyin qaytarish sharti bilan 10000 so'm qarz oldingiz.

Shu davrda narxlar umumiy darajasining o'rtacha 2 barovar ortishi oqibatida, bu pulning sotib olish qobiliyati ikki marta kamayishi mumkin.

Inflyasiya milliy ishlab chiqarish hajmiga ikki yoqlama ta'sir ko'rsatadi. birinchi holda inflyasiya milliy ishlab chiqarish hajmining kuchayishi va boshqa holda kamayishi bilan birga boradi. Ayrim iqtisodchilar to'liq bandlikka faqat inflyasiyaning ma'lum yo'l qo'yilgan darajasida erishish mumkin deb hisoblaydi.

Inflyasiya ishlab chiqarish va bandlikni qisqartirishni keltirib chiqarish mumkin bo'lgan holatlarni qarab chiqamiz. Faraz qilamiz, dastlab sarflar hajmi shunday darajadagi, iqtisodiyot to'liq bandlik va narxlarining barqaror darajasi mavjud bo'ladi. Agar harajatlarning o'sishi taqozo qiladigan inflyasiya boshlansa, jami talabning mavjud darajasida ishlab chiqarishning o'sishi narxlarining keskin oshishini taqozo qiladi va sarflarning mavjud umumiy darajada real ishlab chiqarishning faqat bir qismini sotib olish mumkin bo'ladi. Demak, ishlab chiqarishning real xajmi qisqaradi, ishsizlik esa o'sadi.

Jamiyat taraqqiyotining oldingi davrlarda inflyasiya, odatda favqulodda hollarda kelib chiqqan. Masalan, urushlar davrida davlat o'zining harbiy xarajatlarini moliyalashtirish uchun ko'p miqdorda qog'oz pul chiqargan. Keyingi yillarda, ko'pchilik mamlakatlarda inflyasiya takror ishlab chiqarish jarayonining doimiy va surunkali omili bo'lib qoldi.

Inflyasiyaning a) me'yoridagi; b) sakrab boruvchi v) giper inflyasiya kabi turlari farqlanadi. Inflyasiyaning birinchi turida baxolar yiliga 10 foiz gacha, ikkinchisida 20 dan 200 foizgacha, uchinchidan, astronomik miqdorda o'sishi kuzatiladi.

Me'yoridagi inflyasiya bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan ko'pchilik mamlakatlar uchun xos. Jumladan Evropa ittifoqi mamlakatlari bo'yicha inflyasiyaning ertacha darajasi keyingi yillarda (1994-1996 iil) 3 % atrofida bo'lgan.

Sakrab boruvchi inflyasiyada narxhlarning yuqori va notekis o'sishi kuzatiladi. Inflyasiyaning bu turi ko'proq Mustaqil Hamdustlik Davlatlari iqtisodiyotining xozirgi davrdagi rivojida kuzatiladi.

Iste'molchilik narxlarini indeksi 1995 yil oldingi yilga nisbatan % hisobida.

Azarbojon 511,8

Qirg'iziston 151,6

|             |       |            |       |
|-------------|-------|------------|-------|
| Armaniston  | 276,0 | Moldaviya  | 130,0 |
| Belorussiya | 809,3 | Tojikiston | 543,1 |
| Gruziya     | 155,4 | Rossiya    | 231,3 |
| Qozoqiston  | 276,2 | Ukraina    | 281,7 |

Narxlarning sakrab o'sishi qat'iy belgilangan miqdoriy o'lchamlarga ega bo'lmaydi va bu qiyin boshqariladigan jarayon hisoblanadi. Ayrim iqtisodchilar me'yordagi dastlab iqtisodiyotning jonlanishiga yordam berib, keyin ancha qattiq giperinflyasiyani aylanib boradi deb hisoblaydi. Bu termin inflyasiyaning fakulodda tez sur'atlar bilan o'sishini bildiradi va u milliy ishlab chiqarish xajmiga va bandlilikka buzuvchi ta'sir ko'rsatadi.

Narxlar doimiy o'sib boradi, axoli va korxonalar ularning yanada o'sishiga tayorlanadi. Foydalanilmagan jam'armalar va joriy daromadlar qadrsizlanmasligi uchun, ya'ni narxlarning kutilayotgan oshishini kutib o'tish uchun odamlar pulini bugun sarflashga majbur bo'ladi. Korxonalar ham infilasion tovarlarni sotib olib shunday yo'l tutadi. Bundan tashqari yashash qiymati ortib boradi, ishchilar ancha yuqori nominal ish haqi olib, yana ish haqini oshirishni talab qiladi. Oxir oqibatda ish haqi va narxlarning oshishi bir-birini oziqlantiradi va bu giperinfilyasiyaga o'tishga yordam beradi.

Qayta taqsimlashdagi nohushliklar oqibatlarida tashqari giper-infilyasiya iqtisodiy halokatni tezlashtirish mumkin. Shafqatsiz inflyasiya shunga yordam beradiki, kuch ishlab chiqarishga emas, balki olib-sotarlik faolyatiga yo'naltiriladi.

Ishlab chiqaruvchilar va aloxida shaxslar pullarni investision tovarlarga qo'yish o'rniga infilyasidan himoyalani, moddiy qimmatliklar zargarlik buyumlari, oltin va qimmatli metallar, ko'chmas mulklar sotib olish boshlaydi.

Favqulodda holat narxlar birdan va notekis ko'tarilib borganda ro'y beradi, normal iqtisodiy munosabatlar buziladi. Korxonaga egasi tovarlarga qanday narx belgilashi kerakligini, iste'molchilar qanday narxda to'lashni bilmaydi. Resurslarni yetkazib beruvchilar tez qadrsizlanib boruvchi pulni emas, real tovarlar olishni hohlaydi. Pul amalda qiymatini yoqotadi va o'zining qiymat o'lchovi va ayriboshlash vositasi sifatidagi vazifasini bajarishni to'xtatadi.

Giperinflyasiya moliyaviy halokat, dipressiya va ijtimoiy-siyosiy tartibsizlikni tezlashtiradi. Tarixda inflyasiyaning yuqorida chizilgan ko'rinishini harakterlovchi misollar ko'plab uchraydi. Masalan, 20-yillarda Germaniyada ro'y bergan inflyasiya fojiali harakterga ega bo'lgan.

1922 yil Germaniyada narx darajasi 5470 foizga ko'tarilgan. 1923 yil axoli yanada yomonlashgan: narx darajasi 1300,000000000 marta o'sgan. Shu yilning oktyabrida Germaniyadan AQSh ga 1 xatni jo'natishga 2000 marka to'langan. Bir funt yog' 1,5 mln. marka, go'sht 2,0 mln. 200 ming, bitta tuxum 60 ming marka turgan. Narxlar shunchalik tez o'sganki, ofisiyantarlar nonushta vaqtida ularni menyuda bir necha marta o'zgartirgan. Ko'pgina restoranga kiruvchilar yoyilgan ovqatga, buyurtma berilgan davridagidan 2 baravar yuqori narxda to'langan.

Bunday halokatli giperinfllyasiya deyarli har doim davlatning qog'oz pul massalarini haddan tashqari ko'paytirish oqibatlari hisoblangan.

Me'yondagi, sakrab boruvchi va giperinfllyasiya oshkora infllyasiya deb nomlanadi. Undan farq qilib, infllyasiyada narxlarning o'sishi kuzatilmaligi mumkin. Bunda pulning qadrsizlanishi tovarlar tanqisligi va navbatda turishlarida ifodalanadi.

Infllyasiya balanslashgan bo'lishi mumkin: ya'ni narxlamning bir vaqtda ko'pchilik tovar (hizmat)larga me'yordagi o'sishi bilan birga boradi. Bu holda narxning yillik o'sishiga mos ravishda, foiz stavkasi ham o'sadi. Balanslashgan infllyasiya biznes uchun unchalik havfli emas. Faqat tovar narxlarini davriy oshirishga to'g'ri keladi; hom-ashyo lo barovar qimmatlashsa, bunga mos ravishda provard maxsulot narxi ham oshiriladi.

Balanslanmagan infllyasiya turli xil tovarlarga narxning har xil sur'atlar bilan o'sishida ifodalanadi. O'zbekiston va MDH mamlakatlarida hozirgi davrda balanslanmagan infllyasiya ustunlikka ega. Hom ashyo narxning o'sishi pirovard maxsulotga narxning o'sishidan ilgari ketadi, to'ldiruvchi komponentlar narxi, butun murakkab uskunalar narxidan ortib ketadi va h.k.

Balanslanmagan infllyasiya biznes uchun juda katta havf tug'diradi. Kapital qo'yish soqalarini rasional tanlash, investirlash variantlarini hisoblashda ularning daromadlilikini taqqoslash mumkin bo'lmaydi. Bunday sharoitda ishlab chiqarish barqaror rivojlana olmaydi, faqat olib sotarlik va vositachilik operatsiyalari kengayadi.

Infllyasiyaga qarshi siyosat. Infllyasiyaning nohush ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari, davlatning infllyasiyaga qarshi siyosat o'tkazishiga majbur qiladi. Davlatning infllyasiyaga qarshi siyosati harakteriga baxo berib, unga ikki xil yondoshuvni ko'rsatish mumkin. Birinchi yondoshuv doirasida faol byudjet siyosati—to'lovga layoqatli talabga ta'sir ko'rsatish maqsadida davlat harajatlari va soliqlarini moslashtirish ko'zda tutiladi.

Ortiqcha ishlab chiqarish sharoitida davlat o'zining xarajatlarini cheklaydi va soliqlarni oshiradi. Natijada talab qisqaradi, infllyasiya sur'ati pasayadi. Ammo bir vaqtda ishlab chiqarishning o'sishi cheklanadi, bu iqtisodiyotni turqunlik va hatto krizisli holatga keltirishi, ishsizlikni kengaytirishi mumkin.

Byudjet siyosati inqiroz sharoitida talabni kengaytirish uchun ham o'tkaziladi. Agar talab yetarli bo'lmasa, davlat kapital qo'yilmalari va boshqa harajat dasturlari amalga oshadi, soliqlar pasaytiriladi. Past soliqlar avvalo o'rta va yuqori bo'lmagan daromad oluvchilarga nisbatan o'rnatiladi. Shunday yo'l bilan iste'molchilik tovarlari va hizmatlarga talab kengaytiriladi, deb hisoblanadi. Lekin byudjet vositalari bilan talabni rahbatlantirish, infllyasiyani kuchaytirish mumkin. Bunga qo'shimcha byudjetning katta tanqisligi davlatning harajat va soliqlarni moslashtirish imkoniyatini cheklaydi.

Ikkinchi yondoshuvda, birinchi o'ringa iqtisodiy vaziyatga o'zgaruvchan va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi pul kreditli tartibga solish ilgari suriladi. Tartibga solishning bu turi Markaziy bank tomonidan amalga oshirilib, u muomaladagi pul

miqdori va suda foizi stavkasini o'zgartiradi, hamda shu orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi.

Xozirgi zamon bozor iqtisodiyoti o'z harakteriga ko'ra inflyasion hisoblanadi, chunki undagi inflyasiyaning barcha omillarini bartaraf qilishi mumkin emas. Bo'lar byudjet tanqisligi, monopoliyalar, xalq xo'jaligidagi nomutanosibliklar, axoli va tadbirkorlarning inflyasion kutishi, inflyasiyani tashqi iqtisodiy kanallar bo'yicha tanlash va h.k.

Shunga ko'ra o'z-o'zidan aniqki, inflyasiyani to'raligicha bartaraf qilish vazifasi real emas. Shu sababli ko'pchilik davlatlar, o'z oldidagi uni me'yorida nazorat qilinadigan darajada ishlab turishni maqsad qilib qo'yadi.

G'arb mamlakatlarida amalga oshirilgan inflyasiyaga qarshi tadbirlarning katta tajribasi, uzoq va qisqa muddatli siyosatini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi. Uzoq muddatli siyosat o'z ichiga quydagilarni oladi:

Birinchidan, axolining inflyasion kutishini pasaytirish vazifasi. Buning uchun davlat aniq inflyasiyaga qarshi siyosatini amalga oshirishi zarurki, natijada axolining joriy talabi to'ldiriladi. Davlat o'zining tadbirlari (ishlab chiqarishni rahbatlantirish, monopoliyaga qarshi tadbirlar, narxni erkinlashtirish, ma'muriy bojhona nazoratini engillashtirish va h.k.) bilan bozorning samarali amal qilishiga yordam berishi zarur;

Ikkinchidan, byudjet tanqisligini qisqartirish bo'yicha tadbirlar: soliqlarni oshirish va davlat harajatlarini kamaytirish.

Uchinchidan, pul muomalasi sohasida, hususan, pul massasining yillik o'sishini qattiq limitini o'rnatish bo'yicha tadbirlar;

To'rtinchidan, tashqi omillarning ta'sirini yumshatish. Bunda vazifa iqtisodiyotga chet el kapitalining qisqa muddatli kreditlar va davlat qarzlari shaklida oqib kelishining inflyasion ta'sirini kamaytirishdan iborat bo'ladi;

Qisqa muddatli siyosati inflyasiya sur'atini vaqtinchalik pasaytirishga yo'naltiriladi. Bu yerda muvaffaqiyatli natija, yalpi talabni ko'paytirmasdan, yalpi taklifni kengaytirgan holda mumkin bo'ladi. Shu maqsadda davlat, asosiy ishlab chiqarishga, qo'shimcha tovarlar (va hizmat)lar chiqaruvchi korxonalariga imtiyozlar beradi. U o'z mulkining bir qismini hususiy lashtirish va shu orqali davlat byudjetiga tushumlarni ko'paytirishi, hamda yangi hususiy inflyasion talabni kamaytirishi mumkin.

Inflyasiya sur'atiga taklif o'zgarishsiz holganda, joriy talabni kamaytirish ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunga jamg'armaning ancha yuqori normasini raxbatlantiruvchi qo'yilmalar bo'yicha foiz stavkalarini oshirish hisobga erishish mumkin.

60-yillardan boshlab, ko'pchilik mamlakatlarda narx va daromad siyosati, deb nomlanuvchi davlat siyosati o'tkazila boshladi. Mazkur siyosatning vazifasi, moxiyati bilan ishlab chiqarish qaqining o'sishini cheklashdan iborat bo'ldi. Bu siyosat inflyasiya bilan ko'rashning bozorli emas, balki ma'muriy usullaridan foydalanishni bildiradi, shu sababli har doim harn ko'zda tutilgan maqsadga erishilmadi. Ziddiyatli muammolarni xal qilish uchun har xil iqtisodiy tadbirlarni

bir vaqtda qo'llash, yaxlit olingan iqtisodiy tadbirlarni mablag' solishni kam samarali qilib qo'yishi mumkin.

#### 4-§. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar, ularning vazifalari

Milliy iqtisodiyot davlatning, tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassalarining majburiyatlari pul sifatida foydalanadi.

Pul operatsiyalarining asosi y ko'pchilik qismi naخد pulsiz, cheklar va unga yoki iqtisodlar bo'yicha amalga oshiriladi. Shu sababli muomilada bo'lgan pul darajasi hisoblash uchun  $M1 = M_0$  pul agregatlari yoki tarkibiy qismi tushunchasidan foydalaniladi.

Bizning respublikamizda umumiy pul miqdori quydagi (tarkiblar) asosida hisoblanadi:  $M_0$  - narh pullar;

$M1 = M_0 +$  tegishli hisob varakalaridagi pul qoldiqlaridan maxalliy byudjetlar mablag'laridan byudjet, jarmoat va boshqa tashkil mablag'lari  $M2 = M1 +$  xalq (jamg'arma) banklaridagi muddatda omonatlar.

$M3 = M2 +$  chiqarilayotgan sertifikatlar + aniq maqsadli zayom obligasiya-lar + davlat zayom obligasiyalari + hazina majburiyatlari barcha pul agregatlari yig'indisi yalpi pul massasi yoki pul yalpi taklifi deyiladi.

Pulning tarkibiy -qismlarida naخد pullar-metall va qog'oz pullardan iborat bo'ladi. Naخد pullar bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarda umumiy pul massasining 5-7 foizni, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mustaqil hamdo'stlik davlatlari (Shu jumladan O'zbekiston)da 30-35% ni tashkil qiladi.

Masalan, AQShda 1998 yil naخد pullar 3889 mlrd. dollarlik umumiy pul taklifi  $M3$  ning 5% (1-jadval) miqdorida bo'lgan. Rossiyada yalpi pul massasi 1996 yil may oyida 25,10 trld. Rublni tashkil qilgan. Shundan 93,1 trld. rubl' naخد pullar, ya'ni ba umumiy pul massasining 37,1% ni tashkil qiladi.

$M3$  pul agregati pulning barcha vazifalarini-joriy muomalasi, qisqa muddatli aylanish qilish va uzoq muddatli investisiyalashni oladi.

Jamiyatning joriy iqtisodiy faolligi taxlil qilishda odatda  $M_0$  pul kon-sepsiyasidan foydalaniladi.  $M_0$  agregatlari barcha o'zgarishlar ancha keng agregatlar  $M1$ ,  $M2$  va  $M3$  da o'z ifodasini topadi.

Metall pullar (mis va kumush) mamlakatlar pul taklifining juda kam qismini tashkil qiladi. Masalan, AQShda ular (1998 yil noyabr ma'lumotlari) 784 mlrd. li umumiy pul taklifi  $M1$  ning 2 yoki 3% ni tashkil qilgan.

1 -jadval AQSh uchun pul taklifi aniqlanishi<sup>2</sup>.

$M_1, M_2, M_3$

| Pul taklifi                           | Mutloq miqdori (mlrd. doll.) | % hisobi da $M_1$ | % Hisobi da $M_2$ | % hisobi da $M_3$ |
|---------------------------------------|------------------------------|-------------------|-------------------|-------------------|
| Naxd pullar (metall va qog'oz pullar) | 210                          | 27                | 7                 | 5                 |
| Chek qo'yilmalar                      | 574                          | 73                | 19                | 15                |

<sup>2</sup> Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс -М.: Республика 1992, Т.2.265 б.

|   |      |     |       |
|---|------|-----|-------|
| =M <sub>1</sub> +                           | 784  | 100 |       |
| Cheksiz jamg'arma hisobidagi qo'yilmalar    | 434  |     | 14 11 |
| Kam miqdordagi hisaga muddatli qo'yilmalar  | 1836 |     | 60 47 |
| =M <sub>2</sub>                             | 3054 |     | 100   |
| Yirik muddatdagi qisqa muddatli qo'yilmalar | 835  |     | 22    |
| =M <sub>3</sub>                             | 3889 |     | 100   |

Metall pullarning haqiqiy qiymati, ya'ni chaqa (moneta) dagi metall quyilmaning qiymati, undagi belgilangan qiymatdan kam bo'ladi. Bu ularning oltin va kumush quyilmalar shaklida sotilib ketishining oldini olish uchun maxsus belgilanadi. Masalan, 50 tiyinlik tanga 75 tiyinlik qiymatdagi kumush quyilmani o'zida saqlasa, uni quyilma sifatida juda foydali bo'ladi. Bundan harakat noqonuniy bo'lsa ham, sobiq SSSR da tanga pullarning muomaladan yo'qotilib ketishi buning yaqqol misoli bo'la oladi. Bu pulning yashirin (potensial) kamchiliklardan biri hisoblanadi. Agar ularning tovar sifatidagi qiymati amal qilishini to'xtatadi.

Qog'oz pullar metall pullarga qaraganda miqdoriy jihatdan ancha salmoqli bo'lib (AQSh iqtisodiyotida pul taklifi M1 ning taxminan 25% ni tashkil qiladi)-markaziy bankning muomalada joylashadigan qarz majburiyatlarini hisoblanadi.

Pul taklifining tarkibiy qismlaridan ko'pchilik mamlakatlarda ancha ko'p tarqalgan. Joriy hisob-kitoblari uchun qulay vosita. Zarur hollarda tegishli so'mga chek ezilib, u chek bo'yicha naخد pul olgan kishi tomonidan tasdiqlanadi. Chek berish qo'ldan-qo'lga o'tganda imzo bo'lishini taqozo qilishi sababli, uning yo'qolishi yoki o'g'irlanishi shuncha miqdordagi naخد pulning yo'qolishi kabi havfli emas. Bundan tashqari ko'p hollarda katta miqdordagi naخد pullarni sanash va tashishga qaraganda chek yozish ancha qulay. Shu sabablarga ko'ra naخد pulsiz hisob-kitoblari pul taklifining asosiy qismlaridan birini tashkil qiladi. 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, AQShda chek quyilmalari M1 pul muomalasining 73% ni tashkil qilgan. Zarur hollarda bunday quyilmalar talab bo'yicha tezda metall va qog'oz pullarga ham aylantirilishi mumkin. Shunday qilib, qo'yilmalarga yozilgan cheklar har qanday amaliy foydalanishda pulning o'rnini bosadi. Chek qo'yilmalar tajriba banklari yoki jamg'armalari hisoblanadi.

Pul taklifi cheksiz jamg'arma hisoblar, muddatli qo'yilmalar va davlatning qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarini ham o'z ichiga olib ular tez naخد pulga aylantirishi yoki chek hisoblariga o'tkazilishi mumkin. Muddatli qo'yilmalar qo'yilma egasiga faqat belgilangan muddati o'tgandan keyin qaytariladi.

Masalan, qo'yilma egasi 3 eki 6 oylik qo'yilmalarni ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin qaytarib olishi mumkin. Maddatli qo'yilmalarning cheksiz jamg'arma hisoblariga qaraganda sarflanib ketishi layoqati kam bo'lsada, u naخد pul sifatida foydalanishi yoki muddatli tugaganidan keyin joriy hisobga o'tkazishi mumkin.



Davlatning ayrim qimmatli qog'ozlari ham, masalan, obligasiyalar naxd pulga juda oson aylanishi mumkin.

Kredit kartochkalari tovarlar harid qilishda qulay vosita hisoblansada, amalda pul taklifi tarkibiga kiritilmaidi. Ular faqat kartochka chiqaruvchi tijorat banklar yoki boshqa moliyaviy muassalardan qisqa muddatli ssudalar olish uchun vosita hisoblanadi. Masalan, kredit kartochkasi bo'yicha biron bir tovar, sotib olsangiz, uni chiqargan bank dukoniga bu so'mmani joylashtiradi. Keyin siz bu so'mmani bankga qaytarasiz. Demak, kredit kartochkalari to'lovni qisqa muddatga kechiktirish yoki to'xtatib turish uchun mo'ljallangan. Kredit kartochkalari harid qilish uchun kamroq naxd pul va chek qo'yilmalariga bo'lishi uchun imkoniyat beradi.

Pul qiymati. Pul taklifining asosida nima yetadi? Degan savolning tug'ilishi tabiiy. Chunki, qog'oz pullar va chek qo'yilmalari haqiqiy qiymatga ega bo'lmaydi. 100 o'mlik banknot oddiy qog'oz bo'lagi, chek qo'yilmasi faqat buhgalteriya kitobidagi yozuv. Metall pulning esa haqiqiy nominal qiymatidan kam. Davlat ham muomilada metallarga ayirbosh qilmaydi, ularni faqat boshqa qog'oz pullarga almashtirish mumkin. Bunga davlatning amal qilib turgan qog'oz pullarni yangi chiqarilgan banknotlarsha almashtirishni misol keltirish mumkin.

Chek pullar ham huddi shunday oltinga emas, faqat qog'oz pullarga almashtiriladi, unga davlat moddiy to'lovlar qilmaydi.

Agar naxd pullar va chek qo'yilmalar ularga qiymat bag'ishlovchi ichki hossaga ega bo'lmasa hamda oltin yoki boshqa qimmatli metallarga tayanmasa, nima uchun ular pul vazifasini bajaradi. Bu savolga javobni ma'lum darajada quydagi uchta holatdan topamiz:

1. Qo'llash qulayligi. Naxd pul va chek qo'yilmalari shunday sabab ko'ra pul hisoblanadiki, odamlar ularni pul sifatida qabul qiladi. Juda qadimdan o'rnatilgan amaliyotga ko'ra naxd pullar va chek qo'yilmalari pulning asosiy vazifasini bajarib muomala vositasi sifatida qabul qilinadi.

2. Qonuniy to'lov vositasi. Qog'oz pullarga bizning ishonchimiz qisman davlatni naxd pullarni qonuniy to'lov vositasi deb e'lon qilganligiga asoslanadi. Iqtisodiyotda qog'oz pullar, moxiyati bilan dekret ev pullar hisoblanadi, buning qandaydir qimmatli metallarga sotib olinishiga, balki davlatni ularni soliqlar to'lash va boshqa majburiyatini bajarishga qabul qilishga tayorligiga asoslanadi.

3. Nisbatdan. Pulning qiymati ancha asosiy darajada talab va taklifni sifatini o'zida aks ettiradi. Ya'ni, pulni qiymati uning foydaliligiga noyobligining nisbati bilan aniqlanadi. Pulni foydaliligi o'z-o'zidan ularning tovar va hizmatlarga ayirboshlanishining juda katta loyoqatidan iborat. Iqtisodiyotning pulga bo'lgan talabi bitimlarning umumiy so'mli hajmiga hamda indevid va korxonalarining kelajakda mumkin bo'lgan bitimlar uchun pul ixtiyorida ega bo'lishini hohlagan pul miqdoriga bog'liq. Pulga bo'lgan mavjud ko'p yoki kam doimiy talabda pul birliglarining qiymati yoki "sotib olish layoqati" pul taklifi bilan aniqlanadi.

Pulning real qiymati yoki sotib olish layoqati-bu pul birligiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va hizmatlar hajmidari iborat. O'z-o'zidan aniqki so'mga harid

qilinadigan tovar va xizmatlar miqdori narxlar darajasiga teskari mutanosiblik (proporsionallik)da o'zgaradi. Boshqacha aytganda narxlarning umumiy darajasi va so'mning qiymati o'rtasida teskari mutanosib bog'liqlik mavjud.

Iste'molchilik tovarlarning indeksi yoki "hayot qiymati" indeksi o'sganda, so'mning sotib olish layoqati albatta pasayadi va aksincha, narxlar qancha yuqori bo'lsa, so'mning qiymati shuncha past bo'ladi. tovar va xizmatlarning mavjud miqdorini sotib olish uchun ko'proq so'm talab qilinadi. Aksincha, narxlarning pasayishi so'mning sotib olish layoqatini oshiradi hamda tovar va xizmatlarning mavjud miqdorini harid qilish uchun shuncha kam so'm talab qilinadi. Agar narxlar darajasi ikki marta oshsa, so'mning qiymati yarmiga yoki 50 foizga kamayadi. Agar narx darajasi yarmiga yoki 50 foizga pasaysa, so'mning sotib olish layoqati ikki baravar ortadi. Pul birligi qiymatining juda tez qadrsizlanib borishi shunga olib kelishi mumkinki, u muomala vositasi vazifasini bajarishdan tuxtaydi. Korxonalar va shahslar ayirboshlashda qog'oz pullarni olishdan voz kechishi mumkin, chunki uning qadrsizlanishidan yana yo'qotishni hohlamaydi. Pulning muomala vositasi vazifasidan maxrum bo'lgan iqtisodiyot samarasiz barterli ayirboshlashga qaytib boradi, bu milliy tizimini izdan chiqaradi.

Qog'oz pulning asosiy "tayanchi" davlatning pul qiymatining nisbatan barqarorligini saqlash layoqati hisoblanadi. Bu birinchidan, mos keluvchi fiskal siyosatni va ikkinchidan, pul ustidan nazorat qilishni yoki pul taklifini tartibga solishni taqozo qiladi.

Pulga talab. Pulga talab-bitimlar uchun (Pt) va aktivlar tomonidan pulga talab (Pa) ni o'z ichiga oladi.

U ixtiyorliklari o'zlarining hisoblariga navbatdagi pul oqimi kelib tushguncha, kundalik ehtiyojlari uchun qo'llarida yetarli pulga ega bo'lishi zarur.

Korxonalar ish haqi to'lash, material, yoqilg'i sotib olish va shu kabilar uchun pul kerak bo'ladi. Shu barcha maqsadlar uchun zarur bo'lgan pul bitim uchun pulga talab deyiladi. Bitim uchun zarur bo'lgan pul miqdori yoki nominal yalpi milliy maxsulot (YaMM) bilan aniqlanadi. Tovar va xizmatlar ayirboshlashda qancha ko'p umumiy pul qiymati joylashsa, bitim uchun shuncha ko'p pul talab qilinadi. Bitim uchun pulga talab nominal YaMM ga mutanosib ravishda o'zgaradi. Uy ixtiyorliklari va korxonalar ikki holda bitim uchun ko'proq pul talab qilinadi: Narxlar o'sganda va ishlab chiqarish hajmi ko'paygan.


2 a-rasmda bitim uchun (Pe) pulga talab grafikda tasvirlangan. Bitim uchun pulga talab nominal YaMM darajasiga bog'liq va foiz stavkasiga bog'liq emas, shu sababli tik to'g'ri chiziq shaklida tasvirlangan. Biz tushunish oson bo'lishi uchun foiz stavkasining o'zgarishi bitim uchun zarur bo'lgan pul miqdorini o'zgartirmaydi deb faraz qilamiz. Grafikda bitim uchun pulga talab 100 mlrd so'mni tashkil qilgan. Bu shuni bildiradiki, bitim uchun belgilangan pul bir yil 3 marta aylanish qilsa nominal YaMM 300 mlrd so'mni tashkil qilsa, kishilarga bu YaMM ni sotib olish uchun 100 mlrd so'm talab qilinadi.

Pulga talab mlrd. so'm  
a) bitim uchun  
Pulga talab ( $P_1$ )  $P_m = P_1 + P_a$

Pulga talab mlrd. so'm  
b) Aktivlar tomonidan pulga talab ( $P_a$ )

Pulga talab mlrd. so'm  
v) Pulga bo'lgan Umumiy talab

Foiz stavkasi (%) talab. K Foiz stavkasi (%)  $\geq$  moliyaviy aktiv Foiz stavkasi (%) larda, masalan, korporatsiya aksiyalari, nusxasi yoki davlat obligatsiyalari shaklida ushlab



turish mumkin. Demak, aktivlar tomonidan pulga talab ham mavjud bo'ladi. Aktivlar tomonidan pulga talab foiz stavkasiga teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Foiz stavkasi past bo'lsa, kishilar ko'proq miqdoridagi naxd pulga egalik qilishni afzal ko'radi. Aksincha, foiz yuqori bo'lganda pulni ushlab turish foidasiz va aktivlar shaklidagi pul miqdori ko'payadi. Foiz stavkasi va pul miqdori o'rtasidagi teskari bog'liqlik 2 b-rasm<sup>da</sup> ( $P_a$  to'g'ri chiziq bilan) ko'rsatilgan.

Pulga bo'lgan umumiy talab,  $P_m$  aktivlar tomonidan pulga bo'lgan talab va bitim uchun pulga bo'lgan talabni miqdori bilan aniqlanadi. Nominal YaMM ning ko'payishi va foiz stavkasining ortishi odamlar bitim uchun ko'proq pulga bo'lgan umumiy talab miqdorini oshiradi. Masalan, agar nominal YaMM 300 dan 450 mlrd so'm ga ko'paysa va har bir bitim uchun mo'ljallangan pul o'rtacha yiliga 3 marta aylanishi o'z kuchini saqlab qolsa, bunda bitim uchun pulga talab 100 dan 150 mlrd so'mga ko'payadi. Aksincha, nominal YaMM kamayishi pulga bo'lgan umumiy talabning kamayishiga olib keladi. Foiz stavkasi ham pulga bo'lgan umumiy talabga huddi shunday ta'sir ko'rsatadi.


### 5-§. O'zbekistonda milliy valyutani barqarorlashirish vazifalari.

Pul bozorida foizning muvozanatli stavkasini aniqlash uchun, yuqoridagi pulga bo'lgan talab va taklif grafiklarni birlashtiramiz. Uning uchun biz 3-rasmda pulning taklifini bildiruvchi  $S_m$  tik chiziqni o'tkazamiz.

To'g'ri chiziq shaklida tasvirlangan pul taklifi shuni bildiradiki, pul kredit va moliyaviy muassasalar iqtisodiyotni ma'lum miqdordagi aniq pul hajmi bilan ta'minlaydi. Maxsulotlar yoki resurslar bozorida kabi pulga bo'lgan talab va taklifning kesishgan nuqtasi muvozanatli narx aniqlaydi. Pul bozorida naxd foizning muvozanatli stavkasi, ya'ni puldan foydalanilganlik uchun to'lanadigan narx hisoblanadi.

Pul bozorida muvozanatli buzilganda nima ro'y berishini qarab chiqamiz.

Dastlab faraz qilamiz, pul taklifi 200 mlrd so'mdan ( $S_m$ ) 150 mlrd so'm ( $S_m$ ) kamayadi. Talab qilinadigan pul miqdori taklif qilingan puldan (foizning 5 ga teng bo'lgan muvozanatli stavkasida) 50 mlrd so'mga ortiq bo'ladi.



3 -rasm. Pul bozorida muvozanatlikning tiklanishi. Pul taklifining kamayishi pul bozorida pulning vaqtinchalik yetishmasligini vujudga keltiradi. Odamlar va korxonalar o'zlarida mavjud bo'lgan moliyaviy aktivlarni (bu aktiv obligasiya deb hisoblaymiz) sotish yo'li bilan ko'proq pul

olishga harakat qiladi. Obligasiyalarni sotish vositasida olingan pul boshqalarda shu pulning kamayishini bildiradi. Chunki hammasi bo'lib 150 mlrd so'mlik naxd pul mavjud. Obligasiyalarni sotish orqali ko'proq pul olishga ommaviy intilish, talabga nisbatan ularning taklifini ko'paytiradi va obligasiyalar narxini tushirib yuboradi.

Obligasiyalar narxining pasayishi foiz stavkasini ko'taradi. Masalan, nominal qiymati 1000 so'm bo'yicha sotilgan va doimiy foiz to'lovi 50 so'm taklif qilingan obligasiya, har yili 5 foiz hajmida foiz stavkasi beradi.

$$\text{ya'ni } 50\text{-so'm} * 100 = 5\% \\ 1000 \text{ so'm}$$

Faraz qilamiz, bu obligasiyaning baxosi obligasiya taklifining ko'payishi hisobiga 667 so'mga tushib qolgan. Bunda obligasiyalarni sotib olganlar uchun doimiy foiz to'lovchi 50 so'm bo'lganida foiz stavkasi yiliga 7,5 foizni tashkil qiladi.

$$50 \text{ so'm} * 100 = 7,5 \\ 667 \text{ so'm}$$

3 -rasmdan ko'rinadiki, pul taklifi 200 mlrd so'm bo'lganda foiz stavkasi 5% dan, 150 mlrd. so'mga teng bo'lganida 7,5foizga o'sadi.

Bu ancha yuqori foiz stavkasi korxonalar hamda uy-xo'jaliklari pul qo'llarida ega bo'lishini hohlagan pul miqdorini kamaytiradi. Boshqacha aytganda talab

qilinadigan pul miqdori 200 mlrd so'mdan (5% foizli stavkasida) 150 mlrd so'mga (7,5% foizli stavkasida) tushadi. Pul bozori o'zining muvozanatiga qaytadi: 7,5% foiz stavkasida talab qilingan pul miqdori 150 mlrd. so'mga teng bo'ladi. Aksincha, pul taklifining 200 mlrd so'mdan (Sm), 250 mlrd (Sm2) so'mga ko'payishi 50 mlrd. so'm pul ortiqchaligiga olib keladi. Boshqacha foiz stavkasi 5% ga teng.

Odamlar ko'proq obligatsiya sotib olib, puldan holos bo'lishga harakat qiladi. Bir kishi tomonidan pulning sarf qilinishi, boshqalarning pulini sotib olishni bildiradi. Shu sababli ommaviy ravishda ko'proq obligatsiya sotib harakat qilish ularga talabni oshiradi va narxini ko'taradi.

Obligatsiyalarga narxning foiz stavkasini tushiradi. Obligatsiyalar 50 so'mli foiz to'lovida va u 2 ming so'm nominal qiymat bo'yicha sotilgan foiz stavkasi faqat 2,5% ni tashkil qiladi.

$$\begin{aligned} 50 \text{so'm} & * 100 = 2,5\% \\ 2000 \text{so'm} & \end{aligned}$$

Odamlar o'zlarining pul belgilari miqdorini kamaytirishga intilish, foiz stavkasini tushiradi va yana pul bozorida muvozanatlik tiklanadi: 2,5 foizli stavkasida talab qilingan va taklif qilingan pul 250 mlrd so'mga teng keladi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib hulosani chiqaramiz:

- 1) Obligatsiyalar narhi va foiz stavkasi teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlikda joylashadi;
- 2) Pul bozoridagi muvozanatning buzilish holati obligatsiyalar narxidagi va u orqali foiz stavkasidagi o'zgarishi kelib chiqaradi;
- 3) Foiz stavkasi o'zgarishi kishilarning pulini saqlashga bo'lgan intilishga ta'sir ko'rsatadi;
- 4) Odamlarning pulini saqlashga intilishining o'zgarishi pul bozoridagi muvozanatini tiklaydi;
- 5) Foizning muvozanatli stavkasi taklif qilingan va talab qilingan pul miqdorini tenglashtiradi. Ancha yuqori foiz stavkasi investitsiyalar va iste'molchilik sarflarini kamaytiradi, ancha stavkalar investitsiyalar va iste'molchilik sarflarini ko'paytiradi. Ikki holat ham og'ir oqibatda ishlab chiqarish, bandlik va narx darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Ikkilamchi bozor hisoblangan davlat qimmatli qog'ozlar bozorida narxning hosil bo'lishi o'ziga hos hususiyatga ega. Uning qatnashchilari markaziy bank, uy xo'jaliklari, biznes va moliyaviy muassalar hisoblanadi. Bunday bozorda davlatning muddatli hazina majburiyatlari va obligatsiyalar muomalada bo'ladi. Savdo maxsus dilerlar orqali olib boriladi.

Ular zarur miqdordagi hazina qog'ozlariga ega bo'ladi va har doim bu qog'ozlarni sotish va sotib olishga tayyor turadi. Dilerlar hazina biletlariga talab va taklifga mos ravishda, o'zlaridagi qog'ozlar zahirasining zaruriy darajasini hisobga olib, bozor narxlarini o'rnatadi. Bunda sotiladigan qog'ozlar uchuk dilerlar oladigan narx, ular

tomonidan sotib olinadigan qog'ozlar uchun Masalan, 11,40% daromadlilik ko'rsatadiki, sotib olishga bugun, (14-sentyabrda) sarflangan pul, yiliga 11,4% daromad keltiruvchi qo'yilma bilan bir xil. Bundan tashqari, pul egasi bugun bilet sotib olti kundan keyin (20-sentyabr'), oldin yiliga 11,4% bo'yicha qilingan qo'yilmalardan shu kunlari olishi mumkin bo'lgan daromadga deyarli teng daromad oladi.

Diskont miqdori nominal qiymat bo'yicha 100 dollarga quydagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$100 - R \cdot \frac{360}{Tp} \text{ bu yerda:}$$

R-bozor narxi; 360 yil kunlari, Tp-hazina biletleri to'laguncha qolgan kunlar soni. Berilgan ma'lumotlarga asoslanib 100 dollar nominalga hazina biletleri bozor narxini hisoblaymiz.

$$R = 100 - \frac{100 \cdot ch. Tp}{360}$$

Misol. 2 -jadval birinchi qatori uchun diskont Cha=11,24% bo'lganida talab narxni 99,813 dol. (Ra=100-11,24.6 bo'ladi Diskont Chb =11,32% bo'lganida shakli f narxini 99,811dollarga ( Rv = 100-11,32.6 teng bo'ladi).

360

Bu shuni bildiradiki, bilet haridori 99,813dol (100dol. nominaldan) to'lab, 6 kundan keyin 100 dol. nominal uchun 99,811 dollar oladi.

Biletning minimal qiymati, uning nominalida 10 000 dollar bo'lsa, haridor uch kun ichida bitta biletdan tahminan 19 dollar ishlaydi (100-99,813 =0,18.7)

Talab va taklif baxosidagi 20 sent. farq (99,813-99,813) bozor qatnashchilari uchun ahamiyatga ega bo'lmasa ham, milliardlab oborotlarni hisobga olsak, dilelar uchun ancha katta daromadni ta'minlaydi.

2-jadval keltirilgan daromadlilik darajasi, haridor uchun daromadlilik hisoblanadi va talab narxi bo'yiicha, yildagi 365 kundan kelib chiqib, quydagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$100 - R_a \cdot \frac{365}{Tp} \\ V = \frac{R_a \cdot 365}{Tp} \cdot \frac{100 - R_a \cdot \frac{365}{Tp}}{100 - R_a \cdot \frac{365}{Tp}}$$

Xazina biletleri diskonit bo'yicha ya'ni nominaldan kam narxda sotiladi va sotib olinadi, nominal bilet qiymati qaytarilgan davrda to'lanadi, shu sababli qaytarilish muddati yaqinlashishi bilan biletning bozor narxi o'sadi. (daromadlilik tushadi).

Xazina biletleri bozori bilan bir vaqtda hazina obligasiyalari bozori ham mavjud bo'lib, ularning birinchi chiqarilishi auksion, birjalarda va yozilish bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda haridor obligasiyaning nominal qiymati bo'yicha to'laydi va majburiyat qaytarilganda obligasiyaning nominal qiymati to'lanadi. har yili qaytariladigan foiz kuponini foiz deb ataladi.

Bir marta sotilgan qarz majburiyatlari ikkilamchi bozorda aktiv harakatda bo'ladi. Agar birlamchi bozorda haridor majburiyat uchun qimmatli qog'ozning nominal qiymatini to'lasa, pul egasi tomonidan qimmatli qog'ozga talab, mohiyati bilan, kupon foizi uchun pul taklifi sifatida chiqadi. Shu sababli majburiyatga talab qanchalik katta bo'lsa, ya'ni pul taklifi qanchalik katta bo'lsa, boshqa sharoitlar bir xil qolganda, ular kamroq kuponiga sotib olinadi. Bu yerda pul narxi foiz hisoblanadi.

Ikkilamchi bozorda pul egasi tomonidan hazina majburiyatlariga talab, ma'lum bir qog'ozlarga talab sifatida chiqadi, qog'ozning bozor narxi esa bevosita pulda ifodalanadi. Bu bozorda qog'ozga talab qancha yuqori bo'lsa, narxi ham shuncha yuqori bo'ladi. Xazina majburiyatlari qayd qilingan kuponda foiz keltirishi sababli, narx o'sishi bilan ularning daromadligiga tushadi.

Birlamchi chiqarilgan obligasiyalarni sotish jarayonida, kupon foizi obligasiyaning daromadlilikiga yaqin bo'lsa, unga to'liq teng kelmaydi. Shu sababli, ko'pincha obligasiya narxi nominaldan yuqori (daromadlilik kupon foizidan kam) va past (daromadlilik kupon foizidan yuqori) bo'ladi. Ya'ni har doim qo'yilgan pul (obligasiyaga) narxi ularning daromadligi hisoblanadi.

Ikkilamchi bozorda nominal qiymatidan arzon sotilgan hazina majburiyatlari, kupon foiziga qaraganda ko'proq daromad keltiradi. Shunga mos ravishda, nominal qiymatidan yuqori sotilgan majburiyatlar, kupon foiziga qaraganda kam daromad keltiradi.

Markaziy bank xazina qimmatli qog'ozlar bozorining ana shu hususiyatidan foiz miqdorini va u orqali biznes iqtisodiy faolligini tartibga solish uchun foydalaniladi.

Agar Markaziy bank hazina majburiyatlarini aktiv sotib ola boshlasa, unga talab ortadi va ularning narxi o'sadi. Shunga mos ravishda qayd qilingan kupon foizida majburiyatning daromadliliigi pasayadi, hazina majburiyatlari daromadliliigi pasayishi pulni investirlashning boshqa yo'nalishiga joylashtirishni foydali qilib qo'yadi. Hususan, uy-xo'jaliklari va moliyaviy muassasalar, korporasiyalar chiqargan obligasiyalarni oldingiga qaraganda kamroq foizga sotib ola boshlaydi. Foiz hajmi qarz majburiyatlarini barcha turi bo'yicha pasayadi, biznes esa qo'shimcha mablag'larni investirlaydi va uning iqtisodiy faoligi ortadi.

Yuqorida aytilganlar bank tizimi va hazina qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotni tartibga solishda favqulotda muxim rol o'ynashini tasdiqlaydi.

Davlat qimmatli qog'ozlar bozorining amal qilishga va foizning hosil bo'lishiga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ta'sir ko'rsatadi:

1. Qonun chiqaruvchi ma'muriy organ sifatida;

a) Aksionerlik jamiyatlarini tashkil qilish tartibini;

b) Qimmatli qog'ozlar chiqarish tartibi va turlarini;  
v) Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardan olinadigan foydaga soliq stavkasini;

g) Birjaning faoliyati va qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshadigan bitimlarining alohida turlariga ruxsat berish yoki tasdiqlashni belgilab beradi.

2. Qimmatli qog'ozlar bozorida iqtisodiy munosabatlarning sub'ekti sifatida chiqadi. Moliyaviy resurslarni jalb qilish maqsadida, u muomalaga davlat qimmatli qog'ozlarini, (masalan, obligatsiyalar, hozira veksellari va shu kabi) larni chiqaradi.

3. Qimmatli qog'ozlar bozori holatiga Markaziy bankning kredit-pul siyosati orqali ta'sir ko'rsatadi. Boshqa so'z bilan aytganda, foiz bozorining holati muomaladagi pul massasini tartibga solish va kreditni raxbatlan-tirish eki to'htatib turish vazifalari bilan uzviy bog'liq. Markaziy bank shunga mos ravishda ochiq bozorda davlat obligatsiyalarni sotadi eki sotib oladi.

Bizga ma'lumki, Markaziy bank boshqa banklarga ham ssuda berib, bu "veksellarni hisobga olish" deyiladi. Hisob stavkasini, ya'ni ssuda uchun to'lovni pasaitirib, bank veksellarni hisobga olishni rahbatlantiradi, uni oshirib bu intilishni susaitiradi. Hisob stavkasi oshganda, aksiya va obligatsiyalar kursi odatda tushadi, aksincha hisobstavkasi pasainganda ularning kursi ko'tariladi.

Pul bozori banklarning Markaziy bankda saqlash zarur bo'lgan, majburiy rezerv mablag'lari normasidaga o'zgarishlarni ham aks ettiradi. Agar bu rezerv norma ortsa, ssuda foizi o'sadi. Ancha past foiz bo'yicha chiqarilgan aksiya va obligatsiyalar kursi tushadi. Kreditning kengayishi ssuda foizi darajasining pasayishiga, ancha yuqori foiz bo'yicha chiqarilgan aksiya va obligatsiyalar kursining ko'tarilishiga olib keladi.

Markaziy Bankning qimmatli qog'ozlar bozoriga ta'sir ko'rsatishining navbatdagi yo'nalishi, aksiyalar sotib olishga kreditni chetlashdan iborat.

qimmatli qog'ozlar bozori, davlat byudjetida katta kameblik vujudga kelgan vaqtda davlat tomonidan tartibga solishning ta'sirini ham o'zida sezadi. Byudjet kamebligining o'rni qoplash uchun mablag' topish maqsadida davlat obligatsiya chiqaradi. Shu sababli u ssuda foiz normasini pasaitirish-dan manfaatdor bo'ladi. Markaziy bankning muomaladagi pul massasini ko'paytirish bilan bog'liq foiz normasini pasaytirishga harakati ancha yuqori foiz bo'yicha chiqarilgan aksiya va obligatsiyalar kursining oshishiga olib keladi.

Agar bank, korxonalar va axoli qo'lida o'zgarib turuvchi foiz bilan ko'proq miqdordagi obligatsiya mavjud bo'lsa, davlat kreditga engillik berish siyosatini yuritadi. Bunday harakat, yuqoridan ancha yuqori foiz bo'yicha chiqarilgan aksiya va obligatsiyalar kursining oshishini kelirib chiqaradi.

## 6- §. O'zbekistonda milliy valyutani mustaxkamlash vazifalari.

Respublikada milliy valyutani mustaxkamlash ishida so'mning xarid quvvatini oshirib borish va uning barqarorligini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Bunga bozorni raqobatdosh maxsulotlar bilan to'ldirish va zarur rezervlar hosil qilish



orqali erishiladi. Bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirishda milliy ishlab chiqarishni imkoni boricha kengaytirib borishi, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki shu orqali iste'mol mollari sotishining umumiy hajmida milliy maxsulotlar qissasi oshirib boriladi. Bu avvalo, chetdan keltirilaetgan eng zarur oziq-ovqat maxsulotlari, hususan, qand-shakar, sut maxsulotlari, shuningdek, sanoat mollarinint bir qator turlari va madaniy maishiy ashyolarga taalluqli. Chetdan keltirilaetgan bu maxsulotlarning tovar aylanishidagi qissasi xozir ham ancha yuqori tarmoqqa ega. 1994 yil Respublika importida faqat oziq-ovqat maxsulotlari va yengil sanoat tovarlari qissasi 32 foizdan ortiqini tashkil qilgan. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, milliy ishlab chiqarishni kengaytirish orqali so'mning barqarorligi ta'minlash chetdan maxsulot keltirishni inkor qilmaydi. Axolini sifatli chetel mollari bilan ta'minlash maqsadida import ham rahbatlantirib boriladi.

So'mning barqaror amal qilishi, uning har qanday valyutaga erkin almashilishi yetarli valyuta zahirasi bo'lishiga bog'liq. Unga erishishda korxonalar va barcha korxonalar sub'ektlarining, jaxon bozoriga raqobatga bardosh beradigan maxsulot ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan raxbatlantiruvchi omillarni vujudga keltirish alohida ahamiyatga ega.

So'mning barqarorligini ta'minlashda undan ehtiyotkorona va tejab tergab foydalanish, ishlab chiqarishga sarflangan mablag'larning eng ko'p samara berishiga, olingan kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishiga erishish muxim o'rin tutadi.

Inflyasiyaga qarshi aniq o'ylangan siyosat o'tkazish milliy valyutani mustaxkamlanishning muxim shartlaridan biridir. Bu siyosat eng avvalo inflyasiya darajasini keskin kamaytirishga qaratilishi lozim. Bunda pulning qadrsizlanish darajasi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish hamda unga qarshi samarali tadbirlar qo'llash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shu orqali pulning qadrsizlanishda mahbul sur'atni tanlashga erishiladi.

Inflyasiyaga qarshi siyosat negizini pul miqdorining o'sishini tovarlar va hizmatlar miqdorining tegishli darajada o'sishi bilan bog'lab olib borishga qaratilgan tadbirlar tashkil qilish zarur. Chunki harid qilish uchun mollar yetarli bo'lmagan holda axoli qo'lida pulnig ortiqcha ko'payib ketishi inflyasiyaning yanada avj olib ketishiga sabab bo'ladi. Pul miqdori bilan birga narxlarning ham tobora o'sib borishi muqarrar ravishda, uzoq davom etadigan giper inflyasiyani keltirib chiqaradi. Bu o'z navbatida, milliy ishlab chiqarishning o'zidan chiqishiga axoli keng tabaqalarning qashshoqlashishiga va butun ijtimoiy tizimning barbod bo'lishiga olib keladi.

Tovarlar taqchilligi mavjud bo'lib turgan xozirgi bosqichda giperinflyasiyani oldini olish uchun axoli iste'mol fondining o'sishini ishlab chiqariladigan maxsulot ko'rsatiladigan hizmatning moddiy hajmi ko'payishiga bevosita bog'liq qilib qo'yish zarur bo'ladi. Ichki bozorni mollar va hizmatlar bilan to'ldirish, muomalaga o'rinsiz ortiqcha pul chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik, milliy valyuta barqarorligi ta'minlash va xalq turmush darajasini o'stirishning muxim shartidir.

So'mning barqarorligini ta'minlashda naqd pul emissiyasining o'sishiga, axoli ho'lida pulning harakatsiz turib qolishiga yo'l qo'ymaslik birinchi darajali axamiyatga ega. Bunda muomalaga chiqarilgan pul miqdorining o'z vaqtida qaytarilishiga erishishi, maxsulot ishlab chiqarishning o'sishi ta'minlamagan korxonalariga kreditlar berilishiga yo'l qo'ymaslik chorolari ko'rilishi kerak.

Inflyasiyani pasaytiruvchi qudratli omil milliy valyuta almashuv kursining barqarorlashuviga erishishdir. Bu o'z navbatida import narxlarning barqarorlashuviga olib keladiki, natijada ichki bozordagi narxlar o'zgaradi.

Valyuta birjalarida valyuta operasialarining barcha turlari uchun talab va taklif natijasida shakllanadigan yagona almashuv kursini belgilash, valyuta Kursi barqarorligiga erishishning dastlabki shartidir.

Milliy valyuta kursi barqarorligini ta'minlashning navbatdagi sharti daslabki bosqichda valyutani naqd pulsiz almashtirish hajmini ko'paytirishga ustunlik berishidir. Istiqbolda esa bu sohadagi siyosat banklararo valyuta birjasidagi oborot mikdorini korxon va fuqarolar o'z pulini hohlagan miqdorda hohlagan valyutaga erkin almashtirish imkoniyatini beradigan darajaga etkazishga qaratiladi. Bunga erishishda milliy ishlab chiqarishda eksport ulushini kengaytirish bilan birga jaxon banki va xalqaro valyuta fondi qarzlari asosiy o'rin tutadi. Shu tadbirlar natijasida Respublika valyuta birjasida 1995 yil davomida 90 marta savdo o'tkazilib, bunda valyuta birjasining umumiy oboroti 1543 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan yoki bu 1994 yilga nisbatan 14 baravardan ko'proq.

Shunday qilib, yuqorida qarab chiqilgan chora va tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi milliy valyutamiz almashuv kursining barqarorlashuviga, uning harid qilish quvvatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### Asosiy tayanch tushunchalar.

Pul muomalasi - pulning o'z vazifalarini bajarish jarayonidagi to'xtovsiz harakati, ya'ni uning to'xtovsiz aylanib turishidir.

Pul tizimi - tarixan tarkib topgan va milliy qonunchilik bilan mustaxkamlangan, mamlakatda pul muomalasini tashkil qilishga hizmat qiluvchi naqd va kredit pullardir.

#### Inflyasiya - qog'oz pul birligining qadrsizlanishi.

Kredit -bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni takror ishlab chiqarish extiejleri uchun qarzga berish.

Foiz normasi(stavkasi)-foiz yoki foizli daromadning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi.

Banklar- pul mablag'larini to'plash, joylashtirish va ularning harakatini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy muassasadir.

Bank operasialari - mablag'larni jalb qilish va ularni joylashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan operasialar.

Bank foydasi (marja) - olingan va to'plangan foiz summalari o'rtasidagi farq.

Bank foyda normasi - bank sof foydasining uning o'z kapitaliga nisbatining foizdagi ifodasi.

### Savollar va topshiriqlar.

1. Pul tizimining muxim tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsating. Metall (oltin yoki kumush) va kredit qog'oz pul muomalasining asosiy hususiyatlarining tavsifini bering.
2. Tovar pulning kamchiliklari nimadan iborat? Qog'oz va kredit pullarining tovar puldan afzalliklari qanday?
3. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday omillarga bog'liq? Pulning aylanish tezligi? Faraz qilamiz, 10000 so'm pul bir yil ichida beshta oldi soti bitimda ishtirok qilgan bo'lsa, shu pul yordamida necha so'mlik tovar sotilishi mumkin? Ikkita va o'n ta bitimda ishtirok qilganda?
4. Agar o'tgan yilda narx indeksi 110, joriy yilda 121 bo'lsa, shu yili inflyasiya darajasi qanday bo'ladi? Agar inflyasiya yiliga a) 5%, b) 10% va v) 20% darajada saqlanib qolsa, narxning 2 marta oshishi uchun qancha vaqt talab qilinadi?
5. Katta giperinflyasiya qanday qilib turqunlikka olib kelishi mumkinligini tushuntiring.
6. M1 pul taklifi qanday elementlardan iborat bo'ladi? M1 pul taklifining eng muxim elementi qaysi? M2 va MZ o'rtasidagi farqlarni ko'rsating.
7. Pul taklifining asosini nima tashkil qiladi? Pulning qiymati nima bilan aniqlanadi? Pul taklifini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lish nima uchun muxim?
8. a) Bitim uchun pulga talab va b) aktivlar tomonidan pulga talabni aniqlovchi asosiy omillar qanday? Pulga bo'lgan umumiy talabni aniqlash uchun talabning bu ikki turini grafik tarzda qanday joylashtirish mumkinligini tushuntiring.
9. Pul bozorida foizning muvozanatli stavkasi (normasi) qanday aniqlanadi? A) Kredit kartochkalaridan foydalaniшни kengaytirish, b) ishchilarga navbatdagi ish haqini to'lash o'rtasidagi vaqtni kamaytirish va v) nominal YaMM ko'payishi bitim uchun pulga talab va foizning muvozanatli stavkasiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?
10. O'zbekistonda milliy valyuta mustaxkamligini ta'minlash chora tadbirlari o'z ichiga nimalarni oladi? Ularning qisqacha tavsifini bering.

### Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. "Bizning bosh maksadimiz - jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir", "O'zbekiston" 2005.

2. Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz", T. "O'zbekiston", 2000yil.
3. Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari." -T. "O'zbekiston", 1998.
4. "To'g'ridan to'g'ri hususiy investisiyalarni jalb etishni rahbatlantirish borasidagi qo'shimcha chora - tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 apre'l.
5. Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T., "Moliya" nashriyoti, 2002.
6. A. Qodirov. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T.2002.
7. D. Tajiboeva. "Iqtisodiyot nazariyasi", -T.2002.
8. Makkonel K., Bryu S. "ekonomiks", M.2002.
9. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Raizberga.- Uchebnik: - INFRA - M.2004.
10. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof.M. N. Chepurina. Uchebnik: - INFRA - M.2004.
11. ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsch. red. akad. V. I. Vidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA - M.2004.
12. Kulikov L. M. ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
13. E. F. Borisov ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
14. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
15. Iohin V. Ya. ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
16. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy. d.e.n., prof. T. V. Chechelovoy. ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

- O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalq so'zi - 25 mart.
2. Chepurin M.N. y dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov - 2005.
  3. Sh. Sh. Shodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. Yaxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
  4. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovy ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

#### **Veb-saytlar:**

1. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
2. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
3. <http://infoteka.economics.ru>
4. [www.finansy.ru](http://www.finansy.ru)
5. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)

6. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
7. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
8. [www.jahon.mfa.uz](http://www.jahon.mfa.uz)
9. [www.budjet.rf.ru](http://www.budjet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ro'zani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof. Sh.Sh.Shodmonov, G.D.Bobabekova, G.T. Halikova tomonidan tayorlangan "Pedagogicheskoe masterstvo i innovasii v predpodovanii ekonomicheskoe teorii".T-2004, "Innovasionnye metody obucheniya v ekonomichskom obrazovanii" va Sh.Sh. Shodmonov, T.M.Ziyaeva, M.T. Yaxshievalar tomonidan tayoerlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami.T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.

17 – MAVZU.  
**BOZOR IQTISODIYOTINI TARTIBGA SOLISH.  
DAVLATNING IQTISODIY ROLI.**

**Kirish:**

4 soat

**Reja:**

**1-§. Davlatning bozor iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli va vazifalari haqidagi nazariyalar va qarashlar.**

**2-§. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsad va vazifalari.**

**3-§. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari.**

**Kirish.**

Barcha iqtisodiy tizimlarda davlat va bozor tizimi ma'lum o'rinni tutib, har biri mustaqil amal qiladi. SHu bilan barcha dunyodagi turli xil iqtisodiy tizimlar bir-biridan iqtisodni boshqarish va tartibga solishda davlat va bozor rolining nisbati bo'yicha keskin farqlanadi. Masalan: bir iqtisodiy tizim ko'prok markaziy rejalashtirishga tayansa, (sobiq SSSR) boshqasi bozor tizimini ustunroq ifodalaydi (AQSH iqtisodiyoti).

Bu mavzuda dastlab davlatning milliy iqtisodiyotdagi roli qarab chiqiladi, keyin uning iqtisodiy vazifalari tavsifi beriladi.

Mavzu davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullarini yoritib berish bilan yakunlanadi.

**1-§. Davlatning bozor iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli va vazifalari haqidagi nazariyalar va qarashlar.**

Milliy iqtisodiyotning samaradorligi ko'p omilli ko'rsatkich bo'lib, bunda samaradorlikning erishilganlik darajasi ko'p darajada iqtisodiyotdagi davlat yoki bozor tizimi tutgan roliga bog'liq bo'lishi mumkin. Chunki ancha yuqori samaradorlikka, birinchidan, bozorning tartibga solish usullan orqali; ikkinchidan, iqtisodiyotni faqatgina yagona markazdan ongli ravishda markazlashgan boshqarish yo'li bilan; uchinchidan, takror ishlab chiqarish jarayonida davlatning aralashuvi va bozor usullarini uyg'unlashtirish orqali erilishiladi. Hozirgi davrda Respublikamizning milliy iqtisodiyoti rivoji uchun ko'proq uchinchi yo'l xarakterli xisoblanadi.

Iqtisodiy tafakkur tarixidan birinchi marta davlatning iqtisodiyotdagi roli masalasi A. Smit tomonidan ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Uning "Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini tadqiq qilish haqida" (1776 yil) degan kitobida bozor usullari orqali iqtisodiyotning o'z - o'zini tartibga solishning zarurligi ta'kidlab o'tilgan. A. Smitning fikricha xususiy tovar ishlab chiqaruvchilar bozori davlat nazoratidan to'liq ozod bo'lishi zarur. Ana shundagina ishlab

chiqaruvchilar iste'molchilar talabiga mos ravishda qilgan narsani ishlab chiqarish imkoniga ega bo'ladi. Bunda bozor vositasida tartibga solish, har qanday chetdan aralashishsiz ishlab chiqaruvchilarni butun jamiyat manfaatlariga uchun harakat qilishga majbur qiladi.

A. Smit davlatning iqtisodiy jarayonlariga har qanday aralashuvi oxir oqibatda faqat vaziyatni yomonlashtiradi deb xisoblaydi. Masalan, davlat tomonidan belgilangan tashqi savdo tartib-qoidalarini milliy iste'molchilarga faqat zarar keltirishi mumkin. Haqiqatdan ham import to'lovi (poshlinasi) milliy ishlab chiqaruvchilarga ustunlik berishi mumkin va ularning chet el sohibkorlariga nisbatan raqobatlashuv qobiliyatini oshiradi. Ammo bu oxir oqibatda ishlab chiqarishning ancha yuqori xarajatlari va past sifatini saqlab qolishiga olib keladi. Bunda past sifatli va narxi qimmat tovarlarni sotib olishga majbur bo'lgan milliy iste'molchilar yutqazadi.

A. Smitning "Tinch qo'yish" nazariyasi, 1923 - 33 yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga uchradi. Iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kuchaytirishni taqazo qildi.

Davlatni iqtisodiyotdagi rolini oshirish masalasini Djon M. Keynsning "Ish bilan bandlik, prozent va pulning umumiy nazariyalari" nomli kitobida o'z aksini topdi (1936). Bu kitobda muallif davlat fiskal (xazinaviy) va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag'batlantirishni va aholining ish bilan bandligini ta'minlashi zarurligini isbotlaydi.

Amalda gap davlatning uzluksiz ravishda krizisga qarshi siyosat o'tkazishi, iqtisodiy tushkunlikning salbiy oqibatlarini tugatish va sanoat siklining o'zgarishini yo'qotish haqida ketadi. Keyns nazariyasi ancha tugal shaklda AQSHda amalga oshirildi.

Urushdan keyingi davrda Keyns nazariyasidagi ko'rsatmalar u yoki bu darajada bozor iqtisodi amalda ustun bo'lgan barcha mamlakatlarda foydalaniladi. SHu bilan birga davlatning iqtisodiyotdagi rolining yanada ko'prok oshib borishi ro'y berdi. Hozirgi davrda davlat tomonidan tartibga solishni muhim maqsadi sifatida nafaqat sikliga qarshi tartibga solish va ish bilan bandlikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishining yuqori darajasini va yaxlit takror ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishni rag'batlantirish tan olinadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvini nima belgilab beradi? - degan savol tug'ilish tabiiy.

Birinchidan, davlat o'ziga milliy iqtisodiyotda bozor vositasida o'z - o'zini tartibga solish orqali bajarish mumkin bo'lmagan yoki samarali bajarish mumkin bo'lmagan vazifalarni oladi. (Bu vazifalarni keyinroq batafsil qarab chiqamiz). Bunga mudofaani ta'minlash, mamlakatda ichki tartibni saqlash va aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalash kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Ikkinchidan, bozor iqtisodi sharoitida hususiy ishlab chiqarish va iste'mol bir qator ijobiy va salbiy oqibatlarni tug'diradi.

Bu oqibatlar bevosita uchinchi shaxs manfaatida aks etadi va demak kishilarning alohida guruhi va umuman jamiyat manfaatiga ta'sir qiladi. Masalan, chiqitli texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishlarda tozalash qurilmalariga xarajatlarni tejash, xususiy ishlab chiqaruvchilar nuqtai nazaridan (u yoki bu kompaniya yoki individual ishlab chiqarishga) foydali, atrof muhitni ifloslanishiga kelishi esa boshqa kishilar uchun qo'shimcha salbiy oqibatga ega.

Davlat yakka tadbirkor yoki istemolchidan farqli, jamiyat manfaatini ifodalab, qo'shimcha ijobiy samarani rag'batlantirishga va aksincha salbiy samara bilan bog'liq faoliyatni tartibga solishi va cheklashga harakat qilishi zarur.

Uchinchidan, davlatning iqtisodiy jarayonlariga aralashuvi shu sababli ro'y beradiki, individual istemolchilar hamma vaqt u yoki bu tovarni iste'mol qilishning oqibatlarini ob'ektiv baholay olmaydi. SHu nuqtai nazardan, davlat foydali iste'molni kengaytirish va aksincha sog'lik uchun zarar tovarlar iste'molini cheklash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Masalan, davlat tamaki mahsulotlari yuqori aksiya (egri) soliq o'rnatilib, bir tomondan o'zining daromadini oshirsa, boshqa tomondan shu mahsulotni sotib olish talabini cheklaydi.

To'rtinchidan, davlat o'z zimmasiga bozorning tabiatidan kelib chiqadigan ayrim holatlarni qisman engillashtirish vazifasini oladi. Bozor hamma uchun to'lovga qobil sotib olish o'z talabini qondirishga teng imkoniyatni ta'minlaydi. Ammo bu bozorning milliy boylikni ijtimoiy - adolatli taqsimlashni ta'minlashini bildirmaydi. Bunday sharoitda davlat aholining kam ta'minlangan qatlamini turmush darajasi haqida g'amxo'rlik qilishi, pulsiz (yoki imtiyozli) bilim berish, tibbiy xizmat ko'rsatish va shu kabilarni o'z zimmasiga oladi.

Beshinchidan, hozirgi sharoitda iqtisodiy o'sishning barqaror izchilligini rag'batlantirish vazifasi ham davlatning zimmasiga tushadi.

## **2-§. Iqtisodiyotni Davlat tomonidan tartibga solishning maqsad va vazifalari.**

Bozor xo'jaligi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qonunlik ijro etish va nazorat qilish xarakteridagi tadbirlar tizimidan iborat bo'ladi.

Iqtisodiyotni Davlat tomonidan tartibga solish (IDTTS) ning ob'ektiv imkoniyati iqtisodiy rivojlanishi, ishlab chiqarish va kapital to'planishi ma'lum darajaga erishganda vujudga keladi. Iqtisodiy rivojlanishda muammo qiyinchiliklar o'sib va ziddiyatlar to'planib borishi bu imkoniyatlari hakikatga aylantrishni zarur qilib qo'yadi.

Hozirgi sharoitda IDTTS takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vazifalarni hal qilishga qaratiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy o'sishni



rag'batlantirish, bandlikni tartibga solish, tarmoq va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobiy siljishlarni qo'llab -quvvatlash, eksportni himoya qilish kabilarni kiritish mumkin.

IDTTS mexanizmi to'g'risidagi to'laroq tasavvurga ega bo'lishi uchun uning maqsadi, vaziflari va tartibga solish usullari hamda vosita yoki dastaklarini to'laroq tavsiflash lozim.

IDTTSning asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud tuzumni mustahkamlash (mamlakat ichida va xalkaro maydonda) va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi.

Bu asosiy maqsaddan bir qator aniq maqsadlar kelib chiqadi. Ular jumlasiga iqtisodiy siklini barqarorlashtirish; milliy xo'jaliklarning tarmoq va mintaqaviy tuzilishini takomillashtirish, atrof- muhit holatini yaxshilash kabilarni kiritish mumkin. IDTTS maqsadi uning vazifalarida aniq namoyon bo'ladi. Bozor xo'jaligi sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari asosan bozor tizimining amal qilishini engillashtirish va himoya qilish maqsadiga ega bo'ladi. Bu sohadagi davlatning iqtisodiy vazifalaridan quyidagi ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta'minlash;

2. Rahobarni himoya qilish.

Davlatning boshqa vazifalari iqtisodiyotni tartibga solishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadi. Bu erda davlatning uchta vazifasi alohida ahamiyatga ega:

1. Daromad va boylikni qayta taqsimlash;

2. Milliy mahsulot tarkibini o'zgartirish maqsadida resurslarni qayta taqsimlash;

3. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish ya'ni iqtisodiy tebranishlar vujudga keltiradigan inflyatsiya va bandlik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Davlatning ko'rsatib o'tilgan bu vazifalari, odatda uning iqtisodiy rolining tahlili uchun asos bo'lib xizmat qilsada, davlat faoliyatining ko'pchilik shakllari va siyosiy tadbirlari u yoki bu darajada bu erda sanab o'tilgan barcha iqtisodiy vazifalariga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, daromadlarni kam ta'minlanganlar foydasiga qayta taksimlash dasturlari, resurslarni taqsimlashga ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, davlatning inflyatsiyaning kengayishini yumshatish maqsadida harbiy xarajatlarni kamaytirish ham, resurslarning davlat sektoridan xususiy va kooperativ sektorlarga qayta taqsimlanishiga olib keladi.

Davlatning yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarini to'larok qarab chiqamiz.

1. Huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta'minlash. Davlat bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishining shart - sharoiti hisoblangan ayrim xizmatlarni bajarish va huquqiy asosni ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Bozor iqtisodiyoti uchun zaruriy huquqiy asosni quyidagi tadbirlarni taqazo qiladi:

xususiy korxonalarga qonuniy mavqei berish; xususiy mulkchilikni huquqini aniqlash va shartnomalarga amal qilishini kafolatlash; korxonalar resurslarini etkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish konuniy aktlarni ishlab chiqarish va shu kabilar. O'zbekiston Respublikasining korxonalar, tadbirkorlik va aksionerlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunlari hamda ularga kiritilgan qo'shimcha va tuzatishlar mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo'yicha tadbirlari bozor iqtisodiyoti uchun zaruriy huquqiy asosni ta'minlashga qaratilgan.

Davlat qonunchilik asosida iqtisodiy aloqalar sohasida "arbitr" vazifasini bajaradi, iqtisodiy birliklar faoliyatida qonundan chetlatish holatlarini aniqlaydi va zarur holatlarda hokimiyatdan foydalanib tegishli jazo qo'llaydi.

Davlat tomonidan ta'minlanadigan asosiy xizmatlar o'z ichiga ijtimoiy tartibni saqlab turish uchun milisiya kuchidan foydalanish, mahsulot sifati va og'irligini o'lchashga standartlar kiritish, tovarlar va xizmatlar ayirboshlashini engillashtirish uchun pul tizimini yaratish kabilarni oladi.

Bu erda shuni ta'kidlash zarurki, bozorni muomala vositalari bilan ta'minlash, mahsulot sifatini kafolatlash, shartnoma sharoitlarini aniqlash kabi tadbirlar savdo hajmini kengaytirishga imkon beradi, bozorni kengaytiradi, moddiy mehnat resurslaridan foydalanishda ixtisoslashtirishni chuqurlashtiradi va resurslarni taqsimlashni yaxshilaydi.

Huquqiy asosni ta'minlashga qaratilgan qonunchilik, ishlovchilar va ish boshqaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarga korxonalarning o'zlari o'rtasidagi munosabatlarga ham taaluqli bo'ladi.

2.Raqobatni himoya qilish. Raqobat bozor iqtisodiyotida asosiy tartibga soluvchi mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Bu shunday kuchki, u xaridorlar amriga yoki iste'molchilar mustaqilligiga ishlab chiqaruvchi va resurslarni etkazib beruvchilarni bo'ysundiradi. Raqobat sharoitida ko'plab xaridor va sotuvchilarning talab va taklif haqidagi qarorlari bozor narxlarini aniqlaydi. Bu shuni bildiradiki, ishlab chiqaruvchilar va resurslarni etkazib beruvchilar faqat bozor tizimi hisobga oladigan iste'molchilar xohishiga moslashishi mumkin. Bozor tizimining irodasiga bo'ysunuvchi, raqobatlashuvchi ishlab chiqaruvchilar foyda olishni va o'z mavqeilarining mustahkamlashini kutadi, kim bozor qonunlarini buzsa, zarar ko'radi va oxir oqibatda sinadi. Raqobat sharoitida xaridor - bu xo'jayin, bozor ularning gumashtasi, korxonaga ularning xizmatkori hisoblanadi.

Monopoliyalarning o'sishi bu vaziyatni keskin o'zgartiradi.

Monopoliya - bu shunday vaziyatki, unda sotuvchilar soni juda kam bo'ladi, har bir sotuvchi taklifning umumiy hajmiga va shu sababli sotiladigan mahsulot narxiga ta'sir ko'rsatish holatida bo'ladi. Monopoliya raqobatning o'zini almashtirganda, sotuvchilar bozorga ta'sir ko'rsatishi yoki undagi

narxlarni o'z manfaatlarini ko'zlab (xatto jamiyatga ziyon etkazilsada) o'zgartirish mumkin. Monopoliyalar o'zlarining takliflarini umumiy hajmini tartibga solish layoqatidan foydalanib, mahsulot hajmini sun'iy cheklash orqali ularga ancha yuqori narx belgilash va shu orqali ancha barqaror foyda olishi mumkin. Bu narx va foydalarning raqobatli sharoitidagidan oshiqchasi iste'molchilarning manfaatiga to'g'ridan - to'g'ri zid keladi.

Ishlab chiqaruvchining mustaqilligi iste'mol mustaqilligini monopoliya raqobatining o'rmini almashtirgandagi kabi ta'sir ko'rsatadi. Natijada resurslar shunday taqsimlanadiki, u butun jamiyat ehtiyojini qondirish maqsadiga emas, balki yuqori foydani o'zlashtiruvchi monopolistik sotuvchilar manfaatiga javob beradi. Qisqacha aytganda, monopoliya iqtisodiy resurslarning norasional taqsimlanishini vujudga keltiradi.

Bozor munosabatlari rivojlanganda mamlakatlarda, xususan, AQSHda monopoliyalar ustidan ikki usulda nazorat o'rnatiladi. Birinchi holda, "tabiiy monopoliyalar" munosabatlarida, ya'ni texnologiya va iqtisodiy sharoitlar raqobatli bozor mavjud bo'lish imkoniyatini yo'qqa chiqaradigan tarmoqlarda davlat narxlarini tartibga soladi va ko'rsatiladigan xizmatlarga standartlarni o'rnatadi. Transport, aloqa, elektr-energiya ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy foydalanishdagi korxonalar u yoki bu darajada shunday tartibga solishga uchraydi. Ikkinchi holatda, samarali ishlab chiqarish juda ko'pchilik bozorlarda raqobat rivojining juda yuqori darajada ta'minlanishi mumkin. SHu sababli davlat raqobatini kuchaytirish va himoya qilish maqsadida monopoliyalar yoki trestlarga qarshi qonunlar qabul qiladi

3. Daromadlarni kayta taksimlash. Bozor tizimi kishilarning tabiiy qobiliyati, orttirgan bilimi va malakasini hisobga olib, ularning mehnatiga yuqori haq to'lashni ta'minlaydi. Xuddi shunday, kim o'z mehnati bilan ishlab topgan yoki meros bo'yicha erishgan kapital yoki er maydoniga ega bo'lsa, bunday kishilar ular hisobiga ko'prok daromad oladi. Jamiyatning moddiy vositalarga ega bo'lmagan, kamtarona bilim va malaka olgan, layoqati ham yuqori bo'lmagan a'zolari ham daromad oladi. Bulardan tashqari ko'plab qariyalar, jismoniy va aqliy kamchilikli shaxslar, yolg'iz ayollar va karamog'ida bolalari bo'lgan bevalar juda kam daromad oladi yoki bozor tizimi doirasida ihsizlar kabi umuman daromadga ega bo'lmaydi. Qisqasi, bozor tizimi pul daromadlarini va milliy mahsulotni jamiyat a'zolari o'rtasida taqsimlashda birmuncha tengsizliklarni keltirib chiqaradi. Ayrim yutuqlarga erishilganligiga qaramasdan, kambag'allik keskin iqtisodiy va siyosiy muammo bo'lib qoladi. SHu sababli davlat o'z zimmasiga daromadlar tengsizligini kamaytirish vazifasini oladi. Bu vazifa bir qator tadbir va dasturlarda o'z ifodasini topadi.

Birinchidan, transfert to'lovlari muhtojlarni, nogironlarni va

birovning qaramog'ida bo'lganlarni nafaqalar bilan ishsizlarni ishsizlik nafaqalari bilan ta'minlaydi. Ijtimoiy ta'minot dasturlari orqali pensionerlar va qariyalarga mo'liyaviy yordam ko'rsatiladi.

Bu barcha dasturlar davlat byudjeti daromadlarini, jamiyatning kam miqdorda daromad olgan yoki umuman daromadga ega bo'lmagan a'zolari hisobiga kayta taqsimlaydi.

Ikkinchidan, davlat bozorga aralashish yo'li bilan ya'ni, talab va taklif ta'sirida o'rnatiladigan narxlarni o'zgartirish yo'li bilan ham daromadlarning taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Normadagi oziq-ovqat tovarlariga o'rnatiladigan imtiyozli narxlar va ish haqining eng kam (minimal) darajasi haqidagi qonunchilik davlatning, aholining ma'lum qatlami daromadlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarining yorqin misolidir.

Davlat jamiyat a'zolari o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlashda soliq tizimidan ham keng foydalanadi.

4. Resurslarni qayta taqsimlash bozorning amal qilishida keskin buzilishlarning ikki holati ma'lum, ya'ni raqobatli bozor tizimi:

- 1) ma'lum tovarlar va xizmatlarning kam miqdorini ishlab chiqaradi yoki;
- 2) ishlab chiqarishi o'zini oqlagan ayrim tovarlar va xizmatlarga resurslarning har qanday turini ajratish holatida bulmaydi. Birinchi holat resurslarning qayta taqsimlanishi, ikkinchisi ijtimoiy yoki davlat boyligi darajasiga bog'liq bo'ladi.

Resurslarni qayta taqsimlanishi tovarlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish bilan bog'liq ayrim foyda yoki chiqimlar, uchinchi tomonga, ya'ni bevosita xaridor yoki sotuvchi bo'lib hisoblanmagan tomonga "joyini o'zgartirsa" vujudga keladi. Bu qo'shimcha samara deb ataladi, chunki u bozor qatnashchisi hisoblanmagan yoki gurux xissasiga to'g'ri keluvchi foyda yoki chiqimni ifodalaydi. Bunga atrof muhitning ifloslanishini misol qilib keltirish mumkin.

Kimyo korxonasi yoki konserva zavodi o'zlarining sanoat chiqitlarini ko'li yoki daryoga oqizsa bu cho'miluvchilar, baliqchilar va qayiqda sayr qiluvchilarga - zarar keltiradi. Neft haydovchi yoki kraska ishlab chiqaruvchi zavod muhitiga zararli tutun yoki hid tarqatsa, bundan aholi zarar ko'radiki, uning hech qachon o'rni qoplanmaydi.

Ishlab chiqaruvchi esa o'z hisobiga ishlab chiqarish harajatlarining ancha past darajasini ta'minlaydi. Davlat resurslarining nomutanosib taqsimlanish vujudga keltiradigan bu holatlarni tartibga solish uchun qonunchilik tadbirlarini qo'llaydi, yoki maxsus soliqlardan foydalanadi.

Masalan, atrof - muhit va suv xavzalarining ifloslanishini taqiqlovchi yoki cheklovchi qonunlar, ishlab chiqaruvchilarni o'zlarining sanoat chiqitlarini ancha ishonchli yo'qotishga majbur qiladi. Jumladan korxonalar tutun ushlovchi va ishlab chiqarish jarayonida ifloslangan suvni tozalovchi qurilmalar sotib olish va o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan barcha chiqimlarin o'z zimmasiga olishga majbur bo'ladi.

Boshqa holda davlat atrof-muhit ifloslanishining oldini olish uchun ular keltiradigan zararga juda yaqin yoki teng bo'lgan maxsus soliqlarni kiritish mumkin. SHunday soliq yordamida davlat, atrof-muxitni ifloslan-tiruvchi korxonalar**ga** boshqalarga o'tishi mumkin bo'lgan chiqimni yuklashga harakat qiladi.

Resurslarning nomunosib taqsimlanishi ma'lum bir tovarlarni ishlab chiqarishni taklif etuvchi va iste'mol qiluvchi hisoblanmagan, uchinchi tomon yoki butun jamiyatga katta foyda yoki naf keltirishi ham mumkin. Masalan, yuqumli kasalliklarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf qilish nafaqat kasalga chalingan kishi balki butun jamiyat uchun katta nafi keltiradi.

Ta'lim ham xuddi shunday samara beradi "YUqori ta'lim olgan" kishilar "kam ta'limli" larga qaraganda odatda ancha yuqori daromad oladi. SHu bilan birga ta'lim butun jamiyatga ko'proq naf keltiradi, ya'ni yaxlit iqtisodiyot ancha unumli ishchi kuchi bilan ta'minlanadi.

Davlat bir qator yo'llar bilan resurslarning nomutanosib taqsimlanishi keltirib chiqaradigan qo'shimcha samara oqibatlarini yumshatishga harakat qiladi.

Birinchidan, iste'molchilarning aniq tovar va xizmatlarni xarid qilish qobiliyatini ta'minlash yo'li bilan ularning talabi oshiriladi. Malasan, bizning Respublikamizda yaqin o'tmishda oziq-ovqat mahsulotlari-riga talon tizimi joriy etilishi, past daromadli oilalar rasionini yaxshilash uchun xizmat qildi. Bundan oziq-ovqat talonlarini qabul qilgan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari tovarlarining pul ekvivalentlari davlat byudjetidan qoplandi.

Qisqasi, bunday dastrurlar oziq-ovqat mahsulotlariga talabni oshiradi va shu orqali resurslarning nomutanosib taqsimlanishini yumsha-tadi yoki umuman bartaraf qiladi.

Ikkinchidan, davlat taklifni oshirish maqsadida ishlab chiqarishni subsidiyalash mumkin. Subsidiyalar ishlab chiqaruvchilarning chiqimlarini qisqartiradi va mahsulotlarni ishlab chiqarishda resurslarning etishmasligi bartaraf qilnadi.

Uchinchidan, davlat ayrim tovarlar va ijtimoiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchisi sifatida chiqadi. Bunda tarmoqlar davlat mulkchiligiga asoslanadi va davlat tomonidan bevosita boshqariladi yoki ularni moliyalashtirishni davlat o'z zimmasiga oladi.

Tovarlar va xizmatlar tarkibida individual iste'mol tovarlaridan tashqari, tovarlar (xizmatlar)ning shunday turlari mavjud bo'ladiki, ularni bozor tizimi ishlab chiqarishni umuman ko'zda tutmaydi va tovarlarning xususiyatlari individual iste'mol tovarlarini xususiyatlaridan keskin farq qiladi. Ular ijtimoiy ne'matlar deb nomlanib, juda katta birlikni tashkil qiladi va individual iste'molchilarga sotilishi mumkin emas. YAna shu holat muhimki, alohida iste'molchilarni ijtimoiy ne'matlar nafidan foydalanishdan chetlashtirib qo'yishning samarali usullari mavjud emas. Ijtimoiy ne'matlarning bunday turiga

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini misol qilib keltirish mumkin. Unda hamma avtomashina egalari foydalanadi. Ayrim avtomobillarni bu yo'ldan foydalanish imkoniyatidan chetlashtirish mumkin emas. Iqtisodchilar bu xodisani "Frirayder" muammasi deb ataydi, ya'ni kishilar qandaydir mahsulot nafidan uni ishlab chiqarishga yoki iste'mol qilishga hech qanday chiqim qilmasdan foydalanish mumkin. Yo'l xizmatini narxda ifodalab sotish mumkin emasligini hisobga olsak, o'z-o'zidan aniqki, xususiy korxonalariga uning qurilishi uchun resurslarni sarflashdan hech qanday naf yo'q. Qisqasi, muhim naf keltiruvchi ammo ularni ishlab chiqarishga bozor tizimi resurslarini ajratmaydigan barcha ijtimoiy ne'mat (xizmat) turlariga taaluqli. Bular fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, milliy mudofaa, favqulodda ro'y beradigan tabiiy hodisalar (suv toshqini, yong'in, zilzila va x.k.z) ga qarshi kurash kabilardir.

Jamiyatning bu xizmatlarga extiyoji bo'lgani uchun, ularni davlat sektori ta'minlaydi va bunday xizmatlar byudjet mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi.

Bozor tizimiga asoslangan demokratik davlatlarda turli xil ijtimoiy ne'matlar turlari va ularni ishlab chiqarish hajmi siyosiy usullar, ya'ni ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi. To'liq bandlilik mavjud bo'lgan bunday iqtisodiyotda davlat oldida, shaxsiy iste'mol tovarlar ishlab chiqarishda qo'llaniladigan resurslarni, ijtimoiy ne'matlar ishlab chiqarishga yo'naltirish uchun bo'shatib berish vazifasi turadi. Xususiy sektordan bo'shatib olishning asosiy usuli, ularga bo'lgan xususiy talabni qisqartirish hisoblanadi. Bunga soliqlarni tabaqalashtirish orqali erishiladi, shu orqali ularning daromadlarining bir qismi "daromadlar -xarajatlar" oqimidan chiqarib olinadi. Korxonalar va uy xo'jaliklari kam daromad olib, o'zlarining investitsion va iste'molchilik sarflarini qisqartirishga majbur bo'lib qoladi, qisqacha aytganda soliqlar, shaxsiy iste'molchilik tovarlari va xizmatlariga talabni kamaytiradi, bu o'z navbatida resurslarga xususiy talabni kamayishini keltirib chiqaradi. SHu orqali davlat, resurslarni xususiy sohada qo'llanilishdan bo'shatadi, soliq tushumlarini sarflab, o'zi bu resurslarni ijtimoiy ne'mat va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltirish mumkin. SHunday qilib, davlat resurslarini manulakat milliy mahsuloti tarkibida muhim o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadida resurslarni qayta taqsimlaydi.

5. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiyotning barcha sektorlarini resurslar bilan ta'minlash, to'liq bandlilik va narxlarning barqaror darajasiga erishishda yordam berish davlatning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish darajasi bevosita umumiy yoki jami harajatlarni hajmiga bog'liq. Umumiy harajatlarning yuqori darajasi shuni bildiradiki, ko'p tarmoqlar uchun mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish foydali hisoblanadi, bu sharoit o'z navbatida ham moddiy, ham inson resurslaridan yuqori darajada samarali foydalanishga erishishning zarurligini aniqlab beradi. Ko'pgina iqtisodchilar bozor tizimiga asoslangan iqtisodiyot (kapitalizm)da umumiy harajatlarni to'liq bandlikni ta'minlab beradigan darajaga ko'taruvchi mexanizm

yo'q deb hisoblaydi. Bunda ikki vaziyat: ishsizlik va inflyasiya yo'l quymasligi mumkin.

To'liq bandlilikni ta'minlash uchun xususiy sektorda harajatlarning umumiy darajasi juda past bo'ladi. Bunday holda davlat xususiy sarflarni shunday darajada to'ldirishga majburdirki, umumiy sarflar, ya'ni xususiy va davlat sarflarining hajmi to'liq bandlilikni ta'minlash uchun etarli bo'lsin. Buning uchun, davlat bir tomondan ijtimoiy ko'rsatmalar va xizmatlarga o'z xarajatlarini ko'paytiradi, boshqa tomondan xususiy sektorni sarflarini rag'batlantirish maqsadida soliqni qisqartiradi.

Boshqa vaziyat, agar jamiyat iqtisodiyotning ishlab chiqarish quvvati taqozo qiladigan ko'proq sarf xarajat qilishga harakat qilsa vujudga kelishi mumkin. Agar jami sarflar to'liq bandlilik sharoitida mahsulot hajmidan oshib ketsa, bu ortiqcha sarflar narxlar darajasining ko'tarili-shiga olib keladi. Jami sarflarning mazkur ortiqcha darajasi inflyasion xarakter kasb etadi. Bunday holda davlat o'z sarflarini hamda soliqlarni oshirish, xususiy sektor sarflarini qisqartirish orqali ortiqcha sarflarni tugatishga harakat qiladi. Iqtisodiyotda ishsizlik mavjud bo'lganda hamda soliqlar va transfer to'lovlari o'zgarishsiz qolganda, davlat sarflarining ko'payishi jami sarflar, ishlab chiqarish hajmini va bandlilikning o'sishiga olib keladi. O'z navbatida, davlat sarflarining mavjud darajasida soliqlarning qiskarishi yoki transfer to'lovlari ko'payishi daromadlarni ko'paytiradi. Bu daromadlar shaxsiy sarflarni o'sishini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Aksincha, inflyasiyaning mavjud bo'lishi davlatdan qarama - qarshi siyosat yuritishni talab qiladi, davlat sarflarini qisqartirishi, soliqlarni ko'paytirishi va transfer to'lovlari kamaytirishi zarur.

Davlat o'z ishlab chiqarishini moliyalashtirishdan tashqari ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotning bir qator dasturlarini amalga oshiradi, iqtisodiyotning xususiy va kooperativ sektorida daromadlarni qayta taqsimlaydi. Davlat tartibga soluvchi xarakterga ega bo'lgan bir qator vaziyatlarni ham amalga oshiradi. Bularga atrof-muhitni himoya qilish, sog'lig'ini saqlash, bo'sh ishchi o'rinlariga ega bo'lishning teng sharoitini ta'minlash va ma'lum sohalarida narx belgilash amaliyoti ustidan nazorat qilish va shu kabilarni kiritish mumkin.

Davlatning iqtisodiy vazifalarini miqdoriy ko'rsatkichlarda ifodalash ancha murakkab. Uning ayrim vazifalarinigina qisman miqdoriy ifodalash mumkin, ko'plab tartibga soluvchilik vazifalarini bunday o'lchamga ega emas. Iqtisodiyotdagi bozor va davlat ishlab chiqarishining salmog'i, davlat iqtisodiy vazifasini ifodalashning uncha aniq bo'lmagan miqdoriy ko'rsatkichi bo'lib bu ko'rsatkichni ularning milliy mahsulot va milliy daromaddagi ulushi orqali aniqlash mumkin.

### 3-§. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari.

Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullarni shartli ravishda quyidagicha guruxlash mumkin:

- bevosita iqtisodiy ta'sir qilish usullari;
- bilvosita iqtisodiy ta'sir qilish usullari;
- tashqi iqtisodiy usullar.

Markaziy rejalashtirish tartibi ustun bo'lgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvida bevosita iqtisodiy ta'sir qilish usullari ustun bo'lsa, bozor iqtisodiyoti esa birinchi navbatda iqtisodiy jarayonlarni bilvosita tartibga solish bilan bog'langan. SHu bilan birga sanoati rivojlangan barcha mamlakatlarda, o'z miqyosi jihatidan ko'p yoki kam darajada iqtisodiyotning davlat sektori mavjud. Uning hajmi mutloq ma'noda bo'lmasada, davlat iqtisodiy rolining mezonini bo'lib xizmat qilishi mumkin. Davlat xilma-xil shakldagi kapitalga egalik qiladi, kreditlar beradi, korxonalariga mulkdor hisoblanadi. Bu davlatning ijtimoiy kapitalning bir qismiga egalik qilishiga olib keladi.

Davlat iqtisodiyotni bevosita tartibga solishda ma'muriy vositalardan foydalaniladi. Ma'muriy vositalar davlat xokimiyati kuchiga tayanadi va ta'qiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xarakterdagi tadbirkorlikni o'z ichiga oladi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda tartibga solishning ma'muriy vositalaridan sezilarli miqyosda foydalaniladi. Uning ta'sir qilish sohasi asosan atrof-muxitni himoya qilish va aholining nisbatan kam ijtimoiy himoyalangan qatlami uchun eng kam (minimal) turmush sharoitini yaratish bilan cheklanadi. Ammo favqulodda va tig'iz vaziyatlarda (urushlar, iqtisodiy krizis) ma'muriy vositalar roli keskin ortadi.

Tartibga solishning ma'muriy vositalaridan foydalanilganda yaxlit takror ishlab chiqarish jarayoni yoki uning alohida jihatlari to'g'ridan to'g'ri tartibga solish ko'zda tutiladi. Ayniqsa ishlab chiqarishning sikli tushkunligi davrida iqtisodiyotga bilvosita ta'sir qilish tadbirlari kam samarali bo'lib chiqqanda, ma'muriy vositalardan foydalanishga ustunlik beriladi. Bu usullardan quyidagilarni alohida ko'rsatish mumkin:

a) iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari-transport, aloqa, atom va elektr-energetika, kommunal xizmat va boshkalarni bevosita boshqarish. Bunda davlat mulk sohibi va tadbirkor sifatida o'ziga qarashli korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy hayotida faol qatnashadi. Davlat tadbirkorligi, ma'lum doirada amal qilib, ko'pincha texnologiya sharoiti xususiy kapital uchun qulay bo'lmagan korxonalar doirasi bilan cheklanadi. Davlat tadbirkorligi bir tomondan, ma'lum sharoitlarda iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan vaqt o'tishi bilan samarasiz bo'lib qolishi ham mumkin. bunday holda ular xususiy tadbirkorlik ob'ektiga aylantiriladi.

b) narxlar va ish haqini qotirib qo'yish siyosati:



Bu iqtisodiyotga aralashishning antiinflasyon tadbirlari hisoblanib inflyasiyani yumshatishga qaratiladi. Mazkur siyosatni yuritishda narx-lar va ish xakini oshirish qonun bilan taqiqlandi yoki ma'lum doira bilan cheklanadi. Antiinflasyon tadbirlar orqali inflyasiya darajasini pasayi-shi investisiyalarga rag'bat beradi.

v) ish bilan bandlilik xizmati faoliyati (ishsizlarni xisobga olish, nafaqa to'lash, mehnat birjalari) ni tashkil qilish.

Davlat bu faoliyatni tashkil qilish bilan ishsizlikni qisqartirish choralarini ko'radi. Ularni zarur kasblarga qayta tayyorlaydi, ish bilan ta'minlanmaganlarga nafaqa beradi, muhtojlarga yordam ko'rsatadi.

g) iqtisodiy sohani tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonuniy aktlarni ishlab chiqish va qabul qilish (monopoliyaga qarshi qonunchilik, sohibkorlik to'g'risidagi, bank sohalari faoliyatini, qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyatini va x.k.larni tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlar).

SHu orqali bozor munosabatlarining rivojlanishi qonun yo'li bilan kafolatlanadi, turli mulk shakllarining daxlsizligi ta'minlanadi, mono-poliyalarga yo'l berilmaydi va erkin raqobatga sharoit yaratiladi.

Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy vositalarga ustunlik beriladi. U davlatning pul-kredit va byudjet siyosatida o'z ifoda-sini topadi.

Pul-kredit siyosatining asosiy vositalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- hisob stavkasini tartibga solish;
- moliya kredit muassasalarining markaziy bankdagi ehtiyojlari minimal hajmini o'rnatish va o'zgartirish;
- davlat muassasalarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari (davlat majburiyatlarini chiqarish, ularni sotish va to'lash).

Davlat bu dasturlar yordamida moliya bozorida talab va taklif nisbatini kutilgan yo'nalishda o'zgartirishga harakat qiladi. Jumladan, ssudaga beriladigan pul miqdorini o'zgartirish uchun foiz vositasidan foydalanadi. Davlat kreditga bo'lgan talab va taklifni markaziy rezerv tizimi vazifasini bajaruvchi markaziy bank orqali o'zgartiradi. Bunga quyidagi yo'llar bilan erishadi.

Birinchidan davlat markaziy rezerv tizimi orqali banklar mablag'larining qarzga beriladigan va extiyoj (rezerv)da turadigan qism-lari ulushini o'zgartiradi. Natijada qarzga beriladigan pul miqdori o'zga-radi, ya'ni uning taklifi oshsa foiz kamayadi, aksincha u kamaysa foiz oshadi. Foizning kamayishi kredit olishga intilishni kuchaytiradi va bu investisiya faolligi orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Ikkinchidan, markaziy rezerv tizimi boshqa banklarga past foiz hisobidan qarz berib, ularning kreditlash ishida faol qatnashib, iqtisodiy o'sishiga ta'sir qilishini ta'minlaydi.

Uchinchidan, davlat markaziy rezerv tizimi orqali xazina majburiyat-larini tarqatadi, o'z obligatsiyalarini sotadi yoki qimmatli qog'ozlarini sotib oladi.

Natijada qarzga taklif etilgan pul miqdori o'zgarib, bu foizga ta'sir etadi. Davlatning pulga bo'lgan talab va taklifini o'zgartirish borasidagi siyosati monetar siyosat deb yuritiladi.

Davlat byudjet siyosati uning daromadlar va harajatlar qismini o'zgartirishga qaratiladi. Davlat harajatlarini qoplash uchun moliyaviy mablag'larni jalb qilishning eng asosiy dastagi soliqlar hisoblanadi. Ulardan xo'jalik sub'ektlari faoliyatiga va ijtimoiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatishda ham keng foydalaniladi.

Soliqlar yordamida davlat tomonidan tartibga solish tanlangan soliq tizimiga, soliq stavkasi darajasiga hamda soliq turlari va soliq to'lashda berilgan imtiyozlarga bog'liq bo'ladi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida byudjet harajatlaridan ham foydalanadi.

Bunga birinchi navbatda, davlat kreditlari, subsidiyalari va kafo-latlari, hamda xususiy sektordan tovarlarni sotib olishga qilinadigan sarflar misol bo'ladi.

IDTTSda asosiy kapitalga hisoblanadigan jadallashgan amortizasiya ajratmalari alohida rol o'ynaydi. U hozirgi sharoitda jamg'arish va iqtisodiyotdagi tartibiy o'zgarishlarni rag'batlantirishning asosiy vositasi hamda xo'jalik sikli va bandlikka ta'sir ko'rsatuvchi muhim dastak hisoblanadi.

Iqtisodiyotning davlat sektorini tartibga solishda davlat kapital qo'yilmalari muhimi rol o'ynaydi. U bir vaqtda xususiy sektorga ham ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy dastak hisoblanadi. Jumladan, bozor kon'yukturasi yomonlashgan, turg'unlik yoki inqiroz sharoitida xususiy kapital qo'yilmalar qisqaradi, davlat investitsiyalari esa odatda o'sadi. SHu orqali davlat ishlab chiqarish tanazzuli va ishsizlikning o'sishiga qarshi turishga harakat qiladi.

Davlat kapital qiymatlari iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarda ham sezilarli o'ringa ega bo'ladi, masalan, davlat xususiy kapitilining oqib kelishi etarli bo'lmagan mintaqalar, tarmoqlar yoki faoliyat soxalarida yangi ob'ektlar qurish va eskilarini qayta qurollantirish orqali iqtisodiyot tarkibiy tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi. bulardan tashqari davlat kapital quyilmalari ilmiy - tadqiqot ishlarida, kadrlar tayyorlashda, tashqi savdo va chetga kapital chiqarishda ham katta rol o'ynaydi.

IDTTS ning oliy shakli davlat iqtisodiy dasturlari hisoblanadi. Uning vazifasi tartibga solishning barcha usuli va vositalaridan kompleks foydalanishdan iborat.

Iqtisodiy dasturlar o'rtacha muddatli, favqulodli va maqsadli bo'lishi mumkin. O'rtacha muddatli umum iqtisodiy dasturlar odatda besh yilga tuziladi. Favqulodli dasturlar tig'iz vaziyatlarda, masalan, inqiroz, ommaviy ishsizlik va kuchli inflyasiya sharoitlarida ishlab chiqib, qisqa muddatli xarakterga ega bo'ladi. Amalda bozor iqtisodiyoti rivojlangan barcha mamlakatlarda maqsadli dasturlar

amalga oshiriladi. Bunday maqsadli dastur-larning ob'ekti tarmoqlar mintaqalar, ijtimoiy sohalar va ilmiy tadqiqotlarning har xil yo'nalishlari bo'lishi mumkin.

IDTTS tashqi iqtisodiy usullar yordamida ham amalga oshiriladi. Bunda maxsus vosita va dastaklar orqali mamlakatning tashqi dunyo bilan amalga oshiriladigan xo'jalik aloqalariga bevosita ta'sir ko'rsatiladi.

Tovarlar, xizmatlar, kapital va fan-texnika yutuqlari eksportini rag'batlantirish tadbirlari, eksportni kreditlash, chet ellarga investisiya-lar va eksport kreditlarini kafolatlash, tashqi iqtisodiy aloqalarga cheklashlar kiritish yoki bekor qilish, tashqi savdoda boj to'lovlarini o'zgartirish, mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilish yoki cheklash bo'yicha tadbirlar, mamlakatga chetdan ishchi kuchini jalb qilish, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda va davlatlararo integratsional uyushma-larda qatnashish mamlakatlarning tashki iqtisodiy aloqalarini tartibga solishning asosiy vositalaridir.

Hozirgi davrda bozor iqtisodi ustun bo'lgan ilg'or mamlakatlarda davlat jahon bozorida milliy iqtisodiyotning raqobat qilish qobiliyatini aniqlab beruvchi hozirgi zamon fan sig'imli tarmoqlarining ustun rivojlanishini himoya qilishga kuchini to'plamokda. SHu sababli xalk xo'jalik majmuasini tarkibiy qayta qurishni, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlar sohasida davlat va xususiy sektor kuchini birlashtirishga, tahlikali biznesni qo'llashni rag'batlantirish siyosati jonlanmoqda.

SHunday qilib, IDTTSning qarab chiqilgan barcha ichki va tashqi iqtisodiy usullari (vosita va dastaklari) birgalikda milliy iqtisodiyot-dagi takror ishlab chiqarish jarayoniga va mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar.**

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish (IDTTS)maqsadi** – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirishga qaratiladi.

**Davlatning iqtisodiy vazifalari** – iqtisodiy tizimning amal qilishga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan chora tadbirlardan iborat bo'ladi.

**IDTTS usullari** – tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari birligi.

**Bevosita usullar** – iqtisodiyotni tartibga solishning ta'qiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xususiyatidagi ma'muriy vositalari.

**Bilvosita usullar** – iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.

## Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha qarashlarni baholang.
2. Davlatning asosiy iqtisodiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tavsifini bering.
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqazo qiladi? Tartibga solish o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi?
4. IDTTSning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering. Tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko'rsating.
5. IDTTSda davlat sektori qanday rol o'ynaydi? Davlat iqtisodiy dasturlari qanday amalga oshiriladi?

### Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. «Bizning bosh maksadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir», «O'zbekiston» 2005.
2. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz», T. «O'zbekiston», 2000y.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari.» -T. «O'zbekiston», 1998.
4. «To'g'ridan to'g'ri xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel.
5. SH. SHodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T., «Moliya» nashriyoti, 2002.
6. A. Qodirov. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
7. D. Tajiboeva. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
8. Makkonel K., Bryu S. «Ekonomiks», M.2002.
9. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Rayzberga.- Uchebnik: - INFRA – M.2004.
10. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof. M. N. CHepurina. Uchebnik: - INFRA – M.2004.
11. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsh. red. akad. V. I. Vidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA – M.2004.
12. Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
13. E. F. Borisov Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
14. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
15. Ioxin V. YA. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

16. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy. d.e.n., prof. T. V. CHEchelovoy. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalq so'zi - 25 mart.
2. CHepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov - 2005.
3. SH. SH. SHodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. YAxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
4. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovy ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

#### **Veb-saytlar:**

1. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
2. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
3. <http://infoteka.economics.ru>
4. [www.finansv.ru](http://www.finansv.ru)
5. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
6. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
7. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
8. [www.jahon.mfa.uz](http://www.jahon.mfa.uz)
9. [www.budjet.rf.ru](http://www.budjet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ro'zani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof. SH. SH. SHodmonov, G. D. Bobabekova, G. T. Xalikva tomonidan tayyorlangan «Pedagogicheskie masterstvo i innovatsii v predpodovanii ekonomicheskoy teorii». T-2004, «Innovatsionnye metody obucheniya v ekonomicheskoy obrazovanii» va SH. SH. SHodmonov, T. M. Ziyaeva, M. T. Yaxshievlar tomonidan tayyorlangan

## 18-Mavzu.

### Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siesati.

**Kirish:**  
**Reja:**

4 soat

1. Aholi daromadlari va uning tarkibi.
  - a) Aholi turmush darajasi va uning ko'rsatkichlari.
2. Daromadlar tengsizligi, uning va darajasini aniqlash.
3. Bozor iqtisodieti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi omillar.
4. Davlatning ijtimoiy siyosati.
5. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari

### Kirish

Bu mavzuni aholi daromadlarining iqtisodiy mazmuni, turlarini bayon qilish hamda uning darajasini belgilab beruvchi asosiy omillarni qisqacha tavsiflash bilan boshlaymiz. Keyin bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini asosiy sabablarni ko'rib chiqamiz. Daromadlar tengsizligi xisobiga bildirilgan fikrlarni tahlil qilib, tengsizlik va samaradorlik o'rtasidagi nisbatni ko'rsatib beramiz. Mavzuni kambag'allik muammosi davlatning daromadlarni ushlab turish dasturlarini qarab chiqish bilan yakunlaymiz.

### 1- §. Aholi daromadlari va uning tarkibi.

Aholi daromadlari deyilganda ularning ma'lum vaqt oralig'ida odatda bir yilda olgan pul mablag'lari va moddiy ne'matlari (uy xujaligida ishlab chiqarilgani bilan birga) summasi tushuniladi.

Aholi iste'mol darajani to'g'ridan-to'g'ri ularning daromadlari darajasiga bog'liq bo'ladi, bu daromadlarning aholi turmush darajasi-dagi rolini belgilab beradi.

Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz devidend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishlok xujalik maxsulotlari, xunarmadchilik buyumlarini sotishdan olinadigan pul tushumlarini har xil xizmatlar ko'rsatishidan tushadigan daromadlar shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Natural daromad mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xujaliklarining o'z iste'mollari uchun ishlab chikargan maxsulotlardan iborat bo'ladi.

Daromadlarning bozorli taqsimlanishi ishlab chiqarishning barcha omillari egalari daromadlari talab va takliflar qonuni, hamda ishlab chiqarish omillarining keyingi unumdorligi asosida shakllanishini bildiradi, shu nuqtai nazardan talab unchalik katta bo'lmagan malakasiz ishchi kuchi egalarining kam

va aksincha talab yuqori bo'lgan malakali /professional/ kasb egalarining yuqori daromad olishi to'g'ri bo'ladi. Demak, bozor mexanizmi farovonlik darajasiga hech qanday kafolat bermaydi.

Shunday ekan bozor iqtisodiyotiga yul tutgan mamlakatlarda davlat tomonidan amalga oshiriladigan, keng ijtimoiy tadbirlarni bildiruvchi «ijtimoiy yunaltilgan bozor xo'jaligi» g'oyasi alohida ommaviylik kasb etadi. Buning ma'nosi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar real hayotida daromadlarning taqsimlanishi nafaqat bozor kuchlarining erkin harakati natijasida, balki daromadlarning turli oqimlarini ularni qayta taqsimlash yuli bilan **davlatning tartibga solishi asosida amalga oshiriladi**. Boshqacha aytganda, jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoit-lari tartibga solinadi, ya'ni jamiyat qatlamlari, ijtimoiy guruxlar o'rtasidagi va ular ichidagi munosabatlar ushlab turiladi, jamiyat a'zolarining hayot darajasi va farovonligini oshirish uchun sharoit ta'minlanadi, ularning ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashishi uchun iqtisodiy rag'batlarni shakllantirishda ijtimoiy kafolatlar yaratiladi. Qisqasi, davlat **aholi daromadlarini shakllantirish siyosati bilan shug'ullanadi** va shu orqali ma'lum darajada ijtimoiy adolat ta'minlanadi.

Jamiyat a'xolari daromadlari darajasi ular turmush darajasining muxim ko'rsatkichi hisoblanib, alohida shaxslar va ma'naviy imkoniyatlarini: dam olishi, bilim olishi, sogligini saklashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirishini belgilab beradi. Aholi daromadlari darajasiga bevosita **ta'sir kursatuvchi omillar orasida ish xaqi xajmidan tashkarish chakana narx dinamikasi, iste'molchilik bozorining tovarlar tuyinganlik darajasi** kabi lar muxim urin tutadi.

Aholi daromadlari dinamikasi va darajasiga baho berish uchun naminal, ehtiyorida bo'lgan va real daromad ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

**Naminal daromad**-alohida shaxslar tomonidan ma'lum vaqt oraligida olingan pul miqdori hisoblanadi.

**Ihtiyorida bo'lgan daromad**-shaxsiy iste'mol va shaxsiy jagarmaga foydalanish mumkin bo'lgan daromad. Bu daromad nominal daromaddan soliqlar va majburiy to'lov summasiga kam bo'ladi.

**Real daromad**-narx darajasi o'zgarishini xisobga olib, ma'lum vaqt oraligida ihtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdoriga teng.

Aholining namunal pul daromadlari turli manbalar xisobiga shakllanib, ulardan asosiylari qo'yidagilar hisoblanadi:

A) ishlab chiqarish omillariga olinadigan daromad

B) davlat yordam dasturlari buyicha to'lov va imtiyozlar shaklidagi pul tushumlari;

V) moliya tizimi orqali tushumlar; /banklar, omonat kassalar, sugurta muassasalari orqali va xokazo/.

Aholining yollanib ishlovchi qismini olinadigan daromadlarning asosiy qismini ish xaqi tashkil qiladi. Daromadning bu turi istikbolda xam, pul daromadlari umurniy xajmini shakllanishida o'zining etakchi rolini saklab koladi.

Aholi pul daromadlarining shakllanishiga davlat yordam dasturlari buyicha to'lovlar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu manbalar xisobiga pensiya ta'minoti vaqincha mehnatga layokatsiz fukarolarni ushlab turishi amalga oshiriladi va turli xil nafaqalar tulanadi.

Aholining moliya kredit tizimi orqali olinadigan pul daromadlari qo'yidagilardan iborat: davlat sugurtasi buyicha to'lovlar; shaxsiy uy kurilishiga va matbuot jamiyati a'zolariga bank sudalari; jamg'arma bankiga qo'yilmalar buyicha foizlar; aksiya, obligasiya bahosining ko'payishidan olinadigan daromad va zaem buyicha to'lovlar; lotereya buyicha yutuklar; tovarlarni kreditga sotib olish natijasida tashkil topadigan, vaqincha bush mablag'lar; har xil turdagi kompensasiya to'lovlar va x.k.

YUqorida ta'kidlanganidek, nominal daromad aholi ixtiyorida bo'lgan daromad va majburiy to'lovlardan iborat bo'ladi. Aholining majburiy to'lovlari moliya tizimi orqali, har xil turdagi soliq va yigmalar shaklida amalga oshiriladi. Davlat soliq to'lovlari va yigmalarni tuplash orqali o'zini ijumoiy siyosatini amalga oshiradi, kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatadi.

## 2- §. Daromadlar tengsizligi, uning va darajasini aniqlash.

Aholi turmush darajasi tushunchasini ularning hayot uchun zarur moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi, hamda kishilar extiyojining bu ne'matlar bilan kondirilishi darajasi sifatida aniqlash mumkin.

Kishilar hayot faoliyati uchun zarur ne'matlar tuplami mehnat sharoiti ta'lim, soglikni saklash, ozik ovkat va uy joy sifati kabi xilma-xil extiyojlarni o'z ichiga oladi. Kishilar extiyojlarini qondirish darajasi jamiyat a'zolarining alohida olgan va oilaviy daromadlari darajasiga bog'liq. Turmush darajasini ilmiy darajada butun aholi uchun va tabakalashgan mikro darajada alohida guruxi uchun qarab chiqish mumkin. Birinchi yondashuv turli mamlakatlarda aholining turmush darajasini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki maxsulot ko'rsatkichi buyicha amqtab, qiyosiy taxlit qilish imkonini beradi.

1 jadval. Evropa mamlakatlarida aholi jon boshiga yalpi ichki maxsulot, 1991 y.baxo nisbati buyicha<sup>1</sup>

| Mamlakat   | Dollar ming | Mamlakatlar    | Dollar ming |
|------------|-------------|----------------|-------------|
| SHvesariya | 20.00       | CHexoslavakiya | 7.00        |
| IIIvesiya  | 16.40       | Litva          | 6.90        |
| Fransiya   | 16.25       | Vengriya       | 6.65        |
| Germaniya  | 15.30       | Rossiya        | 6.30        |
| Angliya    | 15.30       | Belorus'       | 6.10        |
| Italiya    | 13.85       | Bolgariya      | 5.30        |

<sup>1</sup> Ekonomika i biznes. Pod red. V.D. Kamaeva. - M: Izd-vo MGTU 1993, s. 372



|          |       |          |      |
|----------|-------|----------|------|
| Ispaniya | 11.65 | Polsha   | 5.20 |
| Estoniya | 80.45 | Ukraina  | 4.75 |
| Gresiya  | 7.90  | Moldava  | 4.40 |
| Latviya  | 7.90  | Ruminiya | 4.10 |

Daromadlar darajasidagi bunday sezilarli farqlar fan-texnika tarakkiyoti va mehnat unumdorligining turlicha darajasidan kelib chiqadi. Jumladan, Rossiya yalpi milliy maxsulotning YAMM xajmi buyicha 1991 y, 940 mlrd. Dollar evropada, germaniyadan keyin 1235 mlrd. Dollar ikkinchi urinni egallab, iqtisodiyotning rivojlanishi darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich buyicha 26 urinda turadi. Aholi jon boshiga daromadlar ko'rsatkichlar, jamiyat a'zolari urtasida daromadlar taqsimotining tengsizligini aks ettirmaydi.

Aholi guruxlari buyicha daromadlar taqsimlanishi dinamikasini takkoshlash, iste'molchilik byudjet asosida amalga oshiriladi. Kator iste'molchilik byudjetlari mavjud bo'ldi: o'rtacha oila uchun, yuqori darajada mul-kul byudjet, minimal moddiy ta'minlanganliklar byudjeti, nafaqaxurlar va aholi boshqa ijtimoiy guruxlari byudjeti shular jumlasidandir. Real byudjetlar, odatda rasional xisoblangan byudjetlardan farq qiladi. Masalan, sobik sssr da 80 yillarning urtalarida o'rtacha iste'molchilik byudjeti rasional byudjetining 50 foizidan ko'progini tashkil qilgan, ya'ni rasional byudjetga erishish uchun oila a'zolariga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadni ikki barobar zarur bo'lgan.

Farovonlikning eng qo'yi chegarasi oila daromadining shunday chegarasi bilan belgilash mumkinki, undan keyin aholini takror ishlab chiqarish ta'minlanmaydi. Bu daraja moddiy ta'minlanganlik minimum yoki kun kechirish darajasi qashshoqlikning boshlanishi sifatida chiqadi. Kun kechirish minimumi biologik minimumdan farq qilib ko'proq o'zgaruvchan va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayoti rivoji bilan o'zgarib boradi. Jaxon tajribasi ko'rsatadiki qashshoqlik chegarasi narx o'sishi xisobiga sezilarli darajada ortadi va iste'molning ko'payganligini aks ettirmaydi. Masalan, oilaning «qashshoqlik chegarasi» 60-yil boshlarida 3 ming dollar yillik daromad, 1987-yil 11611 dollarni tashkil qilgan. Ammo «iste'molchilik haltasi» to'plami 1965 yildan boshlab o'zgaragan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'rtacha daromad o'rtacha sinf deb ataladigan daromadlari bo'yicha aniqlanadi. Bunday gurux iste'molchilik haltasi to'plamiga uy, avtomashina, dala xovli dacha, zarmonaviy uy jixozlar, sayr qilish va bolalarini o'qitish imkoniyati, kimmatli qog'ozlar va zebu ziyatlar kiradi. AQSHda o'rtacha amerikalik oilaning shaxsiy daromadi 80-yilning o'rtalarida 32,7 ming dollar atrofida yangilangan. Madaniy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda, o'rtacha sinf, tizimi siyosiy barkarorligini hamda o'sib boruvchi talab vositasida iqtisodiy harakatning ilgarilab borishini ta'minlab iqtisodiy va siyosiy hayotda muxim ro'lb o'ynaydi. G'arb davlatlarida o'rtacha sinf daromadlari nafaqat mehnati natijasi bo'yicha takdirlashga, balki mulkka egalik qilish ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar va boshqa dalili bilan bog'liq.

Bozor iqtisodiyoti aholining yuqori ta'minlangan yoki «boy» katlami mavjud bulishini taqazo qilib, ularga aholining yuqori sifatli tovar va xizmatlar, erishishga layoqatli juda oz katlami kiradi. AQSHda aholi bu kismning shaxsiy imkoniyati 8-10 mln. Dollar baholanadi. 80 yillarning urtalarida ular AQSH butun aholisining 0,25 foizini tashkil qilgan.

### **3- §. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi omillar.**

Dunyodagi barcha mamlakatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biri bilan keskin farqlanadi. Bu turli mamlakatlar aholisining daromadlari darajasi urtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi. SHu bilan birga alohida olingan mamlakatlar aholisining turli katlam va guruxlari o'rtacha daromadlarida xam farq mavjud. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi darajasi yuqori yoki past bulishi daromadlaridagi farqlarni bartaraf kilmaydi. Xar qanday yuqori rivojlangan mamlakatlarda xam daromadlar tengsizligi saklanib koladi. Masalan, amerika kushma shtatlari dunyoda aholisining o'rtacha daromadi eng yuqori bo'lgan mamlakatlardan biri bulsada 1986 yil oilalarning o'rtacha yillik daromadi 34924 dollarni tashkil qilgan, lekin shaxsiy daromadning oilalar urtasida taqsimlanishida farqlar saklanib kolgan. Jumladan 1986 yil AQSH dagi barcha oilalarning 12 foizi, yalpi shaxsiy daromadning 2 foizi yakindan olgan. YALpi shaxsiy daromadning faqat 6 foizi yiliga 15 ming dollardan kam daromad oluvchi 22 foiz oilalarning xissasiga to'g'ri kelgan. Yiliga 75 ming dollar va undan ko'p daromad oluvchi 7 foiz oilalar xissasi yalpi shaxsiy daromadlarning 21 foizini tashkil qilgan. Bu ma'lumotlar AQSH dek iqtisodiy rivojlangan mamlakatda sezilarli darajada ekanligi ko'rsatadi.

Demak daromadlar tengsizligi barcha iqtisodiy tizimlar uchun xos. Daromadlar darajasidagi eng katta farq an'anaviy tizimlarda kursatiladi. Ma'muriy tizimdan bozor iqtisodiyotiga utish davrida daromadlar tabakalanishining o'sishi shu bilan bog'liq. bir tomondan aholining ma'lum qismi oldingi tizim o'zlashi sharoitida yashashni davom ettirsa, boshqa tomondan bozor iqtisodiyoti konunlari buyicha faoliyat qiluvchi ijtimoiy katlam shakllanib boradi. Aholining tobora ko'proq katlarni bozor munosabatlariga jalb kilinib borilishi bilan tengsizlik miqyosi kiskarib boradi.

Uz-o'zidan aniqki, iqtisodiy ush daromadlarning ko'payishiga olib keladi. Bunda butun aholi daromadlar mutlok mikdorda asta-sekin usib boradi. Daromadlarning mutlok mikdori ko'payib borsakda har doim xam daromadlar tengsizligi darajasiga ta'sir kursatmasligi mumkin.


2- jadval. Oilalarning har bir guruxi, hamda  
5 foiz eng yuqori daromadli oilalar olgan yalpi  
da romaddagi xissa %<sup>2</sup>

| Oilalar guruxi umumiy sondan<br>20% buyicha | 1929  | 1947  | 1969  | 1979  | 1987  |
|---|-------|-------|-------|-------|-------|
| Past  | 12.5  | 5.0   | 5.6   | 5.3   | 4.6   |
| Ikkinchi                                    | 12.5  | 11.8  | 12.4  | 11.6  | 10.8  |
| Uchinchi                                    | 13.8  | 17.0  | 17.7  | 17.5  | 16.9  |
| Turtinchi                                   | 19.3  | 23.1  | 23.7  | 24.1  | 24.1  |
| YUqori                                      | 54.4  | 43.0  | 40.6  | 41.6  | 43.7  |
| Jami  | 100.0 | 100.0 | 100.0 | 100.0 | 100.0 |
| Eng yuqori daromadli, 5% oila               | 30.0  | 17.2  | 15.6  | 15.7  | 16.9  |

Jadval ma'lumotlaridan kurinib turibdiki, 1929 va 1947 yillar urtasidagi daromadlar tengsizligi sezilarli kamaygan. Bu tengsizlik asta-sekin kamayib borib, eng oxirgi vaqtlarda esa ortgan. Ammo 1947 va 1987 yillardagi ma'lumotlarni to'g'ridan - to'g'ri takkoshlash shuni ko'rsatadiki, 1987 yil daromadlarni nisbiy taqsimlanishi xuddi kirk yil oldingi davridagidek bo'lgan. Bundan chiqadigan xulosa shuki, ikkinchi jaxon urushi tugagandan keyin daromadlarning taqsimlanishida nisbatan barkarorlik saqlangan. Daromadlar tengsizligi darajasini mikdoriy ulchash uchun jaxon amaliyotida lorens egri chizigidan foydalaniladi - 1-rasm «oilalar ulushi» yotiq chi ziqda, «daromadlar ulushi» esa tik chiziqda joylashgan. Nazariy jixatdan daromadlarning mutlok teng taqsimlanishi imkoniyati bissektisa ukida burchakni teng ikkiga buluvchi ifodalangan bo'lib, u oilalarning har qanday mazkur foizi daromadlarning mos keluvchi foizini olishini ko'rsatadi. Bu oilalarning 20% i barcha daromadlarning 20%ni olsa, 40%-40%, 60%-60% va x.k. ni olishini bildiradi, mos keluvchi nuktalar bissektisa ukida joylashadi. 2-jadvaldagi ma'lumotlarni grafikka kuchirib, daromadlarning amalda taqsimlanishini namoyish qiluvchi lorens egri chizigini xosil kilamiz.

<sup>2</sup> O'sha jildda. T. II s. 277.

## Lorens egri chizigi



1 rasm. Lorens egri chizigi. Mutlok tenglikni ifodalovchi chizik va lorens egri chizigi urtasidagi tafovut daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi.

Egri chiziqdagi a nuqta barcha oilalarning past daromad oluvchi 20 foiz daromadlarning 4,6 foizini olishini ko'rsatadi: v nuqta 40 foizini ko'rsatadi va x.k. Mutlok tenglikni ifodalovchi chizik va lorens egri chizigi urtasidagi farq daromad tengsizligi darajasini ko'rsatadi. Bu farq kanchalik katta bolsa, daromadlar tengsizligi darajasi ham shunchalik katta bo'ladi. Agar daromadlarning xaqiqiy taqsimlanishi mutlok teng bolsa, bunda lorens egri chizigi va bissektrisa uki bir-biriga mos kelib farq yukoladi. Rasmning koordinata uklari boshlangan karama-karshi tomonda, mutlok natenglik vaziyatikursatilganki, bunda 1 foiz oilalar 100 foiz daromadga ega, boshqa qismi hech qanday daromadga ega bulmaydi.

Lorens egri chizigidan turli davrlarda yoki turli mamlakatlarda yoki aholining turli guruxlari urtasida daromadlarning taqsimlanishini takkoslash uchun foydalanishi murrkin. Bunda soliqlar chikarib tashlangan va chiqarilmagan hamda ijtimoiy transport to'lovlari o'z ichiga olgan daromadlar xisobga olinadi.

Keyingi yillarda 1 va 2 jadvallarda foydalanilgan ma'lumotlar daromadlar tengsizligining xaqiqiy xolatini aks ettiradimi degan masalada ko'plab tortishuvlarga sabab buldi. Ayrim iqtisodchilar daromadlar tengsizligini aniqlash uchun bir yillik ma'lumotlar etarli emas deb xisoblaydi. Bunga sabab shuki, mazkur ma'lumotlar nominal daromadning taqsimlanishini ko'rsatadi va nafaqat ishchi, xizmatchilar ish xaqi, dvidentlar va foizlarni, balki ijtimoiy ta'minot buyicha nafaqalar, ishsizlik buyicha tovon to'lovlari kabi pul shaklida olinadigan transfort to'lovlarni ham o'z ichiga oladi. Bundan tashkari daromadlar haqidagi ma'lumotlardan shaxsiy daromad solig'i va ish xaqi solig'i chiqarilmagan. Daromadlar tengsizligini ifodalovchi ma'lumotlar buyicha ikkita asosiy tankidiy karashlarni kurib chikamiz.

1. Daromadlarning kengaytirilgan konsepsiyasi tarafdorlari tengsizlikni harakterlovchi ma'lumotlarga bir kator to'zatislar kiritiladi. Bu to'zatislar

shundan iboratki, u davlat tomonidan natural shaklda tekin taqsimlanadigan tovar va xizmatlarning bozor qiymatini, uy-joy uchun subsidiyalar va oziq-ovqat talonlari qiymatini hamda davlat tomonidan ta'limga beriladigan yordamlarni xisobga oladi. Bundan tashkari u aksiya, obligatsiya va kuchmas mulklar qiymatining ko'payishini, ya'ni kapitalning o'sishidan olinadigan daromadni xam xisobga oladi. Nixoyat, u ish xaqi solig'i va shaxsiy daromad solig'ini daromaddan chikaradi. Bu qo'shimchalar natijasida tasvirlangan xolat nafaqat har bir yil davomida daromadlarning ancha teng taqsimlanishini, balki tenglikning ko'payib borishining o'zok muddatli tamoyilini aks ettiradi.

2. Daromadlar tengsizligi buyicha ikkinchi karash tarafdorlari xisoblaydiki, oilaning bir umr olingan umumiy daromatlari ko'p teng taqsimlanishi mumkin. Faraz kilamiz, ali birinchi yil 1 mln sul va ikkinchi yil 10 mln sum, vali esa birinchi yil 10 mln. Sum va ikkinchi yil 1 mln. Sum ishlab topdi. Xakikatda ularning daromadi bir xil emasmi?

Bu savolga javob daromadlarni xisoblash uchun kaysi davr olinishiga bog'liq. Xar yillik ma'lumotlar daromadlarning juda katta tengsizligini ikki yillik ma'lumotlar esa to'liq tengligini ko'rsatadi. Bundan chiqadigan xulosa shuki, agar butun hayoti davomida bir xil daromad olsa xam, alohida olingan yilda daromadlarning katta tengsizligi mavjud bo'ladi. Bu karash tarafdorlari - 2 jadval ma'lumotlarini daromad oluvchilarning yosh farqlarini xisobga olib to'zatishtga korrekcirovka qilishgag' harakat qiladi. SHu asosda ular xulosa chikaradi qo'yidagicha xulosa chikaradi:

1) Agar vaqt omiliga e'tibor berilsa daromadlarning katta tengsizligi mavjud bo'ladi.

2) Urganilgan davr davomida daromadlar tengligi oshib borish tamoyili aniqlanadi.

Daromadlar tabakalanishning ko'proq qo'llaniladigan ko'rsatkichlaridan bir **didil koeffisienti** xisoblanadi. Bu ko'rsatkich 10% ancha yuqori ta'minlangan aholi o'rtacha daromatlari va 10% eng kam ta'minlanganlar o'rtacha daromadi urtasidagi nisbatni ifodalaydi.

YALpi daromadning aholi guruxlari urtasida taqsimlanishini harakterlash uchun **aholi daromadlari tuplanish indoksi** (djini koeffisienti) ko'rsatkichi qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich kanchalik katta bulsa, (ya'ni 1,0 ga yakinlashsa) tengsizlik shuncha kuchli bo'ladi. Jamiyat a'zolari daromadlari tenglashib borganda bu ko'rsatkich 0 (nol)ga intiladi.


Bozor iqtisodiyotiga utish davrida iqtisodiy barkarorlik tufayli qarab chiqilgan har ikkala ko'rsatkich usish tamoyiliga ega bo'ladi. Umumiy daromadning tabakalanishi alohida tarmoklar va faoliyat sohalarida ish xaqi darajasidagi farqlar bilan birga boradi. Milliy iqtisodiyotda o'rtacha ish xaqining ancha past darajada bulishi bilan birga uning tarmoklar, korxonalar va ishlovchilar kategoriyasi buyicha yuqori tengsizligi tarkib topadi.

#### 4-§. Davlatning ijtimoiy siyosati.

Biz bilamizki, davlatning asosiy vazifalaridan bir, daromadlarni kayta taqsimlash xisoblanadi. 2-rasm va unga qo'shimcha qilingan jadval ma'lumotlari, davlatning soliq tizimi va transfert dasturlari xaqikatda daromadlar taqsimlanishidagi tengsizlik darajasini sezilarli kamayti-rishini ko'rsatadi. Daromadlar tengsizligi kamayishining taxminan 80 foizini asosan tamsfert to'lovlari taqazo qiladi. Davlatning soliq tizimi unchalik progressiv bo'lmasa, soliqlar chiqarilmagan daromadning taqsimlanishi soliqlar chiqarilgandan keyingi daromadning taqsimlanishi unchalik farqlanmaydi. Ammo tamsfert to'lovlari daromadlar qiymatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aniqliq aytganda davlat transfert to'lovlari eng past daromad oluvchi kishilar guruxi daromadining asosiy qismi 70-75%ini tashkil qiladi va qashshoqlikni yumshatishning eng muxim vositasi xisoblanadi.

Daromadlar tengsizligining katta farqlari mavjudligining asosiy sababi bozor tizimiga asoslangan iqtisodiyotning o'z xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bizning respublikada xam bozor iqtisodiyotiga utish daromadlar tengsizligi muammosini keskinlashtiradi. Bu erda asosiy rolni mulkka uy-joy, uskuna, aksiya va boshqalar egalik omili uynay boshlaydi. Daromadlarning tabakalanish jarayoni etarli darajada tez boradi. Minimal darajadan bir necha un baravar yuqori daromadga ega bo'lgan ijtimoiy katlam shakllanadi. Daromadlarning tabakalanishi mulkiy tabakalanishni keltirib chikaradi. Vakt utishi bilan oilalarning tuplagan mol-mulki meros koldirishi sababli daromadlar tabakalanishining kuchayishi ruy beradi. Xar xil oilalar uchun turlicha iste'mol muxit yaratiladi. Ijtimoiy tenglik va daromadlar taqsimotida adolatlikning muxim muammolari kelib chiqadi. Yuqoridagilardan tashkari daromadlar tengsizligini taqazo qiluvchi o'ziga xos umumiy omillar xam mavjud. Ularning asosiylari qo'yidagilar:

1. Kishilarning unumiy layokatidagi farqlar. Kishilardagi intellektual, jismoniy va estetik layokatlar turlicha; ayrimlar nisbatan yuqori xak tulanadigan ishni bajarish uchun zarur bo'lgan favkulodda intellektual layokatni meros qilib olgan. Boshkalarning akliy layokati past xak tulanadigan faoliyat turi bilan band bulishini taqazo qiladi yoki ular umuman hech narsa ishlab topolmaydi. Uchinchi gurux kishilar juda zur jismoniy layokati tufayli yuqori xak tulanadigan etuk professional sportchi bulishi mumkin. Kamrok gurux kishilar o'zlarining estetik kobilyati tufayli buyuk rassom yoki musikashunos bulishi mumkin. Kiskacha aytganda, tugma talantlar ayrim shaxslarga yalpi maxsulotga o'zlarining xissasini kushib, shuning xisobigajuda yuqori daromad olish imkoniyatini beradi.



| Oilalar guruxi | Olingan daromad %  |  |
|----------------|--|--|
|                | Soliqlar chiqarilmagan va transfer to'lovlari x isobga olinmagan | Soliklar chiqarilmagandan va transfer to'lovlari kiritilgandan keyin |
| Past           | 1.0  | 4.7  |
| Ikkinchi       | 7.6  | 10.6   |
| Uchinchi       | 15.0   | 16.1   |
| Turtinchi      | 24.1   | 23.0   |
| YUqori         | 52.4   | 45.7   |

2 rasm. Davlat soliqlari va transfer to'lovlarning daromadlar tengsizligiga ta'siri.

2. Kishilar bir-biridan olgan ta'limi va malakali tayyorgarligi, demak o'zlarining ishlab xak topish **imkoniyati buyicha** sezilarli farq qiladi. Bu farq qisman erkin kasb tanlash natijasi hisoblanadi. Urta maktabni tugatgandan keyin ali ishchi kasbini egallashtga qaror qiladi, vali esa oliy ukuv yurtiga kiradi. Boshka tomondan bunday tanlov ixtiyoriy emas, chunki alining oilasi oliy ukuv yurtiga ukish uchun talash imkoniyatiga ega bu lmasligi mumkin.

3. «**Malakali diddagi**» farqlar tufayli daromadlar bir xil emas. Og'ir va zerikarli ishlar, masalan ko'mir qazib olish bilan shug'uilangan kishilar ko'plab soat davomida juda intensiv ishlaydi va ko'p ish xaqi oladi. Ayrimlar esa o'z daromadlarini ikki joyda ishlash xisobiga ko'paytiriladi. **Odamlar bir-biridan o'zlarining taxlikaga tayyorligi bilan xam farq qiladi.** Ko'plab tadbirkorlar muvoffakiyasizlikka duchor bulsada, **ungcha ko'p bo'lmaganlari yangi tovar va xizmatlarni joriy orqali muvofaqiyatlarga erishib, juda yuqori daromad olishi mumkin.**

4. **Mulkka ega bo'lgan** va undan daromad oluvchi kishilar urtasida bir muncha sezilarli tengsizliklar mavjud bo'ladi. Juda ko'p oilalar nochor axvolda bo'lib, ozrok yoki umuman mulkka ega bulmaydi, ozrok oilalar ko'plab mikkordagi uskunalar, kuchmas mulk, qishloq xujaligida foydalaniladigan erlar va shu kabilarga ega bo'ladi. Xususan mulkdan olinadigan daromad oilalarning axvolini belgilab beradi. Meros koldirish xukuki va «boylik boylikni tugdirish» dalili mulkka egalik qilishdagi tengsizlikning daromadlar tengsizligini oshirishdagi rolini kuchaytiradi.

5. Ishlab chikaruvchining o'z manfaati yulida bozorda narxlarni sun'iy urnatish layokati so'zsiz daromadlar tengsizligini aniqlovchi asosiy omil xisoblanadi. Ayrim kasbdagi xodimlar (sartaroshlarga, kosmitologlarga, taksi xaydovchi va shu kabilar) ga malaka lisenziyalarini berishni ko'zda tutuvchi konunchilik xam lisenziya olgan kishilarning bozorda xukmronlikni egallash uchun asos bulishi mumkin.

6. Ayrim xollarda muvaffakiyat va tasodifiy xodisalar xam daromadlar tengsizligini keltirib chikaradi. Masalan, yuqori daromadlar unumsiz erdan neft koning ochilishi bilan va shaxsiy aloka yoki siyosiy ta'sir natijasi bulishi mumkin. Boshka tomondan surunkali kasallik, baxtsiz xodisa boquvchisini yukotish va ishsizlik kabi ko'plab omadsizliklar oilaning iqtisodiy axvoliga salbiy ta'sir ko'rsatib nisbatan qashshoqlikka olib kelishi mumkin.

Davlatning milliy daromadni kayta taqsimlash vazifasidan asosiy maqsad daromadlar tengsizligidan farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a'zolari uchun ancha kulay moddiy hayot sharoitini ta'minlashdjan iborat. Bunday maqsadni ruyobga chiqarish shakli bo'lib, maxsulot va xizmatlarni taqsimlash, tamsfert to'lovlar hamda daromadlarni barkarorlashtrish buyicha davlat dasturlari mablag'larining bir qismi davlat byudjeti orqali shakllanadi va markazlangan xolda foydalaniladi. Mablag'larning boshqa qismi korxonaning o'zlarining foydalari va fondlar xisobiga tashkil topadi.

## 5- §. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari

Davlatning daromad siyosati tegishli daromadlarni tabakalashgan soliq solish yuli bilan shakllantirish va uni byudjet orqali aholi turli guruxlari urtasida kayta taqsimlashdan iborat. Bunga milliy daromadning ma'lum qismi yuqori daromad oluvchi aholi katlamidan past daromad oluvchilar kuliga utadi. Davlat daromadlarni kayta taqsimlashda ijtimoiy to'lovlar bilan birga bozor yuli bilan umatiladigan narxlarni o'zlashtrish (masalan, fermerlarga narxlarni kafolatlash) va ish xaqining eng kam darajasini belgilash usullaridan foydalanadi.

Ijtimoiy to'lovlar - kam ta'minlanganlarga pul yoki natural yordam tadbirlari tizimi bo'lib, bu ularning xujalik hayotida qatnashishi bilan bog'liq bulmaydi. Ijtimoiy to'lovlarning maqsadi jamiyatdagi munosabatlarni insonparvarlashtrish hamda ichki talabni ushlab turish xisoblanadi.



Aholi real daromadlari darajasiga inflyasiya sezilarli ta'sir ko'rsatadi. SHu sababli daromadlarni davlat tomonidan samarali tartibga solishning muxim shart-sharoitlari iste'molchilik tovarlariga narxning o'sishini xisobga olish va daromadlarni indeksasiyalash, ya'ni naminal daromadlarni narxlar o'sishiga bog'liqlikda oshirish xisoblanadi.

SHaxsiy daromadni himoya qilishda ijtimoiy siyosatning muxim yunalishga aholi kambag'al katlamini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Aholining ma'lum qismini ijtimoiy yordam olish xuquqiga ega bo'lganlar tarkibiga kiritish uchun kambag'al (qashshoqlik) darajasini aniqlovchi ko'rsatkichdan foydalaniladi.

Ijtimoiy amaliyotda qashshoqlikning o'zi hayot kechirish minimumi yordamida aniqlanadi. Bu ijtimoiy va fiziologik (jismoniy) minimumda ifodalanadi. Ijtimoiy minimum jismoniy extiyojlarni qondirishning minimal normasi (me'yori) bilan barga ijtimoiy talablarning minimal harajatlarini xam o'z ichiga oladi. Fiziologik minimum esa faqat asosiy jismoniy extiyojlarni qondirishni ko'zda tutadi.

Jumladan, Rossiyada qo'llaniladigan fiziologik minimumga asos qilib, eng muxim oziq-ovqat maxsulotlarining 19 turi olinadi va u mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklar uchun zarur iste'molning yillik normasidan kelib chiqib xisoblanadi.

Eng kam iste'molchilik byudjeti esa insonning me'yoridagi hayot faoliyatini ta'minlash uchun zarur ijtimoiy minimum vositalarini o'z ichiga oladi.

Rossiyada u 200 dan ortiq tovar va xizmatlar, shu jumladan 80 nomdagi oziq-ovqat maxsulotlari asosida tuzilgan bo'lib, o'z ichiga kiyim-bosh, poyafzal, dori-darmon, uy-ro'zgor va madaniy maishiy xizmatlarga, transportga to'lovlarni hartoki soliq to'lovlari va har xil yig'implarni xam o'z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda aholining ijtimoiy yordamiga muxtoj qismini aniqlashda turli xil mezonlar asos qilib olinadi. Ular jumlasiga daromad darajasi, shaxsiy mol-mulki miqdori, oilaviy axvoli va shu kabilar kiritiladi. Agar oilaning bu asosiy extiyojlari juda ko'plab boshqa omillar, ya'ni oila a'zolarining soni, yosh tarkibi, solig'ining xolati va shu kabilar bilan xam aniqlanadi. Oilaning o'z extiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan mablag'lari joriy daromadlar, transport to'lovlari, oldin qilingan jamg'armalar, mulkdan olinadigan daromad va shu kabilardan iborat bo'ladi. Ko'pchilik mamlakatlarda qashshoqlikni aniqlashga oilaning xajmi asos qilib olinadi.

Qashshoqlikning tarkibi bir xil emas. Ularni bir mamlakatning barcha regionlarida, shahar va qishloq aholisi, yoshlar va qariyalar o'rtasida uchratish mumkinki - bu davlat siyosatining maqsadini aniqlashni bir muncha murakkablashtiradi. Qashshoqlik darajasi yoki qashshoqlikda yashovchilar soni ayrim davrlarda pasaysa, ayrim davrlarda ortadi. Iqtisodiy rivojlanishning sekinlashuvi, ishsizlikning tez o'sishi va transport to'lovlari real darajasining pasayishi qashshoqlik darajasining oshishiga olib keladi. Iqtisodiyot to'liq bandlilik tomoni harakat qilib borishi bilan qashshoqlik darajasi asta sekin tushib

boradi. Qashshoqlik darajasini aniqlash uchun foydalaniladigan ma'lumotlar nakd pul bilan olinadigan transport to'lovlarini o'z ichiga olsa xam, lekin qashshoqlar kursatiladigan soglikni saklash xizmati, uy-joy ta'minoti, hamda oziq-ovqat talonlari kabi pulsiz kursatiladigan transport to'lovlari kiymatini o'z ichiga olmaydi. Xakikatda bu pulsiz kursatiladigan transport to'lovlari xam oila uchun daromad xisoblanadi, chunki kambag'al oilalar extiyojlarining bir qismi ular xisobiga kordiriladi. Pulsiz amalga oshiriladigan transport to'lovlarini xam xisobga olib, qashshoqlik darajasini aniqlansa, bu ko'rsatkich ancha pasayadi. /shu muqobii hisob buyicha AQSHda qashshoqlik darajasi 1987 yil 8,5 foizni tashkil qilgan/.

SHU bilan birga jamiyatdagi qashshoqlikning xarakteri va darajasi haqida guvoxlik beruvchi yuqoridagi dalil va raqamlar real xolatni to'liq harakterlab bera olmaydi. Buning sababi shundan iboratki, qashshoqlikning ko'pchilik qismi yashiringan, ya'ni ko'zga yaqqol ko'rinmaydi. Bu uchta sabab qo'yidagilar bilan izohlanadi: birinchidan, qashshoq kategoriyasini tashkil qiluvchi kishilarning ko'pchilik qismi yildan-yilga o'zgarib turadi. Tadiqiqotlar ko'rsatishicha, qashshoqlikda yashovchilarning yarmi bu kategoriyaga hammasi bo'lib bir-ikki yil davomida duchor bo'lib, keyin bu xolatdan muvoffakiyatli chiqib ketadi. Ikkinchidan, doimiy qashshoqlar katta shaharlarda ancha yashiringan xolda yashaydi. Uchinchidan, qashshoqlar siyosiy munosabatlarda kurinmaydi. Ularning asosiy massasi kasaba uyushmalarga, siyosiy partiyalarga va jamoat tashkilotlariga birlashmaydi.

Daromadlarni ushlab turishning keng doiradagi davlat dasturlari ayrim kamchiliklardan xoli bo'lmasa, ular o'z ichiga ancha katta xajmdagi pul sarflarini va nafaqa oluvchilarning asosiy qismini qamrab oladi. Davlatning daromadlar darajasini ushlab turish tizimi asosan dasturlarning ikki turini o'z ichiga oladi. Bir tomondan, ijtimoiy straxovanie dasturlari, pensiyaga chiqish va vaqunchalik ishsizlik bilan bog'liq bo'lgan daromadlarning yukotilishini qisman qoplaydi. «ijtimoiy ta'minot» /qarilik, mehnat qobiliyatini va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha straxovanie/ va ishsizlik buyicha nafaqalar ish haqidan olinadigan soliqlar xisobiga molivalashtiriladi. Boshka tomondan davlatning yordam dasturlari yoki xayr-exson dasturlaridan, ishlab o'zi daromad topa olmaydigan, mehnatga layokatsiz bo'lgan yoki karamogida bolalari bo'lgan kishilarga nafaqa beriladi.

Bu dasturlar umumiy soliq tushumlari xisobidan moliyalashtiriladi va davlatning xayr-exson dasturlari xisoblanadi. Mahalliy xokimiyatlar tomonidan beriladigan yodam, uy-joyga beriladigan subsidiyalar, minimal ish xaqi haqidagi konunchilik, fermerlarga subsidiyalar, faxriylarga nafaqalar, xayr-exson jamiyatlariga xususiy ajratmalar, ishsizlik buyicha qo'shimcha nafaqalar, pensiyalar va shu kabilar haqida gapirmaganda xam daromadlar darajasini ushlab turish tizimi qashshoqlik darajasini kamaytirishga sezilarli yordam ko'rsatadi. Boshka tomondan bu tizim keyingi yillarda ko'plab turli xil tankidiy muloxazalarni keltirib chikaradi.

1. Xayr-exson dasturlari sonini majburiy ko'paytirish juda katta boshqaruv apparatiga bog'liq bular samarasiz ma'muriy tizimni vujudga keltiradi. Boshqaruv sarflari va ko'plab dasturlar butun byudjetining ancha katta xissasini tashkil qiladi.

2. Xayr-exson dasturlari ayrim adolatsizliklarni keltirib chikaradi, chunki bir xil darajada extiyoji bor kishilar har xil nafaqalar oladi. Nafakalar xajmi bir-biridan sezilarli farqlanadi. Ularni oilalarning kaysi viloyat yoki shaharda yashashisha va u kaysi demografik va oila kategoriyasiga kirishga bog'liq geografik farq shu sababli vujudga keladiki, ayrim dasturlar buyicha nafaqalar viloyat va xududlar buyicha nazorat kilinadi. Bundan tashkari ayrim past daromad oluvchi oilalar e'tibordan chetda kolishi yoki bunga xukuki bulmagan boshqa oilalar esa undan baxramand bulishi mumkin.

3. Ko'plab daromad darajasini ushlab turish dasturlari mehnatga bo'lgan qiziqishni susaytiradi. Barcha xayr-exson dasturlarida ish xaqi ko'payib borsa, nafaqa qisqaradi. Bir nechta xayr-exson dasturlari bo'yicha yordamidan foydalanuvchi alohida shaxs yoki oila, nafaqalar xajmi va soliqlar to'lanadigan keyingi ish xaqini taqqoslab sezish mumkinki, agar ular ishlasa o'zlarining axvoli mutloq ifodada yomonlashish mumkin. Bundan tashqari ayrim xayr-exson dasturlari tashabbuskorlikni susaytirib va boqimandalikni rag'batlantirsa, ayrimlari ishlovchi va nafaqa oluvchilar o'rtasidagi ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytiradi.

Bu qator tanqidiy qarashlar davlat yordam dasturlari tizimini islox qilish zarur emasmi degan savolning tug'ili shiga olib keladi. G'arb iqtisodiyotida davlat dasturlarining ko'plab o'zgartirish shakllari tavsiya qilingan bo'lib, ulardan ikkita asosiy yondoshuv alohida diqqatga sazovordir.

1. Maxsus daromad solig'i /mds/ va 2. Mehnat faoliyatiga o'tishni rag'batlantirish rejalarini. Mazkur yondashuvlarni o'rganish bizning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitimizda foydadan xoli emasligini e'tiborga olib, ularning qisqacha tavsifini beramiz.

**Maxsus daromad solig'i.** Bu takliflardan birining mohiyati amal qilib turgan juda ko'p xayr-exson dasturlarini maxsus daromad solig'iga almashtirishdan iborat /mds/. Mdsning mazmuni shundan iboratki, oilalarning daromadi ma'lum darajadan pastga tushganda davlat ularga mds to'lib, bu oilalarni subsidiyalash zarur.

Mds, birinchidan oila daromadi ma'lum darajadan pastga tushishi mumkin bulmagan yillik kafolatlangan daromadni ko'zda tutadi. Ikkinchidan, mds nafaqalarning qisqarish koeffitsientini o'z ichiga olib, u ish xaqining turli darajasida nafaqalar qanday summaga qisqarishini ko'rsatadi. Mdsning turli muqobil variantlari mavjud bo'lib, uning mazmunini qo'yidagi shartli misol asosida qarab chiqamiz.

- 3 jadval. Maxsus daromad solig'i: /turta a'zodan iborat oila uchun doll./.

|  |               |                |
|--|---------------|----------------|
| 8000 dollar kafolatlangan daromad va 50% li naff 50% li nadaromad effisienti |               |                |
| _____  | Mds subsisiya | Umumiy daromad |

|       |      |       |
|-------|------|-------|
| 0     | 8000 | 8000  |
| 4000  | 6000 | 10000 |
| 8000  | 4000 | 12000 |
| 12000 | 2000 | 14000 |
| 16000 | 0    | 16000 |

Mdsning mazkur variantida kafolatlangan yillik daromad 8 ming dollarga teng, nafaqaning qisqarish koeffitsienti esa 50 foizni tashkil qiladi. Demak oilalarning hech qanday daromadi bo'lmasa, u mds tartibiga mos ravishda 8 ming dollar xajmida subsidiya oladi. Agar u 4 ming dollar ishlasa, bunda subsidiyadan u 2 ming dollar yo'qotadi /ya'ni 4000 dollar ish haqidan 50 foizni va uning umumiy daromadi 10 ming dollarni tashkil qiladi, 4 ming dollar ish xaqi - 6 ming dollar nafaqa/. Agar 8 ming dollar ishlab topilsa bunda subsidiya 4 ming dollarga qisqaradi va x.. Ish xaqi 16 ming dollar bo'lganda subsidiya nolga tenglashadi. Davlatning ko'plab yordam dasturlaridan mds ga o'tish butun tizimni yaxshilashi mumkin, ammo mdsning o'zi kamchiliklardan xoli emas. U ko'pincha etarli kafolatlangan daromadni ta'minlamaydi yoki mehnat faoliyatiga «qo'llash mumkin» bulmagan sarflarni o'z ichiga oladi.

Mdsning yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklari, mehnat faoliyatiga o'tishni rivojlantirish ko'plab rejalarni tug'diradiki, ular xam «nafaqadan mehnat qilishga o'tish» rejalari deb ataladi. Bu rejalar ishlash, malaka oshirish, ta'lim olishga keng imkoniyat va yordam berib, vaqti bilan nafaqa oluvchi davlatning yordamlaridan kechib, mehnat faoliyatiga kirishishini talab qiladi.

AQSHning ayrim shtatlarida qashshoqlik muammasi «nafaqadan mehnat qilishga o'tishi» rejalari yordamida ancha muvaffaqiyatli hal qilingan. Bu shtatlarning muvaffaqiyati mds dasturlarini milliy miqyosda tubdan qarab chiqish uchun tayanchni ta'minlaydi. SHu sababli kongress 1983 yil oilalarga yordam haqidagi qonun qabul qildi, u mds dasturlarini takomillashtirishning tarkibiga kirib, shu bilan mehnat faoliyatiga o'tishni rag'batlantirish uchun taklif xisoblanadi.

**Ijtimoiy siyosat** - bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yunaltilgan siyosat.

Respublikada bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy siyosat aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash va himoya qilishga qaratiladi hamda alohida yirik yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Bu yo'nalishlar I.A. Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy isloxtlarni chuqurlashtirish yo'lida»<sup>3</sup> kitobida to'liq bayon qilib berilgan.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora - tadbirlari tizimidagi eng asosiy yunalish - bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi. Bunda respublikaning o'ziga xos yondashuvi ishlab

<sup>3</sup> Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloxtlarni chuqurlashtirish yulida. T. O'zbekiston, 1995. 119-138 betlar

chiqilib. daromadlar nisbatini o'zgartirish, ish xaqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg'arma banklardagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz mikdorini bir vaqtning o'zida qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi. Daromadlar nisbatini o'zgartirishda 1993 yil joriy etilgan yangi, yagona tarif setkasi katta axamiyatga ega bo'ldi. Bu barcha toifadagi xodimlarning mehnat xaqi mikdorlarini tarif koeffitsientlari orqali, eng kam ish xaqi vositasi bilan bevosita o'zaro bog'lash imkonini berdi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo'nalishi - ichki iste'mol bozorini himoya qilish, hamda oziq-ovqat maxsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish bo'ldi. Bunga erishishda muhim maxsulotlar eksportini bojxonalar orqali nazorat qilish va yuqori boj to'lovlari joriy etish, iste'mol mollarini sotib olish uchun ishlatiladigan kuponlarni muomalaga kiritish, kundalik zarur tovarlarni me'yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta axamiyatga ega bo'ldi. Milliy valyuta joriy etilishi bilan oziq-ovqat maxsulotlarini me'yorlangan tarzda sotishdan voz kechish a erkin narxlariga o'tish imkoni yati yaratiladi.

Iqtisodiy isloxtlarning ilk bosqichida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yunalishi - aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab - quvvatlash borasida kuchli chora - tadbirlar o'tkazilganligi bo'ldi. Bu yo'nalishda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari - pensiyalar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar hamda qayd etilgan mikdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo'llar bilan himoya qilib borildi.

YALpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo'llab - qo'vvatlash tizimiga izchillik bilan o'tish - ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga, ijtimoiy himoya vositasini kuchaytirishga sifat jixatdan yangi bosqich boshlashini bildiradi.

YAngilangan ijtimoiy siyosat adolat tamoyillariga izchillik bilan rioya qilishga asoslanib, ijtimoiy ko'maklashishning mavjud usullarini va pul bilan ta'minlash manbalarini tubdan o'zgartirishni taqozo qiladi. Bu siyosat ijtimoiy himoya aniq maqsadi va aholining aniq tabaqalarini qamrab olishni ko'zda tutadi. YOrdam tizimi faqat kam ta'minlangan va mehnatga layokatsiz fuqarolarga nisbatan qo'llanilib, shu maqsad uchun davlat manbaalari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, turli tashkilot hamda jamg'armalarning mablag'laridan xam foydalaniladi.

Ijtimoiy ko'maklashishning yangi tizimida bolalar va kam daromadli oilalar yordamdan baxramand bo'luvchi asosiy kishilar hisoblanib, ular uchun hamma nafaqa va moddiy yordamlar faqat oila orqali etkazib beriladi. Bu tizimda kam daromadli oilalarga beriladigan moddiy yordam aholisi yig'inda tayinlanib va mahalla orqali etkaziladi. SHu maqsadda mahalla-larda byudjet mablag'lari, korxonalar va tashkilotlar, tadbirkorlik tuzilmalari va ayrim fuqarolarning ixtiyoriy o'tkazgan mablag'lar hisobidan maxsus jamg'armalar hosil qilindi. Faqat 1994

yilning IV-choragida shu maqsadlar uchun davlat byudjetidan 360 mln. so'm ajratiladi.

Ijtimoiy ko'maklashishning yangi tizimini mehnatga rag'batlantira-digan omillar va vositalar yangi tuzilmasi paydo bo'lishini ham taqazo qiladi.

SHunday qilib, isloxtalar davrida davlat aholining muxtoj tabaqa-larini qo'llab-quvvatlash bilan birga, o'z mehnat faoliyati orqali oilasi-ning farovonligini ta'minlashga intiluvchi kishilar uchun teng sharoit va qulay imkoniyat yaratishga harakat qiladi.

### Asosiy tayanch tushunchalar.

**Aholi daromadlari**-aholining ma'lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori.

**Nominal daromad**-aholi tomonidan pul shaklida olingan daromadlari summasi.

**Real daromad**-aholining nominal daromadlari summasining tovar va xizmatlari sotib olish layoqatidir. Aholi real daromadiga nominal daromad summasi bilan birga baholar darajasi, soliqlar va boshqa omillar ham ta'sir qiladi.

**Lorens egri chizig'i**-daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniq-lashning grafik tasviri.

**Ijtimoiy to'lovlar**-kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan tartiblar tizimi.

**Ijtimoiy siyosat**-bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlamini bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat.

### Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar.

1. Davlatning aholi daromadlarini shakllantirish siyosati deganda nimani tushinasiz? Ijtimoiy adolatni ta'minlashda bu siyosatning roli qanday?

2. Aholi daromadlar darajasini izohlang va uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab ko'rsating.

3. Turmush darajasi va uning tushunchasiga izoh bering. Turmush darajasini qanday ko'rsatkichlar tavsiflab beradi?

4. Daromadlar tengsizligining asosiy sabablarini sanab ko'rsating va ularga tushuntirish bering.

5. O'zbekistonda davlat yordam dasturlari tizimini islox qilish va uni hozirgi davrdagi asosiy yo'nalishlariga o'zingizning fikringizni bildiring.

### Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. «Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va islox etishdir», «O'zbekiston» 2005

2. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz», T. «O'zbekiston», 2000y.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari.» -T. «O'zbekiston», 1998.
4. «To'g'ridan to'g'ri xususiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprely.
5. SH. SHodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T., «Moliya» nashriyoti, 2002.
6. A. Qodirov. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
7. D. Tajiboeva. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
8. Makkonel K., Bryu S. «Ekonomiks», M.2002.
9. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Rayzberga.- Uchebnik: - INFRA-M.2004.
10. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof.M. N. CHepurina. Uchebnik: - INFRA-M.2004.
11. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsh. red. akad. V. I. Vidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA-M.2004.
12. Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
13. E. F. Borisov Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
14. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
15. Ioxin V. YA. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
16. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy. d.e.n., prof. T. V. CHEchelovoy. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalq so'zi - 25 mart.
2. CHepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov-2005.
3. SH. SH. SHodmonov, T. M. Ziyayev va M. T. YAxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
4. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovy ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

### **Veb-saytlar:**

1. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
2. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
3. <http://infoteka.economics.ru>
4. [www.finansv.ru](http://www.finansv.ru)
5. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
6. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)

7. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
8. [www.jahon.mfa.uz](http://www.jahon.mfa.uz)
9. [www.budjet.rf.ru](http://www.budjet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ro'zani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof. SH.SH.SHodmonov, G.D.Bobabekova, G.T. Xalikova tomonidan tayyorlangan «Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v predpodovanii ekonomicheskoy teorii». T-2004, «Innovatsionnye metody obucheniya v ekonomicheskoy obrazovanii» va SH.SH. SHodmonov, T.M.Ziyaeva, M.T. Yaxshievlar tomonidan tayyorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.



## 19-mavzu.

### Jahon xo'jaligi va uning rivojlanish qonuniyatlari

Kirish:

4 soat

Reja:

1-§. Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari.

2-§. Xalqaro iqtisodiy integrasiya va uning shakllari.

3-§. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi.

4-§. Xalqaro iqtisodiy integrasiyaning mohiyati, shakllari va ob'ektiv asoslari.

5-§. Qiyosiy ustunlik nazariyasi.

6-§. Jahon xo'jaligi aloqalari xalqaro tartibga solish.

7-§. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi va tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

#### Kirish.

Hozirgi zamon jahon xo'jaligi rivojining muhim tamoyili milliy xo'jalikning baynalminallashuvi, shu asosda jahon xo'jaligi va avvalo jahon bozorining shakllanishidan iborat. Bu insoniyat taraqqiyoti uchun ijobiy bo'lgan jarayonga etmish yildan ortiq davr davomida dunyoning ikki qarama-qarshi ijtimoiy siyosiy tizimiga bo'linganligi qarshi ta'sir ko'rsatib keldi. Hozir yangi davr boshlandi, dunyoning iqtisodiy rivojlanishi va shunga mos ravishda bizning respublika bilan jahon hamjamiyati mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarning butunlay yangi imkoniyatlari vujudga keldi.

O'zbekiston va jahon hamjamiyati mamlakatlari o'rtasidagi har tomonlama aloqalarning kengayishi va chuqurlashuvi butun dunyo uchun iqtisodiy va siyosiy jihatdan foydali hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi, uning milliy xo'jaligi ko'p darajada nafaqat bu mamlakatning ichki imkoniyatlari bilan balki uning xalqaro ijtimoiy mehnat taqsimotida qatnashish darajasi va miqyosi, butun insoniyat resurslari bilan aniqlanadi.

Bu holatlar jahon xo'jaligi aloqlari va milliy iqtisodiyotning iqtisodiy o'sish muammolarini alohida tahlil qilishni taqozo qiladi.

#### 1-§. Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari.

Hozirgi davrda jahon ijtimoiy rivojlanishining eng muhim xarakteri xususiyatlaridan biri-turli mamlakatlar va xo'jalik regionlari o'rtasidagi o'zaro bog'liklarning o'sib borishi hisoblanadi. Rivojlanishda milliy o'ziga hoslik ko'proq darajada o'ziga dunyoning o'sib boruvchi yaxlitligini aks ettirmoqda. Insoniyat oldida turgan jahonshunul muammolar avvalo, yadro xalokati va butun dunyo uchun umumiy bo'lgan ekologik xavflar alohida davlatlar tomonidan qabul

qilinadigan qarorlarning boshqa davlatlarga va butun dunyo hamjamiyatiga ta'sirini hisobga olishni taqozo qiladi.

Iqtisodiy rivojlanish muammolari ham milliy davlat tuzilmalari chegarasidan tashqariga chiqdi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nafaqat o'sib boruvchi o'zaro bog'liqlik muhim sohalaridan biri bo'lmay balki uning asosi ham hisoblanadi.

Jahon xo'jaligida har bir o'zgarishlar (jahon bozoridagi narxlar harakati va alohida mamlakatning eksport imkoniyatidan tortib dunyo iqtisodiyotiga tarkibiy siljishlar va xalqaro monopoliyalar faoliyatigacha) dunyodagi barcha mamlakatlar manfaatini o'ziga tortadi. Mamlakatning savdo, ishlab chiqarish, valyuta moliya sohalaridagi jahon tamoyillariga bog'liqlik ob'ektiv reallik hisoblanadi. Hozirgi davrda har qanday mamlakatni uning iqtisodi qanday rivojlangan bo'lishidan qat'iy nazar, jahon xo'jaligi aloqalariga jalb qilmasdan uning to'la qonli iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas.

YAXlit dunyo ko'p qirrali va murakkab. U o'z ichiga 160 dan ortiq milliy va rasman mustaqil iqtisodiy sub'ektlarni oladi hamda ulardan har bir iqtisodiy rivojlanish yo'nalishiga ta'sir ko'rsatishga layoqatli. Barcha mamlakatlar tarixiy-geografik, milliy, diniy va ijtimoiy siyosiy o'ziga xoslikka ega bo'lib, ular turli xil shakllarda mazkur mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga o'z xususiyatlarini kiritadi.

Dunyo bir-biridan maqsadlari, amal qilish mexanizmi bilan farqlanuvchi turli xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar, xalqaro guruhlariga bo'lingan. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash har xil mezonlar asosida amalga oshiriladi. YAqin vaqtlargacha bizning adabiyotimiz jahon hamjamiyati sosializm dunyosi, kapitalizm dunyosi va uchinchi dunyo mamlakatlari degan tushunchani singdirib keldi.

Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlashga umumiy asosda yondashib xo'jalik tizimlarining xususiyatlariga mos ravishda davlatlarning uchta guruhini ajratib ko'rsatish mumkin: rivojlangan, bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan va bozor iqtisodida mavjud bo'lmagan mamlakatlar. Rivojlanganlik darajasi bo'yicha ham o'z navbatida uchta guruh farqlanadi: kam, o'rta va yuqori rivojlangan mamlakatlar. SHimoliy-SHarqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar (YAIM), yuqori daromadli neft eksport qiluvchi mamlakatlar (Saudiya Arabistoni, Quvayt va boshqalar) eng kam rivojlangan mamlakatlar (EKVI), shu jumladan eng kambag'al mamlakatlar (CHad, Bangladesh, Efiopiya), har xil regional ittifoqlar va internasional guruhlariga ajratiladi.

Bu barcha turli-tumanlik bir butun yaxlitlikka o'zaro iqtisodiy bog'liqlikning har xil jihatlari orqali tortiladi. Hozirgi xo'jalik aloqalarining chuqurlashib borayotgan baynalminallashuvining kuchayishi fan-texnika revolyusiyasining keng qamrovli xarakteri, xabar va aloqa vositalarining butunlay yangi roli sharoitida iqtisodiyot milliy o'z-o'zini ta'minlash orqali samarali amal qilish mumkin emas.

Jahon xo'jalik aloqalari yagona tashqi savdo bitimlaridan uzoq muddatli yirik miqyosdagi savdo-iqtisodiy hamkorlikkacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan xalqaro savdodan boshlanadi. Tovarlar bilan tashqi savdo ayirboshlash-jahon iqtisodiy munosabatlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Eksport kvotasi

(eksport qiymatining YAMM qiymatiga nisbati) aholi jon boshiga eksport hajmi va boshqa tashqi savdo oqibotini xarakterlovchi ko'rsatkichlar ma'lum darajada mamlakatning jahon xo'jalik aloqalariga tortilganlik darajasi yoki iqtisodiyotning «ochiqlik» darajasini xarakterlaydi. Jahon bozori oxiri oqibatida keskin raqobat kurashi asosida ishlab chiqarish hajmi va tarkibi, xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanish darajasini aniqlaydi, ya'ni butun jahon hamjamiyatidagi iqtisodiy munosabatlar ko'p jihatdan bozor ta'siri ostida tarkib topadi. Jahon bozori, to'lov balansi va valyuta muammolari bilan birga ishlab chiqarish va kapitalning baynalminallashuvi, xalqaro mehnat taqsimoti, ishchi kuchi migrasiyasi kabilar ham iqtisodiy rivojlanishning umumjahon jihatlarini tashkil qiladi.

Jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi shunday davrlarga to'g'ri keladiki, bu davrda ishlab chiqarish omillarining harakati tezlashadi, kapital milliy chegaradan o'sib chiqadi, ishchi kuchi migrasiyasi kuchayadi, xalqaro mehnat taqsimotining shakllanish jarayoni tezlashadi. Bu shundan guvohlik beradiki, xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvini ko'p jihatdan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish mintiqi taqozo qiladi, ya'ni u milliy chegaradan o'sib chiqadi va ob'ektiv jihatdan ishlab chiqarishning baynalminallashuvini zarur qilib qo'yadi.

Milliy xo'jaliklar va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar negizida shakllangan jahon xo'jaligi asosida xalqaro mehnat taqsimoti yotadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ma'lum turklarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini ifodalaydi. Alohida mamlakatlarning bunday ixtisoslashuvi mahsulotlari ustun darajada eksportga yo'naltirilgan xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarning shakllanishiga olib keladi.

Dastlabki vaqtlarda xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi asosan tabiiy sharoitlardagi tafovutlarga asoslanar edi. Binobarin, faqat sanoat to'ntarishidan keyin, ya'ni ishlab chiqaruvchi kuchlar baynalmilal xususiyat kasb etib, milliy xo'jaliklar doirasidan tashqariga o'sib chiqa boshlagach, ularning negizidan barqaror mehnat taqsimoti va jahon bozori tarkib topadi. Hozirgi vaqtda xalqaro mehnat taqsimoti turli ijtimoiy tizimlarni o'z ichida oluvchi umumjahon xo'jaligi doirasida rivojlanmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimoti va ayirboshlashda qatnashayotgan mamlakatlar bir xil sharoitda emas. Bu hol ularning turli jo'g'rofiy ahvoli, tabiiy resurslarining tarkibi va miqdori, rivojlanish ko'lami, darajasi va iqtisodiyotini tuzilishi, ichki bozoring hajmi bilan belgilanadi.

Ana shu tafovutlar sababli ayrim mamlakatlarda bir xil tovarlarni ishlab chiqarishdagi xarajatlar darajasi ham turlicha bo'ladi. SHuning uchun har bir mamlakat o'zi nisbatan osonroq, kamroq harajat bilan ishlab chiqaradigan tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotishga va aksincha, jahon bozorida o'zidan ishlab chiqarish uchun xarajat ko'proq bo'ladigan yoki tabiiy yoxud boshqa sharoitlarga ko'ra umuman ishlab chiqarib bo'lmaydigan tovarlarni sotib olishga intiladi.

Tovarlar mamlakatlari o'rtasida jahon narxlarini asosida ayirboshlanadi. Ular baynalmilal qiymatga asoslanadi. Buning ma'nosi shuki, ijtimoiy zarur baynalmilal mehnat sarflari jahon bozorida e'tirof qilinadi. Ishlab chiqaruvchilar mamlakat ichkarisida xarajatlar ko'p bo'lganda o'rtachadan kam va xarajatlar kam bo'lganda esa qo'shimcha foyda olganlaridek, u yoki bu mahsulotni tayyorlashga nisbatan ko'p mablag' sarf qilgan mamlakatlari ham jahon bozorida raqobatlashishga layoqatsiz bo'ladi, bunday sarflar o'rtacha baynalmilal darajadan kam bo'lgan ishlab chiqaruvchilar esa o'z tovarlarini eksport qilishdan ko'proq daromad oladi.

Umuman olganda, jahon narxlarining tashkil topishi odatda, sof holda amalga oshmaydi. Baynalmilal qiymatning hosil bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi maxsus omillar jahon narxlariga ta'sir qiladi. Tashqi savdo va valyuta cheklashlari, valyutalar qiymatining o'zgarib turishi, xalqaro monopoliyalar siyosati, birjadagi chayqovchiliklar va hokazolar shular jumlasidandir. SHu sababli ayrim mamlakatlarning jahon bozorida raqobatlashuv qobiliyatidagi farqlar, pirovard natijada mehnat unumdorligining milliy darajadagi farqlarini aks ettiradi.

Mashinali bosqichdan boshlab ixtisoslashuv va kooperasiyaning tabiiy asoslarga bog'liqligi sezilarli kamayadi. Industrial o'sish bosqichi uchun ixtisoslashuv bilan o'z texnologik omillarining rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik, jahon xo'jalik aloqalarida og'irlik markazining muomala sohasidan ishlab chiqarish sohasiga o'tishi xarakterlidir.

Hozirgi davrda xalqaro mehnat taqsimoti ijtimoiy mehnat taqsimotini tashkil qiluvchi barcha tarkibiy tuzilmalarni qamrab oladi. Xalqaro ayirboshlash iqtisodiyotining yirik sohalari (sanoat, qishloq xo'jaligi) o'rtasidagi, bu sohalarda ichidagi mehnat taqsimotini ifodalab, texnologik va predmetli ixtisoslashuvni chuqurlashtiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda keyingi o'n yilliklarda yangi texnologik asrlarga o'tish jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi bilan birga bordi. Takror ishlab chiqarish jarayonlarining baynalmilallashuvi o'zining har ikkala shaklida: integrasion (milliy xo'jaliklarning yaqinlashuvi, o'zaro moslashuvi orqali) va transmilliy (xalqaro ishlab chiqarish majmuasining tuzilishi orqali) shakllarida kuchayadi. Jumladan, butun dunyoda regional davlatlararo iqtisodiy integrasiyaning qaror topish tamoyili kuzatiladi. Jumladan, rivojlangan Evropa integrasion hamjamiyati (EI) doirasida tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchining erkin harakati amalga oshiriladi. SHimoliy Amerika umumiy iqtisodiy hamkorlik AQSH, Kanada va Meksika iqtisodiyotining integrasiyasini ko'zda tutadi. Davlatlararo integrasiyaning kuchayishi janubiy-sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo, Arab dunyosi, Afrika va Markaziy Amerika mamlakatlari uchun ham xarakterli bo'lmoqda.

## 2-§. Xalqaro iqtisodiy integrasiya va uning shakllari.

Xalqaro mehnat taqsimoti xalqaro iqtisodiy munosabatlar, ya'ni turli mamlakatlar iqtisodiy gumashalari o'rtasidagi xo'jalik aloqalari negizida yotadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- tovar va xizmatlar bilan xalqaro savdo;
- kapital va chet el investitsiyalarining harakati;
- ishchi kuchining migrasiyasi;
- ishlab chiqarishning davlatlararo kooperasiyasi;
- fan va texnika sohasidagi ayirboshlash;
- valyuta-kredit munosabatlari;

Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishi natijasida jahon bozori tarkib topadi. Jahon bozorida tovar va xizmatlarning xalqaro harakati sifatida qarash mumkin. Jahon bozori o'zining rivojlanishida bir qator bosqichlardan o'tadiki, ulardan har biri milliy xo'jalikning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga ega jalb qilinishing ma'lum darajasi bilan xarakterlanadi.

Jahon bozori XVI asrda, buyuk geografik kashfiyotlar davrida tug'ildi. XVI-XVIII asrlardagi jahon bozori uchun bozor iqtisodiyoti tarkib topishi ro'y bergan G'arbiy Evropa mamlakatlari bilan an'anaviy tizim xukmron bo'lgan boshqa mamlakatlar o'rtasidagi noekvivalent savdo xarakterli bo'lgan. XVIII asr oxirida va XIX asrda g'arbiy Evropa va SHimoliy Amerikadagi etakchi mamlakatlar yirik sanoat ishlab chiqarishiga o'tishi jahon bozori rivojini ancha yuqori bosqichga olib keldi.

XIX-XX asrlarda jahon bozori uchun kapital eksport qilish va milliy xo'jaliklar ishlab chiqarish aloqalarining kuchayishi xos bo'ldi.

Kapitalning xalqaro harakati - bu kapitalning chet elda joylashtirilishi va faoiyati qilishi. U chet elga quyidagi shakllarda chiqariladi:

- xususiy yoki davlat kapitali shaklida; Kapitalning xalqaro tashkilotlar yo'li bilan harakati ko'pincha mustaqil shakl sifatida ajratiladi.

- pul va tovar shaklida; Jumladan, kapital chiqarish mashina va uskunalar, patentlar, nou-xau hamda tovar kreditlari shaklida bo'lishi mumkin.

- qisqa va uzoq muddatli kreditlar shaklida;

- ssuda va tadbirkorlik shaklida. Ssuda shaklidagi kapital qo'yilmalar bo'yicha foiz, tadbirkorlik shaklidagi kapital esa foyda keltiradi. Tadbirkorlik kapitali to'g'ridan-to'g'ri va portfelli investitsiyalardan iborat bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar shu kapital hisobiga qurilgan ob'ekt (korxonalar) ustidan nazorat qilish xuquqini beradi, portfelli investitsiyalar esa bunday huquqni bermaydi. U odatda aksiya paketlari, hamda obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar shaklida beriladi.

Hozirgi davrda kapital chiqarishning turli-tuman shakllaridan to'g'ridan-to'g'ri xususiy investitsiyalar, xalqaro moliyaviy muassasalar kreditlari, davlat qarzlari alohida o'rin tutib, rivojlanib va chuqurlashib borayotgan jahon xo'jalik

aloqalarining muhim xarakterlantiruvchi kuchi bo'lib qoldi, Agar XX asrning birinchi yarmi uchun kapital oqimining asosiy yo'nalishi rivojlanayotgan mamlakatlar hisoblangan, oxirgi o'n yilliklar kapitalning rivojlangan mamlakatlari o'rtasida o'zaro oqimining kuchayishi bilan xarakterlanadi.

Keyingi yillarda kapitalning xalqaro xarakati sohasidagi yangi tamoyillarga investitsiyalar oqimining rivojlangan mamlakatlarda o'sishi va rivojlanayotgan mamlakatlarda nisbatan qisqarishi bilan birga, qator rivojlangan mamlakatlar yirik kapital eksportyorlaridan uning importyorlariga aylanishi, bir qator rivojlanayotgan mamlakatlar esa kapital investorlariga aylanishi, chet el kompaniyalarining Evropa hamjamiyati mamlakatlaridagi faolligining o'sishi, chet el investitsiyalari xajmining SHarqiy Evropa va MDH mamlakatlaridagi o'sishi kabilarni ta'kidlash mumkin. SHu bilan birga kapital eksportni xalqaro iqtisodiy aloqalarda uskunalarni uzoq muddatli ijaraga berish (lizing), muhandislik qurilish xizmati, texnologik, moliyaviy va boshqa xizmatlar ko'rsatish kabi yangi shakllarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Hozirgi davrda chet elda faoliyat qiluvchi kapital miqdori juda katta. 1996 yilda butun dunyoda jam'arilgan faqat to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 3 trln. Dollar atrofidagi summani tashkil qilgan. BMT ma'lumotlari bo'yicha, chet el kapitaliga asoslangan korxonalarda 1993 yil 6 trln. Dollarlik tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilgan.

Unyoda 40 ming trans milliy kompaniyalar (TMK)ning 270 mingdan ko'proq chet el filiallari hisobga olingan.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ancha murakkab jihatlaridan biri ishchi kuchining xalqaro migrasiyasi hisoblanib, u o'z ifodasini mehnat resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlash maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishida topadi.

Xalqaro migrasiya jarayonini iqtisodiy omillar bilan birga siyosiy, emik, madaniy, oilaviy va boshqa xarakterdagi omillar ham taqozo qiladi.

Xalqaro migrasiya ikkita asosiy tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: emigrasiya va immigrasiya. Emigrasiya-mamlakatlardan doimiy yashash joyiga chiqib ketishni, immigrasiya-mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishni bildiradi.

Xalqaro migrantlar beshta asosiy turkumga bo'linadi:

-immigrantlar va noimmigrantlar, ya'ni mamlakatga yashirincha qo'yilganlar;

-shartnoma bo'yicha ishlovchi migrantlar. Ko'pchilik mamlakatlar iqtisodiyoti chet el ishchi kuchiga bog'liq bo'ladi. SHu sababli bu mamlakatlar ishchi kuchi nisbatan ortiq bo'lgan mamlakatlar bilan ularni yollash bo'yicha shartnoma tuziladi;

-nolegal immigrantlar. Deyarli barcha industrial rivojlangan mamlakatlar o'zidan nolegal immigrantlarga ega bo'ladi;

-boshpana so'rovchi shaxslar. 80 yillardan keyin migrantlarning bu turkumi mamlakatdagi siyosiy vaziyatning o'zgarishi hamda og'ir iqtisodiy ahvol tufayli keskin ko'paydi.

-qochoqlar BMT ma'lumotlari bo'yicha 90 yillar boshlarida dunyoda 17 mln.dan ko'proq qochoqlar hisobga olingan hozirgi kundagi qochoqlarning asosiy ko'pchiligi urush qurbonlari hisoblanadi.

Ishchi kuchining xalqaro migrasiyasi bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan ob'ektiv jarayon. Xo'jalik hayotining baynalminallashuvi o'sishi bilan xalqaro migrasiyaning ahamiyati ham ortib boradi. Xalqaro migrasiyaning asosiy oqimi keyingi o'n yilliklarda AQSHga to'g'ri keladi. 80 yillarda AQSH aholisi o'sishining 39% immigratlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Migrantlar jalb qilinadigan boshqa yirik markaz G'arbiy Evropa hisoblanadi. Bu mamlakatlarda chet el ishchi kuchining o'rtacha yillik o'sishi 600 ming kishini tashkil qiladi. (oila a'zolari bilan birga 1,3 mln. kishiga yaqin). Evropada immigrasiya miqyosi bo'yicha Germaniya, Fransiya va Angliya etakchi o'rinda turadi.

Fan-texnika yutuqlari bilan xalqaro ayirboshlash har bir shakllarda amalga oshiriladi. U ilmiy-texnikaviy axborotlar, mutaxassislar, fan sohasi xodimlari bilan ayirboshlashni, tadqiqot va yangiliklarni lisenziya asosida berishni, ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazishni, umumiy fan texnika va texnologiyani ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma tadbirkorlikni o'z ichiga oladi.

Ilmiy texnikaviy hamkorlikning muhim shakllaridan biri injiniring hisoblanadi. Xalqo injiniring bir davlat tomonidan boshqasiga sanoat va boshqa ob'ektlarni loyihalashtirish va qurish jarayoniga kerakli hisob-kitob loyihalarini berish hamda injinerlik-qurilish xizmati ko'rsatishdan iborat bo'ladi.

Fan texnika sohasidagi ayirboshlashda texnologik hamkorlik alohida o'rin egallab, u energianing ana'naviy manbalariga bog'liqlikning kamayishiga olib keldi. Bu xalqaro tovar aylanishida agrar xom-ashyo tovarlari hissasini kamaytirdi va o'z navbatida xom-ashyochiqarishga ixtisoslashgan mamlakatlar iqtisodiy axvolini yomonlashtirdi va ularning valyuta daromadlarini qisqartirdi. SHu bilan birga jahon bozorining o'zgarib boruvchi ehtiyojlariga moslashish zarurligi, FTRsi yutuqlarini joriy qilish, xalqaro mehnat taqsimoti tizimiga jalb qilinish texnologik hamkorlikni iqtisodiy rivojlanishning muqobilsiz turiga aylantiradi.

### 3-§. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi.

**Jahon infratuzilmasi.** Tovarlar, ishchi kuchi, moliyaviy vositalarning milliy chegaralar orqali to'xtovsiz o'sib boruvchi xarakati butun jahon infrastrukturasi rivojlanishi va takomillashuvini tezlashtiradi. Juda muhim transport tizimi (dengiz, daryo, havo, temir yo'l transporti) bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotining rivojlanishida axborot kommunikasiyalar tarmog'i tobora ko'proq ahamiyat kasb etib boradi. Munosib umumjahon infrastrukturasini bo'lmasa, hozirgi ishlab chiqaruvchi kuchlarning baynalminallashuvini rivojlantirib bo'lmaydi. Bunday infrastrukturaning ayrim tarkibiy qismlari jahon savdosi vujudga kelayotgan, jahon bozori tashkil topayotgan vaqtda paydo bo'lgan.

Dengiz kemachiligi qadim zamonlardan beri qit'alami bir-biriga bog'lab kelgan bo'lsa, zamonnaviy infrastruktura jahon xo'jaligi tarkib topgan sharoitda gina mustaqil ahamiyatga ega bo'ladi. U so'nggi o'n yilliklarda, dunyo mamlakatlari bog'lovchi barcha bo'g'inlarning mustahkamlanishi asosida yanada ko'proq o'sdi.

Hozirgi jahon yuk tashish tizimi dengiz, daryo, havo, temir yo'l va avtomobil transportini o'z ichiga oladi. Har bir yuk tashish turi transport vositalari uchun ulaming ishlash sharoiti-yo'llar, portlar, ombor xo'jaligi, harakat qoidalari, yuk hamda passajirlar tashish va shu kabilar uchun umumjahon o'lchovlariga ega bo'ladi. Mazkur masalalarni kelishib hal etishni barcha mamlakatlarni o'zaro bog'lovchi jahon transport yo'llarining rivojlangan tizimi zarur qilib qo'yadi. Jahon iqtisodiyotini rivojlantirish uchun yuk tashishning ahamiyati benihoya katta. Keyingi yillarda xalqaro quvurlar o'tkazish keng yoyildi: ulardan gaz, neft, neft mahsulotlarini oqizish uchun kengfoydalanilmoqda. Quvur transporti Evropa, Osiyo mamlakatlari, Amerika qit'asidagi davlatlarni bir-biriga bog'lamoqda. Fan-texnika revolyusiyasi tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Texnika taraqqiyoti darajaga etdiki, radio va telesignallar uchun, sun'iy yo'ldoshlar va kosmik aloqadan keng foydalanish uchun hech qanday to'siqlar yo'q. Tegishli axborotni tezda va o'z vaqtida olish ko'p xo'jalik tarmoqlari uchun nihoyatda muhim bo'lgan meteorologik vaziyatni doimo nazorat etib va prognoz qilib turishga imkon beradi, iqtisodiy taraqqiyot bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'pgina masalalarni hal qilishni (tovar va valyuta bozorlarining axvolini, yo'lda ketayotgan yuklarning qaerga etganligini va hokazolarni bilib turishni) tezlashtiradi.

Hozirgi davrda birjalar, moliya markazlari, yirik sanoat va savdo birlashmalari misli ko'rilmagan tezlik bilan operativ ma'lumotlar olishga va ularni ishlab chiqishga imkon beruvchi eng yangi texnik vositalar bilan jihozlangan. Rivojlangan mamalakatlarda keng tarmoqli axborot majmuasi tashkil topmoqda, uning ta'siri amalda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalariga yoyilmoqda. Axborot aloqa vositalarini butun jahon xo'jaligida ahamiyati beqiyosdir.

Hozirgi sharoitda ilmiy va tijorat axboroti ayniqsa qimmatlidir. SHu sababli turli xalqaro darajalarda maxsus «ma'lumotlar banklari» tashkil topmoqda, bular ilmiy va ishlab chiqarish maqsadlari uchun zarur axborotni qidirib topishni ancha qisqartiradi. Jahon infrastrukturasi turli ziddiyatlarni bartaraf qilish orqali rivojlanadi. Bulardan biri-infrastrukturaning turli elementlari (transport, aloqa, axborot va hokazolar) ichidagi raqobatlashuvchi bo'g'inlarning ziddiyatlaridir.

Boshqalari-ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlar aks ettiradi. Biroq jahondagi tamoyil shundaki, iqtisodiy taraqqiyotning tabiiy, tarixiy jarayoni ishlab chiqaruvchi kuchlarning yanada baynalminallashuviga tobora ko'proq ko'maklashadi; bu kuchlar, o'z navbatida, infrastrukturaning butun dunyo miqyosida kengayishi va mustahkamlanishi uchun moddiy negiz bo'ladi.



Xalqaro ayirboshlash tovarlarda materiallashgan shakllardan nomaterial aloqalarga tobora ko'proq o'rin bo'shatadi, ya'nifan-texnika yutuqlari, ishlab chiqarish va boshqa tajribasi, xizmatning boshqa turlari bilan ayirboshlash o'sib boradi. Hisob-kitoblarga ko'ra hozirgi kunda xizmatlar jahon yalpi milliy mahsuloti (YAMM)ning 46 foizini tashkil qiladi.

#### 4-§. Xalqaro iqtisodiy integrasiyaning mohiyati, shakllari va ob'ektiv asoslari.

Xalqaro iqtisodiy integrasiya-bu mamlakatlarning chuqur, barqaror o'zaro aloqalarning rivojlanishi va milliy xo'jaliklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xo'jalik-siyosiy aloqalarining birlashish jarayonlari.

Xalqaro iqtisodiy integrasiyaning asosiy shakllari quydagilar:

-erkin savdo zonalari. Bu iqtisodiy integrasiyaning eng oddiy shakli bo'lib, uning doirasida qatnashuvchi-mamlakatlar o'rtasidagi savdo cheklashlari bekor qilinadi. Bunga Evropa erkin savdo uyushmasi va MDH mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro bitim misol bo'la oladi;

-boj ittifoqi. Iqtisodiy integrasiyaning bu shakli erkin savdo zonalarning faoliyat qilishi bilan birga yagona tashqi savdo ta'rifi o'rnatishni va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosati yuritishni taqozo qiladi. Evropa Ittifoqi (EI) boj ittifoqiga yorqin misoldir;

-to'lov ittifoqi. Bu milliy valyutalarning o'zaro erkin almashuvini va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilishini ta'minlaydi. Evropa hamjamiyati, janubiy-Sharqiy Osiyo va MDH mamlakatlari uchun to'lov ittifoqi pirovard maqsaddir;

-umumiy bozor. Bu iqtisodiy integrasiyaning ancha murakkab shakli bo'lib, uning qatnashchilariga erkin o'zaro savdo va yagona tashqi savdo ta'rifi bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati, hamda o'zaro kelishilgan iqtisodiy siyosat ta'minlanadi. Bunga yana Evropa iqtisodiy ittifoqi yoki Evropa umumiy bozorini misol qilib keltirish mumkin. Uning doirasida barcha boj to'lovlari va import me'yor (kvota)lari bekor qilinadi, boshqa mamlakatlardan Evropa bozoriga tovarlar kirishi bir xil tartib solinadi, pul mablag'lari va ishchi kuchining chegaradan erkin o'tishi ta'minlanadi hamda umumiy muammolarni hal etishda yagona siyosat o'tkaziladi;

-iqtisodiy va valyuta ittifoqi davlatlararo iqtisodiy integrasiyaning eng oliy shakli hisoblanadi. Bunda iqtisodiy integrasiyaning barcha qarab chiqilgan shakllari umumiy iqtisodiy va valyuta-moliyaviy siyosat o'tkazish bilan birga uyg'unlashadi.

Xalqaro iqtisodiy integrasiya jarayoni ob'ektiv xarakterdagi bir qator omillar taqazo qiladiki, ularning ichidan quydagilar asosiy o'rinni egallaydi:

- xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvi;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- umumiy jahon fan-texnika rivojlanishi;

-milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi.

Iqtisodiy integrasiya qatnashuvchi mamlakatlar uchun bir qator qulay shart sharoitlarni ta'minlaydi.

**Birinchi**dan, integrasion hamkorlik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga butun region miqyosida iqtisodiy resurslarning barcha turlari va eng yangi texnologiyaga ega bo'lishi uchun keng yo'l ochadi. **Ikkinchi**dan, mamlakatlarning mintaqaviy doirada o'zaro iqtisodiy yaqinlashuvi uchun qulay shart-sharoit yaratiladi, ulami uchinchi mamlakat tomonidan bo'ladigan raqobatdan ma'lum darajada himoya qiladi. **Uchinchi**dan, integrasion o'zaro ta'sir uning qatnashchilariga eng keskin ijtimoiy muammolarni birgalikda hal qilish imkonini beradi.

Mintaqaviy integrasion ittifoqlarning shakllanishi shartnomali xuquqiy asosga ega. Ko'p sonli bunday integrasion guruhlar ichidan G'arbiy Evropada 15 davlatni o'z ichiga olgan Evropa ittifoqini, SHimoiy Amenkada-erkin savdo to'g'risida SHimoiy Amerika kelishuvini (AQSH. Kanada va Meksika), Osiyo-Tinchokeani mintaqasida-Tinchokeani hamjamiyatini, Evro-Osiyoda-MDHni ajratib ko'rsatish mumkin.

#### 5-§. Qiyosiy ustunlik nazariyasi.

Qiyosiy ustunlik nazariyasi. Iqtisodiy rivojlanishning milliy andozasidan jahan andozasiga o'tish va xalqaro iqtisodiy integrasiyaning rivojlanishi mamlakatlarning xaqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashishi milliy iqtisodiy manfaatlariga qanday darajada javob beradi degan savolni qo'yadi. Bu savolga javob topishga iqtisod fani ilgari qiziqib kelgan. Jumladan, A.Smit xalqaro mehnat taqsimoti masalasini tahlil qilib, qanday tovarlarni eksport qilish va qaysilarini import qilish qulayligi to'g'risidagi o'z qarashlarini bayon qilish asosida «mutloq ustunlik» nazariyasini ilgari surgan. D.Rikardo o'zaro foydali savdo va xaqaro ixtisoslashuvning ancha umumiy prinsiplarini shakllantirib, «qiyosiy ustunlik» nazariyasini ishlab chiqqan. U nafaqat milliy xo'jaliklar o'rtasidagi, balki milliy xo'jalik ichidagi mintaqalar, korxonalar o'rtasidagi har qanday mehnat taqsimotining ustunliklarini asoslab beradi. Rikardo «qiyosiy ustunlik» nazariyasida bir mamlakat boshqa mamlakatga qaraganda barcha tovarlarni ancha past xarajatlar bilan ishlab chiqarsa va xatto, agar bir mamlakatda qiyosiy xarajatlar o'rtasidagi farq boshqa mamlakatga qaraganda katta bo'lsa ham ayirboshlash maqsadga muvofiq hisoblanishini ko'rsatdi. Rikardo oddiygina qilib ikki mamlakat (Angliya, Portugaliya) va ikki tovar (vino, movut)ni misol qilib oladi. U ishlab chiqarish xarajatlarini shartli ravishda ish vaqti bilan hisoblaydi. Rikardoning misolida Portugaliyada ishlab chiqarish Angliyaga qaraganda ancha samarali.

1-jadval. Qiyosiy ishlab chiqarish xarajatlari.

| Mahsulot | Ishlab chiqarish xarajatlari, ish kun |         |
|----------|---------------------------------------|---------|
|          | Portugaliya                           | Angliya |
| vino     | 8                                     | 12      |
| movut    | 9                                     | 10      |

Biz Rikardoning ish usulidan foydalanib mutloq emas, balki nisbiy samarani taqqoslashimiz zarur. Portugaliya movut ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar, vino ishlab chiqarishga qilingan sarflarning 9-8 qismini tashkil qiladi. Angliyada esa 10-12, ya'ni nisbatan kam. Vino bilan vaziyat qarama-qarshi. Portugaliyada vino ishlab chiqarishga qilingan sarflar, movut ishlab chiqarish uchun qilingan sarflar bilan taqqoslanganda, Angliyaga qaraganda kam  $10/9 < 12/10$ . Demak, Portugaliya mehnat sarflarini tejash nuqtai nazaridan mehnat va kapitalni vinochilikda to'plashi va movut ishlab chiqarish uni Angliyadan import qilish bilan almashtirishi foydali. Angliya uchun movut ishlab chiqarishga ixtisoslashuv foydali, chunki u qiyosiy ustunlikka ega.

Agar mamlakatlar o'rtasida savdo-sotiq boshlansa, bunda Angliyada ishlab chiqarilgan nisbatan arzon movut, avvalo uning Portugaliyadagi ishlab chiqaruvchilarini jahon bozorida siqib chiqaradi. Portugaliyaning vino ishlab chiqarishga, Angliyaning esa movut ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi har ikki mamlakatga foyda keltiradi. Bunday ixtisoslashuvdan aholi ham yutadi. Bir xil pul daromadi portugaliyaliklarga ko'proq arzon import movut va angliyaliklarga ko'proq arzon portugaliya vinosini sotib olish imkonini beradi. Boshqa aytganda, real ish haqi ko'payadi.

Rikardoning misolida inflyatsiya va ishsizlik, mehnat unumdorligidagi o'zgarishlar va eksportli tarmoqlarga davlat tomonidan kiritiladigan cheklashlar hisobga olinmaydi.

Xalqaro ayirboshlashda davlat tomonidan cheklashlar hisobiga olinadigan samarani yaxshi tushunish uchun, davlat proteksionistik tadbirlar qo'llaydi deb faraz qilamiz. Aytaylik, portugaliyaliklar mahalliy to'qimachilik sanoati uchun bojxona himoyasini talab qiladi. Bunday himoya taqiqlovchi xarakterga ega bo'lmasligi mumkin, chunki bojxona to'lovlari, soliqlar va boshqa tadbirlar yordamida angliya movutining narxi sun'iy ravishda oshiriladi. Xuddi shunday mahalliy tovarlar narxi ham ko'tariladi. Har ikkala mamlakat milliy tarmoqlari rentabelligining barobarlashuvi ro'y beradi. Unumdor vinochilik tarmog'iga kapital va ishchi kuchining tarmoqlararo oqib o'tishiga rag'bat bo'lmaydi. Chunki mohiyat bilan faqat ancha qo'loq tarmoqni sun'iy ushlab turish holati ro'y beradi.

Savdo erkinligini to'liq cheklavchi, taqiqlovchi tariflar yanada salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ishlab chiqaruvchilar davlat himoyasida narxlarni shunday oshirishi mumkinki, natijada to'qimachilik ishlab chiqarishi vinochilikka qaraganda foydali bo'lib qoladi.

Bojxona tariflari va kvotalarini kiritish aholining real ish haqining pasayishiga olib kelishi ham mumkin. Chunki ancha yuqori narxlarga to'qnash kelgan iste'molchilar o'zlarining iste'molini qisqartirishga majbur qiladi.

Mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdo munosabatlari o'rnatilganda ayirboshlash qanday nisbatlar asosida ro'y beradi degan savol tug'iladi. Rikardoning xalqaro ixtisoslashuv ustunliklari haqidagi xulosalari, bu muammoni chuqurroq tadqiq qilish uchun boshlang'ich nuqta bo'ladi. Jumladan, Dj Mill's ishlab chiqarish xarajatlarining turli nisbatlari o'rtasida o'rnatiladigan almashuv mutanosibligi tovarlar bu turlaridan har biriga jahon taklifi va talabi hajmiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy nazariyada xalqaro ixtisoslashuvning ustunliklarini asoslash Rikardoning klassik sxema bilan cheklanmagan. XX asrda xalqaro ixtisoslashuvning qonuniyatlarini ko'plab iqtisodchilar: jumladan, S.Xeksher, B.Olin, Dj.Keysen, V.Leontev va boshqalar tomonidan taqiq qilindi. Xalqaro ixtisoslashuvning qonuniyatlarini yanada chuqurroq tushunish qiyosiy harajatlar tahlili asosida ko'p omilli andoza tuzishga olib keldiki, unda tovarlar xarakati bilan birga ishlab chiqarish omillarining davlatlararo erkin xarakati imkoniyatlari hisobga olindi. O'tkazilgan tadqiqotlarda nafaqat tarmoqlararo, balki tarmoqlar ichida va mintaqa o'rtasidagi ixtisoslashuvning qonuniyatlari, mamlakatning material kapital, mehnat va fan sig'imiga tovarlarga ixtisoslashuv sabablari ochib berildi. Ixtisoslashuvga fan va texnika taraqqiyoti hamda texnologik o'zgarishlar sur'ati va xarakteri ta'sirining xususiyatlari aniqlanadi.

## 6-§. Jahon xo'jaligi aloqalari xalqaro tartibga solish.

Butun jahon xo'jalik hayotining bayналminallashuvi davlatlararo xo'jalik aloqalarni tartibga solishning mexanizmini yaratish zarurligiga olib keldi. Hozirgi davrda qandaydir tartibga soluvchi tuzilma amal qilmaydigan xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasini topish qiyin. Jumladan, moliya, valyuta va kredit sohaslarida xalqaro valyuta fondi (XVF-MVF), xalqaro ta'mirlash va rivojlanish banki (XTRB-MBRR), jahon savdosi sohasida-tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (TSBK-GATT)ni ko'rsatish mumkin. Ammo, butun jahon xo'jaligida iqtisodiy aloqalarning rivojlangan shakli bo'lib, jahon bozori chiqadi. Hozirgi sharoitda milliy va jahon miqyosida bozor uchun tartibsiz va tartibga soluvchi jarayonlarning qo'shilib ketishi xos.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish milliy tashkiliy shakllardan boshlanadi. Xo'jalik hayotining bayналminallashuv jarayoni dastlab milliy davlatlar faoliyatini xalqaro uyg'unlashtirishga, keyin esa davlatlararo va xalqaro tashkilotlar tuzilishiga olib keldi.

Xuquqiy ma'noda tartibga solish xalqaro tartiblarni o'rnatishga, ya'ni meyoriy normalar va qoidalarni aniqlovchi kelishuvlarni ishlab chiqarishni yoki xalqaro aloqalarning qandaydir sohasini hal qilishda tomonlarga majburiyatlarga amal qilishni yuklaydi. Umumqabul qilingan standartlar va qoidalarni o'z ichiga

oluvchi xalqaro tartiblar o'z navbatida milliy tatibga solishga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Birinchi xalqaro tashkilotlar 20-yillarda tuzilgan bo'lsada (Millatlar ligasi-1919y, Xalqaro hisob-kitoblarbanki 1929y.). Hozirgi davrda amal qiluvchi, xalqaro darajada jahon xo'jalik aloqalarini ko'p tomonlama tartibga soluvchi tizimlar ikkinchi jahon urushidan keyin shakllana boshladi.

1945 yil maxsus xalqaro uyg'unlashtiruvchi muassasalar-Xalqaro valyuta fondi (XVF-MVF) va Xalqaro ta'mirlash va rivojlantirish banki (XTRB-MBRR) tuzildi. Hozirgi davrda ham ularning ikkalasi muhim xalqaro tashkilot hisoblanadi: jahon savdosi, xalqaro kredit va valyuta munosabatlari sohalarini davlatlararo tartibga solishning tartib-qoidalarini aniqlab beradi. Urushdan keyingi davrda tuzilgan tariflar va savdo bo'yicha bosh keli shuv (TSBK-GATT) Evropa iqtisodiy hamkorligi tashkiloti (EIXT-OEES), NATOning iqtisodiy masalalarni uyg'unlashtiruvchi komiteti (IMUK-KOKOM) xalqaro iqtisodiy munosabatlarni liberallashtirish davriga to'g'ri keladi.

Jahon savdosini liberallashtirish ko'p tomonlama shartnoma asosida harakat qiluvchi, xalqaro savdo tartib qoidalarini qayd qiluvchi xalqaro tashkilot (TSBK-GATT) doirasidagi faoliyat bilan bog'liq. Hozirgi davrda TSBK jahon savdo oborotining 4/5 qismidan ko'prog'ini tartibga soladi. TSBK milliy va regional darajada vaqti-vaqti bilan kuchayib boruvchi proteksionizmga qarshi turadi, milliy manfaatlarini esa keltirishga yordam beradi. Uning faoliyati savdo kamsitmaslik, savdoda tarifli va tarifsiz cheklashlarni aniqlashda o'zaro yon berish, teng asosda maslahatlashish kabi prinsiplarga asoslanadi. TSBK faoliyatining asosiy shakli qatnashuvchi tomonlarining ko'p tomonlama savdo muzokaralarini o'tkazish hisoblanadi.

Ammo jahon savdosi raqobat kurashi asosida boradi, shu sababli o'zaro maqbul qarorlarni qidirib topishga va savdoni xalqaro tartibga olishga ko'plab qiyinchiliklar bilan erishi ladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yana bir ahamiyatga molik sohasi-bu valyuta-moliya sohasidir. Xalqaro moliyaviy munosabatlarni uyg'unlashtirish XVF (MVF), XTRB (MBRR), iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IXRO-OESR), xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU-MAR), Xalqaro moliyaviy korporasiya (XMK-MFK) va shu kabilar doirasida amalga oshiriladi. G'arbdagi etti etakchi mamlakatlarning har yillik kengashi bu sohada muhim ro'lni o'ynaydi.

Valyuta-moliyaviy sohani xalqaro uyg'unlashtirishning kuchayishi ko'p jihatdan XVFnining faoliyati bilan bog'liq. U o'zining nizomiga muvofiq valyuta kurslari va a'zo mamlakatlar to'lov balanslarini tartibga soladi, ko'p tomonlama to'lov tizimlari va rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi qarzolarini nazorat qiladi, a'zo mamlakatlar ularning valyuta moliya muammolarini hal qilish uchun kredit beriladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda tarkibiy qayta qurishlarni moliyalashtirish bilan XTRB faol shug'ullanadi. XTRB va u bilan birga jahon banki tarkibiga kiruvchi Xalqaro rivojlanish Uyushmasi (XRU-MAR), Xalqaro moliyaviy

korporasiya (XMK-MFK) har xil investision ob'ektlarni o'rta va uzoq muddatli kreditlash bilan shag'ullanadi, loyixalarning moliyaviy-iqtisodiy asoslarini tayyorlaydi, rivojlanayotgan mamlakatlardagi tarkibiy qayta o'zgartirishga yordam beradi.

Davlatlararo tashkilotlar ichida barcha sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlarni birlashtiruvchi IXRT muhim rol o'ynaydi. Uning doirasida ichki iqtisodiy tadbirlarning boshqa mamlakatlar milliy iqtisodi samaradorligiga ta'sirini, ularning to'lov balansi holatini o'rganish amalga oshiriladi, milliy iqtisodning jahon xo'jaligi tamoyillari tez moslashishini ta'minlash maqsadida makroiqtisodiy tartibga solish bo'yicha tavsiya nomalar beriladi. IXRT jahon xo'jaligi doirasida ko'p omilli funksional aloqalarni o'rganishni amalga oshiradi, valyuta va byudjet siyosati, narxlar, savdo va boshqa sohalar bo'yicha ilmiy asoslangan iqtisodiy prognozlar tavsiya etadi.

SHarqiy-Evropa mintaqasida tarkibiy qayta qurishga moliyaviy ta'sir ko'rsatish va yordam tashkil qilish maqsadida 1991 yil Evropa tiklash va rivojlanish banki (TREVb-EVVRr) tuzildi.

SHuni ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiy munosabatlarini xaqaro tartibga solish tizimida doimiy o'zgarishlar ro'y berib turadi.

80 yillarda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sabablar taqozo qilgan dunyo siyosiy valiyatdagi o'zgarishlar, jahon xo'jalik aloqalari tizimini ko'p tomonlama tartibga solish shakllarini evolyusiyasiga olib keldi. Evolyusiyani tezlashtiruvchi sharoitlar ichida sobiq sosialistik mamlakatlarda vaziyatning o'zgarishi, tashqi siyosiy faoliyatida mustaqil sub'ektlarni tashkil qiluvchi davlatlar sonining keskin ko'payishi hamda dunyo mamlakatlari ichida ro'y beradigan o'zgarishlar muhim o'rin tutadi.

80 yillarning o'rtalarida AQSHning iqtisodiy mavqei kamaydi. YAponiya kapital eksport qilishda, GFR tovarlarning jahon eksportida birinchi o'ringa chiqib oldi. Dunyoda AQSH, G'arbiy Evropa va YAponiyadan iborat ancha qudratli raqobatlashuv markaz vujudga keldi va ular o'rtasidagi munosabatlar qattiq raqobat asosida amalga oshiriladi.

Jahon xo'jalik aloqalarini tartibga solishga olib kelgan o'zgarishlarga xalqaro tashkilotlar a'zolar tarkibidagi o'zgarishlarni ta'kidlab ko'rsatish mumkin. XVf, XTRB, TSBKga Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasidagi ozod bo'lgan mamlakatlar va keyingi qator sobiq sosialistik mamlakatlar faol kira boladiki, bu ham jahon xo'jaligi aloqalarini tartibga solishda ma'lum o'zgarishlarga olib keladi.

Evropa Ittifoqi (EI) doirasida yagona bozorni bunyod etishga harakat tufayli yagona umumevropa fuqaroligi, Iqtisodiy, valyuta va siyosiy ittifoq Tasis etiladi. Bu Ittifoqning SHartnomada belgilangan vazifalarini bajarish uchun bir qator Evropa muassasalari tuzildi.

Evropa Ittifoqining ijroiya organi

-Evropa hamjamiyati Komissiyasi (EHK)dir. Uning a'zolari milliy xukumatlar ta'inlaydi, lekin ular o'z faoliyatlarida mutlaqo mustaqildir.

Ittifoqning qarorlar qabul qilish organi.

-Vazirlar Kengashi hisoblanadi. Uning tarkibida ichki ishlar, moliya, ta'min, qishloq xo'jaligi kabi Vazirlar Kengashi mavjud bo'ladi.

Evropa hamjamiyati Komissiyasi faoliyatini nazorat qilish, hamjamiyati byudjeti va qonunlarini maqullash hamda ularga o'zgartirish kiritish huquqi Evropalament zimmasiga yuklatiladi.

Evropa Ittifoqida 1999 yildan boshlab yagona pul-kredit siyosati o'tkazila boshlaydi. SHu munosabat bilan yagona valyuta-EKYU joriy etiladi va yangi muassasa-Evropa Markaziy banki tuzilib, u milliy banklar bilan birga Evropa banklar tizimining asosini tashkil qiladi.

### **7-§.O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi va tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari.**

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishining shart-sharoitlari va tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari Respublika davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan vujudga kela boshladi. Vujudga kelgan vaziyat tashqi iqtisodiy majmuani boshqarishning o'ziga xos tizimini shakllantirish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish borasida qoida va tamoyillarning ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilish yo'llarini belgilashni taqozo etdi.

Respublika tashqi siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik negizida ko'rilsa, uning qoidalari ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnoma munosabatlarida o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, xalqaro iqtisodiy ittifoqlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirilga asoslanadi.

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etishning asosi ochiq turdagi iqtisodiyotni vujudga keltirishdir. SHu sababli respublikamiz hozirning o'zidayoq 74 davlat bilan diplomatiya munosabatlarini o'rnatdi, dunyoning 20 dan ortiq davlatida diplomatiya elchixonalarni ochdi. O'tgan qisqa davrda ko'pgina xalqaro tashkilotlar-BMT iqtisodiy muassasalari, jahon banki, xalqapro banki, xalqaro valyuta fondi, xalqaro moliya korporatsiyasi, iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot kabi boshqa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi. Respublika a'zo bo'lib kirgan eng muhim ittifoq - Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (1991 yil tuzilgan) hamda Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda Turkiya, Eron va Pokiston tomonidan tuzilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT)dir.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishtalablaridan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shag'ullanishi zarur bo'lgan barcha muassasalar (tashqi iqtisodiy aloqa vazirligi, tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, bojxonalar xizmati va boshqalar) amalda yangidan tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasidan tortib, boshqaruvning mahalliy darajasi va korxonalgacha bo'lgan xo'jalik sub'ektlarida tegishli tashqi iqtisodiy bo'limlar tuzildi. Dunyoning bir qancha mamlakatlarida savdjo uylari ochildi va savdo-sanoat palatalari barpo etildi.

Tashqi savdo bilan birga iqtisodiy hamkorlikning boshqa shakllari ham sezilarli darajada rivojlandi. Respublika xududida ro'yxatdane o'tgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar 1450 tadan oshdi, faqat xorijiy sarmoya bilan ishlovchi korxonalar esa 110 taga etdi. Bevosita tashqi iqtisodiy kooperasiya aloqalari o'matila boshladi.

Dastlabki davlatlarda respublikamizda tashqi savdo ikki yo'nalish bo'yicha: MDH mamlakatlari bilan kummatlararo bitimlar asosida va xorijiy mamlakatlar bilan erkin muomaladagi valyutada hisob-kitob qilish asosida amalga oshirildi.

1994 yil respublikamiz tashqi savdo oboroti 5053,3 mln. AQSH dollarining tashkil etib, shundan 2919,7 dollari MDH mamlakatlari, 2133,6 dollari xorijiy mamlakatlarga to'g'ri keladi. Xorijiy mamlakatlarga mahsulot eksporti ko'payib borib 1992 yilgi 870 mln. dollar o'miga, 1994 yilda 1 milliarddan ortiq AQSH dollari miqdoriga etdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p tomonlama aloqalari va hamkorligini rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasidagi yagona iqtisodiy makon to'g'risida tuzilgan shartnoma samara bera boshladi. Ularning sanoatini integrasiyalashtiradigan dastur ishlab chiqildi.

MDH mamlakatlari bilan bevosita va ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Hamdo'stligi muassasalari - Davlatlararo iqtisodiy ko'mita, Davlatlararo bank va boshqa muassasalarni tashkil etishda faol qatnashmoqda. MDHdagi mamlakatlar (Rossiya, Ukraina, Belorus, Moldova va boshqalar) bilan ikki tomonlama tashqi siyosiy, savdo-iqtisodiy va boshqa shartnoma hamda bitimlarni imzoladi.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tovar oboroti 1994 yilda 1,8 milliard dollarni yoki MDH mamlakatlari bilan umumiy tovar oborotining 63,0 foizini tashkil etdi<sup>1</sup>.

Bu mamlakatlar bilan mahsulot keltirish-chiqarish savdosi respublika foydasiga 142 mln. dollardan ko'proq mablag'ni tashkil etdi. Respublikaning bir qator mahsulotlar (neft, don) bo'yicha MDH mamlakatlari va xorijiy davlatlarga qaramligi ancha kamaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratishga, hamdazarur bo'lgan tashkilot va muassasalar tuzishga katta ahamiyat berilmoqda. Bular jumlasiga tavakkalchilik xatarlari keltiriladigan zararni qoplaydigan «O'zbekinvest» milliy sug'urta kompaniyasini turli qo'shma sug'urta kompaniyalarini, Vazirlar Mahkamasi huzurida BMT bilan birgalikda tashkil qilingan investisiyalarga ko'maklashuvchi xizmatni, Davlat mulk qo'mitasi xuzuridagi ko'chmas mulk va xorijiy investisiyalar agentligi kabilar kiritish mumkin. Bu muassasa va tashkilotlar hamda respublikada vujudga keltirilgan huquqiy me'yorlar xorijiy investisiya faoliyati

<sup>1</sup> Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1995y. 112-113 betlar.



uchun qulay sharoitlarni yaratib, ularning xuquqlari va sarflangan sarmoyasini himoya qiladi. SHu sabli O'zbekiston bir qator mamlakatlar bank va firmalari bilan 1,5 mlrd. AQSH dollariga yaqin summada 32 ta yirik hukumatlararo kredit bitimi tuzildi.

1994 yilda xalqaro moliya muassasalari va xorijiy sarmoyadorlar bilan tuzilgan, respublikaga 640 mln. dollar miqdorda investisiya kreditlari berish to'g'risidagi bitimlar amal qila boshladi<sup>2</sup>.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi BMTning respublikada amalga oshirayotgan iqtisodiy, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, fan sohalarida amalga oshirilayotgan loyihalarida ham namoyon bo'ladi.

Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlar bilan iqtisodiy va savdo sohasidagi hamkorlik, NATOning «Tinchlik yo'lidagi sheriklik» dasturida mamlakatimiz ishtiroki uning jahon xo'jaligi qo'shilishning navbatdagi yo'nalishidir. Jumladan, Evropa Ittifoqi bilan Respublikamiz o'rtasida imzolangan **SHeriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim** (1996 yil iyun) tashqi iqtisodiy faoliyatining ustivor yo'nalishidir;

O'zbekistonning **Xalqaro valyuta fondi va jahon banki** bilan hamkorligi tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishdagi navbatdagi yo'nalishdir. Bu yo'nalishda XVF bilan tizimli qayta qurilishlarni mablag' bilan ta'minlash, tizimli va makroiqtisodiy siyosat sohasidagi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash Dasturlari maqullandi. Bu dasturlarga binoan 1996-1997 yillarda respublika makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturi uchun 259 mln. AQSH dollari miqdorida madad oldi.

Jahon bank tashkilotlari - **Xalqaro rekonstruksiya va rivojlanish banki (XRRB)**, **Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU)**, **Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK)** va **Investisiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA)** bilan hamkorlik O'zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishda muhim ro'lni o'ynaydi. Xususan XRRB yo'li bilan O'zbekistonga paxta etishtirish usullarini zamonaviylashtirib, uning jahon bozoriga chiqishiga ko'maklashish va unumdorlikni oshirish uchun asos yaratish maqsadida 66 mln. dollar, muassasalarni isloh qilishni davom ettirish uchun 120 mln. dollar ajratish ko'zda tutilgan. Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) ham O'zbekistonda bir qator loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etmoqda.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda **Evropa ta'mirlash va taraqqiyot banki (ETTB)** alohida ro'lni o'ynaydi. Hozirgi vaqtda respublikada amalga oshirilayotgan umumiy qiymati 536 mln. dollarga teng 9 ta loyihada ETTBning ulushi 253,1 mln. dollarni tashkil qiladi.

ETTB O'zbekistonda amalga oshirish ko'zda tutilgan, umumiy summasi bir mlrd. dollardan ortiq bo'lgan yana 8 ta loyihani ko'rib chiqishi mo'ljallangan.

<sup>2</sup> «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi», «CHet el investisiyalari va xorijiy sarmoyadorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar va boshqa qonuniy xujjatlar.

**O'zbekistonning tashqi iqtisodiy va savdo faoliyatida Osiyo rivojlanishi Banki (ORB) hamda jahon savdo tashkiloti (JST) bilan hamkorlik istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi.**

**S**Hunday qilib, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishida dunyo mamlakatlari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik hal qiluvchi o'ringa ega bo'lib, bu milliy iqtisodiyotning baynalminallashuvini kuchaytiradi hamda iqtisodiy taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'tarishning asosiy tashqi omillari hisoblanadi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar.**

**Xalqaro mehnat taqsimoti**- alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ayrim turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.

**Halqaro iqtisodiy integrasiya**- jahon mamlakatlari o'zaro iqtisodiy aloqalarining chuqurlashtirish va barqaror rivojlanishi hamda milliy xo'jaliklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xo'jalik aloqalarining birlashib borish jarayonidir.

**Ishchi kuchining xalqaro migrasiyasi**- mehnat resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlanish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishi.

**Emigrasiya**- ishchi kuchining bir mamlakatdan doimiy yashash uchun boshqa mamlakatga chiqib ketishi.

**Immigrasiya**- ishchi kuchining aynan shu mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishi.

**Erkin savdo zonalari**- iqtisodiy integrasiyaning eng oddiy shakli bo'lib, uning doirasida savdo cheklashlari bekor qilinadi.

**Boj ittifoqi**- yagona tashqi savdo tariflari o'ratishni va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosati yuritishini taqazo qiladi.

**To'lov ittifoqi**- milliy valyutalarning o'zaro almashinuvi va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilishi.

**Umumiy bozor**- bunda uning qatnashchilari o'zaro erkin savdoni amalga oshirish va yagona tashqi savdo siyosati o'tkazish bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati ta'minlanadi.

**Iqtisodiy va valyuta ittifoqi**- iqtisodiy integrasiyaning eng oliy shakli bo'lib, bunda iqtisodiy integrasiyaning barcha qarab chiqilgan shakllari iqtisodiy va valyuta-moliyaviy siyosat o'tkazish bilan birga uyg'unlashadi.

**XVF (MFV)**- Halqaro valyuta fondi.

**XTRB (MBRR)**- Xalqaro ta'mirlash va rivojlantirish banki.

**T'SKB (GATT)**- Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv.

**IMUK (KOKOM)**-NATOning iqtisodiy masalalari uyg'unlashtiruvchi komiteti.

**IXRO (OESR)**- Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti.

**XRU (MAR)**- Xalqaro rivojlanish uyushmasi.

**XMK (MFK)- Xalqaro moliya viy korporasiya.**

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar.**

1. Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojining eng muhim o'ziga xos xususiyati nimadan iborat? Jahon xo'jaligining milliy iqtisodga ta'siri qanday?
2. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash qanday me'zonlarga asoslanadi? Ularni turkumlashga hozirgi davrda yondoshuvlarga asoslanib davlatlarning asosiy guruhlarini ajratib ko'rsating.
3. Xalqaro mehnat taqsimoti qanday tamoyillarga asoslanadi? Unda tabiiy sharoitdagi tafovutlar qanday rol o'ynaydi?
4. Jahon narxleri qanday qiymatga asoslanadi? Jaxon narxlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tavsifini bering.
5. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nima uchun turli shakllarga ega bo'ladi? Ularning asosiy shakllarini sanab ko'rsating.
6. Jahon infratruzilmasi tarkibiy qismlarining tavsifini bering va ularning har birining ahamiyatini ko'rsating.
7. Xalqaro mehnat taqsimotini mutlaq va qiyosiy ustunlik nazariyasidan foydalanib tahlil qiling.
8. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni nima zarur qilib qo'yadi?
9. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarning ustivor yo'nalishlarini ko'rsating.

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. «Bizning bosh maksadimiz- jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va islox etishdir», «O'zbekiston» 2005.
2. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz», T. «O'zbekiston», 2000y.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari.» -T. «O'zbekiston», 1998.
4. «To'g'ridan to'g'ri xususiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora- tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprel.
5. SH. SHodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T., «Moliya» nashriyoti, 2002.
6. A. Qodirov. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
7. D. Tajiboeva. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
8. Makkonel K., Bryu S. «Ekonomiks», M.2002.

9. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Rayzberga.- Uchebnik: - INFRA- M.2004.
- 10.Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof.M. N. CHepurina. Uchebnik: - INFRA- M.2004.
- 11.Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsh. red. akad. V. I. Vidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA- M.2004.
- 12.Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
- 13.E. F. Borisov Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
- 14.Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
- 15.Ioxin V. YA. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
- 16.Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy. d.e.n., prof. T. V. CHEchelovoy. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalq so'zi - 25 mart.
2. CHepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov-2005.
3. SH. SH. SHodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. YAxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
4. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvina. Osnovy ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

#### **Veb-saytlar:**

1. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
2. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
3. <http://infoteka.economics.ru>
4. [www.finansy.ru](http://www.finansy.ru)
5. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
6. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
7. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
8. [www.jahon.mfa.uz](http://www.jahon.mfa.uz)
9. [www.budjet.rf.ru](http://www.budjet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ruzani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof. SH.SH SHodmonov, G.D.Bobabekova, G.T.Xalikova tomonidan tayyorlangan «Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v predpodovanii ekonomicheskoy teorii». T-2004, «Innovatsionnye metody obucheniya v ekonomicheskoy obrazovanii» va SH.SH.SHodmonov, T.M.Ziyaeva, M.T. YAxshievlar tomonidan tayyorlangan.

## 20-mavzu:

### Jahon bozori. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari.

Reja:

4 soat

**Kirish.**

1-§. Jahon bozori va xalqaro savdo.

2-§. Xalqaro to'lov balansi va uning tuzilishi.

3-§. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari.

#### Kirish.

Bu mavzuni biz milliy iqtisodiyotning dunyo mamlakatlari bilan bog'langan murakkab iqtisodiy munosabatlar tizimidan xalqaro savdo munosabatlarini tahlil qilish bilan boshlaymiz. Avvalo jahon savdosining rivojlanishi, omillari va tuzilishini qarab chiqamiz. Keyin tariflar va import kvotalari kabi savdo to'siqlarining iqtisodiy axamiyatini o'rganamiz. Nixoyat, tahlil ni xalqaro savdo siyosatini kiskacha umumlashtirish bilan davom ettiramiz.

Mavzuning ikkinchi qismida xalqaro munosabatlarning moliyaviy yoki valyutaviy tomonlarini o'rganamiz. Birinchidan, valyuta munosabatlari va hozirgi zamon valyuta tizimini qarab chiqamiz. Ikkinchidan, valyuta kursi va valyuta siyosatini tahlil qilamiz. Uchinchidan, mamlakatning to'lov balansini tushuntirish va tahlil qilishga xarakat qilamiz.

#### 1-§. Jahon bozori va xalqaro savdo.

Hozirgi jahon rivojining xarakterli belgisi tashqi iqtisodiy aloqalarning, avvalo jahon savdosining tez o'sishi hisoblanadi. Davlatlararo munosabatlar sohasida iqtisodiy aloqalar turli-tuman shakllarining mustahkamlanishi va tez o'sishining asosiy sababi xo'jalik hayoti baynalmilallashuv jarayonining yanada chuqurlashuvini taqazo qiladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblangan jahon savdosi tashqi savdo oboroti, eksport va import kabi ko'rsatkichlar bilan harakterlanadi.

XXX-1-jadvalda xalqaro savdoning rivojlanishini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar berilgan.

XXX-1-jadval Jahon savdosining Rivojlanishi /mlrd.dol./.

| Ko'rsatkichlar        | 1970  | 1980   | 1990   |
|-----------------------|-------|--------|--------|
| Tovar oborot /jami/   | 595,9 | 3868,5 | 6759,3 |
| SHu jumladan: eksport | 290,1 | 1910,6 | 3309,9 |
| import                | 305,8 | 1957,9 | 3449,4 |

Xalqaro savdo to'g'risida to'liqroq tushunchaga ega bo'lish uchun, uning asosiy tarkibiy qismlarini qarab chiqamiz.

Eksport-tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur ishlab chikarilgan tovar mamlakatdan tashkariga chikariladi.

Ko'plab mamlakatlarda, cheklangan resurs bazasiga va tor ichki bozorga ega bo'lib, o'zlarining ichki iste'moli uchun zarur bo'lgan barcha tovarlarni etarli samaradorlik bilan ishlab chiqarish holatida bo'lmaydi. Bunday mamlakatlarda uchun eksport kerakli tovarlarni olishning asosiy yo'li hisoblanadi. Juda katta resurslar bazasi va sig'imli ichki bozorga ega bo'lgan mamlakatlarda xalqaro savdoga ehtiyoj kam bo'ladi.

Jahon savdosida tovarlarning eksport tarkibi fan-texnika revolyusiyasi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ta'siri ostida o'zgaradi. Hozirgi davrda jahon savdosining eksport tarkibida qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari etakchi o'ringa ega bo'lib, uning hissasiga jahon tovar ayriboshlashining 3/4 qismi to'g'ri keladi. Oziq-ovqat, xom-ashyo va yoqilg'i ulushi faqat 1/4 qismini tashkil qiladi.

XXX-2 jadval.

Jahon eksportining tovar tarkibi, % hisobida<sup>1</sup>

| Asosiy tovar guruxlari                     | Yillar |      |      |      |      |
|--|--------|------|------|------|------|
|  | 1937   | 1960 | 1975 | 1988 | 1994 |
| Oziq-ovqatlar                              | 22,8   | 18,2 | 12,2 | 10,7 | 7,2  |
| Xom-ashyo                                  | 31,0   | 16,7 | 7,5  | 5,9  | 4,8  |
| YOqilg'i                                   | 7,6    | 10,1 | 19,5 | 12,5 | 7,7  |
| Qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari        | 38,8   | 55,0 | 59,7 | 72,4 | 76,5 |
| Uskunalar, transport vositalari            | 10,6   | 21,2 | 27,9 | 35,1 | 38,2 |
| Ximiyat tovarlari                          | 4,6    | 6,2  | 7,2  | 9,0  | 9,2  |
| Boshqa qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari | 23,6   | 27,6 | 24,6 | 28,3 | 29,2 |
| Qora va rangli metallar                    | 10,6   | 9,0  | 7,3  | 5,3  | 6,6  |
| To'qimachilik buyumlari                    | 8,7    | 5,4  | 4,9  | 6,8  | 7,6  |

Jahon savdosida eksportning jug'rofiy taqsimlanishi uchun bozor iqtisodiyotiga asoslangan, sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlarda ustunligi xarakterli. Jumladan 90-yillarning o'rtalarida ular ulushiga jahon eksportining 70% ga yaqini to'g'ri kelgan.

3 jadval.

Jahon eksportida alohida mamlakatlarda guruhining ulushi, % hisobida<sup>2</sup>

| MAMLAKATLAR   | YILLAR |      |      |
|---------------|--------|------|------|
| Rivojlangan   | 70,0   | 67,2 | 67,8 |
| shu jumladan: |        |      |      |
| AQSH          | 10,2   | 11,4 | 11,3 |
| Kanada        | 4,0    | 3,8  | 3,7  |

<sup>1</sup> Ekonomika: Uchebnik - M.: Izdatel'stvo BEK, 1997. - S. 635.

<sup>2</sup> Ekonomika: Uchebnik, - M.: Izdatel'stvo BEK, 1997. - S. 636.

|                                |             |             |             |
|--------------------------------|-------------|-------------|-------------|
| Evropa ittifoqi                | 41,8        | 37,4        | 34,6        |
| YAPONIYA                       | 8,2         | 8,9         | 9,0         |
| <b>Rivojlana yotgan</b>        | <b>21,4</b> | <b>28,0</b> | <b>26,2</b> |
| <u>O'tish iqtisodiyotidagi</u> | 8,6         | 4,8         | 6,0         |
| shu jumladan:                  |             |             |             |
| Rossiya                        | 4,0         | 1,5         | 1,3         |
| Xitoy                          | 1,6         | 2,4         | 2,8         |

Rivojlangan mamlakatlarda savdo-sotiq asosan bir-birlari bilan amalga oshiriladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon tovar ayirbosh-lashida yangi industrial mamlakatlar ulushi ancha yuqoriligicha (25% dan ortiq) qolmoqda.

**Xizmatlar eksporti, tovarlar eksportidan farq qiladi.** Chet ellik iste'molchilarga xizmat ko'rsatish, chet el valyutarini olish bilan bog'liq bo'lib, u milliy chegarada amalga oshiriladi /masalan, chet el kompaniyasi vakillariga pochta-telegraf xizmati ko'rsatish, chet el fuqarolariga sayyoh-lik xizmati ko'rsatish va h.k/.

**Kapital eksport qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.** Kapital eksport kredit berish yoki chet el korxonalarini aksiyalariga maqsadli qo'yilmalar kabi shakllarda amalga oshirilib, kapital chiqarilgan vaqtda eksport qiluvchi mamlakatdan mablag'lar oqimini taqozo qiladi va shu orqali tasarrufida bo'lgan resurslar hajmini qisqartiradi. Boshqa tomon-dan, kapital eksporti chet davlatlarning mazkur mamlakatdan bo'lgan qarzlari-ni ko'paytiradi. U jahon bozoriga tovarlarning keyingi eksporti uchun qulay sharoit yaratadi va chet el valyutasida foiz yoki dividend shaklida barqaror daromad olish omili hisoblanadi.

**Import eksportdan farq qilib chet ellik mijozlardan tovarlar /xizmatlar/ sotib olib, ularni mamlakatga keltirishni bildiradi.** Import tovar oluvchi mamlakat iqtisoditiga, eksportga teskari yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi. **Tovarlar eksporti va importi summasi tashqi savdo oboroti yoki tovar oborotni beradi.** qandaydir mamlakat ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun olgan taqdirda reeksport ro'y beradi. Reeksport bilan reimport uzviy bog'liq. Reimport iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarni sotib olishni bildiradi.

Tashqi savdo faoliyatning qatnashuvchi mamlakat xo'jalik rivojlani-shi uchun ahamiyati haqida gapirganda, uning quyidagi vazifalarni ta'kid-lash zarur:

a) **komplementar vazifasi**, mamlakatlar xalq xo'jaligi majmua-sining tabiiy iqlim va shu kabi farqlar tufayli o'z ichki resurslari hisobiga olish mumkin bo'lmagan ne'matlar bilan ta'mirlashga qaratilgan;

b) **substitusion vazifasi**, xalqaro mehnat taqsimoti-xalqaro ixti-soslashuv va ishlab chiqarishni kooperativla shtirish, ilmiy-texnikaviy hamkorlik va tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa shakllaridan foydalanish bilan bog'liq ustunliklarni

ro'yobga chiqarish uchun mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlashni taqozo qiladi;

v) **qo'shimcha talab yaratish vazifasi.** Milliy ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning iste'mol buyumlari va ishlab chiqarish vositalariga yalpi talabi, eksport qiluvchi mamlakatlar talabi miqdoriga o'sadi va import qiluvchi mamlakatlar talabi miqdoriga kamayadi. SHuni hisobga olib D.M.Keyns tomonidan kiritilgan iste'mol va investisiyalardan iborat mashhur daromad modeli,  $VqC+L$  (bu erda: V-daromad miqdori, S-iste'mol, L-investisiyalar) quyidagi ko'rinishni oladi;

$$VqC+L +X-M \quad /2/$$

bu erda, X-eksport xajmi, M-import hajmi. /2/ modelga binoan, eksport hajmi import hajmidan ortiq bo'lsa yalpi talab o'sadi va bu mamlakat daromadining ham shunga mos o'sishiga olib keladi. SHunga e'tibor berish zarurki, ichki talabning ortishi ishlab chiqarishni kengaytirish uchun shart-sharoit yaratadi, eksport bir vaqtda mamlakatdan resurslar oqimini taqozo qilib, mamlakatda ishlab chiqarilgan milliy daromad xajmini kamaytiradi. Aksincha, import ichki talabni qisman qondirib va milliy ishlab chiqarish maxsulotlariga extiyojni qisqartirib, har bir davrda iste'mol qilinadigan milliy daromad xajmini ko'paytiradi. Ko'rsatilgan xolat nafaqat tovarlar xarakati balki kapital eksporti va importini xam karakterlaydi.

Xalqaro savdo bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. **Xarakatchanlikdagi farqlar.** Bunda shuni ta'kidlash lozimki resurs-larning xarakatchatligi mamlakatlar o'rtasida, mamlakat ichidagiga qaragan-da ancha past. Masalan, ishchilar mamlakat ichida viloyatdan viloyatga, xudud-dan xududga erkin o'tishi mumkin. Mamlakatlar o'rtasidagi cheklarni kesib o'tish butunlay boshqa ish. Til va madaniy to'siqlar haqida gapirmaganda ham, immigrasion qonunlar ishchi kuchining mamlakatlar o'rtasidagi migrasiyasiga qattiq cheklashlar qo'yadi. Soliq qonunchiligidagi, davlat tomonidan tartibga solishning boshqa tadbirlaridagi farqlar va boshqa qator institusion to'siqlar real kapitalning milliy chegara orqali migrasiya-sini cheklaydi.

Xalqaro savdo resurslarining xalqaro xarakatchanligi almashiruvchi sifatida namayon bo'ladi. Agar inson va moddiy resurslar mamlakatlar o'rtasida erkin harakat qila olmasa, tovar va xizmatlar harakati bu uzilish-ni samarali to'ldirishga layoqatli.

2. Har bir mamlakat har xil valyutadan foydalanadi. SHu sababli, AQSHda «Xonda» va «YAguar» avtomashinalarini sotish bilan shug'ullanuvchi Amerika firmasi, YAponiya va Britaniya ishlab chiqaruvchilari bilan hisob-lashish uchun funt sterlingni sotib olishi zarur.

3. Xalqaro savdo siyosiy aralashuv va nazoratga mahkum bo'lib, bu ikki savdoga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlardan xarakteri va darajasi bo'yicha sezilarli farqlanadi.

**Savdoning iqtisodiy asosi.** Mamlakatlar o'rtasidagi savdoning asso-sini nima qiladi? Umumiy xolda, xalqaro savdo shunday vosita hisoblana-diki, uning



yordamida mamlakatlar ixtisoslashuvini rivojlantirishi, o'zlarining resurslari unumdorligini oshirish va shu orqali ishlab chiqarishning umumiy hajmini ko'paytirishi mumkin. Mustaqil davlatlar, eng yuqori nisbiy samaradorlik bilan ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tovarlarga ixtisoslashishi va ularning o'zlarini samarali ishlab chiqarish holatida bo'lmagan tovarlarga ayriboshlash hisobiga yutish mumkin.

«Mamlakatlar nima uchun savdo-sotiq qiladi?» degan savolni tadqiq qilish asosida ikki holat yotadi. Birinchidan, iqtisodiy resurslar dunyo mamlakatlari o'rtasida juda notekis taqsimlanadi: Mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanishi bo'yicha keskin farqlanadi. Ikkinchidan, har xil tovarlarni samarali ishlab chiqarish har xil texnologiya yoki resurslar uyg'unlashuvini talab qiladi. Bu ikki holatning xarakterlari va o'zaro ta'sirini oson tasvirlash mumkin. Masalan, Yaponiya ko'p va yaxshi tayyorlangan ishchi kuchiga ega; Malakali mehnat ortiqcha bo'lganligi sababli arzon turadi. SHu sababli, Yaponiya tayyorlash uchun ko'p miqdorda malakali mehnat talab qilinadigan turli-tuman tovarlarni samarali ishlab chiqarishga layoqatli. Fotokameralar, radiopriyomniklar, videomagnitafonlar va televizorlar shunday mehnat sig'imli tovarlarga misol bo'la oladi. Avstraliya esa aksincha, juda keng er maydonlariga ega bo'lgan holda etarli bo'lmagan miqdorda inson resurslari va kapitalga ega. SHu sababli, bug'doy, jun, go'sht kabi «kam mehnat sig'imi» tovarlarni arzon ishlab chiqarishi mumkin. Sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlar avtomobillar, qishloq xo'jalik uskunalari, mashina va ximikatlar kabi turli-tuman kapital sig'imli tovarlarni ishlab chiqarishda yaxshi strategik holatda joylashadi. Bu erda shuni ta'kidlash zarurki. Mamlakatda har xil tovarlarni ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Resurslarning taqsimlanishi va texnologiyadagi siljishlar turli mamlakatlarda tovarlar ishlab chiqarishning nisbiy samaradorligida siljishlarga olib kelishi mumkin. Qisqacha aytganda, milliy iqtisodiyot evolyusiyasi bilan birga ishchi kuchining miqdori va sifati, kapital hajmi va tarkibi o'zgarishi, yangi texnologiya vujudga kelishi mumkin. Bu o'zgarishlar qanday ro'y berishiga qarab, mamlakatlar ishlab chiqaradigan turli tovarlarning nisbiy samaradorligi ham o'zgaradi.

## 2-§. Erkin savdo va savdo to'siqlari

Qiyosiy harajatlar nazariyasiga ko'ra erkin savdo tufayli, jahon xo'jaligi resurslarni samarali joylashtirishga va moddiy farovonlikning yuqori darajasiga erishishi mumkin. Har bir mamlakatning resurslari tarkibi va texnologiya darajasi turlicha. SHunday ekan, ular ma'lum bir tovarlarni har xil real xarajatlar bilan ishlab chiqarishi mumkin. Bunda har bir mamlakat shunday tovarlarni ishlab chiqarishi zarurki, ularning ishlab chiqarish xarajatlari, boshqa mamlakatlar shunday tovarlarining ishlab chiqarish xarajatlaridan past bo'lsin. SHu bilan birga o'zi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mahsulotlarni, mamlakatda ishlab chiqarish xarajatlari boshqa mamlakatlardagidan nisbatan yuqori bo'lgan tovarlarga

ayirboshlasin. Agar har bir mamlakat shu tartibda ish tutsa, jahon xo'jaliklari jug'rofiy va insoniyat ixtisoslashuvi ustunliklaridan to'liq darajada foydalanishi mumkin. Boshqacha aytganda, jahon xo'jaligi va bir erkin savdo qiluvchi mamlakat o'zlari ega bo'lgan resurslar xajmidan ko'proq real daromad olishi mumkin. **Proteksionizm**, ya'ni erkin savdo yo'lidagi to'siqlar ixtisoslashuvdan olinadigan nafni kamaytiradi yoki yo'qqa chiqa-radi. Agar mamlakatlar erkin savdo qila olmasa, o'zlarining turli-tuman ehtiyojlarini qondirish maqsadida resurslarini samarali foydalanishdan samarasiz foydalaniladigan sohalar-ga tashlashi zarur bo'ladi.

Erkin savdodan olinadigan qo'shimcha naf shundan iboratki, u raqobatni rag'batlantiradi va monopoliyani cheklaydi. Chet el firmalarining o'sib boruvchi raqobati, mahalliy firmalarni eng past xarajatlar talab qilinadigan texnologiyaga o'tishni majbur qiladi. Bu yana ularni ishlab chiqarishga yangiliklarni kiritish va texnika taraqqiyoti yutuqlarini qo'lida ushlab turishga, mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarishning yangi usullaridan foydalanishga majbur qiladi. Erkin savdo, iste'molchilarga mahsulotlarning ancha keng turlaridan tanlab olish imkoniyatini beradi. SHu ijobiy jihatlarga qaramasdan amalda erkin savdo yo'lida juda ko'p to'siqlar mavjud bo'ladi. Ularning asosiylari quyidagilar:

-**boj to'lovlari**. Boj to'lovlari import tovarlarga aksiz soliqlari hisoblanadi, u daromad olish maqsadida yoki himoya uchun kiritilishi mumkin. Fiskal boj to'lovlari odatda mamlakat iida ishlab chiqarilmaydigan buyumlarga nisbatan qo'llaniladi. Uning maqsadi byudjetni soliq tushum-lari bilan ta'minlash hisoblanadi. Proteksionistik boj to'lovlari mahal-liy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qilishga qara-tilgan;

-**import kvotalari**. Import kvotalari yurdamida ma'lum bir vaqt oralig'ida import qilinishi mumkin bo'lgan tovarlarning maksimal hajmi o'rnatiladi. Ba'zan import kvotalaridan to'lovlarga qaraganda, xalqaro savdoni ushlab turuvchi samarali vosita sifatida foydalaniladi. YUqori boj to'lovlariga qaramasdan ayrim tovarlar nisbatan katta miqdorda import qilinishi mumkin. Past import kvotalari esa tovarlarga ma'lum miqdordan ortiqcha import qilishni to'liq taqiqlaydi.

-**ta'rifsiz to'siqlar**. Tarifsiz to'siqlar deyilganda lisenziyalash tizimi, mahsulot sifatiga oqlanmagan standartlar quyish yoki oddiy ma'mu-riy taqiqlashlar tushuniladi;

-**ixtiyoriy eksportni cheklashlar**. Ular savdo to'siqlarining nisba-tan yangi shakli hisoblanadi. Bu holda chet el firmalari o'zlarining ma'lum mamlakatga eksportini «ixtiyoriy» cheklaydi. Eksport qiluvchilar savdo to'siqlaridan kechish maqsadida ixtiyoriy eksport cheklashlariga rozilik beradi.

Boj to'lovlari va samaradorlikni pasaytirsan nima uchun jahon tajribasida qo'llaniladi degan savol tug'iladi. YAxlit olingan dunyo mamlakatlari erkin xalqaro savdodan yutsa, alohida tarmoqlar va resurslarni etkazib beruvchi guruh yuqtazuvchilar hisobiga tushib qolishi mumkin. Bundan tashqari savdo to'siqlarini oqlovchi bir qator xolatlar ham mavjud.

Avvalo savdo to'siqlarini mudofaani ta'minlash zarurligi taqozo qiladi. Ximoya qiluvchi boj to'lovlari mudofaa yoki urushlar uchun zarur strategik tovarlar va materiallar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni saqlash va kuchaytirish uchun zarur. Proteksionistlarning tasdiqlashicha, beqaror dunyoda harbiy-siyosiy maqsadlar iqtisodiy maqsadlardan yuqori turishi zarur. Bir tomondan, milliy xavfsizlikni kuchaytirish va boshqa tomondan ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi, resurslarni strategik tarmoqlar foydasiga qayta taqsimlash bilan birga boradi. Boj to'lovlari yordamida o'z-o'zini ta'minlashga erishish, himoya qilingan tarmoqlar mahsulotiga ancha yuqori ichki baholar shaklidagi harajatlarni yuzaga chiqaradi. Mudofaani musahkamlash uchun qilinadigan xarajatlar bu tarmoqning mahsulotini sotib oluvchi iste'molchilar o'rtasida majburiy tartibda taqsimlanadi.

Ikkinchidan, **ichki bandlikning ortishi** savdo to'siqlarini zarur qilib qo'yadi. Bizga ma'lumki, ochiq iqtisodiyotda yalpi sarflar iste'molchilik sarflari /s/; kapital quyilmalar /I/; davlat sarflari /G/; sof eksport /X<sub>e</sub>/ dan iborat. Import /M/ni qisqartirish natijasida yalpi sarflarning ko'payishi ichki iqtisodiy rivojlanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, chunki o'zi bilan birga daromadlar va bandlikning keskin o'sishiga olib keladi. Ammo bunday siyosat jiddiy kamchiliklarga ega.

a) Importning ko'payishi ishchi o'rinlari sonining birmuncha qisqa-rishiga olib kelsadi, shu bilan birga boshqa ishchi o'rinlari vujudga keltiriladi. Masalan, AQSH da oxirgi yillarda import po'lat eritish va to'qimachilik sanoatida ishchi o'rinlari bir qismining tugatilishini taqozo qilgan bo'lsada, import elektron uskunalarni savdo qilish bilan bog'liq faoliyatning boshqa turlari paydo bo'ladi. SHunday qilib, importli cheklashlar bandlikning tarkibini o'zgartirsada, u amalda bandlik darajasiga umuman ta'sir ko'rsatmasligi mumkin.

b) O'z-o'zidan ayonki, barcha mamlakatlar importli cheklashlarni kiri-tishda bir vaqtda muvaffaqiyatga erishishi mumkin emas. Bir mamlakatdagi eksport boshqasi uchun import hisoblanadi. Bir mamlakatda eksportning importdan ortiqchaligiga erishish uning iqtisodiyotini rag'batlantirish mumkin, boshqa iqtisodiyotda importning eksportdan ortiqchaligi ishsizlik muammosini keskinlashtiradi.

v) Boj to'lovlari va kvotalardan zarar ko'ruvchi mamlakatlar savdo to'siqlarini yangidan yanada oshirish orqali javob tadbirlar ko'radi. Bu oxiri oqibatda xalqaro savdoni shu darajaga bo'g'adiki, u barcha mamlakatlar uchun noqulay bo'ladi, ya'ni barcha mamlakatlarda daromadlar va bandlik darajasi pasayish tamoyiliga ega bo'ladi.

g) Uzoq muddatda eksportning importdan ichki bandlikni rag'batlantirish vositasi sifatidagi ortiqchaligi muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. CHunki, xususan amerika importi orqali chet davlatlar, amerika eksporti tovarlarini sotib olish uchun zarur bo'lgan dollarni ishlaydi. Uzoq muddatli davrda, mamlakat eksportni amalga oshirish uchun import qilishi zarur.

SHunday qilib, boj to'lovlari sof eksportni oshiradi va shu sababli yangi ish joylarini yaratadi, deb ta'kidlash to'g'ri emas. Iqtisodiyotdagi umumiy bandlik

ichki shart-sharoitlar va tartibga solishning makroiqtisodiy mexanizmlari bilan aniqlanadi (savdo to'siqlarining mavjud bo'lishi va savdo miqyosi bilan emas).

Uchinchidan, savdo to'siqlari barqarorlik uchun diversifikasiya (qo'poruvchilik) qilish uchun zarur bo'ladi. Buning ma'nosi shuki, yuqori darajada ixtisoslashgan iqtisodiyot daromadlari, masalan quvaytning neftga ixtisoslashgan iqtisodiyoti yoki qand ishlab chiqarishga yo'naltirilgan Kuba xalq xo'jaligi, xalqaro bozorga kuchli bog'langan. Urushlar, siklik tebranishlar, sanoat tarkibidagi noxush o'zgarishlar bunday iqtisodiy tizimlarda yirik miqyosda qayta qurishlarni taqozo qiladi. Bundan shunday xulosa chiqadiki, bu mamlakatlarda boj to'lovlari va kvotalar bilan himoya qilish sanoat diverifikasiyasini rag'batlantirish uchun zarur va buning oqibati, jahon bozorida mahsulot bir yoki ikki turining kon'yunkturasiidan bog'liqlik kamayadi. Bu ichki iqtisodini xalqaro siyosiy voqealar ta'siridan, chet ellardagi ishlab chiqarish tanazzulidan, bir yoki ikki aniq tovarlarga talab va ular taklifining tasodifiy tebranishlaridan saqlashga yordam beradi va shunday qilib kuchli ichki barqarorlikni ta'minlaydi.

To'rtinchidan, savdo to'siqlari yosh tarmoqni himoya qilish uchun zarur. Jumladan ximoya qiluvchi boj to'lovlari sanoat yangi tarmoqlarining xatarsiz rivojlanishiga imkoniyat beradi. YOsh milliy firmalarni chet el firmalarining shavqatsiz raqobatidan vaqtinchalik ximoya qilish, yangi tug'ilib kelayotgan tarmoqning mustaxkamlanishi va samarali ishlab chiqaruvchi bo'lib qolishiga yordam beradi. Boj to'lovlari yordamida yosh tarmoqni himoya qilish, tarixan, milliy va chet el sanoati iqtisodiy rivojlanishi darajasidagi farqlar tufayli shakllangan jahon resurslarining mavjud noto'g'ri joylanishini o'zgartiradi.

Bunday yondashuv mantiqan to'g'ri bo'lsada, unga qarshi fikrlarni ham keltirish joiz. Avvalo bunga o'xshash dalillar industrial rivojlangan mamlakatlar uchun nisbatan ahamiyatga ega emas. Boshqa tomondan kam rivojlangan mamlakatlar tarmoqlaridan qaysi biri himoyaga muxtoj tarmoq ekanligini aniqlash qiyin. Bunday tarmoqlarni aniqlash mumkin bo'lganda ham ximoya qiluvchi boj to'lovlari, mazkur sanoat tarmog'i etarlicha rivojlanish darajasiga erishganda ham yo'qolmasligi balki saqlanib qolishi mumkin. Nihoyat, ko'pchilik iqtisodchilar tug'ilib kelayotgan tarmoq yordamga muxtoj bo'lsa, buning uchun boj to'lovlariga qaraganda ancha qulay usullar mavjud deb hisoblaydi. Masalan, to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalar, shunday ustunliklarga egaki, u qanday tarmoq, qanday darajada yordamga muhtojligini ancha aniq ko'rsatadi.

Beshinchidan, savdo to'siqlari milliy firmalarni, milliy bozorlarga o'zlarining ortiqcha mahsulotlarini, ularning tannarxidan past demping narxlar bo'yicha sotuvchi chet el ishlab chiqaruvchilardan himoya qilish uchun ham zarur. Chet el firmalarining o'z tovarlarini tannarxidan past narxlar-da sotishiga manfaatdor bo'lishining ikkita sababi mavjud:

1) bu firmalar dempingdan raqobatchilarini sindirish, monopol holatni egallab olish va narxlarini navbatdagi oshirish uchun foydalanishi mumkin;

2) narxni pasaytirish har xil mijozlarga turlicha narx belgilashning murakkab shakli hisoblanadi.

Oltinchidan, Arzon che't el ishchi kuchi savdo to'siqlarini taqozo qiladi. Milliy firmalar va ishchilar ish haqi past bo'lgan mamlakatlarda bo'ladigan teri va darajasi bo'yicha sezilarli farqlanadi.

**Savdoning iqtisodiy asosi.** Mamlakatlar o'rtasidagi savdoning asosini nima tashqil qiladi? Umumiy holda, xalqaro savdo shunday vosita hisoblanadiki, uning yordamida mamlakatlar ixtisoslashuvini rivojlan-tirishi, o'zlarining resurslari unumdorligini oshirish va shu orqali ish-lab chiqarishning umumiy hajmini ko'paytirishi mumkin. Mustaqil davlat-lar, eng yuqori nisbiy samaradorlik bilan ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tovarlarga ixtisoslashishi va ularning o'zlari samarali ishlab chiqarish holatida bo'lmagan tovarlarga ayirboshlash hisobiga yutish mumkin.

«Mamlakatlar nima uchun savdo-sotiq qiladi?» degan savolni tadqiq qilish asosida ikki holat yotadi. Birinchidan, iqtisodiy resurslar dunyo mamlakat-lari o'rtasida juda notekis taqsimlanadi: mamlakatlar o'zlarining iqtiso-diy resurslar bilan ta'minlanishi keskin farqlanadi. Ikkinchidan, har xil tovarlarni samarali ishlab chiqarish har xil texnologiya yoki resurslar uyg'unlashuvini talab qiladi. Bu ikki xolatning xarakteri va o'zaro ta'sirini oson tasvirlash mumkin. Masalan, YAponiya ko'p va yaxshi tayyorlan-gan ishchi kuchiga ega, malakali mehnat ortiqcha bo'lganligi sababli arzon turadi. SHu sababli, YAponiya tayyorlash uchun ko'p miqdorda malakali mehnat talab qilinadigan turli-tuman tovarlarni samarali ishlab chiqarishga layoqatli. Fotokameralar, radiopriyomniklar, videomagnitafonlar va televizorlar shunday mehnat sig'imli tovarlarga misol bo'ladi. Avstraliya esa aksincha, juda keng maydonlariga ega bo'lgan holda etarli bo'lmagan miqdorda inson resurslari va kapitalga ega. SHu sababli, bug'doy, jun, go'sht kabi raqobatdan himoyalangan bo'lishi zarur deb ham hisoblanadi. Agar ular himoya taminlanmagan bo'lsa, bunda arzon import milliy bozorni to'ldiradi va milliy tovarlar narhi, ishchilarning ish haki bilan birga pasayadi va mamlakatda aholining turmush darajasi pasayadi.

Erkin savdo farovonlik va iqtisodiy o'sishga, proteksionizm esa qarama qarshi natijalarga olib kelishini tasdiqlovchi ishonarli tarixiy dalillar ham mavjud. Bunga bir qator misollar keltirarniz.

AQSH konstitusiyasi ayrim shtatlarga boj to'lovlari olishni taqiqlab, amerikasi erkin savdoning juda katta zonasiga aylantirdi. Bu mamlakatning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Buyuk Britaniya-ning o'n to'qqizinchi asr o'ralarida ancha erkin xalqaro savdoni ximoya qilishga qaratilgan harakati, uning industrilashtirish va rivojlanishi rag'batlantirish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Birinchi jahon urushidan keyin Evropada «Umumiy bozor»ning yaratilishiga intilish ko'p jihatdan a'zo mamlakatlar o'rtasida boj to'lovlarini bararafqilishga yordam berdi. Erkin savdoning bunday zonasining yaratilishi ohirgi o'n yil-liklarda G'arbiy Evropaning gullab yashnashini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Qisqacha aytganda, himoya qilinadigan tarmoqlar savdo to'siqlarini kiritishdan oladigan foyda, butun iqtisodiyot uchun ancha katta yo'qotish hisoblanadi.

### 3-§. Xalqaro savdo siyosati.

Tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning ham muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun omil to'lovchi eksport va importni davlat tomonidan tartibga solishni taqozo qilib qo'yadi.

SHu sababli, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish va mamlakatning tashqi savdo siyosatini shakllantirishda davlatning aralashuvi muammolariga asosiy yondashuvlarni qisqacha qarab chiqamiz.

**Merkantilizm.** Deyarli uch asr davomida (XV-XVIII asrlar) burjuaziya mamlakatlarning asosiy xo'jalik siyosati va etakchi iqtisodiy doktrinasi merkantilizm bo'lib qoldi. Merkantilistlar ijtimoiy boylik pulda (qim-matbaho metallida) ifodalanadi deb hisoblab, ularning mamlakatga kelib tushishi uchun muhim manba sifatida tashqi savdoga asosiy e'tiborni qaratadi. Oltinning tashqaridan qirib kelishi uning mamlakatdan chiqib ketishidan ustun bo'lishiga erishish uchun, eksport va reeksportni rag'batlantirish va importni ushlab turishga imkon beruvchi boj to'lovlarini kiritish, tovarlarning ma'lum turini olish-sotishga davlat monopoliyasini o'rnatish va shu kabilar orkali qattiq proteksionistik tadbirlardan foydalanishga yo'l ko'yish lozimligi ta'qidlanadi.

**Erkin savdo siyosat.** Alohida mamlakatlarning faol proteksionistik siyosati so'zsiz, chet el raqiblarning ham xuddi shunday qarshi tadbirlar ko'rishiga olib keladi, natijada tashqi savdo qisqaradi. SHu sababli sanoat to'ntarishi sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyating intensiv rivojlanishi va yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tish (XVIII asr oxirida dastlab ilmiy nazariya ko'rinishida, XIX asr esa Angliya rasmiy iqtisodiy siyosati sifatida) «erkin savdo» (fritreder siyosati) prinsiplarining vujudga kelishini rag'batlantirdi. Bu siyosatning asosi A.Smit va D.Rikar-do tomonidan ishlab chiqarilgan kiyosiy xarajatlar nazariyasi bo'lib qoldi. XVIII asr oxiri-XIX asr o'rtalarida Buyuk Britaniyaning iqtisodiy hukmronligi uning milliy iqtisodiyotini himoya qilishda proteksionistik tadbirlardan foydalanishni keraksiz qilib qo'ydi. Aksincha, proteksii-onizm g'oyasi iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlarda keng tarqaldi.

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotida milliy xo'jalikka «ochiq iqtisodiyot» sifatida qarovchi, o'zining rivojlanishida jahon bozoriga faol yo'naltirilgan yondashuv mustahkam o'rinni egallaydi. Ammo mamlakat halq xo'jalik majmuasining faol tashqi iqtisodiy yunalishi, halqaro iqtisodiy munosabatlarni milliy rivojlanish manfaatlarida tartibga solishdan to'liq voz zarurligini bildirmaydi.

**Tashqi iqtisodiy siyosat**-bu davlat yoki davlatlar guruhi tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida foydalanadigan tadbirlar majmui. Aniq ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilish, ular tashqi iqtisodiy siyosatning mazmunini tashkil qiladi. Tashqi iqtisodiy siyosat o'z navbatida iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Proteksionistik tadbirlarning hozirgi zamon milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ichki va tashqi bozorlarda eng qulay sharoit yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, u har hil yo'nalishlarni kamrab oladi. Bular yuqorida qarab chiqqanimizdek, o'z ichiga: ta'rifli to'siqlarni (boj to'lovlari va importli kvotalar); ta'rifsiz to'siqlarni (tashqi iqtisodiy operasialarni lisenziyalash, hamda ko'rsatilgan operasialarning ayrim turlari ga davlat monopoliyasini kiritish) va eksportni davlat tomonidan rag'batlantirish vositalarini oladi.

Milliy ishlab chiqaruvchilarning chet el firmalari raqobatini engil-lashtirish maqsadida, odatda tayyor mahsulotlar va yarimfabrikatlar, asosan zebzi-ziyat buyumlari importida yuqori, xom-ashyo va materiallar importida esa ancha past bojxona to'lovlari o'rnatiladi. Ta'rifsiz to'siqlar, tashqi iqtisodiy faoliyatni iqtisodiy siyosiy va ma'muriy usullarning rivojlangan tizimi yordamida bevosita yoki bilvosita cheklashdan iborat.

Bunday cheklashlar tashqi savdo operasialari nisbatan erkin amalga oshiriladigan alohida tovarlar yoki tovarlar guruhi eksportiga ma'lum kvotalar o'rnatish bilan bog'liq bo'lib, u erkin chiqarish cheklangan tovarlar ro'yxati shaklida o'rnatiladi.

Lisenziyalash korxonaning tashqi iqtisodiy operasialarni amalga oshirishda davlat organlari ruxsatini olish zarurligini takozo qiladi. Bunday tizim davlatga halqaro munosabatlarni nazorat qilish va har xil iqtisodiy va siyosiy maqsadlarga erishishda tartibga solish tadbirlarini amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Bevosita cheklash usullariga ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy faoliyatning ma'lum turlarini amalga oshirishda davlat monopoliyasidan foydalanishni ham kiritish mumkin. Bilvosita cheklash bevosita cheklashdan farq qilib, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish yoki uning hajmini kamaytirishni taqiqlashni bildirmaydi. Bilvosita cheklashlar tarkibida muhim urinni milliy soliq tizimi va milliy standartlar egallaydi. Mamlakat standartlariga amal qilmaslik, import mahsulotni kiritish va uni ichki bozorda sotishni taqiqlashga bahona bo'lib xizmat qilish mumkin. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimi milliy mahsulotni harid qiluvchi va foydalanuvchilar uchun ustunlik yaratadi.

Ko'rsatib o'tilganlar bilan birga bilvosita cheklashning boshka shakllaridan ham foydalanish mumkin. Bularga chet elliklar uchun ayrim portlar va temir yo'l stansiyalarini yopib qo'yish, mahsulot ishlab chiqarishda milliy xom ashyoning ayrim hissasidan foydalanish haqida ko'rsatma berish, davlat tashqilotlariga import tovarlarni sotib olishga taqiqlash (milliy o'rni bosuvchi tovarlar mavjud bo'lganda) kabilarni kiritish mumkin. Hozirgi davrda milliy eksport qiluvchilarga, ularning tashqi va ichki bozorda raqobatga layoqatligini oshirish uchun beriladigan turli-tuman moliyaviy yordam va imtiyozlar tizimi amal qiladiki, bular eks-portni davlat tomonidan rag'batlantirish vositalarini tashqil qiladi. Bulardan, birinchidan, eksport qiluvchilarga eksportli mukofot shaklida bevosita beriladigan dotasiyalar, milliy va chet ellik yuk tashuvchilarga yuklarni ortishtirish bo'yicha xizmatlar qiyomatidagi farqlarni to'lash va shu kabilarni kiritish

mumkin. Ikkinchidan, engil shartlarda eksport kreditlari berish, bekoror siyosiy tuzumdagi mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishda kafolat berish va davlat straxovaniyasi, soliqli engilliklar va h.k. SHuni ta'qidlash lozimki, davlat o'ziga kadrlarni o'qitish, jahon bozori kon'yukturasini tadqiq qilish, chet ellarda milliy eksportyor va importyorlar manfaatini himoya qilish, hamda ularning tashqi bozordagi faoliyatiga zarur siyosiy shart-sharoitlarini ta'minlash bilan bog'liq sarflarning asosiy qismini ham oladi.

Halqaro savdoda boj to'lovlari darajasining pasayish tamoyiliga olib kelgan birinchi qonun, o'zaro ekvivalent savdo to'g'risidagi qonun (1934 y.) bo'lib qoldi. Ammo bu qonun faqat ikki tomonlama muzokaralar olib borishni berdi. Mazkur yondashuv, 1947 yil 23 mamlakat tariflar va savdo haqidagi bosh kelishuv (TSBK-GATT)ga qo'l qo'yishi bilan kengaydi. TSBK (GATT) uchta tub tartiblarga asoslanadi: 1) barcha qatnashuvchi mamlakatlar uchun teng, kamsitmaydigan tartib; 2) ko'p tomonlama muzokaralar o'tkazish yo'li bilan bojlamani pasaytirish; 3) import kvotalarini bekor qilish. Hozirgi davrda TSBKga deyarli yuz mamlakat kiradi, va u savdoning liberallashtirish tamoyillari rivojidadagi muhim omil hisoblanadi.

**Iqtisodiy integrasiya.** Savdoni erkinlashtirish uchun hal qiluvchi omil iqtisodiy integrasiya, ya'ni erkin savdo zonasiga ikki va undan ko'proq mamlakatlarni birlashtirish bo'lib qoldi. Evropa iqtisodiy hamjamiyati (EIH-EES) iqtisodiy integrasiyaga yorqin misol bo'lib hisoblanadi. EIH(EES) yoki «Umumiy bozor» 1958 yil vujudga kelib, unga hozir 13 G'arbiy Evropa mamlakatlari kiradi.

«Umumiy bozor»ning maqsadi ko'yidagilardan iborat: qatnashuvchi mamlakatlar o'zaro savdo qiladigan barcha tovarlarga boj va import kvotalarini asta-sekin bekor qilish; «Umumiy bozor»ga kirmaydigan mamlakatlar-dan olinadigan barcha tovarlarga nisbatdan bojlarning umumiy tizimini o'rnatish; «Umumiy bozor» doirasida, oxiri oqibatda kapital va ishchi kuchining erkin harakat qilishiga erishish; o'zaro manfaatdor qator boshqa iqtisodiy masalalar bo'yicha umumiy siyosatni ishlab chiqish (masalan, qishloq xo'jaligi, transport kabilar bo'yicha)

#### 4-§. Xalqaro valyuta munosabatlari va valyuta tizimlari.

Xalqaro valyuta munosabatlari pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzlar va subsidiyalar oqimi, fan-texnika ayirboshlash, turizm va h.k.) xizmat qilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar-xalqaro valyuta munosabatlari deb ataladi. Xalqaro to'lov muno-sabati amal qilish jarayonida vujudga keladi. U tashqi savdo bilan birga paydo bo'ldi va rivojlanishning uzoq yo'lini bosib o'tdi. Tarixda jahon puli va xalqaro hisob-kitob shakllari o'zgardi. Bir vaqtda valyuta munosabatlari ahamiyati o'sdi va ularning nisbatdan mustaqillik darajasi oshdi. Tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchi harakati mamlakatdan mamlakatga ko'chadigan pul masalalari oqimi yordamida amalga oshadi. Bu harakatni tartibga solish zarurligi xalqaro valyuta tizimining shakllanishiga olib keldi. Valyuta-bu mamlakatlar pul birligi (masalan, so'm,



dollar, funt sterling va h.k.). Har bir milliy bozor xususiy milliy valyuta tizimiga ega bo'ladi. Bunda milliy va xalqaro valyuta tizimini farqlash zarur. **Milliy valyuta tizimi**-valyuta munosabatlarining milliy qonunchilik bilan belgilanadigan, mazkur mamlakatda tashqil qilinish shaklini ifodalaydi. Xalqaro valyuta tizimi-xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

Milliy valyuta tizimi mamlakatlar pul tizimlarining bir qismi bo'lib, uning doirasida valyuta resurslari shakllanadi va foydalaniladi, xalqaro to'lov oboroti amalga oshiriladi. Uning tarkibiga ko'yidagi elementlar kiradi: milliy valyuta birligi; valyuta kursi tartibi, valyutalar qaytuvchanlik sharoiti, valyuta bozori va oltin bozori tizimi, mamlakat xalqaro xisob-kitoblari tartibi, unda oltin-valyuta rezervlarini boshqarish tartibi va tizimi, mamlakat valyuta munosabatlari tizimini tartibga soluvchi milliy muassasalar statusi. Milliy valyuta tizimlari milliy qonunchilik asosida xalqaro huquq normalarini hisobga olib shakllantiriladi. Uning hususiyatlari mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi, sharoitlari, uning tashqi iqtisodiy aloqalari va ijtimoiy rivojlanish vazifalari bilan aniqlanadi.

Milliy valyuta tizimi bazasidan jahon bozori rivojlanishi asosidan tarkib topadigan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlarini tashqil qilish shakli bo'lgan jahon valyuta tizimi amal qiladi. Uning **tarkibiy elementlari** ko'yidagilar hisoblanadi: asosiy xalqaro to'lov vositalari (milliy valyutalar, oltin, xalqaro valyuta birliklari-SDR, EKYU), valyuta kurslarini belgilash va ushlab turish mexanizm, xalqaro to'lovlarini balanslashtirish tartibi, valyutaning qaytaruvchanlik sharoiti, xalqaro valyuta bozori va oltin bozori tartibi, valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo muassasalar statusi.

Jahon valyuta tizimi o'zining rivojlanishida **uchta bosqichdan** o'tdi va ularning har biriga xalqaro valyuta munosabatlarini tashqil qilishning o'z tiplari mos keladi. **Birinchi bosqich** 1879-1934 yillar davrini o'z ichiga olib, bunda oltin standart sifatidagi pul tizimi ustunlikka ega bo'lgan. Ikkinchi jahon urushi oxiri (1944 y.)dan 1971 yilgacha chegaralangan (Breton-Vudsk tizimi deb nomlanuvchi) tizim ustunlikka ega bo'lgan. Bu ikki tizim qayd qilinadigan valyuta kurslariga asoslangan. Hozirgi davrda amal qiluvchi jahon valyuta tizimi 1971 yilda tashqil topgan bo'lib, bu tizim **boshqariladigan suzib yuruvchi tizimi** nomini oldi. Chunki davlat ko'pgina o'z valyutalarining xalqaro qiymatini o'zgartirish uchun valyuta bozorining faoliyat qilishiga aralashadi. Ta'qidlab o'tilgan bu pul tizimi-ni tahlil qilamiz.

**Oltin standart.** Oltin standart tizimi qayd qilingan valyuta kursining mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Banklar o'zlari chiqargan banknotlarni oltiniga almashtirgan. Xalqaro to'lovlarni muvofiqlashtirish vositasi bo'lib, oltinni erkin chiqarish va kiritish xizmat qilgan. Mamlakat, agar u uchta shartni bajarsa oltin standart qabul qilingan deb hisoblangan: a) O'z pul birligining ma'lum oltin mazmuni o'rnatadi; b) O'zining oltin zahirasi va pulning ichki taklif o'rtasidagi qattiq nisbatni ushlab turadi; v) Oltinning erkin eksport va importiga to'sqinlik qilmaydi. Oltin standart pul birligining oltin mazmuni nisbatiga asoslanadi. Oltin

standart sharoitida, turli mamlakatlar pul birligining nisbati ularning rasmiy oltin mazmuni bo'yicha o'rnatiladi. Masalan, Angliya funt sterlingi-ning oltin mazmuni oltinning 1/4 unsiyasini (1 troysk unsiyasini 31,1 g oltin teng), AQSH dollari esa 1/20-tashqil qilgan. Ularning valyuta kursi 1:5, ya'ni 1 f.s. 5 dollarga teng.

SHunday qilib, oltin bog'langan valyutalar bir-biriga qattiq valyuta kurslari bilan bog'lanadi. Turli mamlakatlar pul birliklari qiymatining juda sezi larsiz (+/-1%) bo'lib, bu oltinni chetga chiqarish (upakovka, straxovka qilish va jo'natish qiymati) harajatlari bilan aniq-langan. Oltin standart tizimi ko'yidagi ustunliklarga ega: a) Barqaror valyuta kurslari tahlika va noaniqlarning kamayishiga imkon beradi va shu orqali xalqaro savdo hajmining o'sishini rag'batlantiradi; b) Oltin standart to'lov balansining kamyob (defisit) va akti vlarini o'z-o'zidan tenglash-tiradi.

Oltin standart ikkita kamchillika ham ega bo'lgan: 1. Oltin standart-ning asosiy kamchiligi, u tug'diradigan moslashish tadbirlari hisoblanadi. Oltin standartalar amal qiluvchi mamlakat, bir tomonidan ishsizlik va daromadlarning qisqarishi, boshqa tomonidan inflyasiya kabi shakllarni qabul qiluvchi moslashuvining ichki iqtisodiy jarayonlar bilan kelishishi zarur. Oltin standartning xalqaro tizimida mamlakatlar mustaqil pul siyosati o'tkazishdan voz kechishi zarur bo'ladi. 2. Oltin standart, faqat qat-nashchilardan bittasi o'zlarining oltin zahirasini tugatmaguncha amal qilish mumkin. Boshqacha aytganda, bu tizimda oltin rezerv sifatida chiqadi va mamlakat faqat o'zida bunday rezervlar bo'lganda qayd qilining valyuta kurslari xaqidagi talabni bajarish mumkin.

Butun dunyoni qamrab olgan «30-yillardagi buyuk turg'unlik» oltin standartni halokatga olib keldi. Oltin standart tizimiga asoslangan turli mamlakatlar, o'zlarining valyutalarini oltin nisbatan devalvasiya qilishga harakat qildi. Lekin bu devalvasiya oltin standart tizimi mavjud bo'lishining asosiy shartlariga zid keldi va u barbod bo'ldi. Oltin standart barbod bo'lgandan keyin, 30-yillar halqaro valyuta tizimi qator bloklarga (sterlingli, dollarli blok, frank bloki va x.k.) bo'lingan davr bo'ldi. Ikkinchi jahon urushi davrida, halqaro hisob-kitoblar asosan kli-ringli xarakter kasb etdi. Ikki tomonlama kliningda tomonlar tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitobni o'zaro to'lash xaqida kelishib oladi. Bu davrda ko'pchilik mamlakatlarga valyutali cheklashlar kiritildi.

*Bretton-Vuds tizimi.* Oltin standart barbod bo'lgandan keyin, valyuta sohasini tartibga solishning o'zaro maqbul yo'lini topishga harakat qilindi. YAngi jahon valyuta tizimi asoslarini ishlab chiqish maqsadida, 1944 yil Bretton-Vudsda (AQSH) ittifoqchi davlatlarning xalqaro konfe-rensiyasi chaqirildi. Bu konferensiyada o'zaro bog'liq valyuta kurslarini tartibga solish tizimini yaratish haqidagi kelishuvga erishildi va bu ko'pincha Bretton-Vuds tizimi deb ataladi. Mazkur tizim oldingi oltin standartdan keskin farq qilmaydi. Uning asosida *oltin-valyuta standart* yotadi va bu erda rezervlar sifatida *oltin va dollar chiqadi*. *Valyuta standart*-bu qonunchilik tartibida o'rnatilgan, ikkita milliy valyuta o'rtasidagi nisbat bo'lib, valyuta kursining asosi hisoblanadi. Kelishuvga qo'l qo'ygan mamlakatlar, o'z valyutalarining kursini oltin yoki dollarda qayd qiladi.

Dollar oltin bilan bog'lanadi. (1 unsiya oltinga 35 dol.) va asosiy rezerv hamda hisob-kitob valyutasi deb tan olindi. AQSH o'ziga boshqa mamlakatlarning markaziy banklari uchun qog'oz dollarni oltinning qayd qilingan mazmuni bo'yicha almashtirib berish majburiyatini oldi. Bretton-Vuds konferensiyasida yangi valyuta tizimini real va barqaror bo'lishiga xizmat qiluvchi xalqaro valyuta fondi (XVF-MVF) tuzildi. XVF orqali boshqariladigan va nisbatan qayd qilingan valyuta kurslariga suyana-digan yangi jahon valyuta tizimi ayrim o'zgarishlarga uchragan holda 1971 yilgacha amal qildi.

Bretton-Vuds tizimi yuqorida ta'kidlanganidek, xalqaro rezervlar sifatida oltin va dollardan foydalanishni ko'zda tutadi. Oltindan xalqaro ayirboshlash vositasi sifatida foydalanish, uning ancha oldingi davrdagi oltin standart tizimidagi rolidan kelib chiqadi. Dollar esa jahon puli sifatida ikki sababga ko'ra tan olingan. Birinchidan, AQSH ikkinchi jahon urushidan dunyo mamlakatlari orasida iqtisodiyoti rivojlangan eng kuchli davlat hisoblanadi. Ikkinchidan, AQSH oltinning juda katta miqdorini to'playdi va 1934-1971 yillarda chet el moliyaviy organlariga qayd qilingan baholar bo'yicha (1 unsiya 35 dol.) oltinni sotish va sotib olish siyosatini olib bordi. SHunday qilib, dollar oltinga talab bo'yicha aylantirildi va unga oltinning o'rmini bosuvchi sifatida qaraladi. AQSH to'lov balansi barqaror va o'sib boruvchi kamyoblik bilan to'qnash kelishi natijasida, prezident R. Nikson 1971 yil 15 avgustda dollarning oltinga almashinishini (konvertiroemost') to'xtatdi. Bu to'xtatish oltinning dollarga qayd qilingan baholar bo'yicha almashtirish siyosatining oxiri bo'ldi. Yangi siyosat oltin va dollarning baynalminal qiymati o'rtasidagi bog'liqlikni buzdi va dollar qiymatini bozor kuchlari bilan aniqlashga yo'l qo'ydi.

*Boshqariladigan suzib yuruvchi valyuta tizimi.* Dollarning oltinga almashinishi rasman to'xtagandan keyin, valyutaning qayd qilingan kursi, suzib yuruvchi kursiga o'rin bo'shatadi. Xalqaro valyuta tizimidagi bu o'zgarish 1976 yil Kingston (Yamayka) dagi kelishuvga binoan huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. Qog'oz pul tizimiga o'tish bilan, qog'oz pullar, oltinga almashtirilmaydi. Beqoror kurslar sharoitida valyuta kursi ham har qanday boshqa bahs kabi talab va taklifning bozor kuchlari bilan belgilandi.

Talab va taklif ta'sirida sezilarli tebranish, barcha kuchli va kuchsiz valyutalar uchun ham xarakterli. Bir tomondan, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning o'zgarib turuvchi sharoiti valyuta kurslarining doimiy o'zgarishini taqozo qiladi (to'lov balanslarining barqaror salbiy yoki ijobiy qoldig'idan qochish uchun); valyuta kurslari suzib yurish imko-niyatiga ega bo'lishi zarur. Boshqa tomondan, valyuta kurslarining qisqa muddatli o'zgarishi natijasida savdo-sotiq chayqovchilik yo'li bilan kuchayishi mumkin, bu savdo va moliyaviy oqimlarning buzilishiga olib keladi. SHu sababli turli mamlakatlarning markaziy banklari valyuta kurslarining bunga o'xshash tebranishlarini bartaraf qilish uchun chet el valyutalarini sotib olish va sotish to'g'risidagi umumiy kelishuvga ega.

Boshqacha aytganda, markaziy banklar va o'z mamlakatlari valyuta kurslarining qisqa muddatli o'zgarishlarini «boshqarish» yoki uni barqarorlash-tirish zarur. SHu bilan birga Amerika va Kanada dollari, YAPoniya ienasi, Britaniya funt sterlingi kabi etakchi valyutalar tebranadi yoki talab va taklifning o'zgaruvchi sharoitlariga mos ravishda o'zgaradi. Evropa «Umumiy bozori»ning ko'pchilik mamlakatlari o'z vakillarini bir biriga bog'lashga harakat qiladi. Ko'plab kam rivojlangan mamlakatlar ham o'z valyutalarini qandaydir etakchi sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlar valyutasiga bog'laydi. Masalan, qirqdan ortiq eng kam rivojlangan mamlakatlar o'z valyutalarini dollarga bog'lagan. *CHet el valyutasiga bo'lgan talab hajmi* mamlakatning tovar va xizmatlar importi, turistlarga sarflar, mamlakat amalga oshirishi zarur bo'lgan har xil to'lovlar va shu kabilar aniqlanadi. Valyuta ga taklif miqdori mamlakat eksporti hajmi, u oladigan qarzlari va shu kabilar bilan aniqlanadi.

5. Valyuta kursi va uni aniqlovchi omillar.

Har qanday valyuta tizimining eng muhim elementlaridan biri valyuta kursi hisoblanadi. Valyuta kursi bir mamlakat valyuta bahosining boshqa mamlakat valyutasida ifodalanishini ko'rsatadi. Valyuta kurslarining ik-kita bir biriga qarama qarshi variantlari mavjud:

1. Milliy valyutalarning bir biriga ayirboshlash kursi talab va taklif bilan aniqlanadigan egiluvchan yoki suzib yuruvchi valyuta kurslari tizimi;

2. Qattiq qayd qilingan valyuta kurslari tizimi. Bunda valyuta kurslarining talab va taklif tebranishi natijasida o'zgarishiga chet el valyutalari bozorining amal qilishiga davlatning aralashuvi yoki boshqa mexanizmlar qarshilik ko'rsatadi.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari talab va taklif ta'siri ostida aniqlanadi. Amerika dollari, Britaniya funt sterlingiga ayirboshlanishi mumkin bo'lgan kurs yoki bahoni qarab chiqamiz. Funtga amerikaliklarning tushib boruvchi talabi shuni bildiradiki, ular uchun funt va Britaniya tovarlarining barcha turlari arzon bo'ladi. Amerikaliklar uchun funt taklifi o'ssa, dollardagi funtning ancha yuqori bahosida britaniyaliklar ko'proq miqdordagi amerika tovarlarini sotib olishni xohlaydilar. Amerika tovarlarini sotib olish uchun britaniyaliklar funtni valyuta bozoriga qo'yadi, chunki ular avvalo funtni dollarga ayirboshlashi zarur bo'ladi. Erkin bozor kuchlari o'matiladigan valyuta kurslari o'zgarib turadi. Funtning dollardagi bahosi oshganda, dollarning qiymati pasayadi yoki dollar funtga nisbatan qadrsizlanadi. Aksincha, funtning dollardagi baxosi pasayganda, dollarning qiymati oshadi yoki dollar funtga nisbatan qimmatlashadi. Valyuta kurslarining o'zgarishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularni qisqacha qarab chiqamiz.

1. Iste'molchi dididagi o'zgarishlar. Iste'molchilarning boshqa mamlakat buyumlariga bo'lgan talabni o'zgarishi, bu mamlakat valyutasiga talab yoki taklifni hamda uning valyuta kursini o'zgartiradi.

2. Daromadlardagi nisbiy o'zgarishlar. Agar bir mamlakatda milliy daromadning o'sishi, boshqa mamlakatdagi bu ko'rsatkichning o'sishidan ustun

bo'lsa, bunda uning valyuta kursi pasayadi. Mamlakatning importi uning daromadi darajasiga to'g'ri bog'liqlikda joylashadi.

3. Bahodagi nisbiy o'zgarishlar. Agar bir mamlakat, masalan, AQSHda ichki bahs darajasi tez o'ssa, boshqa mamlakat, masalan, Buyuk Britaniyada bu daraja o'zgarishsiz qolsa, bunda amerikalik iste'molchi nisbatan arzon britaniya tovarini izlaydi va shu bilan funtga talabni oshiradi. Aksincha, britaniyaliklar amerika tovarlarini sotib olishga kam moyil bo'ladi va bu funt taklifini pasaytiradi. Funtga talab o'sishi va taklif pasayishining bu uyg'unlashuvi dollarning qadrsizlanishi keltirib chiqaradi.

4. Nisbiy real foiz stavkalar. Faraz qilamiz, AQSH inflyasiyani quvib o'tish maqsadida «qimmat pul» siyosatini amalga oshira boshlaydi. Natijada, real foiz stavkalari (inflyasiya sur'atini hisobga olib to'g'ri-langani foiz stavkalar) AQSHda boshqa mamlakatlar, masalan Buyuk Britaniyaga qaraganda ko'tariladi. Britaniyalik jismoniy shaxs va firmalar AQSH moliyaviy mablag'larini qo'yish uchun qulay joyga aylanishiga Amerika mo-liyaviy aktivlariga talabning ko'payishi Angliya taklifining kengayganligi va shu sababli dollar qiymati o'sganligini bildiradi.

5. CHayqovchilik. AQSH iqtisodiyotida quyidagi holatlar bo'lishini faraz qilamiz:

- a) Britaniya iqtisodiyotiga qaraganda tez o'sa boshlaydi;
- b) Britaniya iqtisodiyotiga qaraganda ancha kuchli inflyasiyaga to'qnash keladi;
- v) Britaniyadagiga nisbatan ancha past real foiz stavkalariga ega bo'ladi;

Bu prognozlar kelajakda dollar kursi pasayishi, funt kursi esa, aksincha ko'ratilishidan darak beradi. Demak, dollari ushlab turuvchilar ularni funtga aylantirishga harakat qiladi va shu bilan funtga bo'lgan talabni oshiradi. Bu almashish, so'zsiz, dollar kursining pasayishini va funt kursining oshishishni keltirib chiqaradi.

Qayd qilingan valyuta kurslari. Talab va taklifdan kelib - chiqib vaqti-vaqti bilan valyuta kurslari o'zgarib turadi. Davlat valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun o'valyuta bozorining amal qilishiga bevosita eki bilvosita aralashishi zarur. Buning bir qator usullari mavjud.

1. Ehtiyot (rezerv) lardan foydalanish. Valyuta kursini mustahkam-lashning ko'proq qo'llaniladigan usuli-rasmiy ehtiyotlar yordami bilan bozorni manipulyasiya qilish hisoblanadi. O'z-o'zidan ayonki valyuta extiyotlari alohida mamlakatlar ega bo'lgan chet mamlakatlar valyutalari-ning oddiy zaxirasi hisoblanadi.

«Jahon puli» sifatida, yoki boshqacha aytganda, ehtiyotlar sifatida, odatda oltindan foydalaniladi. Masalan, AQSH xukumati Buyuk Britaniyaga o'zi ega bo'lgan oltinning bir qismini sotib, uning funtlarini olishi mumkin. SHu yo'l bilan sotib olingan funtlar amerika savdosi va moliyaviy operatsiyalari tufayli jamanganlgan zaxiralarni o'stirish uchun foydalanilishi mumkin. Bu erda ehtiyotlar miqdori funt taklifini zarur miqdorda ko'paytirishga erishish uchun etarli bo'lishi juda muhimdir.

Savdo siyosati-valyuta bozoriga ta'sir ko'rsatishning boshqa tadbirlari, savdo va moliyaviy oqimlar ustidan to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilish hisoblanadi. Masalan, AQSH sterling etishmasligi sharoitida valyuta kursini tegishli darajada (2 doll-1 f.st.) importni cheklash (shu orqali funtga talabni kamaytirish) va eksportni rag'batlantirish (shu orqali funt taklifini o'rtirish) Xisobiga ushlab turish mumkin.

Xususan import boj yoki importkvotalarini kiritish bilan qisqari-shi mumkin. Xuddi shunday Amerikaliklar chet el kapital quyilmalaridan oladigan foiz va dividendlardan maxsus soliqlar undirish mumkin. Boshqa tomondan, amerika xukumati ayrim amerika eksport tovarlarini subsidiya qilib, shu orqali funt sterling taklifini ko'paytirish mumkin. Bu tadbirlardan foydalanishda, u jahon savdosi hajrmini qisqartiradi va uning tarkibini, savdo aloqalarini o'zgartirib yuboradi, iqtisodiy maqsadga muvofiklikning buzilishiga o'zining hissasini qo'shadi. Buning oqibatlarini hisobga olmaslik mumkin emas.

Valyutali nazorat. Boshqa muqobil variantda valyutali nazorat hisoblanadi. Valyutali nazorat sharoitida davlat milliy eksporterlar olgan barcha tegishli chet el valyutalarini o'ziga sotish talabi bilan chqib, ularning etishmasligi muammosini hal qilishi mumkin. Keyin davlat o'z navbatida chet el valyutasining bu katta bo'lmagan zahirasini turli milliy importerlar o'rtasida tasimlaydi. SHu yo'l bilan davlat milliy importni, milliy eksport hisobidan olingan chet el valyutasi miqdoriga cheklaydi. Valyutali nazorat tizimi bir ator kamchiliklarga ega. Birinchidan, savdo cheklashlari (boj, kvata, eksportli subsidiyalar) kabi valyutali nazorat Kiyosiy ustunlik prinsipiga asoslangan xalqaro savdoning tarkib topgan aloqalarini buzadi. Ikkinchidan, etarli bo'lmagan valyuta resurslarini valyutali nazorat jarayoni so'zsiz aloxida importerlarni kamsitish bilan bog'liq. Uchinchidan, nazorat tadbirlari iste'molchining tanlash erkinligi-ga tajovuz qilish hisoblanadi.

4. Ichki makroiqtisodiy tartibga solish. Valyuta kursi barqarorligi-ni ushlab turishning oxirgi vositasi ichki soliq va pul siyosatidan shunday foydalanish hisoblanadiki, bunda tegishli chet el valyutasining etishmas-ligi bartaraf qilinadi. Masalan, cheklovchi soliq va pul tadbirlari AQSH milliy daromadini Buyuk Britaniya milliy daromad darajasiga nisbatan pasaytiradi. CHunki, import miqyosi milliy daromad daromad darajasiga to'g'ridan-to'g'ri bo'lib, bu britaniya buyumlariga, demak, funt sterlingga talabning cheklanishiga olib keladi.

Qayd qilingan valyuta kursi tizimi tarafdorlari shuni ko'rsatadiki, undan foydalanish xalqaro savdo va moliya munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan tahlika va noaniqlikni kamaytiradi. Qayd qilingan valyuta kurslarini qo'llash o'zaro foydali savdo va moliyaviy operatsiyalar hajmini kengaytirishga olib keladi, deb hisoblanadi. Ammo qayd qilingan valyuta kurslari tizimining layoqatligiga ikkita o'zaro aloqador sharoitiga bog'liq: 1). Etarli ehtiyoqlarning mavjudligiga va 2). O'z hajmi bo'yicha sezilarsiz kamyoblik yoki to'lov balansi aktivlarining vujudga kelishiga. Katta va doimiy kayobliklar mamlakat ehtiyojlarini yo'qqa chiqarishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, valyuta kurslarining talab va taklif ta'siri ostida shakllanish, o'z-o'zicha kursli nisbatlarga ta'sir ko'rsatuvchi real jarayon-larni aniqlab bera olmaydi. CHet el valyutalariga talab va taklifga, demak valyuta

kurslariga mamlakatdagi xam ichki va xam tashqi iqtisodiy munosabatlar majmui bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta kurslariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- milliy daromad va ishlab chiqarish xarajatlar darajasi;
- milliy real xarid qilish layoqati va mamlakatdagi inflyasiya darajasi;
- valyutalarga talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi to'lov balansi holati;
- mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi;
- valyutaga jahon bozoridagi ishonch va x. k.

Nazariy jihatdan valyuta kurslarining tebranishini tushuntirish, xarid qilish layoqatining paritet (turli mamlakatlar pul birliklari qiymatining bir biriga nisbati) nazariyasi yordamida beriladi. Bu nazariya-ga ko'ra, kursli nisbatlarni aniqlash uchun, ikki mamlakat iste'molchilik tovarlari shartli «xaltasi» narxlarini taqqoslash talab qilinadi. Masalan, agar O'zbekistonda bunday «xalta», aytaylik besh ming so'm, AQSH da esa 100 dol. tursa, 5 mningni yuzga bo'lib, 1 dol. ning baxosini xosil qila-miz, bu 500 so'mga teng.

Agar O'zbekistonda muomaladagi pul massasining ko'payishi oqibati-da, tovarlar boxosi ikki marta oshsa, AQSHda xammasi o'zgarishsiz qoladi, va barcha sharoitlar teng bo'lganda dollarning sumga ayirboshlash kursi ikki marta oshadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosan gippperinflyasiya ro'y berganda xarid qilish layoqatining paritetnazariyasi kursli nisbatlarni oldindan aytish imkonini beradi. Valyuta kurslarini o'zgarishi eksport maxsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar potensial foydaliligiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, agar AQSH 1 dollprini 2,5 nems markasiga ayirbosh-lansa (1975 yilgi rasmiiy kursi) GFR uchun maishiy elektronika ishlab chiqaruvchi amerika eksporterlarining tushimi 100 marka 40 dol.ga tenglashadi.

Valyuta kurslarining 1:1,682 nisbatiga o'zgarishi (1991 yilgi kurs) sotishning o'zgarmas xajmida tushiminig 59 dol.ga kpayishiga olib keldi. Valyuta kurslari milliy iqtisodiyotga, ishlab chiqarish va undagi bandlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Milliy valyutalar kursini pasayishi mamlakatlar eksport imkoniyatini oshiradi. Ammo mamlakat eksporti xomashyo tovarlari importiga asoslansa, bunda valyutalar kursining pasayi-shi eksport qilinadigan tovarlar narxining o'sishiga olib keladi va bu ularning raobatga layoqatliligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Valyuta kurslarining oshishi, mamlakatda eksport imkoniyatini yomonlashtiradi. Valyuta kurslarining beqarorligi tashqi iqtisodiy aloqa-lor holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Uning tebranishi xalqaro bitimlarda noaniqlik va taxlika darajasini kuchaytiradi. SHu sababli, valyuta kursi xam mamlakat ichida, xam xalqaro munosabatlarda tartibga solishning muxim ob'ekti hisoblanadi. Davlat bevosita tartibga solish vositasi sifatida valyutali intervensiya va diskont siyosatidan foydala-nishi mumkin.

Diskont-banklar tomonidan olinadigan foiz. Bank hisob stavkasini oshirib eki tushirib, chet el kapitallari oqib kirish eki chiqib ketishiga ta'sir ko'rsatishi

mumkin. Tartibga solishning ko'proq universal usuli valyutali intervensiya hisoblanadi. Bunda markaziy banklar taklifi etarli bo'lmagan kursi esa yuqori bo'lgan chet el valyutalarini sotadi, taklif o'rtqcha va kursi past bo'lganda sotib oladi. Bu bilan talab va taklifni tenglashtirib milliy valyuta kursi tebranish chegarasini cheklaydi. Valyutali intervensiyani qo'llash ehtiyot valyuta fondining miqdori bilan cheklanadi, shu sababli valyutalarni sotish albatta uni sotib olish bilan almashib turishi zarur. Bundan tashqari inflyasiyaning yuqori sur'atda, valyutalar kursi valyuta xarid qilish kuchlari nisbatining o'zgarishi tufayli pasayadi. Bu xolda, valyutali intervensiya mazkur mamlakat valyuta-lari devalyatsiyasi (kursning rasmiy pasayishi) yoki revalyatsiyasi (kursning rasmiy oshishi) bilan birga borishi zarur.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning barcha shakllari kabi, valyutali tartibga solish uchun xam proteksionizm va liberalizm doirasida mohirona xarakat qilish xarakterli. Proteksionistik tadbirlar jumlasiga davlat-ning valyuta sohasiga valyutali cheklash kabi bevosita aralashuvi shaklini kiiritish mumkin. Davlat undan foydalanishda oltin va valyuta operatsiya-lari ustidan nazoratni amalga oshiradi. Milliy eksporterlar o'zlariga ega blgan chet el valyutalarini bozorda sotish xuquqiga ega bo'lmaydi. Ular bu valyutalarni milliy valyutalarga rasmiy kurslari bo'yicha almashtirishga topshirishi zarur bo'ladi. Davlat tomonidan qo'llaniladigan valyutali cheklash hajmi va usulari bilan valyutalarni ayirboshlash, mamlakatda ko'plab valyuta kurslarining mavjudligi kabi muammolar va milliy valyuta tizimining boshqa tavsiflari to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi.

#### **5-§. Xozirgi zamon valyuta muammolari va asosiy davlatlararo valyuta moliyaviy muassasalar faoliyati.**

Xalqaro valyuta munosabatlari xozirgi bosqichi uchun beqarorlik jarayonlarini etarli darajada yumshatish va bu sohada davlatlar iqtisodiy siyosatini uyg'unlashtirish xarakterli. Oxirgi o'n yillikda valyuta sohasida uning beqarorligini aniqlovchi muammolar ichidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: muhim valyuta kurslari uchun ham xarakterli bo'lgan valyutalar kursi nisbatlarning doimiy tebranishi (dollar kursining markaga va dollarning ienaga nisbatan); rivojlangan mamlakatlar federal byudjeti kamebligining beqarorlashtiruvchi ta'sir ko'rsatishi; amalda barcha rivojlanaeagan mamlakatlarga tegishli bo'lgan qarzdorlikning hal qilinmagan muammolari va boshqalar. Valyuta sohasida milliy iqtisodiyot ulardan chetda ruy beradigan jarayonlarga ko'proq sezilarli darajada bog'liq. Valyuta soxasida o'zaro bog'liklikni xisobga olmaslikka misol qilib, AQSHda 80-yillar boshlarida foiz stavkalarining keskin o'sishi bilan ruy bergan vaziyatni eslatish mumkin. Bu qarzdorlik krizisning birinchi to'loqiniga olib keldi va xalqaro kredit tizimini xavf ostiga qo'ydi. Aksincha, oqilona uyg'unlashtirishga, 1986 yil AKSH, GFR va Yaponiyada foiz xisob stavkasini bir vaktida pasaytirish bilan bog'lik vaziyat, G'arbiy Evropa markaziy banklarining birgalikdagi xarakati misol bo'lib xizmat kiladi.



"Suzib yuruvchi kurslar" kiritilgandan keyin /1972 y./ valyuta bilan bog'liq birjali bitimlar xajmi keskin kengaydi. Barcha valyutali bitim-larning 90% i savdo operatsiyalari bilan bog'liq bulmagan sharoitda, valyuta tovari bilan chaykovchilikning juda katta imkoniyati xar kandy milliy pul xujaligini izdan chikaradi. Valyuta bozorining jahon iqtisodiyotiga bekarorlashtiruvchi ta'sir ko'rsatishining usib boruvchi xavfiga ma'lum darajada oxirgi yillarda etakchi G'arb mamlakatlari iqtisodiy siesatini uygunlashtirishga xarakat qilish karshi turadi.

Jahon valyuta tizimining bekarorligi, regional darajada valyutali tartibga solishga kelishib xarakat qilishga olib keladi. Jumladan, 1979 yil, Evropa iqtisodiy xamjamiyatiga kiruvchi mamlakatlar tomonidan valyuta kurslarini barqarorlashtirish maqsadida Evropa valyuta tizimi /EVT-EVS/ va "Umumiy bozor" doirasida firmalar o'rtasida to'lov ope-rasiyalarning ma'lum statusini olgan Evropa valyuta birligi-EKYU tuzildi. EVTga kiruvchi mamlakatlar valyutalari, o'zaro etarli darajada qattiq kursli nisbatlarda boshlangan. Milliy valyutalar EKYU atrofida +2,25% chegarasida tebranish xuquqiga ega bo'ladi. Istiqbolda xamjamiyat valyuta ittifoqini, Evropa xamjamiyatiga kiruvchi mamlakatlar yagona xujalik kompleksining yagona pul birligi sifatida rejalashtirmokda. Valyutali barqarorlikning G'arbiy Evropa zonasini kengaytirish, butun dunyoda integrasion jarayonlar uchun ijobiy turtki beradi.

Valyuta soxalarini uyg'unlashtirish milliy darajada xam, davlatlararo valyuta-moliya muassasalari orasida xam ruy beradi. Valyutali tartibga so-lish soxasida eng muxim rolni G'arbdagi etakchi etti mamlakatlarning yillik iqtisodiy kengashi, Xalqaro valyuta fondi, iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashqiloti, Xalqaro xisob-kitoblar Banki o'ynaydi. Ular-dan ayrimlarining rolini qarab chiqamiz.

Xalqaro valyuta fondi o'z nizomiga binoan xalqaro valyutali xamkorlikka a'zo-mamlakatlar valyuta kurslarini va to'lov balanslarini tartibga solish, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'p tomonlama to'lov tizimi va tashqi qarzlarini nazorat qilish, a'zo-mamlakatlarga ularning valyuta-moliya muammolarini xal qilish uchun kredit berish yo'llari bilan ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi.

1970 yildan XVf qarz berishning maxsus xuquqi-xalqaro to'lov va extiet vositalari /SDR/ni chiqaradi. SDR-xalqaro xisob-kitob birligi bo'lib, naqd belgi /pul/lar ko'rinishida mavjud bo'lmaydi, faqat XVf maxsus hisobiga kreditli yozuvlar shaklida fondning a'zo-mamlakatlari markaziy banklari o'rtasidagi hisob-kitoblarda foydalaniladi. SDR qiymati a'zo-mamlakatlar /AKSH, GFR, Fransiya, Angliya, YAponiya/ va lyutalari o'rtacha qiymatining "valyutali xalta" deb nomlanuvchi qiymati asosida hisoblanadi.

SDRga kiruvchi valyutalarning jahon iqtisodiy oborotidagi nisbiy axamiyatidagi o'zgarishlarni xisobga olish maqsadida SDR tarkibini ko'rib chiqish besh yilda bir marta amalga oshiriladi. 1991 yil Iyanvardan boshlab Amerika dollarining hissasi 40 foiz, YAponiya ienasiniki 17 foiz, nemis markasi 21 foiz. angliya funt sterlingi va fransuz franki 11 foizni tashqil qilgan. Xalqaro

xisob-kitob pul birligining paydo bo'lishi /SDR,EKYU/ jahon xamjamiyatiga kiruvchi mamlakatlar iqtisodiyotining o'zaro qo'shilib ketishining kuchayishidan guvohlik beradi. SHu bilan birga ularga jahon valyuta tizimi barqarorligini ta'minlash vositasi sifatidagi ishonch oqlanmadi. Xalqaro xisob-kitoblarda oldingidek asosiy vosita bo'lib milliy valyutalar chiqmoqda. Etakchi mavqeni AQSH dollari saqlab qolmoqda.

XVF bilan birgalikda xalqaro valyuta-moliyaviy munosabatlarni ko'p tomonlama tartibga solishda muxim rolni xalqaro ta'mirlash va rivojlanish banki /XTRB/ o'ynaydi. XTRB /MBRR/ o'zining ikkita filia-li-Xalqaro moliyaviy korporasiya /XMK-MFK/ va Rivojlanishning xalqaro uyushmasi /RXU-MAR/ bilan birga jahon bankining tarkibiga kiradi. XTRB qarzlarning asosiy qismi-bu qarz oluvchi mamlakatda tarkibiy qayta qurishlarga yordam beruvchi loyixa va dasturlarni amalga oshirishga yunaltilgan uzoq muddatli kreditlardir. Bunday dasturlarni ishlab chiqishda tadqiqotchi va amaliyotchi mutaxassislardan iborat bo'lgan XTRB ning kuchli apparati qatnashadi.

XTRBning filiallari bo'lgan-XMK va RXU xususiyatlari shundan ibo-ratki, XMK avvalo rivojlanaetgan mamlakatlardagi xususiy sektorni mo-liyalashtiradi. RXU axolisining daromadlari o'rtacha yiliga 400 dol.dan kam bo'lgan kamroq rivojlangan mamlakatlarga imtiyozli, ba'zan foizsiz kreditlar beradi.

Xukumatlararo muassasalar ichida, valyuta-moliyaviy soxada faol xamkorlik qilayotgan muassasaga barcha sanoat jixatdan rivojlangan mamla-katlar kiradigan Iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashqiloti /IXRT-OESR/ni ajratib ko'rsatish mumkin. IXRTga a'zo-mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishidagi tamoyillarni va iqtisodiyot soxasidagi ichki xarakat-laming boshqa mamlakatlar to'lov balansiga ta'sirini aniqlashga xizmat qiladi. IXRT doirasida, jahon xo'jaligi rivojlanish tamoyillarini xi-sobga olib, milliy iqtisodiyotning o'zaro moslashuviga imkon beruvchi makroiqtisodiy siyosatni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Xalqaro valyuta-moliya soxasida muxim o'rinni Xalqaro xisob-kitoblar Banki /XXKB-BMR/ egallaydi va u banklar faoliyatini xalqaro tartibga solishda etakchi roly o'ynaydi. XXKB amalda barcha Evropa mamlakatlari banklari, Kanada, Avsraliya, Yaponiya va AKSH tijorat banklari guruxini birlashtiradi. 70 dan ko'p markaziy banklar o'z extiyot valyutalari mablag'larini XXKB xisob /shet/larida saqlaydi. Uning qo'mi-talari va tarkibiy qismlarida ishlab chiqilgan davlat tomonidan tartibga solish va bank faoliyati ustidan nazorat qilish qoidalari a'zo mamlakat-lardagi barcha tijorat banklar uchun majburiy xisoblanadi.

Keyingi yillarda sanab chiqilgan barcha xalqaro iqtisodiy muassasalar, amalda SHarkiy Evropa va sobik SSSR mamlakatlari valyuta-moliyaviy soxasiga ta'sir ko'rsatish muammolari bilan faol shug'ullanmokda. Bu yordamni uyg'unlashtirish uchun 1990 yil Ta'mirlash va rivojlanish Evropa banki /TREB-EBRR/ tashqil qilindi. TREB faoliyati Markaziy va SHarqiy Evropa mamlakatlarida isloxot qilish

jarayoni bilan bog'liq turli xildagi dasturli va loyixalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Jahon xamjamiyati tomonidan valyuta va moliya sohasida bozor kuchlarini davlatlararo tartibga solish bilan ziddiyatli bog'lashga asoslangan uyg'unlashtiruvchi mexanizmlarning yaratilishi, o'zlari amal qilib to'rgan davrda vujudga keladigan ixtiloflarni muvofiqlashtirish va moslashga layoqatligini namoyon qildi. Ammo jahon valyuta tizimini takomillashtirish, va uning asosiy mexanizmlarining evolyusiyasi muammolari doimiy kun tartibda turadi.

### ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Eksport – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

Import – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.

Reeksport - qandaydir mamlakat ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarlarni o'z iste'moli uchun emas, balki boshqa mamlakatga qayta sotish uchun sotib olishidir.

Reimport – iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olish.

Xalqaro valyuta tizimi – xalqaro valyuta munosabatlarida davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan va xalqaro hisob – kitoblarni amalga oshirishda qo'llaniladigan qoida va tartiblar.

Valyuta kursi – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan bahosi.

To'lov balansi – mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar, davlat) va chet ellik jismoniy va huquqiy shaxslar o'rtasida ma'lum vaqt oralig'ida (odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy faoliyatlar, kesishuvlar natijasida valyuta tushumlari va valyuta chiqimlarining nisbati.

Iqtisodiy bitimlar – qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya'ni tovarlar ko'rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi bo'yicha kelishuvlar.

### SAVOLLAR VA O'QUV TOPSHIRIQLARI.

1. Ichki va tashqi savdoning o'xshashliklari nimadan iborat? Ularning farqi nima? Xalqaro savdo qanday ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi?

2. Tashqi savdo qanday vazifalarni bajaradi? Xalqaro savdo asosiy xususiyatlari tavsifini bering. Xalqaro savdoning asosini nima tashkil qiladi?

3. O'zbekiston A tovarni Qirg'izistonga qaraganda ancha samarali ishlab chiqarish mumkin. Ammo biz A tovarni Qirg'izistondan import qilamiz. Nima uchun?

4. Nima uchun xalqaro savdoda sun'iy to'siqlar mavjud bo'ladi? Ularning tavsifini bering. Tashqi savdo to'siqlarini oqlovchi dalillarga o'z qarashlaringizni ayting.

5. Proteksionistik siyosatning ijobiy va salbiy tomonlari qanday? Ularni taqqoslang?

6. Xalqaro savdoda iqtisodiy integrasiyaning axamiyati qandayligi va unda O'zbekistonning ishtirok etishi imkoniyatlarini aniqlang.

7. To'lov balansi tanqisligi: a/ oltin standart, b/ Bretton-Vudsk tizimi, v/ erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari xukmron bo'lgan sharoitlarda qanday tartib solinishini batafsil tushuntiring. Xar bir tizim qanday ustunlik va kamchiliklarga ega?

8. Iernaning dollardagi baxosining oshishi so'zsiz, dollarning senadagi baxosining tushunishini bildiring". Bu tasdik bilan kelishasizmi? Valyuta kurslarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tavsifini bering.

9. Davlat valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun qanday usullardan foydalaniladi? CHet el valyutalariga talab va taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

10. Valyuta soxalarini uyg'unlashtiruvchi davlatlararo va xalqaro valyuta-moliya muassasalarini sanab o'ting va ularning faoliyatiga qisqacha tavsif bering.

#### Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. «Bizning bosh maksadimiz – jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va islox etishdir» , «O'zbekiston» 2005.
2. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz», T. «O'zbekiston», 2000y.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari. » -T. «O'zbekiston», 1998.
4. «To'g'ridan to'g'ri xususiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Xalk so'zi 12 aprely.
5. SH. SHodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T., «Moliya» nashriyoti, 2002.
6. A. Qodirov. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
7. D. Tajiboeva. «Iqtisodiyot nazariyasi», -T.2002.
8. Makkonel K., Bryu S. «Ekonomiks», M.2002.
9. Kurs ekonomiki. Avtor koll. pod red. prof. B. A. Rayzberga.- Uchebnik: - INFRA – M.2004.
10. Kurs ekonomicheskoy teorii. Avtor koll. pod red. prof.M. N. CHepurina. Uchebnik: - INFRA – M.2004.
11. Ekonomicheskaya teoriya (Politekonomiya). Pod. obsh. red. akad. V. I. Vidyapina, akad. T. P. Juravleva. Uchebnik 4-e izdanie: - INFRA – M.2004.
12. Kulikov L. M. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
13. E. F. Borisov Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.
14. Pod. red. d.e.n., prof. A. S. Bulatova. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

15. Ioxin V. YA. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.  
16. Pod. red. d.e.n., prof. A. G. Gryaznovoy. d.e.n., prof. T. V. Chechelovoy. Ekonomicheskaya teoriya Uchebnik: - M.2005.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining 2004 yil yakunlari. Xalq so'zi - 25 mart.
2. Chepurin M.N. i dr. Sbornik zadach po ekonomicheskoy teorii. Kirov - 2005.
3. SH. SH. SHodmonov, T. M. Ziyaev va M. T. YAxshievlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T- 2005.
4. Pod. red. d.e.n., prof. D. D. Moskvin. Osnovy ekonomicheskoy teorii. - M.2005.

### Ve b-saytlar:

1. [www.Worldfactbook.org](http://www.Worldfactbook.org)
2. [www.IMF.org](http://www.IMF.org)
3. <http://infoteka.economics.ru>
4. [www.finansy.ru](http://www.finansy.ru)
5. [www.cer.uz/files/downloads](http://www.cer.uz/files/downloads)
6. [www.2004.press-servise.uz](http://www.2004.press-servise.uz)
7. [www.rea.uz](http://www.rea.uz)
8. [www.jahon.mfa.uz](http://www.jahon.mfa.uz)
9. [www.budiet.rf.ru](http://www.budiet.rf.ru)

Mazkur mavzu bo'yicha ma'ro'zani o'qishda asosan muammoli va munozarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taklif etamiz. Mavzuni o'tishda prof. SH. SH. SHodmonov, G. D. Bobabekova, G. T. Xalikva tomonidan tayyorlangan «Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v predpodovanii ekonomicheskoy teorii». T-2004, «Innovatsionnye metody obucheniya v ekonomicheskoy obrazovanii» va SH. SH. SHodmonov, T. M. Ziyaeva, M. T. YAxshievlar tomonidan tayyorlangan Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test va savollar to'plami. T-2005 o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanishni taklif etamiz.

**Adabiyotlar**  
**I.Prezident I.A. Karimov asarlari,**  
**Respublika qonunlari va me'yoriy hujjatlari**

- 1.Karimov I.A. O'zbekiston o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1992.
- 2.Karimov I.A. O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li.T.,«O'zbekiston», 1992
- 3.Karimov I.A. Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmag. T., «O'zbekiston», 1993
- 4.Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohatkarni chuqurlashtirish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1995
- 5.Karimov I.A. Maqsadimiz tinchlik, barqarorlik, hamkorlik. T., «O'zbekiston», 1995
- 6.Karimov I.A. O'zbekiston:milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T-1, T., «O'zbekiston»1996
- 7.Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T-2, T., «O'zbekiston» 1996
- 8.Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.T-3, T., «O'zbekiston» 1996
- 9.Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan.T-5, T., «O'zbekiston»1996
- 10.Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T-5, T., «O'zbekiston» 1997
- 11.Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston» 1998
- 12.Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida. T-6, T., «O'zbekiston» 1998
- 13.Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. T., «O'zbekiston» 1998
- 14.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston» 1999
- 15.Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.T., «O'zbekiston»,1999
- 16.Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T., «O'zbekiston», 2000
- 17.Karimov I.A. Milliy mafkura – Daraltimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai (Milliy istiqloq mafkurasi konsepsiyasi ning asosiy tamoyillariga bag'ishlab ilmiy va ijodiy jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda so'zlangan nutq). 2000-yil 6-aprel. «Xalq so'zi» gazetasi, 2000 yil 7-aprel.

18. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakga ishonchidir.

«FIDOKOR» gazetasi muhбири savollariga javoblar. «FIDOKOR», 2000 yil 8 iyun.

19. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish – eng muhim

vazifamiz. «Xalq so'zi» gazetasi, 2001 yil 15 fevral.

20. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz masulmiz. «Xalq so'zi» gazetasi,

2001 yil 17 fevral. 37-son.

21. «Ijara to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekiston Respublikasining

yangi qonunlari. T., «Adolat» 1992

22. «Tashqi iqtisodiy faoliyatlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 14 iyun 1992 yil, O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari. T., «Adolat», 1992

23. «Chet el investitsiyalari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2 iyul 1992 yil,

O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari. T., «Adolat», 1992

24. «O'zbekiston pul tizimi haqida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 7 may 1993 yil,

O'zbekiston yangi qonunlari. T., «Adolat» 1993

25. «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni,

15 fevral 1991 yil, O'zbekiston Respublikasi yangi qonunlari. 5-T., «Adolat» 1993

26. «Qimmatbaxo qog'ozlar bozori to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni,

3 sentabr 1993 yil. O'zbekiston Respublikasi yangi qonunlari. 6-T., «Adolat», 1993

27. «Valyutani tartibga solish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 7 may 1993 yil.

O'zbekiston Respublikasi yangi qonunlari. T., «Adolat», 1993

28. «Kichik va xususiy tadbirkorlarni rivojlantirish va qo'llab quvvatlash to'g'risida»

O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 21 dekabr 1995 yil. O'zbekiston Respublikasi yangi

qonunlari. «Iqtisod va hisobot», 2-son, 1995

29. «Tabiiy monopoliyalar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1997 yil 24 aprel

Qonuni. O'zbekiston yangi qonunlari. T-16., «Adolat», 1997

30. Chet el investitsiyalari to'g'risida Qonun. 1998 yil 30 aprel. O'zbekiston Respublikasi (Soliq to'lovchining jurnali 1998 yil. 6-son).
31. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. («Xalq so'zi» gazetasi, 1998 yil. 19 sentabr.)
32. «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 aprel Qonuni, O'zbekiston yangi qonunlari. T-21., «Adolat» 1999
33. «Tabiiy monopoliyalar to'g'risida» (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgust Qonuni, O'zbekistonning yangi qonunlari. T-22., «Adolat», 2000
34. «Byudjet tizimi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Xalq so'zi gazetasi, 2000 yil 27 sentabr
35. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni. «Xo'jalik va huquq» 2000 yil. 10-son. 3-bet.
36. «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni. «Xo'jalik va huquq», 2000 yil, 10-son. 6-bet.
37. «Lizing to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni, «Chastnaya sobstvennost'». 2000 yil, 2-son, 7-bet.

## II. Maxsus adabiyotlar.

38. Abdullayev Yo, Qoraliyev T. 100 savol va javob. T., «Mehnat» 1996
39. Ambarsumov A.A. i dr. Ekonomicheskaya teoriya v voprosax i otvetax. Ochebnoye posobiye. Chasti I-II. –M.: Sots.-polit.jumal.Assos «Gurmanitariy» 1996
40. Andreyev B.F. Sistemniy kurs ekonomicheskoy teorii. Mikroekonomika – Makroekonomika, Uchebnoye posobiye, Sankt-Peterburg, Lenizdat, 1998
41. Atkinson E.B. Stalits Dj.E. Leksii po ekonomicheskoy teorii gosudarstvennogo sektora: Uchebnik (Per s ang.) pod red. L. Lyubimova M.: Aspekt Press, 1995
42. Barisov E.F. Ekonomicheskaya teoriya. M.; «Znaniye» Rossii, 1996
43. Bazmer U., Sabov Z. I dr. Osnovi ekonomicheskoy teorii: prinsipi, problemi, politika.



- Germanskiy opit i rossiyskiy put'. —Spb:izd. «Piter», 2000
44. Bartenov S.A. Ekonomicheskiye teorii i shkoli. Kurs leksii. —M.:izd. Bek, 1996
45. Braginskiy S.V., Pevzner Ya. A., Politicheskaya ekonomiya: diskussionniye problemi, puti obnovleniya. M: Misl, 1991
46. Ivashkovskiy S.N. Ekonomika: Mikroo i makroanaliz. Uchebno-prakticheskoye posobiye: M: Delo, 1999
47. Kamayev V.D. Osnovi ekonomicheskoy teorii. M. izd. MGTU im. N.E. Baumana. 1996
48. Kurs ekonomicheskoy teorii. M.; Izdatelstvo «Dis», 1997
49. Kurs ekonomicheskoy teorii. Pod obsh. red. prof. Chepurina M.N., prof. Kiselevoy K.A. Kirov, izd «Asa», 1998
50. Kurs ekonomicheskoy teorii: uchebnik - 4-edopolnennoye i pererabotannoye izdaniye - Kirov: «Asa», 1999
51. Makkonel K., Bryus S.L. «Ekonomiks», T1,2. M.; «Respublika», 1992
52. Marshall A. Prinsipii ekonomicheskoy nauki., T.II. Per.s ang. M., Izd gruppа «Progress» «Univers» 1993
53. Mostovaya Ye.B. Osnovi ekonomicheskoy teorii. Kurs leksii. M.: Infra M. Novosibirsk. NGAEiU, 1997
54. Nosova S.S. Ekonomicheskaya teoriya: Kratkiy kurs. Ucheb. posobiye. M.: Gumanit. Izd sentr Vpados, 2001
55. Nuxovich E. Gumanisticheskiy aspekt ekonomicheskoy teorii. Finan. —ekon. Shkola, Redakcionna-izd. ot del, Moskva 1994
56. Osnovi ekonomicheskoy teorii i praktika rinochnix peform v Rossii.: Uchebnoye posobiye dlya vuzov. M.M. Vagorulno I dr. M.: Izd. kopr. «Logos», 1997
57. Osnovi ekonomicheskoy teorii. Poliekonomiya. Uchebnik dlya vuzov. Pod red. D.D. Moskvina. M.: Editfial URSS. 2001
58. Osnovi ekonomicheskoy teorii: Spravochnik sost. Kurakov L.P. I dr. Chebokrasi: Volgo Vyatskiy vuzam, 1996
59. Prikin B.V. Noveyshaya teoriticheskoye ekonomika. Giperekonomika:

- Uchebnik-M.;Banki i birji, YUNITI, 1998
- 60.Sajina M. A., Chibrikov G.G., Osnovi ekonomicheskoy teorii. Moskva, «Ekonomika-texlit», 1996
- 61.Sajina M. A., Chibrikov G.G., Ekonomicheskaya teoriya.Uchebnik dlya vuzov. M.:izd. gruppya Norm-Infra, 1998
- 62.Radayev V.V., Buzgilina A.V. Ekonomika perexodnogo perioda. M.; 1995
- 63.Fisher S., Dornbush R., Shmalenzi R. Ekonomika. M.; Delo LTD, 1995
- 64.Shodmonov Sh., Jo'rayev T., «Iqtisodiyot nazariyasi» ma'ruza matnlari. T., «DITAF», 2000
- 65.Shodmonov Sh., G'anixoj'jayev F. «Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida, ijtimoiy taktor ishlab chiqarish». T., «Mehnat», 1993
- 66.Shishikin A.F. Ekonomicheskaya teoriya:uchebnoye posobiye dlya VUZOV. 2-ye Izd. V 2KN. KN 1. M:Gumanit.izd Sentr Vlados, 1996
- 67.Ekonomicheskaya teoriya:Uchebnik dlya studentov visshix uchebnix zovediniy. Kol.avt. K. Abdurahmonov I dr. «Sharq»,1999
- 68.Ekonomicheskaya teoriya: Pod.Red. I.P. Nikolayevoy M.:«Prospektniy»,1998
- 69.Ekonomicheskaya teoriya:Uchebnik dlya VUZOV Tret'ye izdaniya Pod.Red A.I.dobrinina i L.S Tarasevicha. Sankt-Peterburg. Izd «Piter»,2000
- 70.Ekonomicheskaya teoriya:(polit ekonomiya) pod.red V.I.Vidyapina i dr. M.; Izd.Ros.e kon. Akad. 2000
- 71.Ekonomicheskaya teoriya:Praktikum pod obsh.red. N.I.Bazileva, L.V.Vorobevoj, Minsk BGEU, 2000
- 72.Ekonomicheskaya teoriya:Ucheb.Posobiya. A.Qodirov i dr. TGTU T., 1999
- 73.Ekonomicheskaya teoriya:Uchebnoye posobiya. Pod.obsh.red. N.N.Solovix. M.: «Talant», 1998
- 74.Ekonomicheskaya teoriya: Pod.Red. N.I.Bizelyeva, S.P. Gurko, Minsk, BGEU 1998
- 75.Ekonomicheskaya teoriya v shkole: Kniga dlya uchitelya. Arxipov I dr. Rostavna-donu, izd. «Feniks», 1996
- 76.Ekonomicheskaya teoriya v voprosax i otvetax. Uchebnoye posobiye. Pod.obsh .red. Belousov V.M.-Rostov n/d: izd. «Feniks», 1998
- 77.Ekonomicheskaya teoriya na proge XXI veka- 2./pod.red. Yu.M Osipova I dr. M.:Yurist 1998
- 78.Yusupov Yu.B Stanovleniye I razvitiye Ekonomicheskoy nauki. Tashkent, 1999.

Бичими 60x841/16. Адади 3<sup>00</sup>Буюртма 199

Тошкент ахборот технологиялари университети  
«ALOQACHI» нашриёт-матбаа марказида чоп этилди.  
Тошкент ш. Амир Темур кучаси, 108-уй

